

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

2026-yil
15 (34)-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

RU

ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

PHILOLOGY AND PEDAGOGY

EN

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL OF
THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

“Filologiya va pedagogika” ilmiy-metodik jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 19-avgustda 360240-raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

2026-yil
15 (34)-son

e-ISSN 3060-4885

MAS'UL MUHARRIR
Nargiza Sotvoldiyeva

MUHARRIRLAR:
Shahobiddin Rasulov
Najmiddin Ermatov
Emma Torosyan
Shaxina Muxamedjanova

SAHIFALOVCHI
Ziyoda Komilova

Tahririyat manzili:
100011, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar
@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 28.08.2026 da nashr etildi.

MUASSIS
O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi
"Til va adabiyot ta'limi"
davlat korxonasi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

TAHRIR HAY'ATI:

10.00.00 – FILOLOGIYA

E'zozxon Karimova
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri
Farhod Boqiyev
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari
Azizbek Turdiyev
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari
Farrux Jabborov
"Til va adabiyot ta'limi" – "Преподавание языка и литературы" – "Language and literature teaching" jurnali bosh muharriri
Baxtiyor Mengliyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, filologiya fanlari doktori
Baxtiyor Doniyorov
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali professori, filologiya fanlari doktori
Anatoliy Lixodziyevskiy
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Oksana Gibraltarskaya
O'zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Sherzod Atamuradov
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Mohichexra Boltayeva
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti, pedagogika fanlari doktori
Muxtarbay Kurbanov
Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Anvar Bo'ronov
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Dilmurod Teshaboyev
Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim uslubiyati kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Gulhida Ikromova
Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim uslubiyati kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Aziza Axmedova
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi
Iroda Nasimova
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Ma'suma Mo'minova
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsent v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo'ldoshev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
G'ofir Hamroyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori
Xadicha Muxitdinova
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
Gulnora Mansurova
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori
Sevara Ziyayeva
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Indira Narkulova
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Abduvali Daminov
O'zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti huquqiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
Gulnoza Uzokova
Qarshi davlat universiteti professori, pedagogika fanlari nomzodi
Lola Akramova
Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'zbek tili va xorijiy tillar, pedagogika kafedrasi dotsenti
Zulfiya Ortiqova
Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim uslubiyati kafedrasi katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Pulotjon Qaxorov
Samarqand davlat universitetining Urgut filiali dotsenti
Dilafruz Asqarova
Farg'ona davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Svetlana Umirova. O'xshatish modellarini korpus asosida aniqlash (Usmon Azim ijodi misolida) 4
Diyora Fayzullayeva. Tarixiy voqelik tasvirida badiiy mahorat va uslub masalalari 7
Yulduz Mustafayeva. O'zbek nasrida badiiy psixologizm genezisi va taraqqiyot tamoyillari 9
Maftuna Rahimova. Sintaksisda mantiqiy strukturalarning voqelanishi 11
Sarvinoz Mardonova. O'zbek tilida leksik birliklarning ma'no taraqqiyoti va semantik o'zgarishlar 14
Komila Saydjanova. Fransuz va o'zbek tillari dialogik diskursida antonimlarning kommunikativ-pragmatik funksiyalari 16
Nigora Shadmanova. Rus va o'zbek tillarida nutq odob-axloqining milliy-madaniy xususiyatlari 18
Oydinoy Turayeva. Ingliz maqollarining strukturaviy va semantik xususiyatlari: kognitiv-pragmatik tahlil 20
Икбола Абдуллаева. Филологические аспекты аксиологии человеческой жизни в книге А.П.Чехова «Остров Сахалин» 22
Нигора Абдурашитова. Историко-культурные истоки и эволюция образа женщины-воительницы в восточных дастанах 25
Шахноза Адилова. Художественная специфика «массовой литературы» 28
Нафиса Матчанова. Метафорические средства в лексико-семантической организации романа Г.Яхиной «Зулейха открывает глаза» 30
Дильбар Расулова. Многокомпонентная стилистическая конвергенция как средство репрезентации субъективного сознания в «Романе с жертвой» И.Абузярова 32
Отабек Усмонов. Косвенные речевые акты как объект современной прагмалингвистики 35
Darmonoy O'rayeva, Nilufar Narzullayeva. "Qon" va "suyak" tushunchalarining badiiy-falsafiy talqin asoslari 37
Mirzohid Muhammadaliyev. Kombayn poreyonimlarining leksik-semantik va nominativ tasnifi 40
Elbek Kurbanov. Sud lingvistik ekspertizasi: haqorat kontekstida implitsit ma'lumotlarni aniqlash mexanizmlari 42
Po'lotshoh Bobokalonov. Nutq buzilishi va nutq izolatsiyasining neyropsixolingvistik modeli 45
Ulbosin Ametova. Xorazm epik she'riyatining shakllanishi va uning nazariy asoslari 47
Nigora Mahmudova. The Concept of Derivation and the Stages of its Development in Linguistics 49
Mubina Mansurova, Surayyo Abidjonova. Modern Linguistics and Culture. Digital English: How Gaming and Social Media Shape Youth Slang 51
Diyora Shamshiyeva. Erkin A'zam asarlaridagi genderga xos murojaat birliklarining lingvopragmatik xususiyatlari 53
Barno Ergasheva. Frans Kafkaning "Qal'a" romanida oneyrik poetika: tush mantig'i va badiiy voqelik 56
Lola Avliyoqulova. Onkologiya sohasidagi tibbiy atamalarning struktur-semantik tahlili 59
Shahlo Sa'dullayeva. O'qituvchi obrazi arxetip sifatida (o'zbek va turk nasrlari misolida) 61
Gulasal Xayrulloyeva. Turli diskurslarda modallikning funksional-pragmatik xususiyatlari 64
Dilorom Yusupova. Arab tilidagi so'roq gaplarning yoritilishi: zamonaviy tilshunoslarning qarashlari 66
Санобар Уллиева. Роль фонетических языковых единиц в создании художественного образа 69
Яшин Нишанов. Субконцепт мудрость как составная часть концепта старость 71
Xilola Fazullayeva. Raqamli media muhitida infoteynment fenomeni: jurnalistik etika va transformatsiya jarayonlari 73
Nilufar Ibragimova. Alisher Navoiy musaddasida irfoniy-falsafiy tafakkur va uning badiiy ifodasi 75
Sadinura Ruzimurodova. O'zbek adabiy tili va qipchoq lahjasida konsonant alternatsiya hodisasining ortologik talqini 78
Mashxuraxon Burxanova. Tilning perseptual va konseptual paradigmasi 80
Dilfuza Avazova. Mushtarak obrazlar tahlili (Alisher Navoiy, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat va Abdulla Oripov ijodi misolida) 82
Yashin Azizov. O'zbek tilida metateza jarayoni: fonologik tadqiqot 84
Nursulton Eshmonov. Qarindoshlik atamalari tizimida etnolingvistik omillar 87
Gulxayo Osomiddinova. Mashrab obrazining diniy-tasavufiy talqini 91
Aziza Navro'zova. Realiyalarni tasniflashning lingvokulturologik muammosi 94
Olima Safarova. Farmatsevtik terminologiya va diskurs: lingvistik, semantik va kommunikativ xususiyatlar 97
Jasmina Axmedova. Buyuk Britaniyada ayollar matbuotining vujudga kelish zarurati 99
Surayo Akramova. Badiiy matnda lokutiv qatlamning poetik semantikani shakllantirishdagi o'rni (Jamol Kamol she'riyati misolida) 101
Intizor Umarova. Intermatnlilikni shakllantiruvchi vositalar: allyuziya, pretsedentli onimlar va kinoya 104
Iqbola Jahongirova. Ijtimoiy media diskursida multimodal dezinformatsiyaning lingvopragmatik xususiyatlari 106
Dildora Ibrogimova. Frazeologizmlarning dramalarda qo'llanishi va uning badiiyatga ta'siri 108
R.Kudiyarova. Saylovboy Jumag'ulov asarlarida foydalanilgan folklor obrazlar 112
Rayhona Raxmatova. Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida qahramonlar taqdiri 114

Feruza Raxmonberdiyeva. Ingliz va o'zbek tillarida tashqi qiyofa va xarakterni ifodalovchi frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari ... 117
Bunyodbek Sotvoldiyev. Hakerlar va kiberxavfsizlik sohasiga oid sleng birliklarining lingvistik xususiyatlari ... 119
Surayyo Akramova. Jamol Kamol she'riyatida til shaxsiyati va muallif pozitsiyasining ifodalanishi ... 121
Ma'mura Narziyeva. Abdulla Oripov she'riyatining lingvokulturologik xususiyatlari ... 123
Dilnavoz Yusupova. Ta'lim tizimida Alisher Navoiy g'azallarini sharhlash ... 125
Anora Hikmatova. Erkin A'zamning "Chapaklar va chalpaklar" asarida etnomadaniy kodlar va estetik modusning lingvopoetik hamda lingvomadaniy tadqiqi ... 128
Anvar Jo'rayev. "Roqim devoni" matnining shakllanish tarixi: qo'lyozma va bayoz manbalari munosabati ... 130
Gulchehra Mustafayeva. Ingliz va o'zbek tillaridagi go'zallik bilan bog'liq o'xshatishlar: o'ziga xoslik va umumiylik ... 132
Nodira Sayfiddinova. O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanida retrospektiv usulning ahamiyati ... 134
Surayyoxon Ibroximova. Futuvvatnomalarning janriy xususiyatlari: shakl, mazmun va poetika ... 136
Dilafruz Xaydarova. Ispan diplomatik terminologiyasining o'zbek va rus tillariga tarjimasida kommunikativ-pragmatik moslashuv ... 139
Shahlo Xasanova. Harbiy diskursda buyruq va murojaat strategiyalarining pragmatik xususiyatlari ... 142
Sultonposhsho Sotiboldiyeva. Yangi O'zbekiston obrazining xalqaro media matnlarida shakllanishi: lingvistik va kommunikativ xususiyatlar ... 144
Dilora Pardayeva. Ingliz va o'zbek maqol hamda matallarida ambivalent mazmunning voqelanishi ... 147
Surayyo Jo'rayeva. Koinot, tabiat va inson: Isajon Sulton nasrida ilohiy yaratilish va borliq harakati ... 150
Fakhriddin Yarmanov. Analyse comparative des unités phraséologiques en français et en ouzbek ... 152
Laziza Xudayberdiyeva. Nutqiy yetishmovchiliklar: duduqlanish va unung sabablari ... 156
Yulduz Nafasova. O'zbek tilida presuppozitsiya turlarining tasnifi va ifodalanish vositalari tadqiqi ... 160
Nilufarxon Maxmudova. O'zbek xalq topishmoqlarida antropomorf metaforalarning voqelanishi ... 162
Fotima Ismoilova. Isajon Sultonning tarixiy roman yaratishdagi ijodiy mahorati ... 164
Nodira Qurbonova, Maftuna XAmdamova. Recurrent Themes and Stylistic Strategies in the Fiction of Joyce Carol Oates ... 167
Svetlana Umirova. Usmon Azim mualliflik korpusi uchun ekstralingvistik teglar modelini ishlab chiqish masalasi ... 170
Sarvinoz Umirova. Linguistic Innovations in Youth Language on Social Media: a Paralinguistic Perspective ... 175
Gulshoda Avloyorova. Milliy mentalitet va bolalar adabiyoti estetikasi: G'arb va Sharq paradigmalarining qiyosiy tahlili ... 178
Nilufar Ko'chimova. BMT nutqlarida "tinchlik" konseptining lingvopragmatik reprezentatsiyasi ... 181
Diyora Abdujalilova. Odob-axloq masalasi Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijoli talqinida ... 182

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Madina Abduqodirova. Adabiyot darslarida sinf o'quv jarayonini boshqarish kompetensiyasining nazariy-metodik asoslari ... 188
Мадина Исмагилова. Методические основы предупреждения интерференционных ошибок при изучении категории числа русского языка в узбекской школе ... 190
Шахризода Келдиёрова, Мохларойим Келдиёрова. Генеративный искусственный интеллект и иллюзия компетентности в обучении английскому языку: проблема подмены самостоятельной учебно-познавательной деятельности студентов ... 193
Матлуба Мирханова. Функционально-коммуникативный подход к изучению сложноподчинённых предложений на уроках русского языка ... 195
Муштарийбону Ахмедова. Эффективные формы организации уроков рки в классах с узбекским языком обучения в начальной школе ... 197
Diyora Baxramova. Pedagogical and Methodological Features of Developing Sociolinguistic Competence of Higher Education Students ... 200
Lutfiya Erkinova. Tpack and PBL as Modern and Effective Tools to Implement in Teaching ... 204
laylo odilova. Irony and Sarcasm in Uzbek and English Literary Discourse: a Comparative Pragmatic and Stylistic Study ... 206
Sayyora Islomkhodjayeva. Promoting English Language Development in Military Higher Education Through Blended Instruction ... 209
Solijon Azizov. Uch komponent – bir maqsad: blended ta'lim yozuv kompetensiyasini takomillashtirishning yangi modeli ... 214
Nigora Saidova. Neyropedagogik texnologiyalar asosida bo'lajak tarbiyachilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi ... 218
Dilsora Shodmonova. Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida sog'lom turmush tarzi kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik mohiyati ... 221
Nargiza Musulmanova. Elektron ta'lim resurslari asosida talabalar nutqiy savodxonligini o'quv jarayoniga integratsiya qilish ... 223
Dilobar Qayumova. The Role of Audio Dictionaries in Developing Pronunciation Competence ... 228
Muazzam Otabaeva. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasbiy qiziqishlarni shakllantirishning ilmiy-nazariy va pedagogik asoslari ... 230
Ulug'bek Yunusov. O'smirlarda qadriyatlar shakllanishining psixo-pedagogik xususiyatlari ... 232

Svetlana UMIROVA,
Samarqand davlat universiteti dotsenti

O'XSHATISH MODELLARINI KORPUS ASOSIDA ANIQLASH (Usmon Azim ijodi misolida)

Annotatsiya. Muallif idiostilini tavsiflashda o'xshatishning mavjudligi emas, qiyos uchun qanday etalon tanlangani va subyekt bilan qanday semantik aloqa hosil qilgani ahamiyatli. Umumlisoniy va badiiy nutqda barqarorlashgan o'xshatishlarda subyekt hamda etalon munosabati oldindan anglashiladigan assotsiatsiyaga asoslanadi. Mazkur maqolada o'xshatish modellarini korpus asosida aniqlash masalasi xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: mualliflik korpusi, individual uslub, o'xshatish, o'xshatish modeli, o'xshatish etaloni, dominant o'xshatish.

Annotation. When describing an author's idiostyle, the significance lies not in the mere presence of a simile, but in the choice of the standard (etalon) for comparison and the semantic connection formed with the subject. In both universal and artistic discourse, standardized similes rely on predictable associations between the subject and the standard. This article analyzes the identification of simile models based on a corpus. The research demonstrates that a parallel corpus-based analysis of epithets and similes serves to determine the author's imagery, closely linked semantic fields, and regularly repeated associative models. These recurrent conceptual relationships are evaluated as stable corpus indicators of Usman Azim's individual poetic thinking.

Keywords: author's corpus, individual style, simile, simile model, simile standard, dominant simile.

Аннотация. При описании идиостиля автора важно не само наличие сравнения, а то, какой эталон выбран для сопоставления и какая семантическая связь установлена с субъектом. В общеязыковой и художественной речи отношения между субъектом и эталоном в устойчивых сравнениях основаны на предсказуемых ассоциациях. В данной статье анализируется вопрос выявления моделей сравнения на корпусной основе. Исследование показывает, что параллельный корпусный анализ эпитетов и сравнений позволяет определить выбор образов автором, тесно сближаемые семантические поля и регулярно повторяющиеся ассоциативные модели. Эти повторяющиеся концептуальные отношения оцениваются как устойчивые корпусные показатели индивидуального поэтического мышления Усмана Азима.

Ключевые слова: авторский корпус, индивидуальный стиль, сравнение, модель сравнения, эталон сравнения, доминантное сравнение.

Dominant o'xshatish modellarini korpus asosida aniqlash. Mualliflik korpusida bir xil semantik yo'nalishga mansub o'xshatishlarning takroriy qo'llanishi individual obraz yaratish mexanizmlarini aniqlash uchun muhim ko'rsatkichdir. Bunda o'xshatishlarning tashqi leksik tarkibi turlicha bo'lishi mumkin, biroq subyekt va etalon o'rtasidagi konseptual munosabat umumiy modelga birlashadi. Shu sababli dominant o'xshatish modeli o'xshash so'zlarning takrori emas, semantik munosabatning korpusdagi takroriyligi asosida belgilanadi. Masalan, insonning ruhiy kechinmasi ***daryo, shamol, yomg'ir, dengiz*** kabi tabiat obrazlari bilan qiyoslansa, etalonlar leksik jihatdan farqlansa-da, ular ruhiy holat – tabiat umumiy modeli doirasida birlashadi. Shuningdek, dunyo, taqdir, umr yoki hayotning ***tosh, devor, yuk, yo'l*** kabi konkret obyektlar orqali tavsiflanishi mavhum tushuncha – predmet/makon yo'nalishini yuzaga keltiradi.

Korpus asosida yarimavtomatik shakllantirilgan epitetlar lug'ati asosidagi tahlil Usmon Azim poetikasida aniq belgi va obrazlarning mavhum hamda ruhiy mazmunni ifodalashdagi faolligini ko'rsatgan edi. O'xshatish modellarini aniqlash ushbu xususiyatning boshqa lingvopoetik vositada qanday reallashishini tekshirishga asos bo'ladi. Agar epitet va o'xshatishlarda bir xil manba semantik maydonlar muntazam faollashsa, bu holat muallif idiostilining umumiy obrazli-semantik qonuniyati sifatida baholanishi mumkin.

Shu bois keyingi tahlilda o'xshatishlarni inson – tabiat, ruhiy holat – tabiat, abstrakt tushuncha – predmet, inson – hayvonot, mavjudlik – makon, hissiyot – rang yoki yorug'lik obrazi kabi semantik modellar asosida guruhlash maqsadga muvofiq. Mazkur guruhlash Usmon Azimning qiyosiy obraz yaratish tizimida qaysi yo'nalishlar dominant ekanini korpus ma'lumotlari asosida aniqlashga xizmat qiladi (1-chizma).



1-chizma. O'xshatishlarni semantik modellar asosida guruhlash

Dominant o'xshatish modellarini aniqlashda subyekt va etalonning semantik mansubligi asosiy mezon sifatida olinadi. Bunda alohida o'xshatish qurilmalari yuqori darajadagi semantik munosabatlar asosida umumlashtiriladi: leksik tarkibi turlicha bo'lgan birliklarning bir xil obraz yaratish mexanizmiga mansubligi aniqlanadi.

Usmon Azim poetik tafakkurida tabiat obrazlarining qiyos etaloni sifatidagi faolligi alohida ahamiyat kasb etadi. ***Daryo, shamol, yomg'ir, osmon, dengiz, gul, daraxt*** kabi birliklar real tabiat obyektlarini ifodalash bilan birga, insonning ruhiy holati, kechinmasi va hayotiy jarayonlarini obrazlashtirish uchun ham xizmat qiladi. Bunday o'xshatishlarda tabiat inson ichki olamini tavsiflovchi semantik manbaga aylanadi. Shu asosda ruhiy holat – tabiat va inson – tabiat modellari ajratiladi.

Mazkur model epitetlar tizimida kuzatilgan semantik jarayonlar bilan mushtaraklik kasb etadi. ***Sovuq g'azab, gullagan yurak, yam-yashil tuyg'u, oq olam*** kabi epitetik birikmalarda tabiat va sezgi bilan bog'liq belgilar ruhiy hamda mavhum tushunchalarga ko'chirilgan. O'xshatishlarda esa ayni munosabat etalon vositasida yuzaga keladi. Demak, epitet va o'xshatishning grammatik qurilishi farqli bo'lsa-da, ularning obraz yaratishida umumiy semantik manba maydonlari faol qatnashadi.

Korpus tahlilida mavhum tushunchalarning konkret predmetlar orqali obrazlashtirilishi ham alohida model sifatida qaraladi. Dunyo, hayot, umr, taqdir, ayriliq, armon kabi mavhum tushunchalar fizik xususiyatga ega predmetlar bilan qiyoslanganda ularning idrok etilishi konkretlashadi. Predmetning og'irligi, qattiqligi, sinuvchanligi, chegarasi yoki shakli abstrakt tushunchaning muayyan belgisini ochib beruvchi qiyos asosiga aylanadi. Mazkur munosabat abstrakt tushuncha – predmet modeli orqali ifodalanadi.

Masalan, epitetlar lug'atida kuzatilgan ***og'ir taqdir, tosh dunyo, tubsiz dunyo, siniq hayot*** tipidagi birliklar mavhum tushunchalarning fizik belgilar orqali tavsiflanishini ko'rsatadi. O'xshatishlarda ham taqdirning yukka, dunyoning tosh yoki boshqa konkret obyektga, umrning yo'lga qiyoslanishi ayni konseptual mexanizmga asoslanadi. Bu yerda predmet qiyos etaloni sifatida abstrakt tushunchaga sezgi orqali idrok etiladigan xususiyat beradi.

Usmon Azim poetikasida *yo'l* obrazi bilan bog'liq qiyosiy munosabatlar mavjudlik va vaqt tushunchalarini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yo'lning boshlanish, davom etish, burilish va yakunlanish xususiyatlari hayot yoki umr jarayonini obrazlashtirish uchun qulay semantik asos yaratadi. Shu jihatdan mavjudlik – makon/harakat modeli muallifning mavhum jarayonni fazoviy tasavvur orqali ifodalash usullaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Hayvonot olamiga mansub birliklarning etalon vazifasida qo'llanishi esa asosan, insonning xatti-harakati, ruhiy holati yoki ijtimoiy xususiyatini tavsiflashga xizmat qiladi. Hayvon yoki qushga xos harakat, tashqi belgi va xulqiy xususiyat inson obraziga ko'chiriladi. Bunday konstruksiyalar inson – hayvonot qiyosiy modelini yuzaga keltiradi. Mazkur modelda etalon tanlovi muallifning inson xarakteridagi qaysi belgini poetik jihatdan ajratib ko'rsatishini aniqlaydi.

Ayniqsa, *qush* obrazi erkinlik, parvoz, yuksalish yoki tutqunlik bilan bog'liq kontekstlarda ko'p qatlamli semantik imkoniyatga ega. Epitet tahlilida konkret tabiat birliklarining mavhum mazmun kasb etishi kuzatilganidek, o'xshatishlarda ham qush etaloni insonning jismoniy xususiyatidan ko'ra uning ruhiy holati yoki mavjudlik tarzini tavsiflashga xizmat qilishi mumkin. Bunday holatlarda qiyos asosi etalonning bevosita biologik belgisi emas, uning madaniy va poetik assotsiatsiyalari bilan belgilanadi.

Shu jihatdan o'xshatish etalonlari ikki guruhga ajratiladi:

1) bevosita belgi asosidagi etalonlar;

2) assotsiativ-ramziy etalonlar [1: 144].

Birinchi guruhda qiyos etalonning real xususiyatiga asoslanadi. Masalan, *tosh* qattiqlik, muz sovuqlik, dengiz kenglik yoki chuqurlik belgisi asosida tanlanadi. Ikkinchi guruhda esa etalon muayyan poetik yoki madaniy assotsiatsiyani faollashtiradi. *Qush* erkinlik, yo'l hayot jarayoni, tun yolg'izlik yoki noaniqlik mazmunini yuzaga chiqarishi mumkin.

1-jadval. Usmon Azim o'xshatishlarining asosiy semantik modellari

Semantik model	Qiyosiy munosabat	Obraz yaratish xususiyati
ruhiy holat – tabiat	Kechinma tabiat obrazi orqali ifodalanadi.	ruhiyatni konkretlashtirish
inson – tabiat	Inson tabiiy obyekt yoki hodisaga qiyoslanadi.	inson va tabiat uyg'unligi
abstrakt tushuncha – predmet	Mavhum mazmun konkret obyekt orqali beriladi.	mavhumlikni predmetlashtirish
mavjudlik – makon/ harakat	Hayot va umr fazoviy jarayon orqali ifodalanadi.	mavjudlikni dinamik tasvirlash
inson – hayvonot	Inson hayvon yoki qushga qiyoslanadi.	xarakter va holatni obrazlashtirish
hissiyot – yorug'lik/ rang	Kechinma optik belgi orqali ifodalanadi.	hissiy mazmunni vizuallashtirish
abstrakt tushuncha – tabiat	Mavhum tushuncha tabiiy hodisaga qiyoslanadi.	falsafiy mazmunni konkretlashtirish

1-jadvalda ajratilgan semantik modellar qiyos uchun tanlangan etalonlarning tasodifiy emasligini ko'rsatadi. Ular muallifning mavhum mazmunni aniqlashtirish, ruhiy kechinmani tabiat bilan bog'lash va inson xususiyatlarini boshqa mavjudotlar orqali ochib berishga asoslangan obrazli tafakkur yo'nalishlarini aks ettiradi.

O'xshatish modellarini epitetik modellar bilan qiyoslash Usmon Azim idiostilining umumiy semantik mexanizmlarini aniqlashga asos bo'ladi. Epitetlar tahlilida vazn – ruhiyat, harorat – munosabat, makon – ichki olam, o'simlik – hissiyot kabi yo'nalishlar ajratilgan edi. O'xshatishlarda esa ayni semantik maydonlar subyekt va etalon munosabati orqali namoyon bo'ladi. Bu holat muallifning turli tasviriy vositalardan foydalanishida yagona konseptual-assotsiativ tizim mavjudligini ko'rsatadi.

Shu sababli Usmon Azim idiostilini tadqiq etishda epitet va o'xshatishni mutlaqo alohida poetik hodisalar sifatida o'rganish yetarli emas. Ularning formal tuzilishi turlicha bo'lsa-da, obraz tanlash, semantik maydonlarni o'zaro bog'lash va mavhum tushunchalarni konkretlashtirish tamoyillarida mushtaraklik mavjud. Korpus ma'lumotlari aynan shu takroriy munosabatlarni aniqlash va ularni miqdoriy ko'rsatkichlar bilan asoslaydi.

O'xshatishlarning individual-mualliflik xususiyatini aniqlash. Muallif idiostilini tavsiflashda o'xshatishning mavjudligi emas, qiyos uchun qanday etalon tanlangani va subyekt bilan qanday semantik aloqa hosil qilgani ahamiyatli. Umumlisoniy va badiiy nutqda barqarorlashgan o'xshatishlarda subyekt hamda etalon munosabati oldindan anglashiladigan assotsiatsiyaga asoslanadi. Individual-mualliflik o'xshatishlarida esa semantik jihatdan uzoq tushunchalar o'rtasida yangi qiyosiy aloqa shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, individual o'xshatishni aniqlashda etalonning noodatiyligi, subyekt va etalon o'rtasidagi semantik masofa, qiyos asosining kontekstual xususiyati hamda obraz yangiligi asosiy mezon sifatida olinadi. Bunday yondashuv epitetlarni umumtil va individual-mualliflik birliklariga ajratishda qo'llangan mezonlarning mantiqiy davomidir. Korpus asosida individual o'xshatishni aniqlash jarayoni marker – konstruksiya – subyekt va etalon – semantik masofa – qiyos asosi – kontekstual obrazlilik ketma-ketligida amalga oshiriladi. Natijada, o'xshatish faqat formal ko'rsatkichi asosida emas, uning muallif poetik tafakkuridagi yangilik darajasiga ko'ra baholanadi.

Ayniqsa, epitetlar lug'atida qayd etilgan ***ajdarho dunyo, yig'loq dunyo, yam-yashil tuyg'u, moviy erkinlik, qop-qora jimlik*** kabi noodatiy semantik aloqalar Usmon Azimning qiyosiy tafakkurini o'rganishda ham muhim yo'nalishni belgilaydi. Bunday birliklarda kuzatilgan semantik masofa o'xshatishlarda etalon tanlashning individual xususiyatlarini aniqlash uchun qiyosiy mezon vazifasini bajaradi.

Demak, epitetlar va o'xshatishlarning korpus asosidagi parallel tahlili muallifning qaysi obrazlarni tanlashi, qaysi semantik maydonlarni o'zaro yaqinlashtirishi va qanday assotsiativ modellarni muntazam takrorlashini aniqlashga asos bo'ladi. Aynan shu takroriy konseptual munosabatlar Usmon Azim individual poetik tafakkurining barqaror korpus ko'rsatkichlari sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Glucksberg, S. Understanding Figurative Language: From Metaphors to Idioms. – Oxford: Oxford University Press, 2001.
2. Usmon Azim. She'rlar & Kitoblar & Shoir bilan suhbat. https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/usmon-azim-sherlar-kitoblar-suhbat.html.

Diyora FAYZULLAYEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

TARIXIY VOQELIK TASVIRIDA BADIIY MAHORAT VA USLUB MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarixiy voqelikni badiiy talqin qilish va muallif uslubining o'ziga xos xususiyatlari Ollomurod Annaboy o'g'lining "O'g'uz, Alanquva va Shayboniynoma", Mirzo Muhammad Haydar Dulatning "Tarixi Rashidiy" hamda Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asarlari misolida qiyosiy-tarixiy jihatdan o'rganilgan. Tadqiqotda tarixiy haqiqat va badiiy to'qima nisbati, mifologik obrazlarning (O'g'uzxon va Alanquva) geneologik-estetik vazifalari hamda Muhammad Shayboniyxon obrazining turli manbalardagi talqinlari tahlil qilingan. Shuningdek, tarixiy-badiiy asarlarda muallif shaxsiy pozitsiyasi, g'oyaviy-estetik maqsad va ijodiy uslubning voqelikni yoritishdagi roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy voqelik, badiiy mahorat, individual uslub, "Shayboniynoma", "Tarixi Rashidiy", mifologik obrazlar, Shayboniyxon, badiiy talqin.

Annotation. This article comparatively examines the artistic interpretation of historical reality and the distinct features of authorial style based on Ollomurod Annaboy o'g'li's "Oghuz, Alanqo'va, and Shaybani-nama", Mirzo Muhammad Haydar Dughlat's "Tarikh-i-Rashidi", and Muhammad Salih's "Shaybani-nama". The study analyzes the correlation between historical truth and artistic fiction, the genealogical and aesthetic functions of mythological figures (Oghuz Khan and Alan Qo'a), and the diverse portrayals of Muhammad Shaybani Khan across different sources. Furthermore, the paper highlights the role of the author's subjective stance, ideological-aesthetic purpose, and creative style in illuminating historical reality.

Keywords: historical reality, artistic craftsmanship, individual style, "Shaybani-nama", "Tarikh-i-Rashidi", mythological images, Shaybani Khan, artistic interpretation.

Аннотация. В статье на основе сравнительно-исторического анализа исследуются художественная интерпретация исторической действительности и особенности авторского стиля на примере произведений Олломурода Аннабой оглы «Огуз, Аланкува и Шейбанинаме», Мирзы Мухаммада Хайдара Дулати «Тарихи Рашиди» и Мухаммада Салиха «Шейбанинаме». В исследовании проанализированы соотношение исторической правды и художественного вымысла, генеалогические и эстетические функции мифологических образов (Огуз-хана и Аланкувы), а также интерпретация образа Мухаммада Шейбани-хана в различных источниках. Кроме того, раскрыта роль личной позиции автора, идейно-эстетических целей и творческого стиля в освещении действительности в историко-художественных произведениях.

Ключевые слова: историческая действительность, художественное мастерство, индивидуальный стиль, «Шайбани-наме», «Тарих-и Рашиди», мифологические образы, Шайбани-хан, художественная интерпретация.

Tarix va adabiyot bir-biriga uzviy bog'liq. Ular doimiy ravishda biri ikkinchisini to'ldirib keladi. Tarix ma'lum makon va zamon, tarixiy shaxslar hayoti bilan bog'liq voqealarni real tarzda bayon etsa, badiiy adabiyot muayyan tarixiy hodisa yoki shaxslar kechmishini badiiy jihatdan sayqallab, unga estetik ko'rinish beradi. Tarixiy asarlarda voqelikni aks ettirish masalasi adabiyotshunoslikning eng muhim va murakkab muammolaridan biridir. Chunki tarixiy voqelik real hodisalar majmui bo'lsa, badiiy asar ushbu voqelikning muallif tafakkuri orqali qayta ishlangan, estetik shaklga keltirilgan ko'rinishidir. Shu bois tarixiy haqiqat va badiiy haqiqat o'rtasida doimo ma'lum darajada tafovut mavjud bo'ladi. Ijodkor o'z asarida o'xshatishlar, mubolag'alardan istalganicha foydalanishi mumkin va natijada asar voqealarining o'quvchi ongiga ta'sir kuchi bir necha barobar oshadi, tarixiy shaxs obraziga nisbatan ijobiy yoki salbiy fikr shakllanishiga sabab bo'ladi.

Tarixiy adabiyotda O'g'uzxon va Alanquva obrazlari alohida o'rin tutadi. Bu obrazlar sof tarixiy shaxs sifatida emas, balki mifologik-tarixiy obrazlar sifatida shakllangan. O'g'uzxon obrazi turkiy xalqlarning qadimiy mifologik qahramoni, ideal hukmdor, sarkarda va turkiylarni birlashtirgan ulug' hukmdor sifatida tasvirlanadi. Bu obraz "Shajarayi turk" hamda "Jome ut-tavorix" kabi tarixiy asarlarda tarixiylashtirilgan shaklda uchraydi. Olim Bahtiyor Isabek nashrga tayyorlagan "O'g'uzxon" dostonida u butkul badiiy mifologik obraz sifatida berilgan. Alanquva esa ko'proq genealogik-mifologik obraz bo'lib, mo'g'ul va turkiy sulolalar kelib chiqishini asoslashda muhim rol o'ynaydi. U orqali sulolaning ilohiyligi va pokligi g'oyasi ilgari suriladi.

Demak, bu obrazlar misolida tarixiy voqelik emas, balki uzoq asrlar davomida shakllanib kelgan, xalqning milliy o'tmishini o'zida jamlagan obrazlar badiiy shaklda ifodalanadi. O'g'uzxon obrazi badiiy jihatdan mukammal ishlangan epik qahramon sifatida namoyon bo'ladi. Alanquva obrazi tarixiy voqelikdan ko'ra genealogik mif sifatida muhimdir. U mo'g'ul hukmdorlarining ilohiy kelib chiqishini asoslash uchun yaratilgan. Alanquva otasiz homilador bo'lib, uning farzandlari ilohiy nur orqali dunyoga keladi. U oddiy ayol emas, balki tanlangan, ilohiy marhamatga sazovor shaxs sifatida tasvirlanadi. Yuqorida aytganimizdek, O'g'uzxon ham, Alanquva ham tarixiydan ko'ra afsonaviy obrazlar bo'lganligi sababli tarixiy asarlarda ijodkorlarning deyarli barchasi ushbu obrazlarga badiiy jihatdan yondashib, ularni ideallashtirgan.

Tarixiy-nasriy asarlarda real shaxslar obrazini tasvirlash birmuncha farq qiladi. Shunday obrazlardan biri Muhammad Shayboniyxondir. Tadqiqotimiz obyekti bo'lgan "O'g'uz, Alanquva va Shayboniynoma" asarida ham Shayboniyxon asosiy o'rin tutadi. Bundan tashqari, Shayboniyxonga bag'ishlangan Muhammad Solihning "Shayboniynoma" badiiy-tarixiy asari, Binoiyning "Shayboniynoma"si, Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asarlari ham mavjud. Yuqoridagi asarlarning har birida Shayboniyxon obraziga turlicha yondashilgan. Tarixiy faktlar bir xil, ammo yondashuv har xil. Bu hodisa esa tarixiy voqelik tasvirida badiiy mahorat va uslub masalalari har bir ijodkorda individual hodisa ekanini ko'rsatadi.

Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asarida tarixiy voqelik to'liq hujjat sifatida emas, balki badiiy talqin asosida beriladi. Asarda Shayboniyxon davriga oid siyosiy voqealar, harbiy yurishlar, sulolaviy kurashlar tasvirlanar ekan, muallif ularni faqat bayon qilibgina qolmay, balki muayyan g'oyaviy-estetik maqsad asosida qayta talqin etadi. Muallif voqealarni dramatiklashtiradi, obrazlarni ideallashtiradi yoki muayyan ma'noda tipiklashtiradi. Shu jihatdan qaraganda, tarixiy

asar – tarixiy fakt va badiiy fantaziya sintezidir. Muhammad Solih asarida tarixiy voqealarni tanlab beradi. Muallif barcha voqealarni emas, balki o'z g'oyasiga xizmat qiladigan epizodlarni ajratib oladi. Bu esa asarning kompozitsion yaxlitligini ta'minlaydi.

Voqealar ko'pincha dramatik ruhda tasvirlanadi. Harbiy to'qnashuvlar, siyosiy qarorlar, shaxsiy munosabatlar keskinlik bilan beriladi. Bu esa o'quvchida estetik ta'sir kuchini oshiradi. Bundan tashqari, tarixiy voqelik ideallashtirish orqali qayta yaratiladi. Shayboniyxon obrazi ko'pincha kuchli, dono, adolatparvar hukmdor sifatida talqin qilinadi.

Ul xazratning xilmining xikoyatidur

Xilm ila kuxi garonsangdur ul,
Soxibi donishu farxangdur ul.
Xilm birlaki namoyon buldi,
Soniyi xazrati Usmon buldi [1: 28].

Asarda muallifning pozitsiyasi aniq seziladi. U Shayboniyxon faoliyatini ijobiy baholaydi va uni ideal hukmdor sifatida ko'rsatadi. Muhammad Solihning Shayboniyxonga bu qadar ihlos qo'yishiga, uni ko'klarga ko'tarishiga esa Temuriylarga bo'lgan adovati ham katta rol o'ynaydi. Bu esa asarning g'oyaviy yo'nalishini belgilaydi. Mana shu sabablar tufayli bu asarda tarixiy xolislik biroz buzilgan deyishimiz mumkin. Muallif voqealarni tanlash, baholash va talqin qilish orqali o'z qarashlarini ifodalaydi. Shu jihatdan asar, faqat tarixiy emas, balki ideologik xarakterga ham ega. "Shayboniynoma"da tarixiylik va badiiylik o'zaro uyg'unlashgan.

Shayboniyxon obrazini tarixiy jihatdan haqqoniy yoritgan muhim manbalardan biri Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asaridir. "Tarixi Rashidiy" kitobi Mirzo Muhammad Haydar ko'ragon ibn Muhammad Husayn ko'ragonning asari bo'lib, uni hijriy 951 yili Abdurashidxon ibn Sulton Saidxon nomiga bag'ishlab yozgan. Unda Tug'luq Temurxon zikridan to Abdurashidxon va Humoyun podshoh haqidagi voqealargacha bo'lgan ahvollar tartibi bilan yozilgan va mamlakat tarixida tutgan o'rni bilan har qaysi xon va podshohning tafsiloti bayon qilingan. "Tarixi Rashidiy"da maxsus mo'g'ul xonlari haqidagi hikoyalar va Mo'g'ulistondagi voqealar shunchalik mufassal o'z ifodasini topganki, undan ortig'ini tasavvur qilish mumkin bo'lmasa kerak" [2: 4].

Muhammad Haydarning ushbu asarida Shayboniyxon Shohibekxon Shayboniy nomi bilan keltiriladi. Ollomurod Annaboy o'g'lining asarida esa ba'zi o'rinlarda Shohbaxtxon tarzida berilgan. Mirzo Muhammad Haydar Muhammad Solihga qaraganda asarida tarixiy shaxslarga ancha xolis yondashadi. Ammo bu uning shaxsiy pozitsiyasi sezilmaydi degani emas. U asarida nafaqat tarixiy ma'lumotlarni, balki diniy, didaktik qarashlarini ham yetkazib beradi. Boylikka, davlatga ruju qo'yish, zolimlikni kasb qilish qanday achinarli oqibatlarga olib kelishini real tarixiy shaxslar misolida ochib beradi.

Uning asarida Shohibekxon tasarrufidagi yerlarning chegaralari Iroq zaminiga borib tutashganda, o'zbeklar Xurosonning o'sha chegara kentlariga hujumlar uyushtirishdi. Shoh Ismoil qimmatbaho sovg'a-salomlar va maktub bilan Shohibekxonga kishi yuborib, xatda shunday so'zlarni bitgan: "Ko'p zamonlardan beri ahdnomalarga amal qilinib, ikkala tarafning ko'ngliga kelishmovchilik chang-g'uborlari qo'nmagan edi, shu sababdan oramizda gina-adovat izlari yo'q edi. Agar u tarafdan otalik qoidasi namoyon bo'lsa, bu tarafdan farzandlik munosabatlari mustahkamlangusidir.

Nazm: Muxoliflik niholin yulki, bergay g'am-alam, ey inson, armon". Shoh Ismoil ana shunday sulh maktubini yozib yubordi. Uning elchisi Shohibekxon dargohiga yetib kelib, elchilik rasm-rusumlarini bajarganidan keyin, sovg'a-salomlarini Shohibekxon nazaridan o'tkazdi va Shoh Ismoilning maktubini uzatdi. Shohibekxon maktub mazmunidan xabardor bo'ldi. U murosaga chorlovchi maktubga bunday nomuvofiq javobni yozib yubordi: "Har bir kishi onasining emas, otasining hunari bilan mashg'ul bo'lgani durust. Negaki Uzun Hasan qizini otangga bergan kundan boshlab u zamon malikalari qatoridan chiqqan. Bizning zamonimizda bir ona xuddi mendek sultondan bo'lgan sultonni tug'masa edi, sen ona tomondan saltanat da'vosini qilishing mumkin edi. Axir "O'g'il otaning hunarini qilsin, qiz – onaning" degan maqol bor-ku" [3: 22].

Mirzo Muhammad Haydar asarida Shayboniyxon obrazini haqqoniy yoritishga uringan bo'lsa-da, uni ijobiy qahramon sifatida gavdalantirmaydi. Yuqorida keltirilgan parchadan ko'rinib turibdiki, Shayboniyxonning Ismoil Safaviyga yo'llagan nomaqbul javobi va sulhni rad etishi uning fojiasiga sabab bo'ladi. Kishini mensimaslik, uzoq mulohaza qilib ish ko'rmaslik va manmanlik shohlarni ham qanday ahvolga solganini ochib beradi.

Ollomurod Annaboy o'g'lining asarida esa Shayboniyxonga nisbatan haqiqatda xolis yondashilgan. Shayboniyxon amalga oshirgan ishlar tarixiy fakt sifatida beriladi. Muallif hukmdor obraziga ijobiy yoki salbiy bo'yoq berishga urinmaydi. Umuman, bu asar go'yo shajara kitobiga o'xshaydi. Voqealar bayoni emas, hukmdorlar, bek va xonzodalar shajarasini to'liq va mufassal bayon etish asosiy maqsad hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, tarix va badiiy adabiyot bir-birini to'ldiruvchi ikki mustaqil, biroq chambarchas bog'liq tizimdir. Tarix real voqelikni makon va zamon doirasida aniq faktlar asosida qayd etsa, badiiy adabiyot shu voqelikni ijodiy tafakkur, estetik idrok va badiiy tasvir vositalari orqali qayta shakllantiradi. Muallifning tarixiy asar yaratishdagi mahorati va uslubi ham shu jarayonda namoyon bo'ladi. Shu bois tarixiy asarlarni o'rganishda ularni faqat faktlar majmui sifatida emas, balki badiiy tafakkur mahsuli sifatida ham tahlil qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhammad Solih. Shayboniynoma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
2. Tarixi Rashidiy. https://old.tavorix.islamonline.uz/milliyat-insholari/194-tarixi-rashidiy.pdf.

Yulduz MUSTAFAYEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi

O'ZBEK NASRIDA BADIIY PSIXOLOGIZM GENEZISI VA TARAQQIYOT TAMOYILLARI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek nasrida badiiy psixologizmning shakllanishi, genezisi va taraqqiyot tamoyillari tahlil qilinadi. Shuningdek, inson ruhiyatining badiiy ifodasi hamda psixologik tasvirning o'zbek adabiyotidagi o'rni yoritiladi.
Kalit so'zlar: o'zbek nasri, psixologizm, badiiy psixologizm, ruhiyat, ruhiyat tasviri, psixologik tahlil, badiiy tafakkur.
Annotation. The article analyzes the genesis, formation, and development of artistic psychologism in Uzbek prose. It also highlights the artistic representation of human psychology and the role of psychological depiction in Uzbek literature.
Keywords: Uzbek prose, psychologism, artistic psychologism, psychology, psychological representation, psychological analysis, artistic thinking.
Аннотация. В статье анализируются генезис, формирование и основные тенденции развития художественного психологизма в узбекской прозе. Освещаются художественное изображение внутреннего мира человека и роль психологической характеристики в узбекской литературе.
Ключевые слова: узбекская проза, психологизм, художественный психологизм, психология, изображение внутреннего мира, психологический анализ, художественное мышление.

Ma'lumki, har qanday ijodkorning ruhiy olamidan oziqlanuvchi obrazli va ta'sirchan badiiy tafakkur psixologik nuqtayi nazardan adabiy tushunchalarning keng va tor ma'nodagi qamrovini uyg'un holda anglashga xizmat qiladi. Eng qadimgi davrlardan boshlab so'z san'atining asosiy vazifasi tashqi borliq hamda insonning ichki olami sir-asrorlarini kashf etish bilan bog'liq bo'lib kelgan. Bu jarayon har bir davrning ma'naviy va amaliy ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanib, takomillashib borgan. Poetik tafakkur cheksiz olamning muayyan manzaralarini badiiy idrok etishga imkon yaratadi. Shu bois yozuvchining ijodiy yuksakligi nafaqat uning asarlarida, balki ular keyingi avlodlar ongida qay darajada yashab qolishi bilan ham belgilanadi. Chunki Xarakter – Inson – Ruhiyat – Hayot birligi badiiy asarda inson tabiatini, uning ichki kechinmalari va yashash mohiyatini chuqurroq ochib berish imkonini yaratadi. Ruh ilmi bilan bog'liq har qanday badiiy asar aynan shu yaxlitlik negizida shakllanib, inson qalbi va ruhiy dunyosining turli qirralarini yoritishga xizmat qiladi.

A.B.Yesin: "Psixologizm – adabiyotning o'ziga xos vositalari yordamida xayoliy va to'qima, shaxs va his-tuyg'u, fikr va lirizmga yo'g'rilgan kechinmalarning yetarlicha istifoda etilishi, mufassal va teran tarzda tasvirlanishidir" [1: 19] desa, L.G.Ginzburgning talqinida: "...psixologizm qahramon ichki olamining ratsional, soddalashgan tasvir ekzistensiyasi va uyg'un ifodasi emas, balki asar qahramonlaridagi o'zini tutish, yashash, anglashda xayolotiga kelmagan, tasodifiy, nogahoniy bir lahzada qarama-qarshiliklardan boshlanadi" [2: 300] deya alohida mantiqiy dalolatlaydi. Psixologizm muammosini tadqiq etgan olimlar orasida A.B.Yesin va L.Y.Ginzburg alohida o'rin tutadi. Har ikki olim ushbu masalaga o'ziga xos yondashuv asosida munosabat bildirib, inson ruhiy olamining badiiy asardagi ifodalanish xususiyatlarini tahlil qilgan.

O'zbek adabiyotshunosligida ham psixologizm masalasi muhim ilmiy muammolardan biri sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Oybek va Abdulla Qahhor kabi milliy adabiyot namoyandalari ijodiga bag'ishlangan ilmiy ishlarda ruhiy tasvir masalasi boshqa badiiy unsurlar bilan uzviy bog'liqlikda yoritilgan. Ayniqsa, Lev Tolstoy, Fyodor Dostoyevskiy, Abdulla Qodiriy, Oybek va Abdulla Qahhor singari psixologik nasr ustalarining asarlari tahlilida inson ruhiyatining badiiy ifodasi yanada chuqurroq tadqiq qilingan.

O'zbek adabiyotshunosligida badiiy psixologizm muammosi XX asrning o'rtalaridan boshlab ilmiy tadqiqotlar doirasiga kirib keldi. Natijada ushbu atama milliy adabiyotshunoslikda turli ko'rinishlarda qo'llanib, "ruhiyat", "ruhiyat tasviri", "ruhiyat talqini" hamda "ruhiyat tahlili" kabi tushunchalar bilan ifodalana boshlandi. "RUHIYAT" atamasining "psixologizm" (yun. psyche – qalb; logos – o'rganmoq) termini bilan sinonim sifatida qo'llanilishini joiz deyish mumkin, sababi 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ruhga – "jon", ruhiyatga esa – "jonning holati", deya izoh berilgan. Bu izoh, albatta, adabiy termin uchun nomukammal bo'lsa-da, ammo ma'no jihatdan ikkala termin ham bir mazmunni beradi.

O'zbek adabiyotshunosligida badiiy psixologizm va psixologik tahlil masalalari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida ilmiy yo'nalish sifatida o'rganila boshladi. Bu borada qator adabiyotshunos olimlar tomonidan salmoqli tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, N.Shodiyevning "Abdulla Qahhorning asarlarida psixologik tahlil mahorati", X.Umurovning "O'zbek romanlarida ruhiy tahlil muammosi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi, A. Xolmurodovning "Odil Yoqubov romanlarida psixologizm" tadqiqoti, P.Kenjayevaning "Hozirgi o'zbek hikoyalarida qahramon ruhiyatini tasvirlash tamoyillari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi va monografiyasi, M.Boboxonovning "Hozirgi o'zbek qissachiligida badiiy psixologizm" mavzusidagi ilmiy ishi ushbu yo'nalishdagi muhim tadqiqotlar sirasiga kiradi. Shuningdek, M.Sheraliyevaning "Hozirgi o'zbek nasrida kinoya (ijtimoiy-psixologik omillari, poetik tizimdagi o'rni)", Y.Eshmatovaning "Istiqlol davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini", Sh.Botirovaning "Hozirgi o'zbek romanlarida badiiy psixologizm (Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat", "Isyon va itoat", "Sabo va Samandar" romanlari misolida)" mavzularidagi doktorlik (PhD) dissertatsiyalarida badiiy psixologizm va psixologik tahlil masalalari turli nuqtayi nazarlardan tadqiq etilgan.

Shuningdek, psixologizm va ruhiyat bilan bog'liq tushunchalar o'zbek adabiyotshunosligida faqat XX asr o'rtalaridan boshlab ilmiy muomalaga kirgan bo'lsa-da, inson ruhiyati tasviri va uning badiiy talqini Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari ijodida qadimdan muhim o'rin egallab kelgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy

asarlarida inson qalbi va ruhiyatining murakkab qatlamlari chuqur badiiy talqin etilgan. Buyuk mutafakkirning epik hamda lirik asarlarida badiiy ruhiyatning rang-barang usul va vositalaridan samarali foydalanilganini kuzatish mumkin.

Mazkur adabiy yondashuv Istiqlol davri yozuvchilari – Nazar Eshonqul, Xurshid Do'stmuhammad, Isajon Sulton, Murod Muhammad Do'st, Luqmon Bo'rixon, Ulug'bek Hamdam kabi iste'dodli ijodkorlar faoliyatida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Umuman olganda, o'zbek adabiyotida, xususan, nasrda badiiy psixologizmning shakllanishi va rivoji keng qamrovli hamda murakkab jarayon ekanligi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы: Книга для учителя. М.: Просвещение, 1988.
2. Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. Л.: Советский писатель, 1971.
3. Boltaboyev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.
4. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.
5. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
6. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. – Toshkent: Yangi nashr, 2010.
7. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.

Maftuna RAHIMOVA,
Qo'qon davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

SINTAKSISDA MANTIQIY STRUKTURALARNING VOQELANISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada sintaktik sathda mantiqiy strukturalarning voqelanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda so'z birikmasi, gap va matn sathlarida mantiqiy munosabatlarning lisoniy ifodalanish mexanizmlari, ularning semantik hamda sintaktik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, sintaktik birliklar orqali voqelanadigan mantiqiy strukturalarning lingvistik tahlil, formal modellashtirish, kompyuter lingvistikasi hamda tabiiy tilni qayta ishlash jarayonlaridagi nazariy va amaliy ahamiyati asoslab beriladi.
Kalit so'zlar: sintaksis, mantiqiy struktura, so'z birikmasi, gap, matn, mantiqiy munosabatlar, formal modellashtirish.
Annotation. This article examines the realization of logical structures at the syntactic level of language. It analyzes the mechanisms through which logical relations are expressed in word combinations, sentences, and texts, highlighting their semantic and syntactic characteristics. Furthermore, the study substantiates the theoretical and practical significance of logical structures realized through syntactic units for linguistic analysis, formal modeling, computational linguistics, and natural language processing.
Keywords: syntax, logical structure, word combination, sentence, text, logical relations, formal modeling.
Аннотация. В статье анализируются особенности реализации логических структур на синтаксическом уровне языка. Рассматриваются механизмы языкового выражения логических отношений в словосочетании, предложении и тексте, раскрываются их семантические и синтаксические особенности. Кроме того, обосновывается теоретическое и практическое значение логических структур, реализуемых посредством синтаксических единиц, для лингвистического анализа, формального моделирования, компьютерной лингвистики и обработки естественного языка.
Ключевые слова: синтаксис, логическая структура, словосочетание, предложение, текст, логические отношения, формальное моделирование.

Sintaktik sath tilning mantiqiy strukturalarni ochiq va tizimli ifodalovchi darajasi hisoblanadi. Agar morfologik sathda mantiqiy munosabatlar ixcham va yashirin tarzda ifodalansa, sintaksis darajasida ular so'zlar orasidagi bog'lanishlar orqali aniq struktura holida namoyon bo'ladi [1: 284]. Shu nuqtayi nazardan, sintaktik tahlilning boshlang'ich birligi bo'lgan so'z birikmasiga mantiqiy modellarning elementar qurilish qismlaridan biri sifatida qaraladi.

Gap qurilishida gapga nisbatan nominativ birliklar – so'z va so'z birikmalarining birlashuvi sifatida qaraladi [2: 17]. Nazariy jihatdan so'z birikmasi – ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning grammatik va semantik jihatdan bog'lanishidir, unda bir komponent hokim (yadro), ikkinchisi tobe (modifikator) vazifasini bajaradi. Mantiqiy nuqtayi nazardan bu munosabat funksiya va argument aloqasiga mos keladi: hokim birlik – mantiqiy funksiya (predikat), tobe birlik uning argumenti sifatida talqin qilinadi. Masalan, "yaxshi talaba" birikmasini olaylik. Bu yerda "talaba" – asosiy birlik (argument), "yaxshi" uning belgisini ifodalovchi atributdir. Mantiqiy model quyidagicha ifodalanadi: x – talaba, Q – yaxshi (xususiyat). Demak, atributiv so'z birikmalari predmetga xos belgini ifodalovchi bir o'rinli predikatni hosil qiladi.

Fe'l markazli so'z birikmalarida mantiqiy struktura yanada murakkablashadi. Masalan, "kitob o'qimoq" birikmasi obyektli predikatsiyani ifodalaydi. Bu yerda "o'qimoq" – predikat, "kitob" – uning argumentidir. Bu modelda:

P – o'qimoq;
x – subyekt (implitsit yoki keyingi bosqichda aniqlanadi);
y – kitob (obyekt).

Shuni ta'kidlash kerakki, so'z birikmasi darajasida subyekt ko'pincha ochiq ifodalanmaydi, lekin predikatning semantik imkoniyatida mavjud bo'ladi. Bu sintaktik strukturalarda implitsit mantiqiy komponentlar mavjudligini ko'rsatadi.

So'z birikmalarining yana bir muhim turi qaratqichli birikmalar, ular predmetlar orasidagi munosabatni bildiradi: "talabaning kitobi". Bu yerda ikki argument o'rtasida egalik munosabati mavjud. Bu modelda:

R – egalik munosabati;
x – talaba;
y – kitob;

Demak, bunday birikmalar mantiqda ikki o'rinli relatsion predikatga mos keladi.

Hol (adverbial) munosabatni bildiruvchi so'z birikmalari predikatning bajarilish sharoitlarini aniqlashtiradi: "tez yugurmoq", "ertalab kelmoq". Bu birliklar predikatga qo'shimcha parametrlar qo'shadi, ya'ni mantiqiy modelni kengaytiradi: yugurmoq (x) → yugurmoq (x, tez), kelmoq (x) → kelmoq (x, ertalab). Bu holat predikatning modifikatsiyasi sifatida talqin qilinadi va hodisa semantikasida muhim o'rin tutadi.

Sintaktik sathda so'z birikmalari orqali ifodalangan mantiqiy strukturalarning yana bir xususiyati – iyerarxik tashkil topishdir. Birikmalar oddiy emas, ko'p qatlamli bo'lishi mumkin: "juda yaxshi talaba". Bu yerda "juda" ravishi "yaxshi" sifatini kuchaytiradi, natijada mantiqiy struktura ichma-ich quriladi:

talaba (x)
yaxshi (x)
juda (yaxshi(x))

Bu sintaksisda mantiqiy strukturalarning rekursiv tabiati mavjudligini ko'rsatadi.

So'z birikmasi darajasidagi tahlilni yanada chuqurlashtirish uchun bog'lanish turlari (sintaktik aloqalar)ning mantiqiy tabiatini ko'rib chiqish zarur. O'zbek tilida asosiy bog'lanishlar – moslashuv, boshqaruv va bitishuv – faqat grammatik hodisa emas, mantiqiy munosabatlarning formal ko'rinishidir.

Moslashuv holatida tobe va hokim komponentlar o'zaro grammatik jihatdan uyg'unlashadi: "talabalarning kitoblari". Bu yerda ko'plik kategoriyasi ikki birlikda ham aks etadi. Mantiqiy nuqtayi nazardan bu argument va atribut orasidagi muvofiqlikni bildiradi, ya'ni predikatning xususiyati argumentning miqdoriy parametriga mos keladi. Bunday moslashuv semantik aniqlikni ta'minlaydi va noto'g'ri interpretatsiyaning oldini oladi.

Boshqaruv hokim birlikning tobe komponent shaklini belgilashi bilan xarakterlanadi: "kitobni o'qimoq", "uyga bormoq". Bu yerda fe'l o'z argumentining grammatik shaklini talab qiladi. Valentlik nazariyasiga ko'ra, bu hodisa predikatning ichki semantik strukturasi bilan bog'liq: har bir fe'l ma'lum rollarni (agent, patsiyent, yo'nalish) talab qiladi. Mantiqiy modelda bu rollar argumentlar orqali ifodalanadi: o'qimoq

(x, y); bormoq (x, joy). Demak, boshqaruv – predikatning argument strukturasini formal belgilash mexanizmidir.

Bitishuv grammatik ko'rsatkichlarsiz, faqat semantik va tartibiy yaqinlik orqali yuzaga keladi: "tez yugurmoq", "juda chiroyli". Bu turdagi bog'lanishlarda mantiqiy munosabat ko'proq semantik modifikatsiyaga asoslanadi. Ya'ni ravish yoki daraja bildiruvchi birlik predikat yoki atributning ma'nosini kuchaytiradi yoki aniqlashtiradi.

So'z birikmalari doirasida yana bir muhim jihat – predikativlikning mavjudligi. Har qanday birikma, ayniqsa, fe'l markazli bo'lsa, yashirin hukmni o'zida mujassam etadi. Masalan, "kitob o'qiyotgan talaba" birikmasi ochiq gap emas, lekin unda quyidagi mantiqiy struktura mavjud: talaba (x), o'qimoq (x, kitob). Bu yerda ikki predikat birlashib, murakkab atributiv konstruksiyani hosil qilmoqda. Demak, so'z birikmasi darajasida ham kompleks predikatsiya yuzaga kelishi mumkin.

Shuningdek, so'z birikmalarida ellipsis va iqtisod prinsipi ham kuzatiladi. Masalan, *oq va qora kitoblar* birikmasida kitoblar leksemasi faqat bir marta qo'llangan bo'lsa-da, mazmunan u har ikkala aniqlovchiga ham taalluqlidir. Boshqacha aytganda bu birikmada *oq kitoblar* hamda *qora kitoblar* shakllari yashirin holda mavjud, nutqni idrok etish jarayonida tinglovchi yoki o'quvchi tomonidan mazmunan tiklanadi. Bu hodisa mantiqda yashirin tarkibiy qismlarni qayta tiklash, tilshunoslikda lisoniy tejamkorlik tamoyilining namoyon bo'lishi sifatida izohlanadi.

Umuman olganda so'z birikmasi sintaktik sathda mantiqiy strukturalarning eng muhim ifoda shakllaridan biri hisoblanadi. Unda so'zlar orasidagi sintaktik bog'lanishlar orqali predmet, belgi, harakat va ular orasidagi munosabatlar tizimli ravishda ifodalanadi. Aniqlovchilik, tobelanish va teng bog'lanish munosabatlari mantiqiy aloqalarning til sathidagi ko'rinishini yuzaga chiqaradi. So'z birikmasining turli kengaytiruvchi vositalar bilan murakkablashishi mantiqiy mazmunning bosqichma-bosqich kengayishiga xizmat qiladi. Shuning uchun so'z birikmalarini mantiqiy nuqtai nazardan tahlil qilish nafaqat tilning semantik tuzilishini chuqur anglash, tabiiy tilni avtomatik qayta ishlash, mashina tarjimasi, sun'iy intellekt va lingvistik modellashtirish tizimlarini takomillashtirish uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Sintaktik sathning eng muhim va to'liq shakllangan birligi gap mantiqiy strukturalarning bevosita va mukammal ifodasidir. Agar so'z birikmasi darajasida mantiqiy munosabatlar elementar ko'rinishda namoyon bo'lsa, gap darajasida ular to'liq hukm (propozitsiya) shaklini oladi. Shu sababli gap til va mantiq orasidagi asosiy kesishuv nuqtasi hisoblanadi. Gap sintaktik yaxlitlik bo'lib, bu uning grammatik shaklanganligi, tarkibiy uzvlari bir butun holga kelganligi bilan izohlanadi [3: 48].

Nazariy jihatdan gap – predikativlik asosida tashkil topgan birlik, voqelik haqidagi tasdiq yoki inkorni bildiradi. Mantiqda bu hukm sifatida talqin qilinadi. Har qanday sodda gap kamida bitta predikat va unga bog'langan argumentlardan tashkil topadi. Masalan, "Talaba keldi" gapini olaylik. Bu yerda "talaba" – subyekt (argument), "keldi" – predikat, ular birgalikda mantiqiy hukmni hosil qiladi: Bu modelda: x – talaba, P – kelmoq. Demak, gap darajasida predikatsiya mantiqiy modelning markaziy elementi sifatida namoyon bo'ladi.

Gap strukturasida argumentlar soni va turi predikatning semantik xususiyatiga bog'liq. Masalan, "Talaba kitob o'qidi" gapida ikki argument mavjud. Bu yerda:

x – talaba (agent)
y – kitob (obyekt)

Agar gapga qo'shimcha komponentlar kiritilsa, mantiqiy struktura yanada kengayadi: "Talaba kecha kutubxonada kitob o'qidi". Bu yerda vaqt va makon parametrlari ham qo'shiladi. Natijada predikat ko'p o'rinli modelga aylanadi: o'qimoq (x, y, t, joy). Bu gapning ko'p parametrli mantiqiy strukturaga ega ekanini ko'rsatadi.

Gap darajasida mantiqiy strukturalarning muhim ko'rinishlaridan biri – inkordir. "Talaba kelmadi" gapida inkor butun hukmga tegishli bo'ladi. Bu yerda inkor operatori predikatning qiymatini o'zgartiradi. Muhimi shundaki, gap darajasida inkorning ko'lami aniqroq namoyon bo'ladi va u butun propozitsiyani qamrab oladi.

Gapda yana modal munosabatlar ham ifodalanadi. Masalan: "Talaba kelishi mumkin" (imkoniyat), "Talaba kelishi kerak" (zaruriyat). Bu gaplar mumtoz mantiqdan tashqariga chiqib, modal mantiq doirasiga kiradi. Bu yerda predikatga qo'shimcha baho yuklanadi: voqea faqat sodir bo'lishi emas, ehtimolligi yoki majburiyligi bilan baholanadi.

Gap darajasida kvantifikatsiya ham to'liq shaklda namoyon bo'ladi: "Barcha talabalar keldi". "Ba'zi talabalar keldi". Bu yerda gap mantiqiy umumlashtirish yoki mavjudlikni bildiradi. Sintaktik darajada bu kvantorlar odatda ega (subyekt) pozitsiyasida ifodalanadi.

Murakkab gaplarda mantiqiy strukturalar yanada rivojlanadi. Masalan: "Agar u kelsa, biz boshlaymiz". Bu gap implikatsiya munosabatini bildiradi: Bu yerda: P – u keladi. Q – biz boshlaymiz. Shuningdek, "U keldi va dars boshlandi" → kon'yunksiya ($P \wedge Q$) "U o'qiydi yoki yozadi" → dis'yunksiya ($P \vee Q$). Demak, murakkab gaplar mantiqiy bog'lovchilarni bevosita ifodalaydi.

Gap darajasida yana bir muhim hodisa presuppozitsiya va implikaturadir. Masalan, "U yana kech qoldi" gapida "yana" so'zi orqali oldingi holat ham mavjud bo'lganligi nazarda tutiladi. Bu ochiq aytilmagan, lekin mantiqan mavjud bo'lgan axborotni bildiradi. Demak, gap faqat ochiq hukm emas, yashirin mantiqiy qatlamlarni ham ichiga oladi.

Nazariy jihatdan gapni mantiqiy tahlil qilishda quyidagi yondashuvlar muhim:

- Predikat mantig'i – gapni formal formulaga aylantiradi;
- Formal semantika – ma'no va strukturani uyg'unlashtiradi.

Pragmatika – kontekst va yashirin ma'nolarni ochadi. Generativ grammatika – chuqur va yuzaki strukturalarni farqlaydi.

Amaliy tilshunoslikda gap darajasidagi mantiqiy strukturalarni o'rganish quyidagi vazifalarda hal qiluvchi ahamiyatga ega:

- avtomatik matn tushunish (text understanding),
- savol-javob tizimlari, mashina tarjimasi, bilimlar bazasini shakllantirish (knowledge representation).

SI tizimlarida gapni to'g'ri mantiqiy modelga o'tkazish tilni "tushunish"ning asosiy bosqichi hisoblanadi.

Demak, gap sintaktik sathda mantiqiy strukturalarning eng to'liq va mukammal realizatsiyasidir. Unda predikatsiya, kvantifikatsiya, inkor, modal baho va mantiqiy bog'lovchilar yagona tizimda birlashadi. Shu sababli gapni mantiqiy modellar asosida tahlil qilish tilshunoslik, mantiq va SI kesishgan nuqtadagi eng muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Til tizimida mantiqiy strukturalarning eng yuqori va murakkab ko'rinishi matn sathida namoyon bo'ladi. Agar gap darajasida mantiqiy munosabatlar alohida hukmlar shaklida

ifodalansa, matnda ular o'zaro bog'lanib, izchil mantiqiy tizim (diskurs)ni hosil qiladi. Shuning uchun matn bu alohida gaplar yig'indisi emas, semantik va mantiqiy jihatdan yaxlitlangan strukturadir.

Nazariy jihatdan matnning mantiqiy tuzilishi ikki asosiy komponentga tayangan holda shakllanadi: koherensiya (mazmuniy bog'liqlik) va koheziya (formal bog'lanish vositalari). Koheziya vositalari (olmoshlar, takrorlar, bog'lovchilar) gaplarni yuzaki bog'lasa, koherensiya ularning ichki mantiqiy izchilligini ta'minlaydi. Aynan koherensiya orqali matnda sabab-oqibat, ketma-ketlik, qarama-qarshilik kabi mantiqiy munosabatlar yuzaga chiqadi. Masalan, quyidagi matnni ko'raylik: *"Talaba darsga kech qoldi. Shuning uchun u o'qituvchidan uzr so'radi"*. Bu yerda ikki gap o'rtasida sabab-oqibat munosabati mavjud: P: talaba kech qoldi. Q: u uzr so'radi. Demak, matn darajasida alohida gaplar mantiqiy operatorlar orqali yagona tizimga birlashadi.

Matnda mantiqiy bog'lanish turlari. Matn ichidagi gaplar o'zaro turli mantiqiy munosabatlarda bo'ladi:

a) Sabab-oqibat: *"U ko'p ishladi, natijada muvaffaqiyatga erishdi"* → sabab (P) → natija (Q).

b) Ketma-ketlik: *"U keldi, keyin dars boshlandi"* → P → Q (vaqt ketma-ketligi)

d) Qarama-qarshilik: *"U harakat qildi, lekin natija bo'lmadi"*.

e) Qo'shimcha: *"U keldi va darsda qatnashdi"*.

Bu bog'lanishlar matnning mantiqiy skeletini tashkil etadi.

Referensiya va mantiqiy izchillik. Matnda mantiqiy strukturalarni shakllantiruvchi muhim omil – referensiyadir. Olmoshlar va boshqa ko'rsatkichlar orqali obyektlar qayta nomlanadi: *"Talaba darsga keldi. U faol qatnashdi"*. Bu yerda "u" → "talaba" bilan bog'lanadi. Mantiqiy modelda bu bir xil argumentni bildiradi:

talaba (x)
faol (x)

Agar referensiya noto'g'ri aniqlansa, matnning mantiqiy yaxlitligi buziladi. Shu sababli NLP tizimlarida "coreference resolution" muhim vazifa hisoblanadi.

Presuppozitsiya va implikatura. Matn darajasida mantiqiy mazmun faqat ochiq ifoda bilan cheklanmaydi. Ko'pincha yashirin axborot ham mavjud bo'ladi: *"U yana kech qoldi"*. Bu gap quyidagi presuppozitsiyani ichiga oladi: u ilgari ham kech qolgan Demak, matnda mantiqiy struktura ikki qatlamdan iborat: ochiq (eksplitsit), yashirin (implitsit)

Matnning global mantiqiy modeli. Matnni to'liq tahlil qilish uchun alohida gaplarni emas, ularning umumiy tizimini ko'rish zarur. Masalan, ilmiy matn odatda quyidagi mantiqiy sxema asosida quriladi:

- muammo (P)
- tahlil (P_1, P_2, ...)
- xulosa (Q)

Bu strukturani umumiy model sifatida quyidagicha ifodalash mumkin: $(P_1 \wedge P_2 \wedge \ldots \wedge P_n) \rightarrow Q$.

Bu ilmiy diskursning asosiy mantiqiy modeli hisoblanadi.

Amaliy tilshunoslikdagi ahamiyati. Matn darajasidagi mantiqiy strukturalarni o'rganish quyidagi sohalarda muhim: matnni avtomatik tushunish (NLP), savol-javob tizimlari, annotatsiya va referatlash, mashina tarjimasi, SI da bilimlar bazasi yaratish. Agar tizim matndagi sabab-oqibat, referensiya va implikaturani aniqlay olsa, haqiqiy "tushunish"ga yaqinlashadi.

Demak, matn sathi mantiqiy strukturalarning eng yuqori integratsiyalashgan darajasi, unda alohida gaplar o'zaro bog'lanib, izchil diskursni hosil qiladi. Bu jarayonda sababiylik, ketma-ketlik, qarama-qarshilik, kvantifikatsiya va referensiya kabi mantiqiy munosabatlar yagona tizimga birlashadi. Shunday qilib, matn – til orqali ifodalangan murakkab mantiqiy model, inson tafakkurining dinamik va ko'p qatlamli tabiatini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chomsky N. Logical structures in language // Amer. Doc, 1957. Vol. 8. – P. 284. https://doi.org/10.1002/asi.5090080406.
2. Usmonova H. Sh. O'zbek tilidagi gap bo'laklarining pozitsion strukturasi: Filol. fan. dok. diss. avtoref... – Toshkent, 2009.
3. Qurbonova M. va boshq. O'zbek tilining struktural sintaksisi. – Toshkent, 2004.

Sarvinoz MARDONOVA
Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi o'qituvchisi

O'ZBEK TILIDA LEKSIK BIRLIKLARNING MA'NO TARAQQIYOTI VA SEMANTIK O'ZGARISHLAR

Annotatsiya . Mazkur maqolada o'zbek tili leksik tizimida so'z ma'nolarining taraqqiyoti, semantik o'zgarishlarning yuzaga kelish omillari hamda lug'aviy birliklarning yangi ma'no ifodalariga ega bo'lish jarayoni tahlil qilingan. Til taraqqiyotining muhim ko'rinishlaridan biri bo'lgan semantik jarayonlar – ma'no kengayishi, ma'no torayishi, ko'chma ma'no hosil bo'lishi, metaforik va metonimik ko'chimlar misollar asosida yoritilgan.
Kalit so'zlar: o'zbek leksikologiyasi, leksik birlik, semantika, ma'no taraqqiyoti, semantik o'zgarish, metafora, metonimiya, ko'chma ma'no, lug'at tarkibi.
Annotation. This article analyzes the development of word meanings in the lexical system of the Uzbek language, the factors causing semantic changes, and the process of acquiring new meanings by lexical units. Semantic processes such as expansion and narrowing of meaning, formation of figurative meanings, metaphorical and metonymic transformations are discussed with examples.
Keywords: Uzbek lexicology, lexical unit, semantics, development of meaning, semantic change, metaphor, metonymy, figurative meaning, vocabulary system.
Аннотация. В данной статье анализируется развитие значений слов в лексической системе узбекского языка, факторы возникновения семантических изменений и процесс приобретения новых значений лексическими единицами. Рассматриваются такие семантические процессы, как расширение и сужение значения, образование переносных значений, метафорические и метонимические преобразования.
Ключевые слова: узбекская лексикология, лексическая единица, семантика, развитие значения, семантическое изменение, метафора, метонимия, переносное значение, словарный состав.

Til jamiyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisa sifatida doimo taraqqiyot va o'zgarishda bo'ladi. Tilning barcha sathlari qatori uning lug'at tarkibi ham tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida muntazam ravishda yangilanib boradi. Ayniqsa, leksik sathdagi o'zgarishlar til taraqqiyotining eng faol ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Chunki jamiyatdagi har qanday yangilik, avvalo, tilning lug'aviy tizimida o'z aksini topadi.

Leksikologiyada so'zning nafaqat shakliy tuzilishi, balki mazmuniy imkoniyatlari, ma'no taraqqiyoti ham muhim tadqiqot obyekti sanaladi. So'z ma'nosi tayyor va o'zgarmas hodisa emas, balki tarixiy taraqqiyot davomida turli omillar ta'sirida rivojlanib boruvchi murakkab jarayondir. Shu jihatdan semantik o'zgarishlar tilning ichki imkoniyatlari va tashqi ehtiyojlari bilan belgilanadi.

O'zbek tilshunosligida leksik birliklarning shakllanishi, ma'no xususiyatlari va semantik taraqqiyoti masalalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, M.Mirtojiyev o'zbek tili semasiologiyasiga oid tadqiqotlarida so'z ma'nosining shakllanishi, taraqqiyoti va ma'no munosabatlarini keng yoritgan [1]. A.Hojiyev esa til birliklarining mazmuniy xususiyatlari va terminologik jihatlarini tadqiq etgan [2]. So'z ma'nosining o'zgarishi ko'pincha jamiyatdagi yangi tushunchalarning paydo bo'lishi, inson tafakkurining rivojlanishi hamda nutqiy ehtiyojlar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, ayrim so'zlar dastlab birgina tushunchani ifodalagan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan qo'shimcha ma'nolarga ega bo'lib, ko'p ma'noli birliklarga aylanadi. Bunday jarayon tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi.

Semasiologiyada so'z ma'nosining o'zgarishi bir necha asosiy ko'rinishlarga ajratiladi. Jumladan, ma'noning kengayishi, torayishi, ko'chishi, metaforik va metonimik usulda yangi ma'no hosil qilishi shular jumlasidandir [3].

Ma'no kengayishi. So'zning dastlabki ma'nosiga nisbatan kengroq tushunchani ifodalash jarayoni **ma'no kengayishi** deb yuritiladi. Bunda lug'aviy birlik avval ma'lum bir predmet yoki hodisani bildirgan bo'lsa, keyinchalik umumiyroq tushunchani ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, **"qanot"** so'zi dastlab qushlarning uchish organini anglatgan. Keyinchalik bu so'z inson faoliyati bilan bog'liq holda ham qo'llanila boshlagan: *ilm qanoti, orzu qanoti, tashkilot qanoti* kabi birikmalarda "tayanch, imkoniyat, yo'nalish" ma'nolarini ifodalamoqda.

Xuddi shuningdek, **"ko'z"** leksemasi inson yoki hayvonning ko'rish a'zosini bildiruvchi biologik tushuncha sifatida shakllangan bo'lsa-da, hozirgi o'zbek tilida uning ma'no doirasi kengaygan: *buloq ko'zi, ignaning ko'zi, uzukning ko'zi, derazaning ko'zi* kabi birliklarda u "markaziy qism, teshik, manba" ma'nolarida qo'llanadi.Bunday holat tilning obrazlilik imkoniyatlarini oshirib, lug'at tarkibidagi birliklarning funksional imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ma'no torayishi. Ma'no torayishi jarayonida so'zning qo'llanish doirasi avvalgi holatiga nisbatan cheklanadi. Ya'ni keng tushunchani ifodalagan birlik ma'lum bir predmet yoki hodisaning nomiga aylanadi. Masalan, **"meva"** so'zi qadimiy manbalarda "hosil, natija, foyda" kabi keng ma'nolarda qo'llangan bo'lsa, hozirgi o'zbek tilida asosan daraxt va o'simliklarda yetiladigan oziq-ovqat mahsulotlari nomini bildiradi.

Shuningdek, **"dori"** so'zining tarixiy taraqqiyotida ham ma'no torayishini kuzatish mumkin. Avvallari u turli xil vositalar, moddalar ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, hozirgi adabiy tilda asosan kasalliklarni davolash uchun ishlatiladigan tibbiy vosita ma'nosida qo'llanadi. Ma'no torayishi til tizimida aniqlik va ixchamlikni yuzaga keltiruvchi semantik hodisalardan biridir.

Metaforik ma'no ko'chishi. O'zbek tili leksikasida yangi ma'nolarning hosil bo'lishida metafora asosidagi ko'chimlar muhim o'rin tutadi. Metafora ikki narsa yoki hodisa o'rtasidagi tashqi yoki ichki o'xshashlik asosida yuzaga keladi [4]. Masalan: **"oltin kuz"**, **"temir iroda"**, **"yuragi tosh"**, **"hayot yo'li"**. Ushbu birikmalarda oltin, temir, tosh, yo'l kabi so'zlar o'zining asl ma'nosidan uzoqlashib, obrazli ma'no hosil qilgan. **"Temir iroda"** birikmasida temir so'zi mustahkamlik va chidamlilik belgisi sifatida ishlatilgan. **"Yuragi tosh"** birikmasida esa tosh leksemasi inson xarakteridagi qattiqqo'llik, mehrsizlik ma'nosini anglatmoqda. Metaforik ko'chimlar ayniqsa badiiy matnlarda keng uchraydi. Shoir va yozuvchilar ushbu vosita yordamida obrazlilikni kuchaytiradi, fikrni ta'sirchan ifodalaydi.

Metonimik ma'no ko'chishi. Metonimiya narsa va hodisalar o'rtasidagi yaqinlik, aloqadorlik asosida ma'no ko'chishidir. Bunda o'zaro bog'liq tushunchalardan biri

ikkinchisining nomi bilan ataladi [5]. Masalan: **"Bugun butun zal Alisher Navoiyni o'qidi".** Ushbu gapda "Alisher Navoiy" deganda shoirning o'zi emas, balki uning asarlari nazarda tutilmoqda.Yoki: **"Bir piyola ichdim"** misolida piyola idish nomi bo'lsa-da, nutqda uning ichidagi ichimlik ma'nosida qo'llanmoqda.Metonimik ko'chimlar tilning iqtisodiylik xususiyatini namoyon etadi. Chunki inson nutq jarayonida fikrni qisqa va ta'sirchan ifodalash uchun bunday imkoniyatlardan foydalanadi.

Semantik neologizmlar va yangi ma'nolarning shakllanishi. Zamonaviy o'zbek tilida ilm-fan, texnologiya, iqtisod va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar natijasida ko'plab yangi ma'nolar yuzaga kelmoqda. Ayrim hollarda yangi so'z paydo bo'lmasdan, mavjud leksemaga yangi mazmun yuklanadi. Masalan, **"tarmoq"** so'zi ilgari asosan baliq ovlash vositasi yoki bog'langan narsalar tizimini anglatgan bo'lsa, hozirgi axborot texnologiyalari rivoji natijasida *internet tarmog'i, ijtimoiy tarmoq* kabi yangi ma'nolarda faol qo'llanmoqda.

Xuddi shuningdek, **"sahifa"** leksemasi an'anaviy ravishda kitob yoki daftar betini bildirgan. Bugungi kunda esa *veb-sahifa, ijtimoiy tarmoq sahifasi* shakllarida yangi mazmun kasb etgan.Bu kabi semantik yangilanishlar tilning jamiyat bilan birgalikda rivojlanishini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, leksik birliklarning ma'no taraqqiyoti o'zbek tilining ichki imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim hodisa bo'lib, uni o'rganish til tarixini, milliy tafakkurni va zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirtoziyev M. M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
4. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
5. O'rinboyev B., Hojiyev A. O'zbek tili leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 1980.

Komila SAYDJANOVA,
Alfraganus universiteti tibbiyot fakulteti farmasevtika va kimyo kafedrasi o'qituvchisi

FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARI DIALOGIK DISKURSIDA ANTONIMLARNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK FUNKSIYALARI

Annotatsiya. Maqolada fransuz va o'zbek tillari dialogik diskursida antonimik juftliklarning bajaradigan kommunikativ-pragmatik vazifalari tahlil qilinadi. Suhbatdoshlar o'rtasidagi navbat almashinuvi sharoitida antonimlar dalillash, umumlashtirish, baholash, chegara belgilash, holat o'zgarishini qayd etish va ekspressivlikni kuchaytirish vazifalarini bajarishi ko'rsatiladi. Har bir vazifa ikki tildan olingan teng miqdordagi misollar asosida tavsiflanadi hamda ularning illokutiv yuklamasi qiyoslanadi.
Kalit so'zlar: antonim, dialogik diskurs, kommunikativ-pragmatik funksiya, illokutiv maqsad, dalillash, baholash, fransuz tili, o'zbek tili.
Annotation. The article analyses the communicative and pragmatic tasks performed by antonymic pairs in the dialogic discourse of French and Uzbek. It is shown that under conditions of turn-taking antonyms serve to argue, to generalise, to evaluate, to delimit, to record a change of state and to intensify expressivity. Each function is described on an equal number of examples from the two languages, and their illocutionary load is compared.
Keywords: antonym, dialogic discourse, communicative and pragmatic function, illocutionary goal, argumentation, evaluation, French, Uzbek.
Аннотация. В статье анализируются коммуникативно-прагматические задачи, выполняемые антонимическими парами в диалогическом дискурсе французского и узбекского языков. Показано, что в условиях мены реплик антонимы выполняют функции аргументации, обобщения, оценки, разграничения, фиксации смены состояния и усиления экспрессивности. Каждая функция описывается на равном количестве примеров из двух языков, а их иллокутивная нагрузка сопоставляется.
Ключевые слова: антоним, диалогический дискурс, коммуникативно-прагматическая функция, иллокутивная цель, аргументация, оценка, французский язык, узбекский язык.

Dialogik muloqotning o'ziga xosligi shundaki, unda har bir replika oldingi replikaga javob sifatida shakllanadi. Shu sababli so'zlovchi tanlagan lisoniy vosita ikki yoqlama yuklama ko'taradi: bir tomondan voqelikni ifodalasa, ikkinchi tomondan suhbatdoshning pozitsiyasiga munosabat bildiradi. Ana shunday ikki yoqlama yuklamani ko'tara oladigan birliklar orasida antonimik juftliklar alohida o'rin tutadi, chunki ular bir vaqtning o'zida ham mazmuniy chegarani belgilaydi, ham so'zlovchining baholovchi mavqeini oshkor qiladi.

Antonimlarning nutqdagi xulqini tizimli o'rganish an'anasi S. Jonsning korpus tadqiqotidan boshlangan bo'lib, unda antonimik birga uchrash holatlari bajaradigan diskursiv vazifasiga ko'ra tasniflangan va har bir vazifaga muayyan sintaktik qolip biriktirilishi asoslangan [4]. Keyingi izlanishlar mazkur tasnifning og'zaki nutqqa [5], bolalar nutqiga hamda boshqa tillarga [8: 9] tatbiq etilishi mumkinligini ko'rsatdi. Shunga qaramay, funksiyalarning illokutiv mazmuni, ya'ni ularning nutqiy aktlar tizimidagi o'rni nisbatan kam yoritilgan; fransuz va o'zbek tillari materialidagi qiyosiy tahlil esa umuman amalga oshirilmagan.

Antonimik birliklarning bir kontekstda birga qo'llanishi tasodifiy emas, balki muntazam hodisa ekanligi lug'aviy statistika ishlarida allaqachon qayd etilgan edi [7: 1]. Keyinchalik M. Steffens fransuz korpusi materialida bog'lanish tahlilini qo'llagan holda antonimlarning predikat-argument tuzilmasidagi o'rni ularning vazifasini belgilashini asoslagan [10]. Bu esa funksional tasnifni sof shakliy mezondan ajratib olish zarurligini keltirib chiqaradi.

Pragmatik talqin uchun nazariy tayanch sifatida H.Grays ilgari surgan kooperativ prinsip va konversatsion implikaturalar nazariyasi xizmat qiladi [3]: dialogda antonimik qutbning tanlanishi ko'pincha aytilmagan, ammo suhbatdosh tomonidan tiklanadigan ma'noni yuzaga chiqaradi. O'zbek tilshunosligida nutqiy aktlar va muloqot tamoyillarining tavsifi Sh.Safarov ishlarida berilgan [12], dialogik diskursning sotsiopragmatik tadqiqi L.R.Raupova [11] va F.S.Karimova [6] tomonidan amalga oshirilgan, badiiy dialogning tiplarini esa J.J.Ismailov tasniflagan [2].

Quyida oltita kommunikativ-pragmatik vazifa misollar asosida ko'rib chiqiladi (dastlab suhbatdoshga ta'sir o'tkazishga qaratilgan vazifalar, so'ngra voqelikni tasvirlashga xizmat qiladiganlar vazifalar):

1. Dalillash va pozitsiyani mustahkamlash. Agar so'zlovchi o'z pozitsiyasini himoya qilishi lozim bo'lsa, u ko'pincha dalilning ikki qismini bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi. Antonimik juftlik bunday o'rinda xulosani muqarrardek ko'rsatish vazifasini bajaradi. *Pourquoi vous plaignez-vous? – On nous a promis* ***beaucoup*** *et on nous a donné* ***peu****. Nimadan norozisiz? – Bizga* ***ko'p*** *va'da qilishdi,* ***oz*** *berishdi.*

Har ikki replikada ko'p/oz juftligi asosiy zidlikni emas, va'da bilan amal o'rtasidagi nomuvofiqlikni faollashtiradi. Aynan shu ikkilamchi kontrast norozilikning asosi sifatida talqin qilinadi, ya'ni antonimik juftlik dalilning o'zi emas, uning ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

2. Umumlashtirish va to'liqlikni ifodalash. Ikkinchi vazifada qutblar orasidagi farq ataylab yo'qotiladi. So'zlovchi ikki uchni birlashtirar ekan, u orada joylashgan barcha holatlarni ham qamrab olganday bo'ladi. *Quand travaille-t-il? –* ***Jour et nuit****, sans jamais se plaindre. Qachon ishlaydi? –* ***Kunduzi ham, kechasi ham****, hech nolimay.*

Ko'rinadiki, savol vaqt haqida bo'lsa-da, javob vaqtni emas, mehnatning uzluksizligini ifodalaydi. Shundan kelib chiqadiki, birikkan qutblar bu o'rinda miqdoriy emas, sifatiy baho vositasiga aylangan.

3. Baholash va qiyoslash. *Ce logement vous convient? – Il est* ***plus cher que confortable****, disons-le franchement. Bu uy sizga to'g'ri keladimi? – Rostini aytsam,* ***qulayligidan ko'ra qimmat****roq.*

Qiyosiy qolip antonimik shkaladagi nuqtani belgilaydi, biroq uni raqam bilan o'lchamaydi. Shu tariqa so'zlovchi o'z bahosini aniq, ammo bahsga o'rin qoldiradigan tarzda bildiradi. Bunday yumshoq aniqlik dialogda ayniqsa qadrlanadi, chunki u suhbatdoshga e'tiroz bildirish imkonini saqlab qoladi.

4. Chegara belgilash va tushunchani aniqlashtirish. To'rtinchi vazifada antonimik juftlik zidlikning o'zini emas, uning mavjudligini qayd etadi. Bunday replika, odatda, suhbatdosh ikki tushunchani chalkashtirgan paytda yuzaga keladi. *Vous hésitez, donc vous ne savez pas. – Il y a* ***une différence entre le doute et l'ignorance****. Ikkilanyapsiz, demak, bilmaysiz. –* ***Shubha bilan bilimsizlik orasida farq*** *bor.* Bu yerda tuzatish ochiq shaklda emas, metalingvistik izoh tarzida

beriladi. Shuning uchun suhbatdosh xato qilgani aytilmaydi, balki u farqni mustaqil anglashi kutiladi.

5. Holat o'zgarishini qayd etish. *Et depuis, il va mieux? – Il est sorti* ***de l'ombre à la lumière*** *en quelques mois. – Keyin ahvoli yaxshilandimi? – Bir necha oyda* ***zulmatdan yorug'likka*** *chiqdi.* Antonimik qutblar vaqt o'qidagi ikki nuqtani belgilaydi. Natijada uzoq davom etgan jarayon bir jumlada uzatiladi va bu dialogik nutqning tejamlilik talabiga to'liq javob beradi.

6. Ekspressivlikni kuchaytirish. Oxirgi vazifada shkalaning o'rta qismi ataylab chetlab o'tiladi, chunki so'zlovchining maqsadi aniqlik emas, ta'sirdir. *Il vient parfois? –* ***Toujours ou jamais****: il ne connaît pas le milieu. Ba'zan keladimi? –* ***Yo doim, yo hech qachon*** *– o'rtasini bilmaydi.* Savol o'rta zonaga tegishli bo'lsa-da, javob aynan shu zonani inkor qiladi. Shu bois qahramonning xarakteri bir shtrixda tavsiflanadi va bu ekspressivlikning eng siqiq ko'rinishi hisoblanadi.

Xulosa qilinsa, fransuz va o'zbek tillari dialogik diskursida antonimik juftliklar oltita asosiy kommunikativ-pragmatik vazifani bajarishini ko'rsatdi. Bular dalillash, umumlashtirish, baholash, chegara belgilash, holat o'zgarishini qayd etish va ekspressivlikni kuchaytirish vazifalaridir. Ularning har biri muayyan sintaktik qolip bilan bog'lansa-da, qolipning o'zi vazifani to'liq belgilamaydi: bir xil tuzilma turli replikalarda turli maqsadga xizmat qilishi mumkin. Shundan kelib chiqadiki, antonimik birlikni tahlil qilishda uning shaklidan tashqari javob replikasidagi o'rni ham hisobga olinishi zarur.

Ajratilgan vazifalar bir tekis emas, balki uch guruhga taqsimlanishi aniqlanadi. Birinchi guruhga suhbatdoshning fikriga ta'sir o'tkazishga qaratilgan dalillash va baholash kiradi. Ikkinchi guruhni muloqotning o'zini tartibga soluvchi umumlashtirish va chegara belgilash tashkil etadi. Uchinchi guruhga esa voqelikni siqiq shaklda uzatuvchi holat o'zgarishi va ekspressivlik vazifalari mansub.

Xulosa qilsak, antonimik juftlik dialogda bir emas, uch xil darajada – mazmun, muloqot va munosabat darajasida – amal qiladi. Ikki tilning qiyoslanishi vazifalar inventari bir xil ekanini ko'rsatdi, tafovutlar esa faqat shakliy ifodada namoyon bo'ldi. Fransuz tilida qutblar predlog va bog'lovchilar (*plus … que*, *de … à*, *ou*) yordamida bog'lansa, o'zbek tilida ularning vazifasini kelishik affikslari, qiyosiy *-roq* ko'rsatkichi hamda *ham … ham*, *yo … yo* kabi takroriy tuzilmalar bajaradi. Aynan shu takroriylik to'liqlik ma'nosining o'zbek dialogida kuchliroq ifodalanishini keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fellbaum Ch. Co-occurrence and antonymy // International Journal of Lexicography, 1995. Vol. 8. – P. 281–303.
2. Ismailov J.J. Dialogik diskurs haqida. Badiiy dialogik diskursda milliy mental va pragmatik omillarning roli // Modern Science and Research, 2024. Vol. 3, Issue. 5. – B. 557–564.
3. Grice H. P. Studies in the Way of Words. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989.
4. Jones S. Antonymy: A Corpus-based Perspective. – London: Routledge, 2002.
5. Jones S. The discourse functions of antonymy in spoken English // Text and Talk, 2006. Vol. 26. – P. 191–216.
6. Karimova F.S. O'zbek tilidagi dialogik nutqning lingvopragmatik xususiyatlari: Filol. fan. bo'y. fal. dok. diss. avtoref… – Toshkent, 2021.
7. Justeson J., Katz S. Co-occurrences of antonymous adjectives and their contexts // Computational Linguistics, 1991. Vol. 17. – P. 1–19.
8. Murphy M.L., Paradis C., Willners C., Jones S. Discourse functions of antonymy: A cross-linguistic investigation of Swedish and English // Journal of Pragmatics, 2009. Vol. 41, №11. – P. 2159–2184.
9. Muehleisen V., Isono M. Antonymous adjectives in Japanese discourse // Journal of Pragmatics, 2009. Vol. 41, №11. – P. 2185–2203.
10. Steffens M. Antonymic Discourse Functions and Manipulation: A Corpus Analysis of Present-Day French // Corpus Pragmatics, 2018. Vol. 2. – P. 313–332.
11. Raupova L. R. Dialogik diskursdagi polipredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol. fan. bo'y. fal. dok. diss. avtoref… – Toshkent, 2017. – 261 b.
12. Safarov Sh. Pragmalingvistika: Monografiya. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.

Nigora SHADMANOVA,
Qarshi davlat texnika universiteti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsent v.b.

RUS VA O'ZBEK TILLARIDA NUTQ ODOB-AXLOQINING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada rus va o'zbek tillaridagi nutq odob-axloqi (rechevoy etiket) tizimlarining milliy-madaniy xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida murojaat shakllari, salomlashish va xayrlashish formulalari, minnatdorchilik bildirish, uzr so'rash kabi nutqiy janrlar ikki lingvomadaniy makon nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.
Kalit so'zlar: nutq odob-axloqi, lingvomadaniyatshunoslik, murojaat shakllari, milliy mentalitet, madaniyatlararo muloqot, kommunikativ xulq-atvor.
Annotation. This article presents a comparative analysis of the national-cultural features of speech etiquette systems in the Russian and Uzbek languages. Within the scope of the study, speech genres such as forms of address, greeting and farewell formulas, expressions of gratitude, and apologies are examined from the perspective of two linguocultural spaces.
Keywords: speech etiquette, linguoculturology, forms of address, national mentality, intercultural communication, communicative behavior.
Аннотация. В данной статье проводится сопоставительный анализ национально-культурных особенностей систем речевого этикета в русском и узбекском языках. В рамках исследования такие речевые жанры, как формы обращения, формулы приветствия и прощания, выражение благодарности, извинение, рассматриваются с точки зрения двух лингвокультурных пространств.
Ключевые слова: речевой этикет, лингвокультурология, формы обращения, национальный менталитет, межкультурная коммуникация, коммуникативное поведение.

Nutq odob-axloqi tilning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim tarkibiy qism bo'lib, xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini ifodalaydi. U nafaqat muloqot vositasi, balki millatning madaniy tajribasi va tarixiy xotirasining til orqali namoyon bo'lishidir. Mazkur masala rus tilshunosligida V.I.Karasik, N.I.Formanovskaya, S.G. Ter-Minasova, V.E.Goldin, o'zbek tilshunosligida esa A.Nurmonov, Sh.Safarov va N.Mahmudov tomonidan keng tadqiq etilgan [1: 2].

Rus va o'zbek xalqlari o'rtasidagi uzoq yillik tarixiy hamda madaniy aloqalar ularning nutq odob-axloqi tizimlarini qiyosiy o'rganishni dolzarb masalaga aylantiradi. Globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqotning kengayishi, O'zbekistonda rus tilini o'rganuvchilar va Rossiyada o'zbek tilida so'zlashuvchilar sonining ortishi ushbu tadqiqotning amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

O'zbek va rus tillari turli til oilalariga mansub bo'lsa-da, tarixiy hamkorlik va madaniy almashinuv natijasida ularning nutq odob-axloqida umumiy jihatlar hamda o'ziga xos farqlar shakllangan. Shu bois mazkur tizimlarni qiyosiy tahlil qilish nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot qiyosiy-tipologik, lingvomadaniy, kontekstual hamda komponent tahlil metodlariga asoslanadi. N.I.Formanovskaya nutq odob-axloqini jamiyat tomonidan shakllantirilgan va muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalari majmuasi sifatida izohlaydi [1]. S.G.Ter-Minasova esa nutq odob-axloqini til va madaniyatning uzviy bog'liqligini aks ettiruvchi hodisa deb hisoblab, rus tilida murojaat shakllarining tanlanishi suhbatdoshlar o'rtasidagi ijtimoiy masofani ifodalashini ta'kidlaydi [2].

O'zbek tilshunosligida Sh. Safarov nutq odob-axloqini pragmalingvistik nuqtai nazardan yoritib, uning ijtimoiy mavqe, yosh va kommunikativ vaziyatga bog'liq holda o'zgarishini ko'rsatadi [3]. N.Mahmudov esa o'zbek tilidagi murojaat shakllarining qarindoshlik munosabatlari bilan uzviy bog'liqligini asoslab, ***aka, opa, xola, amaki*** kabi birliklar hurmat va ijtimoiy yaqinlikni ifodalashini qayd etadi [4].

Nazariy asos sifatida Braun va Levinsonning nazokat nazariyasi qo'llanilib, unda muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy obro'si ("face") turli nazokat strategiyalari orqali himoya qilinishi izohlanadi [5]. G. Hofstede madaniy o'lchamlar nazariyasida o'zbek jamiyatining kollektivistik, rus jamiyatining esa nisbatan individualistik xususiyatlari nutq odob-axloqida ham namoyon bo'lishini ta'kidlaydi [6].

V.I.Karasik etiket formulalarining lingvomadaniy mazmunini yoritib, ularning ortida muayyan madaniy konseptlar mavjudligini ko'rsatadi [7]. A.Nurmonov o'zbek nutq madaniyatida yoshi kattaga hurmat, mehmondo'stlik va jamoaviylik tamoyillarining ustuvorligini qayd etsa [8], A.Vejbitskaya rus nutq madaniyatiga xos emotsional ochiqlik va samimiylikni madaniy skriptlar orqali izohlaydi [9]. V.E.Goldinning kommunikativ vaziyatlarga asoslangan nutq etiketi tasnifi esa mazkur tadqiqotning metodologik asoslaridan biri sifatida xizmat qiladi [10].

Olib borilgan adabiyotlar tahlili asosida rus va o'zbek tillaridagi nutq odob-axloqi tizimlarida bir qator o'xshash va sezilarli farqli jihatlar aniqlandi. Eng avvalo, murojaat shakllari masalasida jiddiy farqlar mavjud. O'zbek tilida yoshi kattaga murojaat qilishda qarindoshlik terminlaridan foydalanish keng tarqalgan bo'lib, bu hatto notanish odamlarga nisbatan ham qo'llaniladi, masalan *aka*, *opa*, *amaki*, *xola*, *bobo*, *buvi* kabi so'zlar kundalik muloqotning ajralmas qismidir. Rus tilida esa bunday murojaat shakllari deyarli uchramaydi, buning o'rniga rasmiy vaziyatlarda ism va otasining ismi (imya i otchestvo) qo'llanadi, masalan *Уважаемая Мария Ивановна, разрешите обратиться к вам* kabi murojaat shakli rasmiylik va hurmatning yuqori darajasini ifodalaydi. Norasmiy vaziyatlarda esa rus tilida oddiygina ism yoki erkalash shakli ishlatiladi, masalan *Машенька, помоги мне, пожалуйста.*

Ikkinchi muhim farq minnatdorchilik va uzr so'rash formulalarida kuzatiladi. Rus tilida *спасибо* va *извините* so'zlari nisbatan universal va neytral xarakterga ega bo'lib, deyarli barcha vaziyatlarda erkin qo'llanadi, masalan *большое спасибо за помощь* yoki *извините за беспокойство* kabi iboralar kundalik muloqotda qat'iy shakl sifatida ishlatiladi. O'zbek tilida esa minnatdorchilik bildirish ko'pincha kengaytirilgan, hissiyotga boy va diniy ohangdagi iboralar orqali amalga oshiriladi, masalan *rahmat*, *xudo rozi bo'lsin*, *ko'p yashang*, *baraka topsin* kabi iboralar minnatdorchilikning chuqur, ko'p qatlamli ifodasi hisoblanadi. Bu farq diniy-madaniy qatlamning o'zbek nutq odob-axloqiga kuchli ta'sirini yaqqol ko'rsatadi, rus tilida esa bunday diniy ohang deyarli uchramaydi, chunki sovet davrida dinning ijtimoiy hayotdan

chetlashtirilishi rus nutq odob-axloqining dunyoviylashuviga olib kelgan.

1-jadval. Rus va o'zbek tillarida murojaat shakllarining qiyosiy tahlili

Mezon	O'zbek tilidagi ifodalanishi	Rus tilidagi ifodalanishi
Yoshi kattaga murojaat	Qarindoshlik terminlari: aka, opa, ota, ona, bobo	Ism va otasining ismi: (Иван Петрович)
Notanish kishiga murojaat	Yoshga qarab differensiya-langan: aka, xola	Neytral shakllar: (извините, молодой человек)
Rasmiy muloqot	Lavozim va ism birikmasi: domla, professor aka	Lavozim yoki ism-otchestvo: (уважаемый директор)
Yoshlar o'rtasida	Do'stona, ko'pincha ismsiz murojaat	Ism bilan, erkalash shakli: (Машенька, Ванюша)
Jinsga ko'ra farqlanish	Sezilarli darajada farqlanadi	Kam sezilarli, neytral shakllar ustunlik qiladi.
Diniy-ma'naviy unsurlar	Kuchli: xudo rozi bo'lsin, baraka topsin	Deyarli uchramaydi, dunyoviy xarakterga ega.
Minnat-dorchilik	Diniy va hissiy elementlar bilan boyitilgan: rahmat, xudo rozi bo'lsin	Neytral, universal shakl: (спасибо, благодарю вас)
Uzr so'rash	Ijtimoiy mavqega qarab darajalanadi: kechirasiz, uzr so'rayman	Vaziyatga qarab o'zgaruvchan: (извините, простите, прошу прощения)
Xayrlashish	Ko'pincha duo va yaxshi tilaklar bilan: xayr, omon bo'ling	Qisqa va rasmiy: (до свидания, пока, всего доброго)
Mehmon kutish etiketi	Kengaytirilgan, marosimiy xarakterga ega: xush kelibsiz, marhamat	Nisbatan soddalashtirilgan: (добро пожаловать, проходите)
Taklif qilish	Bir necha marta qaytariladigan, majburiy xarakterda: marhamat, oling, tortinmang	Bir martalik, tanlov erkinligini beruvchi: (угощайтесь, пожалуйста)

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'zbek tilidagi murojaat tizimi ijtimoiy ierarxiya, qarindoshlik munosabatlari va diniy-ma'naviy qadriyatlarga chuqur bog'liq bo'lsa, rus tilida bu bog'liqlik nisbatan kamroq ifodalangan va rasmiylik hamda funksionallik ustunlik qiladi. Bu farq A.Nurmonov ta'kidlagan kollektivistik madaniyat xususiyati bilan izohlanadi [8], zero o'zbek jamiyatida har bir shaxs muayyan ijtimoiy va oilaviy tizim ichida idrok etiladi, uning shaxsiyati alohida emas, balki jamoa a'zosi sifatida namoyon bo'ladi.

2-jadval. Nutqiy janrlarning ifodalanish darajasi (adabiyotlar tahlili asosida umumlashtirilgan xususiyatlar)

Nutqiy janr	O'zbek tilidagi xususiyat va misol	Rus tilidagi xususiyat va misol
Salom-lashish	Sog'lik va oila ahvolini so'rash bilan uzaytiriladi: Assalomu alaykum, tinchlikmi, uy-joy tinchmi	Qisqa va ixcham: (здравствуйте, привет, добрый день)

Ushbu jadvaldan ko'rinadiki, o'zbek nutq odob-axloqida deyarli barcha nutqiy janrlar kengaytirilgan, hissiy va marosimiy xarakterga ega bo'lib, bu N.Mahmudov ko'rsatgan oilaviy-jamoaviy qadriyatlarning nutqqa ta'siri bilan bog'liq [4]. Rus tilida esa nisbatan ixchamlik va funksionallik ustuvorlik qiladi, bu A.Vejbitskaya ta'kidlagan individual erkinlik va samimiylikka intilish bilan izohlanishi mumkin [9].

O'tkazilgan keng qamrovli adabiyotlar tahlili natijasida rus va o'zbek tillaridagi nutq odob-axloqi tizimlari o'rtasida jiddiy va tizimli milliy-madaniy farqlar mavjudligi ishonchli tarzda isbotlandi. O'zbek nutq odob-axloqi kollektivistik qadriyatlar, ijtimoiy ierarxiya, qarindoshlik munosabatlari va diniy-ma'naviy an'analarga chuqur bog'liq bo'lib, u kengaytirilgan, hissiyotga boy va marosimiy xarakterga ega.

Rus nutq odob-axloqi esa nisbatan individualistik qadriyatlarga yaqinroq bo'lib, ixchamlik, funksionallik va vaziyatga moslashuvchanlik bilan tavsiflanadi. Aniqlangan farqlar tarjimashunoslik amaliyotida, xususan, badiiy va rasmiy matnlarni tarjima qilishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki nutq odob-axloqi birliklarining to'g'ridan to'g'ri, so'zma-so'z tarjimasi ko'pincha madaniy ma'noning yo'qolishiga yoki noto'g'ri tushunilishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ushbu natijalar chet tili sifatida rus yoki o'zbek tilini o'rgatishda, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda, diplomatik va biznes muloqoti sohasida amaliy qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения. М.: Высшая школа, 1989.
2. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. М.: Слово, 2000.
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
4. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: Fan, 2015.
5. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
6. Hofstede G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. – Thousand Oaks: Sage Publications, 2001.
7. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград: Перемена, 2002.
8. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
9. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. М.: Русские словари, 1996.
10. Гольдин В. Е. Речь и этикет. М.: Просвещение, 1983.

Oydinoy TURAYEVA,
O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti magistranti

INGLIZ MAQOLLARINING STRUKTURAVIY VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI: KOGNITIV-PRAGMATIK TAHLIL

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilidagi maqollarning strukturaviy va semantik xususiyatlari kognitiv-pragmatik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Maqollarning sintaktik tuzilishi, semantik qatlamlari, obrazlilik darajasi hamda kommunikativ vazifalari aniqlanadi. Shuningdek, maqollar orqali xalqning milliy tafakkuri, madaniy qadriyatlari va olamning lisoniy manzarasi qanday namoyon bo'lishi yoritiladi. Tadqiqot davomida strukturaviy tavsiflash, semantik tahlil, kognitiv interpretatsiya hamda kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar ingliz maqollarining ixcham sintaktik tuzilishga ega bo'lishi, metaforik va konseptual mazmunning ustunligi hamda pragmatik jihatdan kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega ekanini ko'rsatdi. Tadqiqot xulosalari paremiologiya, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya sohalaridagi izlanishlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: maqol, paremiologiya, struktura, semantika, kognitiv tilshunoslik, pragmatika, konsept, metafora, lingvokulturologiya, ingliz tili.

Annotation. The article examines the structural and semantic peculiarities of English proverbs from a cognitive-pragmatic perspective. It focuses on the syntactic organization, semantic layers, figurative nature, and communicative functions of English proverbs. Particular attention is paid to the representation of national worldview and the linguistic picture of the world through paremiological units. Structural, semantic, cognitive, and contextual analysis methods were employed in the study. The findings reveal that English proverbs are characterized by concise syntactic patterns, metaphorical conceptualization, and strong pragmatic potential. The results contribute to further research in paremiology, cognitive linguistics, and linguocultural studies.

Keywords: proverb, paremiology, structure, semantics, cognitive linguistics, pragmatics, concept, metaphor, English language.

Аннотация. В статье рассматриваются структурные и семантические особенности английских пословиц с позиции когнитивно-прагматического подхода. Исследуются синтаксическое строение, семантические уровни, образность и коммуникативные функции английских пословиц. Особое внимание уделяется отражению национального мировоззрения и языковой картины мира в паремиологических единицах. В работе использованы методы структурного, семантического, когнитивного и контекстуального анализа. Результаты исследования показывают, что английские пословицы характеризуются компактной структурой, высокой степенью метафоричности и значительным прагматическим потенциалом. Полученные выводы могут быть использованы в исследованиях по паремиологии, когнитивной лингвистике и лингвокультурологии.

Ключевые слова: пословица, паремиология, структура, семантика, когнитивная лингвистика, прагматика, концепт, метафора, английский язык.

Paremiologiya bugungi kunda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya va pragmalingvistika bilan uzviy bog'liq holda rivojlanayotgan tilshunoslik yo'nalishlaridan biridir. Maqollar xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim lisoniy birlik hisoblanadi. Ular nafaqat tayyor nutq formulalari, balki konseptual bilimlarni saqlovchi va uzatuvchi vosita sifatida ham e'tirof etiladi.

Ingliz maqollari ixcham sintaktik tuzilishi, metaforik mazmuni va kuchli pragmatik salohiyati bilan ajralib turadi. Ularning strukturaviy va semantik xususiyatlarini kognitiv-pragmatik yondashuv asosida o'rganish maqollarning kommunikativ vazifalari hamda olamning lisoniy manzarasini shakllantirishdagi o'rnini aniqlash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot ingliz tilidagi maqollarning strukturaviy va semantik xususiyatlarini kognitiv-pragmatik nuqtayi nazardan o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy paremiologiya, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya hamda pragmalingvistika yo'nalishlarida ilgari surilgan nazariy qarashlar tashkil etadi. Xususan, maqollar tilning tayyor kommunikativ birliklari sifatida emas, balki xalqning konseptual bilimlari va madaniy tajribasini aks ettiruvchi lisoniy birliklar sifatida talqin qilindi [5: 114].

New Holland (Niderlandiya/AQSH) – 1895-yilda Abe Zimmerman tomonidan Pensilvaniya shtatining New Holland shahrida tashkil etilgan global qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqaruvchi turli xil qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun ixcham, foydali modellarni taklif etadi. Modellari: CR Series, CX Series.

Tahlil natijalari toponim asosidagi kombayn poreyonimlari asosan ishlab chiqarilgan yoki kelib chiqqan hudud nomlari bilan bog'liq holda shakllanishini ko'rsatdi. Bunday nomlar texnikaning geografik mansubligini ifodalash bilan birga, uning tarixiy kelib chiqishi va brend identifikatsiyasini ham aks ettiradi. Natijada toponimik nominatsiya kombayn poreyonimlari tizimida muhim nominativ vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

4. Metaforik motivatsiyaga asoslangan kombayn poreyonimlari

Vector – ingliz tilidagi "vector" so'zi "yo'nalish", "harakat vektori", "maqsadga yo'naltirilgan harakat" ma'nolarini anglatadi. Shu sababli, bu nom kombaynlarning samarali

va aniq ishlashini, shuningdek, ularning maqsadga yo'naltirilganligini ifodalash uchun tanlangan.

Acros – ingliz tilidagi "across" so'zi "kesib o'tish", "bo'ylab harakatlanish" ma'nolarini anglatadi. Bu nom kombaynlarning keng maydonlarni samarali va tezda kesib o'tish qobiliyatini ifodalash uchun tanlangan.

Farmall – "farm" – qishloq xo'jaligi, "all" – hamma degan ma'noni anglatadi. Farmall nomi " hamma xo'jalik ishlari"ni bajarish mumkin.

5. Zoonimik nominatsiya asosida atalgan kombayn poreyonimlari

Tucano – 1) "Tukan qushi" – Tukano italyan tilida tukan qushi nomi bo'lib, bu qush nomi bo'lib, bu qush Janubiy Amerikada yashaydi va o'zining yorqin ranglari bilan mashhur. Bu nom kombaynlarning samaradorligi, chaqqonligi hamda zamonaviyligini ifodalash uchun tanlangan bo'lishi mumkin; 2) "Tucano" xalqi – Kolumbiya va Brazilyada yashovchi mahalliy xalq nomi. Bu nom kombaynlarning mustahkamligi va ishonchliligini ifodalash uchun tanlangan bo'lishi mumkin.

Yanmar (Yaponiya) – "yanma" bu yapon tilida kattakon chigiritka (dragonfly) degani. U kuch, chaqqonlik va samaradorlik timsoli sifatida tanilgan. Dragonfly (ninachi) Yaponiyada tabiat bilan uyg'unlik va ishonchlilik belgisi hisoblanadi. "Maru" yoki "- mar" – yaponcha sanoat korxonalari nomida ko'p ishlatiladigan suffiks. "Yanma" + "maru" yaponcha ruhi, kuchli texnika va doimiylik ifodasi. 1912-yilda Yaponiyada tashkil topgan. Modellari: Yanmar AW82V, Yanmar GC 695.

Tahlil natijalari zoonim asosidagi kombayn poreyonimlari hayvon nomlari orqali texnikaning kuchi, chaqqonligi va samaradorligini ifodalashga xizmat qilishini ko'rsatdi. Bunday nominatsiya kombaynlarning ramziy xususiyatlarini aks ettirib, ularning ekspressivligini oshiradi.

Tadqiqot natijalari kombayn poreyonimlarining leksik-semantik va nominativ tizimi turli nominatsiya manbalari asosida shakllanganligini ko'rsatdi. Tahlil jarayonida mazkur poreyonimlarning antroponimik, toponimik hamda metaforik motivatsiyaga ega ekanligi aniqlandi. Ularning nomlanishida tarixiy, geografik, funksional va lingvomadaniy omillar muhim rol o'ynashi belgilandi. Mazkur tadqiqot natijalari kombayn poreyonimlarining lingvistik xususiyatlarini tizimli o'rganish hamda transport onomastikasi bo'yicha keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 2-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
2. Kombayn. https://uz.m.wiktionary.org/wiki/kombayn.
3. Names and Naming: People, Places, Perceptions and Power / Ed. by J. Tent, D. Blair. – Bristol: Multilingual Matters, 2016.
4. CLAAS. Product Information and Company History. https://www.claas.com.

Elbek KURBANOV,
Andijon davlat chet tillari instituti

SUD LINGVISTIK EKSPERTIZASI: HAQORAT KONTEKSTIDA IMPLITSIT MA'LUMOTLARNI ANIQLASH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada sud lingvistik ekspertizasida haqorat kontekstida yuzaga keladigan implitsit ma'lumotlarni aniqlashning semantik, pragmatik va diskursiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Haqorat mazmunining bevosita va bilvosita ifodalanish mexanizmlari, metafora, kinoya, presuppozitsiya hamda kontekstning roli yoritiladi. Tadqiqot natijalari sud lingvistik ekspertizasida konfliktli matnlarni ilmiy asosda baholash va ekspert xulosalarining obyektivligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sud lingvistik ekspertizasi, haqorat, implitsit ma'lumot, pragmatika, diskurs, metafora, kinoya, presuppozitsiya, kontekst, konfliktli matn.

Аннотация. В статье анализируются семантические, прагматические и дискурсивные характеристики, значимые для выявления имплицитной информации в контексте оскорблений при проведении судебно-лингвистических экспертиз. Рассматриваются механизмы прямого и косвенного выражения оскорбления, а также роль метафоры, иронии, пресуппозиции и контекста. Результаты исследования способствуют научно обоснованной оценке конфликтогенных текстов в рамках судебно-лингвистической экспертизы и помогают повысить объективность экспертных заключений.

Ключевые слова: судебно-лингвистическая экспертиза, оскорбление, имплицитная информация, прагматика, дискурс, метафора, ирония, пресуппозиция, контекст, конфликтогенный текст.

Annotation. This article analyzes the semantic, pragmatic, and discursive characteristics involved in identifying implicit information within the context of insults during forensic linguistic examinations. It examines the mechanisms of direct and indirect expression of insults, as well as the roles of metaphor, irony, presupposition, and context. The research findings contribute to the scientifically grounded assessment of conflict-laden texts in forensic linguistic examinations and help enhance the objectivity of expert conclusions.

Keywords: forensic linguistic examination, insult, implicit information, pragmatics, discourse, metaphor, irony, presupposition, context, conflict-laden text.

Zamonaviy kommunikatsiya jarayonida haqorat mazmuni ko'pincha ochiq salbiy birliklar orqali emas, balki implitsit shaklda ifodalanmoqda. Ayniqsa, internet kommunikatsiyasi, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida uchraydigan konfliktli matnlarda haqoratning yashirin mazmunini aniqlash sud lingvistik ekspertizasining dolzarb masalalaridan biridir. Bunday holatlarda til birliklarining lug'aviy ma'nosi bilan bir qatorda ularning pragmatik xususiyatlari, kommunikativ vazifasi va diskursiv muhiti ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi sud lingvistik ekspertizasida haqorat kontekstida yuzaga keladigan implitsit ma'lumotlarni aniqlashning lingvistik mexanizmlarini tahlil qilish hamda ularni baholashning semantik, pragmatik va diskursiv mezonlarini yoritishdan iborat. Tadqiqot natijalari konfliktli matnlarni ilmiy asosda tahlil qilish, ekspert xulosalarining obyektivligini ta'minlash va sud lingvistik ekspertizasi amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda sud lingvistik ekspertizasida haqorat kontekstida yuzaga keladigan implitsit ma'lumotlarni aniqlash uchun semantik, pragmatik, diskursiv va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi semantika, pragmalingvistika, diskurs tahlili hamda nutqiy aktlar nazariyasi tamoyillariga asoslandi. Tadqiqot materiali sifatida konfliktli kommunikatsiyada shaxsning sha'ni, qadr-qimmati va ijtimoiy obro'siga ta'sir qiluvchi baholovchi nutq birliklari tanlandi. Tahlilda haqoratning bevosita va bilvosita shakllari, ularning semantik yuklamasi hamda pragmatik funksiyasi o'rganildi.

Semantik tahlil orqali haqorat mazmunini ifodalovchi leksik birliklarning baholovchi va emotsional-ekspressiv xususiyatlari aniqlandi. Masalan, "ahmoq", "nodon", "befahm" kabi birliklar bevosita salbiy bahoni bildirsa, metafora va kinoya vositasida ifodalangan birliklar kontekst orqali haqorat mazmunini hosil qiladi. Pragmatik tahlil bayonotning kommunikativ maqsadini aniqlashga xizmat qildi. Jumladan, "Siz juda aqlli ekansiz-da" ifodasi vaziyatga qarab maqtov yoki kinoyaviy haqorat sifatida talqin qilinishi mumkin. Diskursiv va kontekstual tahlil yordamida esa nutqiy vaziyat, ishtirokchilar munosabati hamda kontekst ta'sirida yuzaga keladigan implitsit haqorat mazmuni baholandi.


1-jadval. Haqorat mazmunini aniqlashda qo'llanilgan lingvistik tahlil metodlari

Metod	Tahlil obyekti	Asosiy lingvistik ko'rsatkichlar	Ekspertlik vazifasi
Semantik tahlil	Haqorat birliklarining ma'nosi	Baholovchi leksika, emotsional-ekspressiv birliklar	Ochiq va yashirin salbiy mazmunni aniqlash
Pragmatik tahlil	Kommunikativ maqsad	Nutqiy vaziyat, adresant–adresat munosabati, kinoya	Haqoratning kommunikativ funksiyasini baholash
Diskursiv tahlil	Nutqiy muhit	Ijtimoiy kontekst, kommunikativ vaziyat	Diskursdagi haqorat mazmunini aniqlash
Kontekstual tahlil	Implitsit mazmun	Metafora, kinoya, presuppozitsiya, implikatura	Yashirin haqorat mazmunini ochib berish

Manba: *muallif tomonidan ishlab chiqilgan.*

Tahlil natijasida haqorat kontekstida implitsit ma'lumotni aniqlashning asosiy mezonlari sifatida baholash, kommunikativ yo'nalganlik, kontekstual bog'liqlik, pragmatik ta'sir va implitsit mazmun mezonlari belgilandi. Ushbu metodologik yondashuv sud lingvistik ekspertizasida haqorat mazmunini lingvistik dalillar asosida obyektiv baholash hamda ekspert xulosalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlash imkonini beradi.

Tahlillar sud lingvistik ekspertizasida haqorat mazmuni ko'pincha implitsit shaklda ifodalanishini ko'rsatdi. Aniqlanishicha, haqorat faqat ochiq salbiy baholovchi birliklar orqali emas, balki metafora, kinoya, presuppozitsiya va kontekstual vositalar yordamida ham yuzaga keladi. Masalan, *Sen nodonsan* bayonotida salbiy baho bevosita ifodalansa, *U inson emas, mashina* jumlasida shaxsning hissizligi metaforik yo'l bilan ifodalanadi. *Juda katta ish qildingiz-da* kabi kinoyaviy bayonotlarda esa aytilgan mazmun bilan nazarda tutilgan mazmun o'rtasidagi tafovut adresatni kamsitishga xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, *Yana odatingizni ko'rsatdingiz* jumlasidagi *yana* birligi shaxsning avvalgi salbiy xatti-harakatlarini presuppozitsiya asosida eslatib, yashirin salbiy bahoni kuchaytiradi. Ayrim hollarda esa *Siz ham o'zingizni mutaxassis deb hisoblaysizmi?* kabi tashqi jihatdan neytral ko'rinadigan bayonotlar konfliktli kommunikativ vaziyatda adresatning kasbiy salohiyatini shubha ostiga qo'yib, haqorat mazmunini hosil qiladi. Olingan natijalar sud lingvistik ekspertizasida haqoratning ochiq va yashirin shakllarini aniqlash semantik, pragmatik va diskursiv tahlilning kompleks qo'llanilishini talab qilishini ko'rsatdi.



1-rasm. Haqorat kontekstida implitsit ma'lumot shakllanishining lingvistik mexanizmlari

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, haqorat mazmunini aniqlashda alohida leksik birlikni baholash yetarli emas. Ekspert semantik ma'no, pragmatik maqsad, kommunikativ vaziyat va kontekstni kompleks tahlil qilishi zarur. Mazkur yondashuv sud lingvistik ekspertizasida implitsit haqorat mazmunini ilmiy va obyektiv baholash imkonini beradi [1: 10].

Tadqiqot natijalari sud lingvistik ekspertizasida haqorat mazmunini aniqlash faqat salbiy ma'noli leksemalarni belgilash bilan cheklanmasligini ko'rsatdi. Konfliktli diskursda haqorat ko'pincha implitsit shaklda namoyon bo'lib, uning talqini semantik, pragmatik va diskursiv omillarning o'zaro uyg'unligini hisobga olishni talab etadi [1: 3].

Ayrim bayonotlar tashqi jihatdan neytral ko'rinsa-da, kommunikativ vaziyatda shaxs sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi mazmunni ifodalashi mumkin. Masalan, *"Sizdan boshqa narsani kutib bo'lmasdi"* jumlasida ochiq haqorat mavjud emas, biroq konfliktli kontekstda adresatning qobiliyatsizligi yoki salbiy xususiyatlariga ishora qilinadi. Shuning uchun ekspert baholashida birlikning lug'aviy ma'nosi bilan bir qatorda uning kommunikativ maqsadi va pragmatik ta'siri ham muhim ahamiyat kasb etadi [2: 5].

Olingan natijalar R.Shuy va M.Coulthardning sud lingvistikasi bo'yicha qarashlari bilan uyg'un bo'lib, ular til birliklarini real kommunikativ vaziyat asosida baholash zarurligini ta'kidlaydi [4: 6]. Tadqiqot shuningdek, metafora, kinoya va presuppozitsiya haqorat mazmunini yashirin ifodalovchi eng faol pragmatik vositalar ekanligini ko'rsatdi. Masalan, *"Siz juda "namunali" xodimsiz"* yoki *"Yana o'sha eski xatolaringizni takrorladingiz"* kabi bayonotlar kontekstga bog'liq holda kamsituvchi mazmun kasb etadi [7: 8].

O'zbek tilidagi konfliktli kommunikatsiya tahlili haqoratning ko'proq kinoya, ishora va bilvosita baholash vositalari orqali ifodalanishini ko'rsatdi. Shu bois haqorat mazmunini aniqlashda semantik, pragmatik, diskursiv va kontekstual tahlilning integratsiyalashgan qo'llanilishi ekspert xulosalarining ilmiy asoslanganligi va obyektivligini ta'minlaydi [9: 10].

Tadqiqotning **nazariy ahamiyati** sud lingvistik ekspertizasida haqorat kontekstida yuzaga keladigan implitsit ma'lumotlarni aniqlashning semantik, pragmatik va diskursiv mezonlari tizimlashtirilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari haqorat mazmuni faqat ochiq salbiy birliklar orqali emas, balki

metafora, kinoya, presuppozitsiya hamda kontekstual omillar vositasida ham shakllanishini ko'rsatdi [1: 4].

Shuningdek, haqoratni baholashda til birliklarining lug'aviy ma'nosi bilan bir qatorda ularning kommunikativ maqsadi, adresatga yo'naltirilganligi va pragmatik funksiyasi muhim mezon ekanligi asoslandi. Ayrim ijobiy yoki neytral birliklarning ham muayyan kontekstda kamsituvchi mazmun kasb etishi kontekstual-pragmatik yondashuv zarurligini tasdiqlaydi [2: 7].

Tadqiqotning **amaliy ahamiyati** ishlab chiqilgan mezonlarning sud lingvistik ekspertizasida ochiq va bilvosita haqorat, metaforik va kinoyaviy ifodalar, presuppozitsion hamda kontekstual salbiy mazmunni ilmiy asosda aniqlash imkonini berishidadir [5: 8].

Mazkur yondashuv internet kommunikatsiyasi, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va sha'n hamda qadr-qimmatga tajovuz bilan bog'liq nizoli matnlarni ekspertiza qilishda samarali qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, undan *"Sud lingvistik ekspertizasi", "Pragmalingvistika", "Diskurs tahlili"* va *"Yurislingvistika"* fanlarini o'qitishda nazariy-metodik manba sifatida foydalanish mumkin [6: 10].

Umuman, tadqiqot natijalari haqorat kontekstida implitsit ma'lumotlarni aniqlashda semantik, pragmatik va diskursiv yondashuvlarning integratsiyasi ekspert xulosalarining obyektivligi hamda ilmiy asoslanganligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Mazkur tadqiqot sud lingvistik ekspertizasida haqorat kontekstida yuzaga keladigan implitsit ma'lumotlarni aniqlashning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari haqorat mazmuni faqat ochiq salbiy baholovchi birliklar orqali emas, balki metafora, kinoya, presuppozitsiya va kontekstual omillar vositasida ham shakllanishini ko'rsatdi. Shuningdek, haqoratning lingvistik tabiati til birliklarining lug'aviy ma'nosi bilan bir qatorda, ularning kommunikativ vazifasi, pragmatik maqsadi va diskursiv muhitiga ham bog'liqligi asoslandi.

Tahlillar natijasida implitsit ma'lumot haqorat mazmunini shakllantiruvchi muhim pragmatik mexanizm ekanligi aniqlandi. Bevosita va bilvosita haqorat shakllarini farqlashda semantik, pragmatik, diskursiv va kontekstual tahlilning integratsiyalashgan qo'llanilishi ekspert xulosalarining ilmiy asoslanganligi va obyektivligini ta'minlashi ko'rsatildi. Ayniqsa, metafora, kinoya va presuppozitsiya vositalari orqali ifodalangan yashirin salbiy mazmunni aniqlashda kommunikativ vaziyat hal qiluvchi omil ekanligi tasdiqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shuy R.W. Linguistic Battles in Trademark Disputes. – New York: Palgrave Macmillan, 2002.
2. Coulthard M., Johnson A., Wright D. An Introduction to Forensic Linguistics: Language in Evidence. 2nd ed. – London: Routledge, 2017.
3. Gibbons J., Turell M.T. (Eds.). Dimensions of Forensic Linguistics. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2008.
4. Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
5. Grice H.P. Studies in the Way of Words. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989.
6. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
7. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 2003.

Po'lotshoh BOBOKALONOV,
Osiyo xalqaro universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

NUTQ BUZILISHI VA NUTQ IZOLATSIYASINING NEYROPSIXOLINGVISTIK MODELI

Annotatsiya. Maqolada nutq buzilishlari va nutqni izolyatsiya qilishning neyropsixolingvistik modeli inson kommunikativ faoliyatidagi ikkita o'zaro bog'liq, ammo farqli hodisa sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot nevrologik, kognitiv va lingvistik o'lchamlarni birlashtirib, yagona nazariy asosni ishlab chiqadi. Nutq buzilishi til tizimidagi strukturaviy buzilish sifatida tahlil qilinadi, nutqni izolyatsiya qilish esa kognitiv niyat va og'zaki ifoda o'rtasidagi funktsional uzilish sifatida talqin qilinadi. Taklif qilingan model nutqni ishlab chiqarish va buzilish mexanizmlarini aniqlashtirish, diagnostika, reabilitatsiya va ta'lim aralashuvi uchun natijalarni taqdim etish orqali zamonaviy neyropsixolingvistikaga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: nutq buzilishi, nutq izolyatsiyasi, neyropsixolingvistika, kognitiv, model, tilni qayta ishlash, kognitiv muloqot.

Annotation. This article examines the neuropsycholinguistic model of speech disorders and speech isolation as two interrelated yet distinct phenomena within human communicative activity. The study integrates neurological, cognitive, and linguistic dimensions to develop a unified theoretical framework. Speech disorder is analyzed as a structural disruption in the language system, whereas speech isolation is interpreted as a functional disconnection between cognitive intention and verbal expression. The proposed model contributes to modern neuropsycholinguistics by clarifying the mechanisms of speech production and disruption, offering implications for diagnostics, rehabilitation, and educational intervention.

Keywords: speech disorder, speech isolation, neuropsycholinguistics, cognition, model, language processing, cognitive communication

Аннотация. В статье расстройство речи и речевая изоляция рассматриваются как два взаимосвязанных, но различных явления в коммуникативной деятельности человека с точки зрения нейропсихолингвистической модели. Объединяя неврологическое, когнитивное и лингвистическое измерения, исследование формирует единую теоретическую базу. Расстройство речи анализируется как структурное нарушение в системе языка, тогда как речевая изоляция трактуется как функциональный разрыв между когнитивным намерением и вербальным выражением. Предложенная модель вносит вклад в современную нейропсихолингвистику, уточняя механизмы продуцирования и нарушения речи, а также предлагая практические результаты для диагностики, реабилитации и образовательного вмешательства.

Ключевые слова: расстройство речи, речевая изоляция, нейропсихолингвистика, когнитивный, модель, обработка языка, когнитивная коммуникация.

Inson nutqi – bu nafaqat kommunikativ vosita, balki murakkab neyropsixolingvistik tizim sifatida inson tafakkuri, emotsiyasi va ijtimoiy faoliyatining markaziy komponentidir. Nutq jarayoni miya faoliyatining turli darajalari, jumladan, sensor, motor, kognitiv va affektiv tizimlarning o'zaro integratsiyasi asosida shakllanadi. Shu bois nutqdagi har qanday buzilish yoki uzilish nafaqat lingvistik hodisa, balki chuqur neyropsixologik jarayonlarning aksidir.

Neyropsixolingvistik nuqtayi nazardan qaralganda, ushbu ikki hodisa inson miyasining turli funksional zonalari faoliyatidagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, chap yarim shar, xususan, Paul Broca va Carl Wernicke [1:56] tomonidan aniqlangan nutq markazlari tilning ishlab chiqilishi va tushunilishida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, o'ng yarim shar nutqning emotsional va prosodik jihatlarini ta'minlaydi. Bu tizimlar o'rtasidagi muvozanat buzilganda, nutq buzilishi yoki nutq izolatsiyasi holatlari yuzaga keladi.

Nutq buzilishi va nutq izolatsiyasini tushuntirishda neyropsixolingvistika fanining integrativ yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvga ko'ra, nutq uch asosiy tizim:

1) neyrofiziologik tizim (miya strukturalari),
2) psixik-kognitiv tizim (tafakkur, xotira, diqqat),
3) lingvistik tizim (til birliklari va qoidalari) ning o'zaro ta'siri natijasidir.

Neyrofiziologik asosda nutq faoliyati asosan bosh miyaning chap yarim sharida joylashgan maxsus zonalar Paul Broca zonasi (nutqni ishlab chiqish – motor dasturlash) va Carl Wernicke zonasi (nutqni tushunish) orqali boshqariladi. Shu bilan birga, o'ng yarim shar intonatsiya, emotsional rang, kommunikativ kontekstni ta'minlaydi [2: 34].

Neyropsixolingvistik modelning uch bosqichli uzluksiz zanjiri:

T/r	Bosqichlar	O'zaro aloqadorlik
1	Ichki kognitiv bosqichda	[fikr → konsept → semantik struktura]
2	Lingvistik bosqichda	[semantika → grammatika → fonologiya]
3	Tashqi nevromotor bosqichda	[Motor dastur → artikulyatsiya → nutq]

Psixik-kognitiv asosga ko'ra nutq konseptualizatsiya (fikr shakllanishi), verbalizatsiya (fikrni tilga aylantirish) va monitoring (nazorat qilish) kognitiv jarayonlarga tayanadi. Shaxsning nutq faoliyatida fikr bor bo'lib, uni ifodalashi qiyin kechsa, nutq izolatsiyasiga xos bo'ladi.

Lingvistik bosqichda fonetika, leksika, grammatika komponentlari muhim ahamiyat kasb etadi va: [tafakkur] → [semantik model] → [grammatik tuzilma] → [fonologik kod] → [motor dastur] → [nutq] tizimi rentabelli ishlamaganda nutq buzilishi yuzaga keladi. Bu model quyidagi jihatlari bilan ajraladi:

1. Nutq buzilishi va izolatsiyani bir tizim ichida ko'rib chiqadi.
2. Ularni struktur vs funksional muammo sifatida ajratadi.
3. Diagnostika uchun bosqichli tahlil mexanizmini beradi.
4. Pedagogika va klinik amaliyot uchun qo'llanilishi mumkin [3: 89].

Nutq buzilishi miya yoki til tizimidagi **organik yoki funksional nuqsonlardan dalolat beradi.** Gapirish, tushunish yoki **to'g'ridan to'g'ri** so'z topishdan qiynalish, doimiy yoki uzoq davom etadigan bu holatda odam gapira olmaydi yoki ma'nosiz gapirishi Paul Broca va Karl Wernicke afaziyalaridan darak beradi.

Nutq shunchaki buzilmaydi. Uning buzulishi holatlariga tovush, so'z, gap, ovoz yoki nutq tezligidagi muammolari

sabab bo'ladi. Nutq buzilishi nutqning normal shakllanishi yoki ishlashida muammo bo'lishini anglatadi. U turli darajalarda yuz beradi va bir necha asosiy holatlardan iborat ekanligi ilmiy adabiyotlarda aniqlangan. Bular:

1. Artikulyatsion buzilish – tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilinadi. Masalan: "r", "s" ni ayta olmaslik;
2. Fonologik buzilish – tovushlarni chalkashtirish yoki o'rnini almashtirish: "kitob" o'rniga "titob" deb talaffuz qilish;
3. Leksik buzilish – so'z boyligi yetishmasligi va kerakli so'zni topa olmaslik holati;
4. Grammatik buzilish – gapni noto'g'ri tuzish, so'zlarni noto'g'ri bog'lash;
5. Fluentlik buzilishi – nutqning uzilib-uzilib chiqishi, duduqlanish (logonevroz), tovush yoki so'zga "ilib qolish" (perseveratsiya) va gapni to'xtab-to'xtab, bo'g'inlab aytish (skandirlangan) holati;
6. Ovoz (fonatsiya) buzilishi - ovoz juda past yoki baland, xirillab chiqishi;
7. Nevrologik buzilishlar (afaziya) - miya shikastlanganda nutq buzililishi, jarohatlanish oqibatida Vernike (Carl Wernicke) markazida tushunish va Pol Broka (Paul Broca) markazida gap tuzish qobiliyati susayishi nazarga tutiladi. Nutq izolatsiyasida shu bosqichlarning birida kerakli so'zni topa olmaslik, gapni to'g'ri tuza olmaslik yoki tovushlarni aniq ayta olmaslik kabi uzilish yuz berishi holatlari miya faoliyati bilan bog'liqdir. Bunda so'zdagi tovushlar tushib qoladi, tovushlar o'rni almashadi, noto'g'ri talaffuz qilinadi va nutq tushunarsiz chiqadi, ya'ni nutqning fonologik va motor bosqichida uzilish bo'ladi [5: 99].

Bu jarayon [fikr → so'z + so'z → gap + gap → tovush + reja → talaffuz] majmuyidan iboratdir. Bu ilmiy asoslangan, tizimli jarayonni neyropsixolingvistik nuqtai nazardan nutq izolatsiyasi modeli deb aytiladi. Nutq izolatsiyasi oddiyroq aytganda, "tushunaman, lekin ayta olmayman" degan holatdir. Bu odamda fikr bor, ammo uni so'z bilan ifoda eta olmaslik holatini anglatadi. Inson nimani aytmoqchi ekanini biladi, lekin gapira olmaydi yoki aytadigan gapini to'g'ri aytolmaydi. Nutq izolatsiyasi birinchi novbatda tovush buzilishi, yetishmovchiligi yoki tovushni talaffuz qilish noqulayligi bilan bog'liqdir. Bunda nutq emas tovush izolatsiya qilinadi. Tovush izolatsiyasi inson so'zni va gapni bilsa ham, tovushlarni to'g'ri chiqarib bera olmaslik holatidir.

Kichik yoshli bolalarda so'z topa olmaslik, "qotib qolish", gapni yarim yo'lda to'xtatib qo'yish, oddiy fikrni ham qisqa yoki noto'liq aytish, hayajonda umuman gapirmay qolish, nutq rivojlanishi sekinlashgandek ko'rinishi, "ee…", "mm…" kabi tovushlarga ko'p murojaat qilishning sababi til tizimi hali to'liq shakllanmagan va emotsional boshqaruv zaifroq bo'lganidandir.

O'smir va katta yoshda fikr bor, lekin so'z tez "kelmay qolishi", gapni boshlay olmay qolish yoki bloklanish, stressda nutqning sekinlashishi yoki chalkashishi, mavzudan chiqib ketish yoki gapni unutish, jamoa oldida, ya'ni ijtimoiy vaziyatda ko'proq kuchayishi, ichki fikr bor, lekin tashqi nutq "tiqilib qolishi" ning sababi [yuqori kognitiv yuk + ijtimoiy bosim + stress reaksiyasi] bilan bog'liqdir. Bolalarda nutq endigina shakllanib borayotgan tizimda "uzilishlar" bo'lishi, kattalarda shakllangan tizimning stress yoki emotsiya ta'sirida vaqtincha bloklanishi ko'p kuzatiladi.

Nutq buzilishi va nutq izolatsiyasi inson nutq faoliyatining ikki turli, lekin o'zaro bog'liq neyropsixolingvistik hodisalaridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nutq buzilishi asosan til tizimining struktur komponentlari – fonologik, leksik va grammatik darajadagi nuqsonlar bilan bog'liq bo'lib, u ko'pincha bosh miyaning chap yarim sharidagi nutq markazlari, xususan Paul Broca va Carl Wernicke faoliyatidagi shikastlanishlar bilan izohlanadi.

Bundan farqli ravishda, nutq izolatsiyasi til kompetensiyasining saqlanganligi fonida, uning tashqi kommunikatsiyada namoyon bo'lishidagi funksional uzilish sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni, individda fikr va til birliklari mavjud bo'lsa-da, ularni nutqqa aylantirish yoki ijtimoiy muloqotda qo'llash jarayonida psixologik, emotsional yoki neyrodinamik to'siqlar yuzaga keladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Bobokalonov R.R. Tibbiyot va neyropsixolingvistika: Monografiya. – Republic of Moldova: GlobEdit, 2023, 123 b. – ISBN 978-620-0-64769-6.
2. Бобокалонов Р.Р. Нейропсихолингвистика: языковая личность и харизматический человек. Теория, практика и методика: Монография. – Republic of Moldova: LAP LAMBERT Academic Publishing, 2023. ISBN 978-620-6-15214-9.
3. Сайфуллаева Р.Р., Бобокалонов Р.Р., Бобокалонов П.Р. Нейропсихолингвистика: Учебник. – Republic of Moldova: GlobEdit, 2025. ISBN 978-620-8-45463-0.
4. Бобокалонов Р.Р. Дифференциация узбекско-французских семантико-функциональных предложений и коммуникативное нейропсихолингвистическое исследование: Дис. … докт. филол. наук. – Бухара, 2022.

Ulbosin AMETOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

XORAZM EPIK SHE'RIYATINING SHAKLLANISHI VA UNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm epik she'riyatining yuzaga kelish omillari, tarixiy-madaniy ildizlari hamda janriy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Vohadagi qadimgi yozuv madaniyati, islomiy uyg'onish davri madaniy muhiti hamda turkiy adabiy tilning shakllanish bosqichlari o'zaro aloqadorlikda o'rganilgan. Xorazm epik an'anasining shakllanishidagi uch asosiy jihat – turkiy adabiy tilning barqarorlashuvi, arab va fors-tojik mumtoz adabiyotining ta'siri yoritilgan.
Kalit so'zlar: Xorazm adabiy muhiti, epik she'riyat, turkiy doston, naziranavislik, badiiy tarjima, agiografik syujet, xalq og'zaki ijodi, eski xorazm turkiysi, "Qissayi Yusuf", "Jumjuma sulton".
Annotation. This article analyzes the factors of emergence, historical-cultural roots, and genre-theoretical foundations of Khwarazm epic poetry. The ancient written culture of the oasis, the cultural environment of the Islamic Renaissance, and the formation stages of the Turkic literary language are studied in an interconnected manner. The study highlights three main aspects of the formation of the Khorezm epic tradition: the stabilization of the Turkic literary language, the influence of Arabic and Persian-Tajik classical literature.
Keywords: Khwarazm literary environment, epic poetry, Turkic dastan, nazira, artistic translation, hagiographic plot, folklore, Old Khwarazm Turkic, "Qissayi Yusuf", "Jumjuma Sultan".
Аннотация. В данной статье анализируются факторы возникновения, историко-культурные корни и жанрово-теоретические основы хорезмской эпической поэзии. Взаимосвязано изучены древняя письменная культура оазиса, культурная среда эпохи исламского возрождения и этапы формирования тюркского литературного языка. В исследовании выделены три основных аспекта формирования хорезмской эпической традиции: стабилизация тюркского литературного языка и влияние арабской и персидско-таджикской классической литературы.
Ключевые слова: Хорезмская литературная среда, эпическая поэзия, тюркский дастан, назира, художественный перевод, агиографический сюжет, фольклор, старохорезмский тюркский язык, «Кысса-и Юсуф», «Джумджума султан».

Xorazm epik she'riyatini yaxlit bir tizim sifatida o'rganish o'zbek adabiyotshunosligining dolzarb vazifalaridandir. Bu meros zamirida turkiy doston janrining genezisi, Sharq mumtoz adabiyoti an'analarining ayni zaminda ijodiy o'zlashtirilishi, tarjima va asliyat munosabati, og'zaki va yozma epik an'analarning o'zaro ta'siri kabi muhim nazariy muammolarni hal etish imkoniyati mavjud.

Yozma adabiyotda epik an'ananing shakllanishi muayyan taraqqiyot talablarini: yozuv madaniyatining rivojini, ilm-fan va kitobat an'analarini, adabiy homiylikni taqozo etadigan jarayondir. Qadim zamonlardan Xorazm vohasida ana shu talablarning barchasiga imkoniyat beradigan kuchli muhit mavjud edi. Miloddan avvalgi davrlardayoq ushbu hududda xorazmiy yozuvi amalda bo'lgani Tuproqqal'a hujjatlari, tanga bitiklari orqali tasdiqlangan. Abu Rayhon Beruniy o'zining "Osor ul-boqiya" asarida xorazmiylarning o'z yozuvi, taqvimi va tarixiy xotira an'analari bo'lganligi haqida ma'lumotlar keltiradi. Xorazmda yozma madaniyat epik tafakkurdan ajralmagan holda ildiz otgan. Qadimgi afsonaviy-tarixiy rivoyatlar, jumladan, Siyovush bilan bog'liq syujetlar yozma qayd etish an'anasi bilan yonma-yon yashagan.

Islom davri Xorazm madaniyatini yangi bosqichga ko'tardi. X–XII asrlarda Xorazm Ma'mun akademiyasi faoliyati, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Sulaymon Boqirg'oniy kabi allomalarning ijodi bilan Sharqning yirik ilmiy-madaniy markaziga aylandi. Zamaxshariyning "Muqaddimat ul-adab" asari arab tilshunosligi bilan bir qatorda turkiy leksikografiya uchun ham muhim manba bo'lgani, Xorazmshohlar saroyida adabiy homiylik an'anasi rivojlangani bu muhitning adabiy madaniyati naqadar yuksak bo'lganini ko'rsatadi. Ana shu zaminda badiiy so'zga, xususan, epik bayonga bo'lgan ehtiyoj og'zaki ijrodan yozma shakllar tomon harakatlana boshladi.

Xorazm epik she'riyatining shakllanishida uch jihatning uyg'unlashuvi muhim ahamiyat kasb qiladi.

1. Turkiy adabiy tilning mintaqada yetakchi mavqe qozonishi**.** Eski turkiy adabiy til davri qoraxoniylar davri tili, chig'atoy turkiysi, eski xorazm turkiysi (Oltin O'rda va Xorazm muhitida amal qilgan adabiy til), eski qipchoq tili hamda eski anatoli turkchasi kabi bosqichlarni birlashtiradi. XIII asr boshlaridagi mo'g'ullar istilosi O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayotidagina emas, balki ularning tiliga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Mo'gullar istilosi natijasida tuzilgan Chigatoy davlatida (XIV asr oxirigacha) davlat idora ishlarini yuritishda, asosan, qoraxoniylar davridagi adabiy tilga va qisman, Xorazmdagi adabiy tilga asoslanildi. Mazkur davlat hududida qoraxoniylar davrida tashkil topgan qarluq-chigil-uygur va garbiy xorazm (o'guz) tili asosida va ularning taraqqiy etishi natijasida chigatoy tili shakllandi. Bu til uzoq vaqt adabiy til sifatida amalda bo'ldi.

XII–XIV asrlarda esa Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan hududda, Xorazm va Oltin O'rda hududlarida Sharq manbalarida xorazmiy-turkiy deb ataluvchi adabiy til paydo bo'ladi. Xorazmning XI–XII asrlardagi adabiy va ilmiy hayotida faol qatnashgan o'guz va qipchoq qabilalarining tillari mazkur adabiy tilning asosini tashkil etadi [2: 45]. Xorazm va Oltin O'rdada yaratilgan asarlar tilida qadimgi turk adabiyoti va tili an'ana hamda xususiyatlari saqlangan. Mazkur hududlarda Nosiruddin Rabguziyning "Qisasi Rabg`uziy", Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Said Ahmad ibn Mironshohning "Taashshuqnoma" (1435), Sayfi Saroyining "Gulistoni bit-turkiy", Qutbning "Xusrav va Shirin" kabi asarlari yaratildi.

Ushbu ma'lumotlar shuni isbotlaydiki, XI–XIII asrlarda o'g'uz va qipchoq shevalari asosida shakllangan eski Xorazm adabiy muhiti "eski turkiy adabiy tili"ning muhim markazlaridan biriga aylangan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan she'riy parchalar, munozaralar, Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiylarning epik masnaviy an'analari turkiy tilda yirik she'riy shakllar yaratish tajribasini shakllantirib berdi. Ahmad Yassaviy hikmatlarining Sulaymon Boqirg'oniy ijodi vositasida Xorazm orqali keng tarqalishi turkiy she'riyat muhitini yuzaga keltirdi. Sulaymon Boqirg'oniy, Qul Ali, Nosiriddin Rabg'uziy, Husam Kotib kabi adiblar o'z fikrlarini bayon qilar ekan, ularning muhim bir jihatga – til masalasiga e'tibor qilganini ko'ramiz. Mahalliy

xalqqa ona tilida murojaat etishi ularning birinchi ustunligi bo'ldi. Mahmud Koshg'ariy turklarga "yaqin bo'lik uchun eng asosiy yo'l – ularning tillarida so'zlashishdir, chunki ular bu tilda so'zlashuvchilarga yaxshi quloq soladilar, o'zlarini yaqin tutadilar" deganda haqli edi.

2. Arab va fors-tojik mumtoz adabiyotining kuchli ta'siri. Turkiy epik dostonchilikning shakllanishi va janr sifatida kamol topishida arab hamda fors tillaridagi manbalar ilhom asosi bo'lib xizmat qilgan. Arab adabiyotida Qur'on qissalari asosida yaratilgan agiografik asarlar, Firdavsiyning "Shohnoma"si, Nizomiy Ganjaviyning "Panj ganj" dostonlari, Abdurahmon Sa'diy asarlari Xorazm mintaqasida ancha mashhur bo'lgan. Ana Bellarday namunalar turkiy ijodkorlar oldiga o'z ona tillarida o'sha asarlarga teng epik asarlar yaratish vazifasini qo'ydi.

XII asrda Sulaymon Boqirg'oniy hikmat janri doirasidan chiqib, turkiy adabiyotda tasavvufiy dostonchilikka asos soldi. Uning "Boqirg'on kitobi" tarkibida bizgacha yetib kelgan "Bibi Maryam", "Ismoil qissasi" va "Oxir zamon kitobi" dostonlari Xorazm adabiyotidagi ilk agiografik va epik asarlar hisoblanadi. Bu asarlarning syujeti, g'oyaviy yo'nalishi va obrazlar tizimi bevosita Qur'oni Karim va islomiy rivoyatlarga borib taqaladi. Dostonlarning tili sodda bo'lib, bu yassaviylik maktabining «avomga xos til bilan xosning ma'nosini yetkazish» tamoyiliga to'la mos keladi.

Sharq adabiyotida qaror topgan nazira (ustozlar asarlariga ijodiy javob yozish) an'anasi arabiy va forsiy asarlarni tarjima qilish orqali jahon epik tajribasini o'zlashtirish imkonini berdi. Qul Alining "Qissayi Yusuf", Sharaf Xo'janing "Muin al-murid", Husam Kotibning "Jumjuma sulton" dostonlari buning yorqin namunasidir.

Xorazm adabiy muhitida didaktik-falsafiy, ishqiy va allegorik dostonlarni badiiy tarjima qilish an'anasi tizimli ravishda davom etdi. Temuriylar davrida Nizomiy Ganjaviyning "Mahzan ul-asror"i Haydar Xorazmiy tomonidan "Gulshan ul-asror" nomi bilan, "Xusrav va Shirin" dostoni Qutb Xorazmiy tomonidan she'riy tarjima qilindi. Kamoliddin Xusayn Xorazmiy Busuriyning "Qasidat ul-Burda" asariga chig'atoy tilida sharh yozdi. Xonliklar davrida Payvandiy Rizoiy Attorning "Mantiq ut-tayr"ini "Qush tili" nomi bilan o'girdi, Nishotiy forsiy "Husn va Dil" ta'sirida o'z dostonini yaratdi. Bu an'ana keyinchalik Xiva xonligi tarjima maktabida Munis va Ogahiy ijodida cho'qqiga erishdi.

3. Mahalliy og'zaki epik an'ananing boyligi. Xorazm zaminida qadimdan og'izdan og'izga o'tib kelgan qahramonlik va ishqiy-romanik syujetlar yozma adabiyot uchun tayyor poetik uslub taqdim etgan. Boqirg'oniy hikmatlari va Qul Alining "Qissayi Yusuf" dostoni xalq og'zaki ijodi shakli bo'lgan to'rtlikda va barmoq vaznida yozilganligi buning dalilidir. Nosiriddin Rabg'uziy "Qissasi Rabg'uziy" asarida (1310) folklorning bir qancha janrlaridan unumli foydalangan. Payg'ambarlarning hayot yo'lini tasvirlashdan avval ularning sifatlari va mo'jizalarini ertak va dostonlarda yetakchi bo'lgan saj' usulidan (nasriy qofiya) foydalanib ifodalagan [4:86–96]. Muallif asarda hikoyat, rivoyat va latifa janrlarini sintez qilgan. Shu tariqa, Xorazmda og'zaki va yozma epik an'analar bir-birini rad etmaydigan, aksincha, o'zaro to'ldiruvchi tizim sifatida rivojlandi.

XIII asr boshlarida mo'g'ullar istilosi Xorazm madaniy hayotiga jiddiy zarba bergan bo'lsa-da, adabiy an'anani to'la uzib tashlay olmadi. Oltin O'rda hukronligi davrida Xorazm poytaxti bo'lgan Urganch yana savdo va ilm-fan o'chog'iga aylandi, Saroy va Xorazm o'rtasidagi madaniy aloqalar turkiy adabiy tilning mavqeyini yanada mustahkamladi. XIII asr oxiri va XIV asrda turkiy yozma adabiyotning eng yirik yodgorliklari aynan shu muhitda vujudga keldi.

Xorazm epik she'riyatining paydo bo'lishi tasodifiy hodisa bo'lmay, balki mintaqadagi ming yillik yozuv madaniyati, yuksak ilmiy-badiiy muhit, turkiy adabiy tilning izchil kamoloti, fors-tojik va arab adabiyotining ijodiy ta'siri hamda boy og'zaki xalq ijodiyoti an'analarining o'zaro sintezi mahsulidir. Bu an'analar keyingi davr o'zbek epik tafakkuri taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor vazifasini o'tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beruniy A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar / Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1968.
2. Saidov Y. O'zbek adabiy tili tarixi: o'quv qo'llanma. – Buxoro: Durdona, 2019.
3. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1960.
4. Shukurova Z. "Qisasi Rabg'uziy"ning qo'lyozma va nashriy nusxalarida folklor namunalarining o'rni / Oltin bitiklar (Golden Scripts), 2019, № 2. – B. 86–96.

Nigora MAHMUDOVA,
Karshi State University Associate Professor, PhD

THE CONCEPT OF DERIVATION AND THE STAGES OF ITS DEVELOPMENT IN LINGUISTICS

Annotation. This article examines the emergence of derivatology as an independent field of linguistics, its theoretical foundations, and its historical roots. It explores the etymological and linguistic meanings of the concept of derivation and identifies the differences between derivation and word formation in terms of their scope. Particular attention is devoted to the formation of the concepts of lexical and syntactic derivation, the mechanisms underlying the formation of derived units, the relationships among morphemes within derivatives, and the theoretical foundations of syntactic derivation. The study concludes that derivatology should be understood as a broad theoretical field concerned not only with word formation but also with the formation of word combinations, sentences, complex syntactic constructions, and texts.

Keywords: derivatology, lexical derivation, syntactic derivation, word formation, derived unit, derived structure, derivational relations, operator, operand, syntactic relations, morphemic relations.

Annotatsiya. Mazkur maqolada derivatologiyaning tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida shakllanishi, nazariy asoslari va tarixiy ildizlari tahlil qilinadi. "Derivatsiya" tushunchasining etimologik va lingvistik mazmuni yoritilib, uning so'z yasalishi tushunchasidan qamrovi jihatidan farqli jihatlari ko'rsatib beriladi. Shuningdek, leksik va sintaktik derivatsiya tushunchalarining shakllanishi, hosila birliklarning yuzaga kelish mexanizmlari, so'z tarkibidagi morfemalararo munosabatlar va sintaktik derivatsiyaning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Derivatologiyaning faqat so'z yasalishini emas, balki so'z birikmalari, gap, murakkab sintaktik konstruksiyalar va matn hosil bo'lish jarayonlarini ham qamrab oluvchi keng qamrovli nazariy yo'nalish ekani ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: derivatologiya, leksik derivatsiya, sintaktik derivatsiya, so'z yasalishi, hosila birlik, hosila struktura, derivatsion munosabat, operator, operand, sintaktik munosabat, morfemalararo munosabat.

Аннотация. В статье рассматриваются становление дериватологии как самостоятельного направления языкознания, её теоретические основы и исторические истоки. Раскрывается этимологическое и лингвистическое содержание понятия деривации, а также выявляются отличия деривации от словообразования с точки зрения широты исследовательского охвата. Особое внимание уделяется становлению понятий лексической и синтаксической деривации, механизмам образования производных единиц, отношениям между морфемами в структуре деривата и теоретическим основам синтаксической деривации. В результате делается вывод о том, что дериватология представляет собой широкое направление, охватывающее не только словообразование, но и процессы формирования словосочетаний, предложений, сложных синтаксических конструкций и текста.

Ключевые слова: дериватология, лексическая деривация, синтаксическая деривация, словообразование, производная единица, производная структура, деривационные отношения, оператор, операнд, синтаксические отношения, морфемные отношения.

Derivatology has now acquired an independent status as a distinct field of linguistic studies. Since it is devoted to the study of problems of derivation, the concept is etymologically closely associated with the term itself. The term derivation is derived from the Latin *derivatio*, meaning *"separation," "detachment,"* or *"branching",* and in linguistics it is used in the senses of word formation and formation more generally [1].

The term derivatology was adopted in 1981 at the prestigious scientific conference entitled "Theoretical Problems of Derivatology", held at Perm University, and thus formally entered scholarly usage. However, the principal objective of the conference was not to determine the historical roots of the study of derivational problems. Its practical significance lay in the fact that the concept of derivatology was not only introduced into scientific discourse but was also established as an independent branch of linguistics.

It is evident that, until relatively recently, the concept of derivation was used almost as a logical synonym for the concept of word formation. This, however, should be understood in relative terms, since derivation differs from word formation in the breadth of its scope.

In contemporary linguistics, derivational theory is widely employed in the study of the formation of such units of speech as word combinations, sentences, complex syntactic constructions, and texts. Today, it can be argued that the terminology to be introduced into derivatological research, as well as the range of tasks that derivatology is expected to address, has been defined with considerable precision.

It should also be noted that derivatology did not emerge in an intellectual vacuum; like other academic disciplines, it has its own historical roots. Admittedly, the study of syntactic derivation began relatively late. Problems of lexical derivation, however, although they were not originally referred to by this name, have attracted the attention of scholars since ancient times. Evidence of this can be found in the normative grammar composed by Panini in ancient India. The detailed scholarly treatment of sound alternations associated with the formation of word stems in Sanskrit found in Panini's grammar indicates that this work already contained the foundations of an early derivational grammar [2].

Ancient Indian scholars paid serious attention to the interpretation of units belonging to the phonetic and morphological levels of language. For example, when discussing morphology, they identified three principal areas:

1) the classification of parts of speech;
2) word formation;
3) inflection.

From a derivational perspective, the issue of word formation is of particular importance. Panini's grammar even contains information concerning derived forms. In discussing the analysis of words, it is clearly indicated that Sanskrit roots may be classified into three types: a primary simple root, a derivational root, and a derived root. This, in turn, demonstrates that the earliest foundations of derivational grammar had already begun to take shape within ancient Indian linguistics.

In general, the linguistic scholarship of ancient India achieved remarkable advances. Reflecting on this achievement, V.Thomsen particularly emphasizes the following: "Indian linguistics had reached such a level that European linguistics was able to attain a comparable level only in the 19th century, and even then after learning a great deal from the Indians" [3].

When discussing the formation and historical roots of derivatology, it is also important to consider the derived words presented in Mahmud Kashgari's Dīwān Lughāt al-Turk. In providing information on basic and derived words,

the scholar notes: "Nouns are of two types: derived nouns and basic nouns. Nouns derived from verbs are formed by adding one of twelve letters to the end of the verb. Words such as "*qilich*" and *"oq"* are basic nouns. Such nouns are not derived from other words. Derived nouns originate from other words" [4].

Mahmud Kashgari also provides extensive information on noun derivation and verb formation. Most importantly, he devoted considerable attention to the problem of word formation. This demonstrates that the historical roots of modern derivatology can also be traced through the materials of the Turkic languages. Further evidence can be found in the observations on word formation presented by Alisher Navoi in his work *Muhokamat al-Lughatayn* (The Judgment of the Two Languages).

In contrast to the aforementioned views concerning word formation, the universal grammar of Port-Royal, written in the 17th century, focused primarily on the formation of sentences. Its authors, Antoine Arnauld and Claude Lancelot, demonstrated, on the basis of scientifically grounded examples, how speakers construct sentences in order to express their thoughts and combine sentences capable of expressing individual propositions into more complex and meaningful structures. This can be illustrated by the following example:

"The invisible God created the visible world".

Here, several simple propositions are shown to combine with one another to form a complex sentence:

"God is invisible + God created the world + The world is visible" [2].

At this point, we can observe the emergence of the phenomenon of syntactic derivation. This may be regarded as one of the most significant achievements of universal grammar. Indeed, conceiving of sentence formation in this manner was not only of exceptional importance for linguistics at the time but also remains valuable for contemporary derivatology. The method of contamination, which is widely employed in modern theories of syntactic derivation, is based precisely on this principle.

The principles of universal grammar exerted a significant influence on the development of linguistics worldwide. This influence can also be observed in the development of Russian linguistics during the seventeenth and eighteenth centuries. Evidence can be found, for instance, in M.V.Lomonosov's observations that the participle represents a reduced form resulting from the combination of an adjective and a verb, and that an adverb may correspond to an entire proposition within a sentence:

"The boy reads + The boy's reading is good = The boy reads well".

Similar observations can also be found in the works of N.I.Grech, F.I.Buslaev, and other linguists. What is particularly significant here is that these scholars were already discussing derived structures.

The issue of derived structures was first placed on the research agenda from a syntactic perspective by the Polish linguist Jerzy Kuryłowicz. His description of this issue was presented in his work Dérivation lexicale et dérivation syntaxique, published in 1936. Nevertheless, despite its significance, the issue received little serious attention in general linguistics for many years. It was not until 1962, when Kuryłowicz's work was translated into Russian under the title Syntactic Derivation and Lexical Derivation, that a significant shift occurred in this area of Russian linguistics.

It should also be noted that many linguists regard lexical derivation as equivalent to the phenomenon of word formation. Indeed, lexical derivation necessarily involves word formation, and their fundamental principles are shared. For example, the concepts of the word-formation base and the derivational affix/formant are also significant from a derivational perspective. The distinction is primarily terminological. In other words, in lexical derivation, the term operand is used instead of word-formation base, while operator is used instead of derivational formant.

Lexical derivation, however, differs from word formation in that it also examines the internal relations among morphemes occurring at the level of the derived structure (the derivative). Consider, for example, the Uzbek word *ishchi* ("worker"). This word is undoubtedly a derivative formed according to a word-formation pattern. Consequently, it can be regarded as a product of lexical derivation.

Frans Kafkaning "Qal'a" romanini oneyrik poetika nuqtayi nazaridan tahlil qilish tushsimonlik asarda alohida tush epizodlari bilan chegaralanmasligini ko'rsatdi. U romanning makon va vaqt tuzilishida, sabab-oqibat munosabatlarida, qahramonning maqsadga yo'nalgan harakatida, muloqot shakllarida va hokimiyatning badiiy tasvirida namoyon bo'ladi. Qal'a ko'rinadi, lekin unga yetib borish qiyin; vaqt o'tadi, lekin qahramon maqsadiga yaqinlashmaydi; ma'lumot ko'payadi, ammo aniqlik kamayadi; hokimiyatning ta'siri seziladi, biroq uning markazi tutqich bermaydi. Bu belgilar alohida hodisalar emas, balki o'zaro bog'langan poetik tizimdir.

K.ning Qal'a bilan munosabati bu tizimning insoniy tomonini ochib beradi. U tashqi kuchga qarshilik ko'rsatadi, shu bilan birga o'z mavqeyini aynan shu kuch tomonidan tan olinishiga bog'laydi. Frommning insonning ojizlik sharoitida hokimiyatga ega tuzilma bilan identifikatsiya qilish orqali o'z faoliyati va kuchini his etishga urinishi haqidagi kuzatuvi K.ning mazkur ichki ziddiyatini kengroq talqin qilish imkonini beradi [5]. Biroq begonalashuv "Qal'a"dagi oneyrik poetikaning o'rnini egallamaydi. Aksincha, qahramonning begonalashuvi tushsimon qurilgan makon, noaniq sababiyat va erishib bo'lmaydigan maqsad sharoitida yanada keskinlashadi.

Shunday qilib, "Qal'a"da tush tasvir obyektidan badiiy voqelikni tashkil etish tamoyiliga aylangan, degan xulosaga kelish mumkin. Kafka tush haqida hikoya qilishdan ko'ra, tushga xos idrok va voqelik qurilishi qonuniyatlarini roman strukturasiga singdiradi. Aynan shu xususiyat asardagi absurdlik, begonalashuv va hokimiyat muammolarini yagona badiiy tizimda birlashtiradi. Kelgusida "Qal'a"dagi ushbu oneyrik modelni Kafkaning kundaliklarida qayd etilgan tushlar bilan qiyosiy o'rganish muallifning shaxsiy tush tajribasi bilan uning badiiy tafakkuri o'rtasidagi aloqalarni yanada aniqroq ochishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kafka F. Qal'a. – Toshkent: Muharrir, 2023.
2. Robertson R. Kafka: A Very Short Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2004.
3. Sokel W.H. The Myth of Power and the Self: Essays on Franz Kafka. – Detroit: Wayne State University Press, 2002.
4. Freud S. The Interpretation of Dreams. – Oxford: Oxford University Press, 1999.
5. Фромм Э. Душа человека: Ее способность к добру и злу. М.: Республика, 1992.

Lola AVLIYOQULOVA
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

ONKOLOGIYA SOHASIDAGI TIBBIY ATAMALARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada onkologiya sohasida qo'llanidigan tibbiy atamalarning strukturaviy va semantik xususiyatlari ilmiy-lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Xususan, sohada uchraydigan terminologik sinonimiya, dublet shakllar, tarjima jarayonidagi xatolar, polisemantiklik hamda standartlashtirishdagi kamchiliklar yoritiladi. Terminlarning ilmiy aniqligi va tushunarliligini ta'minlash, ularni yagona me'yoriy tizimga keltirish hamda milliy til imkoniyatlari asosida takomillashtirish masalalari muhokama qilinadi.
Kalit so'zlar: onkologik terminologiya, struktur-semantik tahlil, sinonimlik, dubletlar, tarjima muammolari, polisemantiklik, standartlashtirish.
Annotation. This article analyzes the structural and semantic features of medical terms used in the field of oncology from a linguistic perspective. In particular, it examines problematic issues such as terminological synonymy, doublet forms, translation inaccuracies, polysemy, and shortcomings in standardization. Furthermore, the paper discusses the issues of ensuring scientific accuracy, systematizing terms within a unified normative framework, and improving them based on the internal resources of the national language.
Keywords: oncological terminology, structural-semantic analysis, synonymy, doublets, translation problems, polysemy, standardization.
Аннотация. В данной статье с лингвистической точки зрения анализируются структурные и семантические особенности медицинских терминов, используемых в сфере онкологии. В частности, рассматриваются такие проблемные аспекты, как терминологическая синонимия, дублетные формы, неточности при переводе, полисемия и недостатки стандартизации. Также обсуждаются вопросы обеспечения научной точности терминов, их упорядочения в рамках единой нормативной системы и совершенствования на основе возможностей национального языка.
Ключевые слова: онкологическая терминология, структурно-семантический анализ, синонимия, дублеты, проблемы перевода, полисемия, стандартизация.

Bugungi kunda jahon ilm-fani, xususan, tibbiyot sohasi misli ko'rilmagan tezlikda rivojlanib, inson salomatligini saqlash va og'ir kasalliklarga qarshi kurashish yo'lida ulkan yutuqlarga erishmoqda. Tibbiyotning eng murakkab va nozik yo'nalishlaridan biri bo'lgan onkologiya ham so'nggi yillarda diagnostika va davolash usullari bo'yicha keskin o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Har qanday yangi ilmiy kashfiyot yoki tibbiy yondashuv esa, o'z navbatida, maxsus til vositalari – terminlar orqali ifodalanadi. Shu boisdan onkologik terminologiyani chuqur o'rganish, uning ildizlarini va ichki tuzilishini tushunish nafaqat tibbiyot xodimlari, balki tilshunoslar uchun ham birdek dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Har safar tibbiy adabiyotlarni varaqlaganimizda yoki mutaxassislar suhbatiga quloq tutganimizda, bu sohadagi atamalarning naqadar salmoqli, qadimiy ildizlarga ega va murakkab ekanini yaqqol sezamiz. "Onkologiya", "karsinoma", "metastaz" kabi har bir so'zning ortida asrlar davomida shakllangan boy lisoniy tarix, shifokorlarning mashaqqatli izlanishlari va murakkab ilmiy tushunchalar yotadi.

Tibbiy terminologiya va uning lisoniy xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish, uni tilshunoslik qonuniyatlari asosida tadqiq qilish har doim ko'plab olimlarning e'tiborida bo'lib kelgan. Chunki tibbiyot tili shunchaki tor doiradagi shifokorlar muloqot vositasi emas, balki tilning eng boy, qadimiy va ayni paytda jadal rivojlanib boruvchi qatlamlaridan biridir. Shu boisdan ham bu yo'nalishda qator taniqli tilshunos va mutaxassislar o'zlarining fundamental ilmiy ishlari bilan salmoqli hissalar qo'shishgan.

Masalan, mashhur tilshunos olim V.P.Petelin ilmiy izlanishlarida tibbiy terminologiyaning shakllanish bosqichlari, xususan, qadimgi lotin va yunon tillarining zamonaviy tibbiyot leksikasidagi ustuvor o'rnini chuqur tahlil qilgan [7]. U o'zining "Tibbiy terminologiyaning nazariy asoslari va uning taraqqiyot bosqichlari" ilmiy ishida atamalarning etimologik ildizlari va ularning tillararo o'zlashish qonuniyatlarini keng yoritib bergan. Olimning fikricha, har qanday tibbiy terminning kelib chiqish tarixini bilish uning asl ma'nosini anglash va professional muloqotda qo'llashning garovidir.

Tibbiy diskurs va terminlarning semantik xususiyatlarini o'rganishda professor L.A.Koprovaning tadqiqotlari alohida e'tiborga loyiqdir. Uning *"Tibbiyot tilining semantik strukturasi va metaforizatsiya jarayonlari"* deb nomlangan monografiyasida aynan onkologik va boshqa murakkab tibbiy atamalarning hosil bo'lishida kognitiv metafora va o'xshatishlarning roli ochib berilgan [9].

Bundan tashqari, o'zbek tilshunosligida ham milliy tibbiy terminologiyani shakllantirish, ularni tartibga solish va xalqaro standartlarga moslashtirish masalalari bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, tilshunos olimlarimizdan biri Sh.Rahmatullayev o'zbek tili leksikologiyasiga bag'ishlangan ilmiy ishlarida ilmiy terminlarning yasalish modellari, sodda va qo'shma so'zlar hamda tahliliy birikmalarning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bergan bo'lib, bu nazariy qarashlar bugungi kunda tibbiy terminlarni o'zbek tilida aniq va ravshan ifodalashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda [3].

Tilimizdagi tibbiy leksika tarixi asosan arab, fors-tojik va rus tillari ta'sirida shakllangan bo'lsa, keyingi yillarda ingliz tilining global miqyosdagi ta'siri sababli xalqaro darajadagi atamalarning kirib kelishi yanada faollashdi. Natijada, terminologik tizimda muayyan tartibsizliklar, xususan, bir tushunchani ifodalashda turli xil shakllarning parallel ishlatilishi yuzaga kelmoqda.

Taniqli chet ellik olimlar Maria Teresa Cabre va Eugen Wüster o'zlarining ilmiy izlanishlarida terminlarning nazariy asoslari, ularni standartlashtirish tamoyillari hamda terminologik tizimlarni ilm-fan talablariga mos ravishda tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar [2: 44]. O'zbek tilshunosligida esa bu yo'nalishda bir qator ilmiy ishlar olib borilgan bo'lib, jumladan, olima Gulmira Bozorova tibbiy terminlarning diskursiv xususiyatlari, abbreviatsiyalarning yasalish qonuniyatlari hamda ularning stilistik jihatdan o'zgaruvchanligini atroflicha tahlil qilgan.

Shunga qaramay, terminologik sinonimiya, dubletlik holatlari va ularni tarjima qilishdagi amaliy qiyinchiliklar hali to'laqonli va tizimli ravishda o'rganilmagan bo'lib, mazkur tadqiqot aynan shunday bo'shliqlarni to'ldirishga yo'naltirilgan. Yuqorida tilga olingan olimlarning ilmiy asarlari va tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tibbiy terminologiyani, xususan, onkologik leksikani etimologik va struktur-semantik jihatdan

o'rganish nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki zamonaviy tibbiyot amaliyoti uchun ham birdek dolzarb va ahamiyatlidir.

Onkologik terminlar – bu tibbiyotning o'smalar kasalligini o'rganuvchi sohasi bo'lgan onkologiyada ishlatiladigan, patologik jarayonlarning kelib chiqishi, tuzilishi va xarakterini aniq ifodalovchi maxsus lisoniy birliklardir. Ushbu atamalarning aksariyati qadimgi yunon va lotin tillaridan o'zlashtirilgan bo'lib, ular kasallik turlarini, o'smalarning tarqalish xususiyatlarini hamda davolash usullarini qisqa va ilmiy tilda bayon etishga xizmat qiladi.

Onkologik terminologiya o'zbek tibbiyot leksikasining eng zich, ilmiy jihatdan qat'iy tartibga solingan va ayni paytda jadal rivojlanib borayotgan yetakchi qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning etimologik ildizlari chuqur antik davr tabobatiga, xususan, qadimgi yunon va lotin tillarining boy ilmiy merosiga borib taqaladi. Masalan, tibbiyot asoschisi Gippokrat qisqichbaqaning oyoqlari shish atrofiga tarqalib ketuvchi shoxlangan tomirlarga o'xshashini kuzatib, **karsinoma** atamasini muomalaga kiritgan. Eng qizig'i shundaki, ming yillar o'tib ham bu metaforik yondashuv o'zining ilmiy ahamiyati va kuchini yo'qotmagan.

Bugungi kunga kelib esa jahon ilmiy maydonidagi global integratsiya jarayonlari ta'sirida ingliz tilidan kirib kelayotgan *onkogen, limfoma* va *biomarker* kabi zamonaviy xalqaro o'zlashtirmalar milliy terminologiyamizni mazmunan yanada boyitib bormoqda. O'zbek tilidagi bunday murakkab tibbiy nomlar sodda va qo'shma so'zlar shaklida, shuningdek, aniqlovchi-aniqlanmish munosabatiga asoslangan xavfli o'sma, xavfsiz o'sma va me'da saratoni kabi tahliliy birikmalar ko'rinishida mukammal namoyon bo'ladi [1: 58].

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, o'zbek onkologik terminologiyasini har tomonlama takomillashtirish va ilmiy jihatdan qat'iy tartibga solish bugungi jadal rivojlanayotgan davrda tilshunoslik hamda amaliy tibbiyot oldida turgan eng kechiktirib bo'lmaydigan va o'ta mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Kundalik ilmiy-klinik muloqot jarayonida uchrayotgan turlicha sinonimik qatlamlar, o'zaro raqobatlashuvchi dublet shakllar, tarjima chog'idagi jiddiy nomuvofiqliklar va ortiqcha polisemantik holatlar sohaning rivojlanishiga o'zining sezilarli darajada salbiy ta'sirini ko'rsatib, zamonaviy talablarga javob beradigan yagona normativ bazani shakllantirish zaruriyatini yaqqol yuzaga chiqarmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boliyev M.N., Umarov X.T. Lotin tili va tibbiy terminologiya asoslari. – Toshkent: Meditsina, 2021.
2. Bozorova G.Z. Zamonaviy o'zbek tilida tibbiy terminlarning uslubiy o'zgaruvchanligi va diskursiv funksiyalari. – Toshkent: Ilmiy nashr, 2023.
3. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST). Kasalliklarning xalqaro tasnifi (ICD-11 / Xalqaro standartlar bo'yicha o'zbekcha sharhlar). – Jeneva–Toshkent, 2023.
4. Петелин В.П., Копрова Л.А. Формирование современной медицинской терминологии в языковой системе. СПб.: Наука, 2021.
5. Чернявский М.И. Латинский язык и основы медицинской терминологии. М.: Георгий, 2018.

Shahlo SA'DULLAYEVA,
Buxoro davlat universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti

O'QITUVCHI OBRAZI ARXETIP SIFATIDA (o'zbek va turk nasrlari misolida)

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek nasrida o'qituvchi obrazi arxetip nazariyasi asosida tahlil qilinadi. "Arxetip" tushunchasining nazariy asoslari yoritilib, o'qituvchi obrazining donishmand, qahramon va yo'l ko'rsatuvchi arxetiplari bilan bog'liqligi tahlil etiladi. Pirimqul Qodirovning "Uch ildiz", Shuhratning "Oltin zanglamas" hamda Muhammad Salomning "Dovul" asarlaridagi o'qituvchi obrazlari qiyosiy o'rganiladi. Tadqiqot natijasida o'qituvchi obrazi o'zbek nasrida ma'rifat, axloqiy yetuklik va jamiyat taraqqiyotining badiiy timsoli sifatida namoyon bo'lishi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: arxetip, o'qituvchi obrazi, donishmand arxetipi, qahramon arxetipi, yo'l ko'rsatuvchi arxetipi, badiiy obraz, o'zbek nasri, qiyosiy tahlil.

Annotation. This article analyzes the image of the teacher in Uzbek prose from the perspective of archetype theory. The theoretical foundations of the concept of archetype are examined, and the relationship between the teacher image and the archetypes of the wise mentor, hero, and guide is revealed. The study provides a comparative analysis of teacher characters in the novels of Pirinqul Kadirov's "Three Roots", Shuhrat's "Golden Stainless", and Muhammad Salom's "Hurricane". The research shows that the teacher figure in Uzbek prose functions as a symbolic representation of enlightenment, moral maturity, and social development.

Keywords: archetype, teacher image, wise mentor, hero archetype, literary image, Uzbek prose, comparative analysis.

Аннотация. В данной статье образ учителя в узбекской прозе анализируется на основе теории архетипа. Рассматриваются теоретические основы понятия архетипа, а также раскрывается связь образа учителя с архетипами мудреца, героя и наставника-проводника. В исследовании проводится сравнительный анализ образов учителя в произведениях Пиринкула Кадирова «Три корня», Шухрата «Золотая дыра» и Мухаммада Салома «Метель». В результате исследования выявлено, что образ учителя в узбекской прозе выступает художественным символом просвещения, нравственной зрелости и общественного развития.

Ключевые слова: архетип, образ учителя, мудрец, архетип героя, художественный образ, узбекская проза, сравнительный анализ.

Badiiy asarlardagi obrazlar tizimini o'rganishda arxetip nazariyasi muhim metodologik yondashuvlardan biri hisoblanadi. "Arxetip" tushunchasi zamonaviy ilmiy muomalaga analitik psixologiya asoschisi Karl Gustav Yung tomonidan kiritilgan. Termin yunon tilidagi "arche" – "ibtido", "typos" – "obraz" so'zlaridan tarkib topgan. Hozirgi zamon filologiyasida ushbu tushuncha keng ma'noda qo'llanib, badiiy ijod jarayonida "ko'chib yuruvchi", ya'ni avloddan avlodga o'tuvchi va yaratuvchan xarakterga ega bo'lgan muayyan modellarni, shuningdek, barqaror takrorlanuvchi adabiy shakllarni anglatadi. Shu nuqtayi nazardan, arxetiplar "har qanday badiiy strukturalar asosida yotuvchi eng umumiy, fundamental va umuminsoniy mifologik motivlar, dastlabki sxemalar hamda tasavvurlar" sifatida talqin etiladi [5:110–111]. Demak, adabiy arxetiplar nafaqat mifologiya va urf-odatlar bilan bog'liq ibtidoiy obrazlarni, balki adabiyotda shakllangan "abadiy obrazlar"ni ham o'z ichiga oladi.

Insoniyat sivilizatsiyasining dastlabki arxetipi qanday shaklda bo'lganini aniq belgilash mushkul. Biroq ilmiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, u keyinchalik ilohiylik tushunchasi bilan bog'langan, ya'ni g'ayritabiiy kuchga ega bo'lgan obraz sifatida talqin etilgan. Turli nazariyalarga ko'ra, Xudo konsepsiyasi turli diniy ta'limotlarda turlicha izohlangan bo'lsa-da, uning oliy va g'ayritabiiy kuch egasi sifatidagi mohiyati aksariyat dinlarda mushtarakdir. Ibtidoiy jamiyat vakillari, xususan, qoyatoshlarga tasvirlar chizgan insonlar o'z kundalik hayotini aks ettirish orqali borliqni idrok etishga intilganlar. Ularning tasavvurida bu tasvirlar va hodisalar real voqelikning mohiyatini ifodalovchi hamda muayyan darajada mo'jizaviy mazmun kasb etuvchi fenomen sifatida namoyon bo'lgan.

Arxetiplar quyidagi asosiy xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. Umumiylik. Arxetiplar turli xalqlarning madaniyati, mifologiyasi va folklorida uchraydi.

2. Ramziylik. Ular ko'pincha ramziy obrazlar, motivlar yoki syujetlar orqali ifodalanadi.

3. Ruhiy asos. Inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini ifodalab, xulq-atvor va dunyoqarashni shakllantirishga ta'sir qiladi.

Masalan, mifologiya va folklorda dono chol, pir, qahramon, ona, soya kabi obrazlar arxetip sifatida talqin qilinadi. O'zbek folklorida ham arxetiplar turli obraz va motivlar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, dono pir yoki yo'l ko'rsatuvchi qahramon epik asarlarda asosiy qahramonga maslahat beruvchi va yo'l ko'rsatuvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Bunga "Alpomish" yoki "Go'ro'g'li" dostonlaridagi pir va xizir obrazlarini misol qilib keltirish mumkin.

Folklorshunos olim Shomirza Turdimov tomonidan "Go'ro'g'li" dostonlari tahlilida arxetip obrazlar quyidagicha tasnif qilinadi: asosiy qahramon (alp, epik qahramon), antiqahramon, ko'makchi qahramon (do'st, epik ot, yor yoki raqib), vositachi qahramonlar (homiy eranlar, pirlar) [4: 12].

Bundan tashqari, folklorda arxetip tasviriy vositalari ham mavjud bo'lib, ular epik formulalar orqali ifodalanadi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: doimiy epitetlar; ramz va timsollar; an'anaviy epik tasvirlar; turg'un poetik formulalar.

Ushbu tasnif asosida "Go'ro'g'lining tug'ilishi" va "Go'ro'g'lining bolaligi" dostonlarida arxetipik obrazlarning shakllanish jarayonini kuzatish mumkin, [4: 42–43]. Folklordagi ko'plab qahramonlar mifologik asosga ega bo'lib, ular insoniyatning qadimiy tasavvurlari bilan bog'liq holda shakllangan. Faqatgina folklorda emas, yozma adabiyotda ham arxetipik obrazlar uchraydi va bu asrlar davomida kishilar ongida shakllangan tushunchalar, qarashlar mahsuli sanaladi.

Yozma adabiyotda arxetipik obrazlardan foydalanishning asosiy maqsadi – badiiy matnning ma'no qatlamini chuqurlashtirish, uni universal va keng qamrovli mazmun bilan boyitishdan iborat. Arxetiplar insoniyatning kollektiv ongida qadimdan shakllangan timsollar bo'lib, ular orqali muallif individual voqeani umuminsoniy darajaga olib chiqadi:

– birinchidan, arxetipik obrazlar asarga umuminsoniylik xususiyati beradi. Masalan, "ona", "qahramon", "ustoz", "yo'lchi"

kabi arxetiplar turli madaniyat va davrlarda bir xil ma'naviy mazmunni ifodalaydi. Shu sababli bunday obrazlar o'quvchi tomonidan oson qabul qilinadi va chuqurroq anglanadi;

– ikkinchidan, ular ramziy va ko'pqatlamli ma'no yaratish imkonini beradi. Arxetip oddiy obrazdan farqli ravishda faqat syujetdagi rolni emas, balki yashirin falsafiy va psixologik mazmunni ham o'zida mujassam etadi. Bu esa matnni interpretatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi;

– uchinchidan, arxetiplar orqali muallif milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtiradi. Masalan, o'zbek adabiyotidagi ustoz yoki murabbiy obrazi milliy rang-baranglikka ega bo'lsa-da, uning ildizi umuminsoniy "yo'l ko'rsatuvchi" arxetipiga borib taqaladi;

– to'rtinchidan, arxetipik obrazlar o'quvchi ongiga tez va kuchli ta'sir ko'rsatadi. Chunki bu timsollar Karl Gustav Jung ta'kidlaganidek, insoniyatning "kollektiv ongsizligi" bilan bog'liq bo'lib, ularni qabul qilish uchun maxsus tayyorgarlik talab etilmaydi.

– beshinchidan, ular badiiy an'ana va uzviylikni ta'minlaydi. Yozuvchi avvalgi adabiy tajribaga tayangan holda yangi mazmun yaratadi, ya'ni qadimiy timsollar zamonaviy talqin kasb etadi.

Demak, arxetipik obrazlar yozma adabiyotda nafaqat estetik vosita, balki chuqur falsafiy va madaniy mazmunni ifodalovchi muhim badiiy mexanizm hisoblanadi.

O'qituvchi obrazi badiiy adabiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. "...ma'rifatparvar adiblar asarlaridagi o'qituvchi, ziyoli va boshqalar jaholatga qarshi kurashuvchi qahramonlardir. Muallim obrazi ma'rifatparvar adabiyotining ideal qahramonidir. Uning timsolida asrlar bo'yi ilmsiz yashab kelgan xalqqa bilim orqali yorug' dunyoni ko'rsatish, shu tariqa ommani xayrli ishlarga yo'llash tushunchalari mujassamlashtirilgan" [2: 120]. O'qituvchi obrazining arxetipik talqini masalasiga keladiga bo'lsak, arxetiplar tizimida eng muhim obrazlardan biri ***donishmand yoki ustoz arxetipi*** hisoblanadi. Bu tipdagi qahramon bilim, tajriba va ma'naviy yetuklik egasi bo'lib, boshqalarga yo'l ko'rsatish vazifasini bajaradi.

Pirimqul Qodirovning "Uch ildiz" romanida o'qituvchi obrazi aynan shu arxetipning yorqin ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Asarda ustoz yosh avlodni ilm va ma'rifat ruhida tarbiyalashga intiluvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. U faqat bilim beruvchi emas, balki ma'naviy qadriyatlarni shakllantiruvchi shaxs sifatida ham ko'rsatiladi. Mifologik an'analarda ham qahramonlar muhim yo'lga chiqishdan oldin donishmand ustozdan maslahat oladi. Shu jihatdan mazkur romandagi o'qituvchi obrazi ham yosh avlodning shakllanishida muhim rol o'ynovchi ma'naviy yo'l ko'rsatuvchi sifatida talqin qilinadi.

Asar qahramonlaridan biri Akbarovning quyidagi talabalarga aytgan quyidagi gaplarini ko'rib o'tish muhim: "... kishi hayotga katta-katta ildiz otadigan payt ko'proq talabalik yillariga to'g'ri keladi... birinchisi, albatta, bilim, chunki sizlar bu yerda avvalo bilib deb yuribsizlar. Lekin bilim shunday ildizki, uni pulga sotib yeydiganlar ham bor. Bilim mana shunaqa past maqsadlarga oziq bermasligi uchun kishining yana bir zo'r ildizi bo'lishi kerak. Talabalikda voyaga yetadigan yana bir ildizlaringiz mana shu ma'nodagi odamiylik... shu ikki ildizingizning biri o'qishda o'ssa, biri jamiyat uchun deb qilingan ishda o'sadi" [1: 84–85].

O'qituvchi obrazi va qahramon arxetipi. Shuhratning "Oltin zanglamas" romanida o'qituvchi obrazi faol va kurashchan xarakterda tasvirlanadi. Bu asarda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki jamiyatdagi ma'naviy muammolarga qarshi kurashuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Asar nomidagi "oltin zanglamas" iborasi ramziy ma'noga ega bo'lib, ma'naviy poklik va halollikning abadiyligini anglatadi. O'qituvchi obrazi esa aynan shu g'oyaning badiiy ifodasiga aylanadi. Shu sababli mazkur obrazni qahramon arxetipi bilan qiyoslash mumkin.

Qahramon arxetipi odatda adolat va haqiqat uchun kurashuvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Agar qadimgi eposlarda qahramonlar jismoniy jasorat ko'rsatsa, zamonaviy nasrda o'qituvchi qahramon ma'naviy jasorat timsoli sifatida talqin etiladi. Ayni shu jihatni turk nasri namoyandasi Rashod Nuri Guntekinning "Yashil kecha" romani bosh qahramoni Shahin muallimda ham ko'rish mumkin.

O'qituvchi obrazi va ***yo'l ko'rsatuvchi arxetipi*** Muhammad Salomning "Dovul" romanida o'qituvchi obrazi murakkab ijtimoiy sharoit fonida tasvirlanadi. Muhammad Salomning "Dovul" qissasini o'qituvchilar haqidagi asar, aniqroq aytganda sho'ro davrining eng qiyin davrlarida yashagan oddiy qishloq o'qituvchilari haqidagi asar deyish mumkin. Asarda fidoyi o'qituvchi har qanday zamonda jamiyatning ma'naviy tirgagi ekanini adib mahorat bilan yoritib bera olgan [2: 103]. Asarda o'qituvchi yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu obraz qadimiy mifologiyadagi yo'l ko'rsatuvchi ustoz arxetipi bilan yaqin aloqada namoyon bo'ladi. Mifologik an'analarda yo'l ko'rsatuvchi qahramon asosiy qahramonga yo'l topishda yordam beruvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Romanda ham o'qituvchi yosh avlod uchun ma'naviy tayanch vazifasini bajaradi. U nafaqat bilim beradi, balki yoshlarning hayotiy qarashlari va axloqiy tamoyillarini shakllantirishga yordam beradi.

Tahlil qilingan uch asarda o'qituvchi obrazi umumiy g'oyaviy yo'nalish jihatidan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ularning badiiy talqinida muayyan farqlar mavjud. Birinchidan, uchala asarda ham o'qituvchi obrazi ilm-ma'rifat va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanadi. Bu hol o'zbek nasrida o'qituvchi obrazining ma'rifatparvarlik g'oyalarini ifodalovchi badiiy tip sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Ikkinchidan, har bir asarda o'qituvchi obrazi turli arxetipik xususiyatlarni namoyon etadi.

"Uch ildiz" romanida u donishmand ustoz sifatida tasvirlansa, "Oltin zanglamas" romanida ma'naviy qahramon sifatida namoyon bo'ladi. "Dovul" qissasida esa u yo'l ko'rsatuvchi ustoz arxetipiga yaqin obraz sifatida talqin qilinadi. Uchinchidan, ushbu obrazlar orqali yozuvchilar jamiyat hayotida ilm, ma'rifat va axloqiy qadriyatlarning muhim o'rin tutishini badiiy jihatdan ifodalaydilar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek nasrida o'qituvchi obrazi arxetipik xususiyatlarga ega bo'lgan muhim badiiy tip sifatida shakllangan. Bu obraz ko'pincha donishmand, qahramon va yo'l ko'rsatuvchi arxetiplari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi shaxs, balki jamiyatning ma'naviy yetakchisi, yosh avlodni tarbiyalovchi va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiruvchi kuch sifatida talqin qilinadi.

O'zbek adabiyotida o'qituvchi obrazi orqali ma'rifatparvarlik g'oyalari, ilmning ahamiyati va axloqiy yetuklik masalalari

badiiy jihatdan yoritiladi. Bu obraz ko'pincha yosh avlodni to'g'ri yo'lga boshlovchi ustoz sifatida tasvirlanib, jamiyat taraqqiyoti va madaniy rivojlanishining ramziy ifodasiga aylanadi. Shuningdek, o'qituvchi obrazining arxetipik talqini shuni ko'rsatadiki, zamonaviy adabiyotda qadimiy mifologik modellarning yangi mazmunda davom etishi kuzatiladi.

Agar folklor va eposlarda qahramonlar jismoniy jasorat timsoli bo'lsa, zamonaviy nasrda o'qituvchi obrazi ma'naviy jasorat, ma'rifat va axloqiy poklik timsoliga aylanadi. Shu jihatdan o'qituvchi obrazi jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlarni ifodalovchi universal badiiy model sifatida talqin qilinishi mumkin. Demak, o'qituvchi obrazini arxetipik yondashuv asosida o'rganish nafaqat adabiy obrazlarning ichki mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi, balki o'zbek nasrida ma'rifatparvarlik va insonparvarlik g'oyalarining badiiy ifodasini yanada kengroq talqin qilish imkonini ham yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov P. Uch ildiz. – Toshkent: Kamalak, 2019.
2. Sa'dullayeva Sh.A. Muhammad Salomning "Dovul" qissasida o'qituvchilar obrazi // "Yangi O'zbekistonning umidli yoshlari" respublika konferensiyasi materiallari, 2023, №1.
3. Guntekin R.N. Iztirob. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023.
4. Turdimov Sh. Etnos va epos. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.
5. Mify narodov mira. – Toshkent: 2008.

Gulasal XAYRULLOYEVA,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

TURLI DISKURSLARDA MODALLIKNING FUNKSIONAL-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada modallikning ilmiy, rasmiy-huquqiy, publitsistik, badiiy va kundalik diskurslardagi funksional-pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Modal vositalarning ishonch darajasini ifodalash, institutsional majburiyatni belgilash, muallif bahosini namoyon etish, personaj nuqtayi nazarini shakllantirish hamda adresatga bilvosita ta'sir ko'rsatishdagi vazifalari yoritiladi. Shuningdek, diskurs turi, muallif pozitsiyasi, kommunikantlarning maqomi, presuppozitsiya va intonatsiyaning modal mazmunni shakllantirish hamda talqin etishdagi o'rni aniqlanadi. Tadqiqot natijasida matn modalligi alohida modal markerlar yig'indisidan kengroq hodisa bo'lib, u muallifning kommunikativ strategiyasi, baholash munosabati va adresatga yo'naltirilgan pragmatik ta'sirini qamrab olishi asoslanadi. Tadqiqotning maqsadi ilmiy, rasmiy-huquqiy, publitsistik, badiiy va kundalik diskurslarda modal vositalarning funksional yukini qiyoslash, matn turi hamda muallif pozitsiyasining modal talqinga ta'sirini aniqlashdan iborat. Vazifalar sifatida har bir diskursning yetakchi modal ma'nolarini belgilash, modal markerlarning pragmatik vazifalarini ajratish va matn modalligi bilan gap modalligi munosabatini izohlash belgilandi.

Kalit so'zlar: matn modalligi, ilmiy diskurs, rasmiy diskurs, publitsistik diskurs, badiiy matn, muallif pozitsiyasi, modal strategiya.

Annotation. The article comparatively analyzes the functional-pragmatic features of modality in scientific, official-legal, journalistic, literary, and everyday discourses. It highlights the functions of modal resources in expressing degrees of certainty, determining institutional obligation, manifesting authorial evaluation, shaping the character's perspective, and exerting indirect influence on the addressee. Furthermore, the role of discourse type, authorial position, participant status, presupposition, and intonation in forming and interpreting modal content is identified. As a result of the study, it is substantiated that textual modality is a broader phenomenon than the sum of individual modal markers, encompassing the author's communicative strategy, evaluative attitude, and pragmatic impact directed at the addressee. The purpose of the study is to compare the functional load of modal resources in scientific, official-legal, journalistic, literary, and everyday discourses, and to determine the impact of the text type and the author's position on modal interpretation. The research tasks include identifying the leading modal meanings of each discourse, distinguishing the pragmatic functions of modal markers, and explaining the relationship between textual modality and sentence modality.

Keywords: textual modality, scientific discourse, official discourse, journalistic discourse, literary text, authorial position, modal strategy.

Аннотация. В статье сопоставляются функционально-прагматические особенности модальности в научном, официально-правовом, публицистическом, художественном и повседневном дискурсах. Освещаются задачи модальных средств в выражении степени достоверности, определении институциональной обязанности, проявлении авторской оценки, формировании точки зрения персонажа и оказании косвенного воздействия на адресата. Также определяются роль типа дискурса, позиции автора, статуса коммуникантов, пресуппозиции и интонации в формировании и интерпретации модального содержания. В результате исследования обосновывается, что текстовая модальность представляет собой более широкое явление, чем совокупность отдельных модальных маркеров, и охватывает коммуникативную стратегию автора, оценочное отношение и прагматическое воздействие, направленное на адресата. Целью исследования является сопоставление функциональной нагрузки модальных средств в научном, официально-правовом, публицистическом, художественном и повседневном дискурсах, а также определение влияния типа текста и позиции автора на модальную интерпретацию. В качестве задач были определены выявление ведущих модальных значений каждого дискурса, разграничение прагматических функций модальных маркеров и объяснение соотношения текстовой модальности с модальностью предложения.

Ключевые слова: текстовая модальность, научный дискурс, официальный дискурс, публицистический дискурс, художественный текст, позиция автора.

Funksional grammatika modallikni turli sath vositalari birlashadigan semantik maydon sifatida izohlaydi [1]. Epistemik, deontik va dinamik turlar o'rtasidagi farqlar F.R.Palmer tasnifida tizimlashtirilgan [2], modallikning kognitiv-pragmatik hamda diskursiv xususiyatlari esa J.Nuyts, P.Portner, Sh.Safarov va M.Hakimov qarashlarida yoritilgan [3]. Ushbu yondashuvlar modal vositalarning janrga bog'liq funksional yukini qiyoslash imkonini beradi.

Tadqiqot materiali sifatida o'zbek tilining ilmiy, rasmiy-huquqiy, publitsistik, badiiy va kundalik muloqot usullariga xos modal birliklar tanlandi. Ehtimol, albatta, shubhasiz, afsuski, mumkin, kerak, lozim, shart, tavsiya etiladi, maqsadga muvofiq kabi birliklar hamda shart-istak va analitik modal konstruksiyalar tahlil qilindi.

Qiyosiy-diskursiv tahlilda bir xil yoki yaqin modal vositaning turli janrlardagi funksiyasi solishtirildi. Ilmiy matnda epistemik mas'uliyat, rasmiy matnda institutsional manba, publitsistik matnda aksiologik pozitsiya, badiiy matnda nuqtayi nazar va polifoniya, kundalik muloqotda esa nutq akti hamda vaziyat konvensiyasi markaziy mezon sifatida olindi.

Matn modalligi va muallif pozitsiyasi. Matn modalligi alohida gaplardagi modal markerlar yig'indisidan kengroq tushunchadir. U muallifning tasvirlanayotgan voqelikka umumiy munosabati, axborotni ishonchli yoki ehtiyotkor taqdim etish strategiyasi, baholash mezonlari va adresatga yo'naltirilgan ta'sirini qamrab oladi. M.A.K.Halliday va C.M.I.M.Matthiessen modal vositalarni shaxslararo metafunksiya doirasida, ya'ni so'zlovchi bilan tinglovchi o'rtasidagi munosabatni tashkil etuvchi resurs sifatida izohlaydi [7].

Gap modalligi muayyan propozitsiyaning realligi, ehtimolligi, zaruriyati yoki istalganligini belgilasa, matn modalligi ushbu ma'nolarning butun diskurs davomida qanday taqsimlanishi va bir-birini qo'llab-quvvatlashini ko'rsatadi. Sarlavha, baholovchi leksika, zamon-mayl shakllari, modal so'zlar, takror, ritorik so'roq va kompozitsiya muallif pozitsiyasini birgalikda yuzaga chiqaradi.

Ilmiy diskursda epistemik mas'uliyat. Ilmiy matnda modal birliklar dalil va xulosa o'rtasidagi epistemik masofani ko'rsatadi. "Natijalar shuni ko'rsatadiki" shakli yuqori ishonchni, "taxmin qilish mumkinki" ehtiyotkor xulosani, "ehtimol" esa muqobil izohlar mavjudligini bildiradi. Ilmiy uslubda modal yumshatish muallifning mas'uliyatdan qochishi emas, balki xulosaning daliliy chegarasini aniq ko'rsatish va ilmiy muloqot etikasi talablariga rioya qilish vositasidir.

Rasmiy-huquqiy diskursda deontik me'yor. Rasmiy va huquqiy matnda modal ma'no ko'pincha institutsional

manbaga ega. "Ariza belgilangan muddatda taqdim etilishi shart" jumlasida majburiyatning egasi alohida so'zlovchi emas, hujjat orqali ifodalangan norma hisoblanadi. Shu sababli rasmiy matnda deontik modallik subyektiv xohishdan xoli, nisbatan barqaror va bir ma'noli bo'lishga intiladi. Biroq "tavsiya etiladi", "maqsadga muvofiq" kabi birliklar qat'iylik darajasini pasaytirib, tavsiyaviy modal zonani hosil qiladi.

Publitsistik va badiiy diskursda baholash. Publitsistik diskursda faktni bayon qilish bilan muallif bahosi ko'pincha birlashadi. "Shubhasiz", "afsuski", "ehtimol", "tabiiyki" kabi birliklar nafaqat ishonch darajasini, balki aksiologik pozitsiyani ham ifodalaydi. Badiiy matnda esa modallik qahramonning dunyoqarashi, xotirasi, qo'rquvi, umidi va muallif ironiyasi bilan bog'lanib, ko'p ovozli tuzilma kasb etadi. Bir gap qahramon nuqtayi nazarida ishonch, muallif pozitsiyasida esa xato yoki o'zini aldash sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Kundalik muloqotda bilvosita modallik. Kundalik muloqotda modal ma'noni anglash uchun vaziyatning fizik va ijtimoiy tafsilotlari ayniqsa muhim. "Choy ichasiz" jumlasi shaklan kelasi zamon xabari bo'lsa-da, mehmon kutish vaziyatida taklif, shifokor tavsiyasida ko'rsatma, qat'iy ohangda esa talab bo'lishi mumkin. Bunday misollar modal mazmunning grammatik markerlardan tashqari nutq aktlari va kommunikativ konvensiyalar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

1-jadval. Diskurs turlarida modal vositalarning yetakchi funksiyalari

Diskurs turi	Yetakchi modal ma'no	Asosiy vositalar	Pragmatik vazifa
ilmiy	epistemik ishonch/ ehtiyotkorlik	ehtimol, ko'rinadiki, aytish mumkinki	dalil chegarasini ko'rsatish
rasmiy-huquqiy	deontik majburiyat/ ruxsat	shart, lozim, taqiqlanadi, ruxsat etiladi	institutsional me'yorni belgilash
publitsistik	epistemik va aksiologik baho	shubhasiz, afsuski, tabiiyki	muallif pozitsiyasiga yo'naltirish
badiiy	subyektiv, emotiv va evidensial baho	ichki monolog, modal so'z, kinoya	nuqtayi nazar va polifoniyani yaratish
kundalik	direktiv, volitiv va bilvosita modal ma'no	intonatsiya, so'roq, kelasi zamon	muloqotni boshqarish va ta'sir ko'rsatish

Diskursga bog'liq modal talqin mezonlari. Modal birlikning muayyan kontekstdagi ma'nosini aniqlash uchun bir necha diagnostik savoldan foydalanish mumkin. Birinchidan, imkoniyat yoki zaruriyatning manbai nima: subyekt qobiliyatimi, tashqi sharoitmi, ijtimoiy normami yoki so'zlovchining bilim va dalillarimi? Ikkinchidan, gap adresatni harakatga undaydimi yoki voqea haqqoniyligini baholaydimi? Uchinchidan, modal ma'noni o'zgartiruvchi vakolat, sabab, shart, oldingi axborot yoki intonatsiya mavjudmi? To'rtinchidan, gap qaysi diskurs turida qo'llangan va ushbu janrning modal me'yorlari qanday?

Diskurs tahlilida modal birlikning chastotasidan tashqari uning kollokatsion muhiti, gapdagi pozitsiyasi, muallif yoki personajga tegishliligi, iqtibos ichida kelishi va matn bo'ylab takrorlanishi ham hisobga olinadi. Aynan shu belgilar alohida markerning matnning umumiy modal strategiyasidagi o'rnini aniqlashga yordam beradi.

Matn turini e'tiborsiz qoldirish modal ma'noni noto'g'ri talqin qilishga olib kelishi mumkin. Ilmiy matndagi "mumkin" ko'pincha ehtiyotkor xulosani, rasmiy matnda ruxsatni, rahbar nutqida yumshoq topshiriqni, badiiy matnda esa personajning gumoni yoki umidini ifodalaydi. Shuning uchun modal markerning funksiyasi janr me'yorlari bilan birgalikda tekshirilishi lozim.

Modallik turli diskurslarda bir xil vazifani bajarmaydi. Ilmiy matnda u dalil va xulosa o'rtasidagi epistemik masofani, rasmiy-huquqiy matnda institutsional majburiyat va ruxsatni, publitsistik matnda muallifning epistemik-aksiologik pozitsiyasini, badiiy matnda nuqtayi nazar va ko'p ovozlilikni, kundalik muloqotda esa bilvosita nutqiy ta'sirni tashkil etadi.

Matn modalligi alohida modal so'z va grammatik shakllar yig'indisidan keng bo'lib, muallifning kommunikativ strategiyasi, baholash mezoni, axborotni taqdim etish usuli va adresatga munosabatini qamrab oladi. Diskurs turi modal markerning qaysi semantik imkoniyati va pragmatik vazifasi ustuvorlashishini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бондарко А.В. (ред.). Теория функциональной грамматики: Темпоральность. Модальность. Л.: Наука, 1990.
2. Palmer F.R. Mood and Modality. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
3. Nuyts J. Epistemic Modality, Language, and Conceptualization: A Cognitive-Pragmatic Perspective. – Amsterdam – Philadelphia: John Benjamins, 2001.
4. Portner P. Modality. – Oxford: Oxford University Press, 2009.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
6. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
7. Halliday M.A.K., Matthiessen C.M.I.M. Halliday's Introduction to Functional Grammar. 4th ed. – London–New York: Routledge, 2014.
8. Nuyts J., Van der Auwera J. (eds.). The Oxford Handbook of Modality and Mood. – Oxford: Oxford University Press, 2016.
9. Xayrulloyeva G.F. Nutqiy sistemada modallikning emotive-ekspressiv va paralingvistik vositalar orqali ifodalanishi // O'zMU, 2026, №3. – B. 538–541. https://drive.google.com/drive/folders/14zpIjTLsNKJ9ThfSsLA8PgE5jjJRYeEF?hl=ru.
10. Xayrulloyeva G.F. Modallikni ifodalashning semantik asoslari // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 2024, №10. – B. 112–116. https://drive.google.com/file/d/1nDVQxzzbYisZn4U4sH9fmg-3jOw2TDXH/view?usp=sharing.

Dilorom YUSUPOVA,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti

ARAB TILIDAGI SO'ROQ GAPLARNING YORITILISHI: ZAMONAVIY TILSHUNOSLARNING QARASHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy arabshunos olimlar hamda G'arb tadqiqotchilarining so'roq gaplar tasnifi, ularning gapdagi sintaktik vazifalari va majoziy illokutiv ma'nolariga oid qarashlari atroflicha o'rganiladi. Zamonaviy arab tilshunosligida so'roq gaplarning yoritilishi, tadqiq etilish yo'nalishlari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, so'roq uslublarining o'ziga xos balog'iy xususiyatlari hamda turli tilshunoslik yondashuvlarining uyg'unlashuvi yoritib beriladi. So'roq gaplar ikki asosiy yo'nalish – formal-sintaktik (nahv) va pragmatik-semantik (balog'at) nuqtayi nazardan ko'rib chiqiladi. Formal yondashuvda so'roq yuklamalari va olmoshlarining grammatik tasnifi, gapdagi sintaktik vazifalari hamda e'rob tizimi yoritilgan bo'lsa, pragmatik-semantik yondashuvda so'roqning majoziy ma'nolari, illokutiv maqsadlari, kontekst va diskursdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: so'roq gaplar, formal-sintaktik yondashuv, pragmatik-semantik tahlil, balog'at, nahv, illokutiv maqsad, majoziy so'roq.

Annotation. This article thoroughly examines the views of modern Arabist scholars and Western researchers regarding the classification of interrogative sentences, their syntactic functions in a sentence, and their figurative illocutionary meanings. It analyzes the presentation of interrogative sentences in modern Arabic linguistics, their research directions, and specific characteristics. Furthermore, the paper highlights the specific rhetorical features of interrogative styles and the integration of various linguistic approaches. Interrogative sentences are examined from two main perspectives: formal-syntactic (grammar/nahw) and pragmatic-semantic (rhetoric/balaghah). While the formal approach highlights the grammatical classification, syntactic functions, and case-marking system (I'rab) of interrogative particles and pronouns, the pragmatic-semantic approach explores the figurative meanings, illocutionary forces, and the contextual and discursive role of interrogatives.

Keywords: interrogative sentences, formal-syntactic approach, pragmatic-semantic analysis, rhetoric (balaghah), grammar (nahw), illocutionary force, figurative question.

Аннотация. В данной статье подробно изучаются взгляды современных ученых-арабистов и западных исследователей на классификацию вопросительных предложений, их синтаксические функции в предложении и переносные иллокутивные значения. Анализируются освещение вопросительных предложений в современном арабском языкознании, направления их исследования и специфика. Также освещаются стилистические особенности вопросительных конструкций и интеграция различных лингвистических подходов. Вопросительные предложения рассматриваются с двух основных точек зрения: формально-синтаксической (грамматика/нахв) и прагматико-семантической (риторика/баляга). Если в рамках формального подхода освещаются грамматическая классификация вопросительных частиц и местоимений, их синтаксические функции в предложении и система и'раба, то в прагматико-семантическом подходе анализируются переносные значения вопрошания, иллокутивные цели, а также их роль в контексте и дискурсе.

Ключевые слова: вопросительные предложения, формально-синтаксический подход, прагматико-семантический анализ, баляга (риторика), нахв (синтаксис), иллокутивная цель, риторический вопрос.

Arab tilida so'roq gaplar nutqiy munosabatlarni shakllantirish va axborot almashinuvini ta'minlashda muhim sintaktik hamda balog'iy vosita hisoblanadi. Zamonaviy arab tilshunosligida bu birliklar nafaqat an'anaviy nahv qoidalari asosida formal-sintaktik jihatdan, balki balog'at ilmi doirasida pragmatik-semantik nuqtayi nazardan ham keng tadqiq etilmoqda.

Zamonaviy arab tilshunosligida mumtoz arab tili grammatikasiga oid manbalarga tayangan holda so'roq gaplar mavzusi ikki asosiy yo'nalishda tadqiq qilinadi:

1) formal-sintaktik nuqtai nazar: asosan nahv (sintaksis) ga doir asarlarda;

2) pragmatik-semantik nuqtai nazar: balog'atga oid asarlarda.

Birinchi yo'nalishdagi: Abduh Rojihiyning "التطبيق النحوي" (Amaliy nahv), Muhammad Antokiyning "منهاج" (Minhaj), Abbos Hasanning "النحو الوافي" (An-nahvu-l-vafiy) kabi asarlarda so'roq yuklamalari va so'roq olmoshlarining qo'llanish o'rinlari, gapda qanday sintaktik vazifalarni bajarishi, so'roq gaplarning tuzilishi, tartibi haqida so'z boradi. Zamonaviy arabshunoslikda so'roq gaplarning formal-sintaktik yoritilishi bir necha o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Avvalo, bu yondashuv so'roq vositalarining qat'iy grammatik tasnifiga tayanadi: so'roq yuklamalari (أ، هل) va so'roq olmoshlari (من، ما، متى، أين, كم va boshqalar) aniq kategoriyalar sifatida talqin qilinadi. Har bir vosita gap tarkibidagi sintaktik vazifasi, ya'ni ega, kesim, to'ldiruvchi, hol o'rnida kelishi asosiy tadqiq obyekti hisoblanadi. Formal yondashuvning markaziy jihatlaridan biri so'roq vositasining gapning ichki tuzilishiga ta'sirini aniqlashdir. Masalan, أين ning doimo o'rin holi, من ning kontekstga ko'ra ega yoki to'ldiruvchi bo'lishi, كم ning gapdagi o'rniga qarab darak yoki so'roq ma'nosini ifodalashi kabi masalalar grammatik me'yorlar asosida o'rganiladi.

Shuningdek, bu yo'nalish so'roq gapning ma'nodosh yoki majoziy funksiyalarini emas, balki uning tashqi shakli va sintaktik qurilishini markazga qo'yadi. So'roq gapning pragmatik vazifasi, ya'ni masxara, taajjub, tanbeh, taqrir va boshqalar formal tahlil uchun muhim emas. Muhim bo'lgan narsa – uning tuzilishi, sintaktik o'zgarish tartibi va gap bo'laklarining joylashuvi. Shu sababli, هل yuklamasining faqat gap boshida kelishiga doir qoidalar, أ vositasining ham ism, ham fe'l oldida birdek qo'llanilishi, ما so'zining so'roq va nisbiy olmosh vazifalarini o'zaro farqlash hamda كم ning aniqlovchi (tamyiz) bilan ishlatilishi kabi me'yorlar tadqiqotda muhim o'rin tutadi. Formal-sintaktik tadqiqotlar fonetik va morfologik belgilarni ham hisobga oladi: so'roq olmoshlarning oxiridagi kelishik ko'rsatkichlari o'zgarishi yoki o'zgarmasligi kabi jihatlar sintaktik tasnifning ajralmas qismi hisoblanadi.

Umuman olganda, formal-sintaktik yondashuv so'roq gaplarni mazmuniy-pragmatik ma'nolar bilan emas, balki tarkibiy tuzilish, grammatik vositalar, e'rob tizimi va sintaktik me'yorlar bilan izohlaydigan o'ta tizimli yo'nalish bo'lib, zamonaviy arab grammatikasi an'anaviy nahv tamoyillari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib kelayotganini ko'rsatadi.

Ikkinchi yo'nalish – pragmatik-semantik nuqtayi nazardagi asarlarning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, an'anaviy nahvga xos shakliy mezonlardan farqli ravishda, so'roq hodisasini kontekst, nutq maqsadi va illokutiv (tinglovchiga ta'sir ko'rsatuvchi) kuch bilan bog'liq murakkab kommunikativ birlik sifatida izohlaydi. Bu yondashuvda so'roqning mazmuni uning tashqi ko'rinishi emas, balki so'zlovchining maqsadi va nutqiy vaziyatning talablari orqali belgilanadi. Shu bois

so'roqning asosiy vazifasi faqat javob talab qilish emas, balki turli majoziy illokutiv maqsadlarni ifodalashdan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, zamonaviy tadqiqotlarda الاستفهام المجازي (majoziy so'roq gaplar) keng yoritilib, u orqali tasdiqqa undash (التقرير), dashnom berish (التوبيخ), hayrat (التعجب), inkor (الإنكار), kamsitish (التحقير), ogohlantirish (التنبيه) kabi bir qator pragmatik ma'nolar anglashilishi ilmiy asoslangan.

Pragmatik-semantik yondashuvning muhim o'ziga xosligi shundaki, bitta so'roq shakli kontekstga qarab bir nechta illokutiv maqsadni mujassamlashtirishi mumkin. Masalan, Qur'ondagi ayrim so'roqlar bir vaqtning o'zida iqror qildirish (التقرير) va dashnom berish (التوبيخ)ni, ba'zan esa hayrat, taajjub (التعجب)ni ham bildirishi mumkin, bu esa so'roqning ma'nosi grammatik qurilishga emas, balki kontekstga bog'liqligini ko'rsatadi. Shuningdek, so'roq vositalarining semantik farqlari ham pragmatik yondashuvda yanada boyroq talqin qilinadi: لِمَاذَا (nima uchun) sababning ochiqlanishini, كَيْفَ(qanday) holatning baholanayotganini, كَمْ (qancha\necha) esa miqdordagi majhullik darajasini bildiradi. Bu vositalarning vazifasi gapning sintaktik tuzilishidan ko'ra ko'proq diskursiv ma'no va presuppozitsiya bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, pragmatik-semantik tadqiqotlar so'roqni matnning faol unsuri sifatida ko'radi. Savollar matn ichida mavzuni o'zgartirish, e'tiborni jalb qilish, baholash yoki rad etish kabi diskurs strategiyalarini amalga oshirishda muhim vosita sifatida talqin qilinadi. Bu uslub asosan balog'at ilmiga oid asarlarga xos bo'lib, Aliy Jarimning "البلاغة الواضحة" (Ochiq-oydin balog'at), Ahmad Hoshimiyning "جواهر البلاغة" (Balog'at javohiri), Hafniy Nosif va Sulton Muhammad Mustafo Tamumlarning "دروس البلاغة" (Balog'at darslari) asarlari bularga yorqin misol bo'la oladi.

Ikki yo'nalishni – ya'ni grammatik va ma'no-mazmuniy tahlilni – bir vaqtning o'zida qamrab olgan asarlar orasida birinchi navbatda doktor Fozil Samirroiyning "معاني النحو" (Nahv ma'nolari) asari alohida e'tiborga loyiqdir. Muallif unda har bir grammatik birlikning faqat sintaktik vazifasinigina emas, balki mazkur birlik orqali yuzaga keladigan semantik nozikliklarni ham chuqur tahlil qiladi. Mazkur yondashuv arab nahvining ma'no asoslari va uning nutq jarayonidagi funksional xususiyatlarini keng yoritishga xizmat qiladi.

Shu yo'nalishdagi muhim manbalardan yana biri Mustafo G'alayiniyning uch jilddan iborat "جامع الدروس العربية" (Arab tili darslari jamlanmasi) asaridir. Unda sarf va nahv bo'limlari an'anaviy grammatik qoidalar asosida izohlanadi, balog'at qismi esa lug'aviy va ma'no jihatlar, gapning semantik tuzilishi hamda uslubiy vazifalarini keng yoritadi. Shu tariqa asar grammatika va ma'no-funksional tahlilning uyg'un ko'rinishini namoyon etadi.

Doktor Tammam Hassanning " اللغة العربية: معناها ومبناها " ("Arab tili: ma'nosi va qurilishi") monografiyasi esa mazkur yondashuvni yanada keng doirada davom ettiradi. Tadqiqot tilning fonetik, morfologik, sintaktik tizimlari, lug'aviy qatlam, matnning kontekstual ko'rinishlari va semantika kabi bo'limlarga ajratilgan holda, arab tilini yaxlit tizim sifatida tahlil qiladi. Muallifning ta'kidlashicha, ma'noni to'liq anglash uchun alohida so'zlarning lug'aviy ma'nolarini bilishning o'zi kifoya emas, balki ma'no nutqning maqomi, konteksti, matnning ichki mantiqiy bog'lanishlari bilan belgilanadi. Ya'ni so'zlarning o'zi faqat "maqola" – nutqning yuzaki darajasini tashkil etadi, matnning haqiqiy mohiyati esa ular o'rtasidagi semantik munosabatlar orqali ochiladi. Shu sababli doktor Hassan nazariyasida matn semantikasini kontekstsiz anglash mumkin emasligi alohida urg'u bilan ta'kidlanadi.

Zamonaviy arabshunoslikda so'roq gaplar tasnifi masalasi ham ahamiyatli mavzulardan biri hisoblanadi. Arab tilida balog'at ilmiga bag'ishlab ta'lif etilgan asarlarda so'roq gaplar tasavvur va tasdiq turlarga bo'linadi [4: 35]. Rus arabshunoslari, shuningdek, o'zbek arabshunoslarining arab tili grammatikasiga oid kitoblarida esa so'roq gaplarning asosiy uch turi: umumiy, alternativ hamda maxsus so'roq gaplar ajratiladi [2: 73].

So'roq gaplar maxsus yuklamalar va olmoshlar orqali yasaladi. Umumiy so'roq mazmunini ifodalash uchun arab tilida maxsus so'roq yuklamalari – أ va هل qo'llaniladi; bular o'zbek tili grammatikasidagi "*-mi*" yuklamasining funksional ekvivalenti hisoblanadi. Ular ichida qo'llanish jihatidan eng ko'p uchraydigani أ dir. Umumiy savol, ya'ni "*ha* – نعم" yoki "*yo'q* – لا" javobini talab qiladigan so'roq gaplar arab tilida, ayniqsa, jonli so'zlashuv tilida gap ohangi bilan ifodalanadi.

So'roq gaplarning yoritilishida zamonaviy arabshunoslarning qarashlari haqida so'z borar ekan, nafaqat arab tilshunoslari, balki g'arb arabshunoslarining bu boradagi tadqiqotlarini zikr etib o'tish joiz. G'arb arabshunoslari arab tilidagi so'roq gaplar mavzusida e'tiborga molik tadqiqotlar qilishgan. Jumladan, U. Rayt o'zining "Arabic Grammar" asarida arab tilidagi so'roq gaplarning boshqa tillardan ajralib turadigan qismi sifatida quyidagi fikrni bildirgan:

164. The Arabic language ignores the difference between a direct and an indirect question, in so far as regards the arrangement of words and the mood of the verb. Every interrogative clause, even when dependent upon a preceding one, takes the direct form [1: 306].

Arab tili bevosita va bilvosita savol o'rtasidagi farqni, so'zlar tartibi va fe'l mayliga aloqador bo'lgan darajada, inobatga olmaydi (e'tiborsiz qoldiradi). Har bir so'roq gapi (bo'lagi), hatto o'zidan oldingi gapga tobe bo'lsa ham, bevosita shaklni oladi.

Raytning ta'kidlashicha, arab tilida so'roq gaplar ergash gapda yoki o'zlashtirma gapda ishtirok etsa ham so'roq gap maqomida qoladi. G'arb tillarida, masalan, ingliz yoki rus tillarida bevosita so'roq (*direct question*) va bilvosita so'roq (*Indirect question*) o'rtasida farq bor. O'zbek tilida ham shu holatni kuzatish mumkin:

Bevosita so'roq: *U qayerga ketyapti?*

Bilvosita so'roq: *Men uning qayerga ketayotganini bilmayman.*

Bilvosita so'roq uslubida gap so'roq gap maqomini yo'qotdi. Arab tilida esa bu kabi gaplarda so'roq gap sintaktik maqomini, ya'ni so'roq shaklini o'zgartirmaydi:

إِلَىٰ أَيْنَ هُوَ ذَاهِبٌ؟

U qayerga ketyapti?

لَا أَدْرِي إِلَىٰ أَيْنَ هُوَ ذَاهِبٌ.

Uning qayergа kētayotganini bilmayman.

Misollardan ma'lum bo'ladiki, ikki jumlada ham so'roq **(إِلَىٰ أَيْنَ هُوَ ذَاهِبٌ)** shakli hech qanday sintaktik o'zgarishga uchramagan.

Shuningdek, Rayt mazkur asarida arab tilidagi so'roq gaplar tizimini nafaqat ma'lumot olish vositasi, balki ta'kid, hayrat va ritorik undashni ifodalovchi murakkab grammatik mexanizm sifatida tahlil qiladi. Muallif أ va هَلْyuklamalarining qo'llanilish doirasini belgilab berish bilan birga, so'roq vositalarining gap boshida kelish ustuvorligi va ularning boshqa so'zlar bilan sintaktik moslashuvi, xususan, "hikoya" uslubida kelishik shakllarining saqlanib qolishi kabi nozik qoidalarni ochib beradi. Shu bilan birga, u أَيُّ olmoshining nafaqat tanlov, balki mubolag'ali sifatlash va hayrat ifodalashdagi o'ziga xos o'rnini, مَا olmoshining esa hatto shaxslarga nisbatan ularning ijtimoiy

mavqeyi yoki mohiyatini so‘rashda kesim vazifasida kelishini ko‘rsatib, klassik arab tili grammatikasining barcha stilistik qatlamlarini qamrab oladi [1: 220].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, zamonaviy arab tilshunosligida so‘roq gaplar ikki asosiy yo‘nalishda tadqiq qilinadi: formal-sintaktik va pragmatik-semantik. Formal-sintaktik jihatdan so‘roq gaplarning tuzilishi, tartibi va yuklamalari (أ, هل) hamda olmoshlari (من, ما, أين, كم va boshqalar) qat’iy grammatik me’yorlar asosida tahlil qilinadi. Pragmatik-semantik yo‘nalishda esa so‘roq gaplarning ma’nosi, nutq maqsadi va kontekstga bog‘liqligi, majoziy va balog‘iy funksiyalari o‘rganiladi. So‘roq gaplar umumiy, alternativ va maxsus turlarga bo‘linadi: umumiy so‘roqlarda javob “ha/yo‘q” bilan beriladi. Alternativ so‘roqlarda muqobil variantlar bo‘lib, javob tayinlash yoki “ha/yo‘q” bilan bo‘lishi mumkin. Maxsus so‘roqlar esa so‘roq olmoshlari orqali tuzilib, javobi tayinlash bilan ifodalanadi. Shu tariqa, arab tilidagi so‘roq gaplarning turlari ularning sintaktik tuzilishi, semantik vazifasi va javob shakli bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wright W. A grammar of the Arabic language. – Cambridge: At the University press, 1896.
2. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997.
3. Редкин О., Берникова О. Грамматика арабского языка. СП: Президентская библиотека, 2015.
4. أبو أفضل محمد فضل حق الرامفوري الحنفي الهندي. – مكتبة دار الفجر، :шарх / حفني ناصف، محمد دياب، سلطان محمد، مصطفى طموم. دروس البلاغة 2021.
5. فاضل صالح السامرائي. معاني النحو. – عمان: دار الفكر للطباعة والنشر والتوزيع، 2000. – ج. 4
6. تمام حسان. اللغة العربية معناها ومبناها. – المغرب: دار الثقافة، 1994.
7. عبده الراجحي. التطبيق النحوي. – الإسكندرية: دار المعرفة الجامعية، 1998.
8. السيد أحمد الهاشمي. جواهر البلاغة. – بيروت: المكتبة العصرية.
9. علي الجارم، مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. – بيروت: مؤسسة الرسالة ناشرون، 2019.
10. محمد الأنطاكي. المنهج في القواعد والإعراب. – مكتبة الإيمان، 2009.
11. مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية. – بيروت: المكتبة العصرية، 2009.

Санобар УЛЛИЕВА,
старший преподаватель
Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий

РОЛЬ ФОНЕТИЧЕСКИХ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ В СОЗДАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА

Аннотация. В статье исследуется эстетический потенциал фонетических единиц в художественном тексте. Рассматриваются механизмы влияния аллитерации, ассонанса, ритма и звукосимволизма на формирование художественного образа. Автор анализирует, как звуковая организация текста углубляет семантику произведения и воздействует на психоэмоциональное восприятие читателя.
Ключевые слова: фонетические единицы, художественный образ, аллитерация, ассонанс, звукопись, фоносемантика, ритм.
Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy matndagi fonetik birliklarning estetik imkoniyatlari tadqiq etiladi. Alliteratsiya, assonans, ritm va tovush ramziyligining badiiy obraz shakllanishiga ta'sir mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Muallif matnning tovush jihatdan tashkil etilishi asar semantikasini qanday chuqurlashtirishi hamda o'quvchining psixoemotsional idrokiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qiladi.
Kalit so'zlar: fonetik birliklar, badiiy obraz, alliteratsiya, assonans, tovush tasviri, fonosemantika, ritm.
Annotation. This article explores the aesthetic potential of phonetic units in a literary text. It examines the mechanisms through which alliteration, assonance, rhythm, and sound symbolism contribute to the formation of a literary image. The author analyzes how the sound organization of a text deepens the semantic content of a literary work and influences the reader's psycho-emotional perception.
Keywords: phonetic units, literary image, alliteration, assonance, sound imagery, phonosemantics, rhythm.

Художественный текст представляет собой сложную многоуровневую систему, где каждый элемент – от отдельного звука до композиции – подчинен единому авторскому замыслу. В отличие от обыденной речи, где фонетика выполняет сугубо различительную функцию, в художественной литературе звуковая оболочка слова становится активным носителем смысла. Традиционно при исследовании художественного образа основное внимание уделяется лексическим, фразеологическим, морфологическим и синтаксическим средствам. Однако звуковая организация текста также обладает значительным изобразительным и эстетическим потенциалом.

Фонетический уровень художественного произведения является своеобразной материальной основой его звучания. Звуки, их повторяемость, последовательность, сочетание, интенсивность, ритмическая организация и интонационная структура способны создавать дополнительные смысловые и эмоциональные оттенки. Именно поэтому фонетические средства необходимо рассматривать не как внешнее украшение художественной речи, а как важный компонент авторской системы образотворчества.

Фонетические языковые единицы (фонемы, аллофоны, слоги, просодические элементы) перестают быть просто материалом для передачи лексических значений. Они обретают эстетическую ценность и участвуют в «семантизации формы», напрямую влияя на создание, углубление и восприятие художественного образа.

Современная фоностилистика рассматривает звуковую организацию художественного текста во взаимосвязи с его содержанием, подтекстом, ритмом, темпом, паузами, интонацией, аллитерацией и ассонансом. Исследования последних лет показывают, что фонетические стилистические средства способны усиливать эмоциональное воздействие текста, создавать определённую атмосферу и повышать его эстетическую выразительность.

Звукопись как инструмент создания художественной образности Основным способом актуализации фонетического уровня в литературе выступает звукопись – намеренное подсегментное или сегментное структурирование текста с целью вызова определенных ассоциаций. Звукопись традиционно разделяют на два ключевых направления:

аллитерация – повторение однородных согласных звуков. Этот прием позволяет визуализировать динамику, текстуру или природные явления. Например, обилие сонорных звуков [л], [м], [н] часто создает ощущение плавности, текучести, покоя. Напротив, скопление взрывных ([п], [т], [к]) или свистящих/шипящих ([с], [ш], [х]) способно передать физический шум, агрессию, тревогу или механическое действие. В поэме А.С.Пушкина «Медный всадник» строки *«Погасло дневное светило; / На море синее легло...»* создают эффект мягкого угасания благодаря мягким сонорным звукам;

ассонанс – повторение гласных звуков. Гласные определяют общую тональность и музыкальность произведения. Доминирование звука [о] часто придает тексту элегический, тягучий, грустный характер, в то время как частое использование звука [а] или [э] ассоциируется с открытостью, пространством, светом.

Если аллитерация преимущественно связана с организацией согласных, то ассонанс позволяет формировать особую вокалическую структуру текста. Повторение определённого гласного способно придавать высказыванию плавность, напряжённость, протяжность или эмоциональную насыщенность. Например: *Озеро огромное, голубое, холодное.* Повторение звука [о] создаёт ощущение широты и протяжности звукового пространства. Однако подобный эффект формируется не самим звуком изолированно, а в результате его взаимодействия со значением слов и общим контекстом.

Крайним проявлением звукописи является ономатопея (звукоподражание) – воспроизведение звуков живой и неживой природы (гром, свист ветра, крики птиц) языковыми средствами, что мгновенно погружает читателя в пространственно-временной контекст произведения.

Ритмико-мелодическая организация и эвфония. Художественный образ формируется не только дискретными звуками, но и суперсегментными единицами – ритмом, метром, интонацией и паузой. Ритм выступает как организующее начало, задающее темпоритм восприятия. В поэзии метр (ямб, хорей, дактиль) напрямую соотносится с эмоциональным фоном. Четкий, энергичный ритм может передавать маршевую динамику или биение сердца героя в момент опасности. Замедленный, рваный ритм в прозе часто сигнализирует о внутреннем кризисе персонажа, дезориентации или рефлексии. Интонация и паузы выполняют роль психологического подтекста. Пауза (цезура) способна создать эффект напряжения, недосказанности,

передать трагическое молчание, которое говорит больше, чем сами слова. Эвфония (благозвучие) обеспечивает гармоничное слияние звуков, снижая когнитивную нагрузку при чтении и настраивая реципиента на эстетическое созерцание.

Психолингвистические и фоносемантические аспекты. Связь между звуком и художественным образом глубоко исследована в рамках фоносемантики и звукового символизма. Согласно концепциям А.П.Журавлева и В.В.Левицкого, изолированные звуки языка подсознательно ассоциируются человеком с определенными незвуковыми признаками: цветом, размером, температурой, эмоциональной оценкой. Гласный [и] воспринимается как «маленький», «светлый», «быстрый». Гласный [у] ассоциируется с «темным», «большим», «угрожающим», «холодным».

Авторы, обладающие высокой языковой интуицией, используют эти подсознательные триггеры. Фонетическая структура имени персонажа или описания пейзажа может диссонировать или, наоборот, гармонировать с его внутренним содержанием. Таким образом, возникает синестезия – феномен, при котором слуховое восприятие текста активизирует зрительные, тактильные или цветовые образы в сознании читателя, делая художественный образ многомерным.

Фонетические языковые единицы играют фундаментальную роль в архитектонике художественного произведения. Они не просто обслуживают лексический и синтаксический уровни, но выступают самостоятельным строительным материалом для создания эмоциональной атмосферы, психологического портрета героев и скрытых смысловых пластов. Понимание механизмов функционирования звукового уровня текста позволяет литературоведам и лингвистам глубже проникать в интенциональное поле автора, раскрывая неочевидные грани его мастерства.

Фонетические единицы могут выполнять изобразительную, эстетическую, эмоционально-экспрессивную, смысловую, характерологическую, композиционную и психологическую функции. Благодаря этому звуковая организация текста становится важным механизмом формирования художественного смысла.

Следовательно, исследование фонетического уровня художественного произведения позволяет глубже раскрыть закономерности создания художественного образа и выявить дополнительные способы воздействия художественного слова на читателя. Фоностилистический анализ целесообразно включать в комплексное лингвопоэтическое исследование художественного текста, поскольку именно взаимодействие звука, значения и образа обеспечивает многомерность его эстетического восприятия.

Использованная литература

1. Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. М.: Высшая школа, 1981.
2. Журавлев А.П. Фонетическое значение. Л.: Издательство Ленинградского университета, 1974.
3. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. М.: Искусство, 1970.
4. Томашевский Б.В. Стилистика и стихосложение: курс лекций. Л.: Учпедгиз, 1959.
5. Тынянов Ю.Н. Проблема стихотворного языка. М.: Советский писатель, 1965.

Яшин НИШАНОВ,
доцент кафедры русской филологии
Ферганского государственного университета

СУБКОНЦЕПТ МУДРОСТЬ КАК СОСТАВНАЯ ЧАСТЬ КОНЦЕПТА СТАРОСТЬ

Аннотация. В статье анализируется субконцепт мудрость как структурный элемент концепта старость в русской языковой картине мира. На основе данных толковых и ассоциативных словарей, а также материалов когнитивной лингвистики выявляются понятийные, образные и аксиологические компоненты субконцепта. Показано, что субконцепт мудрость выступает не только как ментальное качество человека, но и как ключевой когнитивно-этический маркер позднего возраста, отражающий духовный опыт, авторитет и жизненные ценности.

Ключевые слова: концепт, субконцепт, мудрость, старость, когнитивная лингвистика, компонентный анализ.

Annotatsiya. Maqolada rus tilining lisoniy manzarasida qarilik konseptining tarkibiy elementi sifatida donolik subkonsepti tahlil qilinadi. Izohli va assotsiativ lug'atlar ma'lumotlari hamda kognitiv lingvistika materiallari asosida subkonseptning tushunchaviy, obrazli va aksiologik tarkibiy qismlari aniqlanadi. Donolik subkonsepti nafaqat insonning aqliy fazilati, balki ma'naviy tajriba, nufuz va hayotiy qadriyatlarni aks ettiruvchi keksalik davrining asosiy kognitiv-etik markeri sifatida namoyon bo'lishi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: konsept, subkonsept, donolik, qarilik, kognitiv lingvistika, komponent tahlili.

Annotation. The article analyzes the sub-concept of wisdom as a structural element of the concept of old age in the Russian linguistic worldview. Based on data from explanatory and associative dictionaries, as well as materials from cognitive linguistics, the conceptual, imagistic, and axiological components of the sub-concept are identified. It is demonstrated that the sub-concept wisdom acts not only as a mental quality of a person, but also as a key cognitive-ethical marker of older age, reflecting spiritual experience, authority, and life values.

Keywords: concept, sub-concept, wisdom, old age, cognitive linguistics, component analysis.

Понятийный компонент субконцепта *мудрость* включает в себя ряд ключевых значений, зафиксированных в толковых словарях. В словаре С.И.Ожегова и Н.Ю.Шведовой мудрость определяется как «глубокий ум, опирающийся на жизненный опыт» [1, с. 368]. Это значение указывает на три фундаментальные семы: «интеллектуальная зрелость», «накопленный опыт» и «временная протяженность». Согласно антропологической интерпретации возраста, предложенной Н.Д.Арутюновой, поздний этап человеческой жизни наделяется особой ментальной функцией – осмыслением пройденного пути и передачей знания последующим поколениям [2, с. 218–220]. Тем самым мудрость вписывается в понятийное ядро концепта *старость* как духовный и интеллектуальный эквивалент физического угасания. В когнитивной перспективе мудрость репрезентирует переход от активного накопления знаний к их обобщению, что соответствует функциональному содержанию ментальных категорий, описанному В.А.Масловой [3, с. 54–55].

Понятийное пространство субконцепта *мудрость* включает также производные значения: «жизненный совет», «прозорливость», «духовная рассудительность». Эта многоплановость показывает, что мудрость мыслится в языке не только как абстрактное качество, но и как практический социальный ресурс, обозначающий авторитет старшего в социуме. В понимании Ю.С.Степанова, мудрость относится к базовым культурным константам, формирующим ценностно-смысловые ориентиры русской духовной традиции [4, с. 690–692]. Таким образом, *мудрость* в русском языковом сознании выступает важной частью концепта *старость,* конкретизируя его через идеализацию и сакрализацию накопленного жизненного опыта.

Образный компонент субконцепта *мудрость* выявляется на основе данных ассоциативных словарей и отражает культурные стереотипы, ментальные модели и эмоциональные оценки, связанные с поздним возрастом. Согласно данным Русский ассоциативного словаря Г.А.Черкасовой, слово мудрость вызывает такие устойчивые реакции, как «старость», «опыт», «дедушка», «седина», «совет», «книги», что свидетельствует о непрерывной связи данного качества с физическими и социальными признаками старшего возраста [5, с. 214–215]. Эти ассоциации демонстрируют, что мудрость в сознании носителя языка визуализируется через образы убеленного сединами старца, носителя традиций и наставника. В отличие от лексем старость и старый, где преобладают биологические образы увядания, субконцепт *мудрость* представлен преобладающе через духовно-интеллектуальные и уважительные атрибуты позднего возраста.

Аксиологический компонент субконцепта *мудрость* обладает ярко выраженной позитивной направленностью, выступая компенсаторным смысловым механизмом. С положительной стороны мудрость воспринимается как высшее достижение человеческой личности, преодоление телесной немощи через духовное прозрение. Эта позитивная интерпретация согласуется с культурным сценарием «почитаемой старости», описанным Степановым как важнейшая морально-этическая норма [4, с. 748–750]. В то же время возможны и амбивалентные оттенки: мудрость может ассоциироваться с печалью от осознания несовершенства мира и неизбежности конца. Маслова подчеркивает, что аксиологическая оценка позднего возраста через призму мудрости позволяет повысить социальный статус пожилого человека и придать высший смысл физиологическому старению [3, с. 116–118]. Именно поэтому субконцепт *мудрость* получает высокую положительную оценку в этико-философском и художественном дискурсе.

В структуре концепта *старость* субконцепт *мудрость* занимает позицию ценностного центра, объединяя понятийный, образный и аксиологический уровни. Понятийный уровень *мудрости* представлен семами опыта, ума и рассудительности. Образный уровень сосредоточен на ментально-визуальных реалиях позднего возраста – седине, наставничестве, книжности и неторопливых суждениях. Аксиологический уровень формирует положительный спектр оценок (уважение, авторитет, высшее знание), преодолевающий негативные стереотипы немощи и изоляции. Таким образом, субконцепт *мудрость* неразрывно связан с концептом *старость,* конкретизируя

его духовно-нравственную сторону и структурируя пространство смыслов, связанных с завершающим этапом жизненного пути.

Сравнительный анализ показывает, что в отличие от лексем старость и старый, которые репрезентируют преимущественно биологическую и временную стороны позднего возраста, субконцепт *мудрость* отражает его ментальную и ценностную сущность. Мудрость фиксирует результат духовного развития человека, формируя своё собственное понятийное ядро, однако остаётся неотъемлемой частью общего концепта *старость*. Если старость воспринимается как физиологическое состояние, а старый – как признак, то мудрость – как высокое духовное следствие старости.

Литература

1. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. М.: Азбуковник, 1999.
2. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. М.: Языки русской культуры, 1999.
3. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. М.: Академия, 2008.
4. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. М.: Академический проект, 2004.
5. Черкасова Г.А. Русский ассоциативный словарь. М.: АСТ, 2002.

Xilola FAZULLAYEVA,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

RAQAMLI MEDIA MUHITIDA INFOTEYNMENT FENOMENI: JURNALISTIK ETIKA VA TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy raqamli media muhitida infoteynment (axborot-ko'ngilocharlik) fenomenining rivojlanish tendensiyalari va uning jurnalistik etika tamoyillariga ta'siri tizimli tahlil qilingan. Infoteynmentning keng auditoriyani jalb qilish, interfaollik va ijtimoiy safarbarlik kabi konstruktiv imkoniyatlari bilan bir qatorda axborotning qadrsizlanishi, tijorat bosimi va deontologik me'yorlarning buzilishi kabi destruktiv xavflari ochib berilgan. Jurnalistikadagi murakkab axloqiy vaziyatlarni baholashda Ralf Potterning "Potter qutisi" modeli metodologik asos sifatida qo'llanilgan va xalqaro klassik pretsedentlar tahlilga tortilgan. Milliy media makonda tanqidiy fikrlashni shakllantirish va milliy-axloqiy qadriyatlarni uyg'unlashtirish masalalari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: infoteynment, raqamli media, jurnalistik etika, ommaviy kommunikatsiya, media konvergensiya, Potter qutisi, edyuteynment, sensatsiya, axborot iste'moli, ijtimoiy mas'uliyat.

Annotation. The article provides a systemic analysis of the developmental trends of the infotainment (information-entertainment) phenomenon within the contemporary digital media environment and its subsequent impact on the principles of journalistic ethics. Along with the constructive capabilities of infotainment – such as attracting a broad audience, interactivity, and social mobilization – the study reveals its destructive risks, including the devaluation of information, commercial pressure, and the violation of deontological norms. Ralph Potter's "Potter's Box" model is applied as a methodological framework to evaluate complex ethical dilemmas in journalism, complemented by an analysis of classic international precedents. Furthermore, the article provides a scientific substantiation for developing critical thinking and integrating national-ethical values within the domestic media landscape.

Keywords: infotainment, digital media, journalistic ethics, mass communication, media convergence, Potter's Box, edutainment, sensation, information consumption, social responsibility.

Аннотатsia. В статье системно анализируются тенденции развития феномена инфотейнмента (информационно-развлекательного формата) в современной цифровой медиасреде и его влияние на принципы журналистской этики. Наряду с такими конструктивными возможностями инфотейнмента, как привлечение широкой аудитории, интерактивность и социальная мобилизация, раскрываются его деструктивные риски, в числе которых девальвация информации, коммерческое давление и нарушение деонтологических норм. В качестве методологической основы для оценки сложных этических ситуаций в журналистике применена модель Ральфа Поттера («Ящик Поттера»), а также проанализированы классические международные прецеденты. Научно обоснованы вопросы формирования критического мышления и интеграции национально-нравственных ценностей в национальном медиапространстве.

Ключевые слова: инфотейнмент, цифровые медиа, журналистская этика, массовая коммуникация, медиаконвергенция, ящик Поттера, эдьютейнмент, сенсация, потребление информации, социальная ответственность.

XX asrning oxirlaridan boshlab ommaviy kommunikatsiyalar nazariyasida infoteynment (infotainment) fenomeni mustaqil tadqiqot ob'ekti sifatida shakllandi. Bu konsepsiya raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, auditoriyaning axborot iste'moli xususiyatlari o'zgarishi hamda media mahsulotlarining tijoratlashuvi bilan chambarchas bog'liq holda keng o'rganilmoqda [1: 1–18].

Amerikalik media nazariyachi N.Postman ommaviy kommunikatsiyaning ko'ngilocharlikka yo'naltirilishi axborotning tahliliy xususiyatini zaiflashtirishi, jamoatchilik muloqotini esa tomoshabop (spektakl) shaklga aylantirishi xavfini ta'kidlaydi [2: 87–154]. Ilmiy izlanishlarda raqamli media sharoitida auditoriyaning passiv iste'molchidan faol ishtirokchiga aylanishi hamda media konvergensiyasi jarayonlari infoteynmentning keng tarqalishiga turtki bo'lgani e'tirof etiladi [3: 3–34].

Raqamli jurnalistikaning nazariy asoslari, onlayn OAVning multimedialik va interaktivlik omillari rossiyalik tadqiqotchilar Ye.L.Vartanova, M.M.Lukina, I.D.Fomicheva va A.I.Akopov tomonidan atroflicha tahlil qilingan. Jumladan, M.M.Lukina va I.D.Fomicheva internet-medianing asosiy belgilari sifatida axborotning muntazam yangilanishi, gipermatnlilik, multimedialik va interaktivlikni ko'rsatadilar [4: 39–50]. A.I.Akopov esa tezkorlikni raqamli jurnalistikaning eng muhim mezoni sifatida baholaydi [5: 41–75]. Raqamli media taraqqiyoti natijasida jurnalistikaning an'anaviy vazifalari saqlanib qolgan holda, axborotni yetkazish shakllari tubdan o'zgardi [5: 23–27]. "Infoteynment" (information – axborot va entertainment – ko'ngil ochish) – zamonaviy jurnalistikada axborot va ko'ngilochar unsurlarning bir material yoki dastur doirasida singulyarlashuvini anglatuvchi uslubdir. Mazkur format OAV faoliyatiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ommaviy madaniyat trendlari asosida mediamahsulotlar iste'molchilarning katta segmentini qamrab oladi. Ko'ngilochar komponentlarning mavjudligi auditoriya diqqatini doimiy ushlab turishga xizmat qiladi. Xalqaro formatdagi viktorinalar va realiti-shoular auditoriya bilan qayta aloqani mustahkamlaydi. Axborotni yorqin vizual shaklda taqdim etish turli bilim darajasiga ega respondentlar uchun mavzuni soddalashtiradi. Bundan tashqari, xayriya marafonlari yoki teleaksiyalar orqali ijtimoiy muammolarga jamoatchilik e'tiborini jalb etish (birlashish hissini uyg'otish) imkoniyati kengayadi.

Salbiy jihatlari va axloqiy xavflar

Muhim ijtimoiy-siyosiy voqealarning haddan tashqari ko'ngilochar tus olishi axborotning teranligi va jiddiyligini yo'qotadi. Raqamli muhitdagi vaqt defitsiti jurnalistlarga fakt va dalillarni chuqur tekshirish (fact-checking) imkonini bermaydi.

Reklama beruvchilarning ta'siri tufayli jurnalistlar bahsli yoki tanqidiy mavzularni yoritishdan tiyilishi mumkin. Natijada, media mahsulotning ijodiy va tijorat yo'nalishlari o'rtasidagi chegara yo'qolib, kontent korporativ manfaatlarga moslashadi.

Diqqatni tortish maqsadida voqelik soddalashtiriladi yoki muayyan ijtimoiy guruhlarning (masalan, gender qoliplari asosida) salbiy imiji yaratiladi. Bu jamiyatda plyuralizm (fikrlar xilma-xilligi) rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Shov-shuv (sensatsiya) ketidan quvish "sariq matbuot" va "paparassi" uslublarini faollashtiradi. Oqibatda, shaxsiy hayot daxlsizligi va inson qadr-qimmati kabi fundamental etik me'yorlar ikkinchi planga tushib qoladi.

Jurnalistikada infoteynment va sensatsiya ortidan kelib chiqadigan murakkab axloqiy vaziyatlarni baholashda Ralf Potter tomonidan taklif etilgan "Potter qutisi" modeli samarali

metodologik vosita hisoblanadi. Ushbu model qaror qabul qilishda to'rt bosqichni (faktlar, qadriyatlar, tamoyillar, sodiqlik) tahlil qilishga yordam beradi. Xalqaro amaliyotdagi quyidagi klassik misollar ushbu tizim orqali axloqiy tanlov murakkabligini ko'rsatadi:

1. "Pentagon hujjatlari" (Pentagon Papers, 1971): New York Times gazetasi Vetnam urushi haqidagi maxfiy hujjatlarni chop etishda davlat sirini saqlash mas'uliyati va jamiyatning haqiqatni bilish huquqi o'rtasida qolgan. Natijada, professional qadriyat sifatida ijtimoiy mas'uliyat ustuvor dep bilingan.

2. "Unabomber" manifesti. AQSHning yetakchi nashrlari ("New York Times" va "Washington Post") terrorchining manifestini chop etish yoki etmaslik borasida murakkab tanlovga duch kelgan. Bu yerda insonlar hayotini saqlab qolish (gumanistik sodiqlik) va jinoyatchining shartlariga yon bermaslik (prinsipiallik) o'rtasidagi ziddiyat yuzaga kelgan.

3. Muhammad (s.a.v.)ga doir karikaturalar kazusi. Daniyaning Jyllands-Posten gazetasida chop etilgan suratlar so'z erkinligi va madaniyatlararo muloqot hamda diniy qadriyatlarga hurmat (etikaning "boshqalarga g'amxo'rlik" tamoyili) o'rtasidagi jiddiy to'qnashuvni ko'rsatib berdi.

Mazkur xalqaro pretsedentlarning qiyosiy-tizimli tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy media makonda yuzaga keluvchi deontologik dilemmalar faqatgina huquqiy me'yorlar va pozitiv qonunchilik doirasida hal etilmaydi, balki media vakillaridan yuksak darajadagi ma'naviy idrok *(moral discernment)* va kasbiy mas'uliyatni talab qiladi. "Pentagon hujjatlari", "Unabomber" manifesti hamda diniy karikaturalar bilan bog'liq kazuslar so'z erkinligining liberal tamoyillari, davlat xavfsizligi imperativlari, inson hayotining mutlaq qiymati va diniy-madaniy aksiologiya o'rtasidagi nozik muvozanatni ta'minlashda Ralf Potter modeli kabi tizimli axloqiy algoritmlarning nazariy va pragmatik jihatdan naqadar zarurligini isbotlaydi. Binobarin, raqamli transformatsiya sharoitida jurnalistik tanlov fenomeni shunchaki axborotni tezkor uzatish (transmissiya) funksiyasi bilan cheklanib qolmay, jamiyatning institutsional barqarorligini va umuminsoniy qadriyatlar arxitektonikasini himoya qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy-etik mas'uliyat akti hisoblanadi. Infoteynment uslubi nafaqat OAVda, balki zamonaviy ta'lim tizimida ham (edyuteynment shaklida) qator ijobiy imkoniyatlarni taqdim etmoqda.

Mediamadaniyat nafaqat ko'ngil ochadi, balki shaxsni tarbiyalaydi. Masalan, "jiddiy o'yinlar" (serious games) yo'nalishi mantiqiy fikrlash, makonni qabul qilish, deduksiya va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Elektron ta'lim vositasida yoshlar axborotni shunchaki yodlamaydi, balki jarayon bevosita tajriba asosida amalga oshiriladi. Foydalanuvchining har bir harakati keyingi bosqichga ta'sir ko'rsatishi uning kognitiv faolligini oshiradi. Rang-barang mediakontent va turli janrlar talabalarda mediamatnni adekvat talqin etish, dekonstruksiya qilish va xolis baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Infoteynment uslubi zamonaviy raqamli media muhitida va ta'lim tizimida axborotni tushunarli, qiziqarli hamda interaktiv shaklda yetkazishning samarali vositasi hisoblanadi. Biroq, jurnalistika amaliyotida ushbu format kasbiy mas'uliyat, haqqoniylik va vazminlik kabi fundamental etik tamoyillar bilan muvozanatda bo'lishi shart. Aks holda, axborotning yuzakilashuvi va tijoratlashuvi OAVning ijtimoiy institut sifatidagi nufuziga putur yetkazadi.

O'zbekiston media muhitida infoteynmentdan ta'lim va ijtimoiy birlashuv yo'lida foydalanish mumkin, biroq yoshlarda "mafkuraviy immunitet" va axborotni tanqidiy baholash ko'nikmasini shakllantirish muhimdir. Bunda Islom axloqidagi adolat va inson qadr-qimmati tamoyillari media etikasining ajralmas qismi bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli mediada infoteynment uslubi jurnalistdan yuksak ma'naviy idrok (moral discernment) talab qiladi. Axborot shunchaki ko'ngilochar mahsulot emas, balki insonlarning hayotiy tanloviga ta'sir etuvchi ijtimoiy kuchdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Thussu D.K. News as Entertainment: The Rise of Global Infotainment. – London: SAGE Publications, 2008.
2. Postman N. Amusing Ourselves to Death: Public Discourse in the Age of Show Business. – New York: Penguin Books, 1985.
3. Jenkins H. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. – New York: New York University Press, 2006.
4. Лукина М.М., Фомичева И.Д. СМИ в пространстве Интернета. М.: Факультет журналистики МГУ им. М. В. Ломоносова, 2005.
5. Акопов А.И. Периодические издания. Ростов-на-Дону: ООО "Терра", 2001.

Nilufar IBRAGIMOVA,
Buxoro davlat universiteti magistranti

ALISHER NAVOIY MUSADDASIDA IRFONIY-FALSAFIY TAFAKKUR VA UNING BADIIY IFODASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning "Navodir ush-shabob" devoni tarkibidagi "Dahr aro chun qayg'usiz yo'q hech ishrat, ey rafiq" misrasi bilan boshlanuvchi musaddasi g'oyaviy-badiiy va poetik-semantik jihatdan tahlil qilinadi. Unda shoirning inson, hayot, dunyo, ishq, vasl va firoq haqidagi irfoniy-falsafiy qarashlarining badiiy ifodasi ochib beriladi. Musaddasdagi vasl va firoq, ishq va zuhd, dunyo va oxirat kabi ziddiyatli tushunchalarning ma'no hosil qilishdagi vazifasi tadqiq etiladi. Shuningdek "sham'", "boda", "eski toq", "dayr", "xonaqoh", "masjid" singari obrazlarning ramziy-irfoniy semantikasi tahlil qilinadi. Musaddasdagi badiiy tasvir vositalari shoirning falsafiy mushohadalarini ifodalashga xizmat qiluvchi poetik mexanizm sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, musammat, musaddas, irfon, tasavvuf, ishq, vasl, firoq, rafiq, ramz, tazod, poetika, falsafiy tafakkur.

Annotation. This article provides an ideological, artistic, and poetic-semantic analysis of the musaddas beginning with the line "Dahr aro chun qayg'usiz yo'q hech ishrat, ey rafiq" from Alisher Navoi's "Navodir ush-shabob" divan. It examines the artistic expression of the poet's mystical-philosophical views on human beings, life, the world, love, union, and separation. The study explores the role of such contrasting concepts as union and separation, love and asceticism, and the world and the hereafter in generating meaning within the musaddas. It also analyzes the symbolic and mystical-semantic significance of such images as "candle", "wine", "old arch", "monastery", "khanqah", and "mosque". The literary devices employed in the musaddas are interpreted as poetic mechanisms that serve to express the poet's philosophical reflections.

Keywords: Alisher Navoi, musammat, musaddas, mysticism, Sufism, love, union, separation, companion, symbol, antithesis, poetics, philosophical thought.

Аннотация. В статье проводится идейно-художественный и поэтико-семантический анализ мусаддаса из дивана Алишера Навои «Наводир уш-шабоб», начинающегося строкой «Dahr aro chun qayg'usiz yo'q hech ishrat, ey rafiq». Раскрывается художественное выражение ирфанно-философских взглядов поэта на человека, жизнь, мир, любовь, единение и разлуку. Исследуется роль таких противопоставленных понятий, как единение и разлука, любовь и аскетизм, мир и загробная жизнь, в формировании смыслового содержания мусаддаса. Кроме того, анализируется символико-ирфанская семантика таких образов, как «свеча», «вино», «старый свод», «дейр», «ханака» и «мечеть». Художественно-изобразительные средства, использованные в мусаддасе, рассматриваются как поэтический механизм, служащий выражению философских размышлений поэта.

Ключевые слова: Алишер Навои, мусаммат, мусаддас, ирфан, суфизм, любовь, единение, разлука, рафик, символ, антитеза, поэтика, философское мышление.

Sharq mumtoz poetikasida bandli she'r shakllari, xususan, musammatlar lirik turning murakkab janriy tuzilmalaridan biri hisoblanadi. Mumtoz adabiyotshunoslikda musammatlarning paydo bo'lishi va taraqqiyot bosqichlari arab va fors-tojik she'riyatidagi bandli formalar hamda g'azal tarkibidagi musajja' (ichki qofiya) san'ati bilan bevosita bog'liq.

Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" va Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarlarida musammat turlari (murabba, muxammas, musaddas, musamman, muashshar) ga doir muhim nazariy qarashlar ilgari surilgan. Adabiyotshunos olima Dilnavoz Yusupova fikriga ko'ra: "Musammatlarning janr sifatida shakllanishi XI asrga to'g'ri keladi. Musammatlarning vujudga kelishida g'azalda musajja' san'atini qo'llash hamda muvashshah va zajal kabi arab she'riyatidagi bandli she'r shakllarining ta'siri kuchli bo'lgan" [3]. R.Orzibekovning lirik janrlar tadqiqiga bag'ishlangan ishlarida musammatlar dastlab tasmit deb atalganligi ta'kidlangan. Turkiy adabiyotda musammat haqida ilk fikrlar Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida keltirilgan. Mazkur manbada musammatlarning murabba, muxammas, musaddas, musamman va muashshar kabi shakllari uchrashi aytilgan.

Ulug' shoir Alisher Navoiy ham musammatning turli shakllarida ijod qilib, bu sohada ham o'ziga xos bir maktab yaratdi. Shoir musammatlarining mavzu doirasi va badiiyati rang-barang bo'lib, ular ulug' mutafakkirning o'y-fikrlari, dunyoqarashining badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy o'z lirikasida musaddas janrining formal va mazmuniy imkoniyatlarini kengaytirdi. Navoiy musaddaslari shunchaki she'riy shakl tajribasi bo'lmay, balki shoirning murakkab tasavvufiy-irfoniy va falsafiy-axloqiy mushohadalarini jamlagan yaxlit lirik konsepsiya sifatida ajralib turadi. Shoir musaddaslari orasida **"Dahr aro chun qayg'usiz yo'q hech ishrat, ey rafiq"** misrasi bilan boshlanuvchi musaddas alohida e'tiborga loyiq. Unda hayotning o'tkinchiligi, dunyo va inson munosabati, ishq va firoq, vasl va hijron, sabr va qanoat, zuhd va ishq singari masalalar o'zaro bog'liq holda badiiy talqin qilingan.

Ma'lumki, musaddas olti misrali bandlardan iborat bo'lgan janr. Unda birinchi banddagi misralar o'zaro qofiyadosh keladi. Keyingi bandlarda esa avvalgi besh misra o'zaro qofiyalanadi. Oltinchi misra birinchi band bilan qofiyadosh bo'ladi.

Alisher Navoiyning "Dahr aro chun qayg'usiz yo'q hech ishrat..." misrasi bilan boshlanuvchi musaddasi ham o'ziga xos tarzda, navoiyona uslubda yaratilgan. Musaddasda tasavvufiy g'oyalarga keng o'rin berilgan. Unda rafiq obrazi lirik qahramon sifatida namoyon bo'ladi.

Dahr aro chun qayg'usiz yo'q hech ishrat , ey rafiq,
Aysh subhin istama beshomi ofat , ey rafiq,
Kim emas bir- birdin ayru nur-u zulmat, ey rafiq,
Shu'lai ishrat qani bedudi mehnat, ey rafiq,
Kimki vasli ichra yoqsang sham'i ulfat, ey rafiq,
Ko'z tut ul sham' o'tidin- o'q dog'i furqat, ey rafiq [1].

Musaddasning birinchi bandidan quyidagi mazmun anglashiladi: "Ey rafiq, bu dunyoda qayg'usiz insonning o'zi yo'qdir. Dunyoga kelib, aysh-ishrat subhini istamagin, toki ofat shomiga yo'liqasan, chunki dunyoda nur va zulmat tushunchalari bir-biridan ayri bo'lmaganidek, azobsiz rohat ham yo'qdir. Agar kimki Alloh vasli ichra ulfat shamini yoqsa, qaraginki, ul sham o'tida dog'i furqat, ya'ni ayriliq ham bordir.

Bandning g'oyaviy mazmuni shundan iboratki, dunyoda sof, qayg'usiz ishrat mavjud emas. Har qanday lazzat o'zi bilan birga azobni, har qanday vasl esa furqatni olib keladi. Bu g'oya "ishrat – mehnat", "subh – shom", "nur – zulmat", "vasl – furqat" kabi qarama-qarshi tushunchalar juftligi orqali ifodalangan. Shoir tazod san'atidan samarali foydalanib, hayot hodisalarining bir-biriga bog'liq va ajralmas ekanligini ta'kidlaydi. Bandda

qo'llangan badiiy obrazlar ham yuksak mahorat namunasidir. *"Aysh subhi" va "ofat shomi"* obrazlari vaqt metaforasi sifatida ishlatilgan bo'lib, rohatning boshlanishi va uning muqarrar tugashini anglatadi. "Shu'lai ishrat" va "dudi mehnat" obrazlari esa yonma-yon qo'yilib, yorug'lik va qorong'ulikning birligini ifodalaydi. "Sham'i ulfat" vaslning ramzi sifatida keltirilgan. Sham yoqilganda u yorug'lik taratadi, ammo o'zini kuydiradi va atrofiga qora iz qoldiradi. Natijada "dog'i furqat" paydo bo'ladi, u ayriliq azobining ramzi sanaladi.

Bandning tasavvufiy qatlami ham alohida e'tiborga molik. Dunyo (dahr) o'tkinchi va ziddiyatli makon sifatida talqin etiladi. Dunyoviy vasl har doim furqat bilan tugaydi, haqiqiy vasl esa faqat ilohiy vasldir. Har bir misrasida takrorlanuvchi "ey rafiq" murojaati esa ushbu mushohadalarni oddiy tasvirdan irshodiy muloqot darajasiga ko'tarib, lirik qahramonning suhbatdoshini hayot va ishq mohiyati haqida tafakkur qilishga undaydi.

Musaddasning keyingi bandida ham shoirning olam haqidagi mushohadalari davom ettiriladi:

Bevafodur bu qadimiy davr uza bu eski toq,
Ko'rsang anda no'shi ishrat neshi g'am zimnida boq,
Kim icharga vasli jomin zohir etti ishtiyoq
Kim, anga talx etmadi dardi firoq oxir mazoq,
Vasl sofiy mumkin ermas, chunki bedardi firoq,
Zinhor ul boda sari qilma rag'bat, ey rafiq [1].

Mazkur bandda dunyoning bevafoligi va o'tkinchiligi g'oyasi markaziy o'rinni egallaydi. Shoir dunyoni "eski toq" (eski rabot, qadimiy mehmonxona) obrazi orqali tasvirlaydi. Mumtoz adabiyotda keng qo'llanilgan bu metafora Navoiy ijodida yangicha falsafiy ma'no kasb etgan. "Eski toq" o'zgarmas, qadimiy va bevafo makon sifatida talqin etiladi.

Bandning g'oyaviy mazmuni quyidagicha: dunyodagi har qanday "no'shi ishrat" (rohat sharobi) o'z ichida "neshi g'am"ni (g'am nigini) mujassam etgan. Kimki vasl jomini ichishga ishtiyoq bildirsa, oxir-oqibat unga firoq dardi hamroh bo'ladi. Shoirning xulosasiga ko'ra, sof vasl mumkin emas, chunki u har doim firoq dardi bilan birga keladi. Shu sababli "ul boda" (vasl sharobi) sari rag'bat qilmaslik kerak.

Bandda "no'shi ishrat" va "neshi g'am" obrazlari orqali rohat va azobning ajralmasligi ta'kidlanadi. "Vasli jom" obrazi esa vaslni sharobga o'xshatib, uning mast qiluvchi, lekin oxiri achchiq bo'lishini ko'rsatadi.

Tasavvufiy nuqtai nazardan musaddasning muzkur bandida dunyoviy vaslning haqiqiy emasligi ta'kidlangan. Sof vasl faqat ilohiy ma'noda mumkin, dunyoviy vasl esa har doim firoq bilan tugaydi. Shoir "rafiq"ni ogohlantirib, dunyoviy lazzatlarga berilmaslikka, ularning o'tkinchi va xavfli ekanligini anglashga da'vat etadi.

Demak, ikkinchi bandda birinchi banddagi g'oya mantiqiy davom ettirilgan bo'lib, dunyoning bevafoligi, vasl va firoqning ajralmasligi hamda dunyoviy lazzatlarning o'tkinchiligi haqidagi fikrlara urug' berilgan.

Ofiyat sarmanzilidin o'zni mahjur etmagil,
Xo'blar ko'yi sari mayl ulcha maqdur etmagil.
Aylasang ul oy g'amidin o'zni ranjur etmagil,
Vasli ummidi bila ko'nglungni masrur etmagil,
Vasl yo'qkim, ishq lafzin tilga mazkur etmagil,
Har nafas ko'rmay desang yuz nav' shiddat, ey rafiq [1].

Keltirilgan bandda *ofiyat* – sabr-toqat, qanoat; *mahjur etmoq* - tashlab ketmoq; *maqdur* – imkoni boricha, kuchi yetganicha; *ranjur* – dardmand, kasalmand degan ma'nolari so'zlardir. Ulug' shoir Navoiy insonni hayot falsafasini to'g'ri anglashga da'vat etib, "hayotda doimo sabr - qanoat qilishga, imkon boricha yaxshi insonlarga ergashishga, ya'ni "xo'blar ko'yi sari o'zni maqdur etishga" chorlaydi. "Sen ul oy g'amidan o'zingni ko'p ham qiynamagin, visolga erishish uchun ko'nglingni ham umidvor qilma, chunki vaslning imkoni yo'q, dildagi ishq hech qachon tilda oshkor qilinmaydi". Bu holat Navoiy bobomizning "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhodning ma'shuqasini hatto tilidan ham rashk qilib, ismini aytmasligi holatini yodimizga soladi. Ya'ni musaddas bandida falsafiy fikrlar davom ettirilib, "Sen yoringni faqat vasl g'amida, visoliga erishish uchungina sevmagin, uni qalbing va butun vujuding bilan Alloh uchun sev, ishq lafzini tilingda mazkur etmagin", – deya hazrat Navoiy "rafiq"ni, eng yaqin insonini ogohlantiradi.

Musaddasning to'rtinchi bandida shoirning falsafiy fikrlari tasavvufiy g'oyalar bilan mujassam holda tasvirlangan:

Gar salomat ko'yining asbobin istarsen to'kuz,
Xonaqah sahni ichinda zikr ohangini tuz,
Masjid aylarga imorat dayr devorini buz,
Ishq ko'yi tufrog'ig'a har zamon etkurma yuz,
Sho'xi chobuklar g'ubori tavsanig'a solma ko'z,
Yuzda istar bo'lmasang gardi mazallat, ey rafiq [1].

Mazkur ruhiy va jismoniy soflik (salomatlik) yo'lining shartlari badiiy ifoda etilgan. Shoir lirik qahramon agar "salomat ko'yi"ning (soflik, salomatlik makonining) asbobini to'kis (mukammal) qilishni istasa, xonaqoh sahnida zikr ohangini tuzish (Alloh zikrini ado etish), dayr (dunyo, butxona) devorini buzib, uning o'rniga masjid qurish, ishq ko'yining tuprog'iga doimo yuz surtish (itoat va tavoze ko'rsatish), "sho'xi chobuklar" (beparvo, chaqqon, o'ynoqi kimsalar) g'uboriga ko'z solmaslikni uqtiradi. Agar inson yuzida "gardi mazallat" (haqorat, pastlik changi) bo'lishini istamasa, shu yo'ldan borishi zarur.

"Zikr" – Alloh nomini yod etish, qalbni unga bog'lash vositasi sifatida talqin etiladi. "Xonaqoh" – tasavvuf ahlining ma'naviy maskani. "Dayr devorini buzib masjid qurish" obrazi dunyoviy hayotdan voz kechib, ilohiy yo'lga kirish ramzidir. "Ishq ko'yi tufrog'i" esa haqiqiy ishq yo'lidagi tavoze va itoatni anglatadi. "Sho'xi chobuklar g'ubori" va "tavsan" (asov, o'ynoqi ot) obrazlari esa dunyoviy lazzatlarga, beparvolikka va past hirslarga berilish xavfini bildiradi.

Darhaqiqat, Navoiy hazratlari ham musaddasda tasavvufiy g'oyalarga uyg'un ravishda insonni hayotni to'g'ri anglashga, umrning o'tkinchi ekanligini ta'kidlashga, olam mohiyatini to'g'ri anglagan holda faqat yaxshiliklar qilishga, o'zidan ezgu nom qoldirishga, ayrim "sho'xi chobuklar"ga ergashmasdan, haqiqiy ishq sari odimlashga da'vat etadi. Keyingi bandlarda yana lirik qahramonga murojaat qilinib, "Sening ishqingni charx davri, ya'ni falak-u zamon buzmasin, jon uyida g'ayri jononga boqmagin, umringni mazmunli o'tkazishni istasang, aql va sabr bilan ish tutgin",– deya do'stini ogoh etadi.

Musaddasni tahlil qilar ekanmiz, unda navoiyona o'ziga xos go'zal badiiy ifodalarga duch kelamiz. Xususan, musaddasning yettinchi bandida shoir:

Ofiyat bazmida garchi jomi vasling to'lmasa,
Zuhd bedodi boshingdan bir nafas o'ksulmasa,
Shayx aylab yuz jafo, bir qatla uzring qo'lmasa,
Buyla o'tlardin kerak bargi umiding so'lmasa,
Gar solib yuz ming balog'a mendek o'zni bo'lmasa,
Ishqsiz bir dam sanga ham sabr-u toqat, ey rafiq [1].

Musaddasning mazkur bandida ishqning inson ruhiyatini sinovdan o'tkazuvchi va uni ma'naviy jihatdan kamolot sari yetaklovchi kuch sifatidagi mohiyati badiiy talqin qilingan. "Zuhd bedodi" birikmasi esa zohiriy taqvo bilan botiniy kamolot o'rtasidagi ziddiyatni ifodalash uchun xizmat qilgan. Zuhd insonni poklanishga yetaklashi mumkin, biroq u ishqning o'rnini bosa olmaydi. Shuningdek, "bargi umid" metaforasi orqali umid tirik va so'nishi mumkin bo'lgan nozik ruhiy holat sifatida tasvirlanadi. "Yuz ming balo" esa ishq yo'lining cheksiz sinovlarini ifodalashg xizmat qilgan.

Ma'lumki, Alisher Navoiy asarlarida shayxlar tanqid ostiga olingan o'rinlar ham mavjud. Ulug' shoir shayxlarnig bunday obrazi orqali oqil ulamolarni emas, balki dinning mohiyatidan bexabar kimsalarni ko'zda tutadi. Shundan kelib chiqib musaddasda qo'llangan "shayx" obrazi ham hayotda uchrashi mumkin bo'lgan jafokor, xiyonatkor kimsalarni anglatib, shoir o'z lirik qahramonini mana shunday kimsalardan ehtiyot bo'lishga, hayotda nima bo'lganda ham umidni yo'qotmaslikka va sabr-u toqat ila yashashga chorlaydi. Taniqli adabiyotshunos olim Yoqubjon Is'hoqov Navoiy lirikasi to'g'risida quyidagi fikrlarni bildirgan: "Navoiy lirikasi tarkibida ishqning xarakterigina emas, balki uning muhim qonuniyatlari, ijtimoiy hayotda hamda shaxsning kamoloti jarayonida tutgan o'rni masalalariga doir nazariy mulohazalar bayoniga bag'ishlangan baytlar ham anchagina uchraydi" [2].

Darhaqiqat, ushbu fikrlarning namunasini mana shu musaddas misolida ham ko'rishimiz mumkin. Musaddasning so'nggi bandida ham shoirning teran va falsafiy mushohadalari davom etgan:

Arzimas fikr aylamakka dahri behosil g'ami,
Xulladek xil'at so'zi yo ravzadek manzil g'ami,
Boda ich desangki ketkay davri musta'jil g'ami,
Istabon qatlingni nogah ishqning mushkil g'ami,
Gar Navoiydek boshingg'a tushsa bir qotil g'ami,
Anda dog'i ko'rgasen ne bo'lsa qismat, ey rafiq [1].

Mazkur band musaddasning g'oyaviy yakuni bo'lib, avvalgi bandlardagi barcha asosiy fikrlar umumlashtirilgan. Shoir dunyo g'amining bema'niligi, umrning o'tkinchiligi va taqdirning muqarrarligi haqidagi qarashlarini badiiy shaklda ifodalaydi. Shoirning ta'kidicha, "dahri behosil g'ami" (hosilsiz dunyo g'ami) haqida fikr yuritish arzimaydi, chunki dunyo o'tkinchi va besamardir. "Xulladek xil'at" (jannat libosidek libos) yoki "ravzadek manzil" (jannatdek makon) g'ami ham shu qatorga kiradi. Agar "boda" (sharob, bu o'rinda majoziy ma'noda haqiqiy ishq yoki ma'naviy lazzat) ichilsa, "davri musta'jil" (tez o'tuvchi zamon) g'ami ketadi. Ammo ishqning mushkil g'ami nogahon o'limni ham istashi mumkin. Agar Navoiyning o'zidek boshga "qotil g'ami" (o'ldiruvchi g'am, ishq azobi) tushsa, o'shanda qismat nima bo'lsa, ko'riladi.

"Dahr" – o'tkinchi dunyo; "ravza" – jannat; "xulla" – jannat libosi. Bu obrazlar orqali shoir dunyoviy orzu-istaklarning nisbiyligini ta'kidlaydi. "Boda" obrazi esa majoziy ma'noda haqiqiy ishqni, ruhiy mastlikni anglatadi. "Qotil g'am" obrazi ishq azobining kuchliligini, hatto o'limga olib kelishi mumkinligini bildiradi. "Dog'" esa ishq azobining izi, belgisi sifatida keltirilgan.

Tasavvufiy nuqtai nazardan bandda dunyoviy g'amlarning bema'niligi va haqiqiy ishqning ustunligi ta'kidlanadi. Dunyo g'ami "behosil"dir, ya'ni hosil bermaydi. Haqiqiy manzil – ravza (jannat), haqiqiy libos – xulla. Ammo bunga erishish uchun ishq yo'lidan o'tish, uning mushkil g'amini chekish lozim. Ishq g'ami hatto "qotil" darajasiga yetsa ham, u qismatning bir qismi sifatida qabul qilinishi kerak. Xullas, so'nggi band musaddasning falsafiy-badiiy cho'qqisi hisoblanadi. Unda dunyoning o'tkinchiligi, dunyoviy g'amlarning bema'niligi, haqiqiy ishqning mushkilligi va taqdirning muqarrarligi yuksak badiiy saviyada ifodalangan.

Tahlilga tortilgan "Dahr aro chun qayg'usiz yo'q hech ishrat, ey rafiq..." bilan boshlanuvchi musaddasda Alisher Navoiy badiiy san'atlardan, xususan, tazod va tashbeh usullaridan yuqori mahorat bilan foydalangan. Bandlardagi "subh – shom", "nur – zulmat", "ishrat – mehnat", "vasl – furqat", "no'sh – nesh" kabi qarama-qarshi tushunchalar shunchaki hayotiy ziddiyatlarni emas, balki tasavvufdagi moddiy dunyoning o'tkinchi va nisbiy ekanini ifodalaydi.

Musaddasda qo'llanilgan "eski toq", "dayr" va "xonaqoh" obrazlari chuqur irfoniy ramziy mazmunga ega. "Dayr devorini buzib, masjid qurish" da'vati moddiy-dunyoviy va zohiriy aloqalardan uzilib, botiniy poklik va Haq zikriga yuz tutish kerakligini anglatadi. Lirik qahramon tomonidan qayta-qayta murojaat qilinayotgan "Rafiq" obrazi esa bir tomondan solikning (tasavvuf yo'lidagi yo'lovchi) ruhiy hamrohi, piri murshididir.

Alisher Navoiyning ushbu musaddasi insonni o'z-o'zini anglashga, hayotning asl mohiyatini anglab, soxta va o'tkinchi hoyu havaslarga berilmaslikka chorlaydi. Mutafakkir shoir lirik qahramon tilidan sabr-qanoat, vafo, rostgo'ylik va ma'naviy kamolot g'oyalarini ilgari suradi.

Xulosa qilib aytganda, musaddasni g'oyaviy-badiiy tahlili orqali ayonlashadiki, unda ulug' shoir Alisher Navoyning tasavvufiy, axloqiy-didaktik qarashlari badiiy ifodasini topgan. Shoirning falsafiy qarashlari, badiiy mahorati va teran mushohadalari aks etgan ushbu asar bugungi kun yoshlarini ma'naviy-axloqiy ruhiyotda tarbiyalashda va mumtoz adabiyotimizning boy merosini anglashda beqiyos ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy. Navodir ush-shabob. Mukammal asarlar to'plami. XX jildlik. IX jild. – Toshkent: Fan, 1989.
2. Is'hoqov Y. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983.
3. Yusupova D. Ogahiy tahmislari / "Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyotining rivojidagi o'rni" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2020.
4. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 2006.

Sadinura RUZIMURODOVA,
Qarshi davlat universiteti magistranti

O'ZBEK ADABIY TILI VA QIPCHOQ LAHJASIDA KONSONANT ALTERNATSIYA HODISASINING ORTOLOGIK TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon tilshunosligida alternatsiya hodisasining o'ziga xos xususiyatlari, o'rganilish tarixi va taraqqiyoti, shuningdek, o'zbek adabiy tili va qipchoq lahjasida uchraydigan konsonant alternatsiya hodisasining ortologik hamda lingvokulturologik jihatlari tahlil qilinadi. Fonetik o'zgarishlarning talaffuz me'yori, nutq madaniyati hamda kommunikativ jarayonga ta'siri ilmiy manbalar hamda misollar asosida yoritiladi. Qipchoq lahjasi og'zaki nutqidan to'plangan nodir misollar yordamida konsonant alternatsiya hodisasining lingvistik xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, qipchoq lahjasidagi fonetik variativlikning milliy til taraqqiyotidagi o'rni yoritiladi.
Kalit so'zlar: adabiy til, milliy til, ortologiya, alternatsiya, konsonant alternatsiya, qipchoq lahjasi, lingvokulturologiya, lingvokulturema, fonetik me'yor, talaffuz, nutq madaniyati, lahjaviy xususiyat.
Annotation. This article analyzes the specific features of the alternation phenomenon in world linguistics, the history of its study and development, as well as the orthological and linguocultural aspects of the consonant alternation phenomenon in the Uzbek literary language and the Kipchak dialect. The impact of phonetic changes on the pronunciation norm, speech culture and the communicative process is covered on the basis of scientific sources and examples. At the same time, the article reveals the linguistic features of the consonant alternation phenomenon using rare examples collected from the oral speech of the Kipchak dialect. The role of phonetic variability in the Kipchak dialect in the development of the national language is also highlighted.
Keywords: literary language, national language, orthology, alternation, consonant alternation, Kipchak dialect, linguoculturalology, phonetic norm, pronunciation, speech culture, dialectal feature.
Аннотация. В данной статье анализируются специфические особенности феномена чередования согласных в мировой лингвистике, история его изучения и развития, а также орфологические и лингвокультурные аспекты феномена чередования согласных в узбекском литературном языке и кипчакском диалекте. На основе научных источников и примеров рассматривается влияние фонетических изменений на норму произношения, речевую культуру и коммуникативный процесс. Одновременно в статье раскрываются лингвистические особенности феномена чередования согласных на редких примерах, собранных из устной речи кипчакского диалекта. Также освещается роль фонетической изменчивости в кипчакском диалекте в развитии национального языка.
Ключевые слова: литературный язык, национальный язык, орфология, чередование, чередование согласных, кипчакский диалект, лингвокультурология, лингвокультурализм, фонетическая норма, произношение, речевая культура, диалектальная особенность.

Har bir davlatning mustaqilligini namoyon qiluvchi ramzlari mavjud. Mana shunday ramzlardan biri bu shubhasiz davlat tili hisoblanadi. Shuning uchun bugungi kunda ona tilimizning sofligini saqlash, uning xalqaro miqyosdagi nufuzini yanada oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli makonga faol integratsiyalashuvini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, Prezidentimiz tomonidan imzolangan "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror (21.10.2026) ham mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va samarali foydalanish, ta'lim tashkilotlarida o'zbek tilini o'qitish tizimini takomillashtirish, uning sofligini saqlash va muntazam boyitib borish, zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini kengaytirishda muhim omil bo'ldi.

Ushbu hujjatga muvofiq, 2026-yil 1-yanvardan boshlab respublika darajasidagi davlat organlari va xo'jalik birlashmalarining markaziy apparatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimliklarida boshqaruv xodimlarining belgilangan umumiy cheklangan soni doirasida rahbarning ma'naviyat va davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchisi lavozimi joriy etildi.

O'sib kelayotgan avlodni davlat tiliga, ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash eng avvalo katta avlod vakillarining burchi. Bu borada davlatimiz rahbari barchaga asrlarga tatigulik namuna ko'rsatmoqda: BMT Bosh Assambleyasining nufuzli sessiyalarida o'zbek tilida nutq so'zlagani ona tilimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada yuksaltirdi [1: 34].

Ko'rinib turibdiki, tilimizni mamlakatimizning chinakam ramziga aylantirish, jahon minbaridagi nufuzini ta'minlash uchun barchamiz birdek harakat qilmog'imiz lozim. Bugungi kunda antroposentrik tilshunoslik vakillari aynan shunga, ya'ni tilimizni raqamlashtirib, uni sun'iy intellekt tiliga aylantirishga harakat qilishmoqda. Buning uchun esa tilimizning boshqa rivojlangan tillardagidek tezaurs (tilga oid leksik tarkibni to'la hajmda aks ettiruvchi) [2: 103] lug'atlarga ehtiyoji bor. Tezaurs lug'atlarda esa tilning barcha tarmoqlari, xususan, dialektologiya sohasining ortologik tadqiqi ham o'z aksini topishi lozim. Tadqiqotimizning asosiy maqsadi ham qipchoq lahjasida konsonant alternatsiya hodisasining ortologik talqiniga bag'ishlanadi.

Alternatsiya (lot.alternatio – almashinuv) – tovushlarning almashinish hodisasi. Morfema ifoda planidagi ayni bir tovushning turli holatlarda boshqa tovushlar bilan almashinuvi: ong – angla, yurak – yuragi kabi [2: 109].

Alternativatsiya (lotincha alterno—almashtirish [5: 209]) – bu bir xil lingvistik darajadagi birliklar o'rtasidagi paradigmatik munosabat bo'lib, ularning ma'lum sintagmatik yoki paradigmatik sharoitlarda yuqori darajadagi birlik tarkibida bir xil pozitsiyada bir-birini almashtirish qobiliyatidan iborat. Almashuvchi birliklar alternantlar deb ataladi [3: 47].

Tovushlar (allofonlar) va fonemalarning almashinuvlari bitta morfema ichida sodir bo'ladi, ular uchun yuqori darajadagi birlikni ifodalaydi. Alternativlar miqdoriy jihatdan (tovush uzunligi bo'yicha) yoki sifat jihatidan (shakllanish usuli, shakllanish joyi bo'yicha) farq qilishi mumkin.

Almashuv sharoitlarining tabiati bo'yicha ikki tur ajratiladi: fonetik (avtomatik almashinuvlar deb ham ataladi) [3: 68] va fonetik bo'lmagan (an'anaviy, tarixiy). Fonetik almashinuvlar eng muntazam hisoblanadi (chet el so'zlarida bir nechta istisnolarni kuzatish mumkin), ammo muntazam fonetik determinatsiya tarixan fonetik bo'lmagan almashinuvlarning ham asosi hisoblanadi. Umuman olganda, shakl hosil qilish tizimidagi almashinuvlarning muntazamligi so'z hosil bo'lishiga qaraganda yuqoriroqda.

Fonetik almashinuvlarda bitta fonemaning allofonlari – bir-birini turli fonetik pozitsiyalarda istisno qiluvchi birliklar – o'zgaruvchan munosabatlarga kirishadi. Shunday qilib, fonetik almashinuvlar har doim pozitsion hisoblanadi. Fonologiyada

ular ma'lum bir tilning fonematik tarkibini aniqlash uchun material bo'lib xizmat qiladi [4: 47].

Fonetik almashinuvlar pozitsion (tor ma'noda) va kombinatorialga bo'linadi. Pozitsion almashinuvlar – bu urg'u yoki so'z chegarasiga nisbatan pozitsiya bilan belgilanadigan almashinuvlar. Bu turdagi fonetik almashinuvga devoatsiya va qisqartirish kiradi. Kombinatorial almashinuvlar ma'lum bir tovush muhitida boshqa o'ziga xos tovushlarning mavjudligi bilan belgilanadi [4: 89].

O'zbek tilining shevalari, ayniqsa, qipchoq lahjasi, milliy til taraqqiyotini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Lahjalarda saqlanib qolgan fotenik, leksik va grammatik xususiyatlar adabiy tilning tarixiy ildizlarini aniqlash, til taraqqiyoti va qonuniyatlarini belgilash hamda til me'yorlarining shakllanish jarayonini yoritishda katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qipchoq lahjasida uchraydigan *konsonant alternatsiya* hodisasi alohida e'tiborga loyiqdir. Quyidagi jadval orqali qipchoq lahjasida konsanat alternatsiyaning namunalarini ko'rish mumkin.

	Adabiy tildagi shakl	Qipchoq lahjasidagi shakl	Alternatsiya
1.	ko'paymoq	küvaymoq	p – v
2.	sog'moq	sovmoq	g' – v
3.	sigir	siyir	g – y
4.	bog'	bov	g' – v
5.	tog'	tov	g' – v
6.	ko'pmoq	küvmoq	p – v
7.	chigal	chıya	g – y

Yuqoridagi qipchoq lahjasi og'zaki nutqidan to'plangan namunalarda kuzatilgan undosh almashuvlari nafaqat fonetik hodisa, balki tarixiy-etimologik jarayonlarning ham mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu alternatsiyalar lahjaning o'ziga xos fonologik tizimini belgilaydi. Qipchoq lahjasida undoshlar almashinuvi talaffuzning qulaylashuvi tamoyiliga asoslanadi. Jarangli undoshlarning jarangsizlashuvi yoki portlovchi undoshlarning sirg'aluvchi tovushlarga aylanishi nutq oqimini yengillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu hodisalar nutq apparatlarining oson ishlashi hamda talaffuzdagi artikulyatsion harakatning soddalashtirilishi natijasida yuzaga keladi.

Mazkur hodisani o'rganish qipchoq lahjasining ichki qonuniyatlarini aniqlash, adabiy til bilan munosabatini belgilash hamda tarixiy fonetik jarayonlarni tiklash imkonini beradi. Shu bois konsonant alternatsiyaga qipchoq lahjasini tavsiflashda muhim ilmiy mezon sifatida qaraladi.

Bugungi globallashuv sharoitida adabiy til me'yorlarini mustahkamlash bilan bir qatorda shevalarning lingvistik xususiyatlarini ilmiy asosda tadqiq etish hamda ular asosida zamonaviy o'zbek tezaurs lug'atlarini yaratish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Prezident qarori // Xalq so'zi, 2025.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
3. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: КомКнига, 2007.
4. Камалова Л.А. Лекция 5: Позиционные изменения согласных звуков. Ассимиляция. Диссимиляция. Аккомодация. – С. 3. – 10 с.
5. Большой академический словарь русского языка (БАН). М.: Наука, 2004.
6. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-qism. – Toshkent: Navro'z, 1997.
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000.

Mashxuraxon BURXANOVA,
Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

TILNING PERSEPTUAL VA KONSEPTUAL PARADIGMASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada sensor lingvistika va lingvosensorikaning zamonaviy ilmiy-nazariy asoslari, inson tafakkur faoliyatiga asoslangan persepsiya (idrok qilish va anglash) hodisasi hamda besh sezgi a'zolarining til tizimidagi verbal reprezentatsiyasi masalalari atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, borliq, ong va til munosabatlari doirasida perseptiv birliklarning konseptuallashtirilishi, vizual va boshqa sezgi moduslarining lisoniy voqelanishi hamda mazkur yo'nalishning lingvopoetik va kognitiv aspektlari yoritib beriladi.
Kalit so'zlar: lingvosensorika, persepsiya, perseptual va konseptual paradigma, bilish, anglash, reprezentatsiya, sezgilar tili, vizual sezgi, vizuallik, vizual idrok modusi, assotsiatsiya.
Annotation. This article comprehensively analyzes the modern scientific and theoretical foundations of sensor linguistics and linguosensorics, the phenomenon of perception (perceiving and understanding) based on human cognitive activity, and the issues of verbal representation of the five sensory organs within the language system. Furthermore, it highlights the conceptualization of perceptual units within the framework of reality-consciousness-language relations, the linguistic actualization of visual and other sensory modalities, as well as the linguopoetic and cognitive aspects of this field.
Keywords: linguosensorics, perception, perceptual and conceptual paradigms, cognition, comprehension, representation, language of the senses, visual sensation, visuality, visual perception mode, association.
Аннотация. В данной статье всесторонне анализируются современные научно-теоретические основы сенсорной лингвистики и лингвосенсорики, феномен перцепции (восприятия и осмысления), основанный на мыслительной деятельности человека, а также вопросы вербальной репрезентации пяти органов чувств в языковой системе. Кроме того, освещаются процессы концептуализации перцептивных единиц в рамках соотношения бытия, сознания и языка, языковая актуализация визуальных и других сенсорных модусов, а также лингвопоэтические и когнитивные аспекты данного направления.
Ключевые слова: лингвосенсорика, перцепция, перцептуальная и концептуальная парадигмы, познание, осмысление, репрезентация, язык ощущений, визуальное ощущение, визуальность, модус визуального восприятия, ассоциация.

Sensor lingvistika tilshunoslikning eng yangi va istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. U sezgi a'zolari tilini o'rganadigan sohalardan bo'lib, uning konseptual asosi antropotsentrik ilmiy paradigma hisoblanadi. Tilshunoslikda olamning konseptual manzarasi va olamning lisoniy manzarasi kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular borliq, ong va til o'rtasidagi munosabatlar tizimini tashkil qiladi. Sensor lingvistika ham borliqda yuz berayotgan har bir voqea-hodisaning inson sezgi a'zolari orqali ongga yetib borishi va ularni bilish hamda anglash kabi mental-kognitiv jarayonlar mahsuli sifatida tahlil qiladi. Shu bois idrok qilishdan tortib lisoniy ifodalanishgacha bo'lgan perseptiv birliklarni o'rganuvchi sensor lingvistikaning konseptual asosi inson omiliga tayanuvchi antropotsentrizm nazariyalaridan iborat bo'ladi.

Ma'lumki, boshqa fan sohalarida bo'lgani singari, tilshunoslikda ham yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi ungacha bo'lgan qaysidir sohaning turdosh va yondosh muammolari yechimiga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish bilan belgilanadi. Ayni vaqtda sezgilar tiliga bag'ishlangan sensor lingvistika haqidagi dastlabki tushunchalarni shakllantirish va shu yo'nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirishda kognitiv lingvistika, kommunikativ tilshunoslik, psixolingvistika hamda ontolingvistika kabi zamonaviy yo'nalishlar muhim o'rin tutmoqda [1: 656].

Yuqorida sanab o'tilgan lingvistik yo'nalishlar insonning tafakkur faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular o'zbek tilshunosligida ham bosqichma-bosqich shakllanib bormoqda. Inson omili hisobga olingan perseptuallik va konseptuallikka oid ilmiy qarashlar sensor lingvistikaning ilmiy-nazariy asosini tashkil etdi. Bilish, anglash, fikrlash kabi mental mexanizmlar inson tafakkurining asosiy ko'rsatkichlari bo'lib, bu omillar borliq va til o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashga xizmat qiladi. Antropotsentrik ilmiy paradigmaning mohiyati sensor lingvistika uchun ana shunday ahamiyatli konseptual strukturalardan biriga aylandi.

Antropotsentrik ilmiy paradigmaning mohiyati sensor lingvistika uchun ana shunday ahamiyatli konseptual strukturalardan biriga aylandi. Insonning tafakkur faoliyatiga asoslangan persepsiya, ya'ni idrok qilish va anglash jarayonlari bilan shug'ullanuvchi lisoniy bilimlar sohasini o'z ichiga olgan lingvosensorikada besh sezgi a'zosining verbal reprezentatsiyasi masalalari chuqur o'rganiladi. Xususan, ko'rish, eshitish, teginish, ta'm va hid bilish kanallari orqali tafakkurga qabul qilinadigan xabarlarning mental strukturada qayta ishlanishi va muayyan tushunchalarni hosil qilishi sezgi idrok modusi deb yuritiladi. Bunday tushunchalar sensor lingvistikada perseptiv birliklar hisoblanadi.

Idrok modusi tushunchasi ilmiy tilda borliqda yuz berayotgan voqea va hodisalarning inson ongiga ko'chishi sifatida izohlanadi. Narsa, buyum yoki hodisalar xususiyatlarining inson ongida idroklanishi perseptiv modusni tashkil etadi. Bunday perseptiv birliklarning konseptuallashtirilishi bilish jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'lib, idrok modusiga oid tushunchalarning yaxlit holga kelishi konsept tushunchasini ifodalaydi. Borliq, ong va til munosabatiga asoslangan mental-kognitiv jarayonlarning mahsuli bo'lgan konkret tushunchalarning lisoniy vositalar yordamida voqelanishi lisoniylashish yoki verballashish deb yuritiladi.

Sensor lingvistikaning tadqiqot obyekti chegarasini shunday tartibda belgilash va perseptiv leksemalar badiiyatini tahlil qilish ushbu yo'nalishning lingvopoetik asosini tashkil qiladi. Xorijlik tadqiqotchilar tomonidan sensor lingvistika doirasida amalga oshirilgan ishlarda sohaning eng muhim muammolari tilshunoslik nuqtai nazaridan yoritiladi. Buni A.Nagornaya "sensor lingvistika yo'nalishiga oid sezgi modusi yoki perseptiv moduslar" [2: 57] deb nomlasa, boshqa ilmiy adabiyotlarda "...anglash va idrok sferasiga oid nomlarni perseptiv moduslar yoki idrok modusi tarzida ataladi, vizual modusga aloqador bo'lgan yorug'lik, rang, shakl va hajmni idrok etuvchi bir necha submoduslar" ajratilishi ta'kidlanadi [3: 74].

Submoduslar to'g'risida so'z borganida, haqiqatan ham, bir sezgining o'zida bir necha idrok modusiga aloqador perseptiv leksemalar mavjud bo'ladi. Xususan, vizual modus tarkibiga kiruvchi yorug'lik tushunchalarini ifodalovchi so'zlar guruhi, rang ma'nosini bildiruvchi leksemalar paradigmatik qatori, shakl turlarini belgilovchi nominativ birliklar va hajm bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi idrok leksikasi vizual

modusning ichki bo'linish moduslari hisoblanadi. Bularni submoduslar deb nomlash mantiqan to'g'ri va asoslidir. Bunday paradigmatik submoduslar barcha sezgi a'zolariga asoslangan idrok moduslarida ham yaqqol kuzatiladi.

Sensor lingvistika muammolarining hali to'liq hal etilmagani ushbu yo'nalishning yangiligidan dalolat beradi. Har qanday yangi fan sohasida bo'lgani kabi, birinchi navbatda, tadqiqot obyektini, ya'ni sensor lingvistika uchun lisoniy dalillar doirasini aniq chegaralash muhim ahamiyat kasb etadi. Sezgilar tilini konseptual va lisoniy aspektlarda tahlil qilish, perseptiv leksik birliklarning kognitiv hamda sinestetik metaforalar hosil qilishdagi funksiyalarini o'rganish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridandir.

Sensor lingvistika haqidagi tushuncha va qarashlar endigina o'rtaga tashlanayotgan bir paytda, uning predmetini aniq belgilab olish va sezgilar tilini o'rganuvchi yondosh hamda turdosh sohalarga oid paradigmalardan to'g'ri foydalanish ilmiy yo'nalishning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. So'z anglash va idrok qilish jarayoni bilan bog'liq ekan, u o'z-o'zidan til va tafakkur, mentalingvistika, generativ lingvistika hamda kognitiv lingvistika kabi antropotsentrik tamoyillarga borib taqaladi. Agar sensor lingvistika sezgilar tili va ularning tilda namoyon bo'lishi kabi masalalarni o'rgansa, uning tadqiqot predmeti sezgi tilini tadqiq etish, tadqiqot obyekti esa sezgining lisoniy ifodalanishi yoki inson tafakkuridagi sezgilarga asoslangan g'oya va fikrlarning verballashuvidan iborat deb qaraladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, sensor lingvistika sezgi a'zolari funksiyalari yo'nalishiga oid zamonaviy ilm sohasi bo'lib, unda tadqiqotchilar soha mundarijasini har tomonlama asoslashga harakat qilmoqdalar. Bir muallif qarashlarida borliqda yuz berayotgan voqea-hodisalarni anglash va idrok qilish bilan bog'liq ilmiy tushunchalarda terminologik birliklar talqini ustuvor bo'lsa, ikkinchi bir tilshunos izlanishlarida yo'nalishning predmeti va obyektini aniqlab olish muammosi ilgari suriladi. Shuning uchun ham sensor lingvistikaga oid tadqiqotlar kelgusida mazkur yo'nalishning nazariy mohiyatiga chuqurroq kirib borish hamda o'rganilayotgan muammolar mundarijasining yanada aniq bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Цейтлин С.Н. Язык и ребёнок: лингвистика детской речи. М.: ВЛАДОС, 2000.
2. Онтолингвистика – наука XXI века // Материалы международной конференции. СПб.: Златоуст, 2011. – 656 с.
3. Нагорная А.В. Лингвосенсорика как перспективное направление современных лингвистических исследований. М., 2017. – С. 57.
4. Рузин И.Г. Модусы перцепции (зрение, слух, осязание, обоняние, вкус) и их выражение в языке: Дис. ... канд. филол. наук. М., 1995. – С. 74.

Dilfuza AVAZOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi

MUSHTARAK OBRAZLAR TAHLILI

(Alisher Navoiy, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat va Abdulla Oripov ijodi misolida)

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiy, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat va Abdulla Oripovning haj mavzusidagi she'rlarida mushtarak obrazlar qiyosiy tahlil etilgan. Har bir ijodkorning obraz yaratishdagi individual yondashuv mezonlari ochib berilgan.
Kalit so'zlar: haj ibodati, obraz, kechinma, mushtarak obrazlar, adabiy-estetik tafakkur, uyg'unlik, individuallik, tasvir, badiiy talqin.
Annotation. This article presents a comparative analysis of the common imagery in the poems of Alisher Navoi, Zokirjon Kholmuhammad ugli Furkat, and Abdulla Oripov on the theme of the Hajj. The criteria for each poet's individual approach to creating imagery are also explored.
Keywords: Hajj pilgrimage, imagery, inner experience, common imagery, literary-aesthetic thought, harmony, individuality, depiction, artistic interpretation.
Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ общих образов в стихотворениях Алишера Навои, Закирджана Халмухаммад-оглы Фурката и Абдуллы Арипова, посвящённых теме хаджа. Раскрываются критерии индивидуального подхода каждого автора к созданию образа.
Ключевые слова: паломничество (хадж), образ, переживание, общие образы, литературно-эстетическое мышление, гармония, индивидуальность, изображение, художественная трактовка.

Sharq mumtoz va milliy poetikasida so'z nafaqat axborot uzatish vositasi, balki inson ruhiyati va ilohiy haqiqatni bog'lovchi ma'naviy-estetik kategoriya sifatida ham e'tirof etiladi. Badiiy tafakkur tarixiga nazar tashlansa, islomgacha bo'lgan arab she'riyatidagi mifologik va qabilaviy madh etish an'anasi Saodat asridan boshlab yangicha dunyoqarash va e'tiqodiy mezonlar asosida qayta shakllandi. Muqaddas kitobda shoirlar haqidagi ilohiy hukm va istisno etilgan "iymon keltirib, ezgu ishlarni qilgan" so'z san'atkorlari maqomi Sharq adabiyotining asosiy estetik mezoniga aylandi [6: 547].

Mumtoz poetikada sufiyona va majoziy ishq konsepsiyasi markazida Haq taolo va Uning eng mukarram rasuliga bo'lgan muhabbat yotadi. Shunga ko'ra, na't va munojot kabi adabiy qismlar diniy-axloqiy ta'limot ifodasi bo'libgina qolmasdan, balki ijodkorning lirik tafakkur va dunyoqarashining oliy nuqtasi hisoblanadi.

Alisher Navoiyning "Munojot" asari adabiyotshunoslikda uzoq vaqt davomida muallifning "Kulliyot"iga bitilgan an'anaviy so'zboshi sifatida qaralib kelingan. Biroq navoiyshunos olima S.G'aniyeva tadqiqotlari ushbu manzuma Navoiyning umri so'ngidagi ma'naviy-ruhiy iztiroblari, davr va jamiyat bilan munosabati, eng muhimi, ilohiy dargohdagi tavba va iqrorlarining yuksak namunasi ekanini ko'rsatadi [1: 5]. Navoiy hayotining so'nggi yillarida (Husayn Boyqaro tomonidan haj safariga ruxsat berilmagach) qalbidagi azal-abad ikki armon – ijod va haj orzusining to'qnashuvi og'ir ruhiy kechinmalarni keltirib chiqaradi [1: 7]. Aynan mana shu ruhiy holat "Munojot"dagi hamd va na't tarkibiy qismlarining ichki dinamikasini belgilaydi.

Asarning na't qismida Navoiy payg'ambar (s.a.v.)ni butun mavjudot yaralishining azaliy sababi sifatida tasvirlaydi: *"Ulki, kuntu nabiyyan va Odamu baynalmoi vattin"*, ya'nikim, *"Odam Ato suv bilan tuproq orasida bo'lgan paytdayoq men payg'ambar edim"*, – hadisi sharifini Navoiy 18 ming olam va 124 ming payg'ambarning yaratilishiga asosiy sabab bo'lgan fundamental ilohiy nur sifatida poetik mazmun yaratadi [Rahmutulloh qori Obidov. Qur'on va tafsir ilmlari fanidan ma'ruzalar matni. 2003/3b].

Me'roj kechasi tasvirida esa Navoiy sufiyona poetikaning eng yuksak nuqtasi bo'lmish *"Li ma'allohu vaqtun"* ya'ni *Menda Alloh bilan shunday lahzalar bo'ladiki...* maqomini badiiy talqin etadi. E'tiborli jihati shundaki, Navoiy payg'ambarning Yaratgan bilan bo'lgan ilohiy visol onlarida so'z chegaralanganligini va inson tafakkuri bu maqom oldida ojizligini anglagan holda tasvirni sukut va ehtirom nuqtasida to'xtatib qo'yadi. Bu Navoiyning Rasulullo maqomiga bo'lgan cheksiz ehtiromining badiiy ifodasidir.

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatning 1892-yilda arab mamlakatlariga qilgan safari davomida yaratilgan "Hajnoma" asari 12 tarji' va 216 satrdan iborat safarnoma hamda irfoniy asar sifatida alohida ahamiyatga ega. Furqat Rasulullo obrazini topografik detallar bo'lmish Masjidi an-Nabaviy va Saodat hujrasi hamda boshqa ma'rifiy-badiiy ramzlar orqali ifoda etadi. Asarda Masjidi an-Nabaviy poydevoriga ishlatilgan ketmonga quyoshning havas qilishi haqida *"Kuland o'lmoqni tamanno etdi xurshid..."* satri orqali muallif chuqur falsafiy xulosaga keladi: Olloh va Uning rasuli yo'liga baxshida etilmagan har qanday buyuk borliq asarda tasvir etilgan havasmand quyosh kabi oddiy loy qoradigan ketmonchalik madaniy-ma'naviy qiymatga ega emas.

Shuningdek, masjid devorlaridagi *abyoz*ning oq ranggi payg'ambarning nafs nuqsonlaridan pok qalbiga, *kafur* xushbo'y moddasi esa u zotning ma'naviy suhbatlariga, *yoqut* esa yuzidagi hayoga ishora qiladi. Asarda to'rtinchi va beshinchi tarji'lardagi Me'roj voqeasi dialog tarzida qurilgan. Furqat Tangri va Uning habibi o'rtasidagi muloqotda *"Inna a'toynak"* bashoratiga javoban payg'ambarning faqat ummat mag'firatini so'rashini markaziy planga olib chiqadi. Shu bilan birga, muallif payg'ambar siymosini bayon qilishda ulamolarning *"Mo arafnok"* ya'ni *"Sizni munosib taniy olmadik"* e'tirofiga tayanadi va o'z badiiy tilining bu borada ojizligini tan oladi. [4]

XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatining yangilanish bosqichida Abdulla Oripovning "Haj daftari" va "Hikmat sadolari" kabi turkum asarlari mumtoz na't va arba'in an'anasining zamonaviy o'zbek adabiyotidagi munosib davomi bo'ldi. Shoir "Insof va diyonat izlab" maqolasida ta'kidlaganidek, islomning mukammalligi va Muhammad (s.a.v.)ning so'nggi payg'ambar ekanining fundamental sababi – u zot olib kelgan ta'limotning eng oliy insoniy qadriyatlar bilan uyg'unligidadir [3].

Abdulla Oripovning "Haj daftari" turkum asarlarida, xususan, "Ibrat" va "Vahiy" she'rlarida Rasulullоh obrazi faqat favqulodda mo'jizalar egasi sifatida emas, balki insoniy iztiroblar, mas'uliyat va yuksak axloq egasi bo'lgan real shaxs sifatida gavdalanadi. "Hordiq" she'rida esa Payg'ambar Alayhissalomning dunyo va oxirat haqidagi qarashlari quyidagicha badiiy aks etadi:

Rasulullоh dedi: –O'ylamang aslo,
Fanodan men rohat kutayotirman.
Bu dunyo daraxtning soyasi go'yo,
Men undan ot minib o'tayotirman.

Shuningdek, Abdulla Oripovning "Me'roj" she'ridagi *"Tasviri joizmas bu holni, biroq..."* satri Navoiyning *"Li ma'allohu vaqtun"* va Furqatning *"Mo arafnok"* konsepsiyasi bilan ayni mushtarak tasvirdir. Shoir zamonaviy inson tafakkuri qanchalik taraqqiy etmasin, Me'roj hodisasining to'liq mohiyatini ochishda hanuz ojizligini mana shunday ifoda etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Munojot / nashrga tayyorlovchi S.G'aniyeva. – Toshkent: Kamalak, 1991.
2. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'ninchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013.
3. Oripov A. Hikmat sadolari. – Toshkent: Fan, 1993.
4. Jabborov N. Haj ma'rifati // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2019, №30.
5. Nosiruddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. – Toshkent: Yozuvchi, 1991.
6. Shayx Alouddin Mansur. Qur'oni azim muxtasar tafsiri. – Toshkent: Movarounnahr, 2019.

Yashin AZIZOV,
Oriental universiteti o'qituvchisi,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

O'ZBEK TILIDA METATEZA JARAYONI: FONOLOGIK TADQIQOT

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tili adabiy tili va shevalaridagi metateza hodisasi P. Straznyning to'rt parametrli tipologiyasi asosida tizimli fonologik jarayon sifatida tadqiq etiladi. Unda hodisaning qo'shni va uzoq, sinxron va diaxron, keskin va bosqichma-bosqich, shuningdek, tasodifiy va qonuniyatli turlari adabiy til, xalq shevalari hamda qadimgi turkiy yozma yodgorliklar materiali asosida qiyosiy-chog'ishtiruv tahliliga tortilgan. Ilmiy kuzatishlar natijalari metatezaning sof tasodifiy fonetik xato emasligini, balki sonor tovushlar ishtirokida namoyon bo'luvchi qisman qonuniyatli fonotaktik hodisa ekanini ilmiy asoslaydi.

Kalit so'zlar: metateza, tovush o'rin almashinuvi, fonologik jarayon, shevalar, artikulyatsiya qulayligi, "Devonu lug'otit turk", fonotaktika.

Annotation. This article investigates metathesis in the literary Uzbek language and its dialects as a systematic phonological process based on P. Strazny's four-parameter typology. It comparatively analyzes adjacent and distant, synchronic and diachronic, abrupt and gradual, as well as sporadic and regular types of metathesis using data from the literary language, folk dialects, and Old Turkic written monuments. The research findings scientifically substantiate that metathesis is not merely a random phonetic error, but a partially regular phonotactic phenomenon manifesting with the participation of sonorant sounds.

Keywords: metathesis, sound transposition, phonological process, dialects, articulatory ease, "Dīwān Lughāt al-Turk", phonotactics.

Аннотация. В статье явление метатезы в узбекском литературном языке и его диалектах исследуется как системный фонологический процесс на основе четырёхпараметрической типологии П. Стразного. На материале литературного языка, народных говоров и древнетюркских письменных памятников проведён сравнительно-сопоставительный анализ смежной и дистантной, синхронной и диахронной, резкой и ступенчатой, а также случайной и закономерной разновидностей данного явления. Результаты научных наблюдений научно обосновывают, что метатеза представляет собой не чисто случайную фонетическую ошибку, а частично закономерное фонотактическое явление, проявляющееся с участием сонорных звуков.

Ключевые слова: метатеза, перестановка звуков, фонологический процесс, говоры, удобство артикуляции, "Дивану лугат ат-тюрк", фонотактика.

Tilshunoslik til hodisalarining barcha qirralarini – fonemalar tizimidan tortib, til qoidalarigacha – o'rganadigan fan sohasidir. Til inson ongi va o'zligini anglashning asosiy vositasi bo'lgani sabab, til qonuniyatlarini bilish ko'plab boshqa hodisalarni tushunishga ham yordam beradi. Fonologiya til tovush tizimini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi bo'lib, u tovushlarning joylashuvi, munosabati va turli tillardagi qo'llanilishini tekshiradi. Nutq oqimida tovushlar bir-biri bilan o'zaro ta'sirlashadi – bu hodisa "bog'langan nutq" deb ataladi. Alohida so'zlarning mexanik talaffuzidan farqli o'laroq, ritm, assimilyatsiya, eliziya kabi jarayonlar nutq oqimiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ana shu jarayonlardan biri – metateza hodisasidir.

Metateza yunoncha "meta" (o'zgarish) va "thesis" (holat, joylashuv) so'zlaridan olingan bo'lib, so'z ichida yoki so'zlar orasida tovushlarning odatdagi tartibining almashinishini bildiradi. Ya'ni bir shaklda "xy" tartibida joylashgan ikki tovush, so'zning boshqa (bog'liq) shaklida "yx" tartibida uchraydi. Bu qayta tartiblanish, odatda, so'zning ma'nosiga emas, balki fonologik qiyofasiga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni asl va metatezalashgan shakllar bir xil ma'noni ifodalashda davom etadi.

Tarix davomida turli olimlar metatezaga turlicha yondashgan. Ayrim tadqiqotchilar uni faqat morfologik sinflarni farqlash vositasi sifatida grammatik hodisa deb hisoblab, uni fonologiya doirasidan tashqarida qoladi, deb hisoblaydi. Boshqa yo'nalish vakillari esa metatezani sof fonologik omillar bilan boshqariladigan tovush o'zgarishi sifatida talqin qiladi [11]. Ushbu tadqiqotda ikkinchi yondashuv – fonologik metateza nuqtayi nazari asos qilib olindi.

O'zbek tilshunosligida metateza masalasi alohida, keng ko'lamli tadqiqot obyekti bo'lmagan, biroq turkologik adabiyotlarda bu hodisaga oid ayrim tekshirishlar mavjud. Bu borada V.V.Radlovning "Fonetika" asaridagi metatezaga bag'ishlangan qismi, shuningdek A.A.Palmbax va F.G.Isxakovning tuva va boshqa ayrim turkiy tillardagi metateza hodisalariga oid maqolasi eng to'liq tekshirishlar sirasiga kiradi [9: 270-272; 10: 293-297]. O'zbek tilshunosligiga oid asosiy grammatika va fonetika ishlarida – A.N.Kononovning "O'zbek tili grammatikasi" [8] va V.V.Reshetovning "O'zbek tili" [3] kabi asarlarda – metateza haqida faqat parcha-parcha fikrlar uchraydi. Sh.Shoabdurahmonovning "O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari" asari esa o'zbek shevalaridagi undoshlarning o'rin almashinuvi hodisasini alohida, ancha batafsil yoritgan yirik ishlardan biri hisoblanadi [1: 372].

Ushbu maqolaning maqsadi – o'zbek tili va uning shevalari, shuningdek, qadimgi turkiy yozma yodgorliklar ("Devonu lug'otit turk", qadimgi turkiy bitiklar) materiali asosida metateza hodisasini fonologik jarayon sifatida tizimli tahlil qilish, uning turlarini aniqlash va bu hodisaning tasodifiymi yoki qonuniyatlimi ekanligini ko'rsatishdir. Tadqiqotda P. Straznyning (2005) tipologiyasi qo'llaniladi, unga ko'ra metateza jarayoni to'rt parametr bo'yicha ko'rib chiqiladi:

1) qo'shni va uzoq metateza (tovushlarning joylashuvi bo'yicha);

2) sinxron va diaxron metateza (tarixiy nuqtayi nazardan);

3) keskin va bosqichma-bosqich metateza (tovush o'zgarishi yuzaga kelish usuliga ko'ra);

4) tasodifiy va qonuniyatli metateza (tovush hosil bo'lishi turiga ko'ra) [12].

1. O'zbek tilida qo'shni va uzoq metateza. Qo'shni (lokal) metateza ikki yonma-yon tovushning o'rin almashinuvi natijasida yuzaga keladi. Bu tur o'zbek shevalarida, xususan Toshkent, Farg'ona, Andijon shevalarida keng tarqalgan hodisadir [1: 126–127]. Undosh-undosh (CC) tipidagi almashinuvga misollar: [vx~xv] – Farg'ona shevasida *avxol*, Toshkent shevasida *axvol* (adabiy orfografiyada *ahvol*) [1: 126]; [yr~ry] – Andijon shevasida *dayra*, Toshkent shevasida *darya* (adabiy orfografiyada daryo) [1: 126–127]; [rp~pr] – Andijon shevasida *kirpey*, Toshkent shevasida *kiprey* (adabiy orfografiyada *kiprik*) [1: 127], shuningdek, Rahmatullayev lug'atida keltirilgan **kirpi + -k = kirpik > kiprik** jarayoni [2: 209–210]; [rg'~g'r] – Farg'ona va Andijon shevalarida *to'rg'a*, Toshkent shevasida *to'g'ra* (adabiy orfografiyada *to'g'ra*) [1: 127]; [vr~rv] – Toshkent shevasida *avra*, qadimgi yozma yodgorlikda *arva* (ДЛТ, I, 280) [1: 127]; [kp~pk] – Toshkent shevasida *qaqpag'*, qadimgi yozma yodgorlikda *qapqag'* (ДЛТ) [1: 127].

Bundan tashqari, o'zbek shevalari lug'atidan olingan quyidagi misollarni keltirish o'rinli: *tuproq ~ turpoq, supra ~ surpa, sharpa ~ shapra hamda yoproq ~ yo'rpoq* (Urganch, Xiva, Yangiariq shevalari) [7]. Bu misollar pr~rp juftligining bir necha mustaqil so'zda takrorlanuvchi, tizimli xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi (bu masala 4-bandda batafsil ko'rib chiqiladi).

Undosh-unli (CV~VC) tipidagi almashinuvga oid misollar ham shevalarda uchraydi: Toshkent shevasida *zovur* || Farg'ona shevasida *zevir* || ***zi**vir ~ **iz**bir* (adabiy orfografiyada *zovur*; Toshkent shevasida ***ish**sha* (adabiy orfografiyada ***shi**sha*) [1: 128].

Uzoq (nolokal) metateza – bu ikki tovush orasida boshqa tovush (ko'pincha unli yoki undosh) mavjud bo'lgan holdagi o'rin almashinuv. Bu tur ham o'zbek shevalarida yetarlicha uchraydi: [n-l~l-n] – Toshkent va Farg'ona shevalarida ***na'lat***, Xorazm shevasida ***nalat*** (adabiy orfografiyada ***la'nat***) [1: 128]; Farg'ona shevasida *aynalay*, jonli so'zlashuv nutqida *aynalay* (adabiy orfografiyada *aylanay*) [1: 128] – bu shakl haqida quyida 4-bandda batafsil to'xtalamiz; [v-r~r-v] – Andijon shevasida *avara*, Toshkent shevasida *arava* (adabiy orfografiyada *arava*) [1: 128]; [j-z~z-j] – Toshkent shevasida mi**jo**z (adabiy orfografiyada mi**zo**j, arabcha مزاج dan) [1: 128].

Shunday qilib, o'zbek tili va uning shevalarida ham qo'shni, ham uzoq metateza turlari mavjud bo'lib, ular asosan sonor tovushlar (r, l, n, y) ishtirokida yuzaga keladi [1: 128].

2. O'zbek tilida sinxron va diaxron metateza. Sinxron metateza hozirgi tilda, muayyan bir davr doirasida kuzatiladigan almashinuvlarni bildiradi. Bu turdagi metateza o'zbek shevalararo farqlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Yuqorida keltirilgan barcha sheva misollari – *ahvol~avhol*, *daryo~dayro*, *kiprik~kirpik* kabilar aynan sinxron metatezaning namunalaridir, chunki ular hozirgi til holatida, turli sheva vakillari nutqida parallel ravishda mavjud [1: 126–128].

Alohida e'tiborga molik holat – o'zlashma so'zlardagi metatezadir. Tojik tilidan o'zlashgan so'zlarda: *daryo ~ dayro, gunnara ~ gulra'no, savri ~ sarvi* [1: 128]. Arab tilidan o'zlashgan so'zlarda: *ahvol ~ avhol, la'nat ~ na'lat, mulzam ~ muzlam* [1: 128]. Bundan tashqari, arabcha كتف (kitf) so'zi Toshkent shevasida *kipt* tarzida (adabiy orfografiyada *kift*), قفل (qufl) esa *qulp* tarzida (adabiy orfografiyada *qulf*) talaffuz qilinadi [1: 127]. Bu holatlar shuni ko'rsatadiki, o'zlashma so'zlarning fonologik moslashuvi jarayonida metateza muhim vosita sifatida ishtirok etadi.

Diaxron metateza esa tarixiy taraqqiyot davomida, bir necha asr oralig'ida yuzaga kelgan tovush almashinuvlarini bildiradi. Bu tur, xususan, qadimgi turkiy til yodgorliklari – Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari – bilan hozirgi o'zbek tili shakllarini qiyoslash orqali yaqqol ko'rinadi. Quyidagi jadvalda keltirilgan misollar buni tasdiqlaydi [2; 4; 5; 6]:

№	Qadimgi (DLT/DS) shakl	Manba	Hozirgi o'zbek shakli
1	arva	DLT, I, 280	avra (Toshk.)
2	qarqag'	DLT	qaqra(g') (Toshk.)
3	o'grat	DLT, I, 260	o'rgat
4	tuvak	DLT, I, 369	puttak (Toshk.) / tuppak
5	tubraq	DLT, I, 434	turpog' / tuproq
6	qonshu	DLT	qo'shni
7	kirpi (+ -k)	DLT, I, 393; DS, 309	kiprik
8	ö- → ögürän	PDP, 405-406; DLT, I, 253; DS, 380, 388	ögrän > o'rgan

Bu misollar orasida ayniqsa *kirpi → kirpik → kiprik* hamda *ö- (bil-) → ög → ögür → ögürän → ögrän → örgän → organ (o'rgan)* kabi ko'p bosqichli o'zgarishlar alohida e'tiborga loyiq bo'lib, ular quyidagi 3-bandda bosqichma-bosqich metateza sifatida batafsil tahlil qilinadi.

Shunday qilib, o'zbek tilida ham sinxron, ham diaxron metateza keng tarqalgan bo'lib, sinxron tur asosan shevalararo va o'zlashma so'zlar doirasida, diaxron tur esa qadimgi turkiy davrdan hozirgi holatga o'tishda kuzatiladi.

3. O'zbek tilida keskin va bosqichma-bosqich metateza. Keskin metateza – tovushlarning bir zumda, bitta bosqichda o'rin almashinuvidir. Bu turga oid misollarni bolalar nutqi va so'zlashuv nutqidan keltirish mumkin. Masalan, bolalar nutqida *qirq* sonini ifodalovchi so'z *qriq* tarzida talaffuz qilinadi – bu yerda undosh-unli-undosh (CVC) tartibi unli-undosh-undosh (VCC) tartibiga o'zgargan, keskin va bir bosqichli jarayon kuzatiladi. Xuddi shunga o'xshash, keksalar nutqida *aylanay* so'zi *aynalay* tarzida talaffuz qilinadi – bu yerda l-n tovushlari bir zumda, bir nutq aktida o'rin almashadi [1: 128].

Bosqichma-bosqich metateza esa bir necha oraliq bosqich orqali sodir bo'ladigan, zanjirsimon tovush o'zgarishidir. Bu tur asosan diaxron metateza bilan bog'liq bo'lib, o'zbek tilida uning eng yorqin namunalarini etimologik lug'at materialidan topish mumkin.

Birinchi misol – *kiprik* so'zining tarixiy taraqqiyoti: qadimgi turkiy tilda "ko'p tikan" ma'nosini anglatgan *kirpi* otidan (DLT, I, 393; ДС, 309) **-к** kichraytirish qo'shimchasi bilan **kirpi + -k** = **kirpik** shakli hosil bo'lgan (DLT, I, 443; DS, 309), keyinchalik **rp** undoshlari o'rin almashtirilib (SSTTN, II, 121), **kiprik** shakliga o'tgan [2: 209-210]. Demak, bu yerda jarayon uch bosqichdan iborat: 1) so'z yasalishi (kirpi + -k); 2) shakl barqarorlashuvi (kirpik); 3) metateza (rp → pr, kiprik).

Ikkinchisi yanada murakkab misol – *o'rgan* fe'lining tarixiy taraqqiyoti: "bil-" ma'nosini anglatgan **ö-** fe'lidan **-g** qo'shimchasi bilan **ög** oti yasalgan ('fikr', PDP, 405); unga **-ür** qo'shimchasi qo'shilib **ögür** shakli hosil bo'lgan; so'ngra **-än** o'zlik qo'shimchasi bilan **ögürän** shakliga o'tgan; shu davrlardayoq ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'yib, **gr** undoshlari o'rin almashgan (ESTY, I, 498; PDP, 406; DLT, I, 253; DS, 380, 388), natijada quyidagi zanjir hosil bo'lgan: (ö- + g = ög + ür = ögür → + än = ögürän → ögrän → örgän → o'rgan) [2: 484–485].

Bu ikki misol ko'rsatadiki, o'zbek (turkiy) tilida bosqichma-bosqich metateza ko'p hollarda so'z yasalishi, qo'shimchalanish va fonetik reduksiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda kechadi va bu jarayonning har bir bosqichini qadimgi yozma yodgorliklar (DLT, DS, PDP) yordamida aniq kuzatish mumkin.

4. O'zbek tilida tasodifiy va qonuniyatli metateza. Ushbu parametr metatezaning eng bahsli tomonlarini yoritadi: jarayon tasodifiymi yoki muayyan qoidaga bo'ysunadimi?

Tasodifiy metateza – hech qanday umumiy qoidaga bog'liq bo'lmagan, faqat ayrim so'zlarda, ma'lum ijtimoiy yoki yosh guruhiga xos nutqda uchraydigan almashinuv turi. O'zbek tilida bunday hodisaning ikki aniq ko'rinishini keltirish mumkin. Birinchisi, yosh nutqiga xos: bolalar nutqida *qirq* soni *qriq* tarzida yoki *mikrafon* so'zi *mirkafon* tarzida talaffuz

qilinadi. Bu bolalarda artikulyatsion ko'nikmaning yetarlicha shakllanmaganligi bilan bog'liq, tasodifiy va tizimsiz hodisa bo'lib, u tilning umumiy fonotaktik qonuniyatiga aylanmagan. Ikkinchisi, keksalar nutqiga xos: *aylanay* so'zi *aynalay* tarzida talaffuz qilinishi asosan keksalar nutqida uchraydi. Bu ham yosh guruhiga bog'liq, individual va tasodifiy xarakterdagi metateza namunasidir. Ikkala holatda ham almashinuv barcha so'zlovchilarga yoki barcha so'z turkumlariga tatbiq etilmaydi, faqat aniq bir ijtimoiy-yosh guruhi nutqida uchraydi.

Qonuniyatli metateza esa muayyan fonologik qoidaga ko'ra, bir necha mustaqil so'zda bir xil tartibda takrorlanuvchi, tizimli metateza turidir. O'zbek shevalari materiali bu borada ishonchli dalillar beradi: pr~rp juftligi kamida beshta mustaqil so'zda bir xil tartibda almashinadi: *tuproq ~ turpoq, supra ~ surpa, sharpa ~ shapra, kiprik ~ kirpik, yoproq ~ yurpoq* (Urganch, Xiva, Yangiariq shevalari) [7]. Bu misollarning barchasida ***p*** tovushi ***r*** tovushi bilan doimiy ravishda o'rin almashadi, bu esa tasodifiy emas, balki tizimli fonotaktik qonuniyat mavjudligidan dalolat beradi va o'zbek tilida sonor tovush (r) ishtirok etgan undosh birikmalarining o'rin almashinuvi muayyan darajada qonuniyatli xarakterga ega ekanini ko'rsatadi.

Shunday qilib, o'zbek tilida metateza bir vaqtning o'zida ham tasodifiy, ham qonuniyatli xususiyatlarga ega bo'lib, bu ikki qutb orasidagi munosabat, xuddi boshqa tillardagi kabi hodisaning murakkab va ko'p qirrali tabiatidan dalolat beradi.

O'zbek tilida metatezaning yuzaga kelishiga bir qancha omillar sabab bo'ladi. Birinchi sabab – til o'zlashtirish jarayoni bilan bog'liq. Arab, fors-tojik va rus tillaridan o'zlashgan so'zlar o'zbek tili fonetik tizimiga moslashish jarayonida ko'pincha metatezaga uchraydi: masalan, arabcha كتف (kift), قفل (qufl) so'zlari, rus tilidan yoki rus tili orqali o'zlashgan *gurgut, mirkafon* so'zlari yuqorida ko'rsatilganidek fonetik o'zgarishlarga uchraydi [1: 128].

Ikkinchi sabab – artikulyatsiya qulayligi. Talaffuz jarayonida qiyin tovush birikmalarini yengillashtirish maqsadida so'zlovchi tovushlarni o'rin almashtiradi. Bu, ayniqsa, bolalar nutqida (mikrafon-mirkafon) va tez, beparvo nutqda yorqin namoyon bo'ladi.

Uchinchi sabab – ijtimoiy va yosh omili. Keksalar nutqidagi *aylanay~aynalay* kabi holatlar shuni ko'rsatadiki, muayyan avlod yoki ijtimoiy guruhga xos talaffuz odatlari metatezalashgan shakllarning saqlanib qolishiga sabab bo'ladi.

To'rtinchi sabab – tarixiy-fonetik omillar. Qadimgi turkiy davrdan hozirgi o'zbek tiliga o'tish jarayonida yuz bergan bosqichma-bosqich tovush o'zgarishlari (*kirpik, o'granmoq* kabi) ko'p hollarda so'z yasalishi va fonetik reduksiya bilan uzviy bog'liq holda yuzaga kelgan.

O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, metateza o'zbek tili va uning shevalarida keng tarqalgan, ko'p qirrali fonologik hodisa bo'lib, u Straznyning (2005) to'rt parametrli tipologiyasi doirasida to'liq tavsiflanishi mumkin [12]. O'zbek tilida qo'shni va uzoq metateza, sinxron va diaxron metateza, keskin va bosqichma-bosqich metateza hamda tasodifiy va qonuniyatli metateza turlarining barchasi mavjud bo'lib, ular o'zaro bog'liq holda til tizimida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida aniqlandiki, o'zbek tilida metateza asosan sonor tovushlar (r, l, n, y) ishtirokida yuzaga keladi. Diaxron va bosqichma-bosqich metateza – *kiprik* va *o'rgan* kabi so'zlarning tarixiy taraqqiyotida – qadimgi yozma yodgorliklar ("Devonu lug'otit turk", qadimgi turkiy bitiklar) yordamida ishonchli tasdiqlanadi, bu esa o'zbek (turkiy) tilida metatezaning uzoq tarixiy ildizlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, pr~rp juftligining bir necha mustaqil shevaviy so'zda takrorlanishi *(tuproq~turpoq, supra~surpa, sharpa~shapra, yoproq~yo'rpoq)* metatezaning o'zbek tilida shunchaki tasodifiy emas, balki muayyan darajada qonuniyatli, tizimli fonotaktik hodisa ekanligini tasdiqlaydi.

Metatezaning asosiy sabablari sifatida til o'zlashtirish, artikulyatsiya qulayligi, ijtimoiy-yosh omili hamda tarixiy-fonetik omillar aniqlandi. Kelgusi tadqiqotlar uchun o'zbek tilidagi spunerizm turidagi metateza hamda bolalar nutqidagi bu hodisaning kengroq korpus asosida o'rganilishi dolzarb yo'nalish bo'lib qolmoqda, chunki hozirgi mavjud manbalar bu borada nisbatan cheklangan ma'lumot beradi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot o'zbek tilshunosligida metateza hodisasini alohida, tizimli tadqiqot obyekti sifatida o'rganishning dolzarbligini va istiqbolliligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari. – Toshkent: O'zFA, 1962.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar). – Toshkent: Universitet, 2000.
3. Решетов В. Узбекский язык. Т. I. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1959.
4. Древнетюркский словарь. Л.: Наука, 1969.
5. Малов С. Памятники древнетюркской письменности. М. Л.: Изд-во АН СССР, 1951.
6. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Т. I–IV. – М.: Наука, 1974–1989.
7. O'zbek xalq shevalari lug'ati. – Toshkent: Fan, 1971.
8. Кононов А. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.–Л.: Изд-во АН СССР, 1960.
9. Radloff W. Phonetik der nördlichen Türksprachen. – Leipzig: T.O. Weigel, 1882.
10. Пальмбах А.А., Исхаков Ф.Г. Явления метатезы в тувинском и в некоторых других тюркских языках // Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Т. I. Фонетика. М.: Изд-во АН СССР, 1955.
11. Hume E. Metathesis: Formal and Functional Considerations // Surface Syllable Structure and Segment Sequencing / ed. by E. Hume, N. Smith, J. van de Weijer. – Leiden: HIL, 2001.
12. Strazny P. Encyclopedia of Linguistics. – New York: Taylor & Francis Books, 2005.

Nursulton ESHMONOV,
Guliston davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi doktoranti

QARINDOSHLIK ATAMALARI TIZIMIDA ETNOLINGVISTIK OMILLAR

Annotatsiya. Mazkur maqola o'zbek tilshunosligi muammolariga, xususan, o'zbek tilida qarindoshlik atamalari tizimida etnolingvistik xususiyatlarning aks etishi masalalariga bag'ishlangan. Qon-qarindosklik leksemalari bilan etnik xususiyatlarning o'zaro munosabati, bir-biriga ta'siri Abdulla Qodiriy asarlari misolida tadqiq etilgan.
Kalit so'zlar: til, etnos, leksema, atama, etnolingvistika, antropolingvistika, kod, madaniy kod, lingvomadaniy kod, etnosemantika va b.
Annotation. This article is devoted to the problems of Uzbek linguistics, in particular, the reflection of ethnolinguistic features in the system of kinship terms in the Uzbek language. The relationship between kinship lexemes and ethnic features, their influence on each other, is studied using the example of the works of Abdulla Qodiriy.
Keywords: language, ethnos, lexeme, term, ethnolinguistics, anthropolinguistics, code, cultural code, linguocultural code, ethnosemantics, etc.
Аннотация. Данная статья посвящена проблемам узбекской лингвистики, в частности, отражению этнолингвистических особенностей в системе родственных терминов в узбекском языке. Взаимосвязь между родственными лексемами и этническими особенностями, их взаимное влияние, изучается на примере произведений Абдуллы Кодирия.
Ключевые слова: язык, этнос, лексема, термин, этнолингвистика, антрополингвистика, код, культурный код, лингвокультурный код, этносемантика и т. д.

Qodiriy asarlarida qarindoshlikni ifodalovchi *ota, ona, aka, uka, opa, singil, qaynota, qayinona, kelin, kuyov* kabi so'zlar juda faol qo'llangan. Bu leksemalar o'zbek oilasidagi ijtimoiy munosabatlar va hurmat tizimini aks ettiradi. Masalan, Kumushning qaynota va qaynonasiga murojaatidagi odob-axloq me'yorlari milliy qadriyatlarni ifodalaydi.

Turkiy tillar, shu jumladan, o'zbek tilida qarindosh-urug'likni ifodalovchi leksemalarning genderalogik tahlili qavm-qarindoshlik leksemalari tilshunoslik nuqtayi nazaridan shu kungacha maxsus tekshirilgan bo'lsada, Abdulla Qodiriy asarlari aososida zamonaviy yondashuv asosida atroflicha o'rganilgan deb bo'lmaydi. Bu masala tarixchi, etnograf, tilshunos olimlarni qiziqtirayotgan muammolardan biridir.

I.Ismoilovning "O'zbek tilida qavm-qarindoshlik terminlariga doir ba'zi mulohazalar" maqolasida o'zbek tilidagi qavm-qarindoshlik terminlarining klassifikatsion ro'yxati, uning sinonimlari va qisman ma'nolari ustida mulohaza yuritish bilan chegaralanadi [1]. Biz bu ishimizda asosan Abdulla Qodiriy asarlaridagi materiallar asosida, ularning mahalliy xalq tili shyevalaridagi ba'zi bir ko'rinishlari bilan hozirgi zamon tilidagi ko'rinishlarini asos qilib, milliy madaniyatga qiyos qilgan holda, ularning leksik, grammatik ma'nolarini ko'rib chiqishga harakat qildik.

O'zbek tilshunosligida qavm-qarindoshlikni, qarindosh urug'likni ifodalovchi leksemalar Sh.Shoabdurahmonov, [9] S.Mutallibov,[4] B.O'rinboyev, [8] I.Ismoilov, [2], B.To'ychiboyev, [5]. F.Musayeva [3] ishlarida o'rganilgan.

O'zbek tilshunosligida bu masala to'g'risida ko'plab ma'lumotlar beriladi. Lekin qavm-qarindoshlikni anglatuvchi *ota, ona, bola, o'g'il, qiz, nabira* kabi qon-qarindoshlik atamalarigina leksikologiya tarixi bilan bog'lab tekshiriladi va misol tariqasida ko'rsatib o'tiladi [9] yoki o'zbek tili va uning shevalaridagi qavm-qarindoshlik atamalarini tekshirish, jiddiy ilmiy ish olib borish kerakligi, uning tilshunoslikdagi ahamiyati to'g'risida to'xtab o'tiladi [8]

O'zbek tilshunosligida keyingi vaqtlarda yaratilgan ilmiy ishlardan biri B.O'rinboyevning qavm-qarindoshlik atamalarining bir tomonlama xususiyatini, ya'ni undov, murojaat anglatuvchi so'zlar qatoridagi formasinigina tekshirishga bag'ishlangan asaridir [17] Albatta, bu ham o'zbek tilidagi qarindoshlik leksemalari uchun material beradi.

O'zbek tili tarixiga oid 1913-yilda chiqqan "Birinchi muallim" kitobining 23-24-betlarida esa qarindoshlarning umumiy ro'yxati berilgan. Bir avlod-ajdodga mansub bo'lgan kishilarning biri boshqasiga nisbatan *qarindosh* bo'ladi. Masalan, *ota tomondan qarindosh, ona tomondan qarindosh, yaqin qarindosh, uzoq qarindosh, chatishgan qarindosh*. Bir ota-ona farzandlari, aka-uka, opa-singillar. Qarindoshlarning o'zaro munosabatlari, bordi-keldi aloqalari *qarindoshchilik* bo'ladi. *Qarindosh-urug'* esa uzoq-yaqin qarindoshlar, xesh-aqrabolar, urug'larga nisbatan qo'llanadi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'lmoqdaki, bir ota-onadan tarqagan avlodga nisbatan *qarindosh* so'zi qo'llanmoqda. Qarindosh so'zi yasama so'z bo'lib, *qarin* (qorin) – asos, *-dosh* yasovchi affiks munosabatidan yasalganligi aniq.

Qarindoshchilikning dastlabki bosqichi oiladagi munosabatlardan boshlanadi. Ya'ni *ota* va *ona* bu munosabatlarning yuzaga keltiradi. Dastlab, *ota* va *ona* o'rtasida qarindoshlik rishtalarining o'zi yo'q. Bo'lishi ham maqsadga muvofiq emas. Ana shu ikki bir-biriga zid hamda begona jins o'rtasida farzandlar dunyoga keladi. Shundan qarindoshlik boshlanadi.

Ona – farzandi yoki farzandlari bo'lgan xotin (o'z tug'gan farzandlariga nisbatan); bolali xotin. *Ko'p bolali ona. Bola yig'lamasa, ona emchak bermas.* Maqol. *Erka tutsa onasi, taltayadi bolasi.* Maqol. – *Qiz ertalab turib, darrov onasiga razm soldi.* Oybek, Tanlangan asarlar [12].

Qutidor *oila*sida boshqa er zoti bo'lmag'anliqdan Oftob oyim qarindoshlaridan "jonkuyar" deb tanilg'an kishi Kumushning *tog'a*si Ahmadbek bo'lib, ul ham umrining ko'pini Qo'qondami, Xo'janddami o'tkarar, shuning uchun undan ham yori kutish uzoq gap edi. Mana bu jihatdan ham Kumush va *ona*sining birdan-bir ishong'anlari yana Hasanalining o'zi edi [7]. Bu parchada *oila, ona, tog'a* – qarindoshlik leksemalari qo'llangan.

Qarindoshlikning ilk bosqichi oiladan boshlanadi. Oilada *qarindoshlik* aka-uka, opa-singil o'rtasida boshlanadi va bu paradigmani boshlab beradi. Ota-onaga nisbatan *aka-uka, opa-singillar* farzand maqomida, ularning farzandlari esa *nabira* maqomida, nabiralarning farzandlari *evara* maqomida va hakoza davom etib ketaveradi. Mana shu munosabatdoshlikdan *bobo, buvi, ota, ona, amma, xola, amaki, tog'a* va boshqalar davom etib ketaveradi. *Oila* qarindoshlikning yadrosi hisoblanadi. O'zbek tilida barcha qarindoshlikni ifodalovchi leksemalar ushbu *oila* tushunchasiga nisbatan olinadi.

Oila leksemasiga izohli lug'atlarda shunday ta'rif berilgan. Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui;

xonadon. *Ahil oila. San'atkorlar oilasi. Oila boshlig'i* [16]. Oiladagi qarindoshlar ijtimoiyligidan kelib chiqib, *ayol* va *erkak* qarindoshlarga ajratiladi. O'zbek tilida bu bo'linish *jins* leksemasi bilan nomlanadi.

Ma'lumki, har qanday terminlar, shu jumladan, qavm-qarindoshlik leksemalari ham qanchalik turg'un bo'lmasin, zamon o'tishi, jamiyatning o'zgarishi, oila, nikohning yangi shakllari va ular o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishi bilan ishlatilib kelinayotgan qavm-qarindoshlik atamalarining ma'no doirasi ham kengayadi, yangi turlari paydo bo'ladi.

I. Qon-qarindoshlik atamalariga o'zbek tilida *ona, ota, aka, tog'a, xola, buva (bobo), buvi, amma, nabira* kabi ma'nolarni ifodalovchi leksemalar kiradi.

Qon-qarindoshlik munosabatlarining yadrosini *oila* leksemasi tashkil etadi. Oila ijtimoiy masala bo'lib, jamiyatda er va xotinning bir oila bo'lib yashashi tushuniladi. *Oila* leksemasi asosida *ota-ona, aka-uka, opa-singil, bobo-buvi* va hakoza qarindoshlik tushunchalarini aks ettiruvchi so'zlar paydo bo'ladi. Abdulla Qodiriy asarlaridan keltirilgan iqtiboslarga murojaat qilamiz:

Zarari yo'q, toza ivibsiz, Safar *aka*. Asli bu kun ham chakki ovora bo'lgansiz.

Mirzoning uyiga bir kishi yuborsaq-da, uning xotini eriga taom keltirgan bo'lib zindong'a borsa... Shu qanday bo'lar ekan, Safar *aka*?

– Ma'qul, *uka*, ma'qul.

– Siz kimdan eshitdingiz, *aka*?

Yaqindag'i bir boladan suv olg'uchining kim ekanini so'rag'an edim:

– Lola *opam*, – dedi.

Aka va *uka, opa va singil* bir ota-onaning farzandlari, tug'ishganlarga nisbatan olinadi.

Yaxshi, yaxshi, – dedi Anvar va o'n qadam chamasi indamay bordi. – Sen uy egasidan qochib o'lturma, o'zi menim *og'am*... Tuzukmi, Ra'no? [7] Keltirilgan matnda *og'a* so'zini A.Qodiriy aynan *aka* birligi o'rnida qo'llagan. *Og'a* 1 *aynan* aka. *Matnazar o'z og'asiga mo'ltirab tikilgancha, betoqat ho'kizning bo'ynidagi arqonni tortib turardi*. S.Siyoyev, Yorug'lik. *Shirin ukang keldi og'asin izlab, ko'rar ko'zim, jonim akam, bormisan?* "Shirin bilan Shakar". 2 Tug'ishgan akaday yaqin, qadrdon kishi. *Qo'ni-qo'shni, kichik-katta Og'amlarga salom ayting!* Hamza.[16].

Sizga ko'rpacha olib keldim, – dedi shivirlab, – uyga *ammam* va *xolam*lar kelishkan, men ularni uxlatib chiqaman... Amma ota tomonidan, xola ona tomonidan qarindosh, Qodiriy asrlarida shu mazmunda qo'llangan.

Ko'z yoshini duv-duv to'kib, xatni o'z tahig'a soldi va o'zidan javob kutib turg'an *achasi* bilan *ona*sig'a dedi... [7] *Acha* sheva so'zi. 1 Buvi. *Oxiri ona qiziga nasihat etdi: - Isfaraga borib, achamni ko'rib kelaman, deb otangdan ruxsat ol.*"Yoshlik". 2 Katta buvi (buvining onasi). 3 Ona, oyi. *Otam olgan yo'q, Ko'mirga ko'mgan yo'q, Menga meros qoldi O'lgan achamdan qizil qayroq*. Maqol. – *Oq sut bergan acham qoldi*. "To'lan botir". [10].

Acha – sheva so'zi bo'lib, buvisi nazarda tutilgan. Qodiriy asrlarida sheva so'zlaridan ham o'rni bilan foydalangan.

Ra'no *dada*sini *uzog'latib*, boshini ko'tardi, *ona*siga o'pka aralash kulib qaradi.

Solih maxdum *ona*si va o'n olti yoshliq Na'ima ismlik *singli*si bilan Qo'qonda qoldi. Birar joydan *kelim* bo'lmag'anliqdan bu oila ko'b tanglikka tushib oxirda Solih maxdum tahsilni tark etishka, qorin to'ydirarliq bir kasb izlashka majbur bo'ldi.

Nigorxonim ersa tishni-tishka qo'ydi, *erimdan yayrab-yashnamag'an bo'lsam qizimdan va oldimg'a qo'yg'an o'g'ullarimdan yolchirman*, deb umidlandi [6].

Sultonali rohat nafas olg'andek ko'rinib, ko'zini eshik ostonasig'a tikdi:

– Sizdan so'rab ketsam ham bo'lar, *singlim*... Shu yerga bir xotin keldimi?

...*ona*lar ta'biricha, *"ilon chiqg'an"* bu ko'chaga birinchi kirishi....

O'g'lim bechora oy o'tmasdan bo'zchining mokkisidek qatnab tursa...

*Og'a*si Azimbekning Xushro'y ustiga ko'targan mushti ham "nega meni urasiz, men falonlik qildimmi?" degan haqlik so'z bilan darmonsizlandilar [7].

Ona, dada, singil, o'g'il, qiz, og'a qon-qarindoshlik atamalaridan adib matnga muvofiq foydalangan.

II. Nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik leksemalarini *er, xotin, kuyov, kelin, pochcha, boja, ovsin, qayin ona, qayin ota, quda, quda xola, quda buva, o'gay ota, o'gay ona, o'gay bola* singari leksemalar tashkil etadi.

Ojizalari ham yetib qolg'an bo'lsa kerak? Ushbu mulohazamiz ham yo'q emas, – dedi maxdum. – Modomiki bolani yoshlig'idan o'z farzandimizdek parvarish qildiq, endilikda o'zimizga *domod* ham bo'lsin, deb *ojizamizmi* so'ratg'uchi ko'b oliy nasab xonadorlardan qat'iy nazar qilib kelamiz? [6].

Ushbu parcha Ra'no haqida gap ketmoqda, ojiza bu – Ra'no-izoh bizniki. *Domod* – sheva so'zi bo'lib, hozirgi adabiy tilimizda kuyov nazarda tutilgan.

Otabek *qayin ona*sining fikriga qisman qo'shilib "Nima bo'lsa ham besh-o'n kun og'irliqni manim uchun o'z ustingizga olasiz. Agar men sizning talabingizni ma'qul qiladirg'an bo'lsam, ayniqsa *qizingiz*ning ko'ngliga shubha keladir... [7].

Quda – kuyov va kelinning ota-onalari (bir-birlariga nisbatan). *Xotin quda. Erkak quda. – Qudalar o'rtasida ro'y beradigan anglashilmovchiliklar, janjallar aksar vaqt muzokara va murosa yo'li bilan hal qilinadi*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Qudalaringni nima bilan kutishni bo'lsa o'zing bilasan: tuya so'yib chorlaganingda ham kelmaydirgan kishilar*. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. *Quda bo'lmoq* – o'g'il uylantirib yoki qiz chiqarib, o'zaro qudalik munosabatlarini o'rnatmoq. ...*vazir boshqa bir vazir bilan quda bo'lajagini bilgan ustoz Qavom... biz ham Najmiddin Buxoriyga quda bo'lamiz, dedi*. Mirmuhsin, Me'mor.

Quda-anda atamasi esa qudalardan birining barcha uzoq-yaqin qarindoshlari (ikkinchi qudalarga nisbatan). *Quda-andalar bilan bordi-keldi qilmoq. – Quda-andani o'ylagan oyim, senga butungina mahsi ham kiygizib yubormabdi. Mahsingni qara, oyoqqa ilib bo'lmaydi*. Oybek, Tanlangan asarlar [13].

Quda nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik leksemasi bo'lib, u bir qancha qarindoshlik atamalari hosil qiladi. Masalan, *qarshi yoki qaychi quada*, *quda buva* – erkak quda yoki qudaning otasi, *quda buvi* yoki *quda xola* kabi.

– Ha, aylanay *quda*, qars ikki qo'ldn chiqadir, deganlar... Buzoq yaxshi bo'lsa, ikki onani emar ekan...

– Oling *quda,* siz yoshlarni qo'yabering, bularni yigit asrasa, siz bilan meni tomoq asraydir [7].

Ushbu dialogda xalqona maqol va matallar orqali oila, qudalik munosabatlari hamda yoshlarning oilaviy hayotiga oid milliy qarashlar ifodalangan.

Parchada o'zbek xalqining oilaviy qadriyatlari, qarindoshlik munosabatlari va milliy tafakkuri maqol hamda matallar vositasida ifodalangan. "Ha, aylanay quda, qars ikki qo'ldan chiqadir" – bu maqol nizolar yoki kelishmovchiliklarda har ikki tomonning mas'uliyati borligini anglatadi. Etnolingvistik jihatdan, o'zbek xalqida oilaviy munosabatlarda aybni bir tomonga yuklamaslik, adolat va murosaga intilish qadriyati aks

etadi. *Quda* murojaat shakli qarindoshlik munosabatlarining hurmat asosida qurilganini ko'rsatadi.

"Buzoq yaxshi bo'lsa, ikki onani emar ekan" ushbu maqolda yaxshi farzand yoki yaxshi kelin-kuyov ikki tomonni ham rozi qiladi, degan ma'no mujassam. *Buzoq* obrazi chorvachilik madaniyatiga xos obraz bo'lib, xalqning qadimiy turmush tarzi va xo'jalik faoliyatini aks ettiradi. Ikki ona timsoli esa kelin yoki kuyovning ikkala oilaga ham birdek mehr va e'tibor ko'rsatishi kerakligi haqidagi xalqona qarashni ifodalab kelgan. "Oling *quda,* siz yoshlarni qo'yabering, bularni yigit asrasa, siz bilan meni tomoq asraydir" jumlasida oilaning iqtisodiy va ma'naviy mustaqilligi haqidagi xalqona tasavvur ifodalangan. *Yigit asrasa* birikmasi erkakning oila boshlig'i sifatidagi mas'uliyatini anglatadi. *Tamoq asraydir* iborasi esa ota-onalarning moddiy ta'minoti va farzandlarning ularga g'amxo'rlik qilish burchini bildiradi. O'zbek etnomadaniyatida farzand nafaqat o'z oilasi, balki ota-onasi va qaynota-qaynonasining ham tayanchi hisoblanadi.

Quda, yigit, tomoq asramoq kabi birliklar o'zbek xalqining qarindoshlik tizimi va milliy turmush tarziga xos etnomadaniy leksikani tashkil etadi. Maqollar dialogni ta'sirchan qilib, xalq donishmandligini namoyon etgan. Nutqdagi murojaat shakllari bo'lgan *aylanay quda, oling quda* birliklari hurmat, samimiyat va qudalar o'rtasidagi iliq munosabatni ifodalashga xizmat qilgan.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida o'zbek xalqining oilaparvarlik, qarindoshlik rishtalarini mustahkamlash, murosaga intilish, farzandning ikki oilaga birdek xizmat qilishi va ota-onani e'zozlash kabi milliy-etnik qadriyatlari maqol va iboralar orqali ifodalangan. Chorvachilikka oid obrazlar *buzoq,* qarindoshlik atamalari *quda* hamda xalqona frazeologizmlar o'zbek etnosining tarixiy turmush tarzi, dunyoqarashi va madaniy tafakkurini aks ettiruvchi muhim etnolingvistik birliklar hisoblanadi.

III. Yaqinlik nomlari deb atalgan bu guruh asosan o'zbek tiliga xos bo'lib, bu leksemalarga yuqoridagi ikki guruh atamalaridan butunlay farq qiladi, ya'ni bu tutingan so'zi bilan – *tutingan ota; tutingan ona; tutingan o'g'li* singari ifodalangan atamalar kiradi.

Leksemalarning birinchi guruhi o'z navbatida o'z guruhidagi atamalar bilan birga – *ota-ona, ota-bobo, tog'a-jiyan, opa-singil, aka-uka, amma-xola* kabi shakllarda juftlashib, ko'plik va jamlash ma'nolarini ifoda qiladi. Shuningdek, boshqa so'z turkumlari bilan – *katta buvi, o'gay ona, qayin ota* singari yangi qavm-qarindoshlik atamalari va har xil affikslar olib *otalik, enaga* kabi yangi ma'noli so'zlarning yasalishida asosiy manba bo'la oladi.

Hasanalining ko'zlari tag'in uyqug'a ketar, qarshisig'a Otabek bilan ko'hlik, ko'rkam bir qiz kelib chiqar va ikkisi unga qarab iljayishar edilar: "Bizning chin otamizsiz" degandek bo'lar edilar. Hasanalining yana uyqusi qochar edi. Yoshim oltmish to'rtka yetdi, o'g'ul-qizim bo'lmadi... Dunyodan charog'chisiz boraman... Darvoqe Otabek menga o'g'ulliq qilmasmi, xotini menga qiz bo'lmasmi, ularning bolalari meni "bobo" deb ketimdan yugurmasmikinlar? Tuproq ostlarida unutilib yotqan kezlarimda: "Bir vaqt Hasanali otamiz ham bor edi", deb yodlasalar, yaxshiliq bilan eslasalar yetar menga shu" [7].

Mazkur parchada Hasanali obrazi o'zbek xalqining *tutingan ota* (ma'naviy ota) haqidagi etnomadaniy tasavvurlarini ifodalagan. Etnolingvistik jihatdan matnda qon-qarindoshlikdan ko'ra mehr-oqibat, tarbiya va ma'naviy yaqinlik ustuvor qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Hasanali Otabekning qondosh otasi bo'lmasa-da, uni o'z farzandidek sevadi va uning baxtini o'z baxti deb biladi. Bu holat quyidagi jumlada yaqqol ifodalangan. "Dravoqe Otabek menga o'g'ulliq qilmasmi, xotini menga qiz bo'lmasmi..." bu yerda *o'g'ulluq qilmoq* iborasi etnolingvistik jihatdan muhim birlik hisoblanadi. U qon-qarindoshlikni emas, balki farzandning ota oldidagi burchi – hurmat, ehtirom, g'amxo'rlik va sadoqatni anglatadi. O'zbek xalqining an'anaviy qarashlarida insonni ota maqomiga ko'taradigan omil faqat nasl emas, balki tarbiya, mehr va fidoyilikdir.

"Xotini menga qiz bo'lmasmi" jumlasi esa o'zbek oilaviy madaniyatidagi kelinni qiz o'rnida ko'rish an'anasini aks ettiradi. O'zbek etnomadaniyatida kelin faqat o'g'ilning rafiqasi emas, balki oilaning qizi sifatida qabul qilinadi. Shu bois Hasanali kelajakdagi oilaviy rishtalarni qon-qarindoshlik emas, ma'naviy yaqinlik asosida tasavvur qiladi. Yana bir muhim etnolingvistik birlik sifatida *"..ularning bolalari meni "bobo" deb ketimdan yugurmasmikanlar?*" jumlasidir". Bu o'rinda *"bobo"* konsepti qon-qarindoshlik maqomidan kengroq ma'noga ega. O'zbek xalqida bobo – oilaning duogo'yi, tarbiyachisi, tajriba va donishmandlik timsolidir. Hasanali nabiralik mehrini his qilishni orzu qiladi. Bu esa tutingan otaning ham to'laqonli oila a'zosi sifatida qabul qilinishiga bo'lgan ehtiyojni ifodalaydi.

"Dunyodan charog'chisiz boraman" iborasi ham etnolingvistik jihatdan ahamiyatlidir. *"Charog'chi*" so'zi xalq tafakkurida nasl davomchisi, ota nomini yashatuvchi farzand ma'nosini bildiradi. Hasanali bu dunyoda farzand ko'rmagan bo'lsa-da, Otabek orqali o'z ma'naviy davomchisini topishga umid qiladi. Bu o'zbek xalqida "farzandlik faqat qon bilan emas, mehr bilan ham belgilanadi" degan qadriyatni aks ettiradi. Asarda *"Bir vaqt Hasanali otamiz ham bor edi", deb yodlasalar...* jumlasida *otamiz* leksemasi alohida etnolingvistik ahamiyatga ega. Bu murojaat qon-qarindosh otani emas, balki hurmat qozongan, tarbiya bergan, mehr ko'rsatgan insonni anglatadi. O'zbek tilida *ota* tushunchasi ko'pincha ijtimoiy va ma'naviy maqom sifatida ham qo'llanadi.

*Tutinm***o***q* **–** biror odam bilan ahdlashib, qalin do'st, o'rtoq bo'lmoq, qarindoshdek munosabat bog'lamoq. *Aka-uka tutinmoq. Do'st tutinmoq. – Eee, – dedi Qurbon ota, – O'rmonjon? O'rmonjon mening tutingan o'g'lim-ku!* A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari [14].

Hasanali obrazi orqali o'zbek xalqining *tutungan ota* haqidagi milliy qarashlari badiiy ifodasini topgan. Asarda ota maqomi qon-qarindoshlik bilan cheklanmaydi, mehr, tarbiya, fidoyilik va mas'uliyat asosiy mezon sifatida talqin etiladi. "O'g'ulluq qilmoq", "qiz bo'lmoq", "bobo", "charog'chi", "otamiz" kabi etnomadaniy birliklar o'zbek xalqining oilaviy munosabatlar tizimi, ma'naviy qarindoshlik konsepti va avlod davomiyligi haqidagi tasavvurlarini ifodalovchi muhim etnolingvistik vositalar hisoblanadi. Hasanali timsolida o'zbek mentalitetidagi "ota – tarbiyachi, suyanchiq va duogo'y" konsepti yorqin namoyon bo'ladi.

Turkiy tillardagi, shu jumladan, o'zbek va boshqa turkiy tillardagi qavm-qarindoshlik leksemalarini ifodalanishiga ko'ra ikkiga bo'lish mumkin:

I. Oddiy (tub) so'z bilan ifodalangan leksemalar – *ona, bola, qiz, aka, opa, jiyan, tog'a, nyevara, bobo, buvi* va b.

II. Qo'shma so'z bilan ifodalangan leksemalar – *ammavachcha, qayin ona, qayin egachi, katta buva, o'gay ona, o'gay o'g'il, quda xola* singari so'zlarni kiritish mumkin.

Ota-onaning *charog'ini yoqish* uchun avvalo o'ziga bir *sham'i hayot* topmoqchi va o'zi sham'siz turib ota-onag'a charog'

yoqishni aslo tasavvur qilolmas, ya'ni istiqbol Anvarning fardi (shaxsiy) hayotida yolg'iz muhabbat edi [6].

Bu yerda *charog'ini yoqish* – avlodlar davomiyligi, *sham'i hayot* – farzand nazarda tutilgan. Abdulla Qodiriy o'z asarlarida qarindosh-urug'chilik atamalarini ana shu kabi tasvirlarda ham ifodalab bergan. Bu asarning tasirchanligini oshirishga, o'zbek milliy madaniyatini lisonda aks etishiga yorqin misol bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismoilov I. O'zbek tilida qavm-qarindoshlik terminlariga doir ba'zi mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti, 1964, №4. – B. 40–43.
2. Ismoilov I. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari (o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman tillari materiallari asosida). – Toshkent: Fan, 1966.
3. Musayeva F. O'zbek tilida jins tushunchasining ifodalanishi: Filol. fan. bo'y. fal. dok. diss. avtoref… – Toshkent, 2019.
4. Mutallibov S. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. – Toshkent: Fan, 1959.
5. To'ychiboyev B. Xalq tilida jins tushunchasining ifodalanishi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2013, № 1. – B. 87–90.
6. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1994.
7. Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1994.
8. Уринбаев Б. Категория вокативности в современном узбекском языке: автореф. дис. … канд. филол. наук. – Самарканд, 1964.
9. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek shevalarining leksik tarkibini o'rganish masalalari haqida // O'zbek tili va adabiyoti masalalari, 1958, №2. – B. 29–30.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 2-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 3-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 4-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
14. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 5-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
15. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 6-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
16. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jildli. 1-jild. Москва: Русский язик, 1981.
17. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jildli. 2-jild. Москва: Русский язик, 1981.

Gulxayo OSOMIDDINOVA,
*Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchi**ыш***

MASHRAB OBRAZINING DINIY-TASAVUFIY TALQINI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Nasrullo Qobilning "Na malakman, na farishta" dramasida Boborahim Mashrab obrazining diniy-tasavvufiy talqini tahlil qilinadi. Asarda Mashrab siymosining tarixiy-biografik qiyofadan tashqari, insonning ma'naviy kamoloti, nafs bilan kurash, ilohiy ishq, haqiqatni izlash, riyozat, ma'rifat va komil inson g'oyalari bilan bog'liq holda badiiy talqin etilgani yoritiladi. Qahramon monologlari, ichki dialoglari va dramatik vaziyatlar orqali uning ruhiy olami ochib beriladi. Mashrabning "devona" sifatida baholanishi, zohir va botin ziddiyati, haqiqatparastligi hamda o'limni Haqqa qaytish yo'lining bir bosqichi sifatida qabul qilishi tasavvufiy qarashlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda badiiy vositalar orqali Mashrab obrazining murakkab, ziddiyatli va ma'naviy jihatdan yuksak shaxs sifatida shakllantirilgani asoslanadi.

Kalit so'zlar: Boborahim Mashrab, Nasrullo Qobil, "Na malakman, na farishta", drama, tasavvuf, riyozat, ilohiy ishq, ma'rifat, haqiqat, komil inson, qalandarlik, faqr.

Annotation. This article analyzes the religious and mystical interpretation of the character of Boborahim Mashrab in Nasrullo Qobil's drama "Neither an Angel nor a Cherub" (Na malakman, na farishta). The study highlights that, beyond his historical and biographical depiction, Mashrab's persona is artistically portrayed in connection with human spiritual perfection, the struggle against the carnal self (nafs), divine love, the quest for truth, asceticism, enlightenment, and the ideas of the perfect human being (insan al-kamil). The protagonist's inner spiritual world is revealed through his monologues, internal dialogues, and dramatic situations. Mashrab's perception as a "divine madman" (devona), the conflict between the external (zahir) and internal (batin) dimensions, his devotion to truth, and his acceptance of death as a stage on the path of returning to the Truth are analyzed on the basis of Sufi views. The research demonstrates that through artistic devices, Mashrab's image is formed as a complex, contradictory, and spiritually elevated personality.

Keywords: Boborahim Mashrab, Nasrullo Qobil, "Neither an Angel nor a Cherub", drama, Sufism, asceticism (riyazat), divine love, enlightenment (ma'rifat), truth, perfect human being, Qalandariyya, spiritual poverty (faqr).

Аннотация. В статье анализируется религиозно-суфийская трактовка образа Боборахима Машраба в драме Насрулло Кобила «Ни ангел я, ни фея» (Na malakman, na farishta). В работе освещается, что помимо историко-биографического облика, образ Машраба художественно интерпретируется в связи с идеями духовного совершенствования человека, борьбы с нафсом (эго), божественной любви, поиска истины, аскетизма, просвещения и концепцией совершенного человека. Внутренний мир героя раскрывается через его монологи, внутренние диалоги и драматические ситуации. Оценка Машраба как «девона» (юродивого), противоречие между внешним (захир) и внутренним (батин), его правдолюбие и восприятие смерти как этапа на пути возвращения к Истине (Богу) анализируются на основе суфийских воззрений. В исследовании обосновывается, что с помощью художественных средств образ Машраба формируется как сложная, противоречивая и духовно возвышенная личность.

Ключевые слова: Боборахима Машраб, Насрулло Кобил, «Ни ангел я, ни фея», драма, суфизм, аскетизм (риёзат), божественная любовь, просвещение (маърифат), истина, совершенный человек, каландария, духовная бедность (факр).

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng bir necha o'n yillikda butun bir tarixda o'tgan buyuk avdodlarimizning nomlari birma-bir tiklanib, ular qoldirgan meros va tarixiy xotira o'z o'rniga ega bo'la boshladi. Bu hodisa avvalo adabiyotda namoyon bo'ldi. Sovet davrida qoralangan yoki noto'g'ri talqin etilgan shoir-u allomalar, zakiy kishilarning asarlari, hayot yo'llari, targ'ib qilgan g'oyalari qayta jonlandi. Shu bilan birga, xalqimizga tushunarli va keng tarzda yoritish uchun ularning hayoti aks etgan turli dramalar va sahna asarlari yaratildi. Xususan, Rus-tuzem davrida diniy allomalardan biri bo'lgan Mashrab siymosi bir mayparast devona ko'rinishida talqin etilgan bo'lsa, endigi davrda uning asl maqsadlari, diniy ta'limoti, jafokash qalbi va yuksak ruhiyati haqida to'g'ri ma'lumot berish uchun u haqida qator asarlar paydo bo'ldi.

Mashrab obrazi bo'yicha Nasrullo Qobilovning "Na malakman, na Farishta" dramasi ushbu mavzuda yaratilgan dramalar ichida alohida ajralib turadi. Bu asar she'riy shaklda pyesa uchun maxsus yozilgan bo'lsa-da, adabiy asar sifatida ham anchayin mukammal tarzda bayon qilingan. Muallif Mashrab hayotini chuqur o'rganib uning diniy –ma'rifiy yo'lini tadqiq etgan holda ba'zi to'qima obrazlar bilan alloma hayotining so'nggi davrini ko'rsatishga harakat qilgan. So'z tanlash, she'riy uslub jihatidan hamda syujet tuzish borasida ham o'z mahoratini ko'rsata olgan. Asar dunyo dramaturgiyasida Otello, Hamlet kabi tragedik dramalardan qolishmaydi. Bunda nafaqat diniy mohiyat, Mashrabning o'ziga xos xarakteri va harakatlari insonni chuqur tahlilga chorlaydi. Qahramon ba'zan ota-onasiga va yaqinlariga mehrsiz bir shaxs sifatida ko'rinsa, ba'zida esa o'z hayotini xavf ostiga qo'yib singlisi Munisani jonini qutqarishga kelgan jonkuyar aka sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu asar o'zbek dramaturgiyasida mustaqillik davrida yaratilgan diniy-tasavvufiy mavzusidagi kam sonli asarlardan biri hisoblanadi. Bunda diniy mavzu bilan birga milliylik, badiiylik unsurlari ham yetakchilik qiladi. Asar ko'proq sahnalashtirishga moslangan va musiqa ustasi F.Alimov bilan birgalikda respublika teatrlarida musiqali drama sifatida namoyish etilgan.

Mashrab obrazi Ofoqoy tilidan insoniy hislatlardan holi mehrsiz inson sifatida ko'rsatilgan bo'lsa-da, aslida Mashrabning singlisi Munisani qutqarish uchun o'lim xavfini bo'yniga olgani, jallodning shogirdini jazolamoqchi bo'lganida unga yog' pulini berib yordam bergani, Mahmudxonning ulamolar fatvosini bajarmasa taxti tahlika ostida qolishini o'ylab o'zi o'limga tik borishi kabi holatlar buning aksini ko'rsatadi. Boborahim Mashrabda tasavvufning so'fizm unsurlari yetakchilik qiladi. Unda oh-vohlar, ichki kuyish va dard, Allohning o'z ichida, qalbini esa uning aksi deb bilishi kabi holatlari mutaassib ulamolar tomonidan shakkoklik deya baholanadi. Ammo Mahmudxon Mashrab holatini tushunib, uni qatl etishga farmon bersa la'natga qolishini biladi va drama so'nggiga qadar bunday qilmaslikka urinadi. Oxir-oqibat Mashrabning iltimosi va istagi bilan osishga farmon beradi. Mashrab dorga osilishni Yaratgan visoliga yetishish yo'li sifatida ko'radi va bu dunyoda ellik to'rt yillik umrini yolg'on dunyoda haqiqat va Haqni izlagan, sarson kezgan, riyozat yo'lini tutgan inson deya shu yakunni qayta-qayta qabul qiladi.

Ushbu asar dramaturg Fozil Nazarov tomonidan inson ruhiyati va ma'naviy kamolotini oshiruvchi asar sifatida baholangan. Nasrullo Qobulov pyesalarida sevgi, sadoqat, adolat va inson qadr-qimmatini himoya qilish g'oyalari chuqur falsafiy mazmun bilan uyg'unlashgan. San'atshunos

V.Rustamovning fikricha, bu pyesa san'atkorlarning obrazni ochib berish va aktyorlik mahoratini yuksaltiruvchi durdona asarlardan biri hisoblanadi.

Nasrullo Qobilning "Na malakman, na farishta" musiqali dramasida Boborahim Mashrab obrazi tarixiy-biografik shaxs qiyofasidan ko'ra kengroq ma'no kasb etadi. Dramaturg Mashrab siymosi orqali tasavvufiy dunyoqarashning inson ruhiyati, ma'naviy poklanish, nafs bilan kurash, ilohiy ishq va haqiqatni izlash kabi asosiy masalalarini badiiy talqin etadi. Asarda Mashrabning monologlari uning ichki dunyosini ochuvchi asosiy dramatik vosita vazifasini bajaradi. Asarning mavjud matn nusxasida Mashrab monologi "Yorug' kunni zimiston deyish mumkin..." misrasi bilan boshlanadi. Mazkur monologning o'ziyoq qahramonning dunyoni oddiy tashqi hodisalar yig'indisi sifatida emas, balki ma'naviy mezonlar asosida idrok etishini ko'rsatadi. Monologda yorug'lik va zimiston, bo'ston va xaroblik kabi qarama-qarshi obrazlar qo'llanib, tashqi dunyo bilan insonning ma'naviy holati o'rtasidagi munosabat ochiladi. Monologdagi eng muhim tasavvufiy tushunchalardan biri – riyozatdir. Mashrab:

"Riyozat yo'liga urdim o'zimni,
Olloh jamolini undan izladim"

deya o'zining ruhiy yo'lini bevosita izohlaydi. Tasavvufda riyozat insonning nafsini tarbiyalashi, jismoniy va ruhiy istaklarini nazorat qilishi, ma'naviy poklanishga intilishi bilan bog'liq. Demak, Mashrabning "riyozat yo'li"ga kirishi oddiy azob-uqubatni boshdan kechirish emas. Bu – nafsni yengish va Haqqa yaqinlashish yo'lidagi ruhiy tajribadir. Mazkur jihat qahramonning "Olloh jamolini undan izladim" degan fikri bilan yanada chuqurlashadi. Bu yerda riyozat maqsad emas, balki ilohiy haqiqatga yetishish vositasi sifatida talqin qilinmoqda. Bu jihatdan Mashrab obrazi tasavvufdagi "solik" tushunchasiga yaqinlashadi. Solik – ma'naviy kamolot yo'lidan boruvchi, o'zligini tarbiyalab, Haqiqat sari intiluvchi shaxs. Mashrabning monologida ana shu ruhiy safarning izlari mavjud. Mashrab monologida:

"Ellik to'rt yil yolg'on Dunyo bag'rida
Olloh akbar, deb yashadim qasddan"

degan fikr mavjud. Bu jumlada "yolg'on dunyo" tushunchasi tasavvufdagi dunyo foniyligi g'oyasi bilan bog'lanadi. Tasavvufiy tafakkurda dunyo insonning asosiy maqsadiga aylanmasligi kerak; insonning haqiqiy maqsadi ruhiy kamol va Haqni anglashdir. "Olloh akbar" iborasining takroriy ma'nosi esa Mashrabning butun hayotini ilohiy e'tiqod mezonida qurishga intilganini ko'rsatadi. Bunda diniy ibora tashqi marosim sifatida emas, balki qahramonning ichki dunyoqarashini belgilovchi ruhiy tayanch sifatida ishlatilgan. Shu sababli dramaturg Mashrabni faqat diniy shaxs sifatida emas, balki e'tiqodni insonning ichki ma'naviy hayoti bilan bog'laydigan qahramon sifatida tasvirlaydi. Mashrab monologidagi:

"Tangrimni qalbimga solgan so'zni,
Tilimga ko'chirdim, rostin so'zladim"

degan satrlar obrazning tasavvufiy mohiyatini anglash uchun nihoyatda muhim. Bu yerda qalb va til o'rtasidagi munosabatga e'tibor qaratilgan. Qalbda anglangan haqiqat til orqali ifodalanadi. Demak, Mashrab uchun so'z – oddiy kommunikativ vosita emas, balki ichki e'tiqodning tashqi ifodasidir. "Rost so'zlash" qahramon xarakterining asosiy tamoyiliga aylanadi. U jamiyatdagi hukmron qarashlarga moslashish yoki manfaat uchun sukut saqlashni emas, o'zi anglagan haqiqatni aytishni tanlaydi. Shu nuqtada Mashrabning haqqo'yligi uning isyonkorligi bilan bog'lanadi. U jamiyatga qarshi chiqish uchun emas, o'z e'tiqodida anglagan haqiqatni yashirmaslik uchun keskin gapiradi. Demak, Mashrabning isyoni tashqi siyosiy yoki ijtimoiy hodisadan ko'ra, avvalo ma'naviy-axloqiy isyon sifatida talqin qilinadi.

Mashrab monologining eng muhim dramatik nuqtalaridan biri "zohidlar" bilan bog'liq:

""Telba" deb, ortimdan ma'lomat qilgan
Zohidlar zulmiga ayladim toqat.„

Bu o'rinda dramaturg Mashrabning tasavvufiy dunyoqarashini boshqa diniy qarashlar bilan qarama-qarshi qo'yadi. "Zohid" obrazi bu yerda tashqi taqvo va rasmiy diniy qarashlarni ifodalovchi kuch sifatida ko'rinadi. Mashrab esa qalbdagi e'tiqod va ruhiy haqiqatni ustun qo'yadi. Shuning uchun bu ziddiyatni zohir va botin qarama-qarshiligi sifatida talqin qilish mumkin. Zohir – tashqi shakl, botin esa ichki mohiyatdir. Mashrabning fojeasi ham shundaki, uning ichki ruhiy holati tashqi muhit tomonidan "telbalik" sifatida qabul qilinadi.

Bu jihat Mashrabning qalandarlik ruhini ham kuchaytiradi. Qalandarona dunyoqarashda inson jamiyatning tashqi rasmiy me'yorlariga ko'r-ko'rona bo'ysunmaydi; u o'zining ichki haqiqatiga sodiq qoladi. Shuning uchun Mashrabning "telba" deb atalishi dramaturgik jihatdan uning ruhiy ozodligi bilan bog'liq paradoksni yuzaga chiqaradi: jamiyat nazarida telbalik – tasavvufiy qahramon nazarida haqiqatga sodiqlikdir. Mashrab o'zining hayotiy vazifasini:

"Zimmamga yuklangan muqaddas yumush –
Ko'ngillarda iymon chirog'in yoqish".

deya belgilaydi. Bu satrlar qahramonning shaxsiy hayotdan tashqaridagi ma'naviy missiyasini ifodalaydi. Mashrab o'zini faqat o'zining ruhiy kamoloti bilan cheklab qo'ymaydi. Uning maqsadi boshqa insonlarning ham qalbini uyg'otishdir. "Chiroq" obrazi bu yerda ramziy xarakterga ega. Qorong'ilik – jaholat va ma'naviy ko'rlikni, chiroq esa iymon va ma'rifatni anglatadi. Shunday qilib, Mashrab obrazi ma'rifat tarqatuvchi darvesh sifatida shakllanadi. Bu holat tasavvufdagi komil inson konsepsiyasi bilan bog'lanadi. Komillikka intilgan shaxs nafaqat o'zini, balki atrofidagi insonlarni ham ma'naviy uyg'otishga intiladi. Mashrabning "insonlar kamolini ko'rish" istagi ham ana shu g'oya bilan uyg'unlashadi. Monolog:

"Baski, to insonlar kamolin ko'rsam,
Menga o'zga ilinj zinhor kerakmas..."

degan fikr bilan davom etadi. Bu fikr Mashrabning dunyoviy manfaatlardan voz kechganini ko'rsatadi. Tasavvufdagi faqr tushunchasi ham aynan moddiy va dunyoviy manfaatlardan ichki jihatdan ozod bo'lishni anglatadi. Mashrabning maqsadi boylik, mansab yoki shuhrat emas. Uning "ilinj"i insonning kamolidir. Shu sababli uning faqirligi moddiy kambag'allikdan ko'ra ruhiy erkinlik ma'nosini anglatadi. Dramaturg shu orqali Mashrabni dunyo manfaatlari bilan o'lchanmaydigan qahramon sifatida ko'rsatadi. Uning qadr-qimmati tashqi mavqeида emas, balki ma'naviy e'tiqodining mustahkamligidadir. Monologning keyingi qismida Mashrab o'zining o'limga yaqinlashganini sezadi: "Nahot safarimning

so'nggi ko'rindi?" deya xavotirga tushadi. Bu yerda "safar" so'zi ikki qatlamli ma'noga ega. Birinchidan, u Mashrabning hayot yo'lini bildiradi. Ikkinchidan, tasavvufiy nuqtayi nazardan bu so'z ruhiy safar va nihoyat Haqqa qaytish g'oyasini eslatadi.

Qahramon qo'rquvni his qilishi uning insoniyligini namoyon etadi. U farishta emas, u o'limdan qo'rqmaydigan g'ayritabiiy mavjudot ham emas. Aksincha, u qo'rquvni boshdan kechirayotgan insondir. Shuning uchun drama nomidagi "Na malakman, na farishta" mazmuni ham shu nuqtada yanada teranlashadi. Mashrabning tasavvufiy buyukligi uning qo'rquvni umuman his qilmasligida emas, balki qo'rquvga qaramay o'z e'tiqodidan chekinmasligida namoyon bo'ladi. Asarning sahnaviy talqiniga oid manbada ushbu parcha Shoh Mashrab va Devona Mashrab nutqlariga ajratilgan. Bu usul oddiy monologdan farqli ravishda qahramonning ichki dunyosini ikki ovoz orqali ochishga imkon beradi. Masalan, Devona Mashrabning "Ellik to'rt yil yolg'on dunyo bag'rida..." degan nutqi Shoh Mashrabning "Tangrimni qalbimga solgan so'zini..." degan javobi bilan davom etadi. Bunday dramaturgik usulni ichki dialog sifatida talqin qilish mumkin. Bir tomonda insoniy qo'rquv, iztirob va shubha; ikkinchi tomonda esa e'tiqod, haqiqat va ruhiy qat'iyat turadi. Shu jihatdan Mashrab obrazi bir yoqlama "avliyo" sifatida emas, balki ichki kurashga ega murakkab shaxs sifatida yaratiladi. Uning "devona"ligi ham aynan shu ichki ziddiyat bilan bog'liq. Drama matnidagi asosiy belgilarni tasavvufiy kategoriyalar bilan quyida beilgan jadvaldagidek umumlashtirish mumkin.

Drama matnidagi belgi	Tasavvufiy tushuncha	Obrazdagi vazifasi
Riyozat yo'liga urdim o'zimni	Riyozat	Nafsni tarbiyalash
Olloh jamolini undan izladim	Ishq/ ma'rifat	Haqqa intilish
Olloh jamolini undan izladim	Haqiqat|	Haqgo'ylik
Zohidlar zulmi	Zohir-botin ziddiyati	Tashqi va ichki e'tiqod qarama-qarshiligi
Iymon chirog'in yoqish	Ma'rifat	Boshqalarni ruhiy uyg'otish
Insonlar kamoli	Komil inson	Ma'naviy kamolot maqsadi
Safarimning so'nggi...	Ruhiy safar/ foniylik	O'lim va Haqqa qaytish
Menga o'zga ilinj kerakmas	Faqr	Dunyoviy manfaatlardan voz kechish

Nasrullo Qobilning "Na malakman, na farishta" dramasida Mashrab obrazi tasavvufiy mazmunni o'zida mujassamlashtirgan murakkab dramatik timsoldir. Uning asosiy xarakter belgilarini riyozat, ilohiy ishq, haqiqatparastlik, faqr, ma'rifat va komillikka intilish tushunchalari orqali izohlash mumkin. Dramaturg Mashrabni tayyor va mukammal avliyo sifatida emas, balki ruhiy sinovlardan o'tayotgan inson sifatida ko'rsatadi. Uning qo'rquvi, iztirobi, zohidlar bilan ziddiyati, haqiqatni ochiq aytishi va o'lim oldidagi ruhiy holati obrazning insoniy va tasavvufiy qatlamlarini birlashtiradi. Ayniqsa, "Riyozat yo'liga urdim o'zimni. Olloh jamolini undan izladim" degan fikr Mashrabning butun ruhiy yo'lini ifodalovchi kalit vazifasini bajaradi. Uning maqsadi dunyoviy manfaat emas, balki Haqni anglash va inson qalbini uyg'otishdir. "Ko'ngillarda iymon chirog'in yoqish" g'oyasi esa Mashrabning shaxsiy ruhiy kamolotdan xalqning ma'naviy kamolotiga ko'tarilganini ko'rsatadi. Shunday qilib, dramadagi Mashrab obrazini "ishq – riyozat – ma'rifat – haqiqat – ruhiy ozodlik – komillik" zanjiri asosida talqin qilish mumkin. Uning "devona"ligi esa tasavvufiy ma'noda jaholatga qarshi, Haqiqatga sodiq ruhning ramziy ifodasiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Haqqulov I. Mashrab nafasi // Maqola, 2014.
2. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr – O'zbekiston, 2009.
3. Nazarov F. Nurli yo'l (Ustoz san'atkor Nasrullo Qobilovning yorqin xotirasiga bag'ishlanadi) // O'zDSMI xabarlari, 2025, №1.
4. Rustamov V.K. Ssenariynavislik mahorati. – Toshkent, 2025.
5. Qobilov N. Na falakman, na farishta: drama. – 2020.

Aziza NAVRO'ZOVA,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

REALIYALARNI TASNIFLASHNING LINGVOKULTUROLOGIK MUAMMOSI

Annotatsiya. Ushbu maqolada realiyalarni tasniflash masalalari tadqiq etiladi. Maqolaning maqsadi "realiya" tushunchasining mohiyatini yoritish, shuningdek, S.Vlaxov va S.Florinning predmet xarakteri, hududiy mansublik va zamon mezonlariga asoslangan tasnifi asosida realiyalarni tizimlashtirishdan iborat. Tadqiqotda realiyalarning lingvokulturema sifatidagi tabiati va aksiologik (qadriyatga oid) mazmuni tahlil qilinib, o'zbek maqollarida qo'llanuvchi etnografik realiyalarning milliy-madaniy ahamiyati alohida yoritiladi.

Kalit so'zlar: realiya, realiyalar tasnifi, lingvokulturologiya, til va madaniyat, milliy kolorit, til manzarasi, aksiologik mazmun, lingvokulturologik tahlil, milliy-madaniy komponent.

Annotation. This article examines the issues of the classification of realia. The aim of the article is to clarify the essence of the concept of "realia" and to systematize realia based on the classification proposed by S.Vlakhov and S.Florin according to the criteria of subject characteristics, territorial affiliation, and temporal reference. The study analyzes the nature of realia as linguocultural units and their axiological (value-related) content, with particular attention paid to the national and cultural significance of ethnographic realia used in Uzbek proverbs.

Keywords: realia, classification of realia, linguoculturology, language and culture, national colouring, linguistic worldview, axiological content, linguocultural analysis, national-cultural component.

Аннотация. В данной статье исследуются вопросы классификации реалий. Цель статьи заключается в раскрытии сущности понятия «реалия», а также в систематизации реалий на основе классификации С.Влахова и С.Флорина, разработанной по критериям предметной характеристики, территориальной принадлежности и временной соотнесённости. В исследовании анализируются природа реалий как лингвокультурем и их аксиологическое (ценностное) содержание, а также особо рассматривается национально-культурное значение этнографических реалий, употребляемых в узбекских пословицах.

Ключевые слова: реалия, классификация реалий, лингвокультурология, язык и культура, национальный колорит, языковая картина мира, аксиологическое содержание, лингвокультурологический анализ, национально-культурный компонент.

Til inson madaniyatining eng ko'zga ko'rinadigan qatlami bo'lgani uchun, XIX asrdan to hozirgi kungacha til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi tilshunoslikning markaziy muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Mazkur masalani ilk bor tizimli ravishda tadqiq etgan olim V.Gumboldt [1: 31] hisoblanadi. Uning konsepsiyasi quyidagi to'rtta asosiy g'oyaga asoslanadi:

– moddiy va ma'naviy madaniyat tilda mujassamlashadi;

– har bir madaniyat o'ziga xos milliy xarakterga ega bo'lib, bu xususiyat tilning ichki shaklida namoyon bo'ladi;

– tilning ichki shakl xalq ruhi va madaniyatining ifodasi hisoblanadi;

– til inson va uni o'rab turgan borliq o'rtasidagi vositachi bo'g'in vazifasini bajaradi.

Bu g'oyalar keyinchalik A.A.Potebnya [2: 42], Sh.Balli, J.Vandriyez, I.A.Boduen de Kurtene, R.Yakobson kabi olimlarning ishlarida davom ettirilgan. E.F.Tarasov esa tilning belgi shakli ham, uning ma'nosi ham madaniy hodisa ekanini, shuningdek, madaniyatning o'zi matnda modellashtirilgani sababli tilga singib ketganini ta'kidlaydi.

Til va madaniyat munosabatlarini tahlil qilar ekanman, ularning o'zaro ta'sirini uch xil yondashuv doirasida ko'rib chiqishni lozim topdik. Bu yondashuvlar muammoning mohiyatini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Birinchi yondashuv S.A.Atanovskiy, G.A.Brutyan, Ye.I.Kukushkin, E.S.Markaryan [3: 118] kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda til voqelikning oddiy aksi, madaniyat esa shu voqelikning bir qismi sifatida talqin qilinadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, til va madaniyat o'rtasidagi ta'sir bir tomonlama bo'lib, u madaniyatdan tilga qarab yo'naladi.

Ikkinchi yondashuv, aksincha, tilning madaniyatga bo'lgan teskari ta'siriga qaratilgan. V.Gumboldt va A.A.Potebnya tilni ma'naviy kuch, insonni o'rab turgan va undan tashqarida yashab bo'lmaydigan muhit sifatida tushungan. Ushbu yo'nalishda E.Sepir va B.Uorf maktabi lingvistik nisbiylik gipotezasini ilgari surgan. Bu gipotezaga ko'ra, har bir xalq dunyoni o'z ona tili prizmasi orqali o'ziga xos tarzda ko'radi, shu sababli tillar o'zlarining "til dunyoqarashi" (til manzarasi) bilan farqlanadi.

Uchinchi yondashuvga ko'ra, til madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, til ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan madaniyatning tarkibiy qismi; ikkinchidan, u madaniyatni o'zlashtirishning asosiy vositasi; uchinchidan, til madaniyatning eng muhim hodisalaridan biri hisoblanadi. Chunki ilm-fan, din va adabiyot kabi madaniyat sohalari ham til singari muayyan tuzilishga ega bo'lgan belgilar tizimi sifatida talqin qilinishi mumkin. K.Levi-Stros ta'kidlaganidek, til bir vaqtning o'zida madaniyat mahsuli, uning muhim tarkibiy qismi hamda mavjudligining zaruriy sharti hisoblanadi.

Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi lingvokulturologiya fanining asosiy tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda milliy-madaniy mazmunga ega bo'lgan til birliklari, tushunchalar, g'oyalar va realiyalar o'rganiladi. G.D.Tomaxin ta'kidlaganidek, til birliklarining milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganishda xalqning tarixiy-madaniy tajribasi, dunyoqarashi va turmush tarzini aks ettiruvchi birliklar alohida ahamiyatga ega [4: 69]. Shu nuqtayi nazardan, realiyalar muayyan xalqning moddiy va ma'naviy madaniyatiga xos bo'lgan hamda boshqa tillarda bevosita muqobiliga ega bo'lmagan yoki to'liq ekvivalent bilan ifodalanmaydigan til birliklari sifatida namoyon bo'ladi.

"Realiya" so'zi lotincha realis, -e sifatining ko'plik shakli – realia ("moddiy", "haqiqiy", "voqe'iy") so'zidan kelib chiqqan bo'lib, keyinchalik otga aylanib mustaqil termin sifatida shakllangan. U moddiy jihatdan mavjud bo'lgan predmet yoki hodisani, ya'ni real voqelikning muayyan unsurini ifodalash uchun qo'llanila boshlagan. Lug'aviy ta'riflarga ko'ra, realiya – muayyan xalq yoki mamlakatning tarixi, madaniyati, turmush tarziga xos, boshqa xalqlarda uchramaydigan predmet, tushuncha yoki hodisa, shuningdek shu narsalarni bildiruvchi so'z yoki so'z birikmasidir [5: 43].

"Realiya" termini lingvistik adabiyotlarda ancha keng qo'llanadi. Realiyalar milliy kolorit va milliy o'ziga xoslikni ifodalovchi birliklar sifatida XX asrning 50-yillaridan boshlab faol o'rganila boshlagan. Realiya bilan bog'liq masalalar M.L.Vaysburd, Ye.M.Vereshchagin [6: 41], I.Keller, V.G.Kostomarov [6: 41], A.D.Rayxshteyn [7: 18], Vl.Rossels, L.N.Sobolev, A.Ye. Suprun, G.D.Tomaxin, G.V.Chernov

kabi ko'plab olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan. M.L.Vaysburdning fikricha, realiyalar tarkibiga mamlakatning ijtimoiy va madaniy hayotiga oid voqealar, jamoat tashkilotlari, urf-odat va an'analar, maishiy predmetlar, geografik obyektlar, san'at va adabiyot asarlari, tarixiy shaxslar, olimlar, yozuvchilar va san'atkorlarning nomlari, shuningdek, tabiat hodisalari kirishi mumkin [8: 98]. Bunday tabiat hodisalari muayyan hududga xos bo'lganligi sababli mintaqaviy xarakter kasb etadi.

Bundan tashqari, tasniflash qiyin bo'lgan turli xil faktlar ham realiyalar tarkibiga kiritilishi mumkin. L.N.Sobolev "realiya" terminini boshqa mamlakatlar tillarida muqobili mavjud bo'lmagan maishiy va o'ziga xos milliy so'z hamda iboralarga, shuningdek, boshqa mamlakatlarda mavjud bo'lmagan narsa va hodisalarni ifodalovchi milliy turmushga oid so'zlarga nisbatan qo'llagan. Vl.Rossels realiyalarni asar tarjima qilinayotgan xalqning turmushida uchramaydigan tushuncha, predmet va hodisalarni ifodalovchi chet til birliklari sifatida ta'riflaydi. U "realiya" tushunchasiga kengroq yondashib, bunday predmet, tushuncha va hodisalarning o'zini hamda ularni ifodalovchi so'z va iboralarni ham realiya sifatida baholaydi. L.S.Barxudarov esa realiyalarni boshqa tilda so'zlashuvchilarning amaliy tajribasida mavjud bo'lmagan predmet, tushuncha va vaziyatlarni ifodalovchi so'zlar sifatida tavsiflaydi. Olim realiyalarga milliy taomlar, milliy kiyim-kechak va poyabzal, xalq raqslari, siyosiy muassasalar hamda ijtimoiy hodisalarni misol sifatida keltiradi. M.L.Vaysburd, shuningdek, realiyalarning tilda turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, realiyalar alohida so'zlar, so'z birikmalari, gaplar hamda qisqartmalar shaklida qo'llanishi mumkin.

Har bir tilda o'ziga xos shakl, leksik, fonetik va morfologik xususiyatlarga ega realiylarning soni juda ko'p bo'lgani uchun ularni tartibga solish, ya'ni tasniflash zarurati tug'iladi [9: 57]. Tasnif, birinchidan, ushbu o'ziga xos leksik birliklarni tizimli ravishda tavsiflash va ularga aniq ta'rif berish imkonini beradi. Ikkinchidan, realiyalarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish masalalarini to'g'ri hal etishga xizmat qiladi. Chunki muayyan realiyaning tasnifdagi o'rni tarjimonga uning kontekstdagi mazmuniy va funksional ahamiyatini aniqlashda yordam beradi. A.Ye.Suprun realiyalarni predmetlik belgisiga ko'ra bir necha semantik guruhga ajratadi. A.A.Reformatskiyning tilshunoslikka kirish kursi uchun tuzgan jadvali predmet-lisoniy tamoyilga asoslangan bo'lib, unda rus tilidagi leksik tarkibga qaysi tillardan atoqli otlar, pul birliklari, lavozim va shaxs nomlari, kiyim-kechak va taqinchoq detallari, taom va ichimlik nomlari, murojaat shakllari hamda unvonlarni ifodalovchi o'zlashma birliklarning kirib kelgani ko'rsatiladi. A.A.S. Yermagambetova qozoq tilidan tarjima materiallari asosida o'z tasnifini ishlab chiqqan bo'lib, unda realiyalar uchta yirik guruhga ajratiladi:

a) ijtimoiy-tarixiy realiyalar – ma'muriy-hududiy birliklar va aholi punktlari nomlari, turmush sharoiti va mashg'ulotlariga oid so'zlar, ijtimoiy qatlam, unvon, lavozim va murojaat shakllari, xalq marosimlari va an'analariga oid birliklar;

b) geografik va etnografik realiyalar – geografik hamda etnografik tushunchalarni ifodalovchi realiyalar;

c) maishiy realiyalar – turar joy va uy jihozlari nomlari, milliy kiyim-kechak, bosh kiyimlar va taqinchoqlarni bildiruvchi realiyalar, milliy taom va ichimlik nomlari, musiqa asboblari nomlari, o'lchov birliklari kabilar kiradi.

Realiyalarni tasniflashga oid yondashuvlar orasida S.Vlaxov va S.Florin [10: 65] tomonidan taklif etilgan tasnif alohida ahamiyatga ega. Mazkur tasnif realiyalarni predmet xususiyati, hududiy mansubligi hamda zamon bilan bog'liq milliy-madaniy koloritiga ko'ra har tomonlama tasniflash imkonini beradi. Shu sababli mazkur tadqiqotda realiyalarni tizimlashtirish va lingvokulturologik jihatdan tahlil qilishda S.Vlaxov va S.Florin tasnifiga asoslaniladi.

I. Realiyalarning predmet xarakteriga ko'ra tasnifi:

1. Geografik realiyalar:

– fizik-geografik realiyalar – relyef, tabiiy landshaft va boshqa fizik-geografik obyektlarni ifodalovchi birliklar;

– meteorologik realiyalar – muayyan hududga xos tabiiy-iqlimiy va meteorologik hodisalarni ifodalovchi birliklar;

– inson faoliyati bilan bog'liq geografik realiyalar – inson tomonidan yaratilgan yoki uning faoliyati natijasida shakllangan geografik obyektlar nomlari;

– endemik realiyalar – muayyan hududga xos bo'lgan o'simlik va hayvon nomlari.

2. Etnografik realiyalar:

– turmushga oid realiyalar – milliy taomlar, kiyim-kechak, turar joy, uy-ro'zg'or buyumlari va transport vositalarini ifodalovchi birliklar;

– mehnatga oid realiyalar – mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar, mehnat qurollari va mehnatni tashkil etish shakllarini ifodalovchi birliklar;

– san'at va madaniyatga oid realiyalar – musiqa, raqs, musiqa asboblari, folklor, teatr, urf-odatlar, marosimlar, bayramlar va mifologiyaga oid birliklar;

– o'lchov va pul birliklari – muayyan xalq yoki mamlakatga xos bo'lgan an'anaviy o'lchov birliklari hamda pul nomlari.

3. Ijtimoiy-siyosiy realiyalar:

– ma'muriy-hududiy realiyalar – ma'muriy-hududiy tuzilish va uning birliklarini ifodalovchi nomlar;

– hokimiyat va boshqaruvga oid realiyalar – davlat hokimiyati organlari va boshqaruv tizimiga oid birliklar;

– siyosiy realiyalar – siyosiy tashkilotlar, siyosiy arboblar va siyosiy institutlarni ifodalovchi birliklar;

– unvon va darajalarga oid realiyalar – unvon, martaba va darajalarni ifodalovchi birliklar;

– muassasa va tashkilotlarga oid realiyalar – muayyan jamiyat yoki davlatga xos muassasa va tashkilot nomlari;

– ijtimoiy tabaqa va toifalarga oid realiyalar – jamiyatning muayyan tabaqa, qatlam va toifalarini ifodalovchi birliklar;

– harbiy realiyalar – harbiy bo'linmalar, qurol-yarog', harbiy kiyim-kechak va harbiy xizmatchilarni ifodalovchi birliklar.

II. Mahalliy tasnif (Realiyalarning qaysi til yoki hududga mansubligiga ko'ra):

1.O'z realiyalari – muayyan xalq yoki tilga xos bo'lgan realiyalar. Ular quyidagi turlarga bo'linadi:

– milliy realiyalar – muayyan mamlakat yoki xalq uchun xos bo'lib, boshqa mamlakat va xalqlar uchun begona hisoblanadigan realiyalar;

– lokal realiyalar – muayyan hudud, dialekt yoki kichik ijtimoiy guruhga xos realiyalar;

– mikrolokal realiyalar – faqat bitta shahar, qishloq yoki juda tor hudud doirasida qo'llanadigan realiyalar.

2. Begona realiyalar – boshqa xalq yoki tilga mansub bo'lgan, muayyan tilga o'zlashgan yoki kalkalash yo'li bilan kirib kelgan realiyalar. Ular quyidagi turlarga bo'linadi:

– internatsional realiyalar – ko'plab tillarning lug'at tarkibiga kirgan va turli xalqlar uchun ma'lum bo'lgan realiyalar;

– hududiy realiyalar – muayyan mintaqada yashovchi bir necha xalq yoki millat orasida tarqalgan realiyalar.

3. Bir necha til doirasidagi realiyalar – tarjima qilinayotgan ikki tilning o'zaro munosabatiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi:

– tashqi realiyalar – har ikkala til uchun ham begona bo'lgan realiyalar;

– ichki realiyalar – til juftligidan faqat bittasiga xos bo'lgan, ikkinchi til uchun begona hisoblangan realiyalar.

III. Zamon bo'yicha tasnif:

1. Zamonaviy realiyalar.

2. Tarixiy realiyalar.

Realiyalarning muhim xususiyatlaridan biri ularning makon va zamon bilan uzviy bog'liqligidir. Muayyan realiya ma'lum bir davr va hududga xos bo'lishi bilan birga, tarixiy jarayonlar hamda xalqlararo madaniy aloqalar ta'sirida o'z maqomi va funksiyasini o'zgartirishi mumkin. Makon va zamon munosabati esa realiyaning muayyan hudud va tarixiy davr bilan bog'liqligini namoyon etadi. Tarixiy realiyalar, odatda, o'zining milliy-madaniy manbasi bilan uzviy aloqada bo'ladi. Masalan, o'zbek madaniyatiga oid ayrim birliklar muayyan tarixiy davr va hudud bilan bog'liq holda shakllangan. Ayrim realiyalar esa bir vaqtning o'zida ham tarixiy, ham milliy xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, *yasovul, mingboshi, qozi* kabi birliklar muayyan tarixiy davrga ham, o'zbek milliy-madaniy muhitiga ham xosdir.

Begona realiyalarning o'zlashishi xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Bunday birliklarning bir tildan ikkinchi tilga kirib kelishida tarixiy-madaniy jarayonlar, xalqlararo munosabatlarning kuchayishi yoki susayishi, shuningdek, muayyan ijtimoiy va siyosiy voqealar muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan realiyalar nafaqat muayyan xalqning madaniy xususiyatlarini aks ettiradi, balki xalqlar o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarning tilga ta'sirini ham namoyon etadi.

Yuqoridagi tasniflarni umumlashtirgan holda biz realiyalarni bir necha asosiy mezon asosida tizimlashtirish mumkin, deb hisoblaymiz. Realiyalarni, avvalo, denotativ belgisi, ya'ni ifodalagan predmet, hodisa yoki voqelik asosida; lingvistik tabiati, ya'ni so'z, so'z birikmasi yoki gap shaklida namoyon bo'lishiga ko'ra; leksik-semantik, ya'ni tematik mansubligi asosida; vaqt belgisiga ko'ra tarixiy va zamonaviy realiyalarga; hududiy-milliy mansubligiga ko'ra esa milliy, regional, lokal va mikrolokal realiyalarga ajratish mumkin. Mazkur mezonlar realiyalarning shakliy, semantik, tarixiy va lingvokulturologik xususiyatlarini kompleks tarzda yoritish imkonini beradi.

Bizningcha, barcha realiyalar ham aksiologik(qadriyatlarga oid) mazmunni ifodalamaydi. Ayrim geografik nomlar, oddiy antroponimlar va maishiy birliklar muayyan xalqning qadriyatlari yoki axloqiy qarashlarini bevosita aks ettirmaydi. Biroq shu guruhlarga mansub ayrim realiyalar xalqning yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik haqidagi tasavvurlarini ifodalashi mumkin. Shu bois realiyalarning lingvokulturologik ahamiyatini ularning kontekstdagi mazmuni va milliy-madaniy xususiyatlari asosida baholash lozim.

Mazkur tadqiqotda realiyalarni tasniflashda vaqt va hududiy mezonlar asosiy belgi sifatida olinmaydi. Chunki o'zbek maqollaridagi realiyalarni o'rganishda asosiy e'tibor ularning xalqning milliy-madaniy qadriyatlari, dunyoqarashi, urf-odatlari va turmush tarzini ifodalash xususiyatlariga qaratiladi. Bunday madaniy mazmun tarixiy hamda zamonaviy realiyalar orqali namoyon bo'lishi mumkin. Zero, milliy mentalitet muayyan tarixiy davr bilan cheklanmay, xalqning uzoq tarixiy-madaniy taraqqiyoti davomida shakllanadi. Hududiy mezon ham ushbu tadqiqot uchun asosiy ahamiyatga ega emas, chunki tadqiqotning asosiy obyekti regional yoki lokal birliklar emas, balki o'zbek xalqining milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi realiyalardir.

O'zbek maqollaridagi realiyalarning tarkibiy xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularda, avvalo, xalqning kundalik turmushi, urf-odatlari, an'analari, mehnat faoliyati, kiyim-kechaklari, taomlari va boshqa madaniy hodisalarini ifodalovchi etnografik realiyalar faol qo'llanadi. Bu holat o'zbek maqollarining xalqning milliy-madaniy tajribasi va turmush tarzini aks ettiruvchi muhim manba ekanini ko'rsatadi.

Antroponim va toponimlar ham maqollarda uchrab, muayyan tarixiy-madaniy axborot va xalqona assotsiatsiyalarni ifodalashi mumkin, biroq ularning qo'llanish ko'lami etnografik realiyalarga nisbatan ancha cheklangan. Shu bois o'zbek maqollaridagi realiyalarni lingvokulturologik jihatdan tadqiq etishda etnografik realiyalarni asosiy guruh sifatida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunday realiyalar bilan bog'liq assotsiatsiyalar milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, boshqa madaniyat vakillari uchun har doim ham tushunarli yoki ma'lum bo'lmasligi mumkin.

Lingvokulturologik nuqtayi nazardan bunday birliklarning o'ziga xosligi shundaki, ular tildan tashqarida shakllangan, ammo til vositasida saqlanib va avloddan avlodga yetkazilib keladigan milliy-madaniy axborotni aks ettiradi. Shu sababli o'zbek maqollarida qo'llangan etnografik realiyalarning mazmunini to'liq anglash uchun ularni faqat lug'aviy ma'nosi asosida emas, balki xalqning tarixiy-madaniy tajribasi, urf-odatlari va an'analari bilan bog'liq holda o'rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. М.: Прогресс, 1985.
2. Потебня А.А. Из лекций по теории словесности. Лекция восьмая // Русская словесность: Антология. М.: Академия, 1997. – С. 132–145.
3. Маркарян Э.С. Культура как система (общетеоретические и исторические аспекты проблемы) // Вопросы философии,1984. №1. – С. 118–122.
4. Томахин Г.Д. Реалии в культуре и языке // Иностранные языки в школе, 1981, № 1. – С. 64–69.
5. Kasimova Z.M. O'zbek tilidagi realiyalarning semantik tadqiqi: monografiya. – Toshkent: BOOKMANY PRINT, 2024.
6. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Лингвострановедческая теория слова. – М.: Русский язык, 1980.
7. Райхштейн А.Д. Лингвострановедческий аспект устойчивых словесных комплексов // Словари и лингвострановедение / под ред. Е.М.Верещагина. М.: Русский язык, 1982. – С. 142–153.
8. Вайсбурд М.Л. Реалии как элемент страноведения // Русский язык за рубежом, 1972. №3. – С. 98–100.
9. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya: darslik. – Toshkent, 2019.
10. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. М.: Международные отношения, 1980.

Olima SAFAROVA,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

FARMATSEVTIK TERMINOLOGIYA VA DISKURS: LINGVISTIK, SEMANTIK VA KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada farmatsevtik terminologiya va farmatsevtik diskursning lingvistik, semantik hamda kommunikativ xususiyatlari tadqiq etiladi. Farmatsevtik terminlarning tibbiyot va farmatsevtika sohasidagi professional kommunikatsiyani ta'minlashdagi o'rni, ularning aniq va bir ma'noli talqin qilinishiga intilishi hamda maxsus ilmiy tushunchalarni ifodalash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, farmatsevtik diskursning asosiy funksional xususiyatlari, xususan, axborot funksiyasining ustuvorligi va kommunikatsiya ishtirokchilariga ijtimoiy yo'naltirilgani yoritiladi.

Kalit so'zlar: farmatsevtik terminologiya, farmatsevtik diskurs, tibbiy diskurs, termin, terminologik tizim, professional kommunikatsiya, kommunikativ moslashuv, farmatsevtik muloqot, dori vositalari, terminologik aniqlik.

Annotation. This article examines the linguistic, semantic, and communicative features of pharmaceutical terminology and pharmaceutical discourse. It analyzes the role of pharmaceutical terms in ensuring professional communication in the fields of medicine and pharmacy, their tendency toward precise and unambiguous interpretation, as well as their capacity to represent specialized scientific concepts. Furthermore, the article explores the main functional characteristics of pharmaceutical discourse, particularly the predominance of the informational function and its social orientation toward participants in communication.

Keywords: pharmaceutical terminology, pharmaceutical discourse, medical discourse, term, terminological system, professional communication, communicative adaptation, pharmaceutical communication, medicinal products, terminological precision.

Аннотация. В данной статье исследуются лингвистические, семантические и коммуникативные особенности фармацевтической терминологии и фармацевтического дискурса. Анализируется роль фармацевтических терминов в обеспечении профессиональной коммуникации в сфере медицины и фармации, их стремление к точной и однозначной интерпретации, а также возможности репрезентации специальных научных понятий. Кроме того, рассматриваются основные функциональные характеристики фармацевтического дискурса, в частности доминирование информационной функции и его социальная ориентированность на участников коммуникации.

Ключевые слова: фармацевтическая терминология, фармацевтический дискурс, медицинский дискурс, термин, терминологическая система, профессиональная коммуникация, коммуникативная адаптация, фармацевтическая коммуникация, лекарственные средства, терминологическая точность.

Farmatsevtik terminologiya tibbiyot va farmatsevtika sohalarida ilmiy-professional kommunikatsiyani ta'minlovchi muhim lingvistik vositalardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur terminologik tizim dori vositalari, ularning tarkibi, farmakologik xususiyatlari, ta'sir mexanizmi, qo'llanish usullari hamda davolash jarayoniga oid maxsus tushunchalarni aniq va izchil ifodalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan farmatsevtik terminlar nafaqat muayyan tushunchalarni nomlash vositasi, balki mutaxassislar o'rtasidagi kasbiy muloqotning mazmuniy aniqligi va kommunikativ samaradorligini ta'minlovchi muhim birliklar sifatida namoyon bo'ladi.

Farmatsevtik diskursni o'rganish bevosita tibbiy lingvistika maydonida tadqiq qilinadi. Farmatsevtik diskurs tibbiy diskursning tarkibiy turlaridan biri bo'lib, mazkur sohada maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassislar (shifokor/farmatsevt) hamda ushbu sohaga oid maxsus bilimlarga ega bo'lgan yoki bunday bilimlarga umuman ega bo'lmagan bemorlar (iste'molchilar) o'rtasidagi bevosita va bilvosita kommunikatsiyani ifodalaydi [1: 94].

Jahon tilshunosligida farmasevtik diskursning tadqiqi bilan shug'ullangan L.N.Nosova fikriga ko'ra: "Farmatsevtik diskurs sog'liqni saqlash sohasida amal qiluvchi, aholining turli guruhlariga tibbiy va maslahat xizmatlarini ko'rsatish kabi amaliy tibbiy vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan yozma diskursiv faoliyat sifatida talqin qilinadi. Uning natijasi diskursning pragmatik jihati hamda uning sog'liqni saqlash sohasidagi funksional qo'llanish vaziyati bilan bog'liq holda qaraladigan nutqiy asar hisoblanadi" [1: 95]

Farmatsevtik terminologiyaning o'ziga xosligi uning xalqaro ilmiy va kasbiy kommunikatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liqligida ham ko'zga tashlanadi. Xususan, mazkur terminlar malakali mutaxassislar o'rtasida aniq, qisqa va izchil muloqotni ta'minlash bilan bir qatorda, xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, dori vositalarini standartlashtirish, farmatsevtik mahsulotlar to'g'risidagi axborotni bir xilda talqin qilish hamda klinik tadqiqotlar natijalarini xalqaro miqyosda almashish jarayonida ham muhim kommunikativ vazifani bajaradi. [2: 13] Shu ma'noda, farmatsevtik terminologiya zamonaviy global ilmiy maydonning tarkibiy qismi sifatida qaralib, uning shakllanishi va rivojlanishi til, tibbiyot, farmakologiya hamda farmatsevtika fanlarining o'zaro integratsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Farmatsevtik terminlarni lingvistik jihatdan tadqiq etish ularning strukturaviy tuzilishi, so'z yasalish modellari, morfologik xususiyatlari va boshqa terminologik birliklar bilan munosabatini aniqlashni taqozo etadi. Semantik nuqtayi nazardan esa farmatsevtik terminlarning muayyan ilmiy tushunchani ifodalashi, ma'no aniqligi, bir ma'nolilikka intilishi, sinonimik va variantdosh shakllari, shuningdek, terminlar o'rtasidagi semantik munosabatlarni o'rganish muhimdir. Bunda terminlarning shakl va mazmun mutanosibligi, ilmiy tushunchalarni differensial ifodalash imkoniyati hamda terminologik tizimdagi o'rni alohida tadqiq etilishi lozim.

Farmatsevtik diskursning muhim belgilaridan biri farmatsevtik terminlarning bir ma'noli talqin qilinishiga intilish bilan bog'liq [3: 10]. Farmatsevtik kommunikatsiyada qo'llanadigan terminlar muayyan dori vositasi, uning tarkibi, farmakologik ta'siri yoki qo'llash usulini aniq ifodalashi lozim. Masalan, **"***antibiotik", "analgetik", "antiseptik", "antigistamin", "dozalash", "kontrendikatsiya", "nojo'ya ta'sir"* kabi terminlar farmatsevtik diskurs ishtirokchilari tomonidan bir xil yoki imkon qadar yaqin mazmunda tushunilishi talab etiladi.

Xususan, farmatsevtning bemorga *"Mazkur preparat kuniga ikki mahal, ovqatdan keyin 1 tabletkadan qabul qilinadi"* tarzidagi ko'rsatmasida ***"kuniga ikki mahal"***, ***"ovqatdan keyin"***, ***"1 tabletkadan"*** kabi birliklar dori vositasidan foydalanish tartibini noaniqlikka yo'l qo'ymagan holda ifodalashga xizmat qiladi. Demak, farmatsevtik terminlarning semantik aniqligi dori vositasidan to'g'ri foydalanish va kommunikativ xatolarning oldini olishning muhim sharti hisoblanadi.

Farmatsevtik diskursning ikkinchi muhim xususiyati axborot funksiyasining ustuvorligi bilan belgilanadi. Bunda asosiy maqsad dori vositasi haqida iste'molchiga zarur, aniq va tizimli axborotni yetkazishdan iborat [2: 10] Masalan, "Paratsetamol" dori vositasining yo'riqnomasiga diqqat qaratsak:

"**Preparatning savdo nomi:** Parasetamol. **Dori shakli:** tabletkalar.

Tarkibi: 1 tabletka quyidagilarni saqlaydi: *faol modda:* parasetamol – 200 mg yoki 500 mg;

Ta'rifi: yassi silindrik shaklli, faskali va riskali, oqdan och-sariq tusli oq ranggacha bo'lgan tabletkalar.

Farmakologik xususiyatlari: Parasetamol og'riq qoldiruvchi va isitmani tushiruvchi ta'sirlarga ega. Preparat og'riq va termoregulyasiya markazlariga ta'sir ko'rsatib, asosan markaziy nerv tizimida siklooksigenaza I va II ni bloklaydi. Yallig'langan to'qimalarda xujayra peroksidazalari parasetamolning siklooksigenazaga ta'sirini neytrallaydi, bu undan yallig'lanishga qarshi samarasi deyarli butunlay yo'qligini tushuntiradi. Preparat periferik to'qimalarda prostaglandinlar sinteziga yo'qligi tufayli, suv-tuz almashinuviga (natriy va suvni tutilishi) va me'da-ichak yo'llarining shilliq qavatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Qo'llanilishi: O'rtacha yoki kuchsiz yaqqollikdagi og'riq sindromi (bosh, tish, migrenoz og'riq, nevralgiya, mialgiya). Shamollash va boshqa infeksion-yallig'lanish kasalliklarida tana haroratini oshishida qo'llanadi.

Qo'llash usuli va dozalari: Ko'p miqdordagi suyuqlik bilan 0,5 g–1 g dan sutkada 2-3 marta kamida 4 soatlik interval bilan ichga qabul qilinadi. Bolalarga tana vazniga 10-15 mg/kg dan sutkada 3-4 marta (ko'pi bilan 3 kun) buyuriladi.

Og'riq qoldiruvchi vosita sifatida buyurilganda qabul qilish davomiyligi 5 kun va isitmani tushiruvchi vosita sifatida buyurilganda 3 kundan oshmasligi kerak" [4]. Yuqoridagi paraetsatamol dori vositasining farmatsevtik bayonida dori vositasining *nomi, tarkibi,dozasi, farmakologik ta'siri va qo'llash tartibi* haqida axborot beriladi. Dori vositasining yo'riqnomasidagi *"Qo'llash usuli va dozalari"*, *"Nojo'ya ta'sirlari"*, *"Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar"* kabi bo'limlar ham farmatsevtik diskursning axborot berish funksiyasini yaqqol namoyon etadi. Bunday birliklar orqali iste'molchiga preparatning terapevtik imkoniyatlari bilan bir qatorda, undan foydalanishdagi cheklovlar ham yetkaziladi.

Farmatsevtik diskursning yana bir muhim jihati kommunikatsiya ishtirokchilariga ijtimoiy yo'naltirilganlikdir. [3: 18]. Chunki farmatsevtik muloqotda kommunikantlarning kasbiy bilim darajasi bir xil emas. Mutaxassislar o'rtasidagi kommunikatsiyada maxsus terminologik birliklardan faol foydalanilsa, farmatsevt va bemor o'rtasidagi muloqotda ushbu terminlarni sodda va tushunarli shaklda izohlash zarurati yuzaga keladi.

Masalan, mutaxassislar o'rtasida *"Preparat antigistamin ta'sirga ega va allergik reaksiyalarni simptomatik davolashda qo'llanadi"* tarzidagi bayon tabiiy hisoblanadi. Biroq bemorga shu mazmun *"Bu dori allergiya belgilarini, masalan, qichishish, aksirish yoki toshmani kamaytirishga yordam beradi"* shaklida tushuntirilishi mumkin. Birinchi holatda **"***antigistamin", "simptomatik davolash", "allergik reaksiya"* kabi maxsus terminlar qo'llangan bo'lsa, ikkinchi holatda mazmun bemorning ehtimoliy bilim darajasiga mos ravishda soddalashtirilgan.

Shuningdek, farmatsevtik diskursda terminologik aniqlik va kommunikativ moslashuv bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Masalan, *"kontrendikatsiya"* termini mutaxassis uchun tushunarli bo'lsa-da, bemor bilan muloqotda *"ushbu dori vositasini qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar"* tarzida izohlanishi kommunikativ jihatdan samaraliroqdir. Bu holat farmatsevtik diskursda terminlarning faqat nominativ vazifani emas, balki adresatga moslashtirish, axborotni tushunarli yetkazish va kommunikativ samaradorlikni ta'minlash funksiyalarini ham bajarishini ko'rsatadi.

Farmatsevtik terminologiya farmatsevtik diskurs doirasida yanada keng kommunikativ mazmun kasb etadi. Farmatsevtik diskurs mutaxassislar, shifokorlar, farmatsevtlar, tadqiqotchilar va iste'molchilar o'rtasida farmatsevtik bilim hamda axborotning uzatilishini ta'minlovchi maxsus kommunikativ makon sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur diskursda terminlarning qo'llanishi ularning faqat nominativ funksiyasi bilan cheklanmay, axborotni aniq yetkazish, professional munosabatlarni shakllantirish, ilmiy mazmunni izchil ifodalash va kommunikativ maqsadga erishish kabi vazifalarni ham bajaradi [5].

Shu sababli farmatsevtik terminologiyani alohida terminlar majmuyi sifatida emas, balki muayyan kommunikativ vazifalarni amalga oshiruvchi yaxlit lingvistik tizim sifatida o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Farmatsevtik terminologiyaning lingvistik, semantik va kommunikativ xususiyatlarini farmatsevtik diskurs bilan uzviy aloqadorlikda tadqiq etish mazkur soha terminlarining shakllanish qonuniyatlari, ma'no tuzilishi, qo'llanish xususiyatlari va professional kommunikatsiyadagi funksional imkoniyatlarini kompleks ravishda ochib berishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, farmatsevtik diskursning bir ma'nolilikka intilish, axborot funksiyasining ustuvorligi va ijtimoiy yo'naltirilganlik kabi xususiyatlari o'zaro uzviy aloqada namoyon bo'ladi. Ushbu belgilar farmatsevtik terminlarning semantik aniqligi, ularning kommunikativ vazifasi hamda turli darajadagi adresatlarga mos ravishda qo'llanishini belgilaydi. Mazkur jihatlar farmatsevtik terminologiyani lingvistik, semantik va kommunikativ nuqtayi nazardan kompleks tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Носова Л.Н. О Неких коммуникативных особенностях лекарственного дискурса / Коммуникация в социально-гуманитарном знании, экономике, образовании: III Междунар. науч.-практ. конф. Л.Н. Носова. Минск, 2012. – С. 94–96.
2. Israilova M.N. Lotin tili va tibbiy farmatsevtik terminologiya asoslari. –Toshkent: Barkamol fayz mediya, 2016.
3. Носова Л.Н. Коммуникативно-прагматический потенциал инструкции по применению лекарственных средств в фармацевтическом дискурсе / Л.Н. Носова. Москва, 2013.
4. Paraseptomol. https://apteka.uz/uz/product/paratsetamol.
5. Abdulxairova F. Tibbiyot terminlarini metaforik modellashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. – Toshkent: Bookmany print, 2024.

Jasmina AXMEDOVA,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi

BUYUK BRITANIYADA AYOLLAR MATBUOTINING VUJUDGA KELISH ZARURATI

Annotatsiya. Maqolada Buyuk Britaniyada ayollar matbuotining shakllanishi, rivojlanish tarixi va zamonaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, huquq va erkinliklarining kengayishi hamda gender tenglik g'oyalarining ayollar matbuoti taraqqiyotiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, Buyuk Britaniyadagi ayollarga mo'ljallangan jurnallarning mazmun-mavzu yo'nalishlari va auditoriya bilan muloqot qilish xususiyatlari tahlil qilinib, ularning ayollar hayotidagi ijtimoiy va axborot-kommunikatsion ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Buyuk Britaniya, ayollar matbuoti, ayollar jurnallari, jurnalistika, gender tenglik, ayollar huquqlari, feminizm, ommaviy axborot vositalari, mediakommunikatsiya.

Annotation. The article analyzes the formation, historical development, and contemporary characteristics of the women's press in the United Kingdom. It examines the influence of women's socio-political activity, the expansion of their rights and freedoms, and the development of gender equality ideas on the evolution of the women's press. The article also analyzes the thematic and content areas of women's magazines in the United Kingdom, as well as their ways of interacting with audiences, highlighting their social and informational-communicative significance in women's lives.

Keywords: Great Britain, women's press, women's magazines, journalism, gender equality, women's rights, feminism, mass media, media communication.

Аннотация. В статье анализируются становление, история развития и современные особенности женской прессы в Великобритании. Освещается влияние общественно-политической активности женщин, расширения их прав и свобод, а также идей гендерного равенства на развитие женской прессы. Кроме того, анализируются тематико-содержательные направления британских журналов для женщин и особенности их взаимодействия с аудиторией, раскрывается их социальное и информационно-коммуникационное значение в жизни женщин.

Ключевые слова: Великобритания, женская пресса, женские журналы, журналистика, гендерное равенство, права женщин, феминизм, средства массовой информасии, медиакоммуникация.

Ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei, siyosiy va iqtisodiy faolligining ortishi hamda gender tenglik g'oyalarining shakllanishi XX asrga kelib xotin-qizlar auditoriyasiga mo'ljallangan maxsus axborot nashrlarining rivojlanishiga keng imkoniyat yaratdi. Ayollarning muhandislik, tibbiyot, ta'lim, sanoat, jurnalistika va boshqa sohalarda faol ishtirok eta boshlashi ularning axborotga bo'lgan ehtiyojini ham o'zgartirdi. Natijada ayollarning qiziqishlari, kasbiy faoliyati, oilaviy hayoti, ijtimoiy mavqei, madaniy ehtiyojlari va shaxsiy rivojlanishini yorituvchi ixtisoslashgan davriy nashrlarga talab yuzaga keldi.

Mazkur jarayonni rivojlangan mamlakatlar, xususan, Buyuk Britaniya misolida yaqqol kuzatish mumkin. Bugungi kunda *"Glamour"*, *"Cosmopolitan"*, *"Woman's Own"*, *"Bella"* kabi jurnallar nafaqat Britaniyada, balki Yevropa va boshqa mintaqalarda ham keng auditoriyaga ega. Ularning o'ziga xosligi nafaqat zamonaviy dizayn, sifatli poligrafiya va vizual bezaklarda, balki ayollarni qiziqtiruvchi ijtimoiy, madaniy, psixologik, kasbiy va maishiy masalalarning kompleks yoritilishida namoyon bo'ladi.

Jurnallar ayollar uchun axborot manbai vazifasini bajarish bilan birga, muayyan ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni shakllantiruvchi kommunikatsiya vositasi sifatida ham namoyon bo'ldi. Shu jihatdan, ayollar jurnallarining tarixi, mavzuviy yo'nalishlari, auditoriya bilan muloqot usullari va jamiyatdagi ijtimoiy funksiyalarini o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Jurnal tushunchasining mustaqil nashr turi sifatida shakllanishi XVIII asr Britaniya matbuoti tarixi bilan bevosita bog'liq. 1731-yilda Edvard Keyv tomonidan asos solingan *"The Gentleman's Magazine"* nashri jurnal so'zining davriy matbuotga nisbatan keng qo'llanilishida muhim bosqich bo'ldi. Dastlab nashr asosan ma'lumotli erkaklar auditoriyasiga mo'ljallangan bo'lib, unda siyosiy, adabiy va ijtimoiy mavzular yoritilgan. Keyinchalik jurnallarning tematik va auditoriyaviy doirasi kengayib, turli ijtimoiy guruhlarga mo'ljallangan nashrlar paydo bo'la boshladi.

XIX asrda Buyuk Britaniyada davriy matbuotning jadal rivojlanishi sanoatlashuv, shaharlashuv, savodxonlik darajasining ortishi va bosma texnologiyalarning takomillashuvi bilan bog'liq edi. Matbaa texnikasining rivojlanishi nashrlarni ko'proq adadda va nisbatan arzon narxda chiqarish imkonini berdi. Bu esa yangi auditoriyalarni, jumladan, xotin-qizlarni ham matbuot iste'molchisi sifatida shakllantirdi.

Ayollarning matbuotga qiziqishi faqat o'quvchilik bilan cheklanib qolmadi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xotin-qizlar o'z ijtimoiy mavqeyi, ta'lim olish huquqi, mehnat sharoitlari, mulkiy huquqlari va siyosiy ishtiroki masalalarini matbuot orqali ifoda eta boshladilar. Shu tariqa ayollar matbuoti jamiyatda xotin-qizlarning ovozini ifodalovchi muhim ijtimoiy kommunikatsiya maydoniga aylandi.

Bu jarayonda sufrajizm harakati alohida ahamiyat kasb etdi. Ayollarning saylov huquqi uchun kurashi matbuotda muntazam yoritilib, siyosiy va ijtimoiy bahslarning muhim mavzusiga aylandi. *"Women's Suffrage Journal"* kabi nashrlar ayollarning siyosiy huquqlarini himoya qilish, parlament faoliyati va qonunchilikdagi o'zgarishlarni yoritishga xizmat qildi. Shu tariqa matbuot nafaqat axborot tarqatuvchi, balki ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi institut sifatida ham faoliyat yuritdi [1: 56].

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollar davriy nashrlarining mavzuviy doirasi yanada kengaydi. Agar dastlabki nashrlarda asosiy e'tibor ayollarning huquq va erkinliklariga qaratilgan bo'lsa, keyinchalik ta'lim, mehnat, salomatlik, oila, bola tarbiyasi, iqtisodiy mustaqillik, kasbiy o'sish va madaniy hayot kabi masalalar ham keng yoritila boshladi. Bu esa ayollar auditoriyasining ichki ehtiyojlari turli va murakkab ekanini ko'rsatdi.

Ayollar matbuotining rivojlanishida feministik nashrlar ham muhim o'rin tutdi. XX asr boshlarida ayollarning teng huquqliligi, ijtimoiy erkinligi va mustaqilligi masalalarini ilgari surgan *"Freewoman"* kabi nashrlar paydo bo'ldi. Ularda

ayollarning psixologik holati, falsafiy qarashlari, iqtisodiy mustaqilligi va siyosiy hayotdagi ishtirokiga alohida e'tibor qaratildi. Bunday nashrlar ayollarni faqat oila va maishiy hayot bilan cheklangan ijtimoiy subyekt sifatida emas, balki mustaqil shaxs sifatida ko'rsatishga harakat qildi [2: 35].

Ayollar matbuotining yana bir muhim xususiyati uning kasbiy va iqtisodiy mavzularni yoritishga o'tishi bo'ldi. Ayollarning mehnat bozorida faollashuvi natijasida ularga mo'ljallangan kasbiy maslahatlar, biznes, moliya, kasbiy rivojlanish va ta'limga oid materiallar paydo bo'ldi. Bu tendensiya ayollar jurnallarining mazmunini faqat oilaviy-maishiy masalalar doirasida qolib ketishdan saqlab, uni ijtimoiy-iqtisodiy kommunikatsiya vositasiga aylantirdi.

Shu nuqtai nazardan, ayollar matbuotining shakllanishini faqat jurnalistika tarixining bir qismi sifatida emas, balki jamiyatda gender munosabatlarining o'zgarishini aks ettiruvchi jarayon sifatida baholash mumkin. Matbuot ayollarning jamiyatdagi yangi rollarini ommalashtirish, ularning muammolarini kun tartibiga olib chiqish va ijtimoiy fikrni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qildi.

XX asrga kelib ayollar jurnallarining mazmuni va auditoriyasi yanada diversifikatsiyalandi. Endi nashrlar muayyan yosh, ijtimoiy maqom yoki qiziqishlarga ega bo'lgan auditoriyaga yo'naltirila boshladi. Moda, go'zallik, salomatlik, oilaviy munosabatlar, psixologiya, kasbiy o'sish, sayohat, madaniyat va ko'ngilochar kontent ayollar jurnallarining asosiy tematik yo'nalishlariga aylandi.

Bugungi Britaniya ayollar matbuoti ushbu tarixiy jarayonlarning mantiqiy davomi sifatida namoyon bo'lmoqda. *"Bella"*, *"Woman's Own" va "Cosmopolitan"* kabi jurnallar auditoriya ehtiyojlariga moslashgan holda o'z mazmun va vizual konsepsiyalarini muntazam ravishda yangilab boradi.

Xususan, "**Bella"** jurnali ayollarning kundalik hayoti, shaxsiy munosabatlari, mashhur shaxslar hayoti, salomatlik, moda va turmush tarzi kabi mavzularni birlashtirgan ommabop nashrlardan biri hisoblanadi [3]. Jurnalning vizual konsepsiyasi, rang-barang illyustratsiyalari va hayotiy mavzularga yo'naltirilgan materiallari uning auditoriya bilan yaqin muloqot o'rnatishiga xizmat qiladi.

"Woman's Own" esa ayollar hayoti, oila, salomatlik, mashhur shaxslar, moda va kundalik turmush masalalarini yoritishga ixtisoslashgan. Nashrning muhim xususiyatlaridan biri – auditoriya ehtiyojlariga mos ravishda amaliy maslahatlar va hayotiy voqealarga asoslangan materiallarni taqdim etishidir [4].

"Cosmopolitan" jurnali esa xalqaro ayollar matbuotining eng mashhur brendlaridan biri sifatida alohida ahamiyatga ega. Jurnal dastlab 1886-yilda oilaviy nashr sifatida tashkil etilgan bo'lsa, keyinchalik adabiy-badiiy va ommabop jurnalga aylandi. [5]. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab u asosan yosh ayollar auditoriyasiga mo'ljallangan zamonaviy jurnal sifatida shakllandi. Unda moda, go'zallik, salomatlik, kasbiy o'sish, shaxsiy munosabatlar va ommaviy madaniyat masalalari o'zaro uyg'unlashtiriladi.

Shu bilan birga, ayollar jurnallarining ijtimoiy vazifasini faqat ko'ngilochar kontent bilan cheklash mumkin emas. Ular ayollarning o'zini anglashi, ijtimoiy faolligi, kasbiy rivojlanishi va madaniy ehtiyojlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun zamonaviy ayollar jurnallarini o'rganishda ularning nafaqat mazmuni, balki vizual tili, dizayn yechimi, fotografiya, illyustratsiya va reklama materiallarini ham tahlil qilish muhim.

Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida ayollar matbuoti yangi kommunikatsion imkoniyatlarga ega bo'lmoqda. An'anaviy bosma jurnallar bilan bir qatorda ularning elektron versiyalari, veb-saytlari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va multimediaviy platformalari shakllandi. Natijada auditoriya bilan ikki tomonlama kommunikatsiya o'rnatish, kontentni tezkor yangilash va foydalanuvchilarning qiziqishlariga mos materiallar taqdim etish imkoniyati paydo bo'ldi.

Shunday qilib, Buyuk Britaniyada ayollar matbuotining paydo bo'lishi va rivojlanishi mamlakatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Dastlab ayollarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan nashrlar keyinchalik keng tematik qamrovga ega bo'lgan ommabop jurnallarga aylandi. Bu jarayon ayollar auditoriyasining ijtimoiy ehtiyojlari o'zgarib borganini ham ko'rsatadi.

Buyuk Britaniya ayollar matbuoti tarixini ikki asosiy bosqichda ko'rish mumkin: birinchi bosqichda matbuot ayollarning huquqlari, ta'lim olishi, mehnat qilishi va siyosiy faolligini qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy maydon vazifasini bajargan bo'lsa, ikkinchi bosqichda u ayollarning keng qamrovli hayotiy ehtiyojlarini aks ettiruvchi ixtisoslashgan media institutiga aylandi. Zamonaviy *"Bella", "Woman's Own", "Cosmopolitan"* kabi nashrlar esa ushbu tarixiy an'analarni yangi vizual va raqamli kommunikatsiya shakllari bilan uyg'unlashtirib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dughan D., Sanches D. Feminist Periodicals: A Survey and Guide. – New York, 1987.
2. Zuckerman M.E. A History of Popular Women's Magazines. – Westport: Greenwood Press, 2001.
3. Bauer Media. Bella: Official information about the British women's magazine. https://www.bauermedia.co.uk.
4. Woman's Own. Historical information about the British women's weekly magazine founded in 1932. https://www.womansown.co.uk.
5. Women's Periodicals and Print Culture in Britain, 1690–1820s: The Long Eighteenth Century. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2018.

Surayo AKRAMOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

BADIIY MATNDA LOKUTIV QATLAMNING POETIK SEMANTIKANI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI (Jamol Kamol she'riyati misolida)

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy matnning lokutiv qatlami va uning poetik semantikani shakllantirishdagi roli Jamol Kamol she'riyati misolida tadqiq etiladi. Badiiy nutqda lisoniy birliklar faqat nominativ vazifani bajaruvchi vositalar emas, balki matnning estetik mazmuni, obrazlilik darajasi va muallifning badiiy tafakkurini yuzaga chiqaruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda lokutiv qatlamni tashkil etuvchi leksik birliklarning kontekstual imkoniyatlari, poetik ma'no hosil qilish xususiyatlari hamda semantik yuklamasi tahlil qilinadi. Jamol Kamolning "Saylanma. Anvarmirzo hikoyatlari. V qism" to'plamidagi "Noqis aql hikoyati" she'ri misolida "oqil", "nodon", "aql", "noqis" kabi mazmuniy jihatdan muhim birliklarning badiiy matndagi funksiyasi yoritiladi. Tahlil natijasida shoir poetik nutqida oddiy lisoniy birliklarning kontekst ta'sirida falsafiy-estetik mazmun kasb etishi hamda poetik semantikani shakllantirishda faol ishtirok etishi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, lokutiv qatlam, poetik semantika, lingvopoetika, lisoniy birlik, semantik maydon, obrazlilik, kontekstual ma'no, Jamol Kamol she'riyati.

Annotation. This article examines the role of the locutionary layer of a literary text in shaping poetic semantics, based on the poetry of Jamol Kamol. In literary discourse, linguistic units function not only as means of performing a nominative function but also as important factors in shaping the aesthetic content of the text, its degree of imagery, and the author's artistic thinking. The study analyzes the contextual potential of lexical units constituting the locutionary layer, their role in generating poetic meaning, and their semantic load. Using the poem "Noqis aql hikoyati" from Jamol Kamol's collection "Saylanma. Anvarmirzo hikoyatlari. V qism" as an example, the study examines the function of semantically significant units such as "oqil", "nodon", "aql", and "noqis" in the literary text. The analysis demonstrates that, under the influence of context, ordinary linguistic units acquire philosophical and aesthetic meanings in the poet's discourse and actively participate in the formation of poetic semantics.

Keywords: literary text, locutionary layer, poetic semantics, linguopoetics, linguistic unit, semantic field, imagery, contextual meaning, Jamol Kamol's poetry.

Аннотация. В статье исследуется роль локутивного уровня художественного текста в формировании поэтической семантики на материале поэзии Джамола Камола. В художественной речи языковые единицы выступают не только как средства выполнения номинативной функции, но и как важные факторы формирования эстетического содержания текста, степени его образности и художественного мышления автора. В исследовании анализируются контекстуальные возможности лексических единиц, составляющих локутивный уровень, особенности формирования поэтического значения и их семантическая нагрузка. На материале стихотворения «Noqis aql hikoyati» из сборника Джамола Камола «Saylanma. Anvarmirzo hikoyatlari. V qism» рассматривается функция таких содержательно значимых единиц, как «oqil», «nodon», «aql», «noqis». В результате анализа показано, что в поэтической речи автора простые языковые единицы под воздействием контекста приобретают философско-эстетическое содержание и активно участвуют в формировании поэтической семантики.

Ключевые слова: художественный текст, локутивный уровень, поэтическая семантика, лингвопоэтика, языковая единица, семантическое поле, образность, контекстуальное значение, поэзия Джамола Камола.

Badiiy matn til birliklarining ma'lum estetik maqsad asosida tashkil topgan murakkab tizimi sifatida tilshunoslikning muhim tadqiqot obyektlaridan biridir. Unda qo'llangan har bir lisoniy birlik oddiy axborot yetkazish vazifasi bilan cheklanmay, matnning umumiy mazmuni, obrazlar tizimi va muallifning badiiy niyatini yuzaga chiqarishda ishtirok etadi. Shu jihatdan badiiy matnni o'rganishda uning shakliy-lisoniy qatlami bilan mazmuniy-estetik qatlami o'rtasidagi munosabatni aniqlash alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda badiiy matnning ichki tuzilishini o'rganishda lingvopoetik yondashuv muhim metodologik asoslardan biri sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv matndagi lisoniy vositalarning nafaqat grammatik yoki lug'aviy xususiyatlarini, balki ularning badiiy vazifa bajarish imkoniyatlarini ham tahlil qilishga imkon beradi. Badiiy asarda so'z, ibora, grammatik shakl yoki sintaktik qurilma muayyan kontekst doirasida yangi semantik imkoniyatlarga ega bo'lib, poetik mazmunning shakllanishiga xizmat qiladi.

Badiiy matnning lokutiv qatlami aynan mana shu jarayonning boshlang'ich va asosiy bosqichini tashkil etadi. Lokutiv qatlamni tashkil qiluvchi lisoniy birliklar matnning tashqi shakliy asosini yaratish bilan birga, badiiy ma'no hosil qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Chunki ijodkor tomonidan tanlangan har bir so'z o'zining lug'aviy ma'nosidan tashqari, kontekst ta'sirida qo'shimcha semantik qirralarga ega bo'ladi. Natijada oddiy nominativ birlik poetik obraz, falsafiy tushuncha yoki estetik baho ifodalovchi vositaga aylanishi mumkin.

Poetik semantika esa badiiy matnda lisoniy birliklarning o'zaro munosabati, kontekstual bog'lanishi va obrazli qo'llanishi natijasida yuzaga keladigan murakkab ma'no tizimidir. Unda so'zning bevosita ma'nosi bilan bir qatorda, uning hissiy-ekspressiv, ramziy va baholovchi imkoniyatlari ham namoyon bo'ladi. Shu sababli badiiy matndagi poetik ma'noni anglash uchun, avvalo, uni tashkil etuvchi lokutiv birliklarning semantik xususiyatlarini aniqlash zarur.

O'zbek she'riyatida o'ziga xos falsafiy mushohadalari, badiiy tafakkuri va lisoniy mahorati bilan ajralib turuvchi Jamol Kamol ijodi bunday tadqiqot uchun muhim manba hisoblanadi. Shoir she'riy matnlarida xalqona ifodalar, hikmatli birliklar, obrazli tasvirlar hamda ma'no jihatdan yuklangan so'zlar vositasida inson, tafakkur, ma'naviyat va hayot haqidagi qarashlar ifodalanadi. Jamol Kamol poetik nutqining o'ziga xosligi ko'p jihatdan oddiy lisoniy vositalarga chuqur falsafiy va estetik mazmun yuklay olishida namoyon bo'ladi.

Shoirning *"Anvarmirzo hikoyatlari"* to'plamiga kiruvchi "Noqis aql hikoyati" she'ri lokutiv birliklarning poetik semantik imkoniyatlarini o'rganish uchun e'tiborli manbalardan biridir. She'rning boshlang'ich misralarida:

"Bu dunyoda oqil bor-u nodon, noqis aql bor.
Bu to'g'rida bobolardan qolgan shunday naql bor"

kabi birliklar orqali inson tafakkuri va aql tushunchasining turli semantik qirralari ochiladi. "Oqil", "nodon", "aql", "noqis" kabi leksemalar o'zining lug'aviy ma'nosi bilan bir qatorda, badiiy kontekstda muayyan baholovchi va falsafiy mazmunni shakllantiradi.

Mazkur maqolada Jamol Kamolning "Noqis aql hikoyati" she'ri misolida badiiy matn lokutiv qatlamining poetik semantikani yuzaga chiqarishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida lisoniy birliklarning tanlanishi, ularning kontekstual ma'nosi va badiiy mazmun shakllanishidagi o'rni yoritiladi.

Mazkur tadqiqotda badiiy matnning lokutiv qatlamini va uning poetik semantikani shakllantirishdagi imkoniyatlarini aniqlashda lingvopoetik hamda semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi badiiy matndagi lisoniy birliklarni ularning shakliy xususiyatlari, mazmuniy imkoniyatlari va kontekstual vazifasi birligida o'rganishga asoslanadi.

Tahlil jarayonida tavsifiy metod yordamida Jamol Kamol she'riyatidagi lokutiv birliklarning qo'llanish xususiyatlari aniqlandi. Semantik tahlil orqali esa muayyan so'z va birikmalarning lug'aviy ma'nosi hamda badiiy kontekst ta'sirida yuzaga kelgan qo'shimcha ma'no qatlamlari o'rganildi.

Maqolada kontekstual tahlil usuli asosida lisoniy birliklarning matn tarkibidagi poetik vazifasi, ularning obrazlilik va falsafiy mazmun hosil qilishdagi o'rni belgilandi. Shuningdek, lingvopoetik yondashuv orqali so'zlarning tanlanishi, semantik qarama-qarshiliklar, baholovchi birliklar va obrazli ifodalarning badiiy-estetik imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqot materiali sifatida Jamol Kamolning *"Anvarmirzo hikoyatlar" to*'plamiga kiruvchi "Noqis aql hikoyati" she'ri olindi (Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018, 182-bet). Mazkur she'rda qo'llangan lisoniy birliklarning semantik xususiyatlari, ularning o'zaro munosabati hamda poetik mazmun shakllanishidagi vazifasi tadqiqotning asosiy tahlil yo'nalishini tashkil etdi.

Jamol Kamolning "Noqis aql hikoyati" she'ri lokutiv qatlamni tashkil etuvchi lisoniy birliklarning poetik semantik imkoniyatlarini yaqqol namoyon etuvchi badiiy namunalardan biridir. She'rning kirish qismidayoq muallif o'quvchini falsafiy mushohada maydoniga olib kiradi:

Bu dunyoda oqil bor-u nodon, noqis aql bor,
Bu to'g'rida bobolardan qolgan shunday naql bor.

Mazkur misralarda qo'llangan **"oqil"**, **"nodon"**, **"aql"**, **"noqis"** leksemalari she'rning lokutiv qatlamini tashkil etuvchi asosiy semantik tayanch birliklar hisoblanadi. Ular dastlab lug'aviy ma'no ifodalovchi oddiy leksik vositalar sifatida namoyon bo'lsa-da, poetik kontekst ta'sirida kengroq falsafiy mazmun kasb etadi.

"Oqil" va "nodon" birliklari antonimik munosabat hosil qilib, she'rning semantik qarama-qarshilik tizimini yuzaga keltiradi. Ushbu qarama-qarshilik insonlarning bilim darajasini tavsiflash bilangina cheklanmay, balki tafakkur madaniyati, hayotiy qarash va ma'naviy kamolot mezonlarini ham ifodalaydi. Natijada mazkur birliklar nominativ vazifadan chiqib, poetik konsept darajasiga ko'tariladi.

Alohida e'tibor "noqis aql" birikmasiga qaratilishi lozim. Til tizimida "aql" odatda ijobiy semantik maydonga mansub tushuncha sifatida qabul qilinadi. Shoir esa unga "noqis" sifatini biriktirish orqali mazkur tushunchaning semantik chegaralarini kengaytiradi. Natijada "aql" faqat insonning fikrlash qobiliyatini emas, balki uning ma'naviy yetukligi va hayotiy idroki bilan bog'liq murakkab falsafiy kategoriya sifatida talqin qilinadi. Bu holat lokutiv qatlam birliklarining poetik semantika hosil qilishdagi faol ishtirokini ko'rsatadi.

She'rning lokutiv qatlamida qarama-qarshi ma'noli birliklarning qo'llanishi matnning ichki semantik yaxlitligini ta'minlaydi. "Oqil" va "nodon", "aql" va "noqis" birliklari o'zaro semantik oppozitsiya hosil qilib, poetik fikrning mantiqiy asosini yaratadi. Bunday oppozitsiya o'quvchini faqat mazmunni qabul qilishga emas, balki unda aks etgan falsafiy mohiyatni mushohada qilishga ham undaydi.

Lingvopoetik nuqtai nazardan qaralganda, qarama-qarshi semantik maydonlarning hosil qilinishi badiiy matnning ta'sirchanligini oshiruvchi muhim omillardan biridir. Jamol Kamol ushbu usuldan foydalanib, inson tafakkuridagi komillik va noqislik tushunchalarini obrazli tarzda qiyoslaydi. Natijada she'rning estetik mazmuni aynan lokutiv qatlamni tashkil etuvchi leksik birliklarning o'zaro munosabati orqali yuzaga keladi.

Diqqatga sazovor jihatlardan biri shundaki, muallif murakkab falsafiy g'oyani sodda va xalqona leksika vositasida ifodalaydi. Bu esa poetik semantikaning sun'iy murakkablik emas, balki lisoniy birliklarning kontekstual imkoniyatlari asosida shakllanishini ko'rsatadi.

Olingan natijalar Jamol Kamol she'riyatida lokutiv qatlam poetik semantikani shakllantirishning faol lisoniy mexanizmlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Tahlil qilingan she'riy matnda qo'llangan leksik birliklar dastlab o'zining lug'aviy ma'nosini ifodalasa-da, badiiy kontekst ta"sirida ular kengroq semantik va estetik mazmun kasb etadi. Demak, poetik ma'no matnga tashqaridan yuklanmaydi, balki uning lokutiv qatlamini tashkil etuvchi til birliklarining o'zaro munosabati va kontekstual bog'lanishi natijasida shakllanadi. Tahlil jarayonida "oqil", "nodon", "aql" va "noqis" kabi birliklarning semantik oppozitsiya hosil qilishi badiiy mazmunni yuzaga chiqaruvchi asosiy vositalardan biri ekanligi aniqlandi.

Mazkur birliklar nafaqat predmet yoki hodisani nomlaydi, balki muallifning falsafiy mushohadasini ifodalovchi konseptual tayanch vazifasini ham bajaradi. Shu jihatdan lokutiv qatlamni tashkil etuvchi leksik birliklar poetik semantikaning shakllanishida muhim funksional yuklamaga ega. Lingvopoetik nuqtayi nazardan qaralganda, Jamol Kamol poetik nutqining o'ziga xosligi oddiy lisoniy vositalar yordamida murakkab falsafiy mazmunni ifodalashida namoyon bo'ladi. Shoir so'z tanlashda sun'iy murakkablikka emas, balki umumiste'moldagi leksemalarning kontekstual imkoniyatlariga tayanadi. Natijada poetik semantika obrazlarning ko'pligi hisobiga emas, balki lisoniy birliklarning mazmuniy chuqurlashuvi orqali yuzaga keladi.

Mazkur kuzatishlar badiiy matnni tahlil qilishda lokutiv qatlamni faqat grammatik yoki leksik tizim sifatida emas, balki poetik mazmunni hosil qiluvchi dinamik semantik maydon sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi. Shu bois badiiy matnning shakliy va mazmuniy qatlamlarini alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda tadqiq etish lingvopoetik tahlilning metodologik samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot natijalari Jamol Kamol she'riyati misolida olingan bo'lsa-da, ular o'zbek poetik matnlarini lingvistik jihatdan o'rganishda ham nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Lokutiv qatlamning poetik semantikani yuzaga chiqarishdagi o'rnini

aniqlash badiiy matnning ichki mazmuniy mexanizmlarini chuqurroq anglash hamda ijodkor individual uslubining lisoniy asoslarini belgilash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari badiiy matnning lokutiv qatlami poetik semantikani shakllantiruvchi asosiy lisoniy qatlamlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Badiiy asarda qo'llangan leksik va sintaktik birliklar faqat nominativ yoki kommunikativ vazifani bajarib qolmay, balki kontekst ta'sirida yangi estetik va konseptual mazmun kasb etadi. Shu jihatdan lokutiv qatlam badiiy matnning shakliy asosigina emas, balki uning semantik va poetik yaxlitligini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Jamol Kamolning "Noqis aql hikoyati" she'ri tahlili shuni ko'rsatdiki, shoir poetik nutqida "oqil", "nodon", "aql", "noqis" kabi leksik birliklar o'zaro semantik munosabat hosil qilish orqali falsafiy mushohada va badiiy umumlashtirishni yuzaga keltiradi. Mazkur birliklarning kontekstual qo'llanishi natijasida lug'aviy ma'no poetik semantikaga transformatsiyalanadi hamda o'quvchining estetik idroki va tafakkuriga ta'sir etuvchi mazmun qatlamlari shakllanadi.

Tadqiqot davomida lokutiv qatlamni lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil qilish badiiy matnning ichki mazmuniy mexanizmlarini aniqlashda samarali metodologik yondashuv ekanligi asoslandi. Ushbu yondashuv ijodkorning individual uslubini, so'z tanlash tamoyillarini va poetik tafakkurining lisoniy ifodasini chuqurroq yoritish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot natijalari Jamol Kamol she'riyati misolida olingan bo'lsa-da, ular o'zbek badiiy matnlarini lingvopoetik va semantik jihatdan tadqiq etishda qo'llanishi mumkin bo'lgan nazariy hamda amaliy xulosalarni ham taqdim etadi. Kelgusida ushbu yo'nalishda poetik semantikaning konseptual asoslari, badiiy diskursning pragmatik xususiyatlari va muallifning individual poetik uslubi masalalarini qiyosiy aspektda o'rganish istiqbolli tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. М.: Языки русской культуры, 1999.
2. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. М.: Искусство, 1979.
3. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. СПб.: Искусство–СПБ, 1998.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология. М.: Академия, 2001.
5. Новиков Л.А. Художественный текст и его анализ. М.: Русский язык, 1988.
6. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. М.: Академический проект, 2004.
7. Чернейко Л.О. Лингвофилософский анализ художественного текста. М.: Флинта, 2010.
8. Jamol Kamol. Saylanma. Anvarmirzo hikoyatlari. V qism. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
9. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
10. Yo'ldoshev B. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.

Intizor UMAROVA,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

INTERMATNLILIKNI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITALAR: ALLYUZIYA, PRETSEDENTLI ONIMLAR VA KINOYA

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy matnda intermatnlikni yuzaga keltiruvchi asosiy poetik vositalardan allyuziya, pretsedentli onimlar va kinoyaning o'zaro munosabati hamda badiiy-semantik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Intermatnlik zamonaviy adabiy jarayonda matnning boshqa matnlar, madaniy kodlar, tarixiy voqeliklar, diniy-falsafiy manbalar va milliy xotira bilan aloqadorligini ta'minlovchi muhim poetik hodisa sifatida talqin etiladi. Maqola uchun Yuliya Kristevaning intertekstual munosabatlar haqidagi qarashlari, Roland Bartning matnlararo munosabat konsepsiyasi, Jerar Jenettning transteksuallik nazariyasi, Dmitriy Gudkov va Viktoriya Krasnixning pretsedent fenomenlari haqidagi ilmiy qarashlari nazariy asos bo'ldi.
Kalit so'zlar: intermatnlik, intertekstual poetika, allyuziya, pretsedent fenomen, pretsedentli onim, antroponim, kinoya, reminissensiya, intertekst, pretekst, madaniy xotira, badiiy obraz.
Annotation. This article analyzes the interrelationship and artistic-semantic potential of allusion, precedent names, and irony as the principal poetic devices that generate intertextuality in a literary text. Intertextuality is interpreted as an important poetic phenomenon in contemporary literary discourse that ensures the text's connection with other texts, cultural codes, historical realities, religious and philosophical sources, and collective cultural memory. The theoretical framework of the study is based on Julia Kristeva's views on intertextual relations, Roland Barthes's concept of textual interconnectedness, Gérard Genette's theory of transtextuality, and the scholarly approaches of Dmitry Gudkov and Viktoria Krasnykh to precedent phenomena.
Keywords: intertextuality, intertextual poetics, allusion, precedent phenomenon, precedent name, anthroponym, irony, reminiscence, intertext, pretext, cultural memory, literary image.
Аннотация. В статье анализируются взаимосвязь и художественно-семантические возможности аллюзии, прецедентных имён и иронии как основных поэтических средств, формирующих интертекстуальность в художественном тексте. Интертекстуальность рассматривается как важное поэтическое явление современного литературного процесса, обеспечивающее связь текста с другими текстами, культурными кодами, историческими реалиями, религиозно-философскими источниками и национальной памятью. Теоретическую основу исследования составили научные взгляды Юлии Кристевой на интертекстуальные отношения, концепция взаимоотношения текстов Ролана Барта, теория транстекстуальности Жерара Женетта, а также научные подходы Дмитрия Гудкова и Виктории Красных к изучению прецедентных феноменов.
Ключевые слова: интертекстуальность, интертекстуальная поэтика, аллюзия, прецедентный феномен, прецедентное имя, антропоним, ирония, реминисценция, интертекст, претекст, культурная память, художественный образ.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy matnni faqat uning ichki strukturasiga tayangan holda o'rganish yetarli emas. Har qanday badiiy asar muayyan adabiy, madaniy, tarixiy va estetik tajriba bilan munosabatga kirishadi. Yangi yaratilgan matnda avvalgi matnlarning mazmuniy, obrazli, motivik yoki lingvistik izlari turli darajada namoyon bo'lishi mumkin. Shu ma'noda intermatnlik badiiy tafakkurning tarixiy davomiyligi va matnlararo dialogini ifodalovchi muhim poetik hodisadir.

Demak, badiiy matnning semantik imkoniyatlari uning boshqa matnlar bilan aloqasi orqali kengayadi. Jerar Jenett intertekstual aloqalarni yanada tizimli ravishda tavsiflab, transteksuallik doirasida intertekstual, paratekstual, metatekstual, gipertekstual va arxitекстual munosabatlarni farqlaydi. Uning nazariyasida intertekstual munosabat bir matnning boshqa matn bilan bevosita yoki bilvosita "birga mavjudligi"ni anglatadi; bunday aloqa iqtibos, allyuziya va boshqa shakllarda yuzaga kelishi mumkin [3: 79–93]. Shu nuqtayi nazardan, intermatnlikni yaratishning alohida usullarini o'rganish zamonaviy nasr poetikasini anglash uchun muhimdir.

Xususan, **allyuziya, pretsedentli onimlar va kinoya** bir-biriga yaqin ko'rinsa-da, ular matnda turlicha mexanizm asosida faoliyat ko'rsatadi. Ularning umumiy jihati shundaki, uchalasi ham o'quvchini matndan tashqaridagi muayyan bilim, obraz, voqea yoki matn bilan aloqa o'rnatishga undaydi.

Allyuziya – intermatnlikning bilvosita ifoda shakli Allyuziya badiiy matnda boshqa bir matn, tarixiy voqea, mifologik syujet, mashhur shaxs, obraz yoki madaniy hodisaga bevosita nomlamasdan yoki to'liq bayon qilmasdan ishora qilish usulidir. Shu jihatdan allyuziyaning asosiy belgisi – ishoraning ixchamligi va uning ortida keng assotsiativ maydonning mavjudligi. Allyuziya orqali yozuvchi o'quvchining mavjud madaniy va adabiy bilimlariga murojaat qiladi. Birgina ism, ibora, detal yoki vaziyat ilgari ma'lum bo'lgan katta matnni o'quvchi xotirasida qayta faollashtirishi mumkin. Shu sababli allyuziya oddiy ishora emas, balki matnlararo ma'no hosil qiluvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

I.V.Arnold intertekstual birlikning matndagi joylashuvi ham uning semantik yukini belgilashini ta'kidlaydi. Xususan, intertekstual element sarlavha yoki epigraf tarkibiga kiritilsa, uning mazmuniy vazifasi matn ichidagi oddiy qo'llanishga nisbatan kuchliroq bo'lishi mumkin [4: 415–416]. Allyuziyani iqtibosdan farqlash muhim. Iqtibosda manba matnining muayyan qismi ko'proq aniq va tanib bo'ladigan tarzda qayta keltiriladi. Allyuziyada esa manba to'liq takrorlanmaydi; u faqat muayyan signal orqali chaqiriladi. Natijada o'quvchi ikki matn o'rtasidagi aloqani o'zi tiklaydi. Masalan, badiiy matnda "Majnun", "Farhod", "Shirin", "Layli", "Yusuf", "Zulayho", "Navoiy", "Fuzuliy" kabi nomlarning qo'llanishi ularning lug'aviy nomlash funksiyasidan ancha keng semantik imkoniyatga ega bo'lishi mumkin. Bunday nomlar orqali muhabbat, ayriliq, sadoqat, fidoyilik, ishq yo'lida iztirob, komillik kabi mazmuniy komplekslar faollashadi. Demak, allyuziya qisqa lingvistik birlik orqali katta madaniy mazmunni "siqilgan" holda matnga olib kiradi.

Intermatnlikning muhim vositalaridan yana biri **pretsedentli onimlardir**. "Pretsedentli ism" tushunchasi, ayniqsa, D.B.Gudkov tadqiqotlarida tizimli ilmiy kategoriya sifatida ishlab chiqilgan. Tadqiqotchi pretsedentli ismni nafaqat muayyan shaxsni nomlovchi birlik, balki keng tanilgan matn yoki vaziyat bilan bog'langan, shu sababli muayyan xarakteristik ma'noni ham ifodalay oladigan nom sifatida tavsiflaydi [5: 60–66]. V.V.Krasnix esa pretsedent fenomenlarni milliy-lingvomadaniy hamjamiyat vakillariga ma'lum, kognitiv va emotsional jihatdan dolzarb hamda nutqda qayta-qayta murojaat qilinadigan hodisalar sifatida tavsiflaydi [6: 44–45]. Bu yondashuv pretsedentli birliklarning oddiy nominativ birlik emasligini ko'rsatadi.

Pretsedentli onimning asosiy xususiyati shundaki, uning semantik tarkibi lug'aviy ma'nodan tashqari madaniy xotirani ham o'z ichiga oladi. Masalan, "Farhod" nomi faqat shaxs nomi sifatida emas, balki ishq, fidoyilik, mashaqqat, sadoqat va maqsad yo'lida kurashuvchi inson obrazining ramziy belgisi sifatida ishlatilishi mumkin. "Majnun" nomi esa oddiy antroponimlik chegarasidan chiqib, ishq yo'lida o'zligini unutgan oshiq obrazini ifodalashi mumkin.

Shunday qilib, pretsedentli onimning intermatnli imkoniyati uning assotsiativ sig'imi bilan belgilanadi. Bitta nom o'z ortida butun bir matn, sujet, obrazlar tizimi va qadriyatlar majmuasini olib keladi. Masalan, "Farhod" nomi ijobiy qahramon xarakterini yaratish uchun ishlatilishi mumkin, biroq muallif uni kinoyaviy kontekstda qo'llasa, nomning an'anaviy semantikasi bilan yangi qahramonning real xatti-harakati o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladi. Natijada pretsedentli onim bir vaqtning o'zida ham allyuziv, ham kinoyaviy vositaga aylanadi. Demak, pretsedentli onimlarning intermatn yaratishdagi imkoniyati ikki tomonlama: bir tomondan ular o'quvchi xotirasida mavjud bo'lgan madaniy obrazni chaqiradi; ikkinchi tomondan, yangi kontekst orqali ushbu obrazni qayta talqin qiladi.

Kinoya intermatnlik yaratishning eng murakkab shakllaridan biridir. Chunki kinoyada ma'no faqat aytilgan gapdan emas, aytilgan narsa bilan nazarda tutilgan narsa o'rtasidagi masofadan hosil bo'ladi. Intermatnli kinoyada esa bu masofa ikki yoki undan ortiq matn o'rtasida yuzaga keladi. Muallif avvalgi matnning mazmuni, obrazi, iborasi yoki syujet modelini yangi vaziyatga olib kiradi, biroq uni aynan takrorlamaydi. Natijada eski va yangi kontekst o'rtasidagi tafovut kinoyaviy ma'no hosil qiladi.

Masalan, adabiy an'anada komillik, sadoqat yoki qahramonlik bilan bog'langan mashhur obraz yangi matnda qo'rqoqlik, loqaydlik yoki manfaatparastlik bilan tavsiflangan qahramonga nisbatan qo'llansa, ikki ma'no o'rtasida keskin kontrast paydo bo'ladi. O'quvchi nomning an'anaviy semantikasini bilganligi sababli yangi qahramonning asl mohiyatini yanada kuchliroq anglaydi. Shu jihatdan kinoya intermatnni shunchaki "eslatish" bilan cheklanmaydi, balki uni baholaydi.

Zamonaviy o'zbek nasrida intermatnlik ko'pincha milliy adabiy xotira, Sharq mumtoz adabiyoti, diniy-falsafiy manbalar, xalq og'zaki ijodi va tarixiy-madaniy obrazlar bilan munosabat orqali yuzaga keladi. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Nizomiy, Dehlaviy, Hofiz kabi mumtoz adabiyot vakillari yaratgan obrazlar tizimi zamonaviy nasr uchun katta intermatnli imkoniyat yaratadi. Bunday holatda yozuvchi oldingi matnni qayta hikoya qilmaydi. Aksincha, avvalgi obraz yoki motivni zamonaviy hayot kontekstiga olib kirib, uning mazmunini o'zgartiradi. Natijada intermatnlik badiiy asarning mazmunini takrorlash emas, balki yangi ma'no ishlab chiqarish mexanizmiga aylanadi. Bu jihatdan zamonaviy o'zbek nasridagi intermatnlikni ikki asosiy yo'nalishda kuzatish mumkin:

1. Retrospektiv yo'nalish. Bunda yangi matn o'quvchini avvalgi adabiy yoki madaniy tajribaga qaytaradi. Allyuziya va pretsedentli onimlar ushbu vazifani bajarishda ayniqsa faol.

2. Transformativ yo'nalish. Bunda avvalgi matn yangi sharoitga ko'chiriladi va o'zining dastlabki ma'nosidan farqli mazmun kasb etadi. Kinoya, parodiya, travestiya va boshqa semantik o'zgartirishlar aynan shu yo'nalishda faoliyat ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan Omon Muxtor, Nabijon Boqiy va Bahodir Qobul kabi zamonaviy o'zbek nasri vakillarining ijodini o'rganishda intermatnlik vositalarini faqat "qaysi manbaga ishora qilingan?" degan savol bilan cheklash yetarli emas. Muhimi, manba yangi matnda qanday o'zgartirilgani, qanday funksiyaga ega bo'lgani va yangi semantik kontekstda qanday ma'no hosil qilganini aniqlashdir.

Intermatnlik zamonaviy badiiy tafakkurning muhim belgilaridan biri bo'lib, yangi matnning avvalgi adabiy, tarixiy, diniy va madaniy tajriba bilan munosabatini ta'minlaydi. Ushbu jarayonda allyuziya, pretsedentli onimlar va kinoya alohida poetik imkoniyatlarga ega. Allyuziya boshqa matn yoki madaniy hodisaga bilvosita ishora qilib, o'quvchi xotirasida mavjud bo'lgan pretekstni faollashtiradi. Uning samaradorligi o'quvchining madaniy-adabiy kompetensiyasi bilan chambarchas bog'liq.

Pretsedentonim esa oddiy nomlash birliklaridan farqli ravishda katta assotsiativ va madaniy-semantik yukni o'zida mujassamlashtiradi. U muayyan shaxs nomi orqali butun bir obraz, syujet, tarixiy voqea yoki madaniy stereotipni yangi matnga olib kirish imkonini beradi. Kinoya esa intermatnli munosabatni yangi bosqichga olib chiqadi. Unda avvalgi matnning mazmuni yoki obrazi yangi kontekstda qayta baholanadi. Natijada eski va yangi semantik qatlamlar o'rtasidagi nomuvofiqlik ironik mazmun hosil qiladi.

Shu jihatdan intermatnlikni o'rganishda "manbani aniqlash" bilangina cheklanmasdan, uning matnda qanday faollashgani, qanday transformatsiyaga uchragani va qanday poetik vazifa bajarganini aniqlash muhim ilmiy natijaga olib keladi. Ayniqsa, zamonaviy o'zbek nasrini tadqiq etishda mumtoz adabiyot, folklor, diniy-falsafiy manbalar va tarixiy xotira bilan bog'liq pretsedent birliklarning yangi badiiy kontekstda qayta semantizatsiyalanishini tizimli o'rganish intermatn poetikasining o'ziga xos milliy xususiyatlarini ochib berish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кристева Ю. Бахтин, слово, диалог и роман // Французская семиотика: От структурализма к постструктурализму. М.: Прогресс, 2000. – С. 427–457.
2. Барт Р. Смерть автора // Барт Р. Избранные работы: Семиотика. Поэтика. М.: Прогресс, 1994. – С. 384–391.
3. Женетт Ж. Палимпсесты: литература во второй степени // Женетт Ж. Фигуры: Работы по поэтике: в 2 т. М.: Изд-во им. Сабашниковых, 1998. – Т. 1. – С. 79–93.
4. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык. М.: Флинта: Наука, 2014.
5. Гудков Д.Б. Прецедентное имя и проблемы прецедентности. – М.: Изд-во МГУ, 1999.
6. Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология: курс лекций. М.: Гнозис, 2002. – 284 с.
7. Фатеева Н.А. Интертекст в мире текстов: Контрапункт интертекстуальности. М.: КомКнига, 2007.

Iqbola JAHONGIROVA,
O'zbekiston Milliy universiteti jurnalistika va o'zbek filologiyasi 2-bosqich magistranti

IJTIMOIY MEDIA DISKURSIDA MULTIMODAL DEZINFORMATSIYANING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi ijtimoiy media diskursida multimodal dezinformatsiyaning matn va vizual komponentlar uyg'unligida shakllanishining lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Matn, tasvir va sarlavhalarning semantik aloqasi hamda ularning manipulyativ mazmun va axborot talqiniga ta'siri yoritiladi.
Kalit so'zlar: dezinformatsiya, diskurs, multimodallik, kommunikatsiya, matnli kontent, lingvopragmatika.
Annotation. This article analyzes the linguopragmatic features of the formation of multimodal disinformation in the Uzbek language social media discourse in the combination of text and visual components. The study highlights the semantic relationship of text, images, and captions and their impact on manipulative content and information interpretation.
Keywords: disinformation, discourse, multimodality, communication, textual content, linguopragmatics.
Аннотация. В данной статье анализируются лингвопрагматические особенности формирования мультимодальной дезинформации в дискурсе социальных сетей на узбекском языке в сочетании текстовых и визуальных компонентов. Исследование освещает семантическую взаимосвязь текста, изображений и подписей, а также их влияние на манипулирование содержанием и интерпретацию информации.
Ключевые слова: дезинформация, дискурс, мультимодальность, коммуникация, текстовый контент, лингвопрагматика.

Ijtimoiy media platformalarida dezinformatsiyaning multimodal tarqalishini o'rganishda axborotning faqat mazmuniy jihatlarini emas, balki qanday kommunikativ shaklda taqdim etilishini ham hisobga olish zarur. Xususan, matn, tasvir, video, grafik va boshqa vizual elementlarning birgalikda qo'llanishi raqamli kontentning mazmuni va foydalanuvchi tomonidan talqin qilinishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli multimodal kommunikatsiya, media nazariyasi, raqamli platformalar va axborot manipulyatsiyasiga oid ilmiy adabiyotlar mazkur tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi.

Ijtimoiy media muhitida vizual materialga chalg'ituvchi sarlavha biriktirish, real tasvirni boshqa kontekstda qo'llash yoki manipulyatsiya qilingan vizual materialni ishonchli matn bilan birlashtirish kabi usullar dezinformatsiyaning ishonchlilik ko'rinishini kuchaytirishi mumkin. Umuman, tahlil qilingan adabiyotlar multimodal dezinformatsiyani faqat noto'g'ri matn yoki manipulyatsiya qilingan tasvir sifatida alohida o'rganish yetarli emasligini ko'rsatadi. Matn va vizual komponentlar birgalikda ma'no yaratishi, bir-birini kuchaytirishi yoki aksincha, ular o'rtasidagi nomuvofiqlik orqali foydalanuvchini chalg'itishi mumkin.

Mazkur tadqiqot ijtimoiy media platformalarida dezinformatsiyaning multimodal tarqalishini, xususan, matnli va vizual kontentning o'zaro bog'liqligi hamda ularning axborot mazmunini shakllantirishdagi rolini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi dezinformatsiyani faqat matn mazmuni orqali emas, balki matn, tasvir, video va boshqa vizual elementlarning birgalikdagi kommunikativ funksiyasi asosida o'rganishga tayanadi. Shu maqsadda tadqiqotda kontent tahlili, multimodal tahlil, qiyosiy tahlil va semiotik tahlil usullaridan foydalanildi.

Multimodal tahlil doirasida, avvalo, **matnli va vizual komponentlarning o'zaro munosabati** aniqlanadi. Bunda tasvir matndagi axborotni tasdiqlaydimi, uni kengaytiradimi, qo'shimcha ma'no beradimi yoki aksincha, foydalanuvchini chalg'ituvchi mazmun hosil qiladimi, degan savollarga e'tibor qaratiladi. Masalan, real voqeaga tegishli bo'lgan tasvir boshqa hodisa haqidagi matn bilan birlashtirilsa, tasvirning o'zi haqiqiy bo'lishiga qaramay, butun kontent noto'g'ri axborot mazmunini hosil qilishi mumkin.

Ijtimoiy media kontentida matn va tasvir ko'pincha yagona kommunikativ mazmunni shakllantiradi. Sarlavha, asosiy matn va unga biriktirilgan tasvir bir xil mazmuniy yo'nalishda tashkil etilganda, foydalanuvchi ularni alohida axborot birliklari sifatida emas, balki yaxlit xabar sifatida qabul qiladi. Bu xususiyat dezinformatsion kontentda ham faol qo'llanilishi mumkin. **Bir xillik nutq va yozuv sohalariga ham kirib bordi, natijada butun bir matn davomida o'quvchi va mavzuga nisbatan yagona ohang va munosabat keng tarqaldi.**

Mazkur fikrni raqamli multimodal kommunikatsiyaga nisbatan qo'llaganda, matnning ohangi va munosabati unga biriktirilgan vizual material orqali yanada kuchayishi mumkin. Masalan, xavf yoki qo'rquvni ifodalovchi matnga tegishli hissiy ta'sirga ega tasvir biriktirilganda, foydalanuvchida matnda ifodalangan munosabatga mos hissiy tasavvur shakllanishi ehtimoli ortadi. Ayrim hollarda tasvir faqat matnning hissiy ta'sirini kuchaytirishi yoki foydalanuvchining e'tiborini muayyan talqinga yo'naltirishi mumkin. Ijtimoiy media platformalarida kuchli hissiy reaksiya uyg'otuvchi kontent foydalanuvchining e'tiborini tezroq jalb qilishi va uni kontent bilan interaksiya qilishga undashi mumkin. Matn va vizual materialning birgalikda qo'llanilishi bunday ta'sirni yanada kuchaytirishi mumkin.

Insonning ongsiz tafakkuri boshqa shaxslarning maqsadlariga xizmat qiluvchi vosita sifatida nishonga olinishi birinchi marta sodir bo'layotgan hodisa emas. Propaganda va reklama har doim ham anglanmagan qo'rquvlar va istaklarga murojaat qilish uchun ishlab chiqilgan.

Raqamli platformalarda qo'rqinchli, hayratlantiruvchi yoki g'azab uyg'otuvchi tasvirga keskin sarlavhaning biriktirilishi foydalanuvchining axborotga nisbatan tezkor munosabat bildirishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda foydalanuvchi axborotning ishonchliligini tekshirishdan oldin uning hissiy mazmuniga munosabat bildirishi ehtimoli mavjud. Vizual material foydalanuvchida muayyan tasavvur yoki assotsiatsiyani yuzaga keltirishi mumkin.

Ijtimoiy media platformalarida dezinformatsiyaning keng tarqalgan shakllaridan biri real tasvir yoki videoni asl kontekstidan ajratib, boshqa voqea bilan bog'lashdir. Bunday holatda tasvirning o'zi soxta bo'lmasligi mumkin, biroq unga berilgan izoh yoki sarlavha foydalanuvchini noto'g'ri xulosaga olib keladi. Avvalgi yillarda olingan surat yangi voqea sifatida taqdim etilishi yoki boshqa hududda sodir bo'lgan hodisaga tegishli video boshqa vaziyat bilan bog'lanishi mumkin.

Bunday usulda dezinformatsiya tasvirni texnik jihatdan o'zgartirish orqali emas, balki uning kontekstini o'zgartirish orqali yuzaga keladi.

Shu sababli multimodal kontentni tekshirishda vizual materialning manbasi, yaratilgan vaqti, joyi va dastlabki konteksti aniqlanishi muhim. Tasvirning haqiqiyligi uning berilgan matn bilan birgalikda ham haqiqiy ma'no hosil qilishini avtomatik ravishda anglatmaydi. Raqamli platformalarda multimodal kontentning tarqalishi professional jurnalistikadagi axborotni tekshirish va taqdim etish standartlari bilan ham bog'liq. Professional jurnalistika manbaning ishonchliligi, faktlarning aniqligi, kontekstning saqlanishi va axborotning xolis taqdim etilishiga alohida e'tibor beradi. Ijtimoiy media muhitida esa bunday tahririy filtrlash jarayonlari har doim ham mavjud emas.

Umuman, ijtimoiy media platformalarida dezinformatsiyaga qarshi kurashish matnni yoki tasvirni alohida nazorat qilish bilan cheklanmasligi kerak. Multimodal kontentning o'ziga xosligi shundaki, uning chalg'ituvchi mazmuni ko'pincha **matn va vizual komponentlarning o'zaro birikishi** natijasida yuzaga keladi. Shu sababli kelgusida dezinformatsiyani aniqlash tizimlarini multimodal tahlilga moslashtirish, vizual verifikatsiya vositalarini takomillashtirish va foydalanuvchilarning media savodxonligini oshirish raqamli axborot muhitining ishonchliligini ta'minlashning muhim yo'nalishlari sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. – London; New York: Routledge, 1964.
2. Zuboff S. The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power. – New York: PublicAffairs, 2019.
3. Herman E.S., Chomsky N. Manufacturing Consent: The Political Economy of the Mass Media. – London: The Bodley Head, 2008.
4. Kress G., van Leeuwen T. Reading Images: The Grammar of Visual Design. 2nd ed. – London; New York: Routledge, 2006.
5. Chandler D. Semiotics: The Basics. 3rd ed. – London; New York: Routledge, 2017.

Dildora IBROGIMOVA,
Toshkent shahri Shayxontohur TIM ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

FRAZEOLOGIZMLARNING DRAMALARDA QO'LLANISHI VA UNING BADIIYATGA TA'SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada frazeologik birliklarning badiiy asarlarda, xususan, dramatik matnlarda qo'llanishi va ularning badiiy-estetik funksiyalari tahlil qilinadi. Frazeologizmlarning qahramon ruhiy holati, xarakteri, munosabati va dunyoqarashini ifodalash, dialog va monologlarning tabiiyligi hamda ta'sirchanligini ta'minlashdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, frazemalarning semantik, ekspressiv, baholovchi va pragmatik imkoniyatlari tahlil qilinib, ularning dramatik konflikt va badiiy obraz yaratishdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi. Abdurauf Fitratning "Abulfayzxon" va "Chin sevish" dramalaridagi frazeologik birliklar misolida ularning kontekstual-semantik xususiyatlari hamda lingvopoetik vazifalari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklar dramatik asarning xalqchilligi, tabiiyligi, obrazliligi va estetik ta'sirchanligini oshiruvchi muhim badiiy vosita ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: frazelogik birliklar, badiiy tasvir, asar tili, dialog va monolog, frazemalar semantikasi, drama.

Annotation. This article analyzes the use of phraseological units in literary works, particularly in dramatic texts, and examines their artistic and aesthetic functions. It focuses on the role of phraseological units in expressing the characters' psychological states, personalities, attitudes, and worldviews, as well as in enhancing the naturalness and expressiveness of dialogues and monologues. The semantic, expressive, evaluative, and pragmatic potential of phraseological units is also examined, with particular attention to their contribution to dramatic conflict and character construction. Based on examples from Abdurauf Fitrat's dramas "Abulfayzxon" and "Chin sevish", the study explores the contextual-semantic features and linguopoetic functions of phraseological units. The findings demonstrate that phraseological units serve as important artistic means for enhancing the national character, naturalness, imagery, and aesthetic expressiveness of dramatic works.

Keywords: phraseological units, artistic representation, language of literary works, dialogue and monologue, semantics of phraseological units, drama.

Аннотация. В статье анализируется употребление фразеологических единиц в художественных произведениях, в частности в драматических текстах, а также рассматриваются их художественно-эстетические функции. Особое внимание уделяется роли фразеологизмов в выражении психологического состояния, характера, отношения и мировоззрения персонажей, а также в обеспечении естественности и выразительности диалогов и монологов. Исследуются семантические, экспрессивные, оценочные и прагматические возможности фразеологических единиц, их значение в формировании драматического конфликта и художественных образов. На материале драм Абдурауфа Фитрата «Абулфайзхон» и «Чин севиш» выявляются контекстуально-семантические особенности и лингвопоэтические функции фразеологизмов. Результаты исследования показывают, что фразеологические единицы являются важным художественным средством, способствующим усилению национального колорита, естественности, образности и эстетической выразительности драматических произведений.

Ключевые слова: фразеологические единицы, художественное изображение, язык художественного произведения, диалог и монолог, семантика.

Badiiy asarlarda xalqona leksik birliklarning, xususan, maqol, matal va iboralarning qo'llanilishi uning badiiyatini, xalqchilligini va o'qishliligini ta'minlab beradi. Har qanday badiiy asarda voqealarni sodda va esda qolarli, shuningdek, ta'sirli qilib tasvirlashda muallif frazeologizmlardan foydalanadi. Ayniqsa, qahramonlar nutqida qo'llaniladigan bunday leksik vositalar qahramonning xarakteri, qiyofasi va ruhiy holatini aniq va ravshan ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Shu o'rinda frazeologizmlar nima ekanligi, tilshunoslik va adabiyotdagi o'rni hamda ta'rifi qandayligi haqida biroz to'xtalsak.

Frazeologizmlar – tilning obrazli va turg'un iboralari bo'lib, ular nutqning ta'sirchanligi, badiiyligi va obrazliligini oshirib beradi. Ular til tarkibida ma'nosi bir butun holda anglashiladigan, turg'un shaklga ega bo'lgan va ko'chma ma'noda qo'llaniladigan iboralardir.

Badiiy asarlarda iboralarning ishlatilishi quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Frazeologik birliklr badiiy ifodaning ta'sirchanligini oshiradi. Ular oddiy so'z birliklariga nisbatan obrazliroq bo'lib, matnga emotsional-expressiv bo'yoq beradi.

2. Qahramon xarakterini ochishga xizmat qiladi. Muallif qahramonning yoshi, dunyoqarashi, ijtimoiy mavqei va psixologik holatini frazemalar orqali tabiiy ifodalaydi.

3. Milliy madaniyat va tafakkurini aks ettiradi. Frazemalar xalqning urf-odatlari, qadriyatlari, hayotiy tajribasi, va dunyoqarashini o'zida mujassam etadi.

4. Matnning uslubiy yaxlitligini ta'minlaydi. Badiiy asarda frazemalarning o'rinli qo'llanishi matnning badiiy qimmatini va ifoda kuchini oshiradi.

5. Badiiy obraz yaratishda muhim vosita hisoblanadi. Ko'plab yozuvchi va dramaturglar frazemalar orqali ramziy va jonli tasvirlar yaratadilar.

6. Nutqni tabiiy va jonli qiladi. Ayniqsa diolog va monologlarda qo'llanilgan frazemalar qahramon nutqini hayotiy va ishonarli ko'rsatadi.

7. Muallifning individual uslubini namoyon etadi. Har bir ijodkor frazemalarni tanlash va qo'llash usuli orqali o'ziga xos badiiy uslub yaratadi.

8. Semantik yukni kuchaytiradi. Frazema ko'chma ma'no orqali qisqa shaklda chuqur mazmunni ifodalaydi, shu sababli matnning mamuniy zichligi ortadi.

Frazelogizmlarning asosiy xususiyatlari:

– **Turg'unlik** – tarkibidagi so'zlar odatda o'zgarmaydi.

– **Ko'chma ma'no** – ma'nosi alohida so'zlar ma'nosidan kelib chiqmaydi.

– **Obrazlilik** – fikrni jonli va ta'sirchan ifodalaydi.

– **Nutqda tayyor holatda qo'llaniladi** – yangi tuzilmaydi, tayyor birlik sifatida qo'llaniladi.

Misollar:

Ko'zi ochildi – haqiqatni anglab yetdi.

Yuragi orqasiga tortdi – juda qo'rqdi.

Boshi osmonga yetdi – xursand bo'ldi.

Qo'y og'zidan cho'p olmagan – juda yuvosh.

Yuqorida ko'rganimizdek, qaysidir harakat-holat, vaziyat yoki xususiyatni ifodalashda ma'nosi bir so'zga teng bo'lgan, ko'chma ma'noda qo'llanadigan frazeologik birliklardan foydalanish nutqni anchagina ta'sirli va boyroq ko'rsatadi.

Adabiy asarlarda, ayniqsa, dramalarda frazemalarni o'rinli va mahorat bilan qo'llay bilish uning badiiy darajasini anchagina oshiradi.

Frazeologik birliklar badiiy matnning mazmuniy va uslubiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim til vositalaridan biridir. Ayniqsa, dramatik asarlarda frazemalarning qo'llanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki drama janrida muallif nutqi nisbatan cheklangan bo'lib, qahramonlarning xarakteri, ruhiy holati, dunyoqarashi va o'zaro munosabati, asosan, dialog va monologlar orqali ochib beriladi. Shu sababli frazemalar ixcham shaklda katta mazmuniy yukni ifodalash imkonini beradi.

Frazeologiya masalalarini o'rgangan tilshunoslardan Sh. Rahmatullayev frazeologik birliklarning asosiy belgilaridan biri sifatida ularning "semantik jihatdan bir butunlik" xususiyatini ta'kidlaydi. Frazeologik birlik tarkibidagi so'zlar alohida-alohida ma'noda emas, balki yaxlit holda bir umumiy ma'noni anglatadi. Shu jihatdan frazemalar oddiy so'z birikmalaridan farq qilib, badiiy nutqda ko'chma, obrazli va ta'sirchan ma'no ifodalash imkoniyatiga ega.

Frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari haqida V.V.Vinogradovning frazeologizmlarni semantik jihatdan tasniflashga oid qarashlari ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Olim frazeologik birliklarni frazeologik chatishmalar, frazeologik butunliklar va frazeologik birikmalarga ajratadi. Mazkur tasnif frazemalar ma'nosi tarkibidagi komponentlarning mustaqil ma'nosidan qanchalik uzoqlashganini aniqlash imkonini beradi.

Dramatik asarda frazemalarning birinchi va asosiy semantik vazifasi qahramonning ruhiy holatini ifodalashdan iborat. Masalan, "yuragi orqasiga tortmoq", "ko'ngli cho'kmoq", "boshi qotmoq", "ko'ngliga tegmoq" kabi frazemalar qahramonning qo'rquv, tushkunlik, ikkilanish yoki ruhiy bezovtaligini ixcham tarzda ifodalashi mumkin. Bunday birliklar orqali muallif qahramonning ichki kechinmalarini uzoq tasvirlamasdan, bitta frazeologik birlik vositasida o'quvchiga yetkazadi.

Frazemalarning ikkinchi muhim vazifasi qahramon xarakterini ochishdir. Shaxsning "tili uzun", "qo'li ochiq", "ko'ngli toza", "ichi qora", "burni ko'tarilgan" kabi frazemalar bilan tavsiflanishi uning muayyan xarakter xususiyatlarini anglatadi. Bunda frazemaning lug'aviy ma'nosidan ko'ra kontekstual-semantik imkoniyati muhimroq bo'ladi. Natijada qahramonning fe'l-atvori bevosita ta'riflanmay, obrazli tarzda namoyon qilinadi.

Dramatik asarlarda frazemalar munosabat va baho ifodalash vazifasini ham bajaradi. Qahramonning boshqa bir personajga nisbatan "ko'ngli qolmoq", "joniga tegmoq", "ko'ziga issiq ko'rinmoq", "yuragidan joy olmoq" kabi iboralarni qo'llashi uning suhbatdoshiga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabatini bildiradi. Demak, frazema nafaqat predmet yoki harakatni, balki unga nisbatan subyektiv munosabatni ham ifodalash imkoniyatiga ega.

Frazemalarning yana bir muhim semantik vazifasi baholashdir. Badiiy nutqda muallif yoki personaj biror shaxs, hodisa yoki vaziyatga munosabatini frazeologik birlik yordamida ifodalashi mumkin. Masalan, "ko'zbo'yamachilik qilmoq", "burnidan baland gapirmoq", "o'zini osmondan olib gapirmoq" kabi birliklar personajning xatti-harakatiga salbiy baho yuklaydi. Shu sababli frazemalar dramatik konfliktni kuchaytirish va personajlar o'rtasidagi munosabatlarni semantik jihatdan aniqroq ko'rsatishda xizmat qiladi.

Dramaturgik matnda frazemalar dialogning tabiiyligi va xalqchilligini ta'minlash vazifasini ham bajaradi. Jonli so'zlashuvga xos iboralarning personajlar nutqida qo'llanishi ularning ijtimoiy-madaniy muhitini, dunyoqarashini va nutqiy individual xususiyatlarini ko'rsatadi. Shu sababli frazemalar personaj nutqining o'ziga xosligini yaratishda muhim vosita hisoblanadi.

Frazemalarning semantik imkoniyatlari kontekst bilan chambarchas bog'liq. Bir frazeologik birlik turli vaziyatlarda turlicha ma'no ottenkalarini hosil qilishi mumkin. Ayniqsa, dramatik matnda personajning ohangi, suhbatdoshining munosabati, vaziyat va boshqa nutqiy birliklar frazemaning mazmunini konkretlashtiradi. Shuning uchun frazemani faqat lug'aviy ma'nosi asosida emas, balki kontekstual-semantik jihatdan tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, dramatik asarlarda frazemalar yashirin ma'no va tagma'noni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Personaj ayrim hollarda o'z fikrini bevosita aytmasdan, frazeologik birlik orqali kinoya, kesatiq yoki istehzoni ifodalashi mumkin. Bunday holatda frazemaning nominativ ma'nosidan tashqari, pragmatik-semantik qatlami ham yuzaga keladi. Bu esa dialogning mazmuniy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Demak, dramatik asarlarda frazemalar oddiy tayyor til birliklari sifatida emas, balki semantik, ekspressiv, baholovchi, xarakterologik va kommunikativ vazifalarni bajaruvchi badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ular qahramonning ruhiy holati, xarakteri, munosabati va dunyoqarashini qisqa, obrazli va ta'sirchan shaklda ifodalashga imkon beradi. Shu jihatdan frazemalarning dramatik matndagi funksional-semantik xususiyatlarini o'rganish nafaqat frazeologiyaning, balki badiiy matn lingvistikasining ham muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, dramatik asarlardagi frazemalarni semantik jihatdan ruhiy holatni ifodalovchi, xarakterlovchi, baholovchi, munosabat bildiruvchi, kinoyaviy-istehzoli hamda nutqni ekspressivlashtiruvchi birliklarga ajratib tahlil qilish mumkin. Bunday tasnif frazemalarning asar g'oyasi, obrazlar tizimi va dramatik konfliktni shakllantirishdagi rolini yanada aniqroq ochib beradi.

"Frazeologik stilistika" atamasi hamdo'stlik mamlakatlari tilshunosligida 60-yillardan qo'llana boshlangan. Dastlab bu atama A.V.Kunin va V.L.Arxangelskiy asarlarida ishlatilgan (91, 13; 92, 16, 135). Keyinchalik bu atamadan boshqa tilshunos va adabiyotshunos tadqiqotchilar ham foydalanganlar. Jumladan, V.L.Arxangelskiy uslubiy jihatdan muvofiq va uslubiy nomuvofiq frazeologik variantlarni tizimlashtirish bilan frazeologik stilistika shug'ullanishi lozimligini ta'kidlagan.

"Lingvistik stilistika muammolari" mavzusida o'tkazilgan ilmiy anjumanda (1969) A. V. Kunin "Frazeologik stilistikaning asosiy tushunchalari" degan ma'ruza bilan chiqish qilgan. Uning ta'kidlashicha, frazeologik uslubiyat umumiy uslubiyatning tarkibiy qismi bo'lib, frazemalarning semantik xususiyatlarini o'rganadi. Frazemalarning uslubiy tarkibi frazeologiyaning ham tarkibiy qismi sanaladi.

Frazemalarning semantik xususiyatlari va ularning badiiy adabiyotdagi o'rni mavzusi yuzasidan bir qancha tilshunos olimlar, xususan, Sh.Rahmatullayev "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari", M.Sodiqova, B.Yo'ldoshev "Frazeologik uslubiyat asoslari", A.Mamatov "O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari", B.Yo'ldoshev, T.Qurbonov "Badiiy asar tili va uslubi masalalari" singari ilmiy asarlarida tahlil va talqin etilgan.

Turg'un birikmalar adabiyotshunoslikda ham, tilshunoslik sohasida ham keng o'rganilgan. Xususan, badiiy matnda qo'llaniladigan iboralarning semantikasi alohida tahlil ostiga olinadi. Frazemalar matn tarkibida muallif nuqtayi nazariga ko'ra ayrim hollarda o'zgarishga uchragan holda ham ishlatiladi. Badiiy matnda eng ko'p uchraydiganlari quyidagilardan iborat:

1. Ibora tarkibidagi ayrim so'zlarni almashtirish. Yana uch kun jim turib bersangiz, mulla mingan velosipeddek yuvosh bo'lib qolasiz. (S. Ahmad) Mingboshining falon-falonlari bizni ko'ziga iladimi? – deb xabar ham qilmabmiz. Nega indamaysanlar? Og'zingga paxta tiqdingmi, hammang? Dunyoda o'z oyog'iga o'zi bolta chopadigan ahmoq ham bo'ladimi? (Cho'lpon)

2. Ibora tarkibini kengaytirish. Bunda ibora tarkibiga yangi so'z kiritiladi. Tilimizda *jar solmoq* iborasi mavjud. Cho'lpon uni *qo'shkarnayi bilan jar solmoq* tarzida kengaytiradi: "Mingboshilikni tortib olib, el ko'zida tamom sharmanda qiladiganday! Abdisamat bilan Yodgor echki, Umarali puchuqlar yana qo'shkarnayi bilan jar soladiganday".

3. Ibora tarkibini qisqartirish. Ibora tarkibidagi ayrim so'zlarni tushirib qo'llash tildagi tejamkorlik talabi bilan amalga oshiriladi. Ammo yozuvchilar bundan o'z badiiy-lisoniy maqsadlariga ko'ra foydalanadilar. Tilimizda *qo'lini yuvib qo'ltig'iga urmoq* iborasi mavjud bo'lib, uning ma'nosi "ixlosi qaytib, ishonmay qo'yib, diqqat-e'tibordan soqit qilmoq" tarzida izohlanadi. Cho'lpon "Kecha va kunduz" romanida uni mana bunday qisqartirilgan holda qo'llaydi: "Undan keyin, qishloq odamlarining shunaqa o'zboshimcha harakatlariga yo'l qo'yib bersak, oz vaqt ichida qishloqdan qo'l yuvishimiz kerak bo'ladi". Bu iboraning noyib to'ra nutqida *qo'l yuvmoq* tarzida qisqarishi nafaqat shakl ixchamligi uchun, balki ma'no siljishi uchun ham xizmat qilgan. Noyib to'raning "voqealar shu taxlit davom etsa, oz vaqt ichida biz qishloqni tashlab chiqishimizga to'g'ri keladi" demoqchi ekanligi mazkur ibora orqali ta'kidlangan. Bundan ko'rish mumkinki, ayni iboraning qisqargan varianti "tashlab chiqmoq", "ajralmoq", "qochib qolmoq" kabi yangi ma'no qirralari bilan matn badiiyatini boyitgan.

Badiiy asarda qo'llanilgan iboralarni o'rganishda bir asar doirasidagi frazemalar miqdorini (fondini) aniqlash va xarakterli xususiyatlariga qarab tasniflash, ularni struktural-semantik jihatdan tavsiflash hamda matndagi vazifasini tekshirish lingvopoetik tahlil talablaridan hisoblanadi. Ana shunday tahlilda yozuvchining imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklaridan foydalanish mahorati ham namoyon bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, badiiy matnda, umuman, yozma va og'zaki matnlarda frazemalar qo'llanilganda, bu birliklar bir qator vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarning bir guruhi uzual, ya'ni lisoniy xarakterga ega bo'lsa, qolganlari okkazional, ya'ni nutqiy (uslubiy) vazifalardir.

Drama adabiyotning harakat va nutq yetakchilik qiladigan o'ziga xos turidir. Sahnada ijro etishga mo'ljallab yoziladigan bunday asarlarda qahramonlar nutqi asosiy ochib beruvchi omillardan hisoblanadi. Dramalarda voqealar monolog va dialoglar orqali rivojlanadi. Bunda muallif bayoni juda kam o'rinda uchraydi. Dramalar uch turga bo'linishini hisobga olsak, ularda qo'llaniluvchi frazeologik birliklar ham o'z semantikasiga ko'ra har birida har xil tarzda ishlatiladi.

Masalan, dramaturgiyaning komediya yo'nalishida, asosan, xalq tilidagi sodda, yumoristik va xalqchil iboralar qo'llanadi. Chunki kulgili vaziyat va xarakter-xususiyatlarni oddiy so'zlar emas, balki frazemalar, ya'ni iboralar va matallar yanada ta'sirliroq ifoda etadi. Tragediyalarda esa keskin, achchiq va qattiq ma'noli iboralar ko'proq ishlatiladi. Shunday qilib, badiiy asarlarda, xususan, dramatik asarlarda frazemalarning qo'llanilishi va uning badiiyatiga estetik ta'sir qilishi ham adabiyotshunoslik, ham lingvistik tomondan o'rganishga ehtiyoj seziladigan mavzu sifatida ko'rilishi mumkin.

Dramaturgiyada tamal toshlarini qo'ygan jadid adabiyoti vakillari, xususan, Abdurauf Fitrat dramalariga alohida e'tibor qaratib, u ijod etgan "Abulfayzxon", "Chin sevish", "Shaytonning tangriga isyoni", "Hind ixtilochilari" kabi dramalar misolida frazeologizmlarning qo'llanilish o'rinlari va ularning semantik xususiyatlarini ko'rib chiqish mumkin. Barcha dramatik asarlarda bo'lgani kabi, Fitrat ham dramaturg sifatida o'z qahramonlarining vaziyati, nutqi va xarakterini yoritish uchun xalq leksikasidan unumli foydalangan. "Abulfayzxon" dramasi misolida bir necha o'rinlarni tahlilga tortish mumkin.

"Chin sevish" dramasi misolida adabiy asarda frazemalar tahlilini ko'rib chiqish mumkin. Badiiy matnning mazmuniy-estetik yaxlitligini ta'minlashda frazeologik birliklar muhim lisoniy vositalardan biri hisoblanadi. Frazeologizmlar oddiy nominativ birliklardan farqli ravishda voqea-hodisani bevosita atabgina qolmay, unga nisbatan muallif yoki personajning munosabatini, hissiy holatini, bahosini va kommunikativ maqsadini ham ifodalash imkoniyatiga ega.

Ayniqsa, dramatik asarlarda frazeologik birliklarning ahamiyati yanada ortadi. Chunki drama muallif nutqidan ko'ra personajlar dialogi va monologlariga tayanadi. Shu bois qahramonning xarakteri, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy pozitsiyasi ko'pincha uning nutqida qo'llangan turg'un birliklar orqali namoyon bo'ladi.

Abdurauf Fitrat dramaturgiyasida xalq tiliga xos iboralarning faol qo'llanishi ana shu jihatdan e'tiborlidir. Tadqiqotchilar Fitrat dramalaridagi frazeologizmlarni lingvopoetik birlik sifatida baholab, ularning personaj nutqini individuallashtirish, xalqchillik va tabiiylikni ta'minlash, estetik ta'sirchanlikni kuchaytirishdagi vazifasini ta'kidlaydilar.

"Chin sevish" dramasida ham frazeologik birliklar faqat tayyor til materiali sifatida emas, balki dramatik konflikt, ruhiy holat va g'oyaviy mazmunni ochishga xizmat qiluvchi semantik-badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Frazemalarning semantik tabiatini tahlil qilishda ularning denotativ, konnotativ, emotsional-ekspressiv va pragmatik ma'no qatlamlariga e'tibor qaratish lozim. Chunki badiiy matnda frazeologizmning lug'aviy ma'nosi uning kontekstual ma'nosi bilan to'liq teng kelmasligi mumkin.

Personaj nutqida qo'llangan ibora muayyan vaziyat ta'sirida qo'shimcha ma'no kasb etib, qahramonning ichki dunyosini ochishga xizmat qiladi. "Chin sevish" dramasidagi "yuragimdagi dardlarni tilimga..." tarzidagi ifoda bunga yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur birikmada "yurak" insonning anatomik a'zosi ma'nosida emas, balki ichki kechinma, his-tuyg'u va ruhiy holat markazi sifatida metaforik mazmun kasb etadi. "Yuragidagi dard" birikmasi qahramonning ichida yashiringan iztirob va kechinmalarni anglatadi. "Tilga olmoq" mazmuni bilan birlashganda esa yashirin ruhiy holatning nutq orqali tashqi ifodaga chiqishi yuz beradi.

Demak, mazkur frazeologik qurilmaning semantik strukturasi "ruhiy kechinma + uni oshkor etish" mazmuniy munosabatiga asoslanadi. Uning dramatik vazifasi esa qahramonning ichki holatini bevosita izohlab berishdan ko'ra, obraz nutqi orqali tabiiy ravishda yuzaga chiqarishdan iborat.

Shuningdek, dramada uchraydigan "og'iz ochmaydir" birikmasi ham semantik jihatdan e'tiborga loyiq. Mazkur ibora tarkibidagi "og'iz" komponenti o'zining anatomik ma'nosidan chekinib, gapirmaslik, sukut saqlash, fikrini oshkor qilmaslik mazmunini ifodalaydi. Shu jihatdan frazemaning asosiy semantik yadrosi "sukut" tushunchasi bilan bog'lanadi. Biroq kontekstda u oddiygina jim turish holatini emas, balki qahramonning ma'lum bir vaziyatda o'z fikrini yashirishi, ruhiy bosim ostida qolishi yoki muayyan sabab bilan gapirishdan

tiyilishini anglatishi mumkin. Demak, frazemaning kontekstual ma'nosi uning lug'aviy-semantik mazmunini konkretlashtiradi.

"Boshingsizni og'ritib" shaklidagi iborada esa jismoniy og'riqdan ko'ra bezovta qilish, tashvishga solish, noqulaylik tug'dirish kabi ko'chma mazmun ustunlik qiladi. Bu kabi frazeologik birliklarda insonning jismoniy holati bilan bog'liq komponentlar abstrakt ruhiy-ijtimoiy munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. "Bosh" komponenti insonning fikrlashi, ruhiy holati va tashvishlari bilan assotsiativ bog'lanib, butun birikma orqali "birovga ortiqcha tashvish keltirish" mazmuni yuzaga keladi. Shu sababli bunday ibora dialogning tabiiyligini ta'minlash bilan birga, personajlar o'rtasidagi munosabatni ham ifodalash imkonini beradi.

Dramadagi "qo'lga tushurib" birikmasi ham frazeologik semantikaning kontekst ta'sirida faollashishini ko'rsatadi. "Qo'l" komponentining bevosita tana a'zosi ma'nosi ikkilamchi planga o'tib, "tutib olish, tasarrufiga kiritish, qo'lga kiritish" kabi ko'chma ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

"Abulfayzxon" dramasi qahramonlari dialoglarida qo'llangan quyidagi frazeologik birliklar qahramonlar vaziyati va keskin holatlarni ochib berishda badiiy ahamiyat kasb etgan:

- *"Men Eron qo'shinini qaytardim deb kattalik qilmag'anim kabi Nodir shohg'a elchilar yuborib, xabarlashib-da turmadim.*
- *Otam sotib olgan qullar Ulfat bilan Davlat. Ko'ringiz-chi, chizgan chizig'imdan chiqadilarmi?*
- *Meni bir ota kabi asragan Farhod otaliqning boshini oyoqlar ostida ko'rdim. Ko'zlarim qonga to'ldi.*
- *Sizning tilingiz ostida bir nima bor. Aytmaysiz.*
- *Ularning ko'nglida yomonliq bir ilon og'zinda og'u kabi joylashib qolgan.*
- *Uxlaydir, sho'rim qursin. Dunyoning qora chiziqlarini o'qimoq uchunmi keldim men.*
- *Biringizni motam ingrashlari, yana biringizni to'y cholg'ularini kuylatadi" [3].*

"Abulfayzxon" dramasi qahramonlari dialoglarida qo'llanilgan ushbu frazeologik birliklar qahramonlarning ruhiy holati, munosabati va keskin vaziyatlarini ochib berishda muhim badiiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur birliklar personajlar nutqining tabiiyligi va ta'sirchanligini oshirish bilan birga, dramatik vaziyatning emotsional kuchini ham kuchaytiradi.

Umuman, frazeologik birliklar badiiy matnning mazmuniy-estetik yaxlitligini ta'minlashda muhim lisoniy vosita hisoblanadi. Ayniqsa, dramatik asarlarda frazemalarning qo'llanishi qahramonlarning ruhiy holati, xarakteri, dunyoqarashi va o'zaro munosabatlarini ixcham, obrazli hamda ta'sirchan shaklda ifodalash imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, frazemalar dramatik matnda faqat nominativ vazifani bajarib qolmay, balki ekspressiv, baholovchi, xarakterologik, kommunikativ va pragmatik funksiyalarni ham bajaradi. Ularning kontekstual imkoniyatlari personaj nutqining mazmunini chuqurlashtirib, dramatik konflikt va badiiy obrazlarning yanada yorqin namoyon bo'lishiga xizmat qiladi.

Abdurauf Fitrat dramalaridagi frazeologik birliklar ham xalq tilining boy imkoniyatlaridan badiiy maqsadda foydalanilganini ko'rsatadi. Shu sababli frazeologizmlarning dramatik asarlardagi semantik va lingvopoetik xususiyatlarini o'rganish badiiy matn lingvistikasi hamda frazeologiya uchun muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A. Frazeologizmlarning badiiy matndagi o'rni // O'zbek tili va adabiyoti, 2022.
2. Abdurauf Fitrat. Abulfayzxon dramasi. Москва, 1924.
3. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
4. Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: O'zbekiston, 1936.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
6. Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand, 1999.
7. Abdusaidov A. Frazeologizmlar – matbuot tilida ta'sirchan vosita. – Samarqand: SamDU nashri, 2001.

R.Kudiyarova
Nukus davlat pedagogika instituti assistent o'qituvchisi

SAYLOVBOY JUMAG'ULOV ASARLARIDA FOYDALANILGAN FOLKLOR OBRAZLAR

Annotatsiya. Maqolada Saylovboy Jumag'ulov ijodidagi xalq og'zaki ijodi va undagi yumor masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Qoraqalpoq adabiyotida O'mirbek obrazi kulgili so'z ustasi sifatida taniqli. Yozuvchi O'mirbek obrazini yanada takomillashtirib, yozma adabiyotda uning obrazini yaratgani haqida so'z yuritiladi.
Kalit so'zlar: yumor, folklor, motiv, g'oya, obraz, konflikt.
Annotation. The article focuses on the issue of folklore and humor in the works of Saylovboy Jumag'ulov. In Karakalpak literature, the character of Omirbek is known as a master of humorous expressions. The article discusses how the writer further developed the character of Omirbek and created his image in written literature.
Keywords: humor, folklore, motif, idea, character (or image), conflict.
Аннотация. В статье рассматривается проблема фольклора и юмора в творчестве Сайловбоя Жумагулова. В каракалпакской литературе образ Омирбека известен как мастер смешного слова. В статье рассматривается, как писатель усовершенствовал образ Омирбека и создал его образ в письменной литературе.
Ключевые слова: юмор, фольклор, мотив, идея, образ, конфликт.

Saylovboy Jumag'ulovning ijodi o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Adib o'z asarlari bilan xalqimiz qalbidan mustahkam o'rin egallagan. Chunki uning asarlari badiiy jihatdan yuksak darajada yozilgan. Ularda turli badiiy tasvir vositalari, folklor obrazlari, folklor motivlari, ko'chma obrazlar mohirona qo'llanilgan. Qaysi shoir yoki yozuvchini olib qaramaylik, u folklor asarlari namunalaridan foydalanmay ijod qilmaydi. Chunki folklor asarlari badiiy adabiyotning tayanch vazifasini bajaradi. Shunday ekan, S.Jumag'ulov ham o'z asarlarida folklorik obraz hisoblangan O'mirbek obrazini yanada to'ldiradi va takomillashtiradi.

Saylovboy Jumag'ulovning asarlarida folklorik obrazlar ko'plab uchraydi. Bundan yozuvchining xalqimizning boy milliy merosi bo'lgan xalq og'zaki ijodi bilan yaqindan tanish ekanligini, uni yaxshi va mukammal bilishini anglaymiz. Biz bu maqolamizda yozuvchining "Biletning yarmi kimda?" nomli kitobidagi folklor obrazi hisoblangan O'mirbek laqqi haqida so'z yuritmoqchimiz. O'mirbek laqqi qoraqalpoq adabiyotida kulgili so'zlarning notig'i deb ta'riflanadi. "O'mirbek latifalarining bir siri, muallif kulgisi o'sha o'zi o'ylagan voqea mazmunidan, konflikt xarakteridan voqealar oqimini keltirib chiqaradi. Uning topgan kulgisi voqeaning shiddatiga, turmushda uchraydigan xarakterlarga, hayot dialektikasiga hech qachon qarshi kelmaydi. Bu ba'zi odamlar bo'yidagi yengil-yelpi xato-kamchiliklarni yo'q qilishga, shu orqali odamlar bo'yidagi yukni yengillatishga yordam beradi" [5: 16].

O'mirbek laqqi tarixda bo'lgan odam. Uning notiqlik, uchirma so'zlarini, kulgili gaplarini xalqimiz bugungi kunimizgacha o'zlarining adabiy-badiiy xazinasi sifatida terib, yig'ib, unutmay, otadan bolaga o'tkazib saqlab kelgan. S.Jumag'ulov ham O'mirbek laqqi obrazini yanada chuqurroq ochib berish maqsadida avvalgi gazeta-jurnallar sahifalarida e'lon qilingan qisqa uchirma so'zlarini, hazillarini O'mirbek laqqi nomiga bog'lab qayta ishlab chiqqan. Muallif O'mirbek laqqining bolalik va ulg'aygan paytidagi qiziqarli voqealarini kulgili so'z sifatida olib qaragan.

S.Jumag'ulovning mazkur kitobiga kirgan "Ikki raqami oshib ketibdi-ya..." hazil so'zini olib qaraylik:

– "Qo'zichog'im, ana kelayotgan sakkizinchi avtobus emasmi? – debdi birovga O'mirbek qarigan chog'ida.

– Yo'q, ota. U o'ninchi degan avtobus!

– Voy, qolib ketgur-ey! – debdi O'mirbek chol soqolini silab. – Ikki soni oshib ketibdi-da!" [4: 23].

Bugungi kun turmushidan kelib chiqqan bu hazil so'zning ma'nosiga e'tibor qaratsak, kichkina bolalarga sanashni o'rgatgandek bo'ladi.

"Uzoq yashaydigan qushlar": "O'mirbekning o'quvchi kunlari ekan. Bir kuni u o'qiydigan sinfga tekshiruv kiribdi. O'qituvchi bir payt sinf o'quvchilariga:

– Qani, kim aytadi? Eng ko'p yashaydigan qushlar qaysilar? – deb o'rtaga savol tashlabdi: Shunda oxirgi partada o'tirgan O'mirbek gapirishga ruxsat olibdi-da:

– Eng ko'p yashaydigan qushlar o'lkashunoslik muzeyidagi qushlar! – deb javob beribdi" [4: 15].

Bu olingan hazil so'zimiz yengil kulgiga qurilgan. Yana O'mirbekning shaxsiyatidagi bir xarakterli belgi shundan iboratki, u o'yiga, tiliga nima kelsa, uni yashirib saqlab qolmagan. Bu ham laqqalardagi ajoyib, o'ziga xos xususiyatlardan biri. O'mirbek o'yi bilan qanday kulgili, hazil, qiziq gaplar aytilmasin, uning zamirida katta xalqchil g'oya yotadi.

"Omirbek anekdotları" deb atalgan kitobga kirgan mana bu misolni olib qaraylik:

"O'mirbek o'g'liga choy damlab berib turib:

– Piyolani sindirib olma, – deb bir shapaloq uribdi. Buni ko'rgan xotini:

– Hoy, dadasi-ey, kosa singani yo'q, ammo bolani nega urasan? – debdi. Shunda O'mirbek:

– Sening esing ketgan ayol ekansan. Kosani sindirib olgandan keyin urishning nima hojati bor, – debdi" [2: 24].

Ammo S.Jumag'ulovning to'plamiga kirgan shu voqea bilan bog'liq hazil so'zida, aksincha, xotini har kuni likopchalarni sindiraverar ekan. Unga qo'shnisi

– Uyingda sinmagan tarelka qoldimi?" – deganda, O'mirbek:

– Faqat sinmagan ikkitasi qolgan", – deb javob beradi. U ham bo'lsa, ikkovining ovqat yeydigan tarelkasi bo'lsa kerak.

"Har o'nta jo'jaga bitta o'lgan jo'ja" anekdotida esa O'mirbek laqqining topqirligi ko'zga tashlanadi, chorasiz qolgan vaziyatdan chiqish kabi fazilatlari yengil kulgi bilan ochib beriladi. Masalan, "O'mirbek laqqi tovuq fermasiga ombor boshlig'i bo'libdi. Bir kuni inkubatordan olib kelingan ko'p jo'jalar o'lib, uning bo'yniga tushadigan bo'libdi. U shulardan qutulish uchun darrov mana bu mazmundagi e'lon osibdi: "O'rtoqlar! Kimda kim jo'ja olishni xohlasa ishdan keyin ombor boshlig'iga uchrashsin. Chetdan kelgan fuqarolarga 50 tadan, o'zimizning xodimlarga esa 100 tadan jo'ja sotiladi. Lekin, har o'nta jo'jaga bitta o'lgan jo'ja qo'shib sotiladi!" [4: 20].

Bundan ko'rinib turganidek, S.Jumag'ulov O'mirbek obrazidan foydalanib, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni ham yuzaga chiqarganligining guvohi bo'lib o'tiribmiz.

"Militsiyaxonaga boring!" hazil so'zida qoraqalpoq xalqining milliy urf-odat va an'analari ham so'z yuritilgan. Buni yozuvchi O'mirbek laqqi timsolida so'z etib o'tiradi. Masalan, "O'mirbek laqqi biroz yoshlarga borib qolsa ham qattiq sodda

ekan. Yangi yil arafasida o'rtancha qizi qochib ketibdi. O'sha kuni qizi qochib ketibdi. O'sha kuni uyiga ikki odam kirib kelib:

– Mana, bizning bolalarimiz o'g'irlik qilib qo'yibdi. Shuni aytaylik deb kelgan edik! – debdi. Shunda sodda O'mirbek:

– O'g'irlik qilsa, militsiyaxonaga borib qo'ying! – deb javob bergan ekan [4: 22].

Misolga olingan bu hazil so'zda O'mirbek obrazi orqali jamiyatimizda urf-odat va an'analardan bexabar odamlarning ham qiyofasini berishga intilgan. Shu bilan birga, u oq ko'ngil, sodda odamning obrazini yaratgan.

Har bir yomon odamning qilig'iga kulsang, unga rohatlanib kulma, rozi bo'lganingdan kul, g'azabli kulguning o'zi ham qayg'u. Bunday kulgiga har doim o'zing ham tushmagin, har bir yaxshi odamning yaxshilik topganiga kulsang, uning yaxshilikni yaxshiligidan topganligini o'rnak qilib kul. Har bir namuna olishning o'zi ham vaqti bilan to'xtaydi. Ko'p kulgining hammasini ham maqtaganim yo'q, uning ichida bir kulgi bor – xudo yaratgan o'rni bilan ichdan, ko'krakdan kelmaydi, qo'ldan yasab, sirti bilan bet-og'iga tuzatib, kulgini bezatib, go'zallik uchun kuladigan bo'yama kulgi", – degan ulug' Abay Qo'nonboy o'g'li [1:100–101].

O'sha aytganidek, O'mirbek latifalarining ayrimlarini o'zimizga namuna qilib olsak, ayrimlaridan o'zimiz uchun to'g'ri xulosa chiqarishimiz kerak. Uning har bir anekdoti chuqur xalqchil g'oya bilan yo'g'rilgan.

"Nechta tovuq so'ygansan?" hazil so'zidan misol olaylik:

"Yangi yil arafasida O'mirbek laqqi turmushga chiqib ketgan qizining uyiga aylanib boribdi. Kuyov bolasi borib turgan xasis ekan, hovlisidagi shuncha tovug'idan birini so'ymay do'kondan bir kilogramm faqat tovuqning bo'yinlarini olib qovuribdi-da, qaynatasining oldiga qo'yibdi. Bo'yin qovurdoqni turtib yeb o'tirgan O'mirbek bir vaqtlari: "Bolam-ey, juda buzilib qolibsan-ku. Nechta tovuq so'ygansan?" degan vaqtda kuyov bolasi uyalganidan o'zini qo'yarga joy topolmay qolibdi" [4: 24].

Olingan bu misolda yozuvchi O'mirbek obrazini qayta ishlagan, uni aqlli, hamma narsaga tushunadigan, kuyoviga ham o'rinli so'z ayta oladigan qahramon sifatida boshqa kulgili so'zlardan ajratib ko'rsatadi. Darhaqiqat, O'mirbek laqqi haqidagi kulgili so'zlar xalqchil g'oya bilan sug'orilgan. Undagi har bir so'zda chuqur ma'no yashiringan. U har qanday vaziyatdan xohlagancha so'z topib ayta oladigan iste'dod egasi bo'lgan. Mana, bolasi, xotini, O'mirbek orasidagi konfliktda ham iliq tuyg'u o'tirib, uncha qattiq ketmay, bolasiga bir shapaloq urish bilan boshqalarga o'git-nasihat berib turganligini ko'rishimiz mumkin.

O'mirbek laqqi tarixda bo'lgan odam. Uning notiqlik, uchirma so'zlarini, kulgili gaplarini xalqimiz bugungi kunimizgacha o'zlarining adabiy-badiiy xazinasi sifatida terib, yig'ib, unutmay, otadan bolaga o'tkazib saqlab kelgan. Olimlar Q.Maqsetov, N.Kamalov, Q.Mambetnazarovlar nashrga tayyorlagan "Qaraqalpaq xalıq legendaları hám anekdotları" degan kitobda:

"O'mirbek XIX asrning ikkinchi yarmida yashagan odam. Uni ko'rgan odamlar ham hozirgacha uchraydi. Chimboy tumanidagi Lenin nomidagi ko'chada 27-uyda yashovchi Genjegul degan qariya 20 yoshlik vaqtida O'mirbekni ko'rgan. Bu vaqtda O'mirbek qarib kasal bo'lib yurgan vaqti bo'lsa kerak. Bir necha marta Genjegul qariya O'mirbekning ko'nglini so'rab borgan:

– Ota tetikmisan? – deb so'raganda: – Hey bolalarim! Otangning tepkisi tayyor-tayyor bo'lib turibdi, – deb javob bergan.

U o'zining gapning o'rni kelsa kim bo'lsa ham qaytarmaydigan fe'lini qarigan vaqtida ham qo'ygan yo'q deydi, Genjegul o'z so'zida. Hozir bu odam 82 yoshda. Shu tumanning "Oktyabrning 40 yilligidagi sovxozining 4-brigadasida turuvchi Qorabon degan 68 yoshli chol o'zining O'mirbekni bir necha marta ko'rganligini aytadi" [6: 93].

Shu ma'lumotlarga tayanib, O'mirbek laqqi haqiqatdan ham Chimboy shahrida yashagan va umr kechirgan, deb ayta olamiz.

S.Jumag'ulovning to'plamiga kirgan "O'zi ham bir suyak qo'shib" latifasida O'mirbek laqqining boshqalarda uchramaydigan odati ko'zga tashlanadi. Odamlar suyak go'sht olishni istamasa, O'mirbek bo'lsa, qassobdan o'zi ham suyak qo'shib o'lchab berishini so'raydi.

"O'mirbek chang'akka kelibdi-da, qassobga pulini tutqazib:

– Menga o'zimga yaxshilab ikki kilogramm go'sht o'lchab ber. Keyin yana alohida ikki kilogramm go'sht o'lchab, unga iloji boricha ayamay suyak sol! – debdi.

– Hoy, nega? – deb hayron bo'libdi qassob.

– Men u uydan kuyib turibman. Kun ora uyga telefon jiringlatib, bizning uyga ikki kilogramm go'sht olib kel deydi-da turadi.

– Tushunarli, qancha suyak bo'lsa ham solaman. U qo'shningizning uyi edimi?

– Yo'q, qaynotamning uyi! – debdi O'mirbek tarozidagi go'shtga o'zi ham bir suyakni qo'shib.

Bu satrlarda O'mirbekning gaplariga hayron qolasan. Bu yerda ham O'mirbek qassobning suyak solmay o'lchamasligini biladi, shuning uchun suyakning barchasini qaynotasining uyiga soldirdi, o'zinikiga esa go'shtli joyidan soldirtirib oldi. Endi qoraqalpoq folklorida berilgan anekdotga nazar solamiz" [7: 25].

Masalan: "Bir kuni O'mirbek qassobdan go'sht olishga borib, qassobga:

– Bir qadoq go'sht o'lcha, – debdi. Qassob qarab-qarab turib, faqat boldirning suyaklari bilan kallasini, bo'ynining go'shtlarini solib:

– Mana, ortiqcha bo'lsa sizga bo'lsin, oling, – debdi.

– Yana ozgina ichak-qorin topib soling, bugun sho'rva ichish niyatimizning kelishmayotgani bo'lsa kerak, – debdi O'mirbek."

Mana, shunday uchirma so'zlar O'mirbek latifalarining asosini tashkil etadi. Sinchiklab qarab tursang, O'mirbekning aralashmagan, ko'rmagan, sezmagan turmush muammolarining bir tugunini ham ko'rmaysan. U barcha kasblar bo'yicha oilaviy muammolar, bola tarbiyasi, insonparvarlik, to'y-marosim, o'zi yashagan zamondagi kasblar, mutaxassisliklar bo'yicha xatolar, kamchiliklar, muvaffaqiyatsizliklarni yengil kulgi bilan tilga oladi. N.G.Chernichevskiyning so'zi bilan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "har bir yumor – kulgili va g'amgin bo'ladi" [3: 190].

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, O'mirbek latifalarida ham bu fikr tasdiqlanib turganligini ko'ramiz. Uning folklorik obraz sifatida tanilgan O'mirbek obrazi yozuvchi tomonidan qayta ishlangan va qayta yaratilganligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абай. Еки томдық шығармалар жыйнағы. II том. – Алматы: Жазушы, 1986.
2. Өмирбектиң анекдотлары. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1990.
3. Чернышевский Н.Г. Полное собрание сочинений. Т. 11. М., 1990.
4. Жумағулов С. Билеттиң жартысы кимде? – Нөкис: Қарақалпақстан, 1995.
5. Пахратдинов Ю. Өмирбек лаққы ҳәм юмор-сатира мәселесине. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1992.
6. Өмирбектиң анекдотлары. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1990. – Б. 93.
7. Жумағулов С. Билеттиң жартысы кимде? – Нөкис: Қарақалпақстан, 1995.

Rayhona RAXMATOVA,
Samarqand davlat universiteti istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi tayanch doktoranti

ZULFIYA QUROLBOY QIZI ASARLARIDA QAHRAMONLAR TAQDIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining taniqli vakili Zulfiya Qurolboy qizining badiiy mahorati, xususan, uning asarlarida qahramonlar taqdiri, realizm va badiiy psixologizmning namoyon bo'lish xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot obyekti sifatida adibaning "Mashaqqatli hayot so'qmoqlari" romani olinib, undagi Nazira Shodmonova obrazi misolida qahramon ruhiyatining badiiy talqini, hayotiy sinovlar ta'sirida uning xarakteri va dunyoqarashining shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Maqolada Naziraning oddiy qishloq qizidan hayotning turli mashaqqatlarini yengib, tadbirkor ayol darajasiga ko'tarilishigacha bo'lgan hayot yo'li, uning tuhmat, xiyonat, adolatsizlik, ishonchsizlik va ijtimoiy muhit bosimi bilan kurashi badiiy-psixologik jihatdan yoritiladi. Shuningdek, qahramon taqdirining shakllanishida oilaviy munosabatlar, ijtimoiy muhit va jamiyatdagi illatlarning o'rni ochib beriladi.
Kalit so'zlar: Zulfiya Qurolboy qizi, "Mashaqqatli hayot so'qmoqlari", badiiy psixologizm, realizm, ayol obrazi, ijtimoiy muhit, matonat, ichki kechinma, zamonaviy o'zbek romanchiligi.
Annotation. This article examines the artistic skill of Zulfiya Qurolboy qizi, a prominent representative of modern Uzbek literature, with particular attention to the representation of characters' destinies, realism, and artistic psychologism in her works. The study focuses on the writer's novel "The Paths of a Difficult Life", analyzing the artistic interpretation of the protagonist's inner world through the character of Nazira Shodmonova, as well as the formation of her character and worldview under the influence of life challenges. The article explores Nazira's life journey from an ordinary village girl to a successful businesswoman, highlighting her struggle against slander, betrayal, injustice, distrust, and the pressures of her social environment from an artistic and psychological perspective. It also examines the role of family relationships, the social environment, and social vices in shaping the protagonist's destiny.
Keywords: Zulfiya Kurolboy qizi, "The Paths of Difficult Life", artistic psychologism, realism, the image of a woman, social environment, resilience, inner experience, modern Uzbek novel.
Аннотация. В данной статье исследуется художественное мастерство Зульфии Куролбой кизи, известной представительницы современной узбекской литературы, в частности особенности изображения судеб героев, реализма и художественного психологизма в её произведениях. Объектом исследования является роман писательницы «Трудные жизненные тропы», в котором на примере образа Назиры Шодмоновой анализируется художественная интерпретация внутреннего мира героини, а также процесс формирования её характера и мировоззрения под влиянием жизненных испытаний. В статье с художественно-психологической точки зрения освещается жизненный путь Назиры – от простой сельской девушки до женщины-предпринимателя, преодолевшей различные жизненные трудности, а также её борьба с клеветой, предательством, несправедливостью, недоверием и давлением социальной среды. Кроме того, раскрывается роль семейных отношений, социальной среды и общественных пороков в формировании судьбы героини.
Ключевые слова: Зульфия Куролбой кизи, «Трудные жизненные тропы», художественный психологизм, реализм, женский образ, социальная среда, стойкость, внутреннее переживание, современный узбекский роман.

Badiiy adabiyotning bosh obyekti va asosiy maqsadi hamisha inson hamda uning ruhiyatini yoritish bo'lib kelgan. Har qanday asarning mukammal va yetuk bo'lishida faqatgina syujetning kengligi emas, balki qahramon ruhiyati va ichki olamini ko'rsatib bera olish ham yetakchi rol o'ynaydi. Qahramon ruhiyatining chuqur tahlili esa adabiyotshunoslik asosiy mezonlaridan biri bo'lgan psixologizm bilan bog'liqdir. Binobarin, adabiyotshunoslik ilmida psixologizm shunchaki tahlil uchun vosita emas, balki qahramon ruhiyatini to'la namoyon qiluvchi asosiy unsurdir. Haqiqiy ijodkor asar voqealarini shunchaki bayon etmaydi, balki o'sha voqealarning qahramon ruhiyatiga ta'sirini va ahamiyatini singdirib boraveradi. Zero, badiiy asar shunchaki hayotni qayta nusxalash emas, u ijodkor tafakkurida qayta ishlangan estetik reallikka aylantirilgan san'at namunasidir.

Zamonaviy adabiyotshunoslikning ham asosiy talablaridan biri ham aynan inson hayoti va ichki kechinmalarini badiiy tasvirlar orqali haqqoniy ko'rsatishdan iborat. Inson o'zligini anglash, hayot sinovlarini yengib o'z "men"ini saqlab qolish uchun, avvalo, o'z ichki olami bilan kurashishi lozim. O'zligini saqlagan holda inson tashqi olam qarama-qarshiliklari bilan kurashda sobit tura oladi. Bugungi o'zbek nasrida insonning ana shunday irodaviy toblanishi va ruhiyatini o'ziga xos uslubda tasvirlaytgan ijodkorlardan biri Zulfiya Qurolboy qizidir. Yozuvchi o'zining badiiy mahorati orqali kitobxonga qahramon ichki dunyosini bor murakkabligi bilan taqdim eta oladi. Uning hikoya va romanlari ortida doim murakkab taqdirlar, xususan, hayot sinovlarida toblangan kuchli ayollar obrazi turadi. Shu bilan birga, muhit qolipiga tushib qolgan ayollar taqdiri va fojiasi tasvirlash ham muallif ijodining asosiy g'oyaviy yo'nalishlaridan biridir.

Zulfiya Qurolboy qizining "Mashaqqatli hayot so'qmoqlari" nomli romani o'ziga xos realistik uslubda yozilgan romanlardan biridir. Muallifning yillar davomida kuzatuvi natijasida hosil bo'lgan ushbu roman haqqoniyligi va hayotiyligi bilan adabiyotshunoslikda alohida o'ringa ega. Respublikadagi birinchi ayol bo'lgan Nazira Shodmonovaning achchiq taqdiri, ijtimoiy muhit kurashi yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Asar markazida turgan Naziraning murakkab hayot yo'li, sabr va irodasi bugungi kun ayoli uchun haqiqiy matonat namunasiga aylangan.

Roman Naziraning qishloqdagi oddiy hayoti bilan boshlanib, ilg'or tadbirkor ayol bo'lib olamdan o'tishi bilan yakunlanadi. Asar davomida o'quvchi Naziraning murakkab hayot yo'li bilan tanishar ekan, uni yaqindan bilib boraveradi va xuddi o'z yaqinidek og'ir kunlarida unga qayg'urib, xursand bo'lgan paytlarida uning xursandchiligiga sherik bo'lgandek tuyuladi. Hayoti davomida tuhmat, aldov, ishonchsizlik kabi taqdirning qattiq zarbalarini ko'rgan Naziraning ruhiyatida sodir bo'ladigan o'zgarishlar asar davomida bosqichma-bosqich ochib berilib, uning dunyoqarashi va xarakterining shakllanish jarayoni badiiy-psixologik tasvir vositalari orqali chuqur yoritiladi.

Nazira obrazining ruhiyatidagi har bir o'zgarishlar asar voqealari bilan uzviy bog'liqdir. Yozuvchi qahramonning ichki kechinmalarini turli hayotiy sinovlar orqali ko'rsatib berar ekan, uning sabr-toqati, irodasi va hayotga bo'lgan munosabatidagi o'zgarishlarni psixologik tahlil vositasida

yoritadi. Ayniqsa, yaqinlari tomonidan qilingan adolatsizlik, xiyonat va ishonchsizlik kabi omillar uning ruhiyatiga kuchli zarba beradi. Shu jihatdan, Naziraning murakkab taqdiri romanda muhim estetik va g'oyaviy ahamiyat kasb etgan.

Nazira oddiygina qishloq qizi. U o'zining husni va shaddodligi bilan boshqa qishloq qizlaridan ajralib turadi. "*..Jalil Ko'chkakning eng oldi qizi hisoblanmish shaddodgina Nazirani bir ko'rishda yoqtirib qolgani, ko'z ostiga olib yurgani chin. Hatto unni tarozibonni turtib yuborganini eshitganida ham unchalik ajablanmadi, "to'g'ri qilgan, tarozibonlarning hammasi muttaham og'ri" deb qo'yaqoldi. Onasidan Nazirani kelinlikka Nazirani mo'ljallayotganini eshitganida buni o'zining tasavvur doirasiga sig'maydigan darajada ulkan baxt deb o'yladi. Nega deganda, u qishloqdagi istagan qizni osongina qo'lga kiritishiga ishonsa-da, Nazirani... Yo'q, yo'q, uni faqat orzu qilish mumkin. Zimdan ko'z ostiga olish mumkin...*".

O'ziga ishonchi baland bo'lgan, hech narsadan tap tortmaydigan, ko'ngliga kelgan gapni ochiq aytadigan qizning taqdirning og'ir zarbalariga bardosh berishida uning onasining o'rni katta bo'ladi. Roman boshidanoq naziraning og'ir kunlarini ko'rsatish bilan boshlanadi. Nazira hayotida tub burilish yasagan nuqta ham aynan unga tuhmat qilinib uydan haydalishi edi.

Nazira hayoti davomida bir necha bor tuhmatga uchraydi. Ammo ulardan eng birinchisi uning taqdirini tubdan o'zgarib ketishiga sabab bo'ladi. Tarozi vaqtidagi adolatsizlikka chidolmagan Naziraning Samarlang bilan tortishuvi sabab bo'lib, Samarlang ko'pchilik oldida izza bo'lgani uchun ko'nglida adovat urug'ini saqlab yuradi va qasos olish uchun payt poylab yuradi. Shu sababli, Samar qasos olish uchun Jalilning yonida bo'lishni afzal deb biladi va doim Jalilning atrofida o'ralashaveradigan bo'ldi.

Jalil Naziraning turmush o'rtog'i. Qishloqning eng oldi yigitlaridan. Otasiz o'stirgan onasining yakka-yu yagona erkatoy o'g'li. Doim onasi rajab momo uni himoya qilib yurgan va bunga Jalil ham o'rgangan. Qishloqda doim oldi yigit bo'lgani bois ham, uning atrofida oshna-og'aynilar hatto keragidan ham ortiq bo'lar edi.

Do'stlarining doimiy unga mulozamat qilib gapirishiga o'rgangan Jalil esa, hatto "do'ppisi yerga tushib ketgudek bo'lsa uni pul berib birovga oldiradigan" yigitlar sirasidan edi. Albatta, bunday erka o'g'ilning tanish-bilishi ko'p bo'lgandan keyin do'stlar davrasi shunchaki suhbatlar bilan o'tmaydi. Davra ichkilik, qimorbozlik bilan yakunlanadi. Hatto shunday kunlari ham bo'ladiki, ba'zi tunlari "aroq-vino deganlari daryoday oqardi" va behush Jalilni oshnalari uni yetaklab uyiga olib kelishardi.

Shunday kunlarning birida navbatdagi qimorbozlik paytida o'yinga berilib ketgan Jalil Samarning mulozamatiga javoban unga "cho'loq" deb o'shqirib yuboradi va e'tibor bermay o'yinda davom etadi. Ammo bu haqorat Samarning qalbida vulqon bo'lib yonishni boshlaydi. U yerdan chiqib to'g'ri Jalilning uyi oldiga borib darvozani taqillatib, Jalilning onasi darvoza oldiga kelganini qadam tovushlaridan bilib, Nazirani axloqsizlikda ayblaydi. Rajab momo va Nazira o'rtasida anchadan buyon davom etib kelayotgan qaynona-kelin muammosi ustiga bu gap xuddi olovga moy quygandek bo'ladi. Mast ahvolda kelgan o'g'liga bor gapni oqizmay-tomizmay aytib beradi. Jalil esa, Nazirani hatto eshitib ham o'tirmay beayov kaltaklay boshlaydi. Hamma narsadan bexabar Nazira esa, faqatgina bu gaplarning bari tuhmat ekanligini aytib dod solardi.

Naziraning dastlabki tuhmatga uchrashi unga juda kuchli zarba bo'ladi. Tuhmat sabab uning oilasi buzilib ketadi va Nazira qishloqdan bosh olib chiqib ketadi.

Samarning shunchaki tarozi paytida bo'lgan tortishuvni sabab qilib, uni yillar davomida ko'nglida saqlab kelishi, hatto shuning uchun Jalilning yoniga kirishi uning qanchalar tuban kimsa ekanligini yana bir namoyon qiladi. O'sha vaqtidagi tortishuvni hamma, jumladan Nazira ham allaqachon esidan chiqarib yuborgan edi. Ammo Samar oradan yillar o'tsa ham o'sha voqeani unutmagan edi. Qasos olish uchun qulay paytni poylab yuradi.

Nihoyat, o'z qasosi uchun bir oilaning buzilib ketishiga sababchi bo'ladi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) tomonidan keltirilgan bir hadisi sharifda shunday deyilgan: "Bir musulmon oila buzilsa, Allohning arshi larzaga keladi". Bir oila buzilganda yer larzaga kelsa, uning buzilishiga sababchi bo'lgan insonning gunohi ham kattadir. Zero, tuhmatning o'zi ham gunohi kabiralardan biridir. Hech bir gunoh javobsiz qolmaganidek,

Nazira hayotining tubdan o'zgarib ketishiga sabab bo'lgan tuhmatning gunohi yillar davomida Samarning bo'ynida qoladi va oxir-oqibat qilgan ishiga pushaymon bo'ladi. Voqealar rivojida Nazira va Samarning yo'li boshqa kesishmaydi. Ammo, oradan yillar o'tib Naziraning o'g'li Shokir nohaq qamoqxonaga tushib qolganda Samar bilan to'qnashadi.

Samar Shokirni tanib uning onasidan, ya'ni Naziradan kechirim so'raydi:

"... – Bu yerda uzoq qolmasangiz kerak... – nihoyat tilga kirdi sherigi.

– Bilmadim.

– Baribir ko'p o'tirmasangiz kerak... – xuddi asosiy gap qolib, shunchaki valaqlayotganday parishonlik bilan so'zladi sherigi. – Har qalay men shunday o'ylayapman...

– Lekin men baribir bir narsaga tushunmayapman, – deya ochig'iga ko'chdi Shokir. – Siz...

– Men ... men aytmoqchiydimki... yo'q, onangizga yetkazib qo'yishni istovdimki... – tutila-tutila gapira boshladi sherigi. – Agar... kechira olsa... uzrimni qabul qilishini... ancha kech, albatta, lekin... baribir ko'nglimda tugun bo'lib qolmasligi kerak bo'lgan gap-da...

– Siz kimsiz?! – deb baqirib yubordi Shokir oxiri toqati toq bo'lib... – Men... omadsiz bir banda... otim Samar... Ko'chkaklik Olim holvapazning kuyovi... Turkovulning o'gay bolasi".

Bu Naziraning yoshlik davrida uchragan ilk tuhmatining adolati edi. Nazira umri davomida ko'p bor yaqinlaridan pand yeydi. Dastavval, birinchi turmush o'rtog'i Jalil va qaynonasi Rajab momo unga nisbatan, adolatsizlik, haqorat va tuhmatlar qilishadi. Keyinchalik ishonib qayta turmush qurgan Jo'rabek avval unga yaxshi munosabatda bo'ladi. Ammo u ham ishi yurishmay qolgach oilaning bor og'irligini farzandlari ko'p bo'lishiga qaramay Naziraga tashlab qo'yadi. Hech bir yukni yelkasiga olmay Naziraning topgan puliga sheriklik qilishga, bu ham yetmagandek o'g'irlik va xiyonat qilishgacha boradi.

Nazira ikkinchi turmush o'rtog'idan ham ro'shnolik ko'rmaydi. Bu ham yetmagandek yakka-yu yagona singlisi Orzigul ham o'z opasiga pul va mansab uchun xiyonat qiladi. Opasining ustidan ariza yozib beradi va Naziraning ishlari chigallashib ketishi, hatto, qamoqxonada o'tirib chiqishiga ham sababchi bo'lib qoladi. Butun ishlarini topshirib qo'ygan yuristi Po'lat Ergashev esa, pul uchun hokimiyat tepasidagilar bilan til biriktirib Nazirani yo'q qilmoqchi bo'lishadi. Subhonov, Bo'riyev kabi amaldorlar bilan til

biriktirgan Po'lat va uning sheriklari ham oxir-oqibat o'z qilmishlariga yarasha javob olishadi. Sud zalidan Nazira Shodmonova ozodlikka chiqib, unga qarshi adolatsizlik qilganlar javobgarlikka tortiladi.

Muallif voqealar davomida Naziraning tashqi muhit, jamiyatdagi adolatsizliklar bilan kurashi barobarida uning ichki ruhiy olamine ham izchil ochib bradi. Qahramonning hayot sinovlari oldida taslim bo'lmasligi, adolat va haqiqat uchun kurashi, ma'naviy pok qalbini saqlab qolish uchun intilishlari taqdirning fojiali emas, aksincha, insonning ma'naviy kamolotini namoyon etuvchi badiiy hodisa ekanligini ko'rsatadi. Shu jihatdan, Nazira obrazi ayolning irodasi, sabr-toqati va hayot sinovlariga dosh bera olish fazilatlarini mujassamlashtirgan yorqin badiiy timsol sifatida namoyon bo'ladi. Unga yomonlik qilgan bo'lsa ham Po'latning fikrlari bunga misol bo'la oladi: *"...anavi yelkasi yerga tegsa ham kurashdan to'ymaydigan xotin uning kushandasi... o'ziyam naq toshyong'oq ekan, na chaqib bo'ladi, na pulga sotib olib..."*.

Roman murakkab taqdirning badiiy ifodasini faqat individual qismat tasviri bilan cheklanmaydi. Yozuvchi qahramon boshidan o'tkazgan voqealar orqali jamiyatdagi zararli illatlarni, adolatsizlik, poraxo'rlik, mansabparastlik, oilaviy munosabatlardagi inqirozlarni, insoniy qadriyatlarning yemirilib borayotganini ham ko'rsatib beradi va badiiy tahlil qiladi. Shuning uchun ham, romanga bir ayolning muvaffaqiyatli tarixi sifatida qarash emas, balki ijtimoiy muhitning haqiqatlarini namoyon qilgan asar sifatida baho berish lozim. Muallif jamiyatdagi illatlarni qahramonning ichki kechinmalari va iztiroblarini ortiqcha bo'yoqlarsiz kitobxonga namoyon qiladi. Bu esa romandagi psixologizm qatlamini yanada kuchaytirib, asar qahramonining matonati fojialar girdobidan omon chiqishga qodir ekanini isbotlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Zulfiya Qurolboy qizining ushbu romani o'zbek adabiyotida xotin-qizlar xarakteri, ularning irodasi va ruhiy olamini haqqoniy ochib bergan serqatlam va tarbiyaviy ahamiyati yuqori asarlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qurolboy qizi Z. Mashaqqatli hayot so'qmoqlari: roman. – Toshkent: Read book, 2024.
2. Normatov U. Nafosat gurunglari. – Toshkent: Muharrar, 2010.
3. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
4. Egamberdiyeva K. Zulfiya Qurolboy qizi nasrida realizm tamoyillari // Academic Research in Educational Sciences, 2021. Vol. 2, Issue. 9. – B. 776–780.
5. Burxanova F., Xamraqulova M. Zulfiya Qurolboy qizi nasrida ayol obrazlarining badiiy talqini va uslubiy xususiyatlari // Adabiyot xazinasi, 2026, №2.
6. Eshqobilov A. Hikoyangizni o'qib... (Zulfiya Qurolboy qizi ijodiga chizgilar) // Yoshlik, 2014, № 11.

Feruza RAXMONBERDIYEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TASHQI QIYOFA VA XARAKTERNI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o'zbek tillarida insonning tashqi qiyofasi hamda xarakterini ifodalovchi frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Somatik komponentlar, rang, tabiat va obrazli qiyoslar orqali shakllanadigan baholash mexanizmlari yoritilib, umumiy konseptual modellar hamda milliy semantik farqlar aniqlanadi.
Kalit so'zlar: frazeologik birlik, tashqi qiyofa, xarakter, lingvomadaniyat, somatizm, metafora, baholash.
Annotation. The article compares the linguocultural features of English and Uzbek phraseological units describing human appearance and character. It examines somatic, colour and nature-based imagery and identifies both shared conceptual patterns and culture-specific evaluative meanings.
Keywords: phraseological unit, appearance, character, linguoculture, somatism, metaphor, evaluation.
Аннотация. В статье сопоставляются лингвокультурные особенности английских и узбекских фразеологических единиц, характеризующих внешность и характер человека. Рассматриваются соматические, цветовые и природные образы, а также общие и национально-специфические модели оценки.
Ключевые слова: фразеологическая единица, внешность, характер, лингвокультура, соматизм, метафора, оценка.

Frazeologik birliklar tilning nominativ imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, xalqning inson, jamiyat va qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini obrazli shaklda saqlaydi. Shu sababli insonning tashqi qiyofasi va xarakterini ifodalovchi barqaror birikmalarni qiyosiy o'rganish leksik-semantik masaladan tashqari, til va madaniyat munosabatini yoritadigan lingvomadaniy vazifa hisoblanadi.

Sh.Rahmatullayev o'zbek frazeologiyasida turg'unlik va ekspressivlikni tavsiflagan [1], N.N.Amosova hamda A.V.Kunin esa ingliz frazeologiyasida kontekstual bog'liqlik masalalarini asoslagan [3: 4].

Inson obrazining frazeologik konseptualizatsiyasida yuz, rang, bosh, qo'l, yurak va ko'ngil kabi komponentlar tashqi belgi bilan ichki sifatni bog'laydi. Kognitiv-metaforik yondashuv bunday ma'nolarning jismoniy tajriba orqali shakllanishini izohlaydi [6: 7].

Tadqiqotda qiyosiy-chog'ishtirma, komponent, konseptual-metaforik va lingvomadaniy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahliliy material sifatida ingliz va o'zbek frazeografik manbalaridan maqsadli tanlangan 60 ta birlik – har bir tildan 30 tadan frazeologizm ajratildi [1: 2; 4: 5]. Birliklar uch funksional-semantik guruhga: tashqi qiyofa, xarakter va ruhiy-emotsional holatni ifodalovchi vositalarga tasniflandi. Qiyoslashda so'zma-so'z ekvivalentlikdan ko'ra, konseptual model, baholash yo'nalishi va madaniy obrazning vazifasiga ustuvor ahamiyat berildi.

Tashqi qiyofani ifodalovchi birliklarda real jismoniy belgi ko'pincha kuchaytirilgan obrazli bahoga aylanadi. Ingliz tilidagi skin and bones o'ta ozg'in insonni tavsiflasa, o'zbek tilidagi eti suyagiga yopishgan birikmasi ayni semantik maydonga kiradi. Ikkala obraz ham tana hajmining keskin kamayishi va suyakning ko'zga tashlanishi haqidagi umumiy tajribaga tayangan bo'lsa-da, inglizcha birlik predmetlarni yonma-yon sanash, o'zbekcha birlik esa dinamik holatni tasvirlash orqali ma'no hosil qiladi.

Go'zallik va yoqimlilikni ifodalashda milliy obrazlilik yanada aniq ko'rinadi. O'zbek tilidagi bir qoshiq suv bilan yutgudek iborasi nihoyatda chiroyli insonning qiyofasini xalqona mubolag'a vositasida baholaydi. Ingliz tilidagi as pretty as a picture esa ko'rinishni estetik obyekt – surat bilan qiyoslaydi. Har ikkala birlikda ijobiy baholash mushtarak, biroq obraz manbai va pragmatik ta'sir darajasi milliy nutq an'analariga bog'liq.

Yuz va rang komponentlari tashqi holat bilan ichki kechinma o'rtasidagi bog'lanishni ifodalashda samarali. *As white as a sheet* qo'rquv yoki kuchli hayajon oqibatidagi oqarishni bildiradi; rangi o'chmoq ham yuz rangining keskin o'zgarishini ifodalaydi. Bunda umumiy konseptual sxema **"ruhiy holat – tashqi rang o'zgarishi"** ko'rinishida namoyon bo'ladi.

1-jadval. Ingliz va o'zbek frazeologizmlaridagi asosiy konseptual muvofiqliklar

Semantik soha	Inglizcha birlik	O'zbekcha birlik	Muvofiqlik turi
Ozg'inlik	skin and bones	eti suyagiga yopishgan	Yaqin obrazli
Go'zallik	as pretty as a picture	bir qoshiq suv bilan yutgudek	Funksional
G'azab	face like thunder	qovog'idan qor yog'moq	Konseptual
Rahmsizlik	heart of stone	bag'ri tosh	Yuqori darajada yaqin
Manmanlik	have a big head	burni ko'tarilgan	Funksional

Jadvaldagi qiyoslar to'liq leksik muvofiqlikdan ko'ra konseptual va funksional yaqinlikning muhimligini ko'rsatadi. Masalan, *face like thunder* va qovog'idan qor yog'moq turli tabiat hodisalariga tayansa ham, g'azablangan yuz ifodasini **"noxush ob-havo"** modeli asosida konseptuallashtiradi. Xuddi shuningdek, have a big head va burni ko'tarilgan birliklarida manmanlik turli somatik ssenariylar orqali ifodalanadi.

Xarakterni ifodalovchi frazeologizmlarda yurak, ko'ngil va bag'ir komponentlari alohida konseptual markazni tashkil etadi. Ingliz tilidagi *have a heart of gold* mehribon

va saxiy insonni, have a heart of stone esa rahmsizlikni ifodalaydi. O'zbek tilida ko'ngli oq ijobiy axloqiy bahoni, bag'ri tosh esa shafqatsizlikni bildiradi. Heart va ko'ngil/bag'ir anatomik jihatdan bir xil birliklar bo'lmasa ham, ularning konseptual vazifasi yaqin: insonning axloqiy-emotsional markazi tana ichidagi muayyan makon bilan bog'lanadi.


Manmanlik konsepti ham somatik obrazlar orqali shakllanadi. *Have a big head* o'zini boshqalardan ustun ko'rishni bildirsa, burni ko'tarilgan xuddi shu xususiyatni burunning yuqoriga yo'nalgan holati orqali tasvirlaydi. Semantik natija o'xshash, biroq obrazning tayanch nuqtasi farqli. Bu holat frazeologik ekvivalentlikni faqat komponentlar mosligi bilan belgilash yetarli emasligini ko'rsatadi.

Saxiylik va samimiylikda qo'l hamda ko'ngil obrazlari faol. O'zbek tilidagi qo'li ochiq saxiy insonni tavsiflaydi va "BERISH – OCHIQ QO'L" tajribaviy modeliga tayanadi. Ingliz tilidagi *open-handed* ayni baholashga yaqin. Biroq *wear one's heart on one's sleeve* kabi birliklarda his-tuyg'uni yashirmaslik obrazli tarzda ifodalanadi; o'zbek tilida unga ochiq ko'ngil yoki dili bilan tili bir singari funksional yaqin vositalar mos keladi. Bu qiyos to'liq, qisman va funksional ekvivalentlarni farqlash zarurligini tasdiqlaydi.

Salbiy xarakter belgilarida zoonimik obrazlar ham muhim. *A snake in the grass* yashirin xavf va xiyonatkorlikni, ilonning yog'ini yalagan esa ayyorlik va mug'ombirlikni anglatadi. Umumiy "ILON – SALBIY XARAKTER" modeli mavjud bo'lsa-da, uning semantik markazi ikki tilda bir xil emas. Demak, umumiy madaniy timsol til tizimida turli pragmatik semalar bilan kengayishi mumkin.

Frazeologik konseptualizatsiyada tashqi belgidan axloqiy xulosaga o'tish ham muhim. Yuzdagi tundlik, rang o'zgarishi yoki tana holati dastlab jismoniy signal sifatida qabul qilinib, til tajribasi orqali xarakter va ruhiy holat bilan bog'lanadi. Bunday birliklar murakkab sifatni qisqa obraz orqali ifodalaydi.

Tahlil korpusining funksional-semantik taqsimoti ham ikki tilda yaqin nisbatni ko'rsatdi. Ingliz materialida tashqi qiyofa birliklari 12 ta, xarakter birliklari 11 ta, ruhiy-emotsional holat birliklari 7 tani tashkil etdi. O'zbek materialida esa tegishli ko'rsatkichlar 13, 10 va 7 birlikdan iborat bo'ldi. Bu sonlar tashqi ko'rinish va xarakterga oid frazeologizmlarning tahliliy namunada ustunligini, ruhiy holatga oid birliklarning esa nisbatan kamroq ulushga ega ekanini ko'rsatadi.



1-rasm. Tahlil qilingan frazeologik birliklarning funksional-semantik taqsimoti

Diagrammada ikki til o'rtasidagi miqdoriy farq keskin emasligi ko'rinadi. Biroq miqdoriy yaqinlik obrazlarning aynan bir xil ekanini anglatmaydi: ingliz tilida thunder, picture, head kabi obrazlar faol bo'lsa, o'zbek tilida qor, qoshiq suv, burun, ko'ngil va bag'ir kabi milliy nutqiy modellar kuchliroq namoyon bo'ladi. Shuning uchun statistik taqsimot semantik maydonning umumiy tuzilishini ko'rsatsa, lingvomadaniy tahlil uning ichki obrazli xususiyatlarini ochib beradi.

Natijalar frazeologik birliklarni tarjima qilish va chet tilini o'qitishda ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Qovog'idan qor yog'moqni so'zma-so'z tarjima qilish ingliz tilida tabiiy idiomatik ma'no yaratmaydi; kontekstga ko'ra face like thunder funksional jihatdan mosroq bo'lishi mumkin. Heart of gold esa ko'ngli oq yoki mehribon kabi kontekstual vositalar bilan tabiiyroq beriladi. Demak, frazeologik kompetensiya obraz, baholash va kontekstni ham anglashni talab etadi.

Ingliz va o'zbek tillarida tashqi qiyofa va xarakterni ifodalovchi frazeologik birliklar inson haqidagi bilimning obrazli va madaniy qatlamini tashkil etadi. Tahlil *skin and bones* – eti suyagiga yopishgan, *face like thunder* – qovog'idan qor yog'moq, *heart of stone* – bag'ri tosh, *have a big head* – burni ko'tarilgan kabi birliklarda semantik yaqinlik turli darajadagi obraz muvofiqligi orqali yuzaga chiqishini ko'rsatdi. Somatik komponentlar, rang, tabiat va zoonimik timsollar tashqi belgini ichki sifatga ko'chirishning asosiy vositalari bo'lib xizmat qiladi. Umumiy konseptual modellar insonning jismoniy va emotsional tajribasiga tayansa, milliy xususiyatlar obraz tanlovi, konnotatsiya va pragmatik qo'llanishda namoyon bo'ladi. Shu bois frazeologizmlarni qiyosiy o'rganishda leksik moslik bilan bir qatorda konseptual motivatsiya va lingvomadaniy mazmunni ham hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2010.
2. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
3. Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. – Oxford: Oxford University Press, 1998.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
5. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
6. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. Л.: Изд-во Ленинградского университета, 1963.
7. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – 2-е изд. М.: Высшая школа; Дубна: Феникс, 1996.

Bunyodbek SOTVOLDIYEV,
Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

HAKERLAR VA KIBERXAVFSIZLIK SOHASIGA OID SLENG BIRLIKLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada hakerlar va kiberxavfsizlik sohasi vakillari nutqida uchraydigan sleng birliklari leksik-semantik, so'z yasalishi va grafik jihatdan tahlil qilinadi. Leetspeak, qisqartmalar, metaforalar, antropomorfizmlar va terminlashgan birliklarning kommunikativ vazifalari yoritilib, ularni o'zbek tilida izohlash hamda tarjima qilish tamoyillari taklif etiladi.
Kalit so'zlar: haker slengi, kiberxavfsizlik, leetspeak, metafora, qisqartma, terminlashuv, raqamli diskurs.
Annotation. The article examines the lexical-semantic, word-formational and graphic features of slang used by hackers and cybersecurity specialists. It analyses leetspeak, abbreviations, metaphors, anthropomorphic models and terminologized units, clarifies their communicative functions and the slang-term boundary, and proposes principles for explaining and translating them into Uzbek.
Keywords: hacker slang, cybersecurity, leetspeak, metaphor, abbreviation, terminologization, digital discourse.
Аннотация. В статье рассматриваются лексико-семантические, словообразовательные и графические особенности сленга хакеров и специалистов по кибербезопасности. Анализируются leetspeak, аббревиатуры, метафоры, антропоморфные модели и терминологизированные единицы. Уточняются их коммуникативные функции, границы между сленгом и термином, а также предлагаются принципы толкования и перевода на узбекский язык.
Ключевые слова: хакерский сленг, кибербезопасность, leetspeak, метафора, аббревиатура, терминологизация, цифровой дискурс.

Raqamli texnologiyalar kundalik hayotning barcha qatlamlariga kirib borgani sari kompyuter va internet bilan bog'liq muloqot ham mustaqil leksik qatlamlarni shakllantirmoqda. Dasturchilar, tizim administratorlari, hakerlar hamda kiberxavfsizlik mutaxassislari nutqida qo'llanadigan birliklar oddiy texnik terminlar yig'indisi emas. Ular kasbiy tajriba, guruhga mansublik, hazil, baholash va ba'zan axborotni begonalardan cheklash kabi ijtimoiy ma'nolarni ham tashiydi. Internet tili elektron, global va interaktiv muhit xususiyatlari ta'sirida shakllanishini D.Kristal alohida ta'kidlaydi [2: 19–20]. Shu jihatdan hakerlik va kiberxavfsizlik leksikasini lingvistik o'rganish raqamli diskursning ichki mexanizmlarini anglashga yordam beradi.

Mavzuning dolzarbligi ikki omil bilan belgilanadi. Birinchidan, yangi texnologiya bilan birga yangi nomlar tez paydo bo'ladi, ularning ayrimlari qisqa vaqt ichida tor guruh doirasidan umumiy axborot makoniga o'tadi. Ikkinchidan, bir xil birlik turli muhitlarda boshqa-boshqa maqomga ega bo'lishi mumkin: masalan, bug yoki patch mutaxassis uchun odatiy termin, keng auditoriya uchun esa texnologik jargon sifatida idrok etiladi. Hakerlik forumlari matnida imlo variantlari, qisqartmalar, ataylab o'zgartirilgan grafik shakllar va tez yangilanadigan slengning birgalikda kelishi korpus tahlilini ham murakkablashtiradi [9: 107–115].

Tadqiqotning maqsadi hakerlar va kiberxavfsizlik sohasi nutqida uchraydigan birliklarning leksik-semantik, derivatsion va grafik xususiyatlarini aniqlash, ularning kommunikativ vazifalarini izohlash hamda o'zbek tilida berishning maqbul tamoyillarini taklif qilishdan iborat. Ilmiy yangilik sifatida haker slengi va kiberxavfsizlik terminlari bitta o'zgarmas qatlam emas, balki "sleng – kasbiy jargon – standart termin" yo'nalishida siljib turuvchi birliklar tizimi sifatida talqin qilinadi. Bunda shakl, ma'no, qo'llanish muhiti va so'zlovchining kommunikativ maqsadi birgalikda baholanadi.

Tahlil uchun haker leksikonlariga, internet tili bo'yicha lingvistik tadqiqotlarga va axborot xavfsizligi glossariylariga tayangan holda tanlangan reprezentativ birliklar olindi. Materialga leet/1337, n00b, hack, bug, flame, worm, firewall, quarantine, patch, Trojan horse, logic bomb, VPN, DDoS, RAT kabi shakllar hamda ayrim o'yinli yasalishlar kiritildi. Tadqiqotda tavsifiy, kontekstual, komponent, so'z yasalishi va sotsiolingvistik tahlil usullari qo'llandi. Birliklarning standart lug'aviy ma'nosi, mutaxassislar orasidagi ma'nosi, ekspressiv bo'yoqdorligi va guruhiy identifikatsiya vazifasi o'zaro qiyoslandi.

Metodik jihatdan "termin" va "sleng" ni faqat shakliga qarab ajratish yetarli emas. Masalan, bosh harflardan tuzilgan VPN yoki DDoS birliklari norasmiy yozishmada tez-tez uchrasa ham, ularning mazmuni standartlashtirilgan va kasbiy aniqdir. Aksincha, Microsloth yoki Internet Exploiter kabi shakllar texnik obyektni nomlashdan ko'ra kinoya va baholashga xizmat qiladi. Shuning uchun tasnifda to'rtta mezon – nominativ aniqlik, ekspressivlik, guruhiy cheklanganlik va rasmiy manbalarda mustahkamlanganlik darajasi asos qilib olindi.

Haker atamasining semantik ko'lami. Hacker so'zining zamonaviy ommaviy talqini ko'pincha kompyuter tizimiga ruxsatsiz kiruvchi shaxs bilan bog'lanadi. Biroq uning dastlabki texnik madaniyatdagi ma'nosi kengroq bo'lib, murakkab muammoni ijodkorona hal qiluvchi, dasturlanadigan tizim imkoniyatlarini chuqur o'rganishdan zavqlanuvchi mutaxassisni ham anglatgan. E.Raymond tahriridagi lug'atda hackerning bir necha ijobiy kasbiy ma'nolari berilib, zararli niyatdagi buzg'unchi uchun cracker nomini qo'llash tavsiya qilinadi [1]. Demak, ushbu birlikning semantik tuzilishida "mahurat", "izlanish", "chegarani sinash" va "ruxsatsiz aralashuv" semalari bir xil darajada emas, kontekstga qarab faollashadi.

XX asr oxiridagi ommaviy axborot vositalari hacker so'zining salbiy ma'nosini keng ommaga yoydi. H.Nissenbaum bu o'zgarishni faqat hakerlar faoliyatining o'zgarishi bilan emas, balki qonunchilik, sud amaliyoti, korporativ manfaatlar va ommaviy diskursdagi kontekstual siljishlar bilan izohlaydi [5: 195–217]. Natijada, bir birlik ikki qarama-qarshi obrazni – ijodkor texnik mutaxassis va xavf tug'diruvchi buzuvchini – ifodalay boshladi. Bu holat semantik pejoratsiya, ya'ni so'z ma'nosining salbiy baho tomon siljishiga yaqqol misoldir.

Black hat, white hat va grey hat birikmalari ayni semantik qarama-qarshilikni rang ramzi orqali tartibga soladi. Black hat zarar yetkazish yoki noqonuniy manfaat ko'zlash bilan bog'langan shaxsni, white hat tashkilot ruxsati bilan zaifliklarni aniqlovchi himoya mutaxassisini, grey hat esa ruxsat va niyat mezonlari to'liq mos kelmaydigan oraliq holatni bildiradi. Mazkur tasnif texnik malakadan ko'ra huquqiy ruxsat, maqsad va axloqiy bahoni nomlaydi. Shu sababli "haker" ni avtomatik ravishda "kiberjinoyatchi" deb

tarjima qilish ilmiy aniqlikni buzadi; zarur ma'no kontekst orqali ochilishi kerak. Hakerlikdagi jinoyat–mahorat ziddiyati P.Teylor [6], erkinlik, texnik ijod va guruhiy hazil uyg'unligi esa E.Koleman tadqiqotlarida yoritilgan [7: 91–158].

Haker slengining kommunikativ vazifalari. Haker slengining birinchi vazifasi – nominativ ixchamlik. Murakkab texnik jarayonni qisqa birlik bilan ifodalash tezkor yozishma uchun qulay. Ikkinchi vazifa – baholash: win, lose, kluge, crock, elegant kabi birliklar kod yoki tizimning sifatiga munosabatni lo'nda bildiradi. Uchinchi vazifa – identifikatsiya. Muayyan birlikni to'g'ri tushunish va o'rinli ishlatish so'zlovchining hamjamiyat tajribasiga egaligini ko'rsatadi. To'rtinchi vazifa – o'yin va hazil; bunda texnik muammo emotsional jihatdan yengillashtiriladi, kasbiy muhitda yaqinlik hosil qilinadi.

Internet tili haqidagi tasavvurlar ham ma'lum ijtimoiy obrazlarni yaratadi. L.Squires bunday shakllar tilshunoslikda va ommaviy muhokamada alohida registr sifatida tanilib borishini, ularning bahosi esa "tezkor va ijodiy" dan "savodsiz va me'yorsiz" gacha o'zgarishini ko'rsatadi [4: 457–492]. Haker slengida ham xuddi shunday ikkilanish mavjud: ichki guruh uchun mahorat belgisi bo'lgan shakl tashqi auditoriyada tushunarsiz yoki xavfli ko'rinishi mumkin. Lingvistik tahlil ana shu baholarni birlikning haqiqiy kommunikativ vazifasidan ajratishi lozim.

Kiberxavfsizlik leksikasining struktur-semantik tasnifi. Kiberxavfsizlik sohasi vakillari qo'llaydigan barcha qisqa va begona ko'rinishdagi birliklarni sleng deb atash ilmiy jihatdan to'g'ri emas. Ularning katta qismi xalqaro kasbiy terminlardir. RFC 4949 axborot tizimlari xavfsizligiga oid atamalar, qisqartmalar va ta'riflarning izchil qo'llanishini ta'minlashni ko'zlaydi [8: 3–8]. Standart glossariyga kirgan birlikning ma'nosi nisbatan barqaror, sohaga oid hujjatlarda qo'llanishi me'yorlashgan bo'ladi. Sleng esa ko'proq norasmiylik, ekspressivlik va guruh ichidagi baholash bilan ajralib turadi.

Tuzilishiga ko'ra birinchi guruhni qisqartmalar tashkil etadi. VPN, DDoS, RAT, TLS va SSL kabi birliklar ko'p komponentli nomlarni ixchamlashtiradi. Ularning ayrimlari talaffuzda harfma-harf, ayrimlari esa yaxlit so'zga yaqin shaklda aytiladi. X.509 singari raqamli komponentli nomlar esa standart yoki versiya indeksini anglatadi; ular leetspeakdagi raqam almashtirish bilan tashqi jihatdan o'xshash bo'lsa-da, vazifasi tamoman boshqa. Leetspeakda raqam harfni tasvirlaydi, X.509da esa belgi rasmiy identifikatorning tarkibiy qismidir.

Ikkinchi guruh bir komponentli leksemalardan iborat: patch, quarantine, exploit, payload kabi birliklar shular jumlasidan. Ularning aksariyati umumiy tildagi mavjud so'zning ma'nosi ixtisoslashishi orqali shakllangan. Patch umumiy tilda «yamoq»ni bildirsa, dasturiy ta'minotda aniqlangan nuqsonni tuzatish yoki tizimni yangilashga qaratilgan o'zgartirishlar to'plamini nomlaydi.

Uchinchi guruh qo'shma so'z va terminologik birikmalardir: firewall, keylogger, Trojan horse, logic bomb, red team, zombie computer. Qo'shma birliklar murakkab tushunchaning belgilarini bir nomda jamlaydi. Trojan horse tashqi ko'rinish va haqiqiy vazifa o'rtasidagi nomuvofiqlikni tarixiy obraz orqali bildiradi; logic bomb ma'lum shart yuzaga kelganda faollashuvchi zararli funksiyani metaforik nomlaydi; red team esa himoyani qonuniy va nazoratli sharoitda sinovdan o'tkazuvchi guruhni anglatadi. Mazkur ta'riflar foydalanish bo'yicha ko'rsatma emas, birliklarning semantik motivatsiyasini ochadi.

Sleng, jargon va termin chegarasi. Tahlil natijalari hakerlar va kiberxavfsizlik leksikasida uch qatlamni ajratish zarurligini ko'rsatadi. Birinchi qatlam – rasmiy va barqaror terminlar: firewall, VPN, TLS, patch. Ikkinchi qatlam – kasbiy jargon: mutaxassislar orasida keng tushuniladigan, biroq rasmiy hujjatda har doim ham bir xil izohlanmaydigan qisqa va obrazli birliklar. Uchinchi qatlam – ekspressiv sleng: n00b, winnitude, Microsloth kabi baholash, hazil yoki guruhiy mansublikni yaqqol ifodalovchi shakllar. Bu qatlamlar orasida qat'iy devor yo'q; birlik qo'llanish chastotasi va kontekstga qarab biridan ikkinchisiga o'tadi.

Tarjima va o'zbekcha izohlash tamoyillari. Inglizcha hakerlik va kiberxavfsizlik birliklarini o'zbek tilida berishda uch bosqichli model samarali: birinchi qo'llanishda asl birlik va uning to'liq shakli, undan keyin qisqa o'zbekcha funksional izoh, so'ng matn davomida barqaror variant. Masalan, VPN – Virtual Private Network – "virtual xususiy tarmoq" tarzida berilishi mumkin. DDoS yoki RAT kabi qisqartmalarni majburan o'zbekcha bosh harflarga almashtirish xalqaro tanilishiga zarar yetkazadi. Shuning uchun qisqartma saqlanib, mazmuni o'zbekcha tushuntirilishi maqsadga muvofiq.

Metaforik terminlarda so'zma-so'z va funksional tarjima muvozanati kerak. Firewall uchun "olov devori" kalkasi obrazni saqlaydi, lekin mutaxassislar nutqida "tarmoqlararo ekran" yoki "tarmoq himoya devori" aniqroq bo'lishi mumkin. Patchni faqat "yamoq", wormni faqat "qurt" deb berish esa izohsiz holatda tushunmovchilik tug'diradi. Eng maqbul yo'l – terminni asl shaklda keltirib, uning funksiyasini qisqa ta'rif bilan ochish. Sleng birliklarida esa qo'shimcha ravishda kinoya, baho va guruhiy ohang ham izohlanishi lozim.

Hakerlar va kiberxavfsizlik leksikasi raqamli muloqotning texnik hamda ijtimoiy tomonlarini birlashtiradi. Grafik almashtirish, akronimlashuv, metaforalashuv, o'yinli derivatsiya va parodiya nomlash bilan birga tezkorlik, baholash, hazil va guruhiy mansublikni ifodalaydi. Asosiy natija shuki, bu birliklarni yoppasiga sleng deb bo'lmaydi: VPN, DDoS, TLS va firewall standart terminlarga yaqin, winnitude, n00b hamda Microslothda ekspressiv-guruhiy belgi ustun, ular oralig'ida esa kasbiy jargon joylashadi. Demak, tasnif nominativ aniqlik, rasmiylashuv, ekspressivlik va qo'llanish doirasi birligiga asoslanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raymond E.S. The New Hacker's Dictionary. 3rd ed. – Cambridge, MA: The MIT Press, 1996.
2. Crystal D. Language and the Internet. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
3. Blashki K., Nichol S. Game Geek's Goss: Linguistic Creativity in Young Males within an Online University Forum // Australian Journal of Emerging Technologies and Society, 2005. Vol. 3, № 2. – P. 71–80.
4. Squires L. Enregistering Internet Language // Language in Society, 2010. Vol. 39, № 4. – P. 457–492.
5. Nissenbaum H. Hackers and the Contested Ontology of Cyberspace // New Media & Society, 2004. Vol. 6, № 2. – P. 195–217. 10.1177/1461444804041445.
6. Taylor P.A. Hackers: Crime in the Digital Sublime. – London; New York: Routledge, 1999.
7. Coleman E.G. Coding Freedom: The Ethics and Aesthetics of Hacking. – Princeton: Princeton University Press, 2012.
8. Shirey R. Internet Security Glossary, Version 2 // RFC 4949. – RFC Editor, 2007. 10.17487/RFC4949.
9. Hughes J., Aycock S., Caines A., Buttery P., Hutchings A. Detecting Trending Terms in Cybersecurity Forum Discussions // Proceedings of the 2020 EMNLP Workshop W-NUT, 2020. – P. 107–115. 10.18653/v1/2020.wnut-1.15.

Surayyo AKRAMOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti

JAMOL KAMOL SHE'RIYATIDA TIL SHAXSIYATI VA MUALLIF POZITSIYASINING IFODALANISHI

Annotatsiya. Mazkur tezisda zamonaviy o'zbek she'riyatining yirik namoyandalaridan biri Jamol Kamol ijodida til shaxsiyati va muallif pozitsiyasining ifodalanish xususiyatlari lingvopragmatik nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Badiiy matnda ijodkorning individual nutqiy qiyofasi, dunyoqarashi, axloqiy-estetik qarashlari hamda voqelikka munosabati turli til vositalari orqali namoyon bo'ladi. Shoirning "Anvarmirzo hikoyatlari" turkumiga kiruvchi "Bo'lmagil" she'ri misolida muallif nutqining pragmatik xususiyatlari, xususan, direktiv va ekspressiv nutqiy aktlarning badiiy vazifasi tahlil qilinadi. She'riy matnda qo'llangan murojaat shakllari, buyruq-istak maylidagi birliklar va baholovchi vositalar orqali Jamol Kamolning insoniy kamolot, kamtarlik va ma'naviy yetuklik haqidagi muallif konsepti ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Jamol Kamol, til shaxsiyati, muallif pozitsiyasi, muallif konsepti, nutqiy akt, lingvopragmatika, she'riy nutq, direktiv akt, ekspressiv akt, badiiy matn.

Bugungi kun tilshunosligida tilni inson omili bilan bog'liq holda o'rganishga asoslangan antropotsentrik yondashuv muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida shakllandi. Mazkur yondashuv doirasida til shaxsiyati tushunchasi alohida ahamiyat kasb etib, u insonning lisoniy imkoniyatlari, tafakkur tarzi, kommunikativ tajribasi va milliy-madaniy qarashlarining nutq orqali namoyon bo'lishini ifodalaydi. Ayniqsa, badiiy matnda ijodkorning til shaxsiyati uning individual uslubi, estetik qarashlari hamda voqelikka munosabatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Badiiy asarda muallif pozitsiyasi nafaqat mazmun orqali, balki tanlangan til birliklari, uslubiy vositalar va nutqiy strategiyalar yordamida ham yuzaga chiqadi. Muallifning o'quvchiga munosabati, uni ma'lum fikrga yo'naltirishi yoki muayyan qadriyatlarni targ'ib qilishi nutqiy aktlar vositasida amalga oshadi. Shu jihatdan nutqiy aktlar badiiy matnda faqat aloqa vositasi bo'lib qolmay, balki ijodkorning kommunikativ niyati va individual poetik tafakkurini namoyon etuvchi pragmatik birlik sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek she'riyatida o'ziga xos poetik tafakkuri va falsafiy mushohadalari bilan ajralib turuvchi Jamol Kamol ijodini lingvopragmatik jihatdan o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Shoir she'riy nutqida inson ma'naviyati, kamtarlik, axloqiy barkamollik kabi umuminsoniy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Ushbu g'oyalar ijodkorning individual til tanlovi, baholovchi birliklari va kitobxonga yo'naltirilgan murojaat shakllari orqali ifodalanadi.

Jamol Kamolning "Anvarmirzo hikoyatlari" turkumidagi "Bo'lmagil" she'ri shoirning ma'naviy-axloqiy qarashlarini aks ettiruvchi badiiy namunalardan biridir. Mazkur she'rda takroriy qo'llangan "bo'lmagil" shakli, baholovchi leksemalar va nasihat ohangidagi murojaatlar muallif pozitsiyasini ochib beruvchi muhim lingvopragmatik vositalar sifatida namoyon bo'ladi. She'riy matndagi bunday birliklarni tahlil qilish orqali Jamol Kamolning til shaxsiyati va individual poetik uslubiga xos jihatlarni aniqlash mumkin.

Badiiy matnda ijodkorning til shaxsiyati uning individual nutqiy qiyofasi, voqelikka munosabat bildirish usuli va ma'naviy-estetik qarashlarini ifodalovchi murakkab hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shoir tanlagan har bir so'z, murojaat shakli, tasvir vositasi va sintaktik qurilma uning badiiy tafakkuri hamda muallif pozitsiyasini yuzaga chiqaradi. Shu jihatdan she'riy nutq oddiy axborot uzatish vositasi emas, balki ijodkorning ichki dunyosi, qadriyatlar tizimi va kitobxon bilan muloqot shaklini aks ettiruvchi estetik hodisadir.

Jamol Kamol she'riyatida insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy pokligi, kamtarligi va ruhiy erkinligi kabi masalalar alohida o'rin tutadi. Shoir poetik nutqida nasihat, murojaat va falsafiy mushohada ohangi uyg'unlashib, muallif pozitsiyasini aniq ifodalovchi vositalarga aylanadi. Bunday holatda til birliklari faqat tasviriy vazifa bajarmaydi, balki o'quvchiga ma'lum ma'naviy ta'sir ko'rsatishga xizmat qiladi. Shoirning "Anvarmirzo hikoyatlari" turkumidagi **"Bo'lmagil"** she'ri ana shunday pragmatik va poetik xususiyatlarni mujassam etgan asarlardan biridir.

She'rning asosiy qurilishi takroriy inkor shakli – "bo'lmagil" fe'li atrofida shakllangan. Mazkur birlik grammatik jihatdan taqiq ma'nosini bildirsa-da, badiiy matn doirasida u oddiy man etish emas, balki insonni ma'naviy komillikka chorlovchi axloqiy murojaat vazifasini bajaradi. She'rning boshlanishidagi: *"Har balo bo'l, mayli, lekin, tor-u mahdud bo'lmagil..."* misrasida muallif nutqining o'ziga xos jihati ko'rinadi. Bir qarashda "har balo bo'l" shakli keskin ohangni yuzaga keltiradi, biroq undan keyingi "lekin" bog'lovchisi orqali asosiy fikr ajratiladi. Shoir insonning tashqi holatidan ko'ra uning ichki dunyosi va tafakkur kengligiga e'tibor qaratadi. *"Tor-u mahdud"* birliklari orqali esa fikriy cheklanganlik, dunyoqarashning torligi salbiy baholanadi. Bu o'rinda muallif pozitsiyasi baholovchi til vositalari orqali ifodalanadi.

Keyingi – *"O'zgalarga masxara, nodon-u chulchit bo'lmagil"* misrasida shoir insoniy munosabatlar masalasiga murojaat qiladi. "Masxara", "nodon", "chulchit" kabi birliklar salbiy semantik yukka ega bo'lib, ular orqali muallif rad etayotgan xususiyatlar ko'rsatiladi. Ushbu birliklarning tanlanishi shoirning axloqiy mezonlarini ochib beradi: inson boshqalarni kamsituvchi emas, balki hurmat qiluvchi va ma'naviy mas'uliyatli bo'lishi kerak. Bu jihat Jamol Kamolning til shaxsiyatida insonparvarlik tamoyili yetakchi ekanini ko'rsatadi.

She'rning *"Kamtarinlik bobida tuproq bo'lishni qil havas..."* misrasida esa muallif idealining ijobiy qirrasi namoyon bo'ladi. *"Tuproq bo'lish"* obrazli ifodasi kamtarlik, soddalik va insoniylik timsoli sifatida qo'llangan. Shoir bu metafora orqali tashqi mavqe yoki shuhratdan ustun bo'lgan ichki poklik g'oyasini ilgari suradi. Mazkur birlik poetik matnda kuchli ekspressiv ta'sir hosil qilib, o'quvchini muallif qadriyatlariga yaqinlashtiradi.

So'nggi misradagi *"Bazm aro zarrin kamarbandlarga yoqut bo'lmagil"* ifodasida ham tashqi hashamat va ichki fazilat qarama-qarshi qo'yiladi. "Zarrin kamarband", "yoqut" kabi obrazlar boylik va dabdaba timsoli bo'lsa, ularning inkor shaklida berilishi shoirning inson qadrini moddiy belgilar bilan o'lchamaslik haqidagi qarashlarini ifodalaydi. Shu orqali muallif pozitsiyasi yanada aniqlashadi: haqiqiy qadr insonning tashqi bezagida emas, balki uning ma'naviy fazilatlaridadir.

She'rning barcha bandlarini birlashtirib turuvchi "bo'lmagil" takrori alohida pragmatik ahamiyatga ega. Ushbu shakl orqali shoir kitobxon bilan bevosita muloqotga kirishadi. Bu murojaat buyruq ohangiga ega bo'lsa-da, uning asosida mehr, tajriba

va ma'naviy yo'l ko'rsatish mazmuni mavjud. Shuning uchun "bo'lmagil" shakli direktiv nutqiy vosita sifatida namoyon bo'lib, o'quvchini muayyan xulqiy mezonlarga amal qilishga undaydi.

Umuman olganda, "Bo'lmagil" she'rida Jamol Kamolning til shaxsiyati uning tanlagan baholovchi birliklari, obrazli ifodalari va murojaat shakllarida aks etadi. Shoirning muallif pozitsiyasi esa insoniy kamolot, kamtarlik va ma'naviy yuksaklikni ulug'lash orqali namoyon bo'ladi. She'riy nutqdagi pragmatik vositalar ijodkorning nafaqat fikrini, balki uning axloqiy-estetik dunyosini ham ochib berishga xizmat qiladi.

Jamol Kamol she'riyatini lingvopragmatik jihatdan o'rganish shuni ko'rsatadiki, shoirning badiiy nutqi uning individual tafakkuri, axloqiy-estetik qarashlari va inson haqidagi falsafiy tasavvurlarini o'zida mujassam etgan yaxlit tizimdir. Til shaxsiyati badiiy matnda faqat so'z tanlash yoki uslubiy o'ziga xoslik orqali emas, balki ijodkorning voqelikka baho berish, kitobxon bilan muloqotga kirishish va ma'naviy g'oyalarni ifodalash usullari orqali ham namoyon bo'ladi.

"Bo'lmagil" she'ri tahlili asosida shuni aytish mumkinki, Jamol Kamol poetik nutqida murojaat va nasihat ohangi muhim o'rin egallaydi. She'rda qo'llangan inkor shakllari, baholovchi birliklar hamda obrazli ifodalar shoirning insoniy fazilatlar haqidagi qarashlarini ochib beradi. Ayniqsa, "bo'lmagil" takrorining badiiy-pragmatik vazifasi orqali muallifning o'quvchiga yo'naltirilgan nutqiy strategiyasi namoyon bo'ladi.

Shoir tomonidan tor tafakkur, kibr, nodonlik kabi salbiy holatlarning inkor qilinishi va kamtarlik, ma'naviy poklik kabi fazilatlarning ulug'lanishi uning muallif pozitsiyasining asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu holat Jamol Kamol til shaxsiyatining insonparvarlik va ma'naviy yetuklikka asoslangan poetik yo'nalishini ko'rsatadi.

Demak, Jamol Kamol she'riyatida til vositalari nafaqat badiiy tasvir yaratish, balki muallifning ichki dunyosi, hayotiy qarashlari va kitobxonga qaratilgan ma'naviy murojaatini ifodalash vazifasini ham bajaradi. Shoirning individual nutqiy qiyofasini o'rganish uning ijodiy olamini chuqurroq anglash hamda o'zbek she'riy matnining lingvopragmatik imkoniyatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kamol J. Saylanma. Anvarmirzo hikoyatlari. V qism. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
2. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: Fan, 2008.
3. Yo'ldoshev B. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Samarqand, 2008.
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarida. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2012.
5. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
6. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
7. Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Oxford University Press, 1962.
8. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.

Ma'mura NARZIYEVA,
Samarqand davlat universiteti dotsenti

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada Abdulla Oripov poetik matnlarining lingvokulturologik xususiyatlari til birligi, madaniy bilim va badiiy funksiya birligi asosida tadqiq qilinadi. Shoir ijodidagi toponim, antroponim, etnonim, diniy leksika, folklorizm, paremiologik model, qarindoshlik nomlari va milliy marosim semantikasiga ega birliklar tasniflanadi. Ularning nominativ, kumulyativ, aksiologik, identifikatsion va poetik vazifalari ochib beriladi. Natijalar madaniy belgilangan birlik A.Oripov matnida tayyor etnografik ma'lumot bo'lib qolmasdan, kontekst ta'sirida yangi hissiy va falsafiy ma'no hosil qilishini ko'rsatadi. Poetik matn milliy tajribani saqlash bilan birga uni individual badiiy idrok asosida qayta tashkil etadi.

Kalit so'zlar: poetik matn, lingvokulturema, toponim, antroponim, diniy leksika, folklorizm, madaniy xotira, badiiy funksiya.

Annotation. The article explores the linguocultural features of Abdulla Oripov's poetic texts through the unity of linguistic form, cultural knowledge, and artistic function. It classifies toponyms, anthroponyms, ethnonyms, religious vocabulary, folkloric elements, proverbial models, kinship terms, and units associated with national rituals. Their nominative, cumulative, axiological, identificational, and poetic functions are identified. The findings demonstrate that a culturally marked unit in Oripov's text is not merely ethnographic information; under contextual pressure it acquires new emotional and philosophical meanings. Poetic discourse therefore both preserves national experience and reorganizes it through an individual artistic consciousness.

Keywords: poetic text, linguocultureme, toponym, anthroponym, religious vocabulary, folklore, cultural memory, artistic function.

Аннотация. В статье лингвокультурные особенности поэтических текстов Абдуллы Арипова исследуются в единстве языковой единицы, культурного знания и художественной функции. Классифицируются топонимы, антропонимы, этнонимы, религиозная лексика, фольклоризмы, паремиологические модели, термины родства и единицы с семантикой национального обряда. Раскрываются их номинативная, кумулятивная, аксиологическая, идентификационная и поэтическая функции. Результаты показывают, что культурно маркированная единица в тексте Арипова не ограничивается этнографической информацией, а под влиянием контекста приобретает новое эмоциональное и философское содержание. Поэтический текст не только сохраняет национальный опыт, но и преобразует его посредством индивидуального художественного сознания.

Ключевые слова: поэтический текст, лингвокультурема, топоним, антропоним, религиозная лексика, фольклоризм, культурная память, художественная функция.

Lingvokulturologiya til birliklarida saqlangan madaniy axborotni, uning jamoaviy xotira va qadriyatlar bilan aloqasini o'rganadi. Badiiy matnda bu aloqa yanada murakkablashadi, chunki oddiy nutqda tayyor ma'noga ega birlik poetik kontekstda yangi assotsiativ, emotsional va ramziy qatlamlar hosil qiladi. Shu jihatdan lingvokulturema til va madaniyat kesishgan tayyor belgi emas, muallif konsepsiyasi bilan qayta faollashadigan dinamik birlikdir [4: 5]. Abdulla Oripov poetik matnlari milliy tarix, xalqona nutq, diniy-axloqiy tasavvur va zamonaviy shaxs kechinmasini bir matn maydonida uyg'unlashtirgani bilan ajralib turadi.

Shoir asarlari korpusida O'zbekiston, Qarshi, Turkiston, Buxoro, Ka'ba, Arofat kabi makon nomlari; Temur, Bobur, Alisher, Pahlavon Mahmud singari tarixiy antroponimlar; ona, ota, farzand, xalq, el kabi ijtimoiy-madaniy nominatsiyalar; savob, tavba, duo, ibodat, vijdon va diyonat kabi aksiologik birliklar muntazam uchraydi [1: 2]. Ularning har biri o'quvchi xotirasida oldindan mavjud madaniy bilimni uyg'otadi. Biroq poetik qiymat faqat tanish nomning qo'llanishi bilan emas, shu nomning ritm, sintaksis, obraz va muallif bahosi bilan qanday bog'langaniga ko'ra yuzaga keladi.

Toponimik lingvokulturemalar shoir matnlarida milliy makonni belgilovchi eng faol qatlamdir. O'zbekiston nomi siyosiy-geografik referentni bildirsa-da, poetik kontekstda ona, taqdir, mehr, tarix va g'urur semalari bilan kengayadi. Qarshi toponimi shoirning tug'ilgan hududi, bolalik xotirasi va xalqona muhitni; Turkiston esa umumturkiy tarixiy-madaniy birlikni eslatadi. Buxoro va Minorai Kalon singari nomlar me'moriy obidani atash bilan birga ilm, qadimiylik va davomiylikni ifodalaydi. Demak, toponim makonni ko'rsatishdan tashqari lirik subyektning kimga va qayerga mansubligini belgilaydi.

Tarixiy antroponimlar matnning pretsedent qatlamini shakllantiradi. Alisher nomi ijod, til va ma'naviy komillikni; Bobur nomi Vatan sog'inchi, sarkardalik va ijodkorlikning murakkab birligini; Temur nomi davlatlilik, iroda va tarixiy mas'uliyatni; Pahlavon Mahmud nomi jasorat bilan ma'rifat uyg'unligini faollashtiradi. Bu nomlar haqida keng izoh berilmaydi, chunki muallif o'quvchining madaniy kompetensiyasiga tayanadi. Antroponimning qisqa shaklda katta mazmun tashishi poetik matnning semantik tejamkorligini ta'minlaydi va bugungi lirik vaziyatni tarixiy mezon bilan qiyoslash imkonini beradi [7].

Etnonim va jamoaviy nominatsiyalar identifikatsion vazifa bajaradi. O'zbek, xalq, el, millat, Turkiston bolalari kabi birliklar lirik subyektni individual "men" doirasidan chiqarib, jamoaviy "biz" bilan bog'laydi. Bunday birliklar ko'pincha egalik affikslari, birinchi shaxs ko'plik shakli va bevosita murojaat bilan birga keladi. Natijada matnda madaniy hamjamiyatning ichki ovozi paydo bo'ladi. Shoir millatni faqat maqtov obyekti sifatida emas, vijdon va mas'uliyat egasi sifatida tasvirlagani sababli identifikatsiya tanqidiy o'zlikni anglash bilan uyg'unlashadi.

Qarindoshlik nomlari A.Oripov poetikasidagi eng ta'sirchan lingvokulturemalar qatoriga kiradi. Ona, ota, farzand, aka, singil kabi leksemalar o'zbek madaniyatidagi oila markazliligi, hurmat, burch va avlodlar davomiyligini ifodalaydi. Ona leksemasi, ayniqsa, ko'p funksiyali: biologik ona, ona Vatan, ona til va himoya qiluvchi ma'naviy kuch ma'nolari o'zaro yaqinlashadi. "Ona degan nom", "Onamga xat", "Oila" singari she'rlarda qarindoshlik munosabati individual xotiradan umumiy axloqiy xulosaga ko'tariladi. Bu yerda oilaviy tajriba milliy qadriyatni anglashning boshlang'ich modeli bo'lib xizmat qiladi.

Diniy leksika shoir poetik matnlarining alohida madaniy qatlamini tashkil etadi. Ka'batulloh, Arofat, haj, ibodat, vahiy, me'roj, tavba, duo, savob kabi birliklar "Haj daftari"da islomiy bilim va marosimni nomlaydi [3]. Ammo ularning badiiy funksiyasi terminologik axborotdan keng: ular insonning kibr, hasad, g'iybat, adolatsizlik va loqaydlikka munosabatini baholaydi. Shoir muqaddas makon va amallarni axloqiy o'zgarish talabi bilan bog'lab, diniy tajribani kundalik insoniy xulqqa tatbiq etadi. Shu sababli diniy lingvokulturema ma'rifiy, aksiologik va transformativ vazifalarni bir paytda bajaradi.

Folklorizmlar va paremiologik modellar xalqona tafakkurning matndagi faol ko'rinishidir. "Hangoma", "Tulki falsafasi", "Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi" kabi asarlarda latifa, masal, rivoyat va xalq hikoyachiligi usullari zamonaviy muammolarni yoritishga safarbar etiladi. Sodda dialog, kutilmagan xulosa, tipik personaj, takror va xalqona baholash formulasi o'quvchiga tanish kommunikativ muhit yaratadi. Shoir folklor syujetini aynan takrorlamaydi; uni ironik yoki falsafiy ma'no beradigan yangi kontekstga joylashtirib, an'anaviy shaklning zamonaviy semantik imkoniyatini ochadi [8].

Milliy marosim va odob semantikasi ko'pincha bevosita marosim nomidan ko'ra nutqiy xulq orqali ifodalanadi. Kattaga murojaat, ona roziligi, marhumlar sha'nini hurmat qilish, mehru oqibat, duo va savob haqidagi poetik hukmlar o'zbek madaniyatidagi munosabat me'yorlarini aks ettiradi. Murojaatning ehtirosli yoki tavoze'li shakli, iltimos va nasihatning ohangi, "el", "aziz", "ona", "do'st" kabi vokativ birliklar madaniy etikani tilning grammatik tuzilishiga olib kiradi. Demak, lingvokulturologik xususiyat faqat leksik markerda emas, muloqot usulida ham namoyon bo'ladi.

Tabiat obrazlari ham milliy madaniy tajriba bilan bog'langanda lingvokulturemaga aylanadi. Shamol, quyosh, bahor, tuproq, daryo, chinor va qush birliklari universal tabiiy obyektlarni anglatsa-da, A.Oripov matnida ular yurt, xotira, umid, erkinlik yoki vaqt tushunchalari bilan birikadi. "Yurtim shamoli"da shamol Vatan nafasi va xabarini; bahor yangilanish bilan birga sog'inchni; tuproq esa ajdod va mansublikni anglatadi. Madaniy ma'no predmetning lug'aviy semasiga tayyor holda kiritilmagan, balki takroriy kontekst va baholovchi munosabat orqali hosil qilingan.

Lingvokulturemalarning poetik funksiyasi ularning o'zaro aloqasida to'liq ochiladi. Masalan, tarixiy antroponim toponim bilan, toponim qarindoshlik metaforasi bilan, diniy birlik axloqiy baho bilan birikadi. Alisher Navoiy – ona tili – millat; Ka'ba – tavba – inson; O'zbekiston – ona – farzand kabi zanjirlar matnda madaniy bilimning tarmoqli tuzilishini yaratadi. Shu tufayli o'quvchi bitta nomni idrok etar ekan, unga bog'langan butun qadriyatlar majmuasini ham faollashtiradi. Poetik matnning zichligi aynan ana shu assotsiativ ko'p qatlamlilik orqali yuzaga keladi.

Tadqiqot natijasida Abdulla Oripov poetik matnlarida madaniy belgilangan birliklarning olti asosiy guruhi aniqlandi: makoniy-toponimik, tarixiy-antroponimik, etnoidentifikatsion, qarindoshlik, diniy-aksiologik va folklor-poetik lingvokulturemalar. Tabiat-timsol birliklari esa mazkur guruhlarni bog'lovchi ko'chma qatlam vazifasini bajaradi. Har bir guruh kamida ikki vazifani birlashtiradi: toponim nomlash bilan birga mansublikni, antroponim eslatish bilan birga mezonni, diniy termin axborot bilan birga axloqiy bahoni yuzaga chiqaradi.

Muhokama shuni ko'rsatdiki, lingvokulturemani faqat "milliy bo'yoqli so'z" deb belgilash yetarli emas. Ayrim universal birliklar – ona, quyosh, shamol, tuproq – shoir kontekstida milliy tajriba bilan muntazam bog'langani uchun kuchli madaniy belgi kasb etadi. Aksincha, tarixiy yoki diniy nom kontekstual vazifa bajarmasa, u oddiy nominatsiya darajasida qolishi mumkin. Shuning uchun tasnif birlikning kelib chiqishiga emas, matnda faollashgan madaniy mazmuni va estetik natijasiga asoslanishi lozim.

Oripov matnlarining lingvokulturologik xususiyati milliy va umuminsoniy mazmunning qarama-qarshi qo'yilmasligida ham ko'rinadi. O'zbekona oila, tarix, toponim va diniy tasavvur vositasida inson sha'ni, adolat, sadoqat, tinchlik va mehr singari universal qadriyatlar yoritiladi. Shu sababli milliy birlik o'quvchini tor etnik chegaraga qamamaydi; aksincha, konkret madaniy tajriba orqali umumiy insoniy xulosaga olib boradi. Mazkur holat shoir poetikasining keng kommunikativ ta'sirini izohlovchi omillardan biridir.

Abdulla Oripov poetik matnlarining lingvokulturologik tabiati til birligi, madaniy xotira va badiiy funksiya uyg'unligida namoyon bo'ladi. Toponim, antroponim, etnonim, qarindoshlik nomi, diniy termin, folklorizm va tabiat timsoli matnda nominativ vazifadan chiqib, identifikatsion, aksiologik, kumulyativ hamda estetik vazifalarni bajaradi. Shoir milliy tajribani tayyor shaklda takrorlamaydi, balki uni individual lirik vaziyat, ritm, sintaksis va obrazlar tizimida qayta talqin qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oripov A. Saylanma: she'rlar, turkumlar va doston. – Toshkent: Sharq, 1996.
2. Oripov A. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. 1-jild: She'rlar va dostonlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
3. Oripov A. Haj daftari. Hikmat sadolari: ellik hadis. – Toshkent: Sharq, 1992.
4. Воробьёв В.В. Лингвокультурология: теория и методы. М.: Изд-во РУДН, 1997.
5. Маслова В.А. Лингвокультурология. М.: Академия, 2001.
6. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015.
7. Jabborov I. Abdulla Oripov she'rlarida tarix tuyg'usi // O'zbek tili va adabiyoti, 2008, № 2. – B. 60–62.
8. Hamdamov A. Abdulla Oripov ijodida folklor an'analari // O'zbek tili va adabiyoti, 2004, № 6. – B. 48–51.
9. Vafoyeva M., Dusanova D. Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramasida frazeologizm va tasviriy vositalarning qo'llanilishi // Til va adabiyot ta'limi, 2002, № 4. – B. 59–63.
10. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М.: Языки русской культуры, 1996.

Dilnavoz YUSUPOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori

TA'LIM TIZIMIDA ALISHER NAVOIY G'AZALLARINI SHARHLASH

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiy g'azallarini sharhlashning asosiy tamoyillari va usullari tahlil qilingan. Shoir g'azallarining mavzu, janr, shakl, kompozitsiya va semantik xususiyatlari yoritilib, ularni sharhlash jarayonida tarixiy-adabiy kontekst, murakkab so'z va iboralar, vazn, qofiya, badiiy san'atlar hamda baytlarning mazmuniy aloqadorligini hisobga olish zarurligi asoslangan. Navoiy g'azallari hamd, munojot, na't, ishqiy, orifona, axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy, rindona, tabiat tasviri va hajviy mavzular asosida shartli tasniflanadi. Shuningdek, g'azallarning oddiy, husni matla', musajja', mulamma', zulqofiyatayn va zulradifayn kabi shakliy ko'rinishlari hamda ta'rif, tavsif, madh va sharhi hol tarzidagi semantik-uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada Navoiy g'azallarining ko'p qatlamli mazmunini ochishda tizimli va kompleks sharhlash usulining ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: g'azal, sharhlash tamoyillari, mumtoz poetika, kompozitsiya, semantik struktura, badiiy san'at, majoziy ishq, haqiqiy ishq.

Annotation. The article examines the main principles and methods of interpreting Alisher Navoi's ghazals. It focuses on the thematic, genre, formal, compositional, and semantic features of the poet's ghazals and substantiates the importance of taking into account the historical and literary context, difficult words and expressions, poetic metre, rhyme, rhetorical devices, and the semantic relations between individual couplets in the process of interpretation. Navoi's ghazals are conditionally classified according to such themes as praise of God (hamd), supplication (munojot), praise of the Prophet (na't), romantic love, mystical-philosophical thought, moral and educational ideas, social issues, rindana themes, descriptions of nature, and satire. The article also considers formal types of ghazals, including ordinary ghazals, husni matla', musajja', mulamma', zulqofiyatayn, and zulradifayn, as well as their semantic and stylistic features such as ta'rif, tavsif, madh, and sharhi hol. The study demonstrates that a systematic and comprehensive approach to interpretation makes it possible to reveal the multilayered semantic, philosophical, mystical, and aesthetic dimensions of Navoi's ghazals and to convey their artistic and spiritual significance to the modern reader.

Keywords: ghazal, interpretation, classical poetics, composition, semantic structure, rhetorical devices, metaphorical love, true love.

Аннотация. В статье анализируются основные принципы и методы комментирования и интерпретации газелей Алишера Навои. Освещаются тематические, жанровые, формальные, композиционные и семантические особенности газелей поэта, а также обосновывается необходимость учета историко-литературного контекста, сложной лексики и фразеологии, размера, рифмы, поэтических фигур и смысловой взаимосвязи бейтов в процессе их комментирования. Газели Навои условно классифицируются по следующим темам: хамд (восхваление Аллаха), муноджот (обращение к Богу), наат (восхваление Пророка), любовные, назидательно-этические, социальные, риндоны (посвященные образу ринда), описания природы и сатирические. Также анализируются такие формальные разновидности газелей, как простые, хусни матла, мусаджа, муламма, зулкафиатайн и зулрадифайн, а также их семантико-стилистические особенности в виде тарифа, тавсифа, мадха и шархи хол. В статье показано значение системного и комплексного метода комментирования для раскрытия многослойного содержания газелей Навои.

Ключевые слова: газель, принципы комментирования, классическая поэтика, композиция, семантическая структура, поэтические фигуры, метафорическая любовь, истинная любовь.

Yigirma oltinchi yili o'tib borayotgan yangi asr insoniyat tarixidagi oddiy sana emas, balki uning tafakkurida, yashash tarzida; hayotga, olam va odamga bo'lgan munosabatlarida muhim o'zgarishlarning namoyishi hamdir.

Alisher Navoiy asarkari yaratilgan davrdan salkam olti asr uzoqlashib ketgan bugungi kitobxon bilan Navoiy yashagan davr orasidagi bu qadar katta masofa, tildagi o'zgarishlar, shoir asarlaridagi ma'no ko'lamdorligi, ramziylik va majoziylik, falsafiy mushohadakorlikning kengligi XXI asr o'quvchisi oldiga buyuk mutafakkir ijodini tom ma'noda anglashda yetarli darajadagi to'siqlarni qo'yadi.

Ayniqsa, asosiy axborotni ijtimoiy tarmoqlardan tez va qulay tarzda qabul qilishga moslashib borayotgan bugungi kitobxonda Navoiy asarlari, xususan, g'azallariga muhabbat va ma'naviy ehtiyoj uyg'otish oson kechmayotganligi bugun hech kimga sir emas. Olimlarimiz bu borada navoiyshunoslikda qilinishi zarur bo'lgan eng avvalgi vazifa sifatida shoir g'azallarining sharh va izohlarini yaratish hamda ularni keng o'quvchilar ommasiga yetkazish masalasini qo'yadilar.

Shu ma'noda biz ushbu maqolada Alisher Navoiy g'azallari va ularning sharhi bo'yicha ayrim tavsiya va mulohazalarimizni bayon qilmoqchimizki, bu borada ustoz olimlarimiz N.Komilov, A.Rustamov, Y.Is'hoqov, B.To'xliyev, N.Jumaxo'ja, K.Mullaxo'jaeva, O.Davlatov, Z.Mamadaliyeva amalga oshirgan ishlar biz uchun tajriba maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiy g'azallari tasnifi. Mavzuiy tasnif

Ma'lumki, shoir she'rlarining asosiy qismi uning 1492-1498-yillarda tartib berilgan lirik kulliyoti – "Xazoyin ul-maoniy" dan o'rin olgan. "Xazoyin ul-maoniy" da eng ko'p qo'llanilgan janr, shubhasiz, **g'azal**dir. Shoirning turkiy tilda bitilgan 2600 g'azali ushbu kulliyotdan o'rin olgan. Navoiy g'azallari faqat miqdor jihatidan emas, balki g'oyaviy-badiiy ko'lami jihatidan ham Sharq mumtoz g'azalchiligining yuksak namunalari sirasiga kiradi.

G'azal arabcha "oshiqona so'z", "ishq izhor qilish" ma'nolarini bildirib, *a-a, b-a, d-a, e-a*... tarzida qofiyalanuvchi, 3 baytdan 19 baytgacha hajmda bo'lgan baytli she'r shaklidir. Turkiy adabiyotda 5 – 10 baytli g'azallar ko'p uchraydi. Navoiy g'azallari esa asosan 7 baytdan 13 baytgacha hajmda bo'lib, bu haqda shoirning o'zi «Badoye' ul-vasat» devoniga kiritilgan qit'asida shunday ma'lumot beradi:

Navoiy she'ri to'qquz bayt-u o'n bir bayt, o'n uch bayt
Ki, lavh uzra qalam ziynat berur ul durri maknundin.
Bukim, albatta, yetti baytdin o'ksuk emas, ya'ni
Tanazzul aylay olmas rutba ichra yetti gardundin.

G'azalning birinchi bayti matla' yoki mabda', oxirgi bayti esa maqta' deb ataladi, maqta'da shoir taxallusi qo'llaniladi. Agar ikkinchi bayt ham matla' singari qofiyalansa, ya'ni g'azal qo'sh matla'ga ega bo'lsa, "husni matla'" yoki "zebi matla'"li g'azal deb ataladi.

G'azalning dastlabki namunalari VIII – IX asrlarda arab adabiyotida paydo bo'lgan, fors-tojik adabiyotida ilk g'azal yozgan shoir sifatida Rudakiy tilga olinadi. O'zbek adabiyotida esa dastlabki g'azal Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy» asarida (XIV asr) uchraydi. G'azalning dostonlar tarkibida uchrashi ilk bor Xorazmiyning "Muhabbatnoma" sidan (1353 – 1354) boshlanadi.

Navoiy turkiy tildagi g'azal janrini o'zigacha mavjud an'analardan foydalangan holda yangi bosqichga ko'tardi. Forsiy g'azalchilikning tajriba va yutuqlarini o'rganib, uning eng yaxshi jihatlarini turkiy g'azaliyot taraqqiyotiga xizmat qildirdi. Shoir "*G'azalda uch kishi tavridir ul nav*'" deb boshlanadigan bir qit'asida forsigo'y ustozlari – Amir Xusrav

Dehlaviy, Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiy nomlarini tilga olib, o'z g'azallarining yaratilishida bu ijodkorlar ko'rsatgan ta'sirni alohida e'tirof etadi. G'azallaridagi irfoniy-ma'rifiy, ishqiy va rindona mavzular badiiy talqinining ildizlariga ishora qiladi.

Alisher Navoiy g'azallarini sharhlashda dastavval uning mavzusi va usluban qaysi turga mansubligi, taxminiy xronologiyasi, ya'ni qaysi devondan o'rin olganligi, hajmi aniqlab olingach, tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar lug'atini ishlab chiqish tavsiya qilinadi. So'ngra shular asosida baytlarning nasriy bayoni amalga oshiriladi. G'azalda qo'llanilgan vazn, badiiy san'atlar ham o'rganilgach, uning umumiy mazmun-mohiyati haqida tasavvur hosil qilinadi.

Navoiy g'azallarini mavzusiga ko'ra shartli ravishda quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Hamd g'azallar:
Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo,
Yuzung quyoshig'a zarroti kavn o'lub shaydo.
("Navodir ush-shabob", 1-g'azal)

2. Munojot g'azallar:
Iloho, podshoho, kirdigoro
Sanga ochug' nihon-u oshkoro.

3. Na't g'azallar:
Ey, nubuvvat xaylig'a xotam bani Odam aro,
Gar alar xotam, sen ul otkim, erur xotam aro.
("G'aroyib us-sig'ar", 6-g'azal)

4. Oshiqona yoki ishqiy mavzudagi g'azallar:
Tun oqshom bo'ldi-yu, kelmas mening sham'i shabistonim,
Bu anduh o'tidin har dam kuyar parvonadek jonim.
("G'aroyib us-sig'ar", 403-g'azal)

5. Orifona yoki tasavvufiy-falsafiy mavzudagi g'azallar:
Dema, ne sud erur o'lmoq fano harimig'a xos,
Yana ne sud kerak o'zlugungdin etsa xalos.
("G'aroyib us-sig'ar", 271-g'azal)

6. Axloqiy-ta'limiy mavzudagi g'azallar:
Sen o'z xulqungni tuzgil, bo'lma el axloqidin xursand,
Kishiga chun kishi farzandi hargiz bo'lmadi farzand.
("G'aroyib us-sig'ar", 115-g'azal)

7. Ijtimoiy mavzudagi g'azallar:
Topmadim ahli zamon ichra bir andoq hamdame
Kim, zamon osibidin bir-birga aytishsoq g'ame.
("Navodir ush-shabob", 576-g'azal)

8. Rindona g'azallar:
Soqiyo, tut bodakim, bir lahza o'zumdin boray,
Shart bukim, har necha tutsang, labolab sipqoray.
("G'aroyib us-sig'ar", 588-g'azal)

9. Tabiat tasviri aks etgan g'azallar:
Bulut hayvon zuloli birla tirguzdi havo jonin,
Sevunmak ashkidin shodob qildi sabza mujgonin.
("G'aroyib us-sig'ar", 440-g'azal)

10. Hajviy mavzudagi g'azallar:
Ul shayxki minbar uza afsung'a berur tul,
Shaytondur o'zi, majlisining ahli suruk g'ul.
("Favoyid ul-kibar", 377-g'azal)

Aslida, bunday tasnif nisbiy bo'lib, ba'zan Alisher Navoiyning ishqiy mavzudagi g'azallari tarkibida (ko'pincha maqta'dan oldingi baytda) ijtimoiy masalalar bilan bog'liq baytlar, tabiat tasviri aks etgan g'azallarida yor tasviri va h.k. mazmundagi baytlarni ham kuzatish mumkin.

"Xazoyin ul-maoniy" da qirqdan ortiq hamd va munojot, qirqqa yaqin na't g'azallar mavjud. Shoir hamd g'azallarda Allohni madh etib, ta'rif-u tavsif qilar ekan, Uning azaliy va abadiyligini, qudrati, lutfi, mehri-yu qahrini bu olamdagi tajalliysi vositasida badiiy ifodalaydi. Munojot mavzusidagi g'azallarda muallifining Yaratgandan najot so'rab qilgan iltijolari badiiy tarzda qilinadi.

Na't mavzusidagi g'azallarda Rasulullohga muhabbat va bu muhabbatning otashi, shiddati butun bo'y-basti bilan namoyon bo'lsa, rindona g'azallarda may va u bilan bog'liq holda *soqiy, qadah, mayxona, mug'bacha* timsollaridan mohiyat va hodisani badiiy talqin etishda foydalanilgan. Shoirning zohiran muayyan mavzuni – oshiqona mazmunni ifodalagan ko'pgina g'azallari botinda orifona mohiyatga ega. Buning natijasida bayt yoki g'azalda qo'llanilgan obraz va timsollar bir necha ma'nolar qatlamini o'zida aks ettiradi. Navoiyning peyzaj mavzusidagi g'azallarida tabiat tasviri keng planda qo'yilib, muayyan ijtimoiy-falsafiy mohiyat kasb etadi. Adabiyotshunos Y.Is'hoqovning qayd etishicha, shoir doimo tabiat bilan inson o'rtasida umumiylik ko'radi va ko'pincha ularni bir-biriga tamsil tarzida tasvirlaydi. Ijtimoiy va axloqiy-ta'limiy mavzudagi g'azallarda g'azalning lirik qahramoni faylasuf va murabbiy sifatida olam va odamning mohiyati haqida o'z qarashlarini bayon etadi.

Yuqorida aytilganidek, Navoiy g'azaliyotida ishq mavzusi asosiy o'rinni egallaydi. Bu mavzu, umuman, musulmon Sharqi she'riyatida ham yetakchi o'rinda bo'lib, Alisher Navoiy unga o'z ijodining deyarli barcha bosqichlarida murojaat qilgan:

Ey Navoiy, ishq atvorini hifz aylay degan,
Barcha ishni tark etib, qilsun bizing devonni hifz.

Buyuk mutafakkir «Mahbub ul-qulub» asarida ishqni 3 darajaga ajratadi:

1) avom ishqi;
2) xoslar ishqi (majoziy ishq);
3) siddiqlar ishqi (haqiqiy ishq).

Alisher Navoiy ijodida ishqning quyi bosqichi – avom ishqini tasvirlash maqsad qilib olinmagan, zero, uning fikricha, bunday ishqning «zikri tarki adabdur va bayoni behijobliqqa sabab». Shu ma'noda shoir ishqiy lirikasining asosini majoziy va haqiqiy ishq tarannumi tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, Navoiy she'riyatida majoziy ishq haqiqiy ishqqa qarama-qarshi qo'yilmaydi, balki majoziy ishq haqiqiy ishq uchun ko'prik degan g'oya ilgari suriladi:

Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq,
Nedinki ahli haqiqatqa bu tariqat erur.
Majozdin chu haqiqatqa yo'l topar oshiq,
Qilur majozni nafyi ulki, behaqiqat erur.
(Favoyid ul-kibar, 5-qit'a)

Shoirning majoz tariqida boshlangan g'azallari nihoyada haqiqiy ishq vasfi bilan intiho topadi, g'azallarida tasvirlangan "yor" tushunchasi tor ma'noda ma'shuqa timsolini ifodalash bilan birga keng ma'noda "do'st", "rafiq", "ustoz", "piri komil", "Payg'ambarimiz" (s.a.v.) va Alloh ma'nolarida ham keladi.

Shakl va qofiyalanish nuqtai nazaridan tasnif

Navoiy g'azallarini shakl va qofiyalanish nuqtai nazaridan quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Oddiy yoki odatiy g'azal (qofiyalanishi: a-a, b-a, v-a, g-a...):
Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi
Ko'zlarimg'a kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqdim-u chekdim yo'lida intizor,
Keldi jon og'zimg'a-u ul sho'xi badxo' kelmadi...

2. G'azali husni matla' yoki qo'sh matla'li g'azal (qofiyalanishi: a-a, a-a, b-a, d-a...):
Tun oqshom bo'ldi-yu kelmas mening sham'i ***shabistonim,***
Bu anduh o'tidin har dam kuyar parvonadek ***jonim.***
Ne g'am ko'rguzsa ko'ksum porasin choki ***giribonim,***
Ko'runmas bo'lsa ko'ksum yorasidin dog'i ***pinhonim...***

3. G'azali musajja' (ikkinchi baytdan boshlab ichki qofiya qo'lllaniladigan)

Vah, ne balo ekinkim, ul chiqti samandin o'ynatib,
Qoshlari yosini chekib, g'amzasi o'qlarin otib.
*Fitna qilurg'a **otlanib**, goh chopib, gahi **yonib**,*
*Har tarafekim **aylanib**, o'zgacha la'b ko'rsatib...*

4. G'azali mulamma' (misralari ikki va undan ortiq tilda bitiladigan) –

Ul koni malohatda demon bor edi bir on,
Lan tanzur fi husnihi al'ona kamo kon.

(Baytning mazmuni: U go'zallikka shuchalar boyki, uning husniga agar nazar solsang, shundayligiga iqror bo'lasan).

In ixtariqa jismiy min nori havoyih,
Kuymasligi xasning choqin etkanda ne imkon...

(Baytning mazmuni: Sening havoying o'tida jismim kuyib-yondi, olov yonganda xasning yonmasligiga imkon bormi?)

5. G'azali zulqofiyatayn (zulqofiyatayn san'ati – ikki qofiyalilikka asoslangan)

*Ko'zung ne **balo qaro** bo'luptur*
*Kim, jong'a **qaro balo** bo'luptur.*
Majmu'i davoni dard qildi
*Dardingki, **mango davo** bo'luptur...*

6. G'azali zulradifayn (ikki radifga asoslangan)

*Yordin ayrilg'ali shaydo **ko'ngul,** bexob **ko'z.***
*Har zamon zohir qilur savdo **ko'ngul,** xunob **ko'z.***
Ko'z-u ko'nglum bahr-u bar sayr ettilar yor istabon,
*Bu safarda toptilar yag'mo **ko'ngul**, g'arqob **ko'z...***

Navoiy g'azallari kompozitsiyasi ham uning mazmuni va tasvir usullari kabi rang-barang bo'lib, "Xazoyin ul-maoniy" dagi 2600 g'azalning har biri o'ziga xos kompozitsiya va semantik strukturaga ega. Y.Is'hoqovning ma'lumot berishicha, shoir «Xazoyin ul-maoniy» debochasida o'z g'azallarining semantik strukturasiga oid ayrim qaydlarni bayon qilgan va shu asosda Navoiy g'azallarini shartli ravishda usluban *ta'rif, tavsif, madh, sharhi hol* kabi turlarga ajratish mumkin. *Ta'rif* va *tavsif*, *ta'rif* bilan *madh* bir-biriga yaqin tursa-da, ular orasida o'ziga xosliklar mavjud. Ta'rif madhga nisbatan torroq tushuncha bo'lib, badiiy funksiyasi jihatidan uning tarkibiga kiradi, ta'rif ko'pincha yorning husn-u jamolini umumiy tarzda aks ettirsa, madhda mamduh (maqtalayotgan obyekt)ning barcha zohiriy va botiniy fazilatlari maqtaladi. Ta'rif va tavsif ham ko'p o'rinda qo'shilib ketgandek tuyulsa-da, lekin tavsifning qo'llanish doirasi kengroq: uning uchun insoniy sifatlar ham, tabiat manzaralari ham, oshiqning iztirobli tuyg'ulari bayoni ham obyekt bo'la oladi. Ya'ni ta'rif, asosan, ijobiy xarakterga ega bo'lsa, tavsif ancha keng ko'lamda qo'llaniladi. Sharhi hol tarzidagi g'azallar esa ichki kechinmalarning to'g'ridan to'g'ri bayoni va sharhidan iborat. Navoiy g'azallarning usluban bunday tasniflanishi ham nisbiy bo'lib, ishqiy mavzudagi g'azallarda ko'pincha ta'rif, tavsif va madh birlashgan holda keladi.

Navoiy g'azallarining semantik strukturasi uchun xos bo'lgan yana bir xususiyat shundaki, shoirning aksariyat g'azallarida maqta'dan oldingi bayt mazmun va uslub jihatidan butun g'azal tarkibidagi boshqa baytlardan ajralib turadi. Bunday bayt, oldingi baytlardagi tasvir usulidan qat'i nazar, ikkinchi shaxsga (mazmunan kitobxonga yoki, umuman, barchaga) qaratilgan murojaat, xitob tarzidagi o'git (ba'zan kinoya, ta'na) yoki umumlashgan ibratomuz xulosadan iborat bo'ladi. Shoir ko'pincha o'z fikrini soqiyga yoki boshqa biror obyektga (ma'shuqaga, shohga, gulga) murojaat shaklida izhor qiladi. A.Hayitmetov bunday baytlarni "lirik chekinish tarzidagi baytlar" deb atagan edi.

Alisher Navoiy g'azaliyoti mazmun-mohiyati, badiiy-estetik xususiyatlari, obraz va timsollarining serqatlamligi hamda shakliy-kompozitsion rang-barangligi bilan mumtoz o'zbek adabiyotining eng yuksak namunalaridan biridir. Shoir g'azallarini bugungi kitobxonga to'laqonli yetkazish uchun ularni faqat lug'aviy jihatdan izohlash bilan cheklanib qolmay, asarning yaratilish davri, mavzusi, janriy va uslubiy xususiyatlari, vazni, qofiyasi, badiiy san'atlari hamda semantik strukturasini o'zaro aloqadorlikda o'rganish zarur.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Navoiy g'azallarini sharhlashda, avvalo, g'azalning mavzusi va uslubiy turi aniqlanishi, murakkab so'z va iboralar lug'ati tuzilishi, baytlarning nasriy bayoni amalga oshirilishi, shuningdek, vazn va badiiy san'atlar tahlil qilinishi lozim. Bunday izchil yondashuv g'azalning umumiy mazmun-mohiyatini anglash imkonini beradi.

Navoiy g'azallarining hamd, munojot, na't, ishqiy, orifona, axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy, rindona, tabiat tasviri va hajviy mavzularga ajratilishi ularning mazmuniy ko'lamining nihoyatda kengligini ko'rsatadi. Biroq bunday tasnif shartli bo'lib, bir g'azal tarkibida bir necha mavzu va mazmun qatlamlari uyg'unlashishi mumkin. Ayniqsa, shoir lirikasida majoziy va haqiqiy ishq o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, majoziy ishq haqiqiy ishqni anglash sari olib boruvchi vosita sifatida talqin etiladi. Shuningdek, g'azallarning oddiy, husni matla', musajja', mulamma', zulqofiyatayn va zulradifayn kabi shakliy turlarga mansubligi ularning badiiy qurilishi va poetik imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Har bir g'azalning o'ziga xos kompozitsion va semantik strukturaga ega ekanligi uni individual badiiy hodisa sifatida tadqiq etishni taqozo etadi.

Umuman olganda, Alisher Navoiy g'azallarini sharhlashda kompleks va tizimli yondashuvdan foydalanish mumtoz matnning tashqi mazmuni bilan bir qatorda uning botiniy, falsafiy-irfoniy va axloqiy-estetik qatlamlarini ham ochib berish imkonini yaratadi. Bu esa Navoiy merosini zamonaviy kitobxonga tushunarli va ilmiy asoslangan tarzda yetkazish, shoir ijodining ma'naviy-estetik qimmatini yanada chuqurroq anglatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy / ilmiy-tanqidiy tekst asosida nashrga tayyorlovchi H.Sulaymonov. 4 jildlik. 1–4-jildlar. – Toshkent: Fan, 1959–1960.
2. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati. 4 tomlik / E.I. Fozilov tahriri ostida. 1–4-tomlar. – Toshkent: Fan, 1984.
3. Alisher Navoiy. Garoyib us-sigar. Mukammal asarlar to'plami: 10 jildlik. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2011.
4. Alisher Navoiy. Navodir ush-shabab. Mukammal asarlar to'plami: 10 jildlik. 2-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2011.
5. Alisher Navoiy. Badoye ul-vasat. Mukammal asarlar to'plami: 10 jildlik. 3-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2011.
6. Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. Mukammal asarlar to'plami: 10 jildlik. 4-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2011.
7. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. 1–2-jildlar / mas'ul muharrir Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: Sharq, 2016.
8. Alisher Navoiy. "Garoyib us-sigar" gazallarining sharhlari va izohlari. 10 jildlik. 1–10-jildlar. – Toshkent: O'ZKITOBSAVDO, 2020.
9. Davlatov O. Ma'nolar xazinasi (Alisher Navoiy gazallariga sharhlar). 1–3-jildlar. – Toshkent: Tamaddun, 2021.
10. Istiqlol davri o'zbek navoiyshunosligi: 30 jildlik. 2-jild / A.Hayitmetov: Navoiyxonlik suhbatlari; A.Abdugafurov: Buyuk beshlik saboqlari. – Toshkent: Tamaddun, 2021.
11. Komilov N. Ma'nolar olamiga safar: Alisher Navoiy gazallariga sharhlar. – Toshkent: Tamaddun, 2012.
12. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik: darslik. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
13. Yusupova D. Alisher Navoiy g'azallariga sharhlar: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2025.

Anora HIKMATOVA,
Buxoro xalqaro universiteti tadqiqotchisi

ERKIN A'ZAMNING "CHAPAKLAR VA CHALPAKLAR" ASARIDA ETNOMADANIY KODLAR VA ESTETIK MODUSNING LINGVOPOETIK HAMDA LINGVOMADANIY TADQIQI

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli o'zbek yozuvchisi Erkin A'zamning "Chapaklar va chalpaklar" asari zamonaviy antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlari – lingvopoetika va lingvomadaniyatshunoslik prinsiplari asosida tadqiq etiladi. Asar matnidagi sotsiolisoniy qatlamlar, muallif individual uslubiga xos satirik-ironik pafos, lakunar birliklar hamda milliy tafakkurni moddiylashtiruvchi til birliklari tahlilga tortilgan. Yozuvchining xalq iboralari va paremiyalarni kontekstual transformatsiya qilish mahorati, so'z o'yinlari (kalamburlar) hamda personajlar idiolektining lingvomadaniy xususiyatlari ochib berilgan. Olingan ilmiy xulosalar o'zbek tilshunosligida matn lingvistikasi, lingvokulturologiya va uslubshunoslik sohalarini boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, lingvomadaniyatshunoslik, Erkin A'zam, "Chapaklar va chalpaklar", ironiya, kalambur, etnomadaniy kod, idiolekt, konsept, frazeologik transformatsiya, sotsiomanierizm.

Annotation. This article examines the work "Chapaklar va chalpaklar" by the famous Uzbek writer Erkin A'zam through the principles of modern anthropocentric linguistics, focusing on linguopoetics and linguoculturology. The analysis covers sociolinguistic layers within the text, the satirical-ironic pathos inherent in the author's individual style, lacunary units, and linguistic expressions materializing the national mindset. The research highlights the writer's mastery in the contextual transformation of folk idioms and paremias, wordplay (puns), and the linguocultural characteristics of the characters' idiolects. The scientific conclusions serve to enrich the fields of text linguistics, linguoculturology, and stylistics in Uzbek linguistics.

Keywords: linguopoetics, linguoculturology, Erkin A'zam, "Chapaklar va chalpaklar", irony, pun, ethnocultural code, idiolect, concept, phraseological transformation, sociomanierism.

Аннотация. В данной статье произведение известного узбекского писателя Эркина Аъзама «Чапаклар ва чалпаклар» исследуется на основе принципов ведущих направлений современной антропоцентрической лингвистики – лингвопоэтики и лингвокультурологии. Анализируются социолингвистические пласты в тексте произведения, сатирико-иронический пафос, присущий индивидуальному стилю автора, лакунарные единицы и языковые выражения, материализующие национальное мышление. В исследовании раскрывается мастерство писателя в контекстуальной трансформации народных идиом и паремий, игре слов (каламбурах) и лингвокультурологических особенностях идиолекта персонажей. Полученные научные выводы служат обогащению таких областей узбекского языкознания, как лингвистика текста, лингвокультурология и стилистика.

Ключевые слова: лингвопоэтика, лингвокультурология, Эркин Аъзам, «Чапаклар ва чалпаклар», ирония, каламбур, этнокультурный код, идиолект, концепт, фразеологическая трансформация, социоманьеризм.

Zamonaviy lingvistik paradigmalarda badiiy matn shunchaki axborot tashuvchi lisoniy tuzilma emas, balki til egalarining etnomadaniy tafakkuri, ijtimoiy-psixologik holati va milliy dunyoqarashini o'zida mujassam etgan murakkab mental-lisoniy diskurs sifatida talqin qilinmoqda. Matnni antropotsentrik tamoyillar asosida o'rganish tilshunoslikda lingvopoetika va lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishlarining o'zaro sintezini taqozo etadi. Badiiy tilda muallifning individual uslubi (idiolekt) hamda millatning madaniy kodlari lisoniy birliklar vositasida moddiylashadi.

O'zbek badiiy nasrida o'zining satirik-psixologik yo'nalishi, pinhona pichinglari, lisoniy topqirligi va tildan foydalanishdagi o'ziga xos estetik mahorati bilan ajralib turadigan ijodkor, shubhasiz, O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zamdir. Adibning "Chapaklar va chalpaklar" (afsona-qissasi) o'zbek ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi ma'naviy deformatsiyalarni, turg'unlik va o'tish davri psixologiyasini o'tkir satira hamda lingvistik paradokslar orqali ochib bergan asarlardan biridir [2: 120–215].

Mazkur asarning lingvopoetik va lingvomadaniy qirralarini tadqiq etish quyidagi omillarga ko'ra dolzarb ahamiyat kasb etadi: asar sarlavhasidan boshlab matn oxirigacha tizimli ravishda qo'llangan fonetik, leksik-semantik va sotsiolisoniy qatlamlarni lingvopoetik tahlil qilish; muallif idiolektidagi satirik va ironik modusning lisoniy vositalarini aniqlash; milliy mentalitetni ifodalovchi, o'zbek xalqining urf-odatlari, madaniy stereotiplari va mafkuraviy qarashlari bilan bog'liq lingvokulturemalarni kognitiv jihatdan tizimlashtirish [5: 3–12].

Asar nomlanishining lingvopoetik va semantik paradoksi. Badiiy matn poetikasida sarlavha (nominatsiya) matnning eng kuchli pozitsiyalaridan biri hisoblanadi. U o'quvchida dastlabki kognitiv gipotezani shakllantiradi. Erkin A'zam asarni "Chapaklar va chalpaklar" deb nomlash orqali lisoniy darajada tovush takrori, fonetik yaqinlik va semantik qarama-qarshilikdan unumli foydalangan.

Lisoniy va semantik tahlil quyidagilarni ko'rsatadi: "chapak" – olqish, sadoqat, rasmiyatchilik, balandparvozlik va maddohlikning lisoniy metaforasi sifatida; "chalpak" esa moddiy ehtiyoj, qorin g'ami, yuzaki tirikchilik va maishiy manfaat bilan bog'liq lingvomadaniy ramz sifatida namoyon bo'ladi [2: 120–215].

Yozuvchi o'zaro fonetik jihatdan juda yaqin, ammo semantik jihatdan farqlanuvchi ikki so'zni yonma-yon keltirish orqali jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy ziddiyatni ramziylashtiradi. Shu tariqa sarlavhaning fonetik va leksik-semantik qurilishi asarning satirik-estetik yo'nalishini oldindan belgilaydi.

Muallif idiolektida ironiya va sarkazmning lisoniy modellashtirilishi. Erkin A'zam – piching va pinhona kinoya ustasi. Uning matnlarida so'zlar o'zining lug'aviy ma'nosidangina emas, balki kontekstual-situativ ma'nosidan kelib chiqib ham anglashiladi. Ayrim hollarda birliklarning ijobiy lug'aviy mazmuni kontekst ta'sirida kinoyaviy yoki salbiy baholovchi ma'no kasb etadi. Bunday xususiyat yozuvchi individual uslubining muhim belgilaridan biridir [4: 45–51].

Sotsiomanierizm va ritorik shtamplarning parodiyasi. Asarda sho'ro davri va undan keyingi o'tish yillaridagi rasmiyatchilik, majlisbozlik va maddohlik tili ayovsiz fosh etiladi. Yozuvchi personajlar tiliga ijtimoiy-siyosiy ritorikaga xos bo'lgan balandparvoz iboralarni qasddan kiritadi.

Asar matnida sadoqat, burch, xalq, xizmat kabi ijobiy konnotatsiyaga ega birliklarning real vaziyat bilan nomuvofiq qo'llanishi kuchli sarkazm hosil qiladi. Bunday holatda lingvopoetik ta'sirchanlik sotsial nutq shtamplarining parodiyaga aylantirilishi hisobiga yuzaga keladi [2: 120–215].

Kalambur va so'z o'yinlarining estetik funksiyasi. Yozuvchi asar davomida so'zlarning shakliy o'xshashligidan foydalanib, yangi ijtimoiy ma'nolar hosil qiladi. Kalambur badiiy matnda estetik kulgi uyg'otish bilan birga, muayyan shaxs yoki ijtimoiy

hodisaga nisbatan muallifning baholovchi munosabatini ham ifodalashga xizmat qiladi [7: 120–130].

So'zning ichki shakli yoki uning ayrim qismlarini qayta anglash asosida yuzaga keluvchi bunday o'yinlar personaj xarakterini ochishning samarali lingvopoetik vositalaridan biridir.

Qissadagi etnomadaniy kodlar va konseptual tahlil. Lingvomadaniyatshunoslik obyekti sifatida "Chapaklar va chalpaklar" asarida o'zbek xalqining milliy-madaniy kodlari, stereotiplari va mentalitetiga xos bo'lgan xususiyatlar bir qator tayanch konseptlar misolida ko'rinadi.

Lingvomadaniy tadqiqotlarda til birliklari xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, qadriyatlari va madaniy xotirasini ifodalovchi vosita sifatida qaraladi [5: 3–12]. Shu nuqtayi nazardan, asardagi ayrim leksik va frazeologik birliklar milliy-madaniy mazmunni tashuvchi lingvokulturemalar sifatida baholanishi mumkin.

"Andisha" va "nomus" konseptlarining deformatsiyasi. O'zbek xalqi lingvomadaniy olamida "andisha" va "nomus" tushunchalari ijobiy, muqaddas qadriyat hisoblanadi. Biroq Erkin A'zam asarida ushbu tushunchalar ijtimoiy muhit ta'sirida o'zgargan, deformatsiyaga uchragan holatda namoyon bo'ladi.

Muallif milliy qadriyatlarning asl mazmuni bilan ularning ayrim ijtimoiy vaziyatlarda yuzaki talqin qilinishi o'rtasidagi ziddiyatni satirik vositalar orqali ko'rsatadi. Natijada "andisha" va "nomus" kabi konseptlar badiiy matnda nafaqat milliy qadriyat, balki ijtimoiy-psixologik baholash vositasiga ham aylanadi.

Frazeologik birliklarning kontekstual transformatsiyasi. Erkin A'zamning lisoniy mahorati, ayniqsa, xalq iboralarini individual-mualliflik maqsadlariga moslab o'zgartirishida yaqqol ko'rinadi. U til tizimidagi tayyor frazeologizmlarni strukturaviy va semantik jihatdan yangilab, ularga yangi kontekstual-ekspressiv ma'no yuklaydi. Frazeologik birliklarning bunday o'zgarishi badiiy nutqning obrazliligi va ta'sirchanligini oshiradi [9: 19–27].

Frazeologik kengaytiruv (ekspansiya). Muallif barqaror ibora tarkibiga qo'shimcha so'zlar kiritib, uning ma'no ko'lamini yanada o'tkirlashtiradi.

Xalq tilidagi "burnining uchidan narini ko'rmaslik" iborasining kengaytirilgan kontekstda qo'llanishi personajning voqelikni tor doirada idrok etishini yanada ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Bunday transformatsiya iboraning asosiy semantik yadrosini saqlagan holda uning ekspressivlik darajasini kuchaytiradi [2: 120–215].

Iboraning semantik yo'nalishini o'zgartirish. Asarda qahramonlarning ikkiyuzlamachiligini ko'rsatish uchun an'anaviy iboralar istehzo bilan qo'llanadi. Masalan, "yoqasidan olmoq" iborasining odatiy mazmuni bilan unga qarama-qarshi vaziyatni anglatuvchi "yoqasiga nishon taqmoq" birikmasining qo'llanishi soxta ijtimoiy munosabatlarni fosh etadi.

Bu yerda tayyor frazeologik modelning mazmuniy yo'nalishi o'zgartirilib, yangi pragmatik ma'no yuzaga keltiriladi. Natijada frazeologik transformatsiya muallifning satirik-estetik maqsadini amalga oshiruvchi vositaga aylanadi [9: 19–27].

Personajlar diskursida sintaktik va ritmik-melodik qurilmalar. "Chapaklar va chalpaklar" asarining sintaktik sathi poetik ohangdorlikka boy. Nasriy matnda ohangdorlikni ta'minlash uchun yozuvchi ritorik so'roqlar, gradatsiya, parallelizm va inversiyadan unumli foydalanadi. Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida sintaktik qurilmalarning estetik funksiyasini aniqlash alohida ahamiyatga ega [11: 104–114].

Sintaktik gradatsiyada harakatning bosqichma-bosqich kuchayib borishi personajning ruhiy holatini dinamik tarzda ifodalash imkonini beradi. Masalan, jim turish → bosh irg'ash → chapak chalish tarzidagi ketma-ketlik personajning muhitga moslashish jarayonini hamda uning ruhiy-ijtimoiy holatini ochib beradi.

Ritorik so'roq gaplar esa o'quvchini dialogik muloqotga tortadi. Bunday sintaktik qurilmalar asarning falsafiy-estetik qiymatini oshirib, uni oddiy syujet doirasidan olib chiqadi va umuminsoniy muammolar darajasiga ko'taradi [11: 104–114].

Erkin A'zamning "Chapaklar va chalpaklar" asari ustida olib borilgan lingvopoetik va lingvomadaniy tahlillar quyidagi ilmiy xulosalarga kelish imkonini beradi.

Birinchidan, asar sarlavhasi fonetik yaqinlik va semantik qarama-qarshilik asosiga qurilgan bo'lib, "chapak" va "chalpak" birliklari asardagi ijtimoiy-ma'naviy ziddiyatlarni ifodalovchi muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo'ladi [2: 120–215].

Ikkinchidan, muallif idiolektida sotsial nutq shtamplari, rasmiy-idoraviy kantselyarizmlar va ritorik balandparvozliklarning qasddan parodik qo'llanishi kuchli ironik modusni yuzaga keltiradi. Bu usul matnda subtekstual ma'no hosil qilib, personajlarning ma'naviy qiyofasini lingvistik vositalar orqali ochishga xizmat qiladi [4: 45–51].

Uchinchidan, asarda milliy mentalitetning o'zak tushunchalari bo'lgan "andisha", "nomus", "or" va "oshnalik" kabi konseptlar ijtimoiy muhit ta'sirida deformatsiyalangan holatda namoyon bo'ladi. Bu esa lingvomadaniy birliklarning kontekstual-semantik o'zgarishini ko'rsatadi [5: 3–12].

To'rtinchidan, Erkin A'zam xalq jonli tili materiallarini individual ijodiy maqsadlariga moslashtirib, okkazional ma'no va ekspressivlik hosil qiladi. Frazeologik birliklarning kengaytirilishi, semantik yo'nalishining o'zgartirilishi va kontekstual transformatsiyasi yozuvchi individual uslubining muhim belgilaridan biridir [9: 19–27].

Beshinchidan, sintaktik parallelizmlar, gradatsiya va ritorik so'roqlar asarning lingvopoetik dinamikasi hamda ritmik ohangdorligini ta'minlaydi. Mazkur vositalar personajlarning ruhiy holati, muallifning baholovchi munosabati va asarning umumiy estetik modusini ifodalashga xizmat qiladi [11: 104–114].

Xulosa qilib aytganda, "Chapaklar va chalpaklar" asari o'zbek tilining ekspressiv imkoniyatlari, badiiy sintez va lingvomadaniy kodlarni o'rganishda muhim ilmiy qimmatga ega. Asarda fonetik o'yin, ironik modus, frazeologik transformatsiya, etnomadaniy konseptlar hamda sintaktik-poetik qurilmalar o'zaro uyg'unlashib, Erkin A'zamning individual ijodiy uslubini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashurova D.U., Galieva M.R. Cognitive Linguistics. – Tashkent: Vneshinvestprom, 2019.
2. Erkin A'zam. Chapaklar va chalpaklar afsonasi // Jannat o'zi qaydadir: Qissalar va romanlar. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 120–215.
3. Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. М.: Прогресс, 1985.
4. Iskandariy D. Erkin A'zam ijodida individual stil va sotsial muloqot muammolari // O'zbek tili va adabiyoti, 2022, № 2. – B. 45–51.
5. Mahmudov N. Tilning lingvokulturologik tadqiqi masalalari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2014, №4. – B. 3–12.
6. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. Минск: ТетраСистемс, 2004.
7. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
8. Sayidrahmonova S. Erkin A'zam asarlarida satira va ironiyaning lisoniy-uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. bo'y. fal. dok. diss.... – Toshkent, 2018.
9. To'xasanov M. O'zbek nasrida frazeologik okkazionalizmlar va ularning lingvopoetik tabiati. – Samarqand: SamDU nashri, 2021.
10. Umurqulov B. Badiiy nutq stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
11. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.

Anvar JO'RAYEV,
Qarshi davlat universitetimatnshunoslik va adabiy manbashunoslik mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

"ROQIM DEVONI" MATNINING SHAKLLANISH TARIXI: QO'LYOZMA VA BAYOZ MANBALARI MUNOSABATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitida faol ijod qilgan Roqimning adabiy merosi, xususan, "Roqim devoni" matnining shakllanish tarixi qo'lyozma va bayoz manbalari munosabati asosida tadqiq etilgan. Shuningdek, Roqim merosining ilmiy-tanqidiy matnini yaratish uchun zarur tamoyillar ishlab chiqilgan.
Kalit so'zlar: devon, qo'lyozma, bayoz, qo'lyozma, nusxa, kotib, matnshunoslik.
Annotation. This article examines the literary heritage of Rakim, who was active in the Khorezm literary community in the late 18th and early 19th centuries, and in particular, the history of the formation of the text of "Rakim Divan" based on the relationship between manuscript and historical sources. The necessary principles for creating a scientific and critical text of Rakim's legacy are also developed.
Keywords: divan, manuscript, bayoz, manuscript, copy, scribe, textual criticism.
Аннотация. В данной статье рассматривается литературное наследие Ракима, активно участвовавшего в хорезмской литературной среде конца XVIII и начала XIX веков, и, в частности, история формирования текста "Дивана Ракима" на основе сопоставления рукописных и исторических источников. Также разработаны необходимые принципы создания научно-критического текста о наследии Ракима.
Ключевые слова: диван, рукопись, баяз, рукопись, копия, переписчик, текстология.

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida XVIII asr oxiri – XIX asr boshlaridagi Xorazm adabiy muhiti o'zining sermahsul ijodiy jarayoni, ko'plab iste'dodli shoir va adiblarni yetishtirgani hamda mumtoz adabiyot an'analarining yangi tarixiy sharoitda davom ettirilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ana shu adabiy muhit vakillaridan biri Roqim bo'lib, u shoirlik bilan bir qatorda xattotlik faoliyati bilan ham shug'ullangan.

Roqim lirik merosi jamlangan devonning qo'lyozma nusxasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida 7576-inventar raqami bilan saqlanadi. Ensiklopedik manbalarda esa shoirning bizgacha bir devoni, devonga kirmagan 30 muxammasi va 6 g'azali yetib kelgani qayd qilinadi. Bu ma'lumotlar Roqim merosining muayyan qo'lyozma manbalar asosida shakllanganini va uning matn tarixini alohida tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

Roqim ijodini matnshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganishning dolzarbligi shundaki, mumtoz adabiyot namunalarining bugungi kungacha yetib kelgan shakli ko'pincha muallif tomonidan yaratilgan dastlabki nusxaning aynan o'zi emas, balki keyingi davrlarda ko'chirilgan nusxalar, bayozlar, majmualar, nashrlar va tabdillar orqali bizga yetib kelgan. Shu sababli matnni o'rganishda faqat bitta manbaga tayanish asarning tarixiy shaklini to'liq tiklash imkonini bermaydi.

Roqim merosiga oid dastlabki ilmiy tadqiqotlarda ham bu masalaga muayyan e'tibor qaratilgan. Xususan, O.Qosimxo'jayeva Roqim ijodini o'rganishga katta hissa qo'shgan olimalardan biridir. Uning 1965-yilda "O'zbek tili va adabiyoti masalalari" jurnalida "Roqim devoni", 1968-yilda bosilgan "Roqim" nomli maqolalari, "Roqim lirikasi" (1976) nomli tadqiqoti chop etilgan. Shuningdek, 1969 yilda himoya qilgan "Shoir Roqim hayoti va ijodi" nomli nomzodlik dissertatsiyasi ilk bor bajarilgan monografik ko'lamdagi tadqiqotdir. Mazkur tadqiqotlar Roqim ijodining adabiy-tarixiy qimmatini belgilashda muhim ilmiy zamin yaratgan. Biroq bugungi matnshunoslik talablari nuqtayi nazaridan shoir merosining qo'lyozma va bayoz manbalaridagi variantlarini keng qamrovda qiyoslash, ularning o'zaro munosabatini aniqlash, matnning shakllanish va tarqalish bosqichlarini belgilash hamda muallif matniga yaqin o'qishni rekonstruksiya qilish alohida tadqiqotni talab etadi.

Ma'lumki, devon mumtoz adabiyotda ijodkorning adabiy merosini ma'lum bir tartib va tizim asosida jamlagan muhim manba hisoblanadi. Biroq "devon" tushunchasini faqat she'rlar yig'indisi sifatida tushunish yetarli emas. Devon, avvalo, muayyan davrda shakllangan, tartibga solingan va ko'chirilgan lirik asarlar majmuasidir. Demak, bizgacha yetib kelgan har qanday devon nusxasi o'zida muallif matni bilan bir qatorda kotiblik an'anasi, davr imlo xususiyatlari, ko'chirish jarayoni va matnning keyingi taqdiriga oid belgilarni ham saqlaydi.

Roqim devoni ham shu nuqtayi nazardan o'rganilishi lozim. Devonning 7576-inventar raqamli qo'lyozmasi shoir merosining asosiy manbalaridan biri sifatida uning janriy tarkibi, she'rlarining ketma-ketligi, hajmi va matniy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Biroq mazkur nusxani Roqimning ijodiy merosi bilan aynan tenglashtirish metodologik jihatdan to'g'ri emas. Chunki har qanday qo'lyozma, hatto muallifga juda yaqin nusxa bo'lgan taqdirda ham, o'zidan oldingi matn an'anasining mahsuli bo'lishi mumkin.

Shu sababli devon matnini o'rganishda ikki tushunchani farqlash zarur: muallif matni va qo'lyozma nusxa matni. Muallif matni ijodkorning dastlabki badiiy ifodasini anglatsa, qo'lyozma nusxa ushbu matnning muayyan kotib tomonidan yozuvga tushirilgan shaklidir. Ular o'rtasida mutlaq tenglik bo'lishi mumkin, ammo matnshunoslik buni oldindan qabul qilmaydi; balki qo'lyozma dalillari asosida tekshiradi. Bu masala Roqim ijodida yanada muhimdir. Chunki shoirning o'zi xattotlik bilan shug'ullangani, boshqa shoirlarning devon va asarlarini husnixat bilan ko'chirgani haqidagi ma'lumotlar uning yozma madaniyat muhitiga bevosita aloqador bo'lganini ko'rsatadi. Demak, Roqimning shoirlik faoliyati bilan bir qatorda qo'lyozma madaniyati haqidagi tajribasi ham bo'lgan. Bu holat uning matn yaratish va matn ko'chirish jarayonlarini tushunishda muhim biografik omil sifatida baholanishi mumkin.

Shu bilan birga, Roqim adabiy merosini o'rganishda devon bilan birga bayozlar ham katta o'rin tutadi. Ma'lumki, mumtoz adabiyot tarixida bayozlar alohida manba turi sifatida muhim o'rin egallaydi. Roqim she'rlarining bayozlarda uchrashi shoir ijodining devon chegarasidan tashqarida ham faol muomalada bo'lganini ko'rsatadi.

Roqim devonining ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda, avvalo, barcha mavjud manbalarni bir korpusga jamlash lozim. Har bir she'r uchun alohida manba pasporti tuzilishi maqsadga muvofiq. Unda she'rning manba nomi, inventar raqami, varaqlari, baytlar soni, boshlang'ich va yakuniy misralari, radifi, qofiyasi, vazni hamda mavjud variantlari qayd etilishi kerak. Ikkinchi bosqichda manbalar o'rtasidagi farqlar aniqlanadi. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1) grafik tafovutlar;
2) fonetik tafovutlar;
3) leksik tafovutlar;
4) grammatik tafovutlar;
5) sintaktik tafovutlar;
6) bayt va misralarning tushishi;
7) bayt yoki misralarning qo'shilishi;
8) so'z tartibining o'zgarishi;
9) qofiya va radifga oid tafovutlar;
10) vaznga ta'sir qiluvchi o'zgarishlar;
11) hoshiyaviy tuzatishlar.

Roqim devoni uchun kelajakda ilmiy-tanqidiy matn yaratishda barcha mavjud qo'lyozma va bayoz manbalarini qiyosiy o'rganish, har bir she'rning manba tarixini belgilash, variantlarni tizimlashtirish va ularning genealogik munosabatini aniqlash muhim vazifalardan biridir. Bunda matnning vazni, qofiyasi, radifi, grammatik qurilishi, leksik tarkibi, badiiy mazmuni va shoirning individual uslubi asosiy mezonlardan bo'lishi kerak.

Demak, Roqim devoni matnining shakllanish tarixi – muallif ijodi, kotiblik faoliyati, bayozchilik an'anasi va adabiy muhit o'zaro ta'sirida shakllangan murakkab jarayondir. Bu jarayonni chuqur o'rganish nafaqat Roqim merosining ishonchli matnini tiklash, balki XVIII–XIX asrlar Xorazm adabiy muhitining yozma matn yaratish va saqlash madaniyatini anglash uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Roqim. She'rlar. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1965.
2. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. 3-jild. – Toshkent: Fan, 1978.
3. Qosimxo'jayeva O. Roqim devoni // O'zbek tili va adabiyoti masalalari, 1965, №2.
4. Qosimxo'jayeva O. Roqim lirikasi // O'zbek adabiyoti tarixi masalalari. – Toshkent, 1976. – B. 43–44.
5. Abdurahmonova O. 1198-raqamli bayoz va uning tarkibidagi adabiy manbalar haqidagi tadqiqot materiali // Qo'qon DPI ilmiy xabarlari, 2022, №1.

Gulchehra MUSTAFAYEVA,
Toshkent Farmatsevtika instituti o'qituvchisi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI GO'ZALLIK BILAN BOG'LIQ O'XSHATISHLAR: O'ZIGA XOSLIK VA UMUMIYLIK

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida go'zallik tushunchasini ifodalovchi o'xshatishli qurilmalarning lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Go'zallik ma'nosini ifodalovchi o'xshatishlar tabiat, osmon jismlari, qimmatbaho buyumlar, rang va yorug'lik kabi obrazlar asosida guruhlanib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlanadi. Shuningdek, o'xshatishlarning shakllanishida milliy dunyoqarash, madaniy qadriyatlar, tarixiy tajriba va geografik muhitning o'rni yoritiladi. Tahlil natijasida har ikki tilda go'zallikni ifodalashda mushtarak obrazlar mavjudligi bilan birga, milliy-madaniy xususiyatlardan kelib chiqadigan o'ziga xos jihatlar ham mavjudligi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, o'zbek tili, o'xshatishli qurilmalar, go'zallik, lingvomadaniyat, milliy dunyoqarash, lisoniy manzara.

Annotation. This article comparatively analyzes the linguocultural features of simile constructions expressing the concept of beauty in English and Uzbek. Similes related to beauty are grouped according to images of nature, celestial bodies, precious objects, color, and light, and their common and distinctive features are identified. The study also examines the role of national worldview, cultural values, historical experience, and geographical environment in the formation of such similes. The analysis demonstrates that, alongside shared images used to express beauty in both languages, there are also distinctive features shaped by the specific national and cultural perceptions of each linguistic community.

Keywords: English, Uzbek, simile constructions, beauty, linguoculture, national worldview, linguistic worldview.

Аннотация. В статье проводится сопоставительный анализ лингвокультурных особенностей сравнительных конструкций, выражающих концепт красоты в английском и узбекском языках. Сравнения, связанные с понятием красоты, рассматриваются на основе образов природы, небесных тел, драгоценных предметов, цвета и света, выявляются их общие и отличительные признаки. Особое внимание уделяется роли национального мировоззрения, культурных ценностей, исторического опыта и географической среды в формировании данных сравнительных конструкций. Результаты исследования показывают, что наряду с общими образами, используемыми для выражения красоты в обоих языках, существуют специфические черты, обусловленные национально-культурными особенностями восприятия мира.

Ключевые слова: английский язык, узбекский язык, сравнительные конструкции, красота, лингвокультура, национальное мировоззрение, языковая картина мира.

Har bir til o'z foydalanuvchilarining qarashlari, orzu-umidlari va olam haqidagi tasavvurlarini ifoda qilgan holda, uni ajdodlardan avlodlarga asrlar mobaynida jamlab, yetkazib keladi. Til – inson ongida mavjud olamning lisoniy manzarasi aksi demakdir. Inson ongidagi mavjud barcha bilimlar bu – ko'z bilan ko'rilib, qalb bilan his qilgan jamiyki narsalarning miyyadagi qayta ishlangan, to'ldirilgan shaklidir. Shubhasiz, tildagi o'xshatishlar ana shu bilimlarning hosilasi va natijasidir.

Biror tilda mavjud bo'lgan barqaror birliklar, tushuncha yoki konseptlarni esa uning madaniyatidan ajratgan holda tahlil qilish imkonsiz. Chunki til va madaniyat doim bir-biri uchun to'ldiruvchi va to'plovchi vazifasini bajaradi. Boshqacha aytganda, ular go'yoki daryo va uning tomchisi kabidir, bir-birisiz mavjud bo'lishi imkonsiz.

Til va madaniyat o'rtasidagi aloqani tildagi turli birliklar vositasida ko'rsatish mumkin. Ularning orasida o'xshatishli qurilmalar muhim o'rin egallaydi. Ularni lingvistik jihatdan tadqiqi etgan tilshunos olim N.Mahmudov o'zining ishlarida o'xshatishlarni xalqning madaniy ko'rsatkichi sifatida baholaydi va ularning komponentlariga xos xususiyatlarni tahlil qiladi. [2: 5].

O'zbek tilidagi o'xshatishlar turli tilshunoslar tomonidan turlicha guruhlanadi, jumladan D.Xudayberganova o'zining kitobida inson haqidagi o'xshatishlarni 8 ta ma'noviy guruhga ajratadi. [3: 94]. Inglizlardan G.Kleiser o'zining "Similes and their use" ("Ingliz tilidagi o'xshatishlar va ularning qo'llanilishi") kitobida she'riyat va nasrdagi o'xshatish mazmunli matnlarni to'plab, ularni 4 guruhga bo'ladi. [4: 15].

Ushbu maqolada har ikkala tilda mavjud bo'lgan o'xshatishlar ichidan faqat go'zallikka aloqador bo'lganlari tanlab olindi va ular o'zaro solishtirildi.

Ingliz tilida go'zallikka oid o'xshatishlarni, asosan, quyidagi 3 guruhga ajratish mumkin:

1. Tabiat asosidagi:
- As beautiful as a rose – atirguldek chiroyli
- As fresh as a daisy – romashka guldek yangi va tiniq
- As radiant as the sun- quyoshdek nurafshon
- As delicate as a flower- gukdek nozik

2. Nur va jiloga oid o'xshatishlar:
- As bright as a star- yulduzdek yorqin
- As shining as a diamond- olmosdek yaltiroq
- As dazzling as the morning sun- tong quyoshidek ko'zni qamashtiruvchi

3. Ma'naviy va ichki go'zalikk oid:
- As pure as an angel- farishtadek pok
- As sweet as a honey- asaldek shirin
- Goddess-like beauty- ma'budadek go'zal
- As magical as a dream- orzudek sehrli

O'zbek tilidagi go'zallik bog'liq o'xshatishlarning katta qismi tabiatda mavjud bo'lgan narsalar asosiga quriladi:
- oydek go'zal
- quyoshdek porloq
- yulduzdek chaqnagan
- lola yuzli

Har ikki tildagi o'xshatishlarni ko'rib chiqqan holda shunday farqlarni ko'rsatish mumkin:

1. Ingliz tilida "go'zal" ma'nosini ifodalashda va fikrini aniqroq yetkazib berishda diniy va ilohiy timsollarga murojaat qilish kuchli *(As pure as an angel, Goddess-like beauty)*.

O'zbek adabiyotida esa go'zallikning eng yuqori darajasini ifodalashda Yusuf alayhissalom nomini misrada keltirish o'rinlari mavjud. Bu kabi misralar klassik adabiyotda (Navoiy, Bobur, Jomiy) ko'p uchraydi:

"Orazing naqshiki chiqmas tiyra ko'nglumdin dame,
Qildilar go'yoki Yusuf suvratin zindonda naqsh" [5: 162].

2. Ingliz tilida o'xshatishlar asosan individual qarash asosida yuzaga keladi. O'zbekchada esa ko'pincha o'xshatish keltirishda xalqona umumiy obrazlarga murojaat qilinadi:

As graceful as a swan
Oqqushdek nozik; Qoshlari yoydek.

3. Tabiat obrazlaridagi farqi. Biror qizning yosh va yoqimli ekanligini ifodalashda romashka guli(daisy) qo'llansa, bizda bu atirgul va lola bilan alishadi:

She fresh as a daisy

Lolaqizg'aldoqdek nozik.

4. Ingliz tilida atirgul odatda, qizlarning labini ifodalashda, rang xususiyatiga ko'ra asos qilinadi: *lips like roses.*

Bizda esa noziklik va xushbo'ylikni ifodalashda ishlatilanadi: *atirguldek xushbo'y, endi ochilgan atirgul kabi nozik*

5. Inglizlarda *eyes burning like fire* (olovdek yonib turgan ko'zlar) o'xshatishli konstruksiyalar mavjud va biz uchun kam uchraydigan holat. Bundan tashqari, *osmondek moviy ko'zlar (blue eyes like the sky)* qurilmasi ingliz tilida juda chiroyli bo'lgan ko'zlarga ishlatiladi. Bizda esa *tundek tim qora ko'zlar* go'zallik belgisi.

Farqli holatlar bilan bir qatorda, har ikki madaniyat vakillari uchun umumiy o'rinlarni ham uchratish mumkin:

1. Har ikki tilda qimmatbaho narsalar go'zallikni ifodalash asos vazifasida keladi: *As shining as a diamond, hair likes threads of gold – Durdek yaltiroq, oltin soch, kumush qor.*

2. Har ikki tilda ham chaqnab, porlab turgan qizning ko'zlari yulduzga qiyos etiladi: *Her eyes shine like stars – Ko'zlari yulduzdek chaqnab turgan qiz*

Istarasining issiqligini, yuzining yoqimliligini ko'rsatishda *quyosh* eng keng tarqalgan vositadir: *Face brights as the sun, Yuzidan quyosh nur sochadi.*

Bulardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Atirgul va lola bizda go'zallik ramzi sifatida ishlatilsa, inglizlarda bu romashka bilan alishadi. Bunga asosiy sabab, ularning yashash hududi va ushbu gul turlarining bu hududda tarqalishi bilan bilan bog'liq. Kishilar asosan, ko'p uchratgan, xususiyatlarni yaxshi bilgan narsalarni o'xshatishlarga ko'chiradi.

2. Har ikkala tilda ham go'zallikni eng yuqora darajada ekanligini ifodalash uchun *orzudagidek (as a dream)* birikmasi ishlatiladi.

3. Osmon jismlari, Quyosh, Oy, Yulduzlar har ikkala tilda birdek faol qo'llanadi.

4. Bizning tilda mavjud bo'lgan *qoshlari kamondek* o'xshatish ko'p uchraydi. Tarixda kamon kishilar hayotidagi eng muhim ov qilish vositasi bo'lgan. Bu esa ushbu o'xshatishning yuzaga kelishida eng muhim asos bo'lgan deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013.
2. Mahmudov N. O'xshatishlarda milliy mentallik jozibasi // Til va adabiyot ta'limi. – 2019.
3. Xudayberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent, 2013.
4. Kleiser G. Similes and Their Use. – New York, 1925.
5. Alisher Navoiy. Qaro ko'zim. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.

Nodira SAYFIDDINOVA,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

O'TKIR HOSHIMOVNING "TUSHDA KECHGAN UMRLAR" ROMANIDA RETROSPEKTIV USULNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada retrospeksiya usuli, uning badiiy asardagi o'rni va bu metodning asar qahramonlari ruhiyatidagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanida retrospektiv usulning qo'llanilishi va uning badiiy-estetik hamda psixologik funksiyalari tahlil qilinadi. Asarda voqealarning qahramon xotirasi, tushlari, ichki kechinmalari va kundaliklari orqali o'tmishga qaytish asosida yoritilishi retrospeksiyaning kompozitsion imkoniyatlarini namoyon etishi ko'rsatiladi. Shuningdek, retrospeksiyaning asar vaqt va makon qurilishi, qahramon xarakterini shakllantirish hamda roman mazmunining psixologik va ijtimoiy qatlamlarini chuqurlashtirishdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot natijasida retrospektiv usul romanda nafaqat o'tmish voqealarini eslatish, balki qahramon ruhiyatini ochish va asarning g'oyaviy mazmunini teranlashtirishga xizmat qiluvchi muhim badiiy vosita ekani asoslanadi.

Kalit so'zlar: retrospeksiya, obyektiv retrospeksiya, subyektiv retrospeksiya, O'tkir Hoshimov, "Tushda kechgan umrlar" romani, inson ruhiyati.

Annotation. This article examines the method of retrospection, its role in a literary work, and its significance for revealing the psychological state of the characters. It analyzes the use of the retrospective method and its artistic, aesthetic, and psychological functions in O'tkir Hoshimov's novel "Tushda kechgan umrlar" ("Lives Lived in a Dream"). The study demonstrates how the representation of events through the protagonist's memories, dreams, inner experiences, and diary entries, with constant returns to the past, reveals the compositional potential of retrospection. Particular attention is also paid to the role of retrospection in constructing the temporal and spatial structure of the novel, shaping the protagonist's character, and deepening its psychological and social dimensions. The study concludes that the retrospective method serves not merely to recall past events, but also as an important artistic device for revealing the protagonist's inner world and deepening the ideological content of the novel.

Keywords: retrospection, objective retrospection, subjective retrospection, O'tkir Hoshimov, the novel "Tushda kechgan umrlar" ("Lives Lived in a Dream"), human psyche.

Аннотация. В данной статье рассматривается метод ретроспекции, его роль в художественном произведении и значение для раскрытия психологического состояния персонажей. Анализируется использование ретроспективного метода и его художественно-эстетические и психологические функции в романе Уткира Хашимова «Tushda kechgan umrlar» («Жизни, прожитая во сне»). Показано, что обращение к прошлому посредством воспоминаний, сновидений, внутренних переживаний и дневниковых записей героя раскрывает композиционные возможности ретроспекции. Особое внимание уделяется роли ретроспекции в организации временной и пространственной структуры произведения, формировании характера героя, а также углублении психологического и социального содержания романа. В результате исследования обосновывается, что ретроспективный метод является не только средством воспроизведения событий прошлого, но и важным художественным приёмом, способствующим раскрытию внутреннего мира героя и углублению идейного содержания произведения.

Ключевые слова: ретроспекция, объективная ретроспекция, субъективная ретроспекция, Уткир Хашимов, роман «Жизни, прожитая во сне» ("Tushda kechgan umrlar"), человеческая психика.

Badiiy adabiyotda yaratilgan har bir asar kitobxon qalbidan chuqur o'rin egallashi uchun, asar voqealari, qahramonlarning ichki kechinmalarini o'quvchi yaqindan his eta olishi uchun yozuvchi ijod mahsulini yaratishda bir qator adabiy metodlardan foydalanadi va bulardan biri – retrospeksiya usulidir.

Retrospeksiya *(lotinchadan retro – ortga, specto – qarayman)* – o'tmishga murojaat, ma'lum vaqt davomida hayotda bo'lib o'tgan voqealarnni fikran tiklash va muhokama qilish. [1: 30–31] Retrospeksiya voqealar rivojini xronologik tartibda emas, balki qahramon xotirasi, hissiyoti yoki ongi orqali o'tmishga qaytish asosida bayon etish usulidir. Bu usul XX asr jahon va o'zbek nasrida modernistik izlanishlar bilan bog'liq holda keng qo'llanila boshlandi, chunki u insonning ichki dunyosini, ruhiy kechinmalarini chiziqli syujetga qaraganda ancha teranroq va haqqoniyroq aks ettirish imkonini beradi.

Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani misolida retrospektiv usulning badiiy vazifalari, uning kompozitsiyaga, qahramonlar obrazini ochishga va asar g'oyaviy-falsafiy mazmuniga ta'siri tahlil qilinadi. Romanning bosh qahramoni Rustam bo'lib, asarning voqealari asosan uning taqdiri atrofida quriladi. Rustam birinchi kursda o'qib yurgan vaqtlarida Afg'oniston urushiga jo'natiladi. U jang maydonida dahshatli voqealarni, do'stlarining halok bo'lishini, qattiq ruhiy zarbalarni boshidan kechiradi. Romandan keltirilgan quyidagi parcha fikrimizning isboti bo'la oladi:

"Jonholatda yugurib bordim. Allanimaga qoqilib ketdim. Qarasam, qor ustida qo'l yotibdi... Qo'l bilakdan cho'rt uzilib ketgan, qon oqayotgan go'sht orasidan oppoq suyak turtib chiqib turar, barmoqlar esa nuqul qorni changallab g'imirlar edi. Dahshat ichida o'zimni orqaga tashladim. Oyog'im ostida odam boshi dumalab yotardi. Ko'zlari ola-kula, tilini g'archcha tishlab olgan... Bir qarichcha sarg'imtir kekirtak hamon nafas olayotgandek qorda bilanglaydi... Qandaydir yovuz, beshafqat qo'l sho'rlik kallani kekirtagi bilan uzib olgan-u, uloqtirib yuborgandek. Chuchmal qon isi dimog'imni yorib yuborgudek bo'ldi.

Ko'z o'ngim qorong'ilashib, cho'kkalab qoldim. Ko'nglim ag'darilar, lekin qusa olmasdim" [2:111–112].

Bu parcha Rustamning kundaligida keltirilgan bo'lib, uni o'qigan har bir kitobxon asar qahramonining urushda naqadar og'ir va ayanchli ruhiy zarba olganligini anglaydi. Bunday holatlar romanda juda ko'p uchraydi va ularni yozuvchi kitobxonga yetkazib berish uchun retrospeksiya metodiga tayangan. Rustam urushda boshidan o'tkazgan har bir voqea va hodisalarni o'z kundaligida qayd etib borgan va asarni o'qish davomida jang maydonidagi xotiralarni aynan uning kundaligidan keltirilgan parchalar orqali bilib olamiz. Bu usul retrospeksiyaning ***kundalik tarzida ifodalangan retrospeksiya shakli***ni yuzaga keltiradi.

O'tkir Hoshimov asar voqealarni oddiy xronologik tartibda "bo'lib o'tgan voqealar" sifatida emas, balki qahramonning xotirasi, tushlari va ichki monologlari orqali qayta tiklaydi. Asar nomidagi "tush" so'zining o'zi shuni ko'rsatadiki, voqealar aynan retrospektiv, ya'ni orqaga qaytuvchi ong oqimi tarzida beriladi. Qahramon xayolan yoshligiga, urush kunlariga, ota-onasi bilan bog'liq xotiralariga qaytadi, so'ngra yana "hozirgi zamon"ga qaytib keladi. Bunday kompozitsion qurilish asarga ikki qatlamli vaqt tuzilishini beradi: birinchisi – "hozirgi vaqt"

(qahramon vatanga qaytgandan keyingi hayoti, oilaviy va ijtimoiy muammolari), ikkinchisi – "xotira vaqti" (urush, yoshlik, oila fojiasi). Ushbu ikki qatlam bir-biriga uzluksiz o'zaro ta'sir ko'rsatib turadi, ya'ni hozirgi kundagi har bir voqea, har bir uchrashuv qahramon ongida o'tmishni "uyg'otadi", va aksincha, o'tmish xotiralari hozirgi kunni idrok etish tarzini belgilaydi. Bu klassik chiziqli syujetdan farqli o'laroq, "ong oqimi" adabiyotiga xos bo'lgan assotsiativ, psixologik motivatsiyaga asoslangan kompozitsiya turidir.

Retrospektiv usulning eng muhim vazifalaridan biri – qahramonning ichki dunyosini, uning ruhiy azoblarini, vijdoniy kurashlarini teranroq ochib berishdir. Rustam obrazida bu ayniqsa yorqin ko'zga tashlanadi. U urushda ko'rgan dahshatlarni, yaqin do'stlari Xayriddin va Temur akaning halok bo'lishini unuta olmaydi. Ularning fojealari romanda quyidagicha tasvirlanadi:

"Xayriddin qattiq xirilladi. Bir lahza ko'zim tushib qoldi. Botib borayotgan quyoshdan madad olmoqchi bo'lgandek o'sha tomonga qo'l cho'zib, qaddini rostlashga uringan edi, yirtilib ketgan kombinezoni ostidan qonga belangan ichaklari qaynab chiqdi...

Bir mahal hammayoq jimjit bo'lib qoldi. Oyoq-qo'limdan mador ketib, Xayriddinning yonboshiga cho'kkaladim. U hamon ufqqa tikilib yotar, ochiq ko'zlarida hayratmi, iymanishmi, shunga yaqin ifoda muhrlanib qolgan. Ko'm-ko'k o'tlar ustida ichaklari ayqash-uyqash bo'lib cho'zilib yotganidan uyalgandek, ularni qorniga qaytib solishga urinayotgandek, nozik barmoqlari bilan changallab olgan edi." [2: 122].

"Navbatdagi jasadning qop-qora sochlarini ko'rib, beixtiyor yerga sakrab tushdim. Yaqin bordim-u, seskanib ketdim. Qip-yalang'och jasadning gavdasi og'ir shekilli, mashinaga o'lik ortayotgan yigitlardan yana biri yugurib kelib, uning belidan quchoqlagancha do'stlariga ko'maklashdi. Shunda jasadning chap qo'li shilqillab yerga osildi. Bilagiga tatuirovka bilan qing'ir-qiyshiq qilib yozilgan "Temur" degan so'zga ko'zim tushdi.

– Temur aka! – yuragim sirqillab, jasad boshiga egildim. – Temur aka!

– Nari tur, tankist! – dedi yigitlardan biri hansirab. – Undan ko'ra jangga kirsang chi!

– Temur aka!.– dedim ingragudek bo'lib. Harchand tikilib qaramay aftini taniy olmadim. Jasadning yuz-ko'zi, a'zoyi badani qora qonga belangan edi. Shunda... Bir narsani aniq ko'rdim! Temur akaning quloqlari, burni... va... olati kesib olingan edi! Qancha fursat turib qolganimni bilmayman" [2:129–130].

Bu xotiralar Rustamning ongida doimiy "qaytib keladigan" tushlar, vahima va iztirob shaklida namoyon bo'ladi. Yozuvchi bu orqali urushning insonga qoldirgan ruhiy jarohatini, bugungi tilda aytganda, "urush travmasi"ni behad ishonarli tasvirlaydi. Shuningdek, otasining "paxta ishi" bo'yicha nohaq qamalishi kabi ijtimoiy adolatsizlik mavzusi ham aynan retrospektiv usul orqali chuqur his-tuyg'ular bilan yo'g'rilgan holda beriladi. Qahramon bu voqealarni xotirlar ekan, o'tmishdagi adolatsizlikka nisbatan hozirgi kundagi munosabatini, xulosalarini ham bildirib boradi. Shu tariqa xotira nafaqat o'tmishni "eslash" vositasi, balki qahramonning bugungi ahvolini, dunyoqarashini, vijdoniy pozitsiyasini belgilovchi omilga aylanadi. Bu O'tkir Hoshimov nasriga xos bo'lgan xususiyatlardan biri bo'lib, yozuvchi qahramon xarakterini tashqi harakatlar orqali emas, balki uning ichki, xotiraviy kechinmalari orqali ochib beradi.

Asar nomidagi "tush" tushunchasi retrospektiv usulning falsafiy asosini tashkil etadi. Tush – bu ong nazorati zaiflashgan, xotira va tasavvur erkin harakatlanadigan holat. Yozuvchi aynan shu metafora orqali o'tmish va hozirgi kunning bir-biriga uyg'unlashib ketishini, insonning o'z umrini "tushdagidek" parcha-parcha, tartibsiz, lekin his-tuyg'u jihatidan yaxlit tarzda idrok etishini ko'rsatadi. Bunda vaqt chiziqli emas, balki doiraviy yoki spiralsimon tarzda ilgari suriladi. Qahramon xotirasi bir voqeadan ikkinchisiga sakraydi, lekin bu sakrashlar tasodifiy emas, ular muallif tomonidan aniq badiiy-psixologik mantiq asosida tuzilgan. Bu yerda retrospeksiya oddiy "fleshbek" (orqaga qaytish) vositasidan ko'ra kengroq vazifani bajaradi, u insonning umr bo'yi to'plagan tajribasini, dard-alamini, sevgi va yo'qotishlarini yagona ruhiy-falsafiy butunlikka birlashtiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, retrospektiv usul asarning emotsional ta'sir kuchini sezilarli darajada oshirgan. Xotira orqali, qahramonning ichki nigohi bilan berilgan voqealar o'quvchini qahramon bilan hamdard qiladi, uning dardini ichdan his qilishga undaydi. Retrospeksiya orqali yozuvchi bir necha avlod taqdirini ota-bobolar, qahramonning o'zi, uning yaqinlarini bir-biriga bog'lab, umumlashtiruvchi xulosalar chiqarish imkoniga ega bo'ladi. Shaxsiy xotira asar davomida ijtimoiy xotiraga, davr xotirasiga aylanadi, urush, "paxta ishi" kabi tarixiy-ijtimoiy voqealar qahramon shaxsiy taqdiri prizmasidan o'tkazilib, kengroq umuminsoniy va milliy mazmun kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Меркулова М.Г. Ретроспекция в английской "новой драме" конца XIX – начала XX века: истоки и функционирование. М.: Прометей, 2006.
2. Hoshimov O'. Tushda kechgan umrlar. – Toshkent: Meriyus, 2015.

Surayyoxon IBROXIMOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

FUTUVVATNOMALARNING JANRIY XUSUSIYATLARI: SHAKL, MAZMUN VA POETIKA

Annotatsiya. Mazkur maqolada futuvvatnomalarning didaktik-adabiy janr sifatida shakllanishi, janriy o'ziga xosligi, kompozitsion tuzilishi va mazmuniy qatlamlari, tasavvuf ta'limoti, islom axloqi hamda javonmardlik an'analari bilan uzviy aloqasi yoritiladi. Shakliy-kompozitsion qurilishi, mavzu va g'oyaviy mazmuni, poetik xususiyatlari, badiiy ifoda vositalari, ramziy timsollar, hikmatli iboralar hamda pand-nasihat uslubiga esa alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, janrning poetik tabiatini belgilovchi omillar, mazmun va shakl mutanosibligi, axloqiy-didaktik g'oyalarning badiiy ifodalanishi hamda futuvvatnomalarning inson kamoloti, komil inson konsepsiyasi, mardlik, saxovat, halollik va adolat kabi umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etishdagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: futuvvat, futuvvatnoma, javonmardlik, janr, janriy xususiyat, shakl va mazmun, poetika, kompozitsiya, tasavvuf, komil inson, axloqiy-didaktik adabiyot, Sharq mumtoz adabiyoti, pand-nasihat, badiiy-estetik xususiyatlar.

Annotation. This article examines the genre characteristics of futuvvatnama works as a didactic-literary phenomenon of classical Eastern literature, focusing on their form, content, compositional structure, and poetic nature. The study highlights the formation of futuvvatnama as a distinct genre and its close connection with Sufi teachings, Islamic ethics, and the traditions of "javanmardlik" (chivalry and spiritual nobility). Particular attention is paid to the thematic and ideological content of these works, their compositional structure, poetic features, artistic devices, symbolic imagery, aphoristic expressions, and didactic style. The article also analyzes the harmony of form and content, the artistic expression of ethical and didactic ideas, and the role of futuvvatnamas in promoting such universal human values as moral and spiritual perfection, courage, generosity, honesty, justice, and humaneness. The poetic nature and genre-specific features of futuvvatnamas are considered in connection with their role in the development of classical Eastern didactic literature.

Keywords: futuvvat, futuvvatnama, javanmardlik, genre, genre characteristics, form and content, poetics, composition, Sufism, perfect human being, ethical-didactic literature, classical Eastern literature, moral instruction, artistic and aesthetic features.

Аннотация. В статье рассматриваются жанровые особенности футувватнам как особого явления дидактико-литературного характера в классической восточной литературе, их форма, содержание, композиционная структура и поэтическая природа. Освещаются особенности формирования футувватнамы как самостоятельного жанра и её органическая связь с учением суфизма, исламской этикой и традициями джаванмардлика. Особое внимание уделяется тематическому и идейному содержанию произведений, их композиционному построению, поэтическим особенностям, средствам художественной выразительности, символическим образам, мудрым изречениям и назидательному стилю. Анализируются также взаимосвязь формы и содержания, художественное выражение нравственно-дидактических идей и роль футувватнам в пропаганде таких общечеловеческих ценностей, как духовно-нравственное совершенствование личности, концепция совершенного человека, мужество, щедрость, честность, справедливость и гуманность. Поэтическая природа и жанровое своеобразие футувватнам рассматриваются в контексте их роли в развитии классической восточной дидактической литературы.

Ключевые слова: футуввat, футувватнама, джаванмардлик, жанр, жанровые особенности, форма и содержание, поэтика, композиция, суфизм, совершенный человек, нравственно-дидактическая литература, классическая восточная литература, наставление и назидание, художественно-эстетические особенности.

Futuvvatnomalar Sharq mumtoz adabiyotida janriy jihatdan o'ziga xos didaktik-adabiy hodisa sifatida shakllangan bo'lib, ularda tasavvufiy-irfoniy qarashlar, islomiy axloqiy qadriyatlar va javonmardlik g'oyalari muayyan shakl, mazmun va poetik vositalar orqali ifodalangan. Mazkur janrning asosiy mazmunini insonni ma'naviy-axloqiy kamolot sari yetaklash, unda mardlik, saxovat, halollik, kamtarlik, vafodorlik va fidoyilik kabi fazilatlarni shakllantirish tashkil etadi.

Futuvvatnomalarning janriy tabiatini belgilashda ularning didaktik yo'nalishi bilan bir qatorda, kompozitsion qurilishi, bayon uslubi, mavzu va g'oyaviy mazmuni, badiiy ifoda vositalari hamda poetik obrazlar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

Futuvvatnomalar ijtimoiy-falsafiy va axloqiy mazmunining teranligi, pand-nasihat ruhidagi bayoni, hikmat, rivoyat va ibratli hikoyatlarga boy kompozitsiyasi bilan ajralib turadi. Mazkur asarlarda shakl va mazmun o'zaro uyg'unlashib, axloqiy-didaktik g'oyalar badiiy-estetik vositalar orqali ta'sirchan ifodalanadi. Shu jihatdan futuvvatnomalarni faqat axloqiy-ma'rifiy qo'llanma sifatida emas, balki o'ziga xos janriy tuzilish va poetik tizimga ega bo'lgan adabiy hodisa sifatida baholash mumkin. Ularning poetik xususiyatlarida ramziy timsollar, hikmatli iboralar, tazod, takror, tashbeh, qiyoslash kabi badiiy vositalar hamda pand-nasihatga asoslangan bayon usuli muhim o'rin tutadi.

Tasavvufiy manbalarda "futuvvat" tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritishga alohida e'tibor qaratilgan. VIII asrdan boshlab tasavvufiy adabiyotlarda "futuvvat" tushunchasi nafaqat axloqiy tamoyil, balki insonning ma'naviy kamolotini ifodalovchi tushuncha sifatida talqin qilina boshladi.[1] Mazkur jarayon keyinchalik futuvvat g'oyalarining adabiy-estetik shaklda ifodalanishiga va futuvvatnoma janrining shakllanishiga zamin yaratdi. Janr taraqqiyoti davomida futuvvatnomalarda tasavvufiy qarashlar, axloqiy me'yorlar va javonmardlik tamoyillari muayyan kompozitsion va poetik shakl kasb etdi.

Futuvvatnoma janrining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, unda shakl va mazmun birligi didaktik maqsad bilan chambarchas bog'langan. Asarlardagi bob va fasllarning muayyan tartibda joylashishi, nazariy fikrlarning hikoya, rivoyat, hikmat va pand-nasihatlar bilan izchil uyg'unlashuvi janrning kompozitsion xususiyatlarini belgilaydi. Mazmun jihatidan esa futuvvatnomalarda insonning o'z nafsini tarbiyalashi, jamiyatga foydali bo'lishi, saxovat va muruvvat ko'rsatishi, halollik va adolat tamoyillariga amal qilishi kabi g'oyalar yetakchilik qiladi.

Shuningdek, futuvvatnomalar poetikasida komil inson konsepsiyasi alohida o'rin egallaydi. Insonning ma'naviy-axloqiy yetukligi, o'zgalarga yaxshilik qilish, mardlik va fidoyilik ko'rsatish kabi fazilatlar janrning asosiy g'oyaviy-estetik mazmunini tashkil etadi. Shu sababli futuvvatnomalarning janriy xususiyatlarini o'rganish ularning faqat mazmuniy jihatlarini emas, balki shakliy-kompozitsion qurilishi, poetik vositalari, obrazlar tizimi va badiiy ifoda usullarini kompleks tahlil qilishni talab etadi.

Demak, "Futuvvatnomalarning janriy xususiyatlari: shakl, mazmun va poetika" mavzusini tadqiq etishda janrning shakllanish omillari, kompozitsion tuzilishi, mazmuniy

qatlamlari va poetik tizimi o'zaro bog'liqlikda o'rganilishi muhimdir. Bunday yondashuv futuvvatnomalarning Sharq mumtoz adabiyoti tizimidagi janriy o'rnini, badiiy-estetik imkoniyatlarini hamda axloqiy-didaktik adabiyot taraqqiyotiga qo'shgan hissasini yanada chuqurroq ochib berish imkonini beradi.

Tasavvuf istilohida "futuvvat" tushunchasi "baxshida qilmoq", "nisor aylamoq", ya'ni shaxsiy manfaatdan voz kechib, o'zgalarga ezgulik ulashish, saxovat va fidoyilik ko'rsatish ma'nolarini anglatadi. Futuvvatning mazmun-mohiyati uning bosqichma-bosqich takomillashib borishi bilan xarakterlanadi: dastlabki bosqich moddiy ne'mat, mol-dunyo va martabadan kechishni ifodalasa, oliy darajasi insonning nafsini poklashi, o'zligini ma'naviy jihatdan kamol toptirishi hamda o'zini Haq yo'lida fido etishi bilan belgilanadi.

Mazkur axloqiy-irfoniy tamoyillar futuvvatnomalarning g'oyaviy-mazmuniy asosini tashkil etib, ularning janriy tabiati, shakliy-kompozitsion qurilishi va poetik xususiyatlarini belgilovchi muhim omillardan biri sanaladi. Xususan, futuvvatnomalarda saxovat, mardlik, halollik, fidoyilik va insonparvarlik kabi fazilatlarning pand-nasihat, hikmat, rivoyat va ramziy obrazlar vositasida ifodalanishi janrning o'ziga xos poetik tabiatini namoyon etadi [2: 13].

Futuvvatnomalarda mazkur axloqiy-irfoniy qarashlar pand-nasihat, hikmat, rivoyat, masal va ramziy obrazlar vositasida badiiy jihatdan ta'sirchan ifodalanadi. Ushbu poetik vositalar orqali futuvvatning mohiyati, insonning ma'naviy kamolotga intilishi, nafsni jilovlash, saxovat, mardlik, halollik va fidoyilik kabi fazilatlarning mazmuni ochib beriladi. Shu jihatdan futuvvatnomalar nafaqat tasavvufiy-ma'rifiy va axloqiy qo'llanma, balki shakl va mazmun uyg'unligi, kompozitsion yaxlitligi hamda o'ziga xos poetik ifoda tizimi bilan Sharq didaktik adabiyotining estetik mezonlarini o'zida mujassamlashtirgan adabiy janr sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, komil inson g'oyasining badiiy talqini, axloqiy-didaktik mazmunning poetik vositalar orqali ifodalanishi futuvvatnomalarning adabiy-estetik qimmatini belgilovchi muhim xususiyatlardan biridir.

Futuvvat ta'limotiga oid arab va fors tillarida yaratilgan manbalar futuvvatnoma janrining shakllanishi, janriy takomillashuvi va poetik tizimining qaror topishida muhim manbaviy asos bo'lib xizmat qilgan. Mazkur manbalarda futuvvatning nazariy asoslari, axloqiy tamoyillari, javonmardlik odoblari va insoniy fazilatlar badiiy-didaktik yo'sinda yoritilib, keyinchalik futuvvatnomalarning mavzu, mazmun, kompozitsiya va poetik xususiyatlari shakllanishiga zamin yaratgan. Xususan, futuvvatnomalar, pandnomalar, axloqiy-didaktik asarlar hamda tasavvufiy risolalarda komil inson g'oyasi, javonmardlik fazilatlari, insonning ijtimoiy-ma'naviy mas'uliyati, kasb odobi va insoniy munosabatlar madaniyati hikoyat, rivoyat, hikmat va pand-nasihat kabi janriy-poetik shakllar orqali ifodalangan.

Mazkur manbalarning janriy o'ziga xosligi, avvalo, axloqiy qarashlarning oddiy nasihat shaklida emas, balki badiiy obrazlar, ramziy timsollar, tasavvufiy tushunchalar va poetik ifoda vositalari orqali yoritilishida namoyon bo'ladi. Bunday badiiy-didaktik yondashuv futuvvatnomalarda shakl va mazmunning uzviy uyg'unligini ta'minlab, ularning o'ziga xos poetik tabiatini yuzaga keltirgan. Shu jihatdan futuvvatnomalar nafaqat axloqiy-me'yoriy qo'llanma, balki Sharq didaktik adabiyotining muayyan janriy mezonlari va estetik tamoyillarini mujassamlashtirgan badiiy hodisa sifatida baholanadi.

Futuvvatnomalar poetikasida javonmardlik tushunchasi alohida semantik va estetik yuklamaga ega. U faqat mardlik va jasorat timsoli sifatida emas, balki saxovat, halollik, fidoyilik, tavoze', sabr, bag'rikenglik va insonparvarlik kabi umuminsoniy fazilatlarni mujassamlashtirgan ma'naviy-axloqiy ideal sifatida talqin qilinadi. Mazkur idealning badiiy obrazlar va hikoyatlar vositasida ifodalanishi futuvvatnomalarning g'oyaviy mazmunini boyitib, ularning poetik-estetik qimmatini va janriy o'ziga xosligini belgilovchi muhim omillardan biriga aylangan.

Futuvvat, axiylik va javonmardlik g'oyalarining shakllanishi va rivojlanishida Pahlavon Mahmud kabi mutafakkirlarning axloqiy-falsafiy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Uning insoniy komillik, mardlik, saxovat, fidoyilik va ma'naviy poklik haqidagi qarashlari keyinchalik futuvvatnomalar janrining g'oyaviy-mazmuniy asoslarini boyitgan muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Pahlavon Mahmud ijodida insonning ma'naviy yetukligi va axloqiy barkamolligi tashqi martaba yoki moddiy manfaatdan ustun qo'yilib, bu tamoyil futuvvat ta'limotining asosiy mazmuni bilan uyg'unlashadi.

Shuningdek, arab va fors tillarida yaratilgan futuvvatga oid manbalar futuvvatnoma janrining shakllanishi, janriy xususiyatlarining qaror topishi va poetik taraqqiyotida muhim manba vazifasini bajargan. Ushbu asarlarda futuvvatning nazariy asoslari, javonmardlik odoblari, axloqiy me'yorlari hamda komil inson fazilatlari didaktik va badiiy yo'sinda talqin etilgan. Mazkur manbalarda shakllangan axloqiy-didaktik qarashlar keyinchalik futuvvatnomalarda hikmat, rivoyat, hikoyat, pand-nasihat va ramziy obrazlar orqali badiiy ifoda topib, janrning o'ziga xos shakl, mazmun va poetik tizimining yuzaga kelishiga zamin yaratgan.

Jumladan, shoirning:

Ko'zgumga berardim kechqurun sayqal,
Boqdim unga tiniq bo'lgan bir mahal,
Shuncha ko'p ko'rindi o'z aybimki, men
O'zgalar aybini unutdim tugal

misralari futuvvatnomalar janriga xos axloqiy-didaktik ruhni yaqqol namoyon etadi. Ruboiydagi **ko'zgu** obrazi insonning o'z qalbi va vijdonini anglash ramzi sifatida qo'llanilgan bo'lib, u tasavvuf va futuvvat adabiyotida uchraydigan ramziy timsollardan biridir. Shoir o'z ayblarini anglash va ularni bartaraf etishni komillikka erishishning muhim sharti sifatida talqin qiladi.

Turkiy futuvvatnomalar orasida Yahyo ibn Halil ibn Shubon al-Burg'oziyning "Futuvvatnoma" asari alohida ilmiy va adabiy ahamiyatga ega. Mazkur asar futuvvatnoma janrining shakllanish xususiyatlari, mazmuniy qatlamlari va manbaviy asoslarini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Muallif asar muqaddimasida uni yaratish jarayonida foydalangan manbalari haqida batafsil ma'lumot berib, asarning shakllanishida tasavvufiy, axloqiy va irfoniy mazmundagi asarlarning muhim o'rin tutganini ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, franklarning Iskandariyani bosib olishi davrida qo'lga kiritilgan qo'lyozmalar orasidan tafsir, hadis, qissa, manoqib hamda tasavvufga oid qimmatli asarlar xarid qilingan. Jumladan, "Tazkirat ul-avliyo", "Asos ul-orifin", manoqib kitoblari va futuvvatga oid risolalar muallifning asosiy manbalaridan bo'lib xizmat qilgan.

Yahyo ibn Halil ibn Shubon al-Burg'oziy o'z asarini yaratishda Naqqosh Ahmadning "Tuhfat al-vasoyo", Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" hamda Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy" asarlaridan keng foydalanganini ham

qayd etadi. Ushbu manbalar bilan bog‘liqlik futuvvatnoma janrining shakllanishida tasavvufiy-irfoniy qarashlar, axloqiy-didaktik g‘oyalar va badiiy-estetik an’analar o‘zaro uyg‘unlashganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, hikoyat, rivoyat, hikmat va pand-nasihat kabi badiiy-didaktik shakllarning qo‘llanishi futuvvatnomalarning poetik qurilishiga ta’sir ko‘rsatgan.

Shu jihatdan Yahyo ibn Halil ibn Shubon al-Burg‘oziyning “Futuvvatnoma”si shakl, mazmun va poetika birligi nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda futuvvat va javonmardlik tamoyillarining tasavvufiy-axloqiy qarashlar bilan uyg‘un holda talqin qilinishi, komil inson fazilatlarining hikoyatlar va pand-nasihatlar vositasida yoritilishi janrning o‘ziga xos poetik tabiatini namoyon etadi. Mazkur jihatlar turkiy futuvvatnomalarning Sharq mumtoz adabiyoti tizimidagi janriy o‘rnini belgilash hamda ularning badiiy-estetik xususiyatlarini tadqiq etishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [1].

O‘zbek adabiyoti tarixida futuvvatnomalar, asosan, muayyan kasb egalari va ijtimoiy guruhlar uchun mo‘ljallangan didaktik risolalar sifatida keng tarqalgan bo‘lsa-da, ular vaqt o‘tishi bilan o‘ziga xos janriy va poetik xususiyatlarga ega adabiy asarlar sifatida shakllangan. Bunday risolalarda muayyan kasbning kelib chiqishi, uning ilk piri yoki ustozi, kasbning jamiyat hayotidagi o‘rni, kasb egasining huquq va majburiyatlari hamda unga xos axloqiy fazilatlar izchil yoritilgan. Shu jihatdan futuvvatnomalar kasbiy-axloqiy me’yorlarni belgilash bilan bir qatorda, shakl va mazmun uyg‘unligi, kompozitsion yaxlitligi va badiiy ifoda vositalari bilan ajralib turuvchi didaktik-adabiy janr sifatida namoyon bo‘ladi.

Xalq orasida keng tarqalgan futuvvatnoma shaklidagi risolalarning “Nurnomai sharif” bilan boshlanishi ularning diniy-ma’rifiy ruhini, g‘oyaviy asoslarini hamda janrning an’anaviy kompozitsion qurilishini belgilovchi muhim xususiyatlardan biridir. Bunday boshlanma orqali asarning ma’naviy mazmuni ta’kidlanib, keyingi qismlarda futuvvat, javonmardlik, kasb odobi va insoniy fazilatlar bilan bog‘liq qarashlar izchil bayon qilinadi. Asarlarda pand-nasihat, hikmat, rivoyat, hikoyat va ramziy obrazlarning faol qo‘llanishi esa axloqiy-didaktik mazmunning badiiy-estetik shaklda ifodalanishini ta’minlaydi. Natijada futuvvatnomalarning poetik tizimida nasihat va badiiy tasvir, diniy-irfoniy mazmun va estetik ifoda o‘zaro uyg‘unlashadi.

Futuvvat ta’limotida insonning o‘ziga berilgan ne’matni boshqalar manfaatiga sarflashi, qo‘lga kiritolmagan narsasi uchun esa shukr qilishi javonmardlikning muhim mezonlari sifatida talqin etiladi. Ushbu qarashlar dastlab Imom Ja’far Sodiq tomonidan futuvvatning asosiy tamoyillari sifatida ilgari surilganligi qayd etiladi. Keyinchalik mazkur axloqiy-falsafiy g‘oyalar futuvvatnomalar mazmuniga singib, ularning g‘oyaviy-tematik yo‘nalishi, janriy tabiati va poetik mazmunini shakllantirgan. Xususan, saxovat, qanoat, shukr, mardlik, halollik va insonparvarlik kabi qadriyatlarning badiiy talqini futuvvatnomalarning axloqiy-estetik konsepsiyasini yuzaga keltirgan.

Shunday qilib, o‘zbek adabiyotidagi futuvvatnomalar kasbiy-axloqiy risola va badiiy-didaktik janr xususiyatlarini o‘zida birlashtirgan adabiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning shakliy-kompozitsion tuzilishi, an’anaviy boshlanmalari, mavzu va g‘oyaviy mazmuni, hikoyat va rivoyatlarga asoslangan bayon usuli hamda ramziy-poetik obrazlar tizimi futuvvatnoma janrining o‘ziga xosligini belgilaydi. Mazmun va shaklning bunday uyg‘unligi futuvvatnomalarning Sharq didaktik adabiyotidagi badiiy-estetik qimmati va adabiy-tarixiy ahamiyatini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir [5].

Futuvvatnoma poetikasida shakl va mazmun uyg‘unligi alohida ahamiyatga ega. Asarlardagi diniy-ma’rifiy boshlanmalar, kasb va kasb odobiga oid an’anaviy qismlar, hikoyat va rivoyatlar, pand-nasihatlar hamda ramziy obrazlar janrning kompozitsion yaxlitligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, futuvvat g‘oyalarining badiiy talqini Husayn Voiz Koshifiy, Pahlavon Mahmud va boshqa mutafakkirlar ijodida yanada takomillashib, inson ma’naviyati, axloqiy kamoloti va komillik masalalarining poetik ifoda imkoniyatlarini kengaytirgan.

Shunday qilib, futuvvatnomalar Sharq adabiy-estetik tafakkurining rivojida muhim o‘rin tutgan, shakl, mazmun va poetikaning o‘zaro uyg‘unligini namoyon etgan noyob adabiy meros sifatida baholanishi mumkin. Ularning janriy tabiati, kompozitsion tuzilishi, mavzu va g‘oyaviy mazmuni, obrazlar tizimi hamda badiiy ifoda vositalarini kompleks o‘rganish futuvvatnoma janrining adabiyot tarixidagi o‘rnini yanada aniq belgilash imkonini beradi. Mazkur tadqiqot yo‘nalishi nafaqat adabiyotshunoslik, balki tasavvufshunoslik, manbashunoslik va madaniyatshunoslik uchun ham muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fütüvvet // TDV İslâm Ansiklopedisi. https://islamansiklopedisi.org.tr/futuvvet.
2. Mahmudov J.X. Pahlavon Mahmud va futuvvat manbalari: Fil. fan. dok. diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – B. 13.
3. Sajjodiy J. Farhangi istilohoti va ta’biroti irfoniy. – Tehron: Tahuriy, 1370/1992. – S. 618–619.
4. Koshifiy H.V. Futuvvatnomayi Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2011.
5. Pahlavon Mahmud. Ruboiylar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979.
6. Attor F. Tazkirat ul-avliyo. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1997.

Dilafruz XAYDAROVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
ispan tili nazariy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

ISPAN DIPLOMATIK TERMINOLOGIYASINING O'ZBEK VA RUS TILLARIGA TARJIMASIDA KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK MOSLASHUV

Annotatsiya. Mazkur maqolada ispan tilidan o'zbek va rus tillariga tarjima jarayonida diplomatik terminologiyaning kommunikativ-pragmatik moslashuvi masalasi tadqiq etiladi. Diplomatik terminologiyani tarjima qilishda funksional ekvivalentlik, pragmatik adaptatsiya, terminologik standartlashtirish, kalkalash va kontekstual almashtirish kabi strategiyalarning ahamiyati misollar yordamida asoslab beriladi. Tadqiqot natijalaridan diplomatik tarjima nazariyasi, tarjimonlarni tayyorlash hamda ispan-o'zbek-rus diplomatik terminologik lug'atlarini yaratishda foydalanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: diplomatik terminologiya, diplomatik diskurs, tarjima, kommunikativ-pragmatik moslashuv, pragmatik ekvivalentlik, funksional ekvivalentlik, ispan tili, o'zbek tili, rus tili, diplomatik tarjima, tarjima strategiyasi.

Annotation. This article examines the communicative and pragmatic adaptation of Spanish diplomatic terminology in the process of translation into Uzbek and Russian. The study substantiates, through examples, the importance of such strategies as functional equivalence, pragmatic adaptation, terminological standardization, calquing, and contextual substitution in the translation of diplomatic terminology. The findings of the study can be used in the theory of diplomatic translation, translator training, and the development of Spanish-Uzbek-Russian diplomatic terminology dictionaries.

Keywords: diplomatic terminology, diplomatic discourse, translation, communicative and pragmatic adaptation, pragmatic equivalence, functional equivalence, Spanish, Uzbek, Russian, diplomatic translation, translation strategies.

Аннотация. В статье исследуется коммуникативно-прагматическая адаптация испанской дипломатической терминологии в процессе перевода на узбекский и русский языки. На конкретных примерах обосновывается значимость таких стратегий, как функциональная эквивалентность, прагматическая адаптация, терминологическая стандартизация, калькирование и контекстуальная замена, при переводе дипломатической терминологии. Результаты исследования могут быть использованы в теории дипломатического перевода, подготовке переводчиков, а также при разработке испанско-узбекско-русских дипломатических терминологических словарей.

Ключевые слова: дипломатическая терминология, дипломатический дискурс, перевод, коммуникативно-прагматическая адаптация, прагматическая эквивалентность, функциональная эквивалентность, испанский язык, узбекский язык, русский язык, дипломатический перевод, переводческие стратегии.

Globallashuv va xalqaro munosabatlarning jadallashuvi natijasida diplomatik kommunikatsiya zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikning muhim tadqiqot obyektlaridan biriga aylanmoqda. Davlatlar, xalqaro tashkilotlar, diplomatik vakolatxonalar va siyosiy institutlar o'rtasidagi rasmiy muloqot ko'p hollarda bir necha tillarda olib boriladi. Bunday sharoitda diplomatik hujjatlarning mazmunini bir tildan ikkinchi tilga aniq va adekvat yetkazish xalqaro kommunikatsiyaning muhim shartlaridan biridir.

Diplomatik diskurs boshqa institutsional diskurs turlaridan o'zining yuqori darajadagi standartlashganligi, rasmiyligi, terminologik aniqligi va pragmatik ehtiyotkorligi bilan ajralib turadi. Diplomatik matnda qo'llangan har bir termin muayyan siyosiy-huquqiy tushunchani ifodalashi bilan birga, davlatning muayyan pozitsiyasini ham anglatishi mumkin. Shu sababli bunday terminlarning tarjimasida yuzaga keladigan kichik semantik yoki uslubiy siljish ham matnning umumiy kommunikativ ta'siriga ta'sir qilishi mumkin.

Ayniqsa, ispan tilidagi diplomatik terminlarni o'zbek va rus tillariga tarjima qilishda mazkur muammo alohida ahamiyat kasb etadi. Ispan tili xalqaro diplomatiyada keng qo'llaniladigan tillardan biri bo'lib, uning diplomatik leksikasi uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan. Zamonaviy ispan diplomatik terminologiyasida xalqaro huquq, siyosat, xalqaro tashkilotlar faoliyati, davlatlararo munosabatlar va diplomatik protokolga oid ko'plab terminlar mavjud. Ularning bir qismi xalqaro xarakterga ega bo'lsa, ayrim birliklar ispan diplomatik an'analariga xos semantik yoki pragmatik xususiyatlarni saqlab qoladi.

Diplomatik diskursning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda terminologik birliklar faqat muayyan siyosiy, huquqiy yoki institutsional tushunchalarni ifodalab qolmay, balki davlatlararo munosabatlarda rasmiylik, diplomatik masofa, hurmat, ehtiyotkorlik va kommunikativ niyatni ham aks ettiradi. Shu sababli diplomatik terminlarni tarjima qilishda ularning lug'aviy ekvivalentini aniqlashning o'zi yetarli emas. Tarjimon terminning matndagi kommunikativ vazifasi, pragmatik yuklamasi, diplomatik protokolga muvofiqligi hamda tarjima qilinayotgan tilning rasmiy-uslubiy me'yorlarini hisobga olishi lozim.

Diplomatik terminologiyaning o'zbek tiliga moslashuvi masalasi so'nggi yillarda yanada dolzarb bo'lib bormoqda. O'zbekistonning xalqaro aloqalari kengayishi, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikning rivojlanishi natijasida diplomatik va xalqaro-huquqiy terminlarning o'zbek tilidagi muqobillarini yaratish, standartlashtirish va amaliyotga joriy etish zarurati kuchaymoqda. D.Z.Xaydarovaning tadqiqotlarida ispan tilidagi diplomatik terminlarning o'zbek tiliga o'zlashuvi, ularning semantik va funksional moslashuvi hamda tarjima jarayonidagi ekvivalentlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Muallif ispan tilidagi *embajada, nota verbal, asilo político, acuerdo marco, reunión bilateral* kabi birliklarning o'zbek tiliga o'tish mexanizmlarini lingvistik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilgan.

Mazkur maqolaning maqsadi ispan tilidagi diplomatik terminologiyaning o'zbek va rus tillariga tarjimasida yuzaga keladigan kommunikativ-pragmatik muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning samarali strategiyalarini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi diplomatik terminologiyani faqat leksik birlik sifatida emas, balki muayyan kommunikativ vazifani bajaruvchi pragmatik birlik sifatida ko'rib chiqishda namoyon bo'ladi. Bunda terminning lug'aviy ma'nosi bilan bir qatorda uning diplomatik matndagi funksiyasi, rasmiylik darajasi, institutsional mazmuni va adresatga ta'siri ham hisobga olinadi.

V.N.Komissarovning fikricha, diplomatik terminologiya xalqaro munosabatlar, tashqi siyosat, diplomatik vakolatxonalar faoliyati, xalqaro huquq va davlatlararo

muzokaralarga oid tushunchalarni ifodalovchi maxsus leksik birliklar tizimidir. Mazkur terminologik tizim boshqa terminologik tizimlardan farqli ravishda nafaqat nominativ, balki kommunikativ va pragmatik funksiyaga ham ega [2].

Masalan, *relaciones diplomáticas* termini oddiy "aloqalar" tushunchasidan ancha kengroq mazmunni anglatadi. U davlatlar o'rtasida diplomatik munosabatlarning mavjudligini bildiradi va muayyan xalqaro-huquqiy holatni ifodalaydi. Uning rus tilidagi ***дипломатические отношения***, o'zbek tilidagi *diplomatik munosabatlar* muqobillari semantik jihatdan yaqin bo'lsa-da, tarjimon terminning aynan qanday kontekstda ishlatilganiga e'tibor berishi kerak. Xuddi shunday, *relaciones bilaterales* birikmasi rus tilida ***двусторонние отношения***, o'zbek tilida *ikki tomonlama munosabatlar* tarzida tarjima qilinadi. Bu holatda formal va funksional ekvivalentlik deyarli bir-biriga mos keladi. Biroq barcha diplomatik terminlarda bunday to'g'ridan to'g'ri muvofiqlik mavjud emas.

Diplomatik terminlarning muhim xususiyatlaridan biri ularning institutsional bog'liqligidir. Masalan, *misión diplomática* termini muayyan davlatning boshqa davlatdagi diplomatik vakolatxonasini anglatadi. Rus tilidagi ***дипломатическое представительство*** va ***дипломатическая миссия***, o'zbek tilidagi *diplomatik vakolatxona* va *diplomatik missiya* variantlari ayrim kontekstlarda bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ularni avtomatik ravishda bir-birining o'rnida qo'llash mumkin emas.

Tarjimon hujjatning janri, xalqaro-huquqiy konteksti va terminning rasmiy qo'llanishini hisobga olishi lozim. A.Hurtado Albir tarjimani tillararo va madaniyatlararo vositachilik faoliyati sifatida ko'rib, tarjima jarayonida kommunikativ vazifa va kontekstning muhimligini ta'kidlaydi. Uning tarjimashunoslikka bag'ishlangan fundamental tadqiqoti tarjima jarayonini nazariy, tavsifiy va amaliy jihatlardan kompleks o'rganishga asoslangan. Mazkur yondashuv diplomatik tarjimaga ham bevosita tatbiq etilishi mumkin, chunki diplomatik terminni tarjima qilishda tarjimon ikki tilning grammatik va leksik tizimlarini emas, balki ikki diplomatik-kommunikativ tizimni ham muvofiqlashtiradi [1].

Pragmatik moslashuv deganda original matndagi kommunikativ maqsad, nutqiy ta'sir, rasmiylik darajasi va adresatga yo'naltirilgan ma'no komponentlarini tarjima tilida tabiiy va funksional jihatdan mos shaklda qayta yaratish tushuniladi. Diplomatik tarjimada pragmatik moslashuv ayniqsa muhim, chunki diplomatik matnlar ko'pincha bevosita fikr bildirishdan qochadi. Muayyan talab, norozilik, ogohlantirish yoki siyosiy pozitsiya yumshatilgan, bilvosita yoki protokolga mos shaklda ifodalanadi. Masalan, ispan diplomatik yozishmalarida *La Embajada tiene el honor de comunicar...* formulasi keng qo'llanishi mumkin. Ushbu birikmani so'zma-so'z tarjima qilish mumkin bo'lsa-da, tarjimon uning diplomatik vazifasini tushunishi zarur. Rus tilida ***Посольство имеет честь сообщить***..., o'zbek tilida esa Elchixona ...ni ma'lum qilish sharafiga muyassar kabi rasmiy konstruktsiyalar qo'llanishi mumkin. Bu yerda asosiy vazifa *tener el honor* birikmasining har bir komponentini alohida tarjima qilish emas, balki uning rasmiy-diplomatik funksiyasini saqlashdir.

Shunga o'xshash muammo saluda atentamente formulasida ham kuzatiladi. Oddiy lug'aviy tarjimada *saludar* fe'li «salomlashmoq», «salom bermoq» ma'nolarini beradi. Biroq diplomatik hujjatda *La Embajada saluda atentamente al Ministerio...* konstruktsiyasi oddiy salomlashish harakatini emas, diplomatik hurmatni ifodalovchi standart formulani anglatadi. Shuning uchun rus tilida ***Посольство свидетельствует свое уважение Министерству***..., o'zbek tilida esa *Elchixona ... vazirligiga o'z hurmatini izhor etadi* kabi funksional muqobillar maqsadga muvofiqdir. Mazkur holat tarjimada kommunikativ-pragmatik moslashuvning mohiyatini yaqqol ko'rsatadi: tarjimon shaklni emas, kommunikativ vazifani saqlaydi.

Ispan diplomatik terminlarining o'zbek va rus tillaridagi muqobillari. Ispan diplomatik terminologiyasida xalqaro diplomatiyada keng qo'llaniladigan va boshqa tillarda nisbatan barqaror muqobillarga ega bo'lgan birliklar ko'p. Masalan, *embajador* termini rus tilida **посол**, o'zbek tilida elchi tarzida beriladi. Bu birliklarda yuqori darajadagi funksional ekvivalentlik kuzatiladi. *Embajada* termini esa rus tilida **посольство**, o'zbek tilida elchixona tarzida tarjima qilinadi.

Mazkur birliklar nafaqat terminologik, balki institutsional jihatdan ham to'liq mos keladi. Biroq ayrim terminlarda so'zma-so'z tarjima noto'g'ri natijaga olib kelishi mumkin. Masalan, nota verbal termini rus tilida **вербальная нота**, o'zbek tilida verbal nota shaklida qo'llanadi. *Verbal* komponentini "og'zaki" tarzida tarjima qilish semantik jihatdan chalg'ituvchi bo'ladi, chunki *nota verbal* – yozma diplomatik hujjat turi. D.Z.Xaydarova ham mazkur terminning o'zbek tiliga moslashuvida so'zma-so'z tarjimaning semantik nomuvofiqligiga e'tibor qaratadi [8].

Yana bir murakkab birlik – encargado de negocios. Uning komponentlarini alohida tarjima qilish diplomatik ma'noni bermaydi. Rus tilida bu termin **поверенный в делах**, o'zbek tilida esa muvaqqat ishlar vakili tarzida ifodalanadi. Bu yerda tarjimon xalqaro diplomatik terminologiyada allaqachon shakllangan funksional ekvivalentdan foydalanishi kerak. *Carta credencial* termini ham shunga o'xshash xususiyatga ega. Uning rus tilidagi muqobili **верительная грамота**, o'zbek tilidagi muqobili ishonch yorlig'i hisoblanadi. Bu misol tarjimada xalqaro diplomatik terminning milliy til tizimida o'ziga xos ekvivalentga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Plenos poderes birikmasi esa xalqaro-huquqiy kontekstda davlat vakiliga xalqaro shartnomani imzolash yoki boshqa huquqiy harakatni amalga oshirish vakolatini tasdiqlovchi hujjat bilan bog'liq. Rus tilida ***полномочия***, ayrim huquqiy kontekstlarda ***полные полномочия***, o'zbek tilida *vakolatlar* yoki kontekstga muvofiq *to'liq vakolatlar* shakllari ishlatiladi. Bunday birliklarda tarjimon matnning huquqiy kontekstini aniqlamasdan turib yakuniy ekvivalentni tanlamasligi kerak.

Pragmatik ma'noning tarjimada saqlanishi. Diplomatik tarjimaning murakkab jihatlaridan biri terminning bevosita lug'aviy ma'nosidan tashqari, uning pragmatik yuklamasini saqlashdir [6]. Ayniqsa, diplomatik hujjatlarda norozilik, xavotir, talab, taklif yoki ehtiyotkor ogohlantirish kabi kommunikativ maqsadlar maxsus terminologik birliklar orqali ifodalanadi. Masalan, ispan tilidagi manifestar preocupación birikmasi oddiy "tashvish bildirmoq" ma'nosiga ega bo'lsa-da, diplomatik matnda u muayyan masala yuzasidan rasmiy xavotir bildirishning standart shakli sifatida qo'llanadi. Rus tilida ***выразить обеспокоенность***, o'zbek tilida *tashvish bildirmoq* yoki *xavotir bildirmoq* variantlari kontekstga qarab qo'llanadi. Bu yerda tarjimonning asosiy vazifasi siyosiy bayonotning keskinlik darajasini o'zgartirmaslikdir. Masalan, manifestar preocupaciónni *"keskin norozilik bildirmoq"* tarzida tarjima qilish original matnda mavjud bo'lmagan kuchliroq siyosiy bahoni yuzaga keltirishi mumkin. Shuningdek, lamentar profundamente kabi birliklar ham alohida pragmatik yuklamaga ega. Rus tilida ***выразить глубокое сожаление***, o'zbek tilida *chuqur*

afsus bildirmoq kabi muqobillar ishlatiladi. Biroq tarjimon ushbu birliklarni *qoralamoq, keskin norozilik bildirmoq* kabi kuchliroq konstruksiyalar bilan almashtirmasligi kerak.

Yana bir misolni ko'rib chiqsak, *acuerdo marco* terminini o'zbek tilida asosiy kelishuv yoki doiraviy kelishuv shaklida tarjima qilish mumkin. Qaysi variantning tanlanishi hujjatning huquqiy mazmuniga bog'liq. Xuddi shunday, *comunicado conjunto* termini qo'shma bayonot sifatida tarjima qilinganda diplomatik janrga mos keladi. So'zma-so'z *birgalikda chiqarilgan xabar* shakli esa mazmunan tushunarli bo'lsa-da, diplomatik uslubning normativ talablariga javob bermaydi. Demak, kommunikativ-pragmatik moslashuv tarjimonga ikki asosiy talabni qo'yadi: birinchidan, original terminning aniq mazmunini saqlash; ikkinchidan, uni tarjima tilida tabiiy, normativ va diplomatik jihatdan maqbul shaklda ifodalash.

Olib borilgan tahlil ispan tilidan o'zbek va rus tillariga diplomatik terminologiyani tarjima qilish jarayoni oddiy leksik almashtirishdan iborat emasligini ko'rsatdi. Diplomatik terminlar o'zida siyosiy, huquqiy, institutsional va kommunikativ-pragmatik ma'no qatlamlarini birlashtiradi. Shu sababli ularning tarjimasida lug'aviy ekvivalentni topish bilan bir qatorda terminning diplomatik diskursdagi funksiyasi, rasmiylik darajasi va kommunikativ maqsadini ham saqlash zarur.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ispan diplomatik terminologiyasini o'zbek va rus tillariga tarjima qilishda eng samarali yondashuv funksional va pragmatik ekvivalentlik tamoyillarini uyg'unlashtirishdan iborat. *Embajador, embajada, relaciones bilaterales* kabi birliklar tayyor terminologik ekvivalentlar yordamida nisbatan oson tarjima qilinsa, *nota verbal, encargado de negocios, carta credencial* kabi terminlarda tarjimon xalqaro diplomatik terminologiyaning me'yoriy shakllariga murojaat qilishi lozim. Ayniqsa, so'zma-so'z tarjima terminning institutsional yoki pragmatik ma'nosini buzishi mumkin bo'lgan holatlarda funksional ekvivalentdan foydalanish muhimdir.

Shuningdek, diplomatik tarjimada kommunikativ-pragmatik moslashuv diplomatik xushmuomalalik, bilvosita ifoda, nutqning rasmiyligi va siyosiy neytrallikni saqlashni talab qiladi. Original matndagi xavotir, afsus, taklif yoki norozilik darajasi tarjimada kuchaytirilmasligi yoki susaytirilmasligi kerak. Shu jihatdan diplomatik tarjimon nafaqat ikki yoki uch tilni mukammal biluvchi mutaxassis, balki diplomatik protokol, xalqaro huquq va madaniyatlararo kommunikatsiya tamoyillarini yaxshi o'zlashtirgan mutaxassis bo'lishi zarur.

Umuman olganda, ispan-o'zbek-rus diplomatik tarjima tizimida kommunikativ-pragmatik moslashuv terminologik aniqlik va diplomatik tabiiylik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Mazkur yondashuv kelgusida ispan-o'zbek-rus diplomatik terminologiyasining yagona elektron bazasini yaratish, terminlarning normativ muqobillarini standartlashtirish va diplomatik tarjimonlarni tayyorlash metodikasini takomillashtirish uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hurtado Albir A. Traducción y traductología: Introducción a la traductología. 10.ª ed. – Madrid: Cátedra, 2018.
2. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. М.: ЭТС, 2002.
3. Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. М.: Международные отношения, 1975.
4. Виноградов В.С. Введение в переводоведение. М.: Изд-во Института общего среднего образования РАО, 2001.
5. García Yebra V. Teoría y práctica de la traducción. – Madrid: Gredos, 1982.
6. Vázquez-Ayora G. Introducción a la traductología: Curso básico de traducción. – Washington, D.C.: Georgetown University Press, 1977.
7. Хайдарова Д.З. Некоторые особенности дипломатического перевода // Интернаука, 2019,№ 21-2. – С. 35–36.
8. Хайдарова Д.З. Терминология сегодня: концепции, тенденции и приложения // Вестник науки и образования,2022, № 2-2 (122). – С. 15–18.
9. Хайдарова Д.З. Задача переводчика дипломатического текста // Вестник науки и образования, 2024, № 10 (153)-2. – С. 13–16.

Shahlo XASANOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti ingliz tili o'qituvchisi

HARBIY DISKURSDA BUYRUQ VA MUROJAAT STRATEGIYALARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada harbiy diskursda qo'llaniladigan buyruq va murojaat strategiyalarining pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Harbiy kommunikatsiya qat'iy ierarxik tuzilishi, intizomiy me'yorlari, kommunikativ aniqligi va yuqori darajadagi institutsional nazorati bilan ajralib turadi. Shu sababli harbiy diskursdagi buyruq va murojaat birliklari oddiy grammatik vosita sifatida emas, balki muayyan kommunikativ maqsadni amalga oshiruvchi pragmatik birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda murojaat birliklarining adresatning institutsional maqomi, harbiy unvoni, ijtimoiy masofasi va kommunikativ vaziyatdagi rolini ifodalashdagi funksiyasi, shuningdek, ularning buyruqning illokutiv kuchini modulyatsiya qilishdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Tahlil natijalari murojaat shaklining tanlanishi harbiy ierarxiya, hokimiyat munosabatlari, rasmiylik va hurmat darajasini verbal tarzda ifodalashini ko'rsatadi. Shuningdek, buyruq va murojaat birliklarining o'zaro uyg'unligi harbiy kommunikatsiyada direktiv ta'sirning kuchayishi yoki yumshashiga xizmat qilishi aniqlanadi. Tadqiqot natijalaridan harbiy diskurs pragmatikasi, harbiy kommunikatsiyaning lingvistik xususiyatlari hamda o'zbek va ingliz tillarini qiyosiy-pragmatik tadqiq etishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: harbiy diskurs, pragmatika, buyruq, murojaat, nutq akti, illokutiv kuch, kommunikativ strategiya, harbiy unvon, ierarxiya, hokimiyat, adresat, nutqiy ta'sir.

Annotation. This article analyzes the pragmatic features of command and address strategies used in military discourse. Military communication is characterized by a rigid hierarchical structure, disciplinary norms, communicative precision, and a high degree of institutional control. Therefore, commands and address forms in military discourse function not merely as grammatical means but as pragmatic units that serve specific communicative purposes. The study examines the role of address forms in expressing the addressee's institutional status, military rank, social distance, and communicative role, as well as their function in modulating the illocutionary force of commands. The analysis demonstrates that the choice of an address form verbally represents military hierarchy, power relations, formality, and the degree of respect. It also reveals that the interaction between command and address forms may strengthen or mitigate the directive force of military communication. The findings of the study can be used in research on military discourse pragmatics, the linguistic features of military communication, and comparative pragmatic studies of Uzbek and English.

Keywords: military discourse, pragmatics, command, address, speech act, illocutionary force, communicative strategy, military rank, hierarchy, authority, addressee, speech influence.

Аннотация. В статье анализируются прагматические особенности стратегий приказа и обращения, используемых в военном дискурсе. Военная коммуникация характеризуется строгой иерархической структурой, дисциплинарными нормами, коммуникативной точностью и высокой степенью институционального контроля. В связи с этим единицы приказа и обращения в военном дискурсе выступают не только как грамматические средства, но и как прагматические единицы, реализующие определённые коммуникативные цели. В исследовании рассматривается роль обращений в выражении институционального статуса, воинского звания, социальной дистанции и коммуникативной роли адресата, а также их функция в модификации иллокутивной силы приказа. Результаты анализа показывают, что выбор формы обращения вербально репрезентирует военную иерархию, властные отношения, степень официальности и уважения. Кроме того, установлено, что взаимодействие единиц приказа и обращения может усиливать или смягчать директивное воздействие военной коммуникации. Результаты исследования могут быть использованы при изучении прагматики военного дискурса, лингвистических особенностей военной коммуникации, а также в сопоставительных прагматических исследованиях узбекского и английского языков.

Ключевые слова: военный дискурс, прагматика, приказ, обращение, речевой акт, иллокутивная сила, коммуникативная стратегия, воинское звание, иерархия, власть, адресат, речевое воздействие.

Harbiy diskursda murojaat birliklari kommunikativ jarayonning yordamchi yoki ikkilamchi elementi emas, balki nutqiy aktning ijtimoiy-pragmatik tuzilishini belgilovchi muhim vositalardan biridir. Murojaatning asosiy funksiyasi adresatni identifikatsiya qilish bilan cheklanmaydi. U, avvalo, kommunikatsiya ishtirokchilarining institutsional maqomi, o'zaro ierarxik munosabati, ijtimoiy masofasi va kommunikativ vaziyatdagi rollarini verbal ravishda aktuallashtiradi. Shu jihatdan murojaat birliklari harbiy diskursda shaxsga emas, ko'pincha uning **institutsional maqomiga** yo'naltirilgan kommunikativ signal sifatida namoyon bo'ladi.

Harbiy kommunikatsiyada adresatning shaxsiy nomidan ko'ra uning harbiy unvoni, lavozimi yoki xizmatdagi mavqeini ifodalovchi birlikning tanlanishi bevosita pragmatik motivatsiyaga ega. Masalan, *kapitan*, *mayor*, *polkovnik*, *serjant* kabi birliklar nominativ ma'nosidan tashqari, adresatning harbiy tizimdagi o'rnini ham aktualizatsiya qiladi [1: 38]. Bunday murojaat orqali so'zlovchi adresatni muayyan shaxs sifatida emas, balki harbiy institutning ma'lum bir vakili sifatida kommunikativ maydonga kiritadi. Natijada murojaat shakli nutqiy aloqaning institutsional xarakterini kuchaytiradi.

Murojaat birliklarining pragmatik mazmuni, avvalo, **status va hokimiyat munosabatlari** bilan belgilanadi. Harbiy jamoada kommunikativ rollar teng asosda shakllanmaydi: komandir va bo'ysunuvchi, yuqori va quyi harbiy unvon egasi, ofitser va oddiy askar o'rtasidagi munosabatlar qat'iy ierarxik tizimga asoslanadi. Shuning uchun murojaat shaklining tanlanishi ushbu ierarxiyani nafaqat aks ettiradi, balki uni nutq jarayonida qayta ishlab chiqaradi. Boshqacha aytganda, murojaat harbiy ierarxiyaning **lingvistik reprezentatsiyasi** vazifasini bajaradi [2: 122].

Mazkur jihatdan murojaatni **deiktik-pragmatik birlik** sifatida ham tavsiflash mumkin. Chunki u nutqiy vaziyatda kommunikatsiyaning muayyan ishtirokchisini ajratib ko'rsatadi va uning kommunikativ rolini belgilaydi. Bunda murojaatning semantik mazmunidan ko'ra uning kontekstual-pragmatik qiymati ustunlik qiladi. Masalan, *Kapitan, hisobotni taqdim eting!* konstruksiyasida *kapitan* birligi faqat shaxsni chaqirish vazifasini bajarmaydi. U buyruqni qabul qiluvchi shaxsning institutsional maqomini aktualizatsiya qiladi va shu bilan keyingi direktiv nutq aktining legitimligini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, murojaat birliklari **buyruqning illokutiv kuchini modulyatsiya qilish** imkoniyatiga ega. Bir xil buyruq

turli murojaat shakllari bilan birikkanda turlicha pragmatik ta'sir hosil qilishi mumkin. Masalan:

Askar, bu yerga kel!
Serjant, bu yerga keling!
Janob polkovnik, bu yerga marhamat qiling.

Mazkur konstruksiyalarda harakatning umumiy mazmuni – adresatni muayyan joyga kelishga undash – o'xshash bo'lsada, ularning kommunikativ kuchi va ijtimoiy-pragmatik qiymati bir xil emas. Birinchi konstruksiya qat'iy direktivlikni, ikkinchisi institutsional-harbiy rasmiylikni, uchinchisi esa yuqori darajadagi hurmat va ijtimoiy distansiyani ifodalashi mumkin [3: 74]. Demak, murojaat shakli buyruqning mazmunini o'zgartirmagan holda uning **kommunikativ modalitetini** va adresatga nisbatan munosabatni o'zgartiradi.

Shunday qilib, harbiy diskursdagi murojaat birliklarini faqat "kimga murojaat qilinayotganini ko'rsatuvchi so'zlar" sifatida izohlash ilmiy jihatdan yetarli emas. Ular harbiy kommunikatsiyaning **status, hokimiyat, ierarxiya, ijtimoiy masofa, institutsional rol va direktiv ta'sir** kabi asosiy pragmatik kategoriyalarini verbal tarzda kodlaydi. Murojaatning tanlanishi kommunikativ vaziyatning ijtimoiy parametrlarini aks ettirish bilan birga, ushbu parametrlarni nutq jarayonida faol ravishda shakllantiradi. Shu sababli harbiy diskursni pragmatik tadqiq etishda murojaat birliklarini mustaqil leksik-grammatik kategoriya sifatida emas, balki **ijtimoiy munosabatlarni boshqaruvchi va direktiv nutq aktining pragmatik kuchini shakllantiruvchi strategik vosita** sifatida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normatov H.Z. The Pragmatic Role of Loudness and Tempo in Military Command Speech // Advances in Science and Humanities, 2026. Vol. 2, № 1.
2. Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962.
3. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
4. Chilton P. Analysing Political Discourse: Theory and Practice. – London: Routledge, 2004.
5. Fairclough N. Discourse and Social Change. – Cambridge: Polity Press, 1992.

Sultonposhsho SOTIBOLDIYEVA,
Tibbiyot va farmatsevtika tarmoqlarini rivojlantirish agentligi bosh mutaxassisi

YANGI O'ZBEKISTON OBRAZINING XALQARO MEDIA MATNLARIDA SHAKLLANISHI: LINGVISTIK VA KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLAR

Annotatsiya. Maqolada "New Uzbekistan" nominatsiyasining xalqaro media matnlarida shakllanishi lingvistik va kommunikativ jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda islohot, xalqaro hamkorlik va tanqidiy framing modellari aniqlanib, nominativ, baholovchi va metaforik birliklarning mamlakat obrazini konstruksiya qilishdagi roli ochib beriladi.
Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, media diskursi, mamlakat imiji, framing, nominatsiya, baholash, metafora.
Annotation. The article examines the representation of "New Uzbekistan" in international media discourse. It identifies reform, international cooperation and critical framing models and analyzes the role of nominative, evaluative and metaphorical language in constructing the country's image.
Keywords: New Uzbekistan, media discourse, country image, framing, nomination, evaluation, metaphor.
Аннотация. В статье анализируется формирование образа «Нового Узбекистана» в международных медиатекстах. Выявляются модели реформ, международного сотрудничества и критического фрейминга, а также рассматривается роль номинативной, оценочной и метафорической лексики в конструировании образа страны.
Ключевые слова: Новый Узбекистан, медиадискурс, имидж страны, фрейминг, номинация, оценочность, метафора.

Globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida mamlakat imiji uning siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy ko'rsatkichlari bilangina emas, balki xalqaro media makonida qanday ifodalanishi bilan ham belgilanadi. Media matnlari voqelikni shunchaki aks ettirmay, uni nominatsiya, baholovchi leksika, metafora va framing vositasida muayyan talqin doirasiga joylashtiradi.

Mamlakat imiji murakkab kognitiv, hissiy va ijtimoiy tasavvurlar majmuyi sifatida qaraladi. K.Brijs, J.Bloemer va H.Kasper mamlakat obrazini auditoriyaning davlat haqidagi tasavvurlari bilan bog'laydi [1]. I.R.R.Lu va hammualliflar esa "country image" tushunchasining iqtisodiy omillardan tashqari siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatlarni ham qamrab olishini ko'rsatadi [2].

O'zbekiston kontekstida mamlakat imijining OAVda shakllanishi B.S. Alimovning tadqiqotlarida maxsus o'rganilgan. Olimning 2018-yildagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida xorijiy va milliy OAVda O'zbekiston imijini yaratish tamoyillari yoritilib, mamlakat media obrazining shakllanish omillari tahlil qilingan [8]. Mazkur tadqiqot bugungi "New Uzbekistan" diskursini o'rganish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, zamonaviy xalqaro media diskursida "New Uzbekistan" nominatsiyasi yangi siyosiy bosqich, islohot, iqtisodiy ochiqlik va xalqaro hamkorlik bilan bog'lanmoqda. Biroq turli media subyektlari ushbu tushunchani bir xil talqin qilmaydi. Ayrim materiallarda u modernizatsiya va taraqqiyot ramzi sifatida namoyon bo'lsa, boshqalarida islohotlar va avvalgi siyosiy amaliyotlar o'rtasidagi ziddiyat nuqtayi nazaridan talqin qilinadi.

Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolaning maqsadi "New Uzbekistan" obrazining xalqaro media matnlaridagi asosiy mazmuniy modellarini aniqlash hamda ularni shakllantiruvchi lingvistik vositalarni tahlil qilishdan iborat.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mamlakat obrazi xalqaro tadqiqotlarda **country image**, media diskursi, milliy brending va jamoatchilik diplomatiyasi doirasida o'rganilgan. Brijs, Bloemer va Kasper mamlakat obrazining mazmuniy tuzilishini tahlil qilgan bo'lsa [1], Lu va hammualliflar ushbu tushunchaning fanlararo xususiyatiga e'tibor qaratadi [2].

Media diskursida mamlakat obrazining metaforik ifodalanishi ham alohida tadqiqot yo'nalishidir. B.G.Smagulova va Sh.K.Zharkynbekova Qozog'istonning rus tilidagi media diskursidagi obrazini metaforik modellar asosida tahlil qilgan [3]. M.Djurayeva esa O'zbekiston va Qozog'iston misolida milliy brendingni til va globallashuv jarayonlari bilan bog'lab o'rganadi [4].

O'zbekiston bo'yicha B.S.Alimovning tadqiqoti alohida ahamiyatga ega. Unda O'zbekistonning xorijiy va milliy OAVdagi obrazi hamda mamlakat imijini shakllantirish tamoyillari o'rganilgan [8]. Mazkur maqola ushbu ilmiy yo'nalishni davom ettirib, 2016-yildan keyingi davrda faol qo'llanayotgan "New Uzbekistan" nominatsiyasining xalqaro media matnlaridagi lingvistik va kommunikativ xususiyatlariga e'tibor qaratadi.

Shunday qilib, mavjud tadqiqotlar uchun nazariy asos mavjud bo'lsa-da, "New Uzbekistan" nominatsiyasining turli kommunikativ subyektlar tomonidan qanday framing qilinishi masalasi alohida tizimlashtirishni talab etadi.

Tadqiqot materiali sifatida xalqaro auditoriyaga mo'ljallangan uchta media materiali tanlandi: F.Sidikovning "*The Diplomat" nashridagi* "New Uzbekistan's Reform Agenda: A Catalyst for Stronger US Bilateral Relations" maqolasi, M.Rittmannning "New Uzbekistan, Old Tricks" maqolasi hamda *Euronews* platformasidagi "Uzbekistan's Bold Reforms Spark Global Interest" materiali.

Materiallar kommunikativ pozitsiyasiga ko'ra turlicha: Sidikov materiali diplomatik **self-representation**, Rittmann materiali tanqidiy media framing, *Euronews* materiali esa **Partner content** sifatidagi institutsional-promotional kommunikatsiyani ifodalaydi.

Tadqiqotda diskursiv, qiyosiy va lingvistik-kontent tahlili, shuningdek, framing tahlilidan foydalanildi. Framing R.M.Entman talqinida voqelikning ayrim jihatlarini tanlab ajratib, ularni muayyan talqin doirasiga joylashtirish jarayoni sifatida qaraladi [5]. Baholovchi birliklarni aniqlashda J.R.Martin va P.R.R.White ishlab chiqqan Appraisal Theory [6], metaforalarni tahlil qilishda esa G.Lakoff va M.Johnsonning konseptual metafora nazariyasidan foydalanildi [7].

Tahlilda nominativ birliklar, baholovchi leksika, metaforik konstruksiyalar va ularning kommunikativ vazifalariga e'tibor qaratildi.

"New Uzbekistan" nominatsiyasining lingvistik xususiyatlari. "New Uzbekistan" birikmasining o'zi mamlakatning yangi siyosiy bosqichini ifodalovchi asosiy nominativ birliklardan biridir. Undagi **new** komponenti yangilanish, transformatsiya va avvalgi davrdan farqlanish ma'nolarini faollashtiradi. Biroq "new" komponentining mazmuni kontekstga bog'liq ravishda o'zgaradi. Masalan, F.Sidikov materialida "New Uzbekistan" islohot va modernizatsiya bilan bog'lansa, M.Rittmannning "New Uzbekistan, Old Tricks" sarlavhasida "new" va "old" semantik qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi.

Demak, "New Uzbekistan" tayyor va o'zgarmas ma'noga ega nominatsiya emas. Uning kommunikativ mazmuni uni o'rab turgan leksik birliklar va muallif pozitsiyasi orqali shakllanadi.

Islohot va modernizatsiya framing F.Sidikovning *The Diplomat*dagi maqolasi "New Uzbekistan" obrazining islohot va modernizatsiya bilan bog'langan ko'rinishini namoyish etadi. Sarlavhadagi **"New Uzbekistan's Reform Agenda"** birikmasi mamlakatning yangi qiyofasini bevosita islohotlar kun tartibi bilan bog'laydi.

Matnda O'zbekistonning siyosiy va iqtisodiy yangilanishi AQSh bilan ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish imkoniyatlari bilan bir kontekstda beriladi. Shu sababli "New Uzbekistan" bu yerda oddiy geografik-siyosiy nominatsiya emas, balki transformatsiya jarayonining kommunikativ belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Maqoladagi **"building 'New Uzbekistan'"** va **"take shape"** kabi konstruksiyalar ham muhim. Birinchi holatda siyosiy yangilanish "qurilish" jarayoni orqali, ikkinchisida esa "shakllanish" jarayoni orqali konseptuallashtiriladi. Lakoff va Johnson nazariyasiga ko'ra, abstrakt jarayonlarni konkret insoniy tajriba orqali ifodalash ularni auditoriya uchun tushunarli qiladi [7].

Shunday qilib, ushbu materialda "New Uzbekistan" konsepti **yangilanish – qurilish – shakllanish – rivojlanish** semantik yo'nalishida quriladi.

Xalqaro hamkorlik va iqtisodiy ochiqlik obrazi. "New Uzbekistan" diskursining ikkinchi muhim modeli xalqaro hamkorlik bilan bog'liq. Sidikov materialida O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi savdo, investitsiya va hamkorlik imkoniyatlari islohotlar bilan uzviy bog'langan.

Bu yerda **"opportunities"**, **"cooperation"**, **"partner"** kabi birliklar mamlakatning xalqaro ochiqligini ifodalovchi baholovchi-semantik vositalar sifatida xizmat qiladi.Ayniqsa, O'zbekistonning **"bedrock partner"** sifatida tavsiflanishi e'tiborga loyiq. "Bedrock" so'zi "mustahkam asos" yoki "poydevor" ma'nosini bildiradi. Shuning uchun ushbu metafora O'zbekistonni oddiy hamkor emas, balki AQShning Markaziy Osiyodagi aloqalari uchun mustahkam tayanch sifatida konseptuallashtiradi. Natijada "New Uzbekistan" obrazi ichki islohotlar bilan cheklanmay, xalqaro hamkorlik va iqtisodiy integratsiya kontekstida ham shakllanadi.

"New Uzbekistan, Old Tricks": tanqidiy framing "New Uzbekistan"ning boshqa kommunikativ modeli M. Rittmannning *The Diplomat*da chop etilgan **"New Uzbekistan, Old Tricks"** maqolasida ko'rinadi.

Sarlavhaning o'zi qarama-qarshi semantik qurilishga ega: **new** va **old** komponentlari bir-biriga qarshi qo'yiladi. "New Uzbekistan" yangilanish va islohotni bildirsa, "old tricks" avvalgi siyosiy amaliyotlarning davom etishi haqidagi tanqidiy talqinni yuzaga chiqaradi.

Bu yerda "New Uzbekistan" ijobiy baholovchi tayyor formula sifatida qabul qilinmaydi. Aksincha, u islohotlar haqidagi da'volarni amaliy siyosiy jarayonlar bilan qiyoslashga xizmat qiluvchi diskursiv vositaga aylanadi. Shu sababli tanqidiy framingni quyidagi semantik model orqali ifodalash mumkin:

New Uzbekistan → reform claims → old practices → contradiction.

Mazkur model mamlakatning yangi obrazi va siyosiy davomiylik o'rtasidagi ehtimoliy ziddiyatni kommunikativ jihatdan kuchaytiradi.

***Euronews* materialida ijobiy reprezentatsiya.** *Euronews* platformasida 2024-yil 8-noyabrda e'lon qilingan **"Uzbekistan's Bold Reforms Spark Global Interest"** materiali O'zbekistonning islohotlarini ijobiy baholovchi kommunikativ modelni namoyish etadi.

Sarlavhadagi **"bold reforms"** birikmasi islohotlarga yuqori baho beradi. **"Spark global interest"** konstruksiyasida esa "spark" metaforasi islohotlarni xalqaro qiziqishni yuzaga keltiruvchi kuch sifatida tasvirlaydi. Demak, sarlavha: **bold reforms → spark → global interest** modeli asosida qurilgan.

Materialda iqtisodiy transformatsiya, xalqaro integratsiya, raqamlashtirish va fuqarolik jamiyati kabi mavzular bir butun islohotlar kontekstida yoritiladi. Biroq ushbu materialni metodologik jihatdan *Euronews*ning mustaqil tahririy pozitsiyasi sifatida baholash mumkin emas. U saytda **Partner content** sifatida berilgan. Shu bois uni xalqaro media platformasidagi institutsional-promotional kommunikatsiya namunasi sifatida ko'rish maqsadga muvofiq.

Lingvistik vositalarning kommunikativ vazifasi. Tahlil natijalari "New Uzbekistan" obrazini shakllantirishda uch asosiy lingvistik vosita muhimligini ko'rsatadi:

1. Nominativ vositalar. "New Uzbekistan" birikmasi mamlakatning yangi siyosiy bosqichini ifodalovchi markaziy diskursiv nominatsiya vazifasini bajaradi.

2. Metaforik vositalar. "Building", "take shape", "bedrock" kabi birliklar siyosiy va xalqaro munosabatlarga oid abstrakt tushunchalarni qurilish, shakllanish va poydevor obrazlari orqali konkretlashtiradi.

3. Baholovchi vositalar. "Bold reforms", "opportunities", "global interest" kabi birliklar ijobiy baholashni kuchaytiradi. "Old tricks" esa aksincha, tanqidiy semantik yo'nalish hosil qiladi.

Shunday qilib, media matnida mamlakat obrazi **nominatsiya → baholash → metaforik konseptuallashtirish → framing** ketma-ketligi orqali shakllanadi.

Olingan natijalar mamlakat imiji media matnida tayyor holatda mavjud bo'lmasligini ko'rsatadi. U muayyan kommunikativ subyekt tomonidan tanlangan til vositalari orqali konstruksiya qilinadi.

Sidikov materialida "New Uzbekistan" diplomatik self-representation doirasida islohot va xalqaro hamkorlik bilan bog'lanadi. Rittmann materialida ayni nominatsiya tanqidiy framing vositasiga aylanib, "new" va "old" qarama-qarshiligi orqali qayta talqin qilinadi. *Euronews*dagi Partner content esa mamlakatning islohotlar va xalqaro qiziqish bilan bog'langan promotional obrazini yaratadi.

Bu natijalar B. S. Alimov tomonidan o'rganilgan O'zbekiston media imiji masalasining zamonaviy bosqichini tushuntirish imkonini beradi. Alimov tadqiqoti mamlakat imijining OAVda shakllanish tamoyillariga e'tibor qaratgan bo'lsa [8], mazkur tadqiqot "New Uzbekistan" nominatsiyasining xalqaro media diskursida turli kommunikativ pozitsiyalar asosida qanday mazmun kasb etishini ko'rsatadi.

Shu jihatdan, mamlakatning zamonaviy media obrazi yagona kommunikativ strategiya mahsuli emas, balki diplomatik, jurnalistik va institutsional kommunikatsiyalar kesishmasida shakllanadigan dinamik hodisadir.

Tadqiqot natijalari "New Uzbekistan" nominatsiyasi xalqaro media matnlarida mamlakatning yangi siyosiy va kommunikativ qiyofasini shakllantiruvchi muhim diskursiv birlik ekanini ko'rsatdi.

Birinchidan, "New Uzbekistan" obrazi islohot va modernizatsiya bilan bog'lanadi. "Reform agenda", "building" va "take shape" kabi birliklar mamlakatdagi o'zgarishlarni jarayon sifatida konseptuallashtiradi.

Ikkinchidan, mazkur obraz xalqaro hamkorlik va iqtisodiy ochiqlik bilan bog'lanadi. "Opportunities", "cooperation" va "bedrock partner" kabi birliklar O'zbekistonning xalqaro sheriklikdagi yangi pozitsiyasini ifodalaydi.

Uchinchidan, "New Uzbekistan" tanqidiy framingda ham qo'llanadi. "New Uzbekistan, Old Tricks" sarlavhasidagi qarama-qarshilik yangilanish haqidagi diskurs bilan avvalgi siyosiy amaliyotlar o'rtasidagi ziddiyatni yuzaga chiqaradi.

To'rtinchidan, xalqaro media platformasidagi materialning kommunikativ maqomi uning mamlakat obraziga ta'sir qiladi. Diplomatik maqola, mustaqil tanqidiy material va Partner content bir xil "New Uzbekistan" nominatsiyasiga turlicha semantik yuklama beradi.

Demak, "New Uzbekistan" xalqaro media diskursida yagona va o'zgarmas obraz emas. U **nominatsiya, baholash, metafora va framing** vositalari orqali turli kommunikativ pozitsiyalarda qayta shakllanadigan dinamik diskursiv konstruksiyadir.

Implications pratiques. Ces constats ont des retombées directes. En traduction, ils invitent à privilégier l'équivalence fonctionnelle plutôt que le calque, sous peine de produire des énoncés opaques – traduire mot à mot tarvuzi qo'ltig'idan tushdi n'aurait aucun sens. En lexicographie bilingue, ils plaident pour des dictionnaires phraséologiques franco-ouzbeks indiquant le type d'équivalence et fournissant traduction littérale et équivalent fonctionnel. En didactique du français langue étrangère, ils suggèrent d'enseigner les UP par champs thématiques et de signaler les faux amis phraséologiques et les lacunes.

Comparativement aux travaux antérieurs menés sur des couples de langues proches [10], notre étude met en évidence une proportion plus élevée de lacunes et d'analogues, ce qui était prévisible compte tenu de l'éloignement génétique du français et de l'ouzbek, mais souligne aussi la robustesse du noyau somatique commun. L'échantillon, volontairement circonscrit à quelques champs idéographiques, demeure une limite: une extension du corpus permettrait d'affiner les pourcentages avancés.

Il convient enfin de souligner une asymétrie qualitative qui échappe aux seuls chiffres. Même lorsqu'un équivalent fonctionnel existe, la charge connotative et le registre peuvent différer : une unité neutre dans une langue peut correspondre à une unité familière, voire ironique, dans l'autre. Le traducteur doit donc évaluer non seulement le sens dénotatif, mais aussi la coloration stylistique et la fréquence d'emploi.

L'analyse comparative des unités phraséologiques du français et de l'ouzbek confirme que la phraséologie est le lieu où la langue articule l'universel et le singulier. Sur le plan structural, les deux langues privilégient les locutions verbales, mais l'ouzbek, agglutinant, développe davantage les constructions attributives, là où le français, analytique, multiplie les tours prépositionnels et adverbiaux. Sur le plan sémantique, les trois degrés de soudure de Vinogradov se vérifient dans les deux systèmes, et la phraséologie somatique en constitue partout le noyau le plus productif.

Du point de vue de l'équivalence interlinguale, l'étude établit que les correspondances partielles et les analogues l'emportent largement sur les équivalents complets, ces derniers se concentrant dans les domaines où opèrent des métaphores conceptuelles partagées. La composante national-culturelle explique l'essentiel des divergences d'imagerie. L'hypothèse de départ se trouve ainsi confirmée.

Au-delà de son apport descriptif, ce travail ouvre des perspectives appliquées en traductologie, en lexicographie bilingue et en didactique du français langue étrangère. L'élaboration d'un dictionnaire phraséologique franco-ouzbek raisonné, organisé par champs idéographiques et par types d'équivalence, apparaît comme le prolongement naturel et le plus utile de la présente recherche.

Références

1. Bally Ch. Traité de stylistique française. – Heidelberg: C. Winter, 1909.
2. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Лексикология и лексикография. М.: Наука, 1977.
3. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. М.: Высшая школа, 1985.
4. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. М.: Высшая школа, 1986.
5. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М.: Школа «Языки русской культуры», 1996.
6. Guiraud P. Les locutions françaises. – Paris: PUF, 1973.
7. Rey A., Chantreau S. Dictionnaire des expressions et locutions. – Paris: Le Robert, 2007.
8. Gross G. Les expressions figées en français: noms composés et autres locutions. – Paris: Ophrys, 1996.
9. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
10. Мокиенко В.М. Славянская фразеология. М.: Высшая школа, 1989.

Laziza XUDAYBERDIYEVA,
Andijon davlat tibbiyot instituti dotsenti

NUTQIY YETISHMOVCHILIKLAR: DUDUQLANISH VA UNUNG SABABLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqiy yetishmovchiliklarning murakkab ko'rinishlaridan biri bo'lgan duduqlanish (logonevroz)ning yuzaga kelish omillari va nutqiy-kommunikativ jarayonga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Duduqlanishning markaziy nerv tizimi faoliyatidagi buzilishlar, irsiy moyillik, psixologik travmalar, kuchli qo'rquv va hayajon, ijtimoiy muhit hamda boshqa omillar bilan bog'liq jihatlari yoritiladi. Shuningdek, duduqlanishning nevrotik va nevrozsimon ko'rinishlari, nutq apparatidagi mushak tortishishlari, nutqiy ritmning buzilishi, embolofraziya va logofobiya kabi hodisalar o'zaro aloqadorlikda ko'rib chiqiladi. Maqolada duduqlanish muammosini faqat tibbiy hodisa sifatida emas, balki lingvistik, psixologik, ijtimoiy va logopedik omillar kesishmasida o'rganish zarurligi asoslanadi. O'zbek badiiy adabiyotidagi ayrim obrazlar nutqidagi xususiyatlar tahlilga jalb qilinib, nutqiy buzilishlarning badiiy ifodasi va kommunikativ xususiyatlariga e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijasida duduqlanishni aniqlash va korreksiya qilishda kompleks tibbiy-pedagogik, logopedik va psixologik yondashuvning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: duduqlanish, logonevroz, nutqiy yetishmovchilik, nutqiy buzilish, artikulyatsiya, artikulyatsion baza, psixotrauma, nevrotik buzilish, logofobiya, embolofraziya, klinik lingvistika, logopedik korreksiya.

Annotation. This article provides a scientific and theoretical analysis of stuttering (logoneurosis), one of the complex forms of speech disorders, focusing on its causes and its impact on speech and communication. The study examines the relationship between stuttering and central nervous system dysfunctions, genetic predisposition, psychological trauma, fear, emotional stress, social environment, and other factors. Neurotic and neurosis-like forms of stuttering, muscular spasms of the speech apparatus, disturbances of speech rhythm, embolophrasia, and logophobia are considered in relation to one another. The article substantiates the need to study stuttering not only as a medical condition but also as a phenomenon occurring at the intersection of linguistic, psychological, social, and speech-therapy factors. Examples from Uzbek literature are analyzed to demonstrate the literary representation and communicative features of speech disorders. The study emphasizes the importance of an integrated medical-pedagogical, speech-therapy, and psychological approach to the diagnosis and correction of stuttering.

Keywords: stuttering, logoneurosis, speech disorder, articulation, articulatory basis, psychotrauma, neurotic disorder, logophobia, embolophrasia, clinical linguistics, speech therapy.

Аннотация. В статье в научно-теоретическом аспекте рассматривается заикание (логоневроз) как одна из сложных форм речевых нарушений, анализируются факторы его возникновения и влияние на речевую и коммуникативную деятельность личности. Освещается связь заикания с нарушениями деятельности центральной нервной системы, наследственной предрасположенностью, психологическими травмами, страхом, эмоциональным напряжением, социальными факторами и другими причинами. Рассматриваются невротическая и неврозоподобная формы заикания, мышечные спазмы речевого аппарата, нарушения речевого ритма, эмболофразия и логофобия. Обосновывается необходимость изучения заикания не только как медицинской проблемы, но и как явления, находящегося на пересечении лингвистического, психологического, социального и логопедического аспектов. На материале отдельных произведений узбекской художественной литературы анализируются особенности художественного изображения речевых нарушений и их коммуникативная функция. В заключении подчеркивается значение комплексного медико-педагогического, логопедического и психологического подхода к диагностике и коррекции заикания.

Ключевые слова: заикание, логоневроз, речевое нарушение, артикуляция, артикуляционная база, психотравма, невротическое расстройство, логофобия, эмболофразия, клиническая лингвистика, логопедическая коррекция.

XX asr insoniyat taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Ishlab chiqarishning barcha sohalarida tub o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Bu jarayon, birinchi galda, milliy tillarda o'z zuhrini berdi. O'tgan asrning oxiriga kelib, zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda ustuvor bo'lgan struktur metodlar til va nutqning yangi qirralarini ochib berishda ojizlik qila boshladi. Tilni faqat tizim sifatida tadqiq etish, uning eng muhim aloqa vositasi sifatida amalda qo'llanishi va til sohibi bilan birga o'rganilishi masalalarida yangicha qarashlarga ehtiyoj sezildi [1]. Shunday masalalardan birini nutqiy nuqsonlar va ularni bartaraf etish bilan bog'liq muammolar tashkil etadi.

Insonning jamiyatdagi faoliyati, avvalo, muloqot jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli nutqning ravonligi, aniqligi va tushunarliligi kommunikativ faoliyatning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda yuksak nutq madaniyatiga ega, mohir notiqlar bilan bir qatorda nutqida turli buzilishlar kuzatiladigan, tovushlar, bo'g'inlar va so'zlarni takrorlaydigan, so'zlarni uzib-uzib talaffuz qiladigan yoki nutq jarayonida beixtiyor to'xtab qoladigan shaxslar ham uchraydi.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, dunyo aholisining 1,0 foizi duduqlanishdan aziyat chekadi [2]. Bu ko'rsatkich duduqlanish muammosining keng tarqalgan nutqiy hodisalardan biri ekanini ko'rsatadi. Jahon tarixida iz qoldirgan mashhur shaxslar: Demosfen, Georg VI, Isaak Nyuton, Uinston Cherchil, Merilin Monro, Jerar Depardye va boshqalarning mazkur kasallikdan azob chekkani to'g'risida ma'lumotlar bor.

1995-yilda duduq insonlar xalqaro assotsiatsiyasi tashkil etilgan bo'lib, 1998-yildan boshlab har yili 22-oktyabr kuni "Xalqaro duduq insonlar kuni" sifatida nishonlanib kelinadi [2].

"Duduqlanish" tushunchasi va uning nutqiy yetishmovchiliklar tizimidagi o'rni

Alohida ta'kidlash lozimki, Alloh Taolo insonni mukammal qilib yaratgan, unga boshqa jonzotlardan farqli ravishda til – zabon ato etgan, ammo ajdodlarning xatosi yoki tabiiy shart-sharoit, baxtsiz hodisalar oqibatida insonning eng muhim organlaridan biri sanalgan miya hujayralariga va nutq apparatiga shikast yetishi mumkin. Buning oqibatida shaxs nuqsonli so'zlay boshlaydi va bu har bir milliy tilda alohida atamalar bilan yuritiladi. Mazkur atamalar kasallik nomi sifatida qabul qilingan. O'zbek tilida ular soqov, duduq, tutuq, chuchchi kabi leksik birliklar orqali ifodalanadi. Bu kasalliklar tug'ma yoki muvaqqat bo'ladi.

Mazkur fikrni zamonaviy ilmiy nuqtayi nazardan baholaganda, nutqiy buzilishlarning kelib chiqishini yagona sabab bilan izohlash mumkin emasligini ta'kidlash lozim. Ularning shakllanishida turli biologik, nevrologik, psixologik va ijtimoiy omillar ishtirok etishi mumkin.

"**Duduq:** Ba'zi tovushlarni qiynalib talaffuz etuvchi yoki tutilib gapiruvchi.

Duduqlanmoq: Ba'zi tovushlarni qiyinlik bilan talaffuz etmoq yoki tutilib-tutilib gapiruvchi.

Duduqlik: tutilib gapirish, duduqlanish xususiyati" [3].

Duduqlanishning mazkur lug'aviy ta'rifi uning tashqi, ya'ni bevosita kuzatiladigan nutqiy belgilarini ifodalaydi. Biroq duduqlanishning mohiyatini to'liq anglash uchun nutqning ravonligi, ritmi va sur'ati, artikulyatsion harakatlar, nutqiy nafas, shuningdek, shaxsning nutqiy vaziyatga bo'lgan psixologik munosabatini ham hisobga olish zarur.

Ushbu kasallikka uzoq vaqt faqat tibbiy nuqtai nazardan qarab kelindi. Xususan, uning sabablari nutqning noto'g'ri rivojlanishi, kutilmagan ruhiy holatga tushish, biror narsadan qattiq qo'rqish, irsiyat, kuchli hayajonga berilish va hokazolardan izlandi. Meditsinada logopediya yo'nalishi shakllandi. Uning nazoratida nutq gimnastikasi mashqlarini bajarish, to'g'ri nafas olish, turli preparatlar yordamida davolash ishlari bajarildi. Zaruriy o'rinlarda ruhshunos yordamiga tayanildi. Biroq ilm-fan rivoji, jamiyat taraqqiyoti, masalaga ilmiy yondashish shuni ko'rsatdiki, duduqlanish, chala gapirish, nuqtni noaniq talaffuz qilish kabi nutqiy qusurlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, tashxislash va davolash ishlarini tashkil qilishda faqat tibbiy vositalardan foydalanish har vaqt ham yordam beravermas ekan.

Muammoning tub sabablari tibbiy-biologik, psixologik, ijtimoiy va o'z-o'zidan lingvistik muammolarga borib taqalishini davrning o'zi ko'rsatib turibdi. Shu bois, nutqiy yetishmovchilikni lingvistik aspektda o'rganish bu borada katta samara berishi aniq. Avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, nutqiy yetishmovchiliklarning bir qancha ko'rinishlari mavjud. Ularni quyidagicha ajratish mumkin:

1. Mavaqqat nutqiy yetishmovchiliklar. Bunga kichik yoshdagi bolalar nutqida uchrovchi kamchiliklarni mosil qilib keltirish mumikn. Ko'p hollarda bolalar "***r***" tovushini "*y*" tarzida talaffuz qilishadi. Shuningdek, "***b-p", "d-t", "z-s", "ch-sh", "f-p"*** undosh tovushlarini almashtirib aytishadi.

Bir kuni Popuk varrak uchirayotganlarni ko'rib: – Menga ham ***vayyak****, – deb turib oldi. Men bo'yra cho'pni choy qog'ozga nari-beri yopishtirdim-da, ip bog'lab bersam, – "Manaqamas", – deb uloqtirdi.*

Popuk tentakka-ku bilinmadi. Buvim "ada" degin deb o'rgatgan edi, darrov "ada"laydigan bo'ldi. "Ada, uchadigan koptok olib ***beying*** *(shar olib bering demoqchi); qonnim ochib* ***tetvotti; mayajni*** *obering" [4].*

Bu qusur ko'pchilik yosh bolalar nutqiga xos bo'lib, yillar o'tishi bilan yo'qolib ketadi yoki fonetik mashqlar orqali unga barham beriladi. Bu haqda atoqli bolalar shoiri Tursunboy Adashboevning bir qancha she'rlari bor. Masalan:

– Balki sizlar tanimassiz,
O'yinqaroq Parpini.
Ilgari hech aytolmasdi,
*So'rasang «**R**» harfini.*
Hozir esa do'stlari hech,
Mazax qilmas Parpini.
Ko'p mashq qilib, o'rgandi u,
*Oxiri «**R**» harfini. (T.Adashboev "R" harfi", 21–22-betlar).*

2. Muntazam (doimiy) yoki tug'ma nutq yetishmovchiliklari. Klinik lingvistika duduqlanishni bir tomonlama emas, balki logopediya, psixologiya, sotsiologiya, anatomiya, tibbiyot fanlari kesishgan nuqtada o'rganishni va davolashni taklif etadi. Eng avval u shaxsning bolalik yillarida namoyon bo'ladi.

Nutqiy kamchiliklar (duduqlanish) bir nechta turlarga ajraladi. Nevrozik va nevrotik duduqlanishni farqlash kerak bo'ladi.

Nevrotik duduqlanishda shaxs muayyan vaziyatlarda doimiy ravishda nutqiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi. Vaqtida davolanmasa, muntazam ravishda shunday vaziyatda hayot kechirsa, duduqlanish inosnga umrining oxirigacha odat bo'lib qolishi mumkin. Oiladagi, ko'cha-ko'ydagi, maktabdagi ruhiy bosimlar, urish-janjallar, qattiq qo'rqish, hayajon, kutilmagan vaziyat duduqlanishga sababchi bo'lishi mumkin.

O'tkir Hoshimovning **"Dunyoning ishlari"** qissasidagi Shayx nutqi bunga yaqqol misoldir.

– U har "*oyi*" degandaa boshini yergaa urar, yerni mushtlar edi. Birpasda peshonasi momataloq bo'lib ketdi.

– Oyi! Qayoqqa ***ketdidz,*** *oyi?! [5].*

Nevrotik duduqlanishda kuchli hayajon, qo'rquv yoki kutilmagan xabar natijasida duduqlanish kelib chiqadi. Bunday duduqlanish shu holat o'tib ketgach, barham topishi mumkin. Masalan, Farhod Musajonovning *"Bo'sh kelma, Aliqulov"* qissasidagi Rixsivoy bilan sinf rahbari Sharifjon aka o'rtasida bo'lib o'tgan muloqot jarayoni bunga misol bo'la oladi. Gazetaga obuna bo'lmagani uchun Sharifjonni qiyin-qistovga olgan Sharifjon aka uning qattiq javobidan keyin kutilmagan vaziyatga tushib qoladi va gapida tutilish sodir bo'ladi:

– Nega olib kelmading?!

Rixsivoy indamadi.

– Nahotki, ota-onang arzimagan uch so'mni sendan ayasa?!

Rixsivoyning birdan jahli chiqib, bo'zarib ketdi. O'qtuvchiga o'qrayib:

– Nima yozilish majburiymi?! – dedi qo'rslik bilan.

– ***Ha, endi... tutilib qoldi*** *Sharifjon aka. – Barcha sinflar yuz foiz yozilganda bizdan bitta odam chetda qolsa, sinfimiz sha'niga dog' tushmadimi?!*[6].

Mutaxassislar duduqlanishning uch xil darajasini faqrlaydilar:

a) yengil daraja – muloqot uchun to'sqinlik qilmaydi, kommunikativ akt sodir bo'ladi va har ikki tomon bir-birini tushunib yetadi:

"Qudrat ikkilanib turganda Qo'ziboy kirdi. U kelishga keldi-yu, so'zni nimadan bolashni bilmay, duduqlandi:

– Haligi...anaqa... Oyog'ingga-chi yod qo'ysang yaxshi bo'lar ekan..." [7]

b) o'rta daraja – muloqotda to'siqlar paydo bo'ladi, aloqa-aralashuvda anglashilmovchiliklar kelib chiqadi, adresant va adresant o'rtasida bir-birini anglamay qolishi kuzatiladi;

c) og'ir daraja – muloqot jarayoni qiyin kechadi. Bunday sifatga ega shaxslar kam gapirishga harakat qilishadi. Odatda, bunday duduqlanish muayyan so'zni aytishda yoki ma'lum bir vaziyatda sodir bo'ladi. Nutq apparatida tortilish yuzaga chiqadi. Ular klonik, tonik va aralash ko'rinishlarda bo'lishi kuzatiladi. Bu hol davom etaversa, duduqlanish ong ostiga mahkam o'rnashib oladi va nutq *"q..q..alaysiz", "m...yen", "o... najon"* kabi to'xtamlar, kichik pauzalar bilan namoyon bo'la boshlaydi.

Ma'lumki, muayyan tilda tanglayi ko'tarilgan va shu tilda muloqot malakasiga ega bo'lgan har bir shaxsda shu tildagi gutq tovushlarini talaffuz qilishga moslashgan nutq apparati bo'ladi. Boshqacharoq qilib aytadigan bo'lsak, har bir til sohibi o'zining artitkulyatsion bazasiga ega.

Artikulyatsion baza – biror tilga xos tovushlarni talaffuz etish ko'nikmalari, artikulyatsiyalar tizimi sanaladi. **Artikulyatsiya** esa lotincha *articylatio – yunonchav articullare –*

aniq-ravshan aytmoq so‘zidan olingan bo‘lib, nutq a’zolarining tovush hosil qilishdagi harakat faaoliyati va holatidir. Tovushlarning hosil bo‘lishida nutq a’zolarining ishtiroki, holati nuqtai nazaridan artikulyatsiyada artikulyatsiya o‘rni va artikulyatsiya usuli farqlanadi [8].

Agar bunga asoslandigan bo‘lsak, har bir tovushning aytilish o‘rni va usulida milliy me’yor borligini bilib olamiz. Me’yordan ozgina bo‘lsa-da, chetga chiqish nutqiy buzilishlarni keltirib chiqaradi. Bunga yo‘l qo‘yilganda insonda beixtiyor lab, til, pastki jag‘larda noto‘g‘ri harakatlanish yuzaga keladi. Bu o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi, balki chuqur depressiya, qattiq hayajon, qo‘rquv, do‘q-po‘pisa va shu kabilar natijasida kishi ongida, ruhiyatida bo‘lgan o‘zgarishlarning aks-sadosi sihatida zuhr beradi. Ikkinchi bir tomondan duduqlanish nafas olish bilan bog‘liq. Ovozdagi tortilish ba’zan uning yo‘qolishiga olib keladi. Ko‘pincha, bola yana gapirishga harakat qilib og‘zini ochadi, lekin ovoz to‘liq emas, balki bo‘linib chiqadi. Bu jarayonda diafragmaning o‘rni katta.

Diafragma yunoncha diaphragma – to‘siq so‘zidan olingan bo‘lib, sutemizuvchilarda va odamlarda ko‘krak qafasini qorin bo‘shlig‘idan ajratib turadigan muskul-paydan iborat parda, to‘siq sanaladi [9]. Demak, nutqning mukammal chiqishida mazkur parda alohida ahamiyat kasb etadi. Duduqlanishning davomiyligi qancha yuqori bo‘lsa, diafragmaning ishlashi ham shunga mos tarzda past bo‘ladi. Nutqiy ritm buziladi. Alohida ta’kidlash joizki, duduqlanish organizmning zo‘rayishi bilan birga kechadi: bola yuzida qizarish, terlash, yurakning tez-tez urishi kabi holatlar yuzaga keladi.

Mutaxassislarning aytishicha, duduqlikda embolofraziya, logofobiya kabi jarayonlar kuzatiladi. **Embololaliya** grekcha *embolos, embolon – xanjar + lalia –* nutq so‘zlaridan olingan bo‘lib, ma’lum bir nutq vaziyatida adresat tomonidan so‘z, so‘z bo‘lagi yoki iboraning doimiy ravishda takrorlanishi sanaladi. U *embolofraziya* deb ham yuritiladi [10]. Bunday nuqsoni bor insonlar nutqida tartibsizlik kuzatiladi. Odatda, ular ruhiy tushkunlikda bo‘ladi. Shu bois ularning davosi uchun nutq teprapeyasi tekshiruvlarini o‘tkazish maqsadga muvofiq sanaladi.

Nutqdagi bu kabi kamchilik sog‘lom insonlarda ham namoyon bo‘lishi mumkin. “Haligi”, xo‘sh”, “demak”, “hm...m”, “shunday” kabi so‘zlar emboliya vazifasini bajarishga o‘tib qoladi. Bu o‘z-o‘zidan hech qanday kommunikativ vazifa bajarmaydigan nutq ko‘rinishi hisoblanadi va fanda embolus deb yuritiladi. O‘z nutqida ma’lum bir so‘zni o‘rinsiz takrorlayverish insonlar uchun odat tusiga kirib qoladi. Buni Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” romanidagi Solih maxdum nuqti orqali juda chiroyli qilib tasvirlab bergan.

*“Maxdum bo‘ychan, olago‘sht, siyrak mo‘y, oq tan, istarasi issig‘ bir domla edi. Yoshi ellikdan oshqan, soch va soqolida bir muncha oqlar ko‘rinar edi. Kishi bilan so‘zlashkanda, ayniqsa, bir narsadan taajjublanganda siyrak va lekin to‘g‘ri, baquvvat o‘skan soqolini tutamlab o‘ng ko‘zini bir oz qisib qarar, odat qilg‘andan bo‘lsa kerak gap orasida “**habba**” degan so‘zni ko‘proq ishlatar edi. Domlaning bu **“habba”**si nima ma’noda qo‘llanilar, o‘zidan boshqa hech kim bilmaganidek, undan bu to‘g‘rida izoh ham so‘ramag‘an edilar. Har holda “**habba – habhali**” yoki “**ha, barakalla**” bo‘lsa kerak. Chunki ul bir narsadan hursand va rozi bo‘lg‘anda aksar “**habba**” deb yuboradir [11].*

– Baxayr, mulla Abdurahmon, baxayr... Vaalaykum assalom. Solih maxdum mulla Abdurahmon bilan ko‘rishdi va uni kishilardan ayirib mehmonxonag‘a olib kirdi.

*– Xo‘sh**, habba**... Xo‘b salomatmisiz?*

– Alhamdulilloh... o‘zlarining sihhatlari?

Abdurahmon maxdumga rahmat aytdi va ketish uchun qo‘zg‘aldi.

– Qay vaqt xabar olsam bo‘lur ekan? Albatta, javob o‘zlaridan bo‘lsa kerak?

*– **Habba**, ertaga ba’daz bomdod, – dedi maxdum”* [12].

Nutq irod qilayotgan shaxs, ko‘pincha, bu kabi holatni sezmaydi, keraksiz nutq birliklarini beixtiyor o‘z nutqiga qo‘shib yuboradi va bu nutqni “to‘ldirish” uchun xizmat qiladi. Bu jarayon duduqlanishda yanada kuchliroq namoyon bo‘ladi. Nutq egasi yuqoridagi kabi “keraksiz”, “ma’no bildirmaydigan” tovush, so‘z, iboralarni o‘zidagi konvulsiya – asab tizimi buzilishining alomatlarini yashirish uchun o‘zi bilmagan holda qo‘llaydi. Ular, ya’ni emboliyalar qiyin talaffuz qilinadigan tovushlar oldidan nuqtdagi bo‘linishlarning oldini olish yoki nutqni tekis chiqarish maqsadida ishlatiladi.

Insondagi so‘z boyligining yetishmasligi, grammatik noaniqliklar, fikrni aniq ifodalay olmaslik bunga sabab bo‘lishi mumkin. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasidagi Sariboy nutqini misol qilib keltirish mumkin. Uning nutqiga *“innaykeyin”* degan so‘z o‘rnashib qolgan:*“Otlarga yem-xashak yo‘q. Xizmatkorlar och, lekin boyning oldiga borishga hech kimning yuragi dov bermaydi. Har gapdan keyin beriladigan **“innaykeyin”** savolidan hamma qo‘rqadi”* [13].

Muloqot uchun har bir tovush, so‘z aniq va tiniq aytilishi, suhbatdoshga to‘la yetkazilishi shart. Shu ma’noda barcha xalqlarda qadimdan boshlab nutqiy buzilishlarni qayd etish, ularning sabablarini o‘rganish, davolash bilan bog‘liq muammolar kelib chiqqan va asrlar mobaynida unga shifo izlab kelingan. Nutqiy buzilishlar va ularning oldini olish masalasi bugun ko‘tarilayotgani yo‘q. Tarixda qadimgi greklar va rimliklarning mazkur masalaga alohida e’tibor qaratgani haqida ma’lumotlar uchraydi.

Bu haqda soha mutaxassisi T.Qudratov shunday deb yozadi: *“Qadimgi Gresiya (Yunoniston)da va Rimda nutq madaniyatining nazariy asoslari yaratildi. Nutq oldiga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqildi. Bunga quldorlik tuzumining rivojlanishi, quldorlik demokratiyasi sabab bo‘ldi. Bu davrda davlatning, savdo-sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notiqlikni san’at darajasiga ko‘tardi. Yetuk inson bo‘lish uchun, albatta, notiqlik san’atini egallash shart qilib qo‘yiladi”* [14].

Aristotelning “Ritorika”, sitseronning “Notiq haqida”, “Notiq”, “Brut”, Mark Fabiy Kvintilianning “Notiq bilimi haqida” kabi hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan asralari yozildi. Ularda chiroyli gapirish, notiqlik san’ati to‘g‘risida qimmatbaho tavsiyalar ishlab chiqildi. Shu bilan birga so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, nutqda ta’sirchan so‘zlardan foydalanish, jumlalarni o‘rinli ishlatish masalasi o‘rtaga tashlandi. Nutqning har qanday qusurlardan holi bo‘lishi ta’kidlandi. Albatta, qadimgi Yunoniston va Rim jamiyatida gapga chechan, nuktadon insonlar bilan birga nutqida qusuri bo‘lgan, duduq, soqov shaxslar ham yashagan bo‘lishi aniq. Jamiyat ularni davolash yo‘llarini qidirgan. Bunga tarixda yorqin misollar mavjud. Masalan, taniqli yunon notig‘i Demosfen (miloddan avvaalgi 384-322) ning nutqida kamchilik bo‘lgan, u tutilib so‘zlagan va shunga monand ravishda kifti doim tirab turgan. Buning oldini olish maqsadida u og‘ziga mayda toshlarni solib, dengiz qirgog‘ida nutq so‘zlardi va to‘lqin shovqin-suronini bosib ketishga harakat qilardi. So‘zlaganda uchib turadigan kiftning titrashidan qutulish uchun shiftga qilichni

shunday joylaydiki, uning o'tkir tig'i kiftga yaqin turadi va kifti titragudek bo'lsa, qilichning uchi tegib og'ritardi. Shu yo'sinda olib borilgan uzluksiz mashqlar Demosfenga jismoniy kamchiliklarni bartaraf qilishga imkon bergan" [15].

Demosfenning o'z nutqini to'g'rilash uchun qilgan harakatlari klinik lingvistikaning ilk kurtaklari edi. Qadimgi dunyo olimlarining notiqlik san'ati haqidagi kitoblarida to'g'ri so'zlash, chiroyli gapirish bilan birga tovushlarni aniq va tiniq qilib talaffuz etish to'g'risida ham qimmatli maslahatlar berilgan.

"So'z, – deb yozgan edi Aristotel, – insonning eng kuchli quroli. Insondagi hech bir narsa so'zchalik kuchli ta'sirga ega emas. So'z bo'lganda ham har qanday so'z emas, balki badiiy, adabiy til me'yorlariga amal qilgan so'zlar uni mahorat bilan go'zal tarzda yetkazib beruvchi notiq tilida dunyodagi eng dahshatli texnik quroldan ham katta kuchga ega bo'ladi" [16].

Mazkur tarixiy ma'lumotlar nutqning ravonligi va to'g'riligi masalasi qadimdan inson faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida baholab kelinganini ko'rsatadi. Biroq zamonaviy klinik lingvistika nutqiy buzilishlarni faqat notiqlik talablari nuqtayi nazaridan emas, balki ularning fiziologik, psixologik, lingvistik va ijtimoiy mexanizmlarini o'rganishga yo'naltirilgan.

Sharq uyg'onish davrining buyuk namoyandalari: Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning badiiy-ilmiy merosida nutqni to'g'ri tuzish, chiroyli gapirishning nazariy va amaliy asoslari yoritib berilgan. To'g'ri, ularda klinik lingvistika haqida aniq gap-so'zlar uchramaydi, lekin tovushlar, so'zlarni to'g'ri aytish, ma'noga e'tibor berish to'g'risida diqqatga molik fikrlar mavjud.

Jumladan, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "ag'an" – ag'an er – dimog'i bilan so'zlovchi, manqa kishi leksemasi uchraydi [17]. Duduqlanib, tutilib gapiradigan odamni "kefgak" deyimlishi aytilgan.

"Ag'in" so'zi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida "soqov, lol" ma'nosida qo'llangan: "O'kush so'zlasa, yangshadi ter tilig, Yana so'zlamasa, ag'in ter tilig ("Ko'p so'zlasa, tili ezmalandi, So'zlamasa-chi, til soqov deyiladi")

Aytilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, chiroyli gapirish bilan birga, insonlarda uchraydigan nutqiy kamchiliklarning tibbiy, ijtimioy, lingvopsixologik sabablarini o'rganish, davolash tizimini yo'lga qo'yish talabi hamma davrlarda bo'lgan va buning yechimini topish klinik lingvistika zimmasiga yuklatilgan. Uning fan sifatida shakllanishiga uzoq vaqt kerak bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Справочник. Новое направления в современной лингвистике. https://spravochnick.ru/russkiy_yazyk/novye_napravleniya_v_sovremennoy_lingvistike.
2. Qalampir. Dunyo aholisining necha foizi duduqlanishdan aziyat chekadi? https://qalampir.uz/news/dune-a%D2%B3olisining-necha-foizi-duduklanishdan-azi yat-chekadi-48241.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
4. Nazir H. Yonar daryo // Asarlar. 5 tomlik. 1-tom. – Toshkent, 1975.
5. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
6. Musajonov F. Bo'sh kelma, Aliqulov. – Toshkent: Yulduzcha, 1988.
7. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 2002.
8. Today Times. Что такое эмболофразия в логопедии. https://todaytimes.ru/articles/chto-takoe-embolofraziya-v-logopedii.
9. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.
10. G'ulom. G'. Shum bola. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
11. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1993.
12. Демосфен. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%B5%D0%BC%D0%BE%D1%81%D1%84%D0%B5%D0%BD.
13. Leshutina I. Ritorika. Notiqlik san'ati. – Toshkent: Yosh Kuch, 2021.
14. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. 3 jildlik. 1-jild. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2016.

Yulduz NAFASOVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

O'ZBEK TILIDA PRESUPPOZITSIYA TURLARINING TASNIFI VA IFODALANISH VOSITALARI TADQIQI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilida presuppozitsiya turlarining tasnifi hamda ularning ifodalanish vositalari lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Jahon va o'zbek tilshunosligidagi ilmiy yondashuvlar qiyosiy o'rganilib, presuppozitsiyaning semantik va pragmatik xususiyatlari, ekzistensial, faktiv, leksik hamda sintaktik turlari yoritiladi. Shuningdek, presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi leksik, morfologik va sintaktik vositalarning o'zbek tilining agglyutinativ tabiati bilan bog'liq o'ziga xos jihatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari presuppozitsiyani kichik sintaksis doirasida tizimli tavsiflash va uning tipologik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: presuppozitsiya, presuppozitsiya turlari, semantik presuppozitsiya, pragmatik presuppozitsiya, ekzistensial presuppozitsiya, faktiv presuppozitsiya, leksik presuppozitsiya, sintaktik presuppozitsiya, kichik sintaksis, morfologik vositalar.

Annotation. This article examines the classification of presupposition types and the means of their expression in the Uzbek language from a linguistic perspective. Drawing on comparative analysis of international and Uzbek linguistic studies, it explores the semantic and pragmatic characteristics of presupposition, including existential, factive, lexical, and syntactic types. The paper also analyzes the lexical, morphological, and syntactic triggers of presupposition, highlighting their relationship with the agglutinative nature of the Uzbek language. The findings contribute to a systematic description of presupposition within the framework of minor syntax and provide insights into its typological characteristics.

Keywords: presupposition, presupposition types, semantic presupposition, pragmatic presupposition, existential presupposition, factive presupposition, lexical presupposition, syntactic presupposition, minor syntax, morphological markers.

Аннотация. В статье рассматриваются классификация видов пресуппозиции и средства их выражения в узбекском языке. На основе сопоставительного анализа мировых и узбекских лингвистических исследований раскрываются семантические и прагматические особенности пресуппозиции, а также её экзистенциальный, фактивный, лексический и синтаксический типы. Особое внимание уделяется лексическим, морфологическим и синтаксическим средствам выражения пресуппозиции и их связи с агглютинативной природой узбекского языка. Полученные результаты способствуют системному описанию пресуппозиции в рамках малого синтаксиса и выявлению её типологических особенностей.

Ключевые слова: пресуппозиция, виды пресуппозиции, семантическая пресуппозиция, прагматическая пресуппозиция, экзистенциальная пресуппозиция, фактивная пресуппозиция, лексическая пресуппозиция, синтаксическая пресуппозиция, малый синтаксис, морфологические средства.

Presuppozitsiya turlarini tasniflashda tilshunoslar turlicha yondashganlar. O'zbek tilshunosligida M.Hakimov [5] va D.Lutfullayeva [2] presuppozitsiyani matn va assotsiativ mazmun doirasida ko'rib chiqqanlar.

Mazkur qarashlarning umumiyligi shundaki, ularning barchasi presuppozitsiya turlarini uni hosil qiluvchi til vositalari bilan uzviy bog'liq deb hisoblaydi. Har bir tur muayyan presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi birliklar orqali voqelanadi. Farqi esa tasnif asosida: ba'zi tadqiqotchilar presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi birliklarga, ba'zilari mazmuniy turga, boshqalari esa kommunikativ vazifaga tayanadi. Mazkur tadqiqot ushbu yondashuvlarni umumlashtirib, presuppozitsiya turlari va vositalarini o'zbek tili kichik sintaksisi materialida yaxlit tizimlashtiradi.

S.Levinsonning presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi birliklar asosidagi tasnifi presuppozitsiya tahlilida keng qo'llaniladi. U presuppozitsiyani hosil qiluvchi til vositalarini aniqlik tavsiflari, faktni tasdiqlovchi fe'llar, holat o'zgarishi fe'llari, iterativlar, qiyosiy qurilmalar va boshqalarni ro'yxatga olgan [1]. Bu yondashuvning afzalligi shundaki, u presuppozitsiyani obyektiv, til vositasi asosida aniqlash imkonini beradi. Mazkur tadqiqotda ham aynan shu presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi birliklar asosidagi yondashuv o'zbek tili materialiga tatbiq etiladi.

Rus tilshunosligida presuppozitsiya turlari kommunikativ-semantik jihatdan chuqur o'rganilgan. Y.V.Paducheva presuppozitsiyani bayonning haqiqiylik shartlari bilan bog'lab tahlil qilgan [4], I.M. Kobozeva esa uni lingvistik semantika doirasida tizimlashtirgan [3]. Bu ishlar presuppozitsiya turlarini nazariy jihatdan asoslashga muhim hissa qo'shgan va o'zbek tilshunosligidagi tadqiqotlar uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq bu ishlarda presuppozitsiya turlari va vositalari yaxlit, kichik sintaksis darajasida tasniflanmagan. Mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, u presuppozitsiyaning o'zbek tilidagi tizimli tavsifini beradi.

Umuman olganda, presuppozitsiya turlari va vositalarini o'rganishda jahon tilshunosligi boy tajriba to'plagan. Presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi birliklar asosidagi tasnif (S.Levinson, G.Yul), semantik-kommunikativ tahlil (N.D.Arutyunova, Y.V.Paducheva, I.M.Kobozeva) va konvensional implikatura nazariyasi (L.Karttunen, S.Piters) presuppozitsiyaning turli qirralarini ochgan. Mazkur tadqiqot bu tajribani o'zbek tili materialiga tatbiq etib, uni milliy tilshunoslik yutuqlari bilan boyitadi.

Mazkur tadqiqotda presuppozitsiya turlari va ifodalanish vositalari o'zbek tili kichik sintaksisi materialida yaxlit ko'rib chiqiladi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida presuppozitsiyaning barcha: ekzistensial, faktni tasdiqlovchi fe'l, leksik va sintaktik turlari mavjud. Biroq ularning ifodalanish vositalari tilning agglutinativ tabiatiga muvofiq o'ziga xosdir.

O'zbek tilida presuppozitsiyaning asosiy ifoda vositasi morfologik vositalar, xususan egalik va kelishik affikslaridir. Ekzistensial presuppozitsiya egalik affikslari, sintaktik presuppozitsiya esa harakat nomi (-ish, -uv) affikslari orqali voqelanadi. Bu o'zbek tilidagi presuppozitsiyaning tipologik o'ziga xosligi bo'lib, uni analitik tillardan farqlaydi. Analitik tillarda masalan, ingliz tilida presuppozitsiya ko'proq leksik va sintaktik vositalar hamda artikllar orqali ifodalanadi.

O'zbek tilida presuppozitsiya turlari va vositalarini yaxlit tasniflash mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligidir. Oldingi ishlarda presuppozitsiyaning ayrim turlari asosan ekzistensial va faktni tasdiqlovchi fe'l alohida ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, ularni hosil qiluvchi vositalar bilan bog'liq holda, kichik sintaksis darajasida yaxlit tizimlashtirilmagan. Mazkur tadqiqot bu bo'shliqni to'ldirib, o'zbek tilidagi presuppozitsiyaning to'liq tasnifini taqdim etadi.

Presuppozitsiya turlari va vositalarining tasnifi amaliy ahamiyatga ega: u avtomatik matn tahlilida yashirin mazmunni aniqlash uchun presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi birliklar ro'yxatlarini tuzish, tarjimada presuppozitsiyani saqlash va lug'atlarda so'zlarning presuppozitiv xususiyatlarini ko'rsatish imkonini beradi. Shu tariqa nazariy tasnif amaliy til texnologiyalari va leksikografiya uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek tilidagi presuppozitsiya vositalarini boshqa tiplardagi tillar bilan qiyoslash muhim natija beradi. Agglutinativ tillarda morfologik vositalar, flektiv tillarda morfologik-sintaktik vositalar, analitik tillarda esa leksik-sintaktik vositalar ustunlik qiladi. Bu tipologik farq presuppozitsiya universal hodisa bo'lsa-da, uning ifodalanishi milliy til tuzilishiga bog'liq ekanini tasdiqlaydi.

Mazkur tahlil o'zbek tilida presuppozitsiyaning barcha asosiy turlari mavjudligini, ammo ularning ifoda vositalari milliy til tuzilishiga muvofiq o'ziga xosligini tasdiqlaydi. Bu natija presuppozitsiyaning universal mohiyati bilan milliy voqelanishi o'rtasidagi munosabatni oydinlashtiradi va o'zbek tilshunosligida presuppozitsiya tadqiqotini yangi bosqichga ko'taradi.

Ekzistensial presuppozitsiyani *Dilnozaning singlisi* birikmasida ko'rish mumkin. Egalik birikmasi *Dilnozaning singlisi bor* degan presuppozitsiyani yuzaga keltiradi. Bu mazmun inkorda ham saqlanadi. Presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi birliklar egalik affiksi (-si), morfologik yo'l bilan ifodalangan.

Faktni tasdiqlovchi fe'l presuppozitsiyani *U kechikkanini tushundi* gapida ko'rish mumkin. Faktni tasdiqlovchi fe'l *tushundi* "u kechikkan" degan presuppozitsiyani yuzaga keltiradi. Presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi birliklar, faktni tasdiqlovchi fe'ldir, leksik vosita orqali ifodalangan.

Leksik presuppozitsiyani *Yomg'ir to'xtadi* gapida ko'rish mumkin: *to'xtadi* fe'li "yomg'ir yog'ayotgan edi" degan presuppozitsiyani yuzaga keltiradi. Presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi birliklar holat o'zgarishi fe'lidir, leksik vosita orqali ifodalangan.

Sintaktik presuppozitsiyani *Sherzodning kelishi* harakat nomida ko'rish mumkin. U "Sherzod keladi/keldi" degan presuppozitsiyani sintaktik tuzilma orqali ifodalaydi. Ingliz tilida *Sherzod's arrival* qurilmasida ham xuddi shu presuppozitsiya kuzatiladi, ammo o'zbekchada u harakat nomi affiksi, inglizchada esa -al qo'shimchasi orqali voqelanadi. Bu presuppozitsiya turlarining universal, vositalarining esa tipologik ekanini ko'rsatadi.

Atoqli ot orqali ifodalangan ekzistensial presuppozitsiyani *Navoiy buyuk shoir* gapida ko'rish mumkin. *Navoiy* atoqli oti "Navoiy nomli shaxs mavjud bo'lgan" degan presuppozitsiyani yuzaga keltiradi. Bu presuppozitsiya gap inkor etilganda ham saqlanadi. Presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi birliklar atoqli ot, leksik-nominal vositasi orqali ifodalangan.

Takror presuppozitsiyasini *U yana so'radi* gapida ko'rish mumkin. *Yana* so'zi "u ilgari ham so'ragan" degan presuppozitsiyani yuzaga keltiradi. Presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi birliklar takror so'zidir, leksik vositasi orqali ifodalangan.

Payt qurilmasidagi presuppozitsiyani *Sherzod kelgach, biz ketdik* gapida ko'rish mumkin. Payt ergash gapi "Sherzod keldi" degan presuppozitsiyani yuzaga keltiradi. Presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi birlik payt qurilmasidir, sintaktik vositasi orqali ifodalangan.

Aniqlovchili qurilmadagi presuppozitsiyani *Sherzod sotib olgan uy* birikmasida ko'rish mumkin. Sifatdosh qurilmasi *Sherzod uy sotib olgan* degan presuppozitsiyani yuzaga keltiradi. Presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi birliklar sifatdosh (aniqlovchi) qurilmasidir, sintaktik vositasi orqali ifodalangan. Bu sintaktik presuppozitsiyaning aniqlovchi qurilma orqali voqelanishini ko'rsatadi.

Faktni tasdiqlovchi fe'l sifat orqali ifodalangan presuppozitsiyani *Uning kelgani ma'lum* gapida ko'rish mumkin. *Ma'lum* faktni tasdiqlovchi fe'l sifati "u kelgan" degan presuppozitsiyani yuzaga keltiradi. Bu mazmun *Uning kelgani ma'lum emas* inkorida ham saqlanadi. Presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi birliklar faktni tasdiqlovchi fe'ldir, leksik vositasi orqali ifodalangan. Bu faktni tasdiqlovchi fe'l presuppozitsiyaning nafaqat fe'l, balki sifat orqali ham voqelanishini ko'rsatadi.

Yuqoridagi misollar tahlili presuppozitsiya turlari va vositalari o'rtasidagi bog'liqlikni yaqqol ko'rsatadi. Ekzistensial presuppozitsiya morfologik, faktni tasdiqlovchi fe'l va leksik presuppozitsiya leksik, sintaktik presuppozitsiya esa sintaktik vosita orqali voqelanadi. O'zbek va ingliz tili qiyosi presuppozitsiya turlarining umumlisoniy, ularning ifoda vositalarining esa milliy-tipologik ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, presuppozitsiya tilning semantik va pragmatik sathlarini o'zida mujassam etgan murakkab lingvistik hodisa bo'lib, uni tizimli o'rganish yashirin mazmunning shakllanish mexanizmlarini chuqur anglash imkonini beradi. Tadqiqot davomida presuppozitsiya turlarining jahon va o'zbek tilshunosligidagi tasniflari qiyosiy tahlil qilinib, ularning o'ziga xos hamda umumiy jihatlari yoritildi. Natijada presuppozitsiyaning ekzistensial, faktiv, leksik va sintaktik turlari hamda ularni yuzaga keltiruvchi leksik, morfologik va sintaktik vositalar o'zaro uzviy bog'liq tizimni tashkil etishi aniqlandi. O'zbek tilida presuppozitsiya ikki o'qli tizim sifatida tavsiflanadi. Bir o'qda turlari ekzistensial, faktni tasdiqlovchi fe'l, leksik, sintaktik, ikkinchi o'qda ifoda vositalari leksik, morfologik, sintaktik. Bu ikki o'qning kesishishi har bir presuppozitsiyaga aniq o'rin beradi va uni tizimli tahlil qilish imkonini yaratadi. Morfologik vositalarning ustunligi mazkur tizimning o'zbek tiliga xos jihatidir.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilining agglutinativ tabiati presuppozitsiyaning, ayniqsa, morfologik vositalar orqali ifodalanishida muhim o'rin tutadi. Egalik va kelishik affikslari, harakat nomi shakllari hamda ayrim sintaktik konstruksiyalar presuppozitiv mazmunni hosil qiluvchi asosiy vositalar sifatida namoyon bo'ladi. Bu jihat o'zbek tilini analitik tillardan farqlovchi tipologik xususiyatlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
2. Lutfillayeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2017.
3. Кобозева И.М. Лингвистическая семантика. М.: Эдиториал УРСС, 2000.
3. Падучева Е.В. Высказывание и его соотнесенность с действительностью. М.: Наука, 1985.
4. Hakimov M. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. d-ri diss. avtoref... – Toshkent, 2001.

Nilufarxon MAXMUDOVA,
Qo'qon davlat universiteti doktoranti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O'ZBEK XALQ TOPISHMOQLARIDA ANTROPOMORF METAFORALARNING VOQELANISHI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek xalq topishmoqlari materiallari asosida antropomorf metaforalarning til birligi sifatida voqelanishi hamda ularning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan. Natijada, antropomorf metaforalarning nafaqat leksik birlik (tana a'zosi, qarindoshlik nomi) darajasida, balki ular orqali xalqning oilaviy qadriyatlari va tajribasiga asoslangan dunyoqarashi ifodalanishi ochib berildi.
Kalit so'zlar: antropotsentrizm, metafora turlari, antropomorf metafora, voqelanish, lingvomadaniy xususiyat, topishmoq.
Annotation. The article, based on material from Uzbek folk riddles, analyzes the realization of anthropomorphic metaphors as linguistic units, as well as their linguo-cultural features. The findings reveal that anthropomorphic metaphors are expressed not only at the level of lexical units (terms for body parts, kinship terms), but also convey the people's worldview grounded in family values and experience.
Keywords: anthropocentrism, types of metaphor, anthropomorphic metaphor, realization, linguo-cultural feature, riddle.
Аннотация. В статье на материале узбекских народных загадок анализируется реализация антропоморфных метафор как языковых единиц, а также их лингвокультурные особенности. В результате установлено, что антропоморфные метафоры выражаются не только на уровне лексических единиц (названия частей тела, термины родства), но и передают мировоззрение народа, основанное на семейных ценностях и опыте.
Ключевые слова: антропоцентризм, типы метафор, антропоморфная метафора, реализация, лингвокультурная особенность, загадка.

Topishmoq – xalq og'zaki ijodining eng qadimiy janrlaridan biri bo'lib, unda predmet va hodisalar o'z nomi bilan emas, balki ularga xos belgi-xususiyatlar orqali jumboq shaklida ifodalanadi. Bu jumboqlash jarayonining eng samarali vositalaridan biri metaforadir.

Badiiy ifodaning ixcham, ta'sirchan va serma'no bo'lishida metafora alohida o'rin tutadi. "Ma'lumki, metafora ko'chma ma'no hosil qilishning keng tarqalgan eng faol usullaridan biridir. Shuni unutmaslik kerakki, til birligi ko'chim – tasviriy vositaning deyarli barchasining asosida o'xshatish, chog'ishtirishdan iborat mantiqiy tushuncha yotadi" [2: 37]. "Metafora esa inson kognitiv faoliyatining, idrok quvvatining eng qudratli qurollaridan biri sifatida aqliy va lisoniy jarayonlarni harakatga keltiradi" [4: 30].

O'zbek tilshunosligida bu yo'nalishdagi muhim nazariy yangilik taniqli tilshunos D.Xudoyberganova tomonidan ilgari surilgan. Metaforalarning matn yaratilishidagi ishtirokini kuzatib, olima ularni so'z-metafora, birikma-metafora, gap-metafora va **matn-metafora** kabi turlarga ajratishni, ilmiy muomalaga aynan shu ikki so'nggi termin: gap-metafora va matn-metafora tushunchalarini kiritishni taklif qiladi [5: 171]. Uning fikricha, metaforik ma'noli birlik matnda tushuncha ifodasi, vaziyat ifodasi yoki vaziyatlar yig'indisi ifodasi sifatida voqelanishi mumkin va aynan oxirgi holatda butun bir vaziyatlar yig'indisi bitta obrazli-metaforik yaxlitlik orqali ifodalanganda matn-metafora hodisasi yuzaga keladi.

Topishmoqlar esa "til sohiblarining milliy-obrazli tafakkur tarzini va aksiologik munosabatini namoyon etuvchi, aksariyat hollarda lingvomadaniy kodlar vositasida shakllantirilgan, topilishi talab etiladigan narsa yoki hodisani boshqa narsa yoki hodisaga o'xshatish, o'zaro qiyoslash, taqqoslash orqali gavdalantiriladigan, she'riy yoki nasriy shakldagi janr; olam lisoniy manzarasining kichik bir qismi" [4: 42]ni o'zida jamlagan matn-metaforalardir.

Sh.Maxmaraimova ta'rifiga ko'ra, "...mifopoetik dunyoqarash asosida shakllangan, mazmun-mohiyati, ahamiyati vaqt o'tishi bilan ham susaymaydigan, aksincha, ma'nosi barcha madaniyatlar vakillariga birday tushunarli bo'lgan metaforalar" bazaviy metaforalardir va adabiyotlarda keltiriladigan tub, fundamental, yadroviy, basic, diaforik va boshqa metaforalar o'zaro sinonim terminlardir. Tadqiqotchi bazaviy metaforalarning ushbu: antropomorf, teomorf, biomorf, zoomorf, fitomorf, ornitomorf, naturmorf, texnomorf, reimorf turlari yuzasidan tadqiqotlar amalga oshirilganini ta'kidlaydi.

Shuningdek, olima "Hozirgi o'zbek tili. Leksikologiya" o'quv qo'llanmasida o'zbek tilshunosligida metaforik jarayonlar 3 yo'nalishda: an'anaviy, sistem-struktur va antropotsentrik jihatdan 8ta aspekt doirasida o'rganilganligini ta'kidlaydi va "bular: semasiologik; leksikologik; stilistik (xususan, lingvopoetik aspektda), sistem-struktur, antropotsentrik yo'nalishda (xususan, kognitiv, lingvokulturologik, sotsiopsixolingvistik, pragmatik yondashuv asosida), leksikografik aspektda" [1:164–167].

"Antropomorf metaforalar – insondan boshqa mavjudotlarga, narsa va predmetlarga insonga xos belgi, harakat-holatning ko'chirilishi asosida yuzaga kelgan metaforalar, bazaviy metaforaning turlaridan biri. Masalan: fasllar kelinchagi, shamollar shiviri" [4: 97].

O'zbek xalq topishmoqlarida somatik (tana a'zolariga asoslangan) antropomorf metaforalar ko'plab uchraydi. O'zbek xalq og'zaki ijodining eng ko'hna va falsafiy janrlaridan biri bo'lgan topishmoqlarda atrof-muhit, hayvonot olami hamda maishiy buyumlarni inson tanasi prizmasi orqali idrok etish yetakchi o'rin tutadi. Lingvokulturologiyada bu hodisa somatik antropomorfizm (tana a'zolari asosida insonlashtirish) deb yuritiladi. Insonni olamning o'lchovi deb biluvchi antropotsentrik tamoyil xalq tafakkurida narsalarning shakli, hajmi va vazifasini aniqlashda eng qulay lisoniy kod bo'lib xizmat qilgan. Kundalik hayotda faol qo'llanilgan elak, echki, tandir, elektr toki, chetan va tarozi kabi tushunchalarga ishora qiluvchi topishmoqlar matni buni yaqqol isbotlaydi.

Xalq tabiat va ro'zg'or ashyolarini modellashtirar ekan, birinchi navbatda, tashqi shakliy o'xshashlikka tayanadi. Elakning javobini o'zida yashirgan *"O'zi bitta, ko'zi mingta"* topishmog'ida insonning eng sezgir a'zosi bo'lgan "ko'z" somatizmi miqdoriy giperbola va antiteza (bitta–mingta) asosiga qurilgan. Elak to'ridagi har bir kichik darcha ko'zga qiyoslanadi. Shakliy o'xshashlik bilan birga, biologik va jinsiy belgilarni ko'chirish ham antropomorfizmning o'ziga xos usulidir. *"Soqoli bor, moylovi yo'q"* (echki) matnida chorvachilik madaniyatining muhim bo'g'ini bo'lgan jonivor

inson qiyofasida tasvirlanadi. Iyak ostidagi junlar soqol deb tan olinsa-da, dudoq ustida mo'ylovning yo'qligi biologik aniqlik va lisoniy simmetriya bilan ziddiyatli tarzda ifodalanadi.

Topishmoqlar matnida milliy qadriyatlar va diniy-mifologik tasavvurlar ham somatik metaforalar vositasida chuqur aks etadi. O'zbek xonadonida muqaddas hisoblangan tandir *"Og'zi qora alomat, ichi qizil qiyomat"* tarzida ta'riflanadi. Bu yerda tandirning darchasi funksional jihatdan "og'iz" somatizmiga tenglashtirilgan bo'lsa, ichidagi lovullagan olov tushuncha "qiyomat" (dahshatli va ulug'vor olovli makon) metaforasi orqali berilgan. *"Alomat–qiyomat"* qofiyadoshligi esa matnning lingvopoetik ta'sirchanligini oshirgan. Aksincha, *"Shamolday uchqur, yo'q oyog'i va qo'li, ko'zga ko'rinmas, charog'on yurgan yo'li"* (elektr toki) topishmog'ida esa an'anaviy somatizmlarning inkor etilishi kuzatiladi. Insonning asosiy harakat a'zolari (qo'l, oyoq) inkor qilinishi orqali zamonaviy texnologik hodisaning tana va shaklga ega bo'lmagan quvvat ekanligi madaniy-mantiqiy asosda yashiriladi.

Hunarmandchilik ashyolari va aniq o'lchov asboblari ham inson anatomiyasi hamda sanoq uyg'unligida kodlanadi. *"Qovurg'asi bor, qoni yo'q, og'zi bor, joni yo'q"* (chetan) topishmog'ida toldan to'qilgan savatning tana skeletiga o'xshatilishi "tiriklik va jonsizlik" chegarasini belgilaydi. Savatning ochiq qismi "og'iz" deyilgani holda, uning biologik "qon va jon"dan mosvoligi buyumning o'lik tabiati bilan inson tanasi o'rtasidagi tafovutni ko'rsatadi.

Bozor madaniyati va adolat mezoni bo'lgan tarozi esa *"Oltita oyog'i bor, ikkita tovoni bor"* shaklida geometrik simmetriyaga keltiriladi. Tarozining zanjirlari, pallalari va markaziy tayanchi tana a'zolari (oyoq, tovon) kabi jonlantirilishi xalqning fazoviy-matematik tafakkuridan dalolat beradi. Z.Xusainova to'plagan "Topishmoqlar" kitobida tarozi bilan bog'liq jami 14 variantdagi topishmoq matni keltiriladi. Bu topishmoqlarning barchasida jumboqlanayotgan bir tananing ikki tomonidagi uch oyoqli jism ta'riflanadi. Bugungi kunda ishlatilmay qo'yilgan bu turdagi tarozi bugungi kun kishisi ko'z o'ngida gavdalanishi birmuncha qiyin.

Shuningdek, faoliyat va aqliy xususiyatga asoslangan antropomorf metafora-matnlar ham topishmoqlarda uchraydi. Bu guruhga insonning xatti-harakati yoki aqliy faoliyatiga xos belgilarni predmetga ko'chiruvchi matn-metaforalar kiradi. Masalan, "Aqlli temir olam kezar" (javobi: Yerning sun'iy yo'ldoshi) topishmog'ida "aqlli" sifati insonga xos tafakkur belgisi jonsiz metall buyumga nisbatan qo'llanilib, predmetning murakkab, "fikrlovchi" mexanizm sifatidagi vazifasini ta'kidlaydi. Bu misol shuni ko'rsatadiki, antropomorf metafora nafaqat qadimiy, an'anaviy topishmoqlarga, balki zamonaviy texnika buyumlariga bag'ishlangan topishmoq-matnlarga ham xos xususiyatdir.

"Suvga tegsa, qochadi, qo'lda ko'pik sochadi, qizil, sariq, pushti, ko'k, u kirmagan eshik yo'q" (javobi: atirsovun) topishmog'ida "qochadi" fe'li insonning jismoniy harakatiga xos predikat bo'lib, sovunning suv bilan aloqaga kirishganda sirg'alib ketish xususiyatini insoniy harakat sifatida qayta talqin qiladi. Shuningdek, matnning oxirgi qismida ("u kirmagan eshik yo'q") predmetga faol subyekt maqomi berilib, u har bir xonadonga kirishi tasvirlanadi.

Antropomorf metaforalarning lingvomadaniy tahlili shuni ko'rsatdiki, bu metaforalar xalqning oilaviy-qarindoshlik qadriyatlarini, tana tajribasiga asoslangan dunyoqarashini va ijtimoiy xulq andozalarini o'zida mujassam etadi. Xulosa qilib aytganda, topishmoqlardagi somatik metaforalar tilning tejamkorlik qonuniga bo'ysunib, bitta a'zo nomi orqali buyumning tabiati va vazifasini mukammal ifodalaydi hamda inson tanasini olamni anglashdagi universal o'lchov birligi ekanini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maxmaraimova Sh. Hozirgi o'zbek tili. Leksikologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Termiz nashr, 2021.
2. Muqimova Z.R. Lingvomadaniy kodlarning olamning lisoniy manzarasidagi o'rni (o'zbek tili barqaror birliklari misolida): Filol. fan. d-ri diss. – Toshkent, 2025.
3. Xudoyberganova D. Til. Tafakkur. Madaniyat. Ilmiy risola. – Toshkent: Nodirabegim, 2020.
4. Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Bookmany Print, 2024.
5. Xudoyberganova D. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini: Filol. fan. d-ri diss. – Toshkent, 2015.
6. Xusainova Z. O'zbek topishmoqlari. – Toshkent: Fan, 1981.

Fotima ISMOILOVA,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

ISAJON SULTONNING TARIXIY ROMAN YARATISHDAGI IJODIY MAHORATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yirik vakili Isajon Sultonning tarixiy roman yaratishdagi ijodiy mahorati tahlil qilinadi. Yozuvchining "Alisher Navoiy", "Bilga xoqon" va "Abu Rayhon Beruniy" romanlari misolida tarixiy shaxs obrazini yaratish tamoyillari, tarixiy manbalar va badiiy to'qimaning o'zaro uyg'unligi, tarixiy voqelikning zamonaviy kitobxon uchun badiiy talqini kabi masalalarga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, mazkur romanlarda Alisher Navoiy, Bilga xoqon va Abu Rayhon Beruniy obrazlarining yaratilish xususiyatlari, ularning ruhiy olami, xarakteri va tarixiy muhit bilan bog'liqligi yoritiladi. Isajon Sultonning tarixiy shaxslarni tasvirlashda tarixiy haqiqatga tayanishi bilan bir qatorda, ularni bugungi kitobxonga yaqinlashtiruvchi badiiy vositalardan foydalanish mahorati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Isajon Sulton, tarixiy roman, tarixiy shaxs obrazi, badiiy mahorat, tarixiy voqelik, tarixiy manba, Alisher Navoiy, Bilga xoqon, Abu Rayhon Beruniy, badiiy talqin.

Annotation. This article examines the creative mastery of Isajon Sultan, a prominent representative of contemporary Uzbek literature, in creating historical novels. Based on the examples of his novels Alisher Navoiy, Bilga Xoqon, and Abu Rayhon Beruniy, the article focuses on the principles of creating historical characters, the interaction between historical sources and artistic fiction, and the artistic interpretation of historical reality for the contemporary reader. Particular attention is paid to the ways in which the images of Alisher Navoiy, Bilga Xoqon, and Abu Rayhon Beruniy are portrayed, including their psychological worlds, characters, and relationships with the historical environment. The study also reveals Isajon Sultan's ability to combine reliance on historical truth with artistic techniques that make historical figures emotionally and intellectually accessible to modern readers.

Keywords: Isajon Sultan, historical novel, historical character, artistic mastery, historical reality, historical source, Alisher Navoiy, Bilga Xoqon, Abu Rayhon Beruniy, artistic interpretation.

Аннотация. В статье исследуется творческое мастерство Исажона Султана, одного из ярких представителей современной узбекской литературы, в создании исторических романов. На материале романов «Алишер Навои», «Билга-хаган» и «Абу Райхан Беруни» рассматриваются принципы создания образов исторических личностей, взаимосвязь исторических источников и художественного вымысла, а также художественная интерпретация исторической действительности с точки зрения современного читателя. Особое внимание уделяется особенностям создания образов Алишера Навои, Билга-хагана и Абу Райхана Беруни, раскрытию их внутреннего мира, характера и связи с исторической эпохой. Выявляется художественное мастерство Исажона Султана, проявляющееся в сочетании опоры на историческую достоверность с художественными средствами, позволяющими приблизить образы исторических личностей к современному читателю.

Ключевые слова: Исажон Султан, исторический роман, образ исторической личности, художественное мастерство, историческая действительность, исторический источник, Алишер Навои, Билга-хаган, Абу Райхан Беруни, художественная интерпретация.

Jahon adabiyotida keng tarqalgan va kitobxonlar tomonidan eng ko'p mutolaa qilinadigan epik janrlardan biri, shubhasiz, romandir. Roman janri inson hayoti, jamiyat taraqqiyoti, tarixiy voqelik hamda milliy qadriyatlarni keng qamrovda badiiy aks ettirish imkoniyati bilan ajralib turadi. Turli xalqlar, jumladan, ingliz, rus, arab va o'zbek adabiyotida har bir millatning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy hayoti hamda ma'naviy qadriyatlarini yorituvchi salmoqli romanlar yaratilgan.

Bu o'rinda N.Karimovning fikri alohida ahamiyatga ega: "Tarixiy mavzu har bir milliy adabiyotning o'ziga xosligini belgilovchi muhim omil bo'lib, u avlodlar o'rtasida tarixiy xotirani uzluksiz saqlash vazifasini ham bajaradi. Agar bu xotira uzilsa, milliy ma'naviyat ham zaiflashadi. Shu sababli yozuvchilar tarixiy mavzuga murojaat etar ekan, nafaqat badiiy maqsadni, balki ma'naviy mas'uliyatni ham zimmasiga oladilar" [1].

Tarixiy roman yaratish yozuvchidan nafaqat yuksak badiiy mahorat, balki tarixiy manbalarni chuqur o'rganish, tasvirlanayotgan davrning siyosiy, ijtimoiy va madaniy muhitini ishonarli hamda haqqoniy ifodalashni talab etadi. Adib badiiy tasvir vositalari orqali o'tmish voqeliklarini go'yoki qayta jonlantirib, kitobxonni o'sha davr ruhiyatiga olib kira olishi lozim. Shu jihatdan qaralganda, Isajon Sulton tarixiy voqelikni badiiy talqin etish, tarixiy shaxslar va davr ruhini jonli tasvirlash borasida o'ziga xos ijodiy mahoratga ega bo'lgan zamonaviy o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotshunos, professor Azimidin Nasirov o'zining "Badiiylik va hayotiy haqiqat" monografiyasida tarixiy roman janri haqida shunday to'xtaladi: "Tarixiy asarlar o'tmish haqida ma'lumot berishi bilan cheklanmasdan, uni obrazlar, voqelikni badiiy tasvirlash orqali o'quvchini avlod-ajdodlari yashayotgan zamon va makon, o'sha davr urf-odatlari, munosabatlari, o'ziga xos qadriyatlari bilan tanishtiradi. Roman o'zida tarixni ham, voqeiylikni ham juda chuqur in'ikos etadi" [2]. Bundan ko'rinib turibdiki, adib roman yozishga kirishar ekan, kitobxon ham roman mutolaasi davomida ajdodlari yashagan davrga qaytishi, qahramonlar bilan birga davr ruhini his etishi lozim. Ana shundagina yozuvchi o'z oldiga qo'ygan niyatiga erishgan bo'ladi.

Yozuvchi Isajon Sulton o'zbek adabiyotida roman janrining har turida barakali, samarali ijod qilayotgan yozuvchilardan sanaladi. Ayniqsa, uning "Alisher Navoiy", "Abu Rayhon Beruniy" va "Bilga xoqon" romanlarini mutolaa qilgan o'quvchi uni zavq-shavqsiz o'qimay qolmaydi. Har uch romani bosh qahramoni sifatida tanlangan buyuk mutafakkirlarimiz Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, turkiy xoqon Bilga roman voqealarini "yurgizadi", beixtiyor mutolaa qilayotganingizda qahramonlar bilan birga kulasiz, birga yig'laysiz, birga aybdorlarni jazolaysiz, do'stlik rishtalari naqadar mustahkam bog'langanligiga, ilmning qudratiga tasannolar aytasiz, ochlikdan sillasi qurigan, ammo mardlikda tengi yo'q xalqning bardoshiga, kuch-qudratiga amin bo'lasiz.

"Alisher Navoiy" romani Oybekning "Navoiy" romanidan qariyb 80 yil keyin yaratilgan bo'lsa-da, har ikki asarda Navoiy siymosiga turlicha yondashuv ko'zga tashlanadi. Oybek XX asr adabiyoti vakili bo'lgani sababli uning "Navoiy" romanida yozuvchi yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy qarashlari va muhiti ma'lum darajada aks etadi. Bu holat qahramonlarning nutqi, xatti-harakati hamda voqealarning talqinida seziladi. Romanda Alisher Navoiy davlat va siyosat arbobi, hukmdor yonidagi dono maslahatgo'y, xalq mehrini qozongan buyuk

shoir sifatida tasvirlanadi. Voqealar asosan realistik tasvir va tarixiy muhit asosida rivojlanadi. Shu jihatdan Oybek romanida Navoiy, avvalo, **tarixiy shaxs va davlat arbobi** sifatida gavdalanadi.

Isajon Sulton o'zining "Alisher Navoiy" romanini 2021-yil yozib tugalladi va o'zbek kitobxonlari, nafaqat o'zbek kitobsevarlari, balki butun dunyo o'zbek adabiyoti kitobxonlari uchun, adabiyoti uchun ham qimmatli xazinani yozib tugalladi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Mahoratli yozuvchi Alisher Navoiy obrazini zamonaviy inson, zamonaviy dunyo talabidan kelib chiqib yaratadi, ya'ni romanni yaratayotgan muallif unga bugungi kun kishisi sifatida yondashadi, Navoiyni ko'proq ruhiy olami, ichki dunyosi, do'stlik munosabatlari, ijodining o'ziga xos dunyosi, yaqin insonlari, hayotining eng go'zal, eng alamli kunlarini shu qadar mahorat bilan tasvirlaganki, kitobxon Alisher Navoiyni ich-ichdan his etadi, birga kuladi, birga yig'laydi.

Isajon Sulton o'zining "Alisher Navoiy" romanini 2021-yilda yozib tugallab, o'zbek kitobxonlari, qolaversa, butun dunyodagi o'zbek adabiyoti ixlosmandlari uchun nihoyatda qimmatli badiiy xazina yaratdi, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu roman nafaqat Alisher Navoiy siymosini yangicha talqin etgani, balki buyuk mutafakkirning murakkab va betakror ruhiy olamini chuqur yoritgani bilan ham alohida ahamiyatga ega. Mahoratli yozuvchi Alisher Navoiy obrazini bugungi zamon insonining dunyoqarashi va ehtiyojlaridan kelib chiqib tasvirlaydi. Muallif Navoiyni faqat buyuk shoir va davlat arbobi sifatida emas, balki o'z kechinmalari, iztiroblari, quvonchlari, orzu-intilishlari bo'lgan tirik va samimiy inson sifatida gavdalantiradi. Asarda uning ruhiy olami, ichki kechinmalari, do'stlik va insoniy munosabatlari, ijodiy izlanishlari, yaqin insonlari bilan bog'liq xotiralari, hayotidagi eng quvonchli va eng alamli kunlari katta mahorat bilan tasvirlangan. Yozuvchining badiiy mahorati shundaki, u Navoiy siymosini kitobxonga nihoyatda yaqinlashtira oladi. Asarni mutolaa qilgan kitobxon buyuk shoirning ichki kechinmalarini his etadi, uning quvonchlariga sherik bo'ladi, iztiroblari va dardlarini qalban tuyadi.

Yozuvchining "Abu Rayhon Beruniy" va "Bilga xoqon" romanlari haqida ham mushohada yuritadigan bo'lsak, bu ikki asar ham o'zining kitobxonlarini topib ulgurgan, hatto bu romanlar ustida ko'plab tadqiqot ishlari ham olib borilmoqda. Nomidan anglashilganidek, har ikki roman ikki tarixiy shaxs Beruniy va turkiy xoqon Bilga xoqon haqida. Isajon Sulton Bilga xoqon haqida roman yozishdan oldin turkiy toshbitiklarni sinchiklab o'rgangani ma'lum. Sababi asar shu qadar sodda, jo'n tilda yaratilganki, o'quvchi toshbitiklarimizdagi tarix haqida ham, aksincha, kechagina bo'lib o'tgan voqealarni mutolaa qilayotgandek his etadi o'zini. Bu yerda yozuvchining mahoratiga ham qoyil qolmay ilojimiz yo'q. Sababi qadimgi turkiy tildan bitilgan manbani kitobxonga tushunarli qilish maqsadida xalqona so'z va iboralardan, jumlalardan juda o'rinli foydalangan. Bilga xoqon turkiy xoqon Eltarish xoqonning farzandi bo'lib, xalning ochlikdan qutqaradi, uysizini uy bilan ta'minlaydi, turkiylar qonida oqayotgan mardlik qonini o'zining xitoblari bilan jo'shdirib yuboradi. Roman ixcham, ko'p sahifadan iborat bo'lmasa-da, muallif o'z maqsadiga erisha olgan.

Yozuvchining "Abu Rayhon Beruniy" va "Bilga xoqon" romanlari haqida mushohada yuritar ekanmiz, har ikki asar ham o'z kitobxonlarini topib ulgurganini, ayni paytda ular asosida ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilayotganini ta'kidlash joiz. Nomidan ham anglashilganidek, mazkur romanlarning biri buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy, ikkinchisi esa turkiy xalqlar tarixida muhim o'rin tutgan Bilga xoqon hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan. Ayniqsa, "Bilga xoqon" romanida yozuvchining tarixiy manbalarni chuqur o'rganganligi yaqqol namoyon bo'ladi. Isajon Sulton ushbu asarni yaratishdan avval qadimgi turkiy toshbitiklarni sinchiklab tadqiq etgani seziladi. Buni romanning tili va uslubida ham ko'rish mumkin. Asar shu qadar sodda, ravon va xalqona tilda yozilganki, kitobxon bir tomondan qadimgi turkiy toshbitiklarda aks etgan tarixiy voqealar bilan tanishsa, ikkinchi tomondan, go'yo kechagina sodir bo'lgan voqealarning guvohiga aylanadi. Bu jihat, shubhasiz, yozuvchining badiiy mahoratidan dalolat beradi. Chunki qadimgi turkiy tilda bitilgan tarixiy manbalarni bugungi kitobxonga tushunarli va ta'sirchan tarzda yetkazish oson emas. Isajon Sulton esa xalqona so'z va iboralar, sodda va ta'sirchan jumlalardan o'rinli foydalanib, uzoq tarix bilan bugungi kitobxon o'rtasida o'ziga xos badiiy ko'prik yaratadi.

Romanda Bilga xoqon siymosi ham ana shu tarixiy va badiiy uyg'unlik asosida gavdalantirilgan. Eltarish xoqonning farzandi bo'lgan Bilga xoqon xalqining og'ir kunlarida uning dardiga malham bo'lishga, ochlikdan aziyat chekayotganlarni qutqarishga, uysizlarni uy-joy bilan ta'minlashga intiladi. Uning xalqiga qarata aytgan xitoblari esa turkiylar qonida mujassam bo'lgan mardlik, jasorat va vatanparvarlik tuyg'ularini yanada jo'sh urdiradi. "Bilga xoqon" romani hajman katta bo'lmasa-da, mazmun va g'oya jihatidan salmoqli asardir.

Yozuvchining "Abu Rayhon Beruniy" romanida muyuk mutaffakir, yetuk ilm sohibi, avlodlarga ko'plab qimmatli kitoblar muallifi, ixtirochi Abu Rayhon Beruniy haqida so'z boradi. Beruniyning yoshlik davridan boshlab to o'lim soatlariga qadar yashab o'tgan onini o'quvchiga mahorat bilan yetkizib bera olgan. 21 yoshida globus ixtiro qilgan, Yer yuzining aylana shaklda ekanligini kashf etgan, quruqlikning ortida Amerika davlati mavjudligi taxminini ilgari surgan, g'oyat mukammal hisob-kitob ishlarini amalga oshirgan, ko'plab buyuk hukmdorlar qanoti ostida ilmini ziyoda qilgan olim haqida so'z boruvchi ushbu roman bevosita bugungi kun yoshlarimiz uchun haqiqiy ilhom manbai bo'ladi desak adashmaymiz.

Yozuvchining "Abu Rayhon Beruniy" romanida buyuk mutafakkir, yetuk ilm sohibi, ko'plab qimmatli asarlar muallifi va benazir ixtirochi Abu Rayhon Beruniyning sermazmun hayot yo'li badiiy mahorat bilan yoritilgan. Muallif Beruniyning yoshlik davridan boshlab umrining so'nggi damlarigacha bo'lgan hayotini, ilm yo'lidagi izlanishlari, mashaqqatlari va kashfiyotlarini kitobxonga ta'sirchan tarzda yetkazib bera olgan. Beruniy o'z davridan ancha ilgarilab ketgan buyuk olim sifatida namoyon bo'ladi. U yoshligidanoq ilm-fanga cheksiz qiziqish bilan qarab, Yerning shakli va tuzilishi, geografiya, astronomiya, matematika kabi ko'plab fanlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Yerning shar shaklida ekani haqidagi qarashlari, globus yaratishi, quruqlik ortida hali noma'lum bo'lgan yerlar mavjudligi haqidagi ilmiy taxminlari hamda nihoyatda aniq hisob-kitoblari uning ilmiy tafakkuri naqadar yuksak bo'lganidan dalolat beradi. Shuningdek, Beruniy o'z davrining yirik hukmdorlari saroylarida faoliyat yuritib, turli sharoitlarda ham ilm olish va izlanishdan to'xtamagan, ularning homiyligi ostida ilmini oshirib boravergan.

Romanni mutolaa qilar ekanmiz, Beruniy siymosida ilmga sadoqat, izlanishdan charchamaslik, yangilik yaratishga intilish va tafakkur erkinligi kabi yuksak fazilatlarni ko'ramiz. Shu sababli mazkur asar nafaqat tarixiy shaxs hayotini yorituvchi badiiy asar, balki bugungi yosh avlodni ilm-fanga, izlanishga va katta maqsadlar sari intilishga undaydigan muhim ma'naviy manba sifatida ham ahamiyatlidir. Beruniydek

buyuk ajdodimizning hayoti va ilmiy merosi yoshlarimiz uchun chinakam ilhom manbai bo'la oladi, desak, aslo adashmaymiz.

Badiiy adabiyotda tarixiy mavzu va tarixiy shaxs obrazini yaratish esa o'ziga xos ijodiy jarayondir. Bunday asarda muallif avvalo o'sha davr muhitini – jamiyat hayoti, odamlarning turmush tarzi, qadriyatlari va tarixiy shaxs yashagan sharoitni chuqur tasavvur qilishi kerak bo'ladi. Chunki tarixiy obraz faqat voqealar ketma-ketligi emas, balki jonli inson qiyofasida qayta yaratilgan badiiy haqiqatdir. Shu bilan birga, tarixiy mavzuda yozilgan asarda aniqlik va badiiylik uyg'un bo'lishi juda muhim. Tarixiy faktlar asarga asos bo'ladi, lekin ular quruq bayon emas, balki badiiy ifoda orqali jonlanadi. Eng muhimi, ijodkor tarixiy shaxsning bugungi kitobxon uchun qadrli bo'lgan jihatlarini oldinga olib chiqadi. Shu orqali o'tmish bilan bugun o'rtasida ma'naviy ko'prik yaratiladi. Isajon Sulton ijodi ham ana shunday yondashuvi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
2. Nasirov A. "Yulduzli tunlar" romani misolida. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2001.
3. Sulton I. Bilga xoqon: roman, qissalar va hikoyalar. – Toshkent: Factor Books, 2022.
4. Sulton I. Alisher Navoiy: roman. – Toshkent: Adabiyot, 2021.
5. Sulton I. Abu Rayhon Beruniy: tarixiy-biografik roman. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot uyi, 2023.

Nodira QURBONOVA;
PhD, Bukhara state university;

Maftuna Xamdamova,
PhD student, Bukhara State university

RECURRENT THEMES AND STYLISTIC STRATEGIES IN THE FICTION OF JOYCE CAROL OATES

Annotation. This article provides a systematic analysis of the principal thematic and stylistic features that constitute the extensive fictional oeuvre of the American writer Joyce Carol Oates. Rather than focusing on a single novel or short-story cycle, the study examines Oates's fiction as an integrated poetic system, exploring the interconnected roles of violence and trauma, the construction of female subjectivity, the crisis of the American family, the blending of realist and Gothic modes, and her distinctive narrative techniques. Drawing on the critical perspectives of leading scholars of Oates's work, the article argues that her fiction should not be regarded as a random accumulation of individual texts, but rather as a coherent and evolving artistic meditation on the instability of the self under the pressure of the social and historical conditions of American life. The findings may provide a theoretical foundation for further dissertation research into the poetics of contemporary American prose.

Keywords: Joyce Carol Oates, American literature, psychological realism, Gothic fiction, gender identity, narrative technique, trauma, domestic violence, contemporary prose.

Annotatsiya. Ushbu maqolada amerikalik yozuvchi Joys Kerol Outsning serqirra ijodiy merosini tashkil etuvchi asosiy mavzuviy va uslubiy xususiyatlar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda alohida roman yoki hikoyalar turkumiga emas, balki yozuvchi ijodining yaxlit poetik tizimiga e'tibor qaratilib, zo'ravonlik va travma, ayol subyektivligining shakllanishi, Amerika oilasi institutining inqirozi, realistik va gotik poetikaning uyg'unlashuvi hamda o'ziga xos narrativ mahorat kabi jihatlar o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. Oates ijodini o'rgangan yetakchi adabiyotshunoslarning ilmiy qarashlariga tayangan holda, maqolada uning nasri alohida asarlarning tasodifiy yig'indisi emas, balki Amerika jamiyatining ijtimoiy va tarixiy sharoitlari ta'siri ostida inson shaxsining beqarorligi masalasini izchil va tadrijiy tarzda yorituvchi badiiy tafakkur sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy Amerika nasri poetikasini o'rganishga yo'naltirilgan keyingi dissertatsion izlanishlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Joys Kerol Outs, amerika adabiyoti, psixologik realizm, gotik nasr, gender identifikatsiyasi, hikoya texnikasi, travma, oilaviy zo'ravonlik, zamonaviy nasr.

Аннотация. В статье представлен системный анализ основных тематических и стилевых особенностей, составляющих обширное художественное наследие американской писательницы Джойс Кэрол Оутс. В отличие от исследований, сосредоточенных на отдельном романе или цикле рассказов, данная работа рассматривает прозу Оутс как целостную поэтическую систему, в рамках которой во взаимосвязи исследуются насилие и травма, формирование женской субъективности, кризис института американской семьи, сочетание реалистической и готической поэтики, а также своеобразие повествовательной техники писательницы. Опираясь на научные взгляды ведущих исследователей творчества Оутс, авторы статьи рассматривают её прозу не как совокупность разрозненных произведений, а как целостное и развивающееся художественное осмысление нестабильности личности под воздействием социальных и исторических условий американского общества. Полученные результаты могут послужить теоретической основой для дальнейших диссертационных исследований поэтики современной американской прозы.

Ключевые слова: Джойс Кэрол Оутс, американская литература, психологический реализм, готическая проза, гендерная идентичность, повествовательная техника, травма, домашнее насилие, современная проза.

Few figures in contemporary American letters present as formidable a challenge to systematic literary analysis as Joyce Carol Oates. Since the publication of her first collection of stories in the early 1960s, Oates has produced an output whose sheer volume – well over fifty novels, dozens of story collections, several volumes of poetry, and a substantial body of essays and reviews – has often overshadowed sustained scholarly attention to its underlying coherence.

Early reviewers, disoriented by her productivity, tended to treat each new book as an isolated event rather than as part of a continuous artistic project. Later criticism, however, has increasingly recognized that beneath the apparent diversity of settings, genres, and narrative modes lies a remarkably stable set of preoccupations: the fragility of the self, the violence latent in ordinary American life, the constriction of women within domestic and social structures, and the porous boundary between psychological realism and the Gothic uncanny.

This article proposes that Oates's fiction is best approached as an integrated poetics rather than as a body of unrelated texts. The discussion that follows synthesizes the major thematic strands identified by Oates scholarship over the past four decades and situates them within a broader account of her narrative technique. Such a synthesis is intended to serve as a theoretical groundwork for dissertation-level research that engages with individual novels, story cycles, or comparative frameworks within the wider field of contemporary American prose.

Critical engagement with Oates's work has evolved considerably since the 1970s. Early studies, including those by Joanne V. Creighton, focused primarily on establishing thematic taxonomies, cataloguing Oates's recurrent interest in violence, class conflict, and the disintegration of the family [4: 5]. Greg Johnson's biographical and critical scholarship subsequently offered a more integrative reading, connecting Oates's fictional preoccupations to her own upbringing in rural upstate New York and to her sustained meditation on American social mobility [9: 10]. Ellen G.Friedman and Mary Kathryn Grant examined the moral and quasi-religious dimensions of Oates's fiction, arguing that her depictions of violence function less as sensationalism than as a form of secular theodicy – an attempt to comprehend suffering within a universe emptied of stable metaphysical guarantees [7: 8].

Feminist criticism, represented in the work of scholars such as Brenda Daly, has reframed Oates's fiction as a sustained interrogation of female subjectivity, reading her recurring

images of confinement, bodily vulnerability, and voice as a critique of patriarchal structures embedded in both the family and the wider social order [6: 17]. More recent scholarship, including that of Gavin Cologne-Brookes, has turned attention to Oates's formal experimentation, situating her within an American tradition that stretches from the nineteenth-century Gothic of Nathaniel Hawthorne and Edgar Allan Poe through the psychological realism of Henry James and the naturalism of Theodore Dreiser [3]. Taken together, this body of criticism supports the view that Oates's fiction operates simultaneously on thematic, psychological, and formal registers, and that any adequate account of her work must address all three [1: 18].

Violence, Trauma, and the American Social Landscape. Violence in Oates's fiction is rarely gratuitous; it functions instead as a diagnostic instrument through which the writer examines the structural pressures of American life. Novels such as them and Black Water situate individual acts of violence within larger histories of urban poverty, racial tension, and political privilege, suggesting that private catastrophe is inseparable from public condition [11: 12]. Oates's characters frequently experience violence not as an aberration but as an ever-present possibility woven into the fabric of everyday domestic and social routine – a car ride, a family gathering, a walk home from school. This treatment of violence as latent rather than exceptional distinguishes Oates from many of her naturalist predecessors and aligns her more closely with a post-war American sensibility attuned to the instability beneath surfaces of normalcy [7: 8].

Trauma in Oates's work is similarly depicted as a structuring rather than merely episodic force. Her narratives frequently return, often through fragmented or non-linear chronology, to an originating wound whose aftershocks organize the psychological life of the protagonist long after the precipitating event. This technique allows Oates to represent memory itself as an unstable, recursive process, resistant to the neat closure that conventional realist narrative might otherwise impose.

Gender, the Body, and Female Subjectivity. A substantial portion of Oates's fiction is concerned with the formation and constraint of female identity within patriarchal domestic and institutional structures. Protagonists such as those in A Garden of Earthly Delights and We Were the Mulvaneys navigate social environments in which female autonomy is persistently curtailed by economic dependency, familial expectation, and physical vulnerability [13: 14]. Oates frequently renders the female body as a site of both violation and resistance, foregrounding moments in which her characters attempt, however incompletely, to reclaim agency over their own physical and narrative selves [6].

Notably, Oates resists any singular or programmatic feminist resolution. Her female characters rarely achieve full liberation from the structures that confine them; instead, Oates's fiction dwells in the ambiguous space between constraint and partial self-assertion, a strategy that has led critics to describe her feminism as diagnostic rather than prescriptive – more concerned with exposing the mechanisms of subordination than with offering programmatic solutions [16: 17].

The American Family as a Site of Disintegration. The nuclear family occupies a paradoxical position in Oates's fiction: it is simultaneously idealized as a locus of belonging and exposed as a primary site of psychological and physical harm. Novels such as We Were the Mulvaneys trace the collapse of an apparently stable, prosperous family following a single traumatic event, revealing how quickly social respectability can give way to fragmentation once its underlying tensions are exposed [13]. Oates's treatment of the family thus functions as a synecdoche for broader anxieties about the durability of American social institutions in the face of economic pressure, generational change, and repressed violence [5: 9].

The Gothic Within the Real: Genre-Blending as Method. One of Oates's most distinctive stylistic signatures is her sustained blending of psychological realism with Gothic and uncanny elements. Rather than treating the Gothic as a separate generic mode reserved for explicitly supernatural fiction, Oates integrates its conventions – doubling, uncanny repetition, houses and landscapes that seem to exert a malevolent agency, and a pervasive sense of impending catastrophe – directly into ostensibly realist narratives [3]. This hybridization allows Oates to suggest that the uncanny is not an exception to ordinary American experience but one of its constitutive elements, particularly in the depiction of domestic space and small-town community life [2].

This generic hybridity situates Oates within a long American literary lineage while simultaneously distinguishing her from strictly naturalist or strictly Gothic predecessors. Her fiction thereby resists straightforward genre classification, a feature that scholars increasingly regard as central rather than incidental to her artistic project [3: 18].

Narrative Technique and Authorial Productivity. Oates's narrative technique is characterized by marked stylistic range: her prose moves fluidly between dense, interiorized psychological description and terse, almost clinical reportage, often within a single work. She frequently employs shifting or multiple points of view, allowing readers access to the interior lives of several characters implicated in a shared traumatic event, which has the effect of distributing culpability and complicating any single moral vantage point [9, 10]. Her extraordinary productivity – itself a recurring subject of critical commentary – should not be read merely as biographical trivia; rather, it reflects a working method in which repeated engagement with a stable set of thematic concerns, across a wide range of forms and voices, becomes itself a form of sustained inquiry into the American condition [16].

Intertextuality functions as a further stylistic constant. Oates frequently engages, both explicitly and obliquely, with earlier American and European literary traditions – from the Gothic romance to nineteenth-century realism to modernist psychological fiction – situating her own work within, and in critical dialogue with, that broader literary genealogy [1: 3].

The preceding analysis suggests that Joyce Carol Oates's fiction, despite its extraordinary formal and generic diversity, is organized around a coherent set of thematic and stylistic constants: an unflinching engagement with violence and trauma as structural features of American life; a sustained,

non-programmatic interrogation of female subjectivity; a persistent depiction of the family as a fragile and often harmful institution; a distinctive blending of realist and Gothic modes; and a narrative technique marked by shifting perspective and stylistic range. Understanding these elements as an integrated poetics, rather than as isolated thematic preoccupations scattered across an unusually large body of work, offers a productive framework for further dissertation-level research – whether through close analysis of individual novels, comparative study with other American writers, or theoretically inflected approaches drawing on trauma theory, feminist criticism, or Gothic studies. Oates's fiction, read in this integrated way, emerges not as an undifferentiated mass of prolific output but as a sustained and evolving meditation on the instability of the self within the specific historical and social conditions of American life.

References

1. Bender E.T. Joyce Carol Oates, Artist in Residence. – Bloomington: Indiana University Press, 1987.
2. Joyce Carol Oates / ed. by H. Bloom. – New York: Chelsea House Publishers, 1987.
3. Cologne-Brookes G. Dark Eyes on America: The Novels of Joyce Carol Oates. – Baton Rouge: Louisiana State University Press, 2005.
4. Creighton J.V. Joyce Carol Oates. – Boston: Twayne Publishers, 1979.
5. Creighton J.V. Joyce Carol Oates: Novels of the Middle Years. – New York: Twayne Publishers, 1992.
6. Daly B. Lavish Self-Divisions: The Novels of Joyce Carol Oates. – Jackson: University Press of Mississippi, 1996.
7. Friedman E.G. Joyce Carol Oates. – New York: Frederick Ungar Publishing, 1980.
8. Grant M.K. The Tragic Vision of Joyce Carol Oates. – Durham: Duke University Press, 1978.
9. Johnson G. Understanding Joyce Carol Oates. – Columbia: University of South Carolina Press, 1987.
10. Johnson G. Invisible Writer: A Biography of Joyce Carol Oates. – New York: Dutton, 1998.
11. Oates J.C. them. – New York: Vanguard Press, 1969.
12. Oates J.C. Black Water. – New York: E.P. Dutton, 1992.
13. Oates J.C. We Were the Mulvaneys. – New York: Dutton, 1996.
14. Oates J.C. A Garden of Earthly Delights. – New York: Vanguard Press, 1967.
15. Oates J.C. Blonde. – New York: Ecco/HarperCollins, 2000.
16. Oates J.C. (Woman) Writer: Occasions and Opportunities. – New York: Dutton, 1988.
17. Showalter E. Sister's Choice: Tradition and Change in American Women's Writing. – Oxford: Clarendon Press, 1991.
18. Wagner-Martin L. Joyce Carol Oates: Modern Critical Views. – New York: Chelsea House, 1987.

Svetlana UMIROVA,
Samarqand davlat universiteti dotsenti

USMON AZIM MUALLIFLIK KORPUSI UCHUN EKSTRALINGVISTIK TEGLAR MODELINI ISHLAB CHIQISH MASALASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston xalq shoiri, yetuk nosir, mohir dramaturg va tarjimon Usmon Azimning mualliflik korpusi uchun ekstralingvistik teglar tizimini ishlab chiqish masalasi yoritiladi. Mualliflik korpuslari uchun ekstralingvistik teglar modelini ishlab chiqishda to'liqlik, izchillik, standartlashtirish, kengaytiriluvchanlik va o'zaro moslashuvchanlik tamoyillari asos qilib olindi.

Kalit so'zlar: mualliflik korpusi, ekstralingvistik teg, to'liqlik tamoyili, izchillik tamoyili, standartlashtirish tamoyili, kengaytiriluvchanlik tamoyili va o'zaro moslashuvchanlik tamoyili.

Annotation. This article examines the development of a system of extralinguistic tags for the authorial corpus of the works of Usmon Azim, the People's Poet of Uzbekistan, an outstanding prose writer, accomplished playwright, and translator. The proposed model of extralinguistic tags for authorial corpora is based on the principles of completeness, consistency, standardization, extensibility, and interoperability.

Keywords: authorial corpus, extralinguistic tag, principle of completeness, principle of consistency, principle of standardization, principle of extensibility, principle of interoperability.

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема разработки системы экстралингвистических тегов для авторского корпуса произведений народного поэта Узбекистана, выдающегося прозаика, талантливого драматурга и переводчика Усмана Азима. При разработке модели экстралингвистических тегов для авторских корпусов в качестве основных были приняты принципы полноты, последовательности, стандартизации, расширяемости и взаимной совместимости.

Ключевые слова: авторский корпус, экстралингвистический тег, принцип полноты, принцип последовательности, принцип стандартизации, принцип расширяемости, принцип взаимной совместимости.

Mualliflik korpusining ahamiyati matnlar hajmi yoki lingvistik annotatsiya sifati, korpusga biriktirilgan metama'lumotlarning to'liqligi va tizimliligi bilan belgilanadi. Ayniqsa, bitta muallif ijodiga bag'ishlangan korpuslarda ekstralingvistik annotatsiya matnlarni tavsiflashning muhim komponenti hisoblanadi. Chunki muallifning hayoti, ijodiy faoliyati, tarixiy davri, adabiy muhiti hamda asarlarning yaratilish sharoiti uning til tanlovi va badiiy uslubiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mualliflik korpusini yaratishda metadata tizimi oddiy bibliografik tavsif bilan cheklanmasdan, muallif shaxsini va uning ijodiy merosini har tomonlama tavsiflaydigan ko'rsatkichlarni ham qamrab olishi talab etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. To'liqlik tamoyiliga ko'ra, metadata muallif va matn haqidagi barcha zarur bibliografik hamda tavsifiy ma'lumotlarni o'z ichiga olishi talab etiladi. Izchillik tamoyili barcha matnlarda bir xil teglar tizimidan foydalanishni nazarda tutadi. Standartlashtirish metadata elementlarini xalqaro standartlarga mos ravishda ifodalashni ta'minlaydi. Kengaytiriluvchanlik esa yangi metadata maydonlarini qo'shish imkoniyatini beradi [1]. O'zaro moslashuvchanlik tamoyili esa ishlab chiqilgan modelning boshqa korpuslar va raqamli platformalar bilan integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijasida ekstralingvistik metadata uch pog'onali iyerarxik model asosida shakllantirildi. Ushbu model quyidagi uchta asosiy blokni o'z ichiga oladi:

1) muallifga oid metadata;
2) asarga oid metadata;
3) matnga oid metadata [2].

Mazkur iyerarxiya metadata elementlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniq belgilash, takrorlanadigan ma'lumotlarni kamaytirish hamda korpusni keyinchalik kengaytirish imkoniyatini yaratadi.

Birinchi daraja **muallifga oid metadata**ni tashkil etadi. Bu blok korpusning barcha matnlari uchun umumiy bo'lib, muallifning shaxsiy hamda ijodiy tavsifini ifodalaydi. Mazkur blokda muallifning to'liq ismi, taxallusi, tug'ilgan sanasi va joyi, ma'lumoti, kasbiy faoliyati, ilmiy va ijodiy maqomi, davlat mukofotlari, tarjimonlik faoliyati hamda ijodiy yo'nalishlari aks ettiriladi. Ushbu ma'lumotlar muallif portretini yaratish va uning ijodini boshqa adiblar bilan qiyosiy o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi darajani **asarga oid metadata** tashkil etadi. Bu blok har bir asarning bibliografik tavsifini o'z ichiga oladi. Jumladan, asar nomi, janri, yozilgan yoki nashr etilgan yili, qaysi to'plam tarkibiga kirishi, ijodiy davri, matnning asl yoki tarjima ekani, nashr manbasi kabi ko'rsatkichlar ushbu darajada ifodalanadi. Ayniqsa, asarning ijodiy davr bo'yicha belgilanishi muallif idiostilining evolyutsiyasini diaxron aspektda o'rganish imkonini beradi.

Uchinchi daraja **matnga oid metadata**dan iborat bo'lib, u bevosita korpusga kiritilgan matnning xususiyatlarini tavsiflaydi. Bunda matnning tili, yozuv turi, mavzusi, kommunikativ vazifasi, annotator identifikatori, annotatsiya sanasi va texnik tavsiflar aks ettiriladi. Mazkur ko'rsatkichlar korpusning boshqaruv tizimini tashkil etish, matnlarni filtrlash hamda annotatsiya jarayonini nazorat qilish uchun xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan metadata modeli xalqaro korpuslar tajribasidan farqli ravishda muallifning **ijodiy evolyutsiyasi**ni tavsiflovchi alohida parametrlarni ham o'z ichiga oladi. Xususan, **ijodiy bosqich**, **dominant poetik konsept**, **janrlar spektri**, **tarjimonlik faoliyati** va **davlat mukofotlari** kabi ko'rsatkichlar Usmon Azim ijodining individual xususiyatlarini aks ettirishga xizmat qiladi. Mazkur parametrlar korpusdan uslubiy, lingvopoetik va adabiyotshunoslik tadqiqotlarida samarali foydalanish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytiradi.

Usmon Azim ijodining tahlili shuni ko'rsatadiki, uning badiiy merosi faqat she'riyat bilan cheklanmay, drama, nasr, esse, kinodramaturgiya va tarjimonlik faoliyatini ham qamrab oladi. Shu sababli metadata tizimida **janr** alohida teg sifatida ajratildi. Bundan tashqari, shoir ijodining qariyb yarim asrni qamrab olishi sababli "**ijodiy davr**" tegi ham joriy qilindi. Ushbu parametr keyingi boblarda muallif idiostilining

vaqt davomida qanday o'zgarganini statistik jihatdan tahlil qilishga yordam beradi.

Shuningdek, muallifning tarjimonlik faoliyati ham ekstralingvistik tavsifning muhim elementi sifatida baholandi. Usmon Azim jahon adabiyotining turli vakillari asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgani sababli metadata tizimida **asl muallif**, **asl til** va **tarjima turi** kabi qo'shimcha maydonlar ham nazarda tutildi. Bu esa tarjima matnlarini original ijod namunalari bilan alohida tahlil qilish imkonini beradi.

Demak, ishlab chiqilgan ekstralingvistik teglar modeli muallif, asar va matn haqidagi ma'lumotlarni yagona iyerarxik tizimda birlashtiradi[3]. Mazkur model korpusni boshqarish, matnlarni ko'p parametrli qidirish, muallif idiostilini diaxron va sinxron aspektlarda tadqiq etish hamda keyinchalik boshqa o'zbek yozuvchilari mualliflik korpuslarini yaratishda metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

1-jadval. Usmon Azim mualliflik korpusining ekstralingvistik teglar tizimi

Teg guruhi	Teg nomi	Tavsifi	Qiymat turi
Muallif	author	Muallif nomi	Matn
Muallif	birthDate	Tug'ilgan sana	Sana
Muallif	birthPlace	Tug'ilgan joy	Matn
Muallif	education	Ma'lumoti	Matn
Muallif	occupation	Kasbi	Matn
Asar	title	Asar nomi	Matn
Asar	genre	Janri	Ro'yxat
Asar	year	Yozilgan yil	Raqam
Asar	collection	To'plam	Matn
Asar	creativePeriod	Ijodiy bosqich	Ro'yxat
Matn	language	Til	Kod
Matn	script	Lotin/Kirill	Kod
Matn	theme	Mavzu	Ro'yxat
Matn	annotator	Annotator	Matn

Usmon Azimning ekstralingvistik portreti. Mualliflik korpusini yaratishda muallif shaxsini tavsiflovchi ekstralingvistik ma'lumotlar alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Bunday ma'lumotlar korpus foydalanuvchisiga matnlarni lingvistik birliklar asosida emas, muallifning tarjimayi holi, ijodiy faoliyati, tarixiy davri, adabiy yo'nalishi hamda kasbiy faoliyati bilan bog'liq omillar nuqtayi nazaridan ham tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, muallif idiostilini o'rganishda ekstralingvistik omillar matndagi til hodisalarini izohlash va ularning shakllanish sabablarini aniqlashda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

Korpus lingvistikasida bunday tavsif "**Author profile**" yoki "**Author metadata**" deb yuritiladi. Mazkur profil muallifning shaxsiy, bibliografik va ijodiy ko'rsatkichlarini yagona tizimda aks ettiradi. Natijada, muallifga tegishli barcha matnlar umumiy metadata orqali bog'lanadi va korpusda muallifning individual til xususiyatlarini kompleks tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Usmon Azim mualliflik korpusi uchun ishlab chiqilgan muallif portreti uch asosiy komponentdan iborat bo'ldi: biografik tavsif; ijodiy tavsif; korpus tavsifi. Bunday uch pog'onali model muallif shaxsini faqat tarjimai hol nuqtayi nazaridan emas, balki korpus obyektining markaziy elementi sifatida tavsiflaydi.

Biografik komponent. Biografik komponent muallifning shaxsiy hayoti va ijtimoiy faoliyatini tavsiflovchi metadata elementlarini qamrab oladi[4]. Unga muallifning to'liq ismi, taxallusi, tug'ilgan sanasi va joyi, ma'lumoti, kasbiy faoliyati hamda davlat mukofotlari kiradi. Mazkur ma'lumotlar korpusning identifikatsion qatlamini tashkil etadi va barcha matnlar uchun umumiy metadata vazifasini bajaradi.

Ijodiy komponent. Muallif portretining ikkinchi qatlami uning ijodiy faoliyatini tavsiflaydi [5]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Usmon Azim o'zbek adabiyotida ko'p janrli ijodkor sifatida shakllangan. Uning adabiy merosi she'riyat, doston, drama, nasr, esse, kinodramaturgiya, publitsistika va tarjimonlik faoliyatini qamrab oladi. Bunday janrlar xilma-xilligi muallif korpusini turli funksional-uslubiy qatlamlar kesimida tahlil qilish imkonini beradi.

Muallif ijodining yana bir muhim xususiyati uning uzoq vaqt davomida izchil rivojlanib kelayotganidir. Dastlabki she'riy to'plamlar 1970-yillarning oxirida chop etilgan bo'lsa, keyingi yillarda nasr, dramaturgiya va publitsistik asarlar bilan boyidi. Shu sababli korpusda har bir matn muallifning **ijodiy bosqichi** bilan ham belgilandi. Ushbu metadata keyinchalik idiostil evolyutsiyasini diaxron aspektda o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Usmon Azim tarjimon sifatida ham samarali faoliyat olib borgan. U rus, nemis, polyak, turk, italyan, yunon, qozoq va boshqa xalqlar adabiyoti namoyandalarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Ayni paytda uning o'z asarlari ham bir qator xorijiy tillarga tarjima qilingan. Mazkur holat korpusda "**tarjima faoliyati**" va "**tarjima yo'nalishi**" kabi metadata maydonlarini joriy etishni taqozo etdi.

Korpus komponenti. Muallif portretining uchinchi qatlami bevosita korpusni tavsiflaydi. Bu qatlam muallifning individual til manzarasini aks ettiruvchi metadata elementlarini o'z ichiga oladi[6]. Jumladan, muallifning dominant janrlari, konseptual yo'nalishlari, ijodiy davrlari, mavzular tizimi va semantik dominantalari korpusning ekstralingvistik tavsifiga kiritildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Usmon Azim ijodida ***inson, tabiat, Vatan, tarix, milliy qadriyatlar, ruhiy kechinmalar, sevgi, hayot va o'lim, erkinlik*** hamda ***falsafiy mushohada*** bilan bog'liq konseptlar alohida faollik kasb etadi. Mazkur konseptlar keyingi boblarda semantik annotatsiya va idiostil tahlilining asosiy obyektlari sifatida o'rganiladi. Shu sababli ular ham

muallif portretining tarkibiy elementi sifatida metadata tizimiga kiritildi.

Muallif portretiga "**ijodiy davr"** parametrining kiritilishi ham alohida metodologik ahamiyatga ega. Tadqiqotda Usmon Azim ijodi shartli ravishda uch bosqichga ajratildi:

1) dastlabki ijod davri (1978–1987) – individual poetik uslubning shakllanish bosqichi.

2) o'tish va takomillashuv davri (1988–2000) – janrlar doirasining kengayishi va poetik tafakkurning chuqurlashuvi.

3) yetuk ijod davri (2001–hozirgacha) – idiostilning barqarorlashuvi va konseptual poetikaning to'liq namoyon bo'lish bosqichi.

Bunday tasnif korpusdagi barcha matnlarni vaqt mezoni bo'yicha avtomatik guruhlash hamda uslubiy evolyutsiyani statistik jihatdan tahlil qiladi.

Demak, Usmon Azimning ekstralingvistik portreti muallifning biografik, ijodiy va korpusga oid tavsiflarini yagona metadata tizimida birlashtiradi. Taklif etilgan model korpusning bibliografik tavsifini boyitadi; muallif idiostilini lingvistik va ekstralingvistik omillar uyg'unligida kompleks o'rganish uchun metodologik asos yaratadi. Mazkur yondashuv keyinchalik boshqa o'zbek adiblari mualliflik korpuslarini yaratishda ham universal metadata modeli sifatida qo'llanishi mumkin.

2-jadval. Usmon Azimning ekstralingvistik portreti

Parametr	Tavsif
To'liq ism	Azimov Usmonqul
Taxallus	Usmon Azim
Tug'ilgan sana	13.08.1950
Tug'ilgan joy	Boysun
Ma'lumoti	ToshDU
Faoliyati	Shoir, dramaturg
Janrlari	She'riyat, drama, nasr
Tarjimalari	Rus, turk, nemis...
Mukofotlari	Xalq shoiri, Do'stlik ordeni
Dominant konseptlar	Inson, Vatan, tabiat, sevgi

Usmon Azim mualliflik korpusi ekstralingvistik teglash modeli. Mualliflik korpusida ekstralingvistik annotatsiya bibliografik ma'lumotlarni qayd etish vositasi, shuningdek, korpusning konseptual tuzilishini shakllantiruvchi muhim komponentdir. Metadata tizimi yordamida korpus tarkibidagi har bir matnning muallif, asar va yaratilish sharoitiga oid tavsiflari yagona standart asosida kodlanadi. Natijada, korpus foydalanuvchisi matnlarni turli parametrlar bo'yicha qidirish, guruhlash va qiyoslash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan ekstralingvistik teglar modeli xalqaro metadata standartlari va mualliflik korpusining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kengaytirildi. Xususan, muallifning ijodiy bosqichi, dominant poetik konseptlari, tarjimonlik faoliyati, mukofotlari va ijodiy yo'nalishlari kabi parametrlar ham metadata tarkibiga kiritildi. Ekstralingvistik teglar tizimini ishlab chiqishda har bir metadata elementi quyidagi talablarga javob berishi nazarda tutildi:

1) ma'lumotning aniqligi va ishonchliligi;
2) standart nomlanish;
3) yagona formatda kodlanishi;
4) avtomatik qidiruv imkoniyatini yaratishi;
5) statistik tahlilda foydalanish imkonini berishi;
6) boshqa korpuslar bilan integratsiyalashuvni ta'minlashi.

Mazkur talablar asosida metadata elementlari uch darajali iyerarxik modelga joylashtirildi. Modelning yuqori darajasida muallifga oid ma'lumotlar, ikkinchi darajada asar tavsifi, uchinchi darajada esa matnga oid tavsiflar joylashtirildi. Bunday iyerarxik tashkil etish metadata takrorlanishini kamaytiradi va korpusning mantiqiy tuzilishini soddalashtiradi.

Taklif etilgan modelda **muallifga oid metadata** korpusning barcha matnlari uchun umumiy. Mazkur blokda muallifning to'liq ismi, taxallusi, tug'ilgan sanasi va joyi, ma'lumoti, kasbiy faoliyati, ijodiy maqomi va tarjimonlik faoliyatiga oid ma'lumotlar saqlanadi. Ushbu ma'lumotlar korpusning identifikatsiya qatlamini tashkil qiladi hamda keyinchalik boshqa mualliflar korpuslari qo'shilganda ham umumiy metadata yadrosi sifatida xizmat qiladi.


Asarga oid metadata har bir asarning bibliografik tavsifini ifodalaydi. Bu qatlamga asar nomi, janri, yozilgan va nashr etilgan yili, to'plam nomi, yaratilgan davri, tarjima holati, nashr manbasi kabi parametrlar kiritiladi. Mazkur ko'rsatkichlar korpus foydalanuvchisiga ma'lum bir davr yoki janrga oid asarlarni tezkor saralash imkonini beradi.

Matnga oid metadata esa korpusning texnologik boshqaruvini ta'minlaydi. Ushbu qatlam matnning tili, yozuv turi, mavzusi, annotator identifikatori, annotatsiya sanasi, fayl formati, matn hajmi, tokenlar soni va boshqa texnik tavsiflarni o'z ichiga oladi. Bu parametrlar korpusni yangilash, versiyalarni boshqarish va annotatsiya sifatini nazorat qilish uchun zarur.

Mazkur modelning yana bir muhim jihati uning **ochiq arxitektura** tamoyiliga asoslanganidir. Metadata tizimiga yangi parametrlarni qo'shish yoki ayrim elementlarni kengaytirish mavjud strukturani o'zgartirmagan holda amalga oshirilishi mumkin. Bu esa korpusni keyingi bosqichlarda rivojlantirish, yangi asarlar bilan boyitish va boshqa mualliflik korpuslari bilan integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Shuningdek, ishlab chiqilgan model **ko'p mezonli qidiruv** imkoniyatini ham yaratadi. Masalan, foydalanuvchi 1990-yillarda yozilgan dramatik asarlarni, tarjima qilingan she'rlarni yoki muayyan konseptga oid matnlarni bir necha metadata parametrlari asosida tanlab olishi mumkin. Bunday qidiruv tizimi an'anaviy elektron kutubxonalarga nisbatan ancha yuqori funksionallikni ta'minlaydi.

Demak, ishlab chiqilgan ekstralingvistik teglar modeli Usmon Azim mualliflik korpusining konseptual asosini tashkil etadi. Model xalqaro metadata standartlari bilan moslashuvchanligi, kengaytiriluvchan arxitekturasi va mualliflik korpusining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi bilan ajralib turadi. Shu bois u mazkur korpusva kelgusida yaratiladigan o'zbek mualliflik korpuslari uchun ham universal metodologik yechim sifatida qo'llanishi mumkin. Ishlab chiqilgan ekstralingvistik metadata modelini korpusga tatbiq

etish izchil texnologik bosqichlar asosida amalga oshiriladi. Mazkur jarayon asarlarni yig'ish va tanlashdan boshlanib, ularni bibliografik tavsiflash, metadata yaratish, standartlashtirish va korpus bazasiga yuklash bosqichlarini qamrab oladi. Shakllantirilgan metadata bazasi keyinchalik ko'p mezonli qidiruv, filtrlash hamda lingvistik va semantik tahlil uchun asos vazifasini bajaradi. Ekstralingvistik annotatsiyani amalga oshirish algoritmi quyidagi chizmada keltirilgan (1-chizma).



1-chizma. Usmon Azim mualliflik korpusini ekstralingvistik annotatsiyalash algoritmi

Ekstralingvistik teglarning tavsifi va ularning korpusdagi vazifalari. Ekstralingvistik annotatsiya tizimini ishlab chiqishda metadata elementlarining tarkibi, ularning korpusdagi funksional vazifalarini ham belgilash ahamiyatli. Har bir teg korpusning ma'lum bir axborot qatlamini tavsiflaydi va boshqa teglar bilan uzviy bog'liq holda ishlaydi [6]. Shu sababli tadqiqotda ekstralingvistik teglar ularning vazifalaridan kelib chiqib bir necha guruhlarga ajratildi.

Birinchi guruh identifikatsion teglarni o'z ichiga oladi. Ushbu teglar korpus obyektini aniq identifikatsiya qilish uchun xizmat qiladi. Bunga muallifning to'liq ismi, taxallusi, asar nomi, asar identifikatori, korpus identifikatori va matn identifikatori kiradi. Identifikatsion teglar korpus boshqaruv tizimining asosiy elementi bo'lib, ular matnlarning takrorlanishini oldini oladi hamda qidiruv tizimining barqaror ishlashini ta'minlaydi.

Ikkinchi guruh bibliografik teglardan iborat. Ushbu guruh matnning nashriyot va bibliografik tavsifini ifodalaydi. Jumladan, asarning yaratilgan yili, nashr yili, nashriyot nomi, to'plam nomi, nashr joyi, sahifalar soni va manba turi mazkur guruhga kiradi. Bibliografik metadata korpusdagi matnlarning ilmiy ishonchliligini ta'minlash hamda matn manbalarini tekshirish imkoniyatini yaratadi.

Uchinchi guruh biografik teglarni tashkil etadi. Mazkur teglar muallifning shaxsiy va kasbiy faoliyatini tavsiflaydi. Muallifning tug'ilgan sanasi, tug'ilgan joyi, ma'lumoti, kasbi, ilmiy yoki ijodiy unvoni, davlat mukofotlari hamda ijodiy faoliyat davri ushbu blok tarkibiga kiritildi. Tadqiqot nuqtai nazaridan aynan biografik metadata muallif uslubining ekstralingvistik omillar bilan bog'liqligini tahlil qilish imkonini beradi.

To'rtinchi guruh adabiy tavsif teglaridan iborat. Ular muallifning ijodiy faoliyatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, asarning janri, funksional uslubi, adabiy yo'nalishi, tarjima yoki original ekanligi, ijodiy bosqichi hamda asarning asosiy konseptual yo'nalishi ushbu guruhda aks ettiriladi. Ayniqsa, janr va ijodiy bosqich metadata elementlari muallif idiostilining evolyutsiyasini aniqlashda muhim parametrlar hisoblanadi.

Beshinchi guruh mavzuviy metadatadir. Mazkur guruh matnning mazmuniy yo'nalishini tavsiflaydi. Tadqiqotda mavzularni belgilashda umumiy bibliografik tasnifdan emas, balki korpusning semantik modeli asos qilib olindi. Shu sababli matnlar *inson, tabiat, Vatan, sevgi, tarix, milliy qadriyatlar, ruhiyat, falsafa* kabi konseptual maydonlar bo'yicha ham tavsiflandi. Keyingi boblarda aynan ushbu metadata semantik annotatsiya bilan integratsiyalashadi.

Oltinchi guruh texnologik metadatani tashkil etadi. Bu qatlam korpusning dasturiy boshqaruvi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Annotator identifikatori, annotatsiya sanasi, fayl formati, kodlash tizimi (UTF-8), yozuv turi (lotin yoki kirill), matn hajmi, tokenlar soni va versiya raqami kabi ko'rsatkichlar ushbu guruhga kiritildi. Mazkur metadata korpusni muntazam yangilab borish va annotatsiya sifatini nazorat qilishga mo'ljallangan.

Taklif etilgan ekstralingvistik teglar tizimining muhim xususiyati shundaki, u har bir matnni bir vaqtning o'zida bir nechta parametr asosida tavsiflash imkonini beradi. Masalan, foydalanuvchi 1991–2000-yillar oralig'ida yozilgan dramatik asarlar, tarjima qilingan she'rlar, Vatan konsepti ustun bo'lgan matnlar yoki yetuk ijod davriga mansub nasriy asarlarni metadata kombinatsiyasi yordamida tanlab olishi mumkin. Bunday ko'p mezonli qidiruv tizimi mualliflik korpusining imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Shuningdek, ekstralingvistik metadata lingvistik annotatsiya bilan uzviy bog'liq holda ishlaydi. Masalan, semantik teglar yordamida *tabiat* konseptiga oid birliklar aniqlangandan so'ng, ekstralingvistik metadata orqali ularning qaysi ijodiy davrda, qaysi janrda yoki qaysi

mavzudagi asarlarda faol qo'llangani statistik jihatdan aniqlanishi mumkin. Shu tariqa lingvistik va ekstralingvistik annotatsiyaning integratsiyasi muallif idiostilini ko'p omilli tahlil qilish imkonini yaratadi. Ekstralingvistik metadata korpusning alohida tavsif qatlami sifatida cheklanib qolmay, lingvistik va semantik annotatsiya natijalarini muayyan muallif, davr, janr, mavzu hamda manba bilan bog'lashga xizmat qiladi[7]. Mazkur annotatsiya qatlamlarining o'zaro integratsiyasi korpus ma'lumotlarini statistik, leksik-semantik va lingvopoetik jihatdan kompleks tahlil qilish imkonini yaratadi. Ular o'rtasidagi funksional bog'liqlik quyidagi chizmada aks ettirilgan (2-chizma).



2-chizma. Ekstralingvistik metadata va annotatsiya qatlamlarining o'zaro bog'liqligi

Mazkur metadata tizimining yana bir ustun jihati uning universalligi hisoblanadi. Taklif etilgan teglar modeli faqat Usmon Azim korpusi uchun emas, balki boshqa o'zbek adiblari mualliflik korpuslarini yaratishda ham qo'llanishi mumkin. Bunda faqat muallifga xos ma'lumotlar yangilanadi, metadata arxitekturasi esa o'zgarishsiz qoladi. Natijada, turli mualliflik korpuslari yagona standart asosida shakllanib, keyinchalik ularni umumiy platformada integratsiyalash va qiyosiy tadqiqotlar o'tkazish imkoniyati yuzaga keladi.

Demak, ekstralingvistik teglar tizimi mualliflik korpusining bibliografik tavsifini yaratish bilan cheklanmay, uning ilmiy funksionalligini ta'minlovchi asosiy komponentlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Aynan ushbu metadata tizimi keyingi bosqichda semantik annotatsiya, idiostil evolyutsiyasi, lingvopoetik tahlil va statistik modellashtirish uchun zarur bo'lgan metodologik poydevorni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012.
2. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: Oxford University Press, 1991.
3. Kučera H., Francis W.N. Computational Analysis of Present-Day American English. – Providence: Brown University Press, 1967.
4. Burnard L. Metadata for corpus work // Developing Linguistic Corpora: A Guide to Good Practice / ed. by M. Wynne. – Oxford: Oxbow Books, 2005. – P. 30–46.
5. Ide N., Suderman K. The American National Corpus First Release // Proceedings of the Fourth International Conference on Language Resources and Evaluation (LREC 2004). – Lisbon, 2004. – P. 1681–1684.
6. TEI Consortium. TEI P5: Guidelines for Electronic Text Encoding and Interchange. – Text Encoding Initiative Consortium.
7. Баранов А.Н. Введение в прикладную лингвистику. М.: Эдиториал УРСС, 2001.

Sarvinoz UMIROVA,
Master's student,
Kimyo International University in Tashkent, Namangan Branch

LINGUISTIC INNOVATIONS IN YOUTH LANGUAGE ON SOCIAL MEDIA: A PARALINGUISTIC PERSPECTIVE

Annotation. This study explores linguistic innovations in youth language on social media from a paralinguistic perspective. It examines how digital communication environments foster the emergence of systematic paralinguistic markers that encode affect, stance, and identity. Drawing on sociolinguistic, pragmatic, and multimodal frameworks, the paper argues that features such as emoji, acronyms, stylized orthography, and visual media function as integral components of meaning-making rather than peripheral elements.

Keywords: paralinguistics, social media, youth language, emoji, digital discourse, multimodality.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlardagi yoshlar tilida kuzatilayotgan lingvistik innovatsiyalar paralingvistik nuqtayi nazardan o'rganiladi. Raqamli kommunikatsiya muhiti hissiy holat, munosabat va identiklikni ifodalovchi tizimli paralingvistik vositalarning yuzaga kelishiga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Sotsiolingvistik, pragmatik va multimodal yondashuvlarga tayangan holda emoji, qisqartmalar (akronimlar), stilizatsiyalashgan yozuv hamda vizual media vositalari ikkilamchi elementlar emas, balki ma'no shakllantirish jarayonining ajralmas tarkibiy qismlari sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: paralingvistika, ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar tili, emoji, raqamli diskurs, multimodallik.

Аннотация. В данном исследовании рассматриваются лингвистические инновации в языке молодежи в социальных сетях с паралингвистической точки зрения. Анализируется, каким образом цифровая коммуникативная среда способствует формированию системных паралингвистических маркеров, выражающих эмоции, позицию и идентичность пользователей. Опираясь на социолингвистический, прагматический и мультимодальный подходы, автор рассматривает такие средства, как эмодзи, акронимы, стилизованная орфография и визуальные медиа, не как периферийные элементы, а как неотъемлемые компоненты процесса формирования смысла.

Ключевые слова: паралингвистика, социальные сети, язык молодежи, эмодзи, цифровой дискурс, мультимодальность.

Language evolves in response to technological and social transformations, reflecting the communicative needs of its users. The rise of digital platforms such as Instagram, TikTok, WhatsApp, and X has introduced new modes of interaction characterized by speed, brevity, and multimodality. Within these environments, young users act as primary agents of linguistic innovation, developing creative communicative strategies that challenge conventional norms of written language.

Traditionally, paralinguistics has focused on vocal and bodily cues accompanying speech, including intonation, pitch, gesture, and facial expression. In digital contexts, where physical presence is absent, users compensate through alternative semiotic resources. This paper introduces the concept of digital paralinguistic adaptation, referring to the transformation of non-verbal communication into symbolic and multimodal forms in online interaction.

The study of linguistic innovations in youth language on social media has become an increasingly important area within contemporary sociolinguistics, pragmatics, and digital discourse studies. The rapid expansion of social networking platforms has created new communicative environments in which written language interacts with visual, graphic, and paralinguistic resources. Scholars emphasize that computer-mediated communication should not be regarded merely as a simplified form of traditional written language. Rather, it represents a dynamic communicative space in which users develop new linguistic conventions to compensate for the absence of face-to-face cues and to express emotion, stance, interpersonal relationships, and social identity [1].

David Crystal was among the scholars who systematically examined the linguistic consequences of Internet communication. He argues that digital communication has generated distinctive patterns of language use combining characteristics traditionally associated with both speech and writing [1]. From this perspective, unconventional spelling, abbreviations, punctuation patterns, capitalization, emoticons, and other graphic devices can be interpreted as functional adaptations to the specific conditions of online interaction. Such innovations are especially visible in youth communication because younger users frequently experiment with linguistic forms and contribute to the rapid diffusion of emerging digital conventions.

Susan Herring's research on computer-mediated discourse provides another important theoretical foundation for analyzing youth language on social media. Herring demonstrates that linguistic practices in digital environments are shaped by technological affordances, social context, participant characteristics, and communicative purposes [2]. Consequently, linguistic innovation cannot be explained exclusively in terms of grammatical change. The technological characteristics of social media platforms influence how users organize interaction, express attitudes, manage interpersonal relationships, and construct identities. From a paralinguistic perspective, this means that graphic and visual resources can perform communicative functions traditionally associated with facial expressions, gestures, prosody, and voice quality in spoken interaction.

Research conducted by Naomi Baron also shows that digital communication has contributed to changing conventions of written interpersonal interaction. In *Always On*, Baron analyzes the influence of instant messaging, mobile communication, and online environments on language practices and demonstrates that users continuously adapt language to new technologies and social circumstances [3]. Youth language is particularly significant in this process because younger speakers frequently employ abbreviated forms, unconventional punctuation, orthographic variation, and other creative strategies. These phenomena should therefore not automatically be interpreted as linguistic deterioration; they may instead represent processes of adaptation, economy, expressiveness, and identity construction within digital communication.

The emergence of emoji has considerably expanded the paralinguistic resources available in online interaction. Dresner and Herring argue that emoticons should be analyzed not simply as representations of facial expressions but as communicative signs capable of performing pragmatic

functions [4]. They may indicate the intended interpretation of an utterance, communicate interpersonal stance, modify illocutionary force, or help prevent misunderstanding. This approach is particularly relevant to social media communication, where the absence of physical co-presence increases the importance of alternative contextualization cues.

The communicative role of emoji has subsequently received extensive attention. Marcel Danesi views emoji as part of the changing semiotic structure of digital communication and emphasizes their role in supplementing verbal messages with visual meanings [5]. Emoji may express emotions, evaluation, irony, solidarity, humor, approval, disagreement, or interpersonal closeness. Their meaning, however, is highly context-dependent. The same emoji may perform different functions depending on the verbal message, relationship between participants, cultural background, platform conventions, and communicative situation. Therefore, emoji are more appropriately analyzed as elements of a multimodal meaning-making system than as direct equivalents of individual words.

Multimodality provides a broader theoretical framework for understanding these developments. Kress argues that contemporary communication increasingly depends on the interaction of multiple semiotic modes rather than language alone [6]. Written text, typography, image, spatial organization, color, gesture, and other modes may jointly contribute to meaning construction. This theoretical perspective is particularly applicable to social media, where young users routinely combine verbal expressions with emoji, GIFs, memes, photographs, videos, hashtags, and typographic modifications. Thus, digital youth discourse represents an environment in which linguistic and paralinguistic resources function as an integrated semiotic system.

Another important feature of youth language is the use of stylized orthography. Repeated letters, unconventional capitalization, intentional misspellings, excessive punctuation, and combinations of upper- and lowercase letters may function as substitutes for prosodic features that are unavailable in ordinary written communication. For example, letter repetition may signal emphasis or emotional intensity, while capitalization can represent increased loudness or strong affect. Such practices demonstrate that digital writing is not purely verbal but incorporates graphic strategies that approximate certain properties of spoken interaction [1: 2].

Acronyms and abbreviations similarly perform functions beyond simple linguistic economy. Forms such as *LOL*, *OMG*, *IDK*, *BTW*, and other abbreviated expressions have become recognizable discourse markers in many forms of online communication. Their functions may include signaling stance, managing conversational tone, expressing evaluation, and marking membership in particular digital communities. The widespread use and subsequent conventionalization of such forms illustrate how initially innovative linguistic practices can gradually become integrated into the communicative repertoire of online users [3].

The relationship between digital language and identity is particularly significant in studies of youth communication. Androutsopoulos emphasizes that networked digital environments provide users with opportunities to perform identities through linguistic choices, stylistic variation, and interactional practices [7]. Young people may select particular spellings, abbreviations, visual markers, hashtags, or multimodal resources to signal affiliation with peer groups and online communities. Consequently, linguistic innovation functions not merely as a response to technological constraints but also as an instrument of social positioning and identity construction.

Tagliamonte and Denis, in their analysis of instant messaging language, demonstrate that youth digital communication combines innovative features with established grammatical patterns [8]. Their findings challenge assumptions that computer-mediated youth language necessarily undermines linguistic competence. Instead, digital discourse can involve sophisticated stylistic variation in which speakers strategically alternate between conventional and innovative forms according to communicative circumstances.

Overall, the reviewed literature indicates that linguistic innovations in youth social media discourse should be examined within an integrated sociolinguistic, pragmatic, paralinguistic, and multimodal framework. Emoji, acronyms, stylized spelling, punctuation, GIFs, memes, and other visual resources are not merely decorative additions to verbal communication. They participate directly in the construction of affect, stance, interpersonal relations, identity, and contextual meaning [4: 7].

Therefore, a paralinguistic perspective makes it possible to explain how young users creatively compensate for the reduced availability of nonverbal cues in digital environments while simultaneously developing new conventions specific to online communication. Such an approach also demonstrates that contemporary youth language is characterized not simply by linguistic simplification, but by the emergence of a complex multimodal communicative repertoire shaped by technological affordances, social relationships, and rapidly changing digital cultures.

Sociolinguistics highlights the relationship between language and social identity. According to Eckert, linguistic variation serves as a resource for indexing social meaning and group affiliation. In digital environments, this function becomes particularly salient, as users actively construct identities through linguistic choices [9].

Youth language on social media reflects participation in dynamic communities of practice, where norms are continuously negotiated. Expressions such as “stan,” “spill the tea,” and “main character energy” function as markers of belonging and cultural competence.

From a pragmatic perspective, meaning is inherently context-dependent. Social media platforms introduce additional contextual layers through features such as likes, shares, comments, and algorithmic visibility. These affordances influence both message production and interpretation, resulting in a highly interactive communicative environment.

Herring notes that digital discourse is characterized by hybridity, combining features of spoken and written language. This hybridity necessitates innovative strategies for expressing tone, intention, and interpersonal meaning [10].

Multimodal theory provides a useful framework for analyzing digital communication, as it recognizes that meaning is constructed through multiple semiotic modes, including text, image, and sound [6]. Emoji, GIFs, and memes exemplify this multimodality, functioning not as optional additions but as integral components of communication.

Danesi argues that emoji constitute a form of visual language capable of conveying complex emotional and social meanings. These elements can therefore be interpreted as digital extensions of traditional paralinguistic features [5].

This study adopts a qualitative descriptive research design aimed at exploring linguistic innovations in youth language on

social media from a paralinguistic perspective. A qualitative approach allows for an in-depth analysis of meaning-making processes and communicative strategies in digital discourse.

Data were collected from publicly accessible platforms such as Instagram, TikTok, WhatsApp, and X. A purposive sampling method was used. Dataset includes:

- Comments and captions;
- Short chat messages;
- Posts with emoji, GIFs, and memes.

A total of approximately 60 samples were analyzed.

A thematic and discourse-analytic approach was applied:

1. Identification of paralinguistic features.
2. Categorization into functional groups.
3. Contextual interpretation.
4. Comparison with traditional paralinguistics.

The study integrates:

- Sociolinguistics;
- Pragmatics;
- Multimodality.

All data were anonymized and collected from public sources without revealing personal identities.

The results indicate that emoji are the most frequently used paralinguistic feature, emphasizing their central role in digital communication. Acronyms and multimodal elements also play a significant role in conveying meaning efficiently. Stylized spelling and punctuation contribute to simulating prosodic and emotional nuances.

The findings highlight the need to reconsider traditional distinctions between verbal and non-verbal communication. Digital discourse demonstrates that paralinguistic meaning can be effectively conveyed through symbolic and multimodal resources.

Youth users play a key role in shaping these innovations, reflecting broader sociocultural and technological changes.

Linguistic innovations in youth social media discourse represent advanced communicative strategies that extend beyond traditional language boundaries. These features function as essential paralinguistic tools for expressing emotion, identity, and interaction in digital environments. Overall, these developments show that language is constantly evolving in response to technological change and highlight the need to reconsider paralinguistic within modern digital communication.

References

1. Crystal D. Language and the Internet. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
2. Herring S.C. Computer-mediated discourse analysis: An approach to researching online behavior // Designing for Virtual Communities in the Service of Learning / ed. by S.A.Barab, R.Kling, J.H.Gray. – New York: Cambridge University Press, 2004. – P. 338–376.
3. Baron N.S. Always On: Language in an Online and Mobile World. – New York: Oxford University Press, 2008.
4. Dresner E., Herring S.C. Functions of the nonverbal in CMC: Emoticons and illocutionary force // Communication Theory, 2010. Vol. 20, №3. – P. 249–268.
5. Danesi M. The Semiotics of Emoji: The Rise of Visual Language in the Age of the Internet. – London: Bloomsbury Academic, 2017.
6. Kress G. Multimodality: A Social Semiotic Approach to Contemporary Communication. – London: Routledge, 2010.
7. Androutsopoulos J. Networked multilingualism: Some language practices on Facebook and their implications // International Journal of Bilingualism, 2015. Vol. 19, №2. – P. 185–205.
8. Tagliamonte S.A., Denis D. Linguistic ruin? LOL! Instant messaging and teen language // American Speech, 2008. Vol. 83, №1. – P. 3–34.
9. Eckert P. Linguistic Variation as Social Practice: The Linguistic Construction of Identity in Belten High. – Oxford: Blackwell Publishers, 2000.
10. Herring S.C. Discourse in Web 2.0: Familiar, reconfigured, and emergent // Georgetown University Round Table on Languages and Linguistics 2011: Discourse 2.0: Language and New Media / ed. by D. Tannen, A.M. Trester. – Washington, DC: Georgetown University Press, 2013. – P. 1–25.

Gulshoda AVLOYOROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
xorijiy til nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

MILLIY MENTALITET VA BOLALAR ADABIYOTI ESTETIKASI: G'ARB VA SHARQ PARADIGMALARINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy mentalitetning bolalar adabiyoti estetikasiga ta'siri Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" va Susan Hillning "I'm the King of the Castle" asarlari asosida qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etiladi. Milliy-madaniy qadriyatlarning qahramon modeli, badiiy makon, psixologik tasvir va axloqiy-estetik konsepsiyada namoyon bo'lish shakllari tahlil markaziga qo'yiladi. Asarlardan olingan epizod va badiiy detallar tahlili Sharq va G'arb adabiy an'analariga xos ayrim xususiyatlarning muallif individual uslubi bilan uyg'unlashib, o'ziga xos estetik model hosil qilishini ko'rsatadi. Qiyosiy tahlil milliy mentalitetning badiiy matnda bevosita emas, balki obraz, makon, konflikt va personajlararo munosabatlar tizimi orqali ifodalanishini asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: milliy mentalitet, bolalar adabiyoti, estetika, Sharq va G'arb, qiyosiy-tipologik tahlil, badiiy makon, psixologizm, milliy an'ana.

Abstract. This article examines the influence of national mentality on the aesthetics of children's literature through a comparative-typological analysis of Khudoyberdi Tokhtaboyev's "Riding the Yellow Giant" ("Sariq devni minib") and Susan Hill's "I'm the King of the Castle". The analysis focuses on the ways in which national and cultural values are manifested in the construction of the hero, artistic space, psychological characterization, and moral-aesthetic conception. The analysis of selected episodes and artistic details from the two works demonstrates that certain features characteristic of Eastern and Western literary traditions are combined with the authors' individual styles, resulting in distinctive aesthetic models. The comparative analysis substantiates the view that national mentality is expressed in literary texts not directly, but through the system of imagery, spatial organization, conflicts, and relationships among characters.

Keywords: national mentality, children's literature, aesthetics, East and West, comparative-typological analysis, artistic space, psychologism, national tradition.

Аннотация. В статье исследуется влияние национального менталитета на эстетику детской литературы посредством сравнительно-типологического анализа произведений Худойберди Тохтабаева «Сев верхом на жёлтом дьяволе» («Sariq devni minib») и Сьюзен Хилл «I'm the King of the Castle». Основное внимание уделяется формам проявления национально-культурных ценностей в модели героя, художественном пространстве, психологической характеристике и нравственно-эстетической концепции произведений. Анализ отдельных эпизодов и художественных деталей показывает, что характерные для восточной и западной литературных традиций особенности, взаимодействуя с индивидуальной манерой авторов, формируют своеобразные эстетические модели. Сравнительный анализ позволяет обосновать положение о том, что национальный менталитет выражается в художественном тексте не непосредственно, а посредством системы образов, художественного пространства, конфликтов и взаимоотношений персонажей.

Ключевые слова: национальный менталитет, детская литература, эстетика, Восток и Запад, сравнительно-типологический анализ, художественное пространство, психологизм, национальная традиция.

Bolalar adabiyotida bolaning olamni qanday idrok etishi va unda o'z o'rnini qanday belgilashi faqat individual psixologiya bilan chegaralanmaydi. Qahramonning xulq-atvori, axloqiy qarashlari, oila va jamiyatga munosabati uning shakllanishiga ta'sir etuvchi tarixiy-madaniy muhit bilan uzviy bog'liq. Bolalar adabiyotida ushbu bog'liqlik badiiy obraz, personajlararo munosabat va qadriyatlar tizimi orqali namoyon bo'lib, milliy mentalitetning estetik ifodasini tadqiq etish uchun muhim asos yaratadi. Bunda milliylik faqat urf-odat, maishiy detal yoki folklor unsurlarida emas, balki asarning ichki poetik qurilishi va personajlarning ruhiy dunyosida ham namoyon bo'ladi.

Milliy mentalitet va badiiy estetika o'rtasidagi munosabatni o'rganishda turli madaniy muhitlarda yaratilgan bolalar asarlarining qiyosi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday qiyos bir xil yoshdagi qahramonlarning qo'rquv, sinov, yolg'izlik, oila va ijtimoiy muhitga munosabati turli asarlarda qanday badiiy yechim topishini kuzatish imkonini beradi. Ayniqsa, bolaning murakkab vaziyat oldidagi tanlovi va uning ruhiy oqibatlarini kuzatish orqali bolalik konsepsiyasining turli madaniy muhitlarda qanday badiiy mazmun kasb etishini aniqlash mumkin. Bu esa milliylikni tashqi etnografik belgilar bilangina emas, personajning fikrlashi, hissiy reaksiyasi va hayotiy tanlovlarida namoyon bo'ladigan chuqur poetik hodisa sifatida tushunishga asos beradi.

Bolalar adabiyotini o'rganish masalasi zamonaviy adabiyotshunoslikda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda bolalar uchun yaratilgan badiiy matnlarning estetik xususiyatlari, qahramon psixologiyasi hamda tarbiyaviy g'oyalarini o'rganishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, bolalar adabiyotining nazariy asoslarini o'rganishda Britaniyalik olim Peter Huntning tadqiqotlari muhim o'rin egallashini alohida ta'kidlashimiz joiz. Tadqiqotchi bolalar adabiyotini mustaqil estetik tizim sifatida talqin qilib, undagi badiiy uslub va g'oyaviy mazmun o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ta'kidlaydi [6: 125].

Bolalar adabiyotidagi qahramon obrazining shakllanish jarayonini o'rganishda Kimberli Reynolds tadqiqotlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchi bolalar adabiyotida qahramonlarning ijtimoiy muhit bilan munosabati muhim badiiy omil ekanligini ko'rsatadi [5: 118]. Jon Stivens esa bolalar adabiyotining ijtimoiy funksiyasini tahlil qilib, badiiy matnlar jamiyatdagi axloqiy va madaniy qarashlarning shakllanishida muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Bolalar adabiyotida qo'rquv va psixologik ziddiyatlarning badiiy ifodalanishi masalasi Jack Zipes tadqiqotlarida ham ko'rib chiqilgan. U ertak va fantastik hikoyalarda bolalar ruhiyatida mavjud bo'lgan qo'rquv va ichki ziddiyatlar badiiy shaklda aks etishini talqin qiladi [4: 296].

O'zbek adabiyotshunosligida ham bolalar adabiyotining badiiy va tarbiyaviy xususiyatlari bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Ozod Sharafiddinov adabiyotning jamiyat hayotidagi o'rni hamda uning tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yuritib, badiiy asar yosh avlodning ma'naviy shakllanishida muhim rol o'ynashini aytib o'tgan [1: 178]. Baxtiyor Nazarov esa o'z tadqiqotlarida o'zbek adabiyotining estetik tamoyillari hamda badiiy tafakkur muammolarini yoritadi [1: 58]. Shuningdek, Naim Karimov va Ibrohim G'afurov adabiyot nazariyasi hamda badiiy tafakkur masalalarini o'rganib, badiiy obrazlarning ma'naviy va estetik mohiyatini tahlil qilganlar [8: 79]. Abdug'afur Rasulov hamda Qozoqboy Yo'ldoshev esa badiiy matnning g'oyaviy va estetik xususiyatlarini tadqiq etib, milliy adabiyot rivojida adabiy an'analarning o'rni haqida muhim ilmiy fikrlar bildirganlar [7: 304]. Mazkur tadqiqotlar bolalar adabiyotida badiiy obrazlar

orqali milliy mentalitet, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy qarashlar qanday ifodalanishini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotimizda qiyosiy-tipologik tahlil metodi asosiy yondashuv sifatida qo'llanildi. Viktor Jirmunskiyning tipologik yaqinliklar nazariyasi asosida ikki asar o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar aniqlanadi. Madaniyatlararo tahlil metodi asarlarni ularning milliy va madaniy kontekstida ko'rib chiqishga imkon beradi, ya'ni ingliz adabiy an'analariga xos axloqiy qarashlar hamda o'zbek madaniy muhitining ma'naviy qadriyatlari doirasida talqin qilish imkonini yaratadi. Struktural-semiotik metod Lotman metodologiyasi asosida milliy mentalitetning asarlar tuzilishidagi semiotik izlarini: makon qurilishi, qahramon munosabatlari, axloqiy ideallikni o'rganishda qo'llanildi. Asosiy tahlil materiali sifatida ushbu ikki asardan olingan sahnalari, epizodlari va qahramonlar munosabatlaridagi milliy mentalitetning namoyon bo'lish holatlari tanlab olinib, chuqur tahlil qilindi.

O'zbek milliy adabiyotshunosligida muhim iz qoldirgan adiblarimizdan bir bo'lgan Xudoyberdi To'xtaboyevning eng mashhur asari hisoblangan "Sariq devni minib" asarida o'zbek milliy mentalitetining Sharq ijtimoiy integratsiya paradigmasi asarning barcha qatlamlarida izchil va chuqur ifodalanganligini ko'rish mumkin. Asarning dastlabki sahifalaridayoq bosh qahramon Hoshimjonning xarakteri uning oilaviy va ijtimoiy muhiti bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanadi [12: 28].

Qahramonning onasi, singillari va tengdoshlari bilan kundalik munosabatlari o'zbek oilasi va mahalla hayotiga xos ijtimoiy aloqalarni badiiy aks ettiradi. Xususan, onasining Hoshimjonni uy yumushlariga chaqirishi, uning singlisi Oyshaga murojaat qilishi hamda do'sti Orif bilan muloqoti qahramonning doimiy ijtimoiy munosabatlar doirasida yashashini ko'rsatadi [12: 35]. Asarda oila, qo'shnichilik va tengdoshlar bilan muloqot oddiy maishiy fon sifatidagina emas, balki Hoshimjon xarakteri shakllanadigan milliy-madaniy muhitning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi [12: 59].

Dev bilan bog'liq epizodlarda Hoshimjonning noma'lum va g'ayrioddiy hodisaga munosabati uning xarakteridagi jur'at va faol harakatga moyillikni namoyon etadi. Hayrat va ikkilanishlarga qaramay, qahramon vaziyatdan chekinish o'rniga uni anglash va unga munosabat bildirishga intiladi [12: 75]. Bu holat Hoshimjon obrazini nafaqat fantastik voqealarning kuzatuvchisi sifatida, balki ularda faol ishtirok etuvchi qahramon qiyofasida shakllantiradi. Qahramonning noma'lum vaziyat oldida chekinmasdan faol munosabat bildirishi unda tashabbuskorlik va o'z kuchiga tayanish hissi shakllanayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, Hoshimjon obrazidagi bunday ruhiy qat'iyat o'zbek tarbiya an'analarida qadrlanadigan jasorat, sabr va murakkab vaziyatda o'zini yo'qotmaslik kabi fazilatlar bilan hamohang tarzda namoyon bo'ladi. To'xtaboyev ushbu asarda qahramonning kutilmagan sinovlarga munosabati orqali uning psixologik rivojlanishini milliy-madaniy qadriyatlar bilan uyg'un holda badiiy ifodalaydi [12: 97].

Dev bilan birgalikdagi sayohat sahnalarida o'zbek milliy mentalitetining yana bir muhim qirrasi, ya'ni tabiat va inson uyg'unligiga bo'lgan munosabat ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Hoshimjon pastga qaradi. Kichkina uylar, kichkina daraxtlar, kichkina odamlar... Lekin bularning barchasi uniki edi, u shu yerda tug'ilib o'sgan, shu ko'chalarda yugurib yurgan, shu daraxtlarga chiqib o'ynagan. Yuragida g'alati bir tuyg'u paydo bo'ldi [12: 68].

Ushbu parchada Hoshimjonning devni minib uchayotgan holati tasvirlangan bo'lib, Vatanga bo'lgan muhabbati aks ettirilgan. "Bularning barchasi uniki edi" jumlasi qahramonning o'zini o'rab turgan makon bilan ichki yaqinligini ifodalab, undagi tegishlilik tuyg'usini ochib beradi. Mazkur ifodada "o'ziga tegishli" makon faqat moddiy hudud sifatida emas, balki qahramonning o'zini muayyan ijtimoiy va madaniy muhitning bir qismi sifatida his etishi bilan bog'liq ramziy tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, ushbu tasvirni o'z yurtiga, tanish muhitga va jamoaga bog'liqlik kabi milliy-madaniy qadriyatlarning badiiy ifodasi sifatida talqin qilish mumkin.

Asarda Hoshimjonning ijtimoiy muhit bilan munosabati uning qiyinchiliklarni yengish jarayonida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Qahramon o'z sarguzashtlari davomida orttirgan tajriba va kuzatishlarini tengdoshlari bilan baham ko'radi, ularning fikr-mulohazalariga munosabat bildiradi hamda muayyan vaziyatlarda jamoaviy harakatga tayanadi. Hoshimjonning individual faoliyati uning atrofidagi ijtimoiy muhitdan ajratilgan holda emas, balki oila, do'stlar va tengdoshlar bilan shakllangan munosabatlar doirasida tasvirlanadi. Bunday badiiy yondashuvni o'zbek xalq og'zaki ijodida uchraydigan hamjihatlik, o'zaro ko'mak va umumiy maqsad yo'lida birlashish motivlarining zamonaviy bolalar nasridagi o'ziga xos davomiyligi sifatida talqin qilish mumkin.

Hoshimjonning sarguzashtlar davomida orttirgan tajribasi asar yakuniga kelib uning ruhiy kamolotida o'z ifodasini topadi. Qahramondagi o'zgarish faqat uning ichki kechinmalari orqali emas, balki atrofidagi kishilar bilan munosabatlarida ham namoyon bo'ladi [12: 47].

Hoshimjon obrazida ruhiy kamolot qahramonning ijtimoiy muhit bilan aloqalari orqali ochib berilsa, Susan Hillning "I'm the King of the Castle" romanida bola ruhiyatini shakllantiruvchi muhit mutlaqo boshqa badiiy tamoyil asosida quriladi. Asarning asosiy makoni bo'lgan Warings manor uyi dastlabki sahifalardanoq qahramonlar o'rtasidagi yaqinlikni ta'minlovchi yashash joyidan ko'ra, begonalashuv va ruhiy yakkalanish hissini kuchaytiruvchi yopiq makon sifatida namoyon bo'ladi [9: 18]. Uyning sovuq va begona muhiti, uning ichki tuzilishi hamda tashqi olamdan nisbatan ajralganligi Charles Kingshawning yangi muhitga moslashish jarayonidagi ruhiy beqarorligi bilan uyg'unlashadi [9: 34]. Hill makonni voqealar sodir bo'ladigan oddiy fon darajasida qoldirmay, qahramonning xavotiri, yolg'izligi va himoyasizlik hissini kuchaytiruvchi psixologik vositaga aylantiradi.

To'xtaboyevda qahramonning ijtimoiy muhit bilan aloqalari uning faoliyat doirasini kengaytirsa, Hill romanida makon va undagi munosabatlar bolaning tobora kuchayib borayotgan ruhiy izolyatsiyasini ochishga xizmat qiladi.

Waringsdagi begonalashuv hissi Kingshawning yangi muhitga kirib kelishi bilan qahramonlar o'rtasidagi munosabatlarda yanada aniq namoyon bo'ladi. Hooperning unga yo'llagan "I didn't want you to come here" [9: 187] mazmunidagi dastlabki murojaati Kingshawning bu muhitda qabul qilinmaganini ko'rsatuvchi muhim badiiy detalga aylanadi. Jumlaning qisqa va keskin tuzilishi Hooperning Waringsga nisbatan kuchli egalik hissini hamda Kingshawning bu yerda bo'lishiga qarshiligini ifodalaydi. Bir xil makon ikki qahramon ongida turlicha psixologik mazmun kasb etadi: Hooper uchun Warings o'ziga tegishli va nazorat qilinadigan hudud bo'lsa, Kingshaw uchun u asta-sekin o'zini erkin va xavfsiz his qila olmaydigan muhitga aylanadi [9: 71]. Hooperning Kingshawni qabul qilmasligi oddiy bolalar kelishmovchiligi bilan cheklanmaydi. Uning Waringsga egalik da'vosi keyinchalik Kingshaw ustidan o'rnatiladigan psixologik bosim va hukmronlikning dastlabki ko'rinishini yuzaga chiqaradi.

Kingshawning o'rmonga qochib ketishi asardagi psixologik taranglikni chuqurlashtiruvchi muhim epizodlardan biridir. Waringsdagi ruhiy bosimdan uzoqlashishga intilgan qahramon dastlab o'rmonni qochish va vaqtinchalik erkinlik imkoniyati sifatida qabul qiladi. Biroq yo'lini yo'qotishi va qorong'ilikning kuchayishi bilan bu makonning psixologik mazmuni o'zgarib, Kingshawning ichki xavotiri va himoyasizlik hissini yanada keskinlashtiradi.

He did not know which way to go. The trees were all the same, dark and close together, and the light was fading fast. He felt that he might walk for ever and never come out, that the wood was infinite, that it would swallow him up entirely [9: 75].

Parchadagi "dark and close together", "infinite" hamda "swallow him up entirely" ifodalari o'rmonni oddiy tabiiy manzaradan psixologik tahdid makoniga aylantiradi. "Infinite" qahramonning makon chegaralarini idrok eta olmay qolganini, "swallow him up entirely" esa o'rmonning uning tasavvurida xavfli kuch sifatida namoyon bo'lishini anglatadi. O'rmonning cheksizdek tuyulishi Kingshawning yolg'izlik va nazoratni yo'qotish hissini kuchaytirib, tashqi makonni uning ichki kechinmalarini aks ettiruvchi psixologik vositaga aylantiradi.

Mazkur tasvir Xudoyberdi To'xtaboyev asaridagi sarguzasht makonining badiiy vazifasi bilan qiyoslanganda muhim farq ko'zga tashlanadi. "Sariq devni minib"da qahramon duch keladigan noma'lum muhit va g'ayrioddiy vaziyatlar ko'proq harakat, sinov va yangi tajriba orttirish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Hill romanida esa o'rmon Kingshawning erkinlikka intilishini amalga oshiradigan makon bo'lib qolmay, uning ichki xavotirlarini kuchaytiruvchi muhitga aylanadi. Ikki asardagi tabiat tasvirining bunday farqli poetik vazifasi qahramon ruhiyatini yaratishda milliy adabiy an'analar va mualliflarning individual badiiy konsepsiyalari turlicha namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Kingshawning onasi bilan munosabati uning ruhiy yolg'izligini yanada chuqurlashtiruvchi omillardan biri sifatida tasvirlanadi. Qahramon o'z kechinmalarini onasiga yetkazishga intilgan vaziyatlarda ham ular o'rtasida to'laqonli hissiy aloqa yuzaga kelmaydi. Hill bu holatni quyidagi parcha orqali aniq ifodalaydi:

She was not really listening to him, he knew that. She had that look on her face, vague and smiling, which meant she was thinking about something else, something that was nothing to do with him [9: 104].

Parchadagi "she was not really listening to him" jumlasi Kingshawning onasi tomonidan yetarlicha tinglanmayotganini, "something that was nothing to do with him" iborasi esa ular o'rtasidagi hissiy uzoqlikni ochib beradi. Onasi yonida bo'lishiga qaramay, Kingshaw o'z tashvishlari bilan yolg'iz qoladi va bu uning himoyasizlik hissini kuchaytiradi. Hoshimjon esa onasi bilan bahslashadi, tanbeh eshitadi, biroq ular o'rtasidagi muloqot uzilmaydi. Ikki ona–bola munosabatidagi asosiy farq ham shunda: Hoshimjon oilaviy aloqalar doirasida qoladi, Kingshaw esa eng yaqin kishisi bilan ham ruhiy yaqinlikka erisha olmaydi.

Asarlardagi axloqiy mazmun ham qahramonlarning boshidan kechirgan voqealari orqali turlicha ochiladi. To'xtaboyev Hoshimjonning xatolari va sarguzashtlari vositasida do'stlik, o'zaro yordam, kattalarga hurmat va mas'uliyat kabi qadriyatlarni yoritadi [12: 53]. Hill esa Hooperning zo'ravonligi, Kingshawning himoyasizligi va kattalarning befarqligi oqibatlarini ko'rsatishga urg'u beradi. To'xtaboyevda sinovlar Hoshimjonning tajriba orttirishi va o'sishiga olib kelsa, Hillda davomli ruhiy bosim Kingshawning imkoniyatlarini tobora cheklab, voqealarni fojiaviy yakunga olib boradi [9: 67]. Bu qarama-qarshilik ikki adibning bolalik, ruhiy kamolot va konflikt yechimiga doir badiiy qarashlaridagi muhim tipologik farqni yuzaga chiqaradi.

Tadqiqot natijalari milliy mentalitet bolalar adabiyotida badiiy makon, qahramon modeli, axloqiy ideal va umumiy estetik yo'nalishga ta'sir etuvchi muhim omil ekanini ko'rsatdi. To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarida jamoaviylik, o'zaro yordam, optimizm va axloqiy adolat Hoshimjonning sarguzashtlari hamda uning atrofdagilar bilan munosabatlari orqali ifodalanadi. Hillning "I'm the King of the Castle" romanida esa yolg'izlik, individual kurash, ruhiy bosim va umidsizlik Kingshaw obrazining ichki kechinmalari va fojiaviy taqdiri orqali namoyon bo'ladi.

Ikki asardagi aniq epizodlar, makon tasvirlari va qahramonlararo munosabatlarning qiyosiy tahlili milliy-madaniy xususiyatlar asarning umumiy mazmunidagina emas, balki alohida badiiy detallar va psixologik tasvirlarda ham aks etishini ko'rsatdi. To'xtaboyevda qahramonning ruhiy o'sishi ko'proq ijtimoiy muhit va jamoa bilan aloqada kechsa, Hillda Kingshawning atrofidagilardan tobora uzoqlashishi uning psixologik izolyatsiyasini kuchaytiradi.

Ushbu tipologik farqlar mualliflarning individual badiiy uslubi bilan bir qatorda, ular mansub bo'lgan adabiy an'analar va milliy-madaniy qadriyatlar bilan ham bog'liq. Mazkur qiyosiy yondashuv ingliz va o'zbek bolalar adabiyotida milliy mentalitet hamda badiiy estetika o'rtasidagi munosabatlarni yanada chuqurroq o'rganishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov B. O'zbek bolalar adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2008.
2. Bettelheim B. The uses of enchantment: The meaning and importance of fairy tales. – New York: Vintage Books, 1976.
3. Avloyorova G. O'zbek va ingliz bolalar adabiyotida mistik obrazlarning ma'naviy-tarbiyaviy talqini (Xudoyberdi To'xtaboyev va Susan Hill asarlari qiyosida) // O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2025, №5. – B. 265–267.
4. Zipes J. Fairy tales and the art of subversion. – New York: Routledge, 1983.
5. Nikolajeva M. Children's literature comes of age. – New York: Garland Publishing, 1996.
6. Hunt P. Understanding children's literature. – London: Routledge, 2001.
7. Yo'ldoshev Q. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
8. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
9. Hill S. I'm the King of the Castle. – London: Penguin Books, 1970.
10. Todorov T. The fantastic: A structural approach to a literary genre. – New York: Cornell University Press, 1975.
11. Propp V. Morphology of the folktale. – Austin: University of Texas Press, 1968.
12. To'xtaboyev X. Sariq devni minib. – Toshkent: Yosh gvardiya nashriyoti, 1980.
13. Children's literature // Encyclopaedia Britannica. https://www.britannica.com/art/childrens-literature.
14. Susan Hill // Encyclopaedia Britannica. https://www.britannica.com/biography/Susan-Hill.
15. Tzvetan Todorov // Encyclopaedia Britannica. https://www.britannica.com/biography/Tzvetan-Todorov.
16. Google Scholar. https://scholar.google.com.
17. ResearchGate. https://www.researchgate.net.

Nilufar KO'CHIMOVA

BMT NUTQLARIDA "TINCHLIK" KONSEPTINING LINGVOPRAGMATIK REPREZENTATSIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasidagi siyosiy nutqlarda "tinchlik" konseptining lingvopragmatik reprezentatsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda tinchlik tushunchasining siyosiy-diplomatik diskursda qanday leksik, semantik, pragmatik va stilistik vositalar orqali ifodalanishi o'rganiladi. Xususan, "peace", "security", "solidarity", "cooperation", "dialogue", "conflict prevention", "shared responsibility" kabi birliklarning mazmuniy va kommunikativ funksiyalariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: BMT, tinchlik konsepti, siyosiy diskurs, lingvopragmatika, konseptual reprezentatsiya, diplomatik diskurs, kommunikativ strategiya, pragmatik ta'sir, antiteza, modal birliklar.

Annotation. This article examines the linguopragmatic representation of the concept of "peace" in political speeches produced within the discourse of the United Nations. The study focuses on the lexical, semantic, pragmatic, and stylistic means through which "peace" is conceptualized and communicated in political and diplomatic discourse. Particular attention is paid to the communicative functions of such lexical units as "peace", "security", "solidarity", "cooperation", "dialogue", "conflict prevention", and "shared responsibility".

Keywords: United Nations, concept of peace, political discourse, linguopragmatics, conceptual representation, diplomatic discourse, communicative strategy, pragmatic influence, antithesis, modality.

Аннотация. В статье рассматривается лингвопрагматическая репрезентация концепта «мир» в политических речах, функционирующих в дискурсивном пространстве Организации Объединённых Наций. Анализируются лексические, семантические, прагматические и стилистические средства, посредством которых концепт мира формируется и актуализируется в политико-дипломатической коммуникации. Особое внимание уделяется содержательным и коммуникативным функциям таких английских лексических единиц, как "peace", "security", "solidarity", "cooperation", "dialogue", "conflict prevention", "shared responsibility".

Ключевые слова: ООН, концепт мира, политический дискурс, лингвопрагматика, концептуальная репрезентация, дипломатический дискурс, коммуникативная стратегия, прагматическое воздействие, антитеза, модальность.

Tinchlik insoniyat taraqqiyotining eng muhim ijtimoiy-siyosiy qadriyatlaridan biri bo'lib, xalqaro munosabatlar tizimida barqarorlik, xavfsizlik va hamkorlikning asosiy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy siyosiy kommunikatsiyada "tinchlik" tushunchasi faqat urushning yo'qligini anglatmaydi, balki davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, muloqot, murosa, xavfsizlik, inson huquqlariga hurmat va barqaror rivojlanish kabi mazmuniy komponentlarni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli mazkur konsept xalqaro siyosiy diskursda nafaqat semantik, balki kuchli pragmatik va kommunikativ yuklamaga ega bo'lgan birlik sifatida shakllanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatining asosiy maqsadlaridan biri xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash hisoblanadi. Shu bois BMT doirasida e'lon qilinadigan siyosiy nutqlar, murojaatlar, bayonotlar va rasmiy chiqishlarda "tinchlik" konsepti alohida o'rin egallaydi. BMT Bosh kotibi António Guterres 2024-yilda Bosh Assambleyada qilgan chiqishida **"Wars destroy. Peace builds"**, ya'ni **"Urush vayron qiladi. Tinchlik bunyod etadi"**, deya ta'kidlagan. Mazkur qisqa antitezaviy konstruktsiya tinchlik konseptining BMT siyosiy diskursidagi pragmatik mohiyatini aniq ifodalaydi. Unda urush destruktiv, tinchlik esa konstruktiv hodisa sifatida qarama-qarshi semantik maydonlarda joylashtiriladi. Natijada "tinchlik" tushunchasi oddiy siyosiy holat emas, balki taraqqiyot, bunyodkorlik va umumiy kelajakni ta'minlovchi qadriyat sifatida konseptuallashtiriladi.

"Tinchlik" konseptining siyosiy nutqdagi lingvopragmatik reprezentatsiyasini tadqiq etish konseptning kognitiv tuzilishi, siyosiy diskursning institutsional tabiati hamda til birliklarining muayyan kommunikativ vaziyatdagi pragmatik funksiyalarini o'zaro bog'liq holda o'rganishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, George Lakoff va Mark Johnson, Teun A. van Dijk, Paul Chilton, Jef Verschueren hamda Ruth Wodakning ilmiy qarashlari mazkur tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kognitiv tilshunoslikda konsept va uning til orqali namoyon bo'lishini tushuntirishda **George Lakoff va Mark Johnson** tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi alohida o'rin tutadi. Olimlar *Metaphors We Live By* asarida metaforani faqat badiiy bezak vositasi sifatida emas, balki inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida talqin qiladilar. Ularning mashhur fikriga ko'ra, **"Our ordinary conceptual system [...] is fundamentally metaphorical in nature"** [1], ya'ni inson fikrlashi va faoliyatini tashkil etuvchi odatiy konseptual tizim mohiyatan metaforik xususiyatga ega. Lakoff va Johnsonning yana bir muhim ta'rifi – **"The essence of metaphor is understanding and experiencing one kind of thing in terms of another"** [1] – bir hodisani boshqa bir hodisa orqali anglash mexanizmini ko'rsatadi.

Mazkur nazariya "tinchlik" konseptini tahlil qilish uchun muhimdir. Chunki siyosiy nutqda tinchlik ko'pincha abstrakt holat sifatida emas, balki **quriladigan narsa, erishiladigan maqsad, bosib o'tiladigan yo'l, himoya qilinadigan qadriyat yoki kelajak poydevori** sifatida tasvirlanadi. Masalan, *build peace, path to peace, foundation for peace, protect peace, invest in peace* kabi birliklarda "tinchlik" turli konseptual modellar vositasida idrok etiladi. Demak, BMT nutqlaridagi metaforik reprezentatsiyalarni aniqlash "tinchlik" konseptining qanday kognitiv obrazlarda shakllantirilishi va mazkur obrazlar auditoriyaga qanday pragmatik ta'sir ko'rsatishini ochib berishga imkon beradi.

Siyosiy diskursni ijtimoiy va kognitiv kontekst bilan bog'liq holda o'rgangan yetakchi olimlardan biri **Teun A. van Dijk** hisoblanadi. Uning *What is Political Discourse Analysis?* tadqiqotida siyosiy diskurs siyosiy aktorlar, institutlar, jarayonlar va kommunikativ vaziyatlar bilan uzviy aloqada tahlil qilinadi [2]. Van Dijkning yondashuvida siyosiy nutq shunchaki siyosat haqida gapirish emas, balki siyosiy faoliyatning amalga oshirilish shakllaridan biridir. Olim diskurs va jamoatchilik ongining o'zaro aloqasiga e'tibor qaratib: **"Who controls public discourse, at least partly controls the public mind"** [2] deb ta'kidlaydi.

Van Dijkning mazkur qarashi "tinchlik" konseptini siyosiy nutqda o'rganishda muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki siyosiy subyekt tinchlikni qanday nomlashi, uni qaysi tushunchalar bilan bir semantik maydonga joylashtirishi va qaysi hodisalarga qarama-qarshi qo'yishi auditoriyaning tinchlik haqidagi tasavvuriga ta'sir ko'rsatishi mumkin. *Peace–war, peace–violence, peace–conflict* oppozitsiyalari bilan bir qatorda *peace–security, peace–justice, peace–development,*

peace–human rights kabi assotsiativ munosabatlar tinchlik konseptining siyosiy-kognitiv doirasini kengaytiradi. Shu ma'noda "tinchlik" ning BMT nutqlaridagi reprezentatsiyasini o'rganishda faqat alohida so'z chastotasini emas, balki uning diskursiv konteksti, semantik sheriklari va kommunikativ vazifasini ham hisobga olish zarur.

Siyosiy diskursni tarixiy va institutsional kontekst asosida tadqiq etgan **Ruth Wodak**ning ilmiy qarashlari ham mazkur mavzu uchun alohida ahamiyatga ega. Wodak siyosiy tilni hokimiyat, institut, tarixiy vaziyat va ijtimoiy aktorlar bilan bog'liq holda o'rganishni taklif qiladi. Uning qarashlarida nutqdagi nominatsiya, predikatsiya, argumentatsiya, perspektivlashtirish hamda intensifikatsiya yoki yumshatish kabi strategiyalar muhim o'rin tutadi. Til va hokimiyat munosabati haqida Wodak **"Language is not powerful on its own; it gains power by the use powerful people make of it"** [5] deb ta'kidlaydi. Mazkur fikr tilning pragmatik kuchi uni kim, qanday institutsional maqomda va qanday kommunikativ sharoitda qo'llayotganiga bog'liqligini ko'rsatadi.

BMT siyosiy diskursida "tinchlik" konsepti birgina *peace* leksemasining lug'aviy ma'nosi bilan chegaralanmaydi. U turli sifatlovchilar, koordinativ birikmalar, metaforik konstruksiyalar va harakatni ifodalovchi fe'llar bilan birikib, turli kommunikativ vaziyatlarda yangi pragmatik mazmun kasb etadi. Tadqiqot doirasida *peace, lasting peace, just peace, peace and security, path to peace* hamda *build peace* birliklarining real BMT nutqlaridagi qo'llanishi konseptual model, lingvistik ifoda va pragmatik funksiya o'rtasidagi munosabat asosida tahlil qilindi.

"Peace" – tinchlikning oliy qadriyat sifatida konseptuallashuvi

BMT Bosh kotibi António Guterres 2020-yil 9-yanvarda Xavfsizlik Kengashidagi chiqishida: **"Peace is our most precious value and the essence of our work"**, ya'ni "Tinchlik bizning eng qimmatli qadriyatimiz va faoliyatimizning mohiyatidir", deya ta'kidlaydi [6].

Mazkur nutqiy fragmentda *peace* konsepti **tinchlik – qadriyat** va **tinchlik – faoliyat mohiyati** konseptual modellari orqali ifodalangan. *Most precious* orttirma darajadagi sifat birikmasi tinchlikni boshqa ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar orasida yuqori aksiologik pog'onaga olib chiqadi. *Our* egalik olmoshi esa mazkur qadriyatni faqat so'zlovchining shaxsiy qarashi emas, balki kollektiv subyektga tegishli umumiy qadriyat sifatida taqdim etadi.

Pragmatik jihatdan bu konstruktsiya tinchlikni **aksiologik legitimlashtirish** vazifasini bajaradi. Auditoriyaga "tinchlik foydali" degan oddiy xabar yetkazilmaydi, balki u BMT faoliyatining asosiy mohiyati sifatida baholanadi. Natijada tinchlikka qaratilgan keyingi siyosiy chaqiriqlar uchun avvaldan ijobiy pragmatik zamin yaratiladi. Shu nutqdagi *"peace depends on us"* mazmuni esa tinchlik konseptiga inson agentligini qo'shib, uni tashqi sharoit sifatida emas, kollektiv harakat natijasi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

"Lasting peace" – tinchlikning davomiy jarayon sifatidagi reprezentatsiyasi

2021-yil 16-noyabrda preventiv diplomatiyaga bag'ishlangan Xavfsizlik Kengashi yig'ilishida Guterres **"Lasting and sustainable peace calls for consistent work"**, ya'ni "Uzoq muddatli va barqaror tinchlik izchil faoliyatni talab qiladi", deb ta'kidlaydi [7].

Bu yerda *peace* leksemasining mazmuni *lasting* va *sustainable* sifatlari yordamida kengaytirilmoqda. *Lasting* vaqt nuqtai nazaridan davomiylikni, *sustainable* esa erishilgan holatni kelgusida saqlab turish imkoniyatini anglatadi. Shu sababli **tinchlik – uzoq muddat davom etadigan jarayon** konseptual modeli yuzaga keladi. Tinchlik bir martalik siyosiy kelishuv yoki qurolli to'qnashuvning vaqtincha to'xtashi sifatida emas, doimiy sa'y-harakatni talab qiladigan holat sifatida talqin qilinadi.

Calls for konstruktsiyasi ham pragmatik jihatdan e'tiborga loyiq. So'zlovchi *must* shaklidagi to'g'ridan-to'g'ri majburiyatni qo'llamasdan, izchil faoliyatni zarurat sifatida ko'rsatadi. Bu diplomatik diskursga xos **bilvosita direktivlik**ni yuzaga keltiradi. Adresatga buyruq berilmaydi, biroq "barqaror tinchlikni xohlasangiz, uzluksiz harakat zarur" degan sabab-oqibat munosabati shakllantiriladi. Natijada siyosiy da'vat argumentativ asos bilan yumshatilgan holda taqdim etiladi.

Shunday qilib, *lasting peace* birikmasida *lasting* sifatlovchisi oddiy aniqlovchi vazifasidan tashqariga chiqib, "tinchlik" konseptining temporal va pragmatik parametrlarini belgilaydi.

"Just peace" – tinchlikning normativ-huquqiy modeli

"Tinchlik" konseptining yana bir muhim reprezentatsiyasi *just peace* birikmasida namoyon bo'ladi. António Guterres 2024-yil 23-fevralda Ukraina masalasiga bag'ishlangan Xavfsizlik Kengashi yig'ilishida **"a just peace, based on the United Nations Charter, international law and General Assembly resolutions"** deb ta'kidlagan [8].

Mazkur misolda *just* sifatining qo'llanishi tinchlik tushunchasining mazmunini sezilarli darajada o'zgartiradi. Tinchlik shunchaki urush yoki qurolli harakatlarning to'xtashi sifatida emas, **adolat, xalqaro huquq va institutsional normalarga muvofiq siyosiy holat** sifatida konseptuallashtiriladi. Buni **tinchlik – adolatga asoslangan normativ tartib** modeli sifatida ifodalash mumkin.

Lingvistik jihatdan *just* baholovchi sifat vazifasini bajaradi, *based on* konstruktsiyasi esa uning legitimlik manbalarini ko'rsatadi. *United Nations Charter, international law, General Assembly resolutions* birliklarining ketma-ket sanab o'tilishi siyosiy fikrning institutsional asosini kuchaytiradi.

Pragmatik jihatdan *just peace* ikki tomonlama vazifani bajaradi. Birinchidan, ma'lum shartlarga javob beradigan tinchlik siyosiy jihatdan legitimlashtiriladi. Ikkinchidan, mazkur normativ mezonlardan tashqarida taklif qilinayotgan boshqa "tinchlik" modellariga nisbatan bilvosita chegaralovchi pozitsiya yuzaga keladi. Shunday qilib, sifatlovchi birlik konseptning nafaqat semantikasini, balki uning siyosiy maqbullik mezonlarini ham belgilaydi.

"Peace and security" – o'zaro bog'liq institutsional konseptlar

BMT diskursida *peace* ko'pincha *security* leksemasi bilan koordinativ birikma hosil qiladi. Guterres 2024-yil 8-fevraldagi matbuot anjumanida **"On issues of peace and security – we face rising conflict and geopolitical divisions"** deya qayd etgan [9].

Peace and security birikmasida ikki mustaqil tushuncha *and* koordinatori orqali yagona siyosiy-konseptual maydonga birlashtiriladi. Bunda **tinchlik ↔ xavfsizlik** o'zaro shartlangan munosabat sifatida namoyon bo'ladi. Tinchlik xavfsizliksiz, xavfsizlik esa tinchlikdan ajralgan holda to'liq amalga oshmaydigan hodisa sifatida freymlanadi.

Mazkur fragmentdagi *rising conflict and geopolitical divisions* birliklari esa *peace and security* konseptual juftligining salbiy qutbini shakllantiradi. Natijada ikki oppozitiv maydon yuzaga keladi:

peace + security ↔ conflict + geopolitical divisions

Lingvopragmatik jihatdan bu qarama-qarshilik auditoriyaning siyosiy vaziyatni ikki asosiy holat orqali idrok etishiga xizmat qiladi. *Peace and security* maqbul va maqsadli holatni, *conflict and geopolitical divisions* esa undan uzoqlashishni bildiradi. Shu orqali tinchlikning semantik tarkibiga xavfsizlik komponenti ham kiritiladi.

Bundan tashqari, *peace and security* birikmasining BMT institutsional diskursida muntazam birgalikda qo'llanishi tinchlikni individual yoki mavhum axloqiy istakdan xalqaro siyosiy boshqaruv kategoriyasiga aylantiradi. Uning pragmatik funksiyasi tinchlik va xavfsizlikni davlatlarning alohida manfaatlari emas, umumiy xalqaro mas'uliyat doirasidagi o'zaro bog'liq maqsadlar sifatida taqdim etishdan iborat.

"Path to peace" – tinchlikning manzil sifatidagi metaforik modeli

"Tinchlik" konseptining kuchli metaforik reprezentatsiyalaridan biri *path to peace* konstruktsiyasida namoyon bo'ladi. Guterres 2022-yil 22-avgustda Xavfsizlik Kengashida: **"the path to peace is forged by dialogue and cooperation"**, ya'ni "tinchlikka olib boradigan yo'l muloqot va hamkorlik orqali yaratiladi", deb ta'kidlagan [10].

Mazkur jumlada konseptual metafora ikki pog'onada yuzaga chiqadi. *Path to peace* konstruktsiyasi **tinchlik – manzil**, unga erishish esa **siyosiy jarayon – yo'l** modelini hosil qiladi. *Forged* fe'li mazkur yo'lning o'z-o'zidan mavjud emasligi, balki faol harakat orqali yaratilishini ifodalaydi. Shu tariqa tinchlik passiv kutiladigan hodisadan faol ravishda erishiladigan maqsadga aylanadi.

By dialogue and cooperation vositali konstruktsiyasi esa mazkur yo'lni yaratishning legitim vositalarini aniq ko'rsatadi. Bu yerda *dialogue* va *cooperation* tasodifiy hamroh birliklar emas. Ular tinchlikka olib boradigan yo'lning asosiy instrumentlari sifatida konseptualizatsiya qilinmoqda.

Pragmatik nuqtai nazardan bunday metaforik ramkalash auditoriyaga siyosiy tanlovni taklif qiladi. Agar tinchlik maqsad bo'lsa, unga eltuvchi yo'l sifatida muloqot va hamkorlik tanlanishi kerak. Natijada zo'ravonlik, siyosiy yakkalanish yoki qarama-qarshilik kuchayishi bilvosita ravishda "tinchlikka olib bormaydigan yo'l" sifatida freymdan tashqariga chiqariladi.

Bu jihatdan *path to peace* metaforasi faqat nutqning obrazliligini oshirmaydi, balki **siyosiy xatti-harakat yo'nalishini legitimlashtiruvchi pragmatik vosita** vazifasini bajaradi.

"Build peace" – tinchlikning bunyod etiladigan ijtimoiy tuzilma sifatidagi modeli

BMT siyosiy diskursida tinchlik ko'pincha *build* fe'li bilan ham ifodalanadi. BMTning sobiq Bosh kotibi Ban Ki-moon 2010-yilda tinchlikparvarlik masalasiga bag'ishlangan Xavfsizlik Kengashi yig'ilishida **"First, we build peace in the hearts and minds of people"** [11] deb ta'kidlagan.

Build peace konstruktsiyasi **tinchlik – bunyod etiladigan tuzilma** konseptual metaforasini hosil qiladi. Odatda *build* fe'li bino, ko'prik yoki boshqa moddiy obyektlarni yaratish bilan bog'liq. Uning *peace* kabi abstrakt tushuncha bilan birikishi tinchlikni tayyor holat emas, bosqichma-bosqich quriladigan ijtimoiy natija sifatida konseptuallashtiradi.

Biroq mazkur misolning alohida xususiyati *in the hearts and minds of people* lokativ-metaforik konstruktsiyasida namoyon bo'ladi. Tinchlikning "qurilish maydoni" davlat chegarasi yoki siyosiy institut emas, insonlarning "qalbi va ongi" sifatida tasvirlangan. Shu orqali **tinchlik – ijtimoiy-psixologik holat** modeli ham shakllanadi. Ya'ni siyosiy bitimning mavjudligi o'z-o'zidan barqaror tinchlikni ta'minlamaydi; u kishilarning qarashlari, ishonchi, adolat hissi va kelajakka munosabatida ham mustahkamlanishi kerak.

We build konstruktsiyasidagi *we* olmoshi kollektiv agentlikni ifodalaydi. Bunda tinchlikni yaratish uchun mas'ul subyekt yagona siyosiy rahbar emas, kengroq "biz" sifatida belgilanadi. Pragmatik jihatdan bunday konstruktsiya **kollektiv mas'uliyatni shakllantirish va mobilizatsiya qilish** funksiyasini bajaradi.

Tahlil qilingan birliklarning o'zaro munosabatini quyidagi shaklda umumlashtirish mumkin:

Diskursiv birlik	Konseptual reprezentatsiya	Asosiy lingvistik vosita	Pragmatik funksiya
peace	tinchlik – qadriyat / faoliyat mohiyati	most precious value, our	tinchlikni aksiologik legitimlashtirish, kollektiv identifikatsiya
lasting peace	tinchlik – davomiy jarayon	lasting, sustainable, calls for	uzoq muddatli siyosiy faoliyat zaruratini asoslash
just peace	tinchlik – adolatli normativ tartib	just, based on, huquqiy birliklar	maqbul tinchlik modelini legitimlashtirish
peace and security	tinchlik ↔ xavfsizlik	koordinativ and, oppozitiv kontekst	ikki tushunchani yagona xalqaro maqsad sifatida freymlash
path to peace	tinchlik – manzil; siyosiy jarayon – yo'l	path, forged, by dialogue and cooperation	muloqot va hamkorlikni legitim siyosiy yo'l sifatida ko'rsatish
build peace	tinchlik – bunyod etiladigan tuzilma	build, we, lokativ metafora	kollektiv mas'uliyat va faol harakatga undash

O'tkazilgan tahlil asosida "tinchlik" konseptining BMT siyosiy diskursida **statik emas, dinamik xususiyatga ega** ekanligi kuzatildi. *Peace* uning asosiy konseptual yadrosini tashkil etsa, unga qo'shilgan sifatlovchi va boshqa birliklar konseptning alohida jihatlarini aktuallashtiradi. *Lasting* tinchlikning vaqt va barqarorlik komponentini, *just* uning axloqiy-huquqiy mezonini, *security* xavfsizlik bilan funksional bog'liqligini yuzaga chiqaradi. *Path* va *build* kabi metaforik birliklar esa tinchlikni holatdan faol siyosiy jarayonga aylantiradi.

Shuningdek, misollar tinchlik konseptining BMT nutqlarida ko'pincha **agentlik va mas'uliyat kategoriyasi bilan birga shakllanishini** ko'rsatadi. *Our, us, we build*, shuningdek, *dialogue and cooperation* kabi birliklar tinchlikni tashqi kuch tomonidan taqdim etiladigan natija sifatida emas, siyosiy aktorlarning birgalikdagi faoliyati bilan bog'laydi. Bunday reprezentatsiyaning pragmatik maqsadi auditoriyani muammoning kuzatuvchisi maqomidan chiqarib, uning yechimida ishtirok etuvchi subyekt sifatida pozitsiyalashdan iborat.

Tahlildan yana bir muhim natija shuki, BMT diskursida "tinchlik" ning ijobiy bahosi deyarli o'z-o'zidan qabul qilinadigan umumiy qadriyat sifatida taqdim etilsa-da, **qanday tinchlik?**, **qanday yo'l bilan?** va **qanday shartlarda?** degan savollarga lingvistik aniqlovchilar orqali javob beriladi. *Just peace* uning normativ chegarasini, *lasting peace* vaqt parametrini, *peace and security* institutsional doirasini, *path to peace* amalga oshirish mexanizmini, *build peace* esa tinchlikni yaratishga qaratilgan faoliyat modelini belgilaydi.

Olib borilgan tahlil BMT siyosiy nutqlarida "tinchlik" konsepti ko'p qatlamli lingvopragmatik tuzilishga ega ekanini ko'rsatdi. Mazkur konsept nutqda faqat urushning yo'qligini anglatuvchi siyosiy holat sifatida emas, balki adolat, xavfsizlik, barqarorlik, muloqot, hamkorlik va kollektiv mas'uliyat bilan uzviy bog'langan kompleks diskursiv kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan "tinchlik" BMT siyosiy diskursining asosiy aksiologik va kommunikativ tayanchlaridan biri sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
2. van Dijk T.A. What is Political Discourse Analysis? // Belgian Journal of Linguistics, 1997. Vol. 11. – P. 11–52. 10.1075/bjl.11.03dij.
3. Chilton P. Analysing Political Discourse: Theory and Practice. – London; New York: Routledge, 2004.
4. Verschueren J. Understanding Pragmatics. – London: Arnold; New York: Oxford University Press, 1999.
5. Wodak R. The Discourse of Politics in Action: Politics as Usual. – 2nd revised ed. – Palgrave Macmillan, 2011.
6. Guterres A. Remarks at the Security Council Open Debate on "Upholding the United Nations Charter to Maintain International Peace and Security". – New York: United Nations, 9 January 2020. – SG/SM/19934.
7. Guterres A. Remarks to the Security Council on the Maintenance of International Peace and Security through Preventive Diplomacy. – New York: United Nations, 16 November 2021.
8. Guterres A. Remarks to the Security Council on Ukraine. – New York: United Nations, 23 February 2024. – SG/SM/22136.
9. Guterres A. Press Conference at United Nations Headquarters. – New York: United Nations, 8 February 2024. – SG/SM/22130.
10. Guterres A. Remarks at the Security Council Meeting on "Maintenance of International Peace and Security: Promoting Common Security through Dialogue and Cooperation". – New York: United Nations, 22 August 2022. – SG/SM/21421.
11. Ban Ki-moon. Remarks to the Security Council Debate on Post-Conflict Peacebuilding. – New York: United Nations, 2010.

Diyora ABDUJALILOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

ODOB-AXLOQ MASALASI ALISHER NAVOIY VA YAHYOBEY TOSHLIJOLI TALQINIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" hamda Yahyobey Toshlijaliyning "Gulshan ul-anvor" dostonlarida odob-axloq va diniy-didaktik qarashlarning badiiy talqini qiyosiy jihatdan tahlil etilgan. Har ikki dostonda insonning ma'naviy kamoloti, iymon-e'tiqod, odob, hayo, adolat, rostgo'ylik, qanoat va ezgu xulq kabi axloqiy qadriyatlarning ifodalanish xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, asarlardagi nazariy fikr va hikoyatlarning o'zaro munosabati, hikoyatlarning axloqiy g'oyani yoritish va dalillashdagi vazifasi tahlil qilingan. "Hayrat ul-abror"da axloqiy masalalarning maqolat va unga ilova qilingan hikoyatlar orqali tizimli ravishda bayon etilishi, "Gulshan ul-anvor"da esa nazariy muammo, hikoyat, tamsil va tanbehlarning o'zaro uyg'unligi asosiy farqli jihat sifatida ko'rsatilgan. Ikki dostondagi No'shiravon va shoh obrazlari bilan bog'liq hikoyatlar qiyosi orqali hukmdor axloqi, adolat va shaxsiy namunaning jamiyat ma'naviy hayotiga ta'siri masalalari yoritilgan.
Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Yahyobey Toshlijali, "Hayrat ul-abror", "Gulshan ul-anvor", odob-axloq, diniy didaktika, iymon, hayo, adolat, axloqiy tarbiya, maqolat, hikoyat, tamsil, tanbeh, komil inson.
Annotation. This article provides a comparative analysis of the artistic interpretation of moral and religious-didactic ideas in Alisher Navoi's "Hayrat ul-abror" and Yahyobey Taşlıcalı's "Gulshan ul-anvor". The study examines the representation of such moral and spiritual values as faith, morality, modesty, justice, honesty, contentment, and virtuous conduct, which are central to the spiritual perfection of the individual in both epics. Particular attention is paid to the relationship between theoretical ideas and narrative episodes and to the role of the stories in illustrating and substantiating the moral concepts expressed in the works. The article identifies the systematic presentation of ethical issues through maqolat (discourses) followed by corresponding hikoyat (stories) in "Hayrat ul-abror", while in "Gulshan ul-anvor", theoretical problems are complemented by stories, tamsil (parables), and admonitions. A comparison of the narratives concerning Anushirvan and other rulers reveals the shared emphasis on the moral qualities of rulers, justice, and the influence of personal example on the moral and social life of society.
Keywords: Alisher Navoi, Yahyobey Taşlıcalı, "Hayrat ul-abror", "Gulshan ul-anvor", morality, religious didactics, faith, modesty, justice, moral education, maqolat, hikoyat, tamsil, admonition, the ideal human being.
Аннотация. В статье в сравнительном аспекте анализируется художественное истолкование нравственных и религиозно-дидактических взглядов в поэмах «Хайрат ул-абрар» Алишера Навои и «Гулшан ул-анвор» Яхьябея Ташлиджали. В обеих поэмах раскрыты особенности выражения таких этических ценностей, как духовное совершенство человека, вера, нравственность, скромность, справедливость, честность, умеренность и добродетельный характер. Также исследуются взаимосвязь между теоретическими идеями и назидательными притчами в произведениях, а также роль последних в раскрытии и обосновании моральных идей. В качестве основного отличительного признака отмечено, что в «Хайрат ул-абрар» этические вопросы излагаются системно посредством мақолатов (глав-рассуждений) и приложенных к ним хикоятов (рассказов), тогда как в «Гулшан ул-анвор» наблюдается гармоничное сочетание теоретической проблемы, притчи, иносказания (tamsil) и наставлений (tanbeh). На примере сопоставления сюжетов, связанных с образами Нуширвана и других правителей, освещаются вопросы правительской морали, справедливости и влияния личного примера на духовную жизнь общества.
Ключевые слова: Алишер Навои, Яхьябей Ташлиджали, «Хайрат ул-абрар», «Гулшан ул-анвор», нравственность, религиозная дидактика, вера, скромность, справедливость, нравственное воспитание, мақолат, хикоят, тамсил, танбех, совершенный человек.

Ma'lumki, Sharq mutafakkirlari didaktik asarlarining asosini Qur'oni karim oyatlari, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) faoliyati va ko'rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatlar tashkil qiladi. Islom olimlari xalq va xulq so'zini shunday farqlashgan: "Xalq – insonning tashqi qiyofasi, xulq esa ichki dunyosidir". Musulmon kishi xulqini go'zal qilishga harakat qilmog'i lozim edi. So'z ohang va go'zalligi bilan qalbga oson yetib borib, ichki olamni poklaydigan g'oyalarni yetkazishda samarali xizmat qilgan.

Musulmon Sharqi adabiyotida, so'z san'ati eng avval insonlarni odob-axloqqa, tarbiya va komillikka da'vat uchun vosita o'laroq xizmat qilishi lozim edi. Shu bois odob-axloq, insonning bir musulmon sifatida jamiyat va oiladagi harakatlarini tartibga soladigan qoidalar she'riy yo'lda bayon qilindi. "Xamsa"ning ilk dostonlarining ayni shu yo'nalishda yozilishi majburiy bo'lgani ham bu qarashni tasdiqlaydi.

Shu ma'noda Nizomiyning "Maxzan ul-asror" va unga tatabbu' tarzida yozilgan forsiy asarlar, Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" va Yahyobey Toshlijalining "Gulshan ul-anvor" dostonlari, shuningdek, turkiy adabiyotdagi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" dostonlari singari she'riy didaktik asarlar sirasiga mansubdir. "Inson axloqi haqidagi ulug' shoirlarning qarashlari ularning umumiy falsafiy-so'fiyona fikrlaridan hosil bo'lgan. Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy va Navoiy inson axloqiga o'rta asr kishisi nuqtai nazaridan, o'zlarigacha jamlangan ilm-u hikmat asosida, so'fiyona ma'nolar talabi bilan munosabatda bo'lganlar" [9].

"Hayrat ul-abror"da odob-axloq masalasi

"Hayrat ul-abror" she'riy turning masnaviy shaklida bitilgan bo'lib, dostonning asosiy qismini maqolat va hikoyatlarni o'z ichiga oluvchi 40 bob tashkil etadi. Doston xarakter va mavzu jihatdan boshdan-oyoq didaktika hamda odob-axloqqa bag'ishlangan bo'lsa-da, ayrim boblarda bu mazmun nisbatan bo'rtib turadi. Xususan, adab, karam, qanoat, vafo, rostgo'ylikka bag'ishlangan maqolatlarda ana shu holni kuzatish mumkin.

Dostondagi ilk maqolat iymon sharhiga bag'ishlanadi. Bu bejiz emas, zero, dostonning bosh g'oyasi komil inson timsolini vasf etishdir, komillikning bosh belgisi esa iymondir:

Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki, nishoni anga iymon erur [1].

Iymon o'z navbatida go'zal xulq va odobga yo'l ochadi. Alisher Navoiyga ko'ra, kimda iymonning uch belgisi, ya'ni *sabr*, *shukr* va *hayo* bo'lsa, u haqiqiy insondir:

Bas, ani inson atag'il beriyo
Kim, ishidur sabr ila shukr-u hayo [1].

Navoiy dostonning oltinchi maqolatida odob va kamtarlikni ulug'lab, ta'lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr-mulohazalarini

bayon qilish bilan birga, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi. Kishilarga ularning nasabidan sharaf kelmaydi. Lekin hayo va odob kishini yuksaklarga olib chiqadi:

Elga sharaf bo'lmadi joh-u nasab,
Lek sharaf keldi hayo-vu adab [1].

Shoir ko'p kulgu odobsizlikning eng yuqori namunasi ekanligini ta'kidlar ekan, haddan ortiq ko'p kulgandan yig'lamoq afzalligi haqida gapiradi.

Tarki adabdin biri kulgu durur,
Kulgu adab tarkiga belgu durur.
Qahqahadin kabk navo kelturub,
Boshig'a ul kulgu balo kelturub [1].

Shoir dostonning bu maqolotida bola tarbiyasi, uni o'stirish, o'qitish va balog'atga yetkazish hamda bu borada ota-onalarning vazifalari haqida batafsil fikr yuritadi. Shoir yoshlarni ota-onaning xizmatini bajarishga, ularni hurmat qilishga, ularga nisbatan hamisha mehr-muhabbatli bo'lishga chaqiradi, ota-onani oy va quyosh deb ta'riflaydi:

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a...
Tun-kunungga aylagali nurposh,
Birisin oy angla, birisin quyosh... [1].

Shoir maqolatni shu mavzuga mos hikoyat bilan davom ettiradi. No'shiravoni odil haqidagi hikoyat orqali hayo va odob shoh-u gado uchun bir hisoblangan insoniy fazilat ekanligi ta'kidlangan. Ma'lumki, No'shiravon Eronning sosoniylar sulolasiga oid podsholardan bo'lib, uni No'shiravonul odil binnul Qubod deb ataganlar. U Ajamning islomgacha bo'lgan shohlari orasida eng adolatli podshoh sifatida shuhrat topgan. Poytaxti Madoyinda edi [10]. Hikoyatda No'shiravon axloq-odob va donishmandlik bobida ham beqiyos kishilardan biri sifatida ta'rif-tavsif qilinadi. Navoiy No'shiravon an'anaviy obrazining bu jihatlarini e'tibordan chetda qoldirmay, "Hayrat ul-abror" dostonida ibratli bir hikoyatni bayon etadi:

No'shiravon hali shoh bo'lib ko'tarilmagan vaqtda bir qizning ishqi bilan notavon ahvolga tushib qoldi. Ko'ngli g'uncha singari to'la qon edi, lekin g'am sirlarini pinhon tutardi. Unga visol muyassar bo'lgunga qadar cheksiz azob-uqubat va tashvishlarni boshdan kechirdi.

Bir kun u chamanzordan xilvat joyni tanlab, gulruh yori bilan suhbat qurdi. Baxtiyor shahzoda yorini quchmoqchi bo'lgan edi, gul'uzor ham bunga rozi bo'ldi. Dilbar hamdami tomon u qo'lini uzatganda, bir tup nargisga shahzodaning ko'zi tushib qoldi. Shunda ahvoli o'zgarib, u qo'lini tortib oldi. Sumanbar yori hayron bo'lib, so'radi: – Qo'lingizni uzatganingiz nimasi-yu, yana tortib olganingiz nimasi?

Adabli shoh bunga shunday javob berdi: – Shunday bir visol damida menga monelik qilgan narsa nargisning shahlo ko'zi bo'ldi. Hayo ko'zi bilan olijanoblik bu ishda unga kuch bermadi. Uning nargisdek ko'zlari yoshga to'lib, o'rnidan turdi-da, bu ishdan voz kechdi. Oxirida uning bu sof niyatliligi, shunday hayochanligining xosiyati uni butun olamga shoh qildi, adolati esa olamni panohiga oldi. Aysh, ey Navoiy, qancha dilkash bo'lsa ham, lekin adab bilan hayo undan yaxshiroqdur:

Aysh, Navoiy, necha dilkash durur,
Lek adab birla hayo xush durur [1].

"Gulshan ul-anvor" dostonida diniy didaktika

Usmonli turk shoiri Yahyobey Toshlijalining "Gulshan ul-anvor" dostonidagi maqolat va hikoyatlarda diniy didaktika ustuvorlik qiladi. Turk muallifining dostoni maqolat, hikoyat va undan keyin keluvchi tamsil hamda ba'zi o'rinlarda tanbehlardan iborat bo'lib, Toshlijali o'z hikoyatlarida yomon odatlarni qoralab, go'zal xulqlilikni yuqori nuqtaga olib chiqar ekan, muayyan voqeaning bayonidan so'ng tanbehlardan iborat baytlardan foydalanadi.

Shoir dostondagi birinchi faslni suluk bayoniga bag'ishlaydi. Mazkur fasl arabiy bayt bilan boshlanadi:

İn ṣalaha''l-kalbü bi-nūri''l-hüdā
Yetbeuhu''l-cismü yezulu''l-hevā [3].

(Mazmuni: Agar qalb hidoyat nuri bilan tuzalsa, jism unga tobe bo'ladi, havoyi hislar uni tark etadi). Bu Yahyobey Toshlijalining solih qalb haqidagi konsepti o'laroq yangraydi:

1. Solih qalb inson uchun – najotdir. Hayotda yashashdan maqsad – qalbni tuzatmoqdir.

2. Qalb tuzalishi uchun unga hidoyat nuri zarur. Agar hidoyat nuri yetmasa, qalb tuzalmaydi. Shu o'rinda Alisher Navoiyning ushbu mashhur bayti yodga tushadi:

Ashraqat min aksi shamsil ka'si anvorul hudo,
Yor aksin mayda ko'r deb jomdin chiqdi sado [11].

Ya'ni kosa quyoshining aksidan hidoyat nurlari porladi. "Yorning aksini mayda ko'r" deb jomdan sado chiqdi. Ma'lumki, kosadan murod – qalb, undagi quyosh – Haq taolo tajalliysidir. Qalbga Alloh taolo tajalliy qiladi, unda hidoyat nurlari porlaydi. Alisher Navoiy hidoyat nurlarining qayerdan kelishini zikr qilmoqda. Yahyo Toshlijali esa aynan shu hidoyat nurlari qalbni tuzatishi, uni buzuqlikdan xalos etishini ta'kidlamoqda.

3. Agar qalb tuzalmasa, inson jism talablariga ergashib yuradi. Ruh – suvoriy, jism uni manzilga yetkazuvchi ulov ekanligini hisobga olsak, otliq otga bo'ysungan holda namoyon bo'ladi. Ammo qalb tuzalsa, otliq otni itoatga keltiradi. Havo – nafsning istagidir. Qalb tuzalsa, odam havodan ham qutuladi, ya'ni nafsning haddan oshgan xohishlariga quloq tutmaydi.

Yahyo Toshlijalining quyidagi baytlari ushbu qarashlarni yanada qat'iy ifodalaydi:

Ālem-i ulvinün olan tālibi
Ehl-i ṣalāh oldı melekler gibi
Āṣi olan ādemi şeytān-ṣıfat
Ālem-i süfliye çeker maṣiyet [3].

(Mazmuni: Saloh ahli oliy olamning talabgori bo'lgan malaklar kabidirlar. Osiy odamlarnng shaytoniy sifatlari ularni sufliy, ya'ni tuban olamga olib tushadi).

Toshlijali dostonida ham No'shiravon haqida hikoyat bor. Faqat u mazmunan Navoiy dostonidan farq qiladi. Turk olimining dostonida No'shiravon bir kuni ovga chiqadi. Butun olamni suronga to'ldirib ov qilarkan, yo'llari bog' ichidan o'tadi. Bir amaldor bog'dagi daraxt shoxini sindirib, u bilan tishini tozalaydi. Buni ko'rib, shohning g'azabi keladi. "Meva beradigan shoxni ayamay sindirar ekansan, xalqqa, mamlakatga qanday qilib rahm qilishing mumkin?!" – deya uni vazifasidan ozod qiladi va jazolaydi. Biroz yurib, bir guruh yoshlar bog' va undagi ekinlarni payhon qilib, hech parvosiz kelayotganini ko'rgan shoh aslida, ayb o'zida ekanligini tushunadi. Ya'ni o'zi gunoh va zulmni odat qilgani sababli uning qo'l ostidagilar bu ishlar bilan mashg'ul bo'lishini anglaydi. Tavba qiladi

va ovdan yuz o'giradi. Saroyga qaytib, mamlakatni adolat bilan boshqara boshlaydi. Hikoyatning xulosasida Yahyobey Toshlijali shunday nasihat qiladi:

Merdi ider meşġale-i ġāfilin
Hem-dem-i nā-dān u erāzil-nişįn
Śoĥbet-i nā-cinsi murād eyleme
Terk-i fesād eyle inād eyleme
Kār-ı bed-i bā tılı ib tāl kıl
Meşġale-i mühmele ihmāl kıl
Ħalka ulaşur maraż-ı žālimįn
Olsa kaçan hem-nefes u hem-nişįn [3].

"Mard inson g'ofil bo'lmasa, qanday qilib pastkashlar bilan birga bo'lishi mumkin? Nojins suhbatidan orzu qilma, ularni tark qil. Yomon ishlar va botildan yuz o'gir. Zolimlardan yiroq tur, chunki totli suv dengizga qo'shilsa, uning totidan asar ham qolmaydi, sho'r suvga aylanib ketadi. Telbalar kabi dasht-u sahrolarni kezib yurma, balki valiylar singari xonaqohlarni makon tut. Shohboz kabi bo'lgan bu kitobni ol, ma'rifatulloh tomon yur va ov qil!".

Bu hikoyada podshoh odil bo'lsa, xalq ham xulq va amalda unga ergashadi degan g'oya ilgari suriladi. Ayni paytda, qalb jismning podshohi degan qarashga tayansak, qalbning tuzalishi inson jismi va uning ishlarini tuzalishi uchun yo'l ochadi deb xulosa qilish ham mumkin.

Bu hikoya "Hayrat ul-abror"ning 19-maqolatida keltirilgan shoh Bahrom haqidagi rivoyat bilan mazmunan mos: shoh Bahrom ovga chiqib, ov ortidan quvib bir xarob bog'ga borib qoladi. Bog' egasi shoh zulmi sababli bu gulshan qurib bitganini, uni yashnatib turgan yer osti suvi quriganini aytadi. Shunda Bahrom afsuslanib, tavba qiladi va adolatga qasd etadi, shu ondayoq yer osti suvining ko'zi ochiladi. Bog' egasi podshoh ayni damda aolatni niyat qildi deb aytadi. Hikoyatda shohning adolat haqidagi niyatining o'zi obodlikka, farovonlikka sababchidir, demak, adolat yo'lidagi ishlari undan ham katta natijalar beradi degan g'oya bo'rtib turadi [10]. Ahamiyatli jihati, shoh qanday bo'lsa, ulus ham, xalq ham, shunday bo'ladi degan haqiqat ikki hikoyatning mushtarak jihatidir.

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida axloqiy masalalar iymon ta'rifidan boshlanib, adolatli shohlar, adab, qanoat, rostgo'ylik, vafo va boshqa muhim masalalar bilan davom etadi. Ushbu masalalar maqolat nomi bilan berilib, ularning har biriga bittadan hikoyat ilova qilinadi. Toshlijali dostonida esa bir nazariy muammoga bir nechta hikoyat ilova qilingan bo'lib, ba'zan ushbu hikoyatlar tamsillar va tanbehlar bilan to'ldirib, boyitib boriladi.

Ikkala muallif ham haqiqiy insonni iymon-e'tiqodli, zavq-u safoli, mard va himmatli bo'lishga da'vat qiladi. Xususan, dunyoga nazar solmaslik, adolat va hayoni baland tutish, sadoqat va rostgo'ylik, jasorat va nasihatni qabul qilish solikning axloqiy sifati bo'lishi lozim.

Alisher Navoiy axloqqa doir fikrlarini aniq tartib va tizim asosida tadrijiy shaklda bayon qiladi, maqolatlarning hajmi, unga ilova qilingan hikoyatlar baytlari muayyan hajmdan tashqariga chiqmaydi, ya'ni "nazariya va uning isboti" formatida qarashlarini bayon qiladi. Yahyobey Toshlijali esa nazariy qismni qisqa taqdim etadi, u hikoyatlarni keltirish va ulardan so'ng kengroq sharh, nasihat va izoh keltirishni lozim topadi. Har bir hikoyat asosiy faslda ko'tarilgan muammoning muayyan qirrasini sharhlash va to'ldirish vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Xamsa: Hayrat ul-abror. Farhod va Shirin. Mukammal asarlar to'plami: 10 jildlik. 6-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2011.
2. Ayşe Sağlam. Taşlıcalı Yahya Bey ve Hamsesi: Doktora tezi. – Diyarbakır, 2016.
3. Taşlıcalı Yahyâ Bey. Gülşen-i Envâr. Karşılaştırmalı metin / hazırlayan Ayşe Sağlam. – Ankara, 2016.
4. Yusupova D. Usmonli turk adabiyoti va Alisher Navoiy "Xamsa"si // "Alisher Navoiy ijodiy merosining bashariyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi IV an'anaviy konferensiya materiallari. – Navoiy, 2021. – B. 290–294.
5. Yusupova D. "Xamsa" poetikasi: vazn, qofiya va mazmun mushtarakligi. – Toshkent: Tamaddun, 2021. – B. 37–38.
6. Yusupova D. O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri). – Toshkent: Tamaddun, 2016.
7. Erkinov S. "Xamsa" an'analari // Alisher Navoiy «Xamsa»si. Tadqiqotlar. – Toshkent: Fan, 1986. – B. 127–142.
8. Erkinov A. Alisher Navoiy ijodiga oid tadqiqotlar // Istiqlol davri o'zbek navoiyshunosligi: 30 jildlik. 19-jild. – Toshkent: Tamaddun, 2021. – B. 234.
9. Muhiddinov M. Ko'ngil hayratlari. – Toshkent: Tamaddun, 2021. – B. 111–112.
10. Qayumov A. Nodir sahifalar (Navoiyning kam o'rganilgan ba'zi asarlari to'g'risida). – Toshkent: Fan, 1991. – B. 68.
11. Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. Mukammal asarlar to'plami: 20 jildlik. 3-jild. – Toshkent: Fan, 1988. – B. 5.

Madina ABDUQODIROVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi

ADABIYOT DARSLARIDA SINF O'QUV JARAYONINI BOSHQARISH KOMPETENSIYASINING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada adabiyot o'qituvchisining umumpedagogik va psixologik bilimlarni qamrab oluvchi sinf o'quv jarayonini boshqarish kompetensiyasining mazmun mohiyati yoritilgan. Mazkur kompetensiyaning tarkibiy xususiyatlarini aniqlashda V.Doyl va J.Kunin ishlari tahlil qilinadi. Adabiyot darslarida sinfni boshqarishning ogohlik, parallel boshqaruv, qizg'inlik, tekislik, guruhni jalb qilish va mas'uliyatni shakllantirish kabi mezonlari va asosiy xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, ushbu jihatlarning adabiy ta'lim amaliy tatbiqi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot o'qituvchisi, sinf boshqarish kompetensiyasi, kompetensiya, asosiy mezonlar, adabiy ta'lim samaradorligi.

Annotation. The article highlights the essence of the classroom management competence of a literature teacher, which encompasses general pedagogical and psychological knowledge. The works of W.Doyle and J.Kounin are analyzed to determine the structural characteristics of this competence. Key criteria and features of classroom management in literature lessons – such as with-it-ness, overlapping, momentum, smoothness, group alerting, and encouraging accountability – are examined. Furthermore, the practical application of these aspects in literary education is substantiated.

Keywords: literature teacher, classroom management competence, competence, key criteria, effectiveness of literary education.

Аннотация. В статье раскрывается сущность компетенции учителя литературы по управлению учебным процессом в классе, охватывающей общепедагогические и психологические знания. При определении структурных особенностей данной компетенции анализируются труды У.Дойла и Дж.Кунина. Освещены основные характеристики и такие критерии управления классом на уроках литературы, как бдительность (with-it-ness), параллельное управление (overlapping), динамичность (momentum), плавность (smoothness), привлечение группы и формирование ответственности. Также обосновано практическое применение данных аспектов в литературном образовании.

Ключевые слова: учитель литературы, компетенция управления классом, компетенция, основные критерии, эффективность литературного образования.

Adabiyot o'qituvchisining professional kompetensiyalari tizimida asosiy kompetensiyalar bilan bir qatorda ta'lim faoliyatini tashkil etishga doir qo'shimcha layoqat turlari mavjud. Umumiy pedagogik va psixologik bilimlarni qamrab oluvchi bilim, ko'nikma va malakalar majmuyi adabiyot o'qituvchisining metaprofessional kompetensiyalari sirasiga kiradi, ulardan biri adabiyot o'qituvchisining sinf o'quv jarayonini boshqarish kompetensiyasidir. **Adabiyot o'qituvchisining sinf o'quv jarayonini boshqarish kompetensiyasi –** adabiyot darslarida turli hissiy, estetik va dunyoqarashga ega o'quvchilar faoliyatini yagona adabiy-estetik maqsad atrofida birlashtirish hamda sinfdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarni tizimli boshqarish layoqati. Mazkur kompetensiyaning mazmun-mohiyatini va asosiy sifatlarini yoritish maqsadida bir nechta sinf boshqaruviga oid bo'lgan ilmiy qarashlarni tahlil qildik. Ulardan biri V.Doylga tegishli bo'lib, u sinf xonasi – turli voqea-hodisalar ***bir vaqtning o'zida kutilmagan holda*** yuz beradigan ***ko'p qirrali muhit*** sifatida ta'kidlaydi. Olim bunday sharoitda o'qituvchining ***zudlik bilan munosabat*** bildirishini asosiy kasbiy xususiyat sifatida ajratib ko'rsatadi. Chunki, o'qituvchining har bir xatti-harakati ***oylar, yillar davomida*** birga bo'ladigan ***o'quvchilar jamoasi tomonidan kuzatib boriladi.*** Sinfning tabiiy muhitiga mos bo'lgan bunday xususiyatlari o'qitish jarayonining mohiyatini ko'rsatib beradi va pedagog zimmasiga o'ta murakkab ijtimoiy muhitni boshqara olish mas'uliyatini yuklaydi. Shu bois, sinfda ijobiy o'quv faoliyatini ta'minlash va ajratilgan o'quv vaqtidan maksimal darajada unumli foydalanish uchun sinfni to'g'ri boshqarish hal qiluvchi ahamiyatga ega [1].

Adabiyot darslari ham o'ziga xos subyektiv talqinlar, ijodiy munozalar va estetik kechinmalar parallel ravishda sodir bo'ladigan o'quv muhiti hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda adabiyot o'qituvchisi sinfni to'g'ri boshqarish kompetensiyasiga ega bo'lishi, badiiy matn tahlili jarayonida yuzaga keladigan intellektual burishlarga, turli xil talqinlarga, qahramonlar haqida chiqarilgan noo'rin salbiy fikrlarga, hissiy reaksiyalarga zudlik bilan professional darajada munosabat bildira olishi lozim. Maktab adabiyot darslariga nazar tashlaydigan bo'lsak, adabiyot darslari aksariyat hollarda bir o'qituvchi tomonidan yillar davomida o'tiladi. Shu sababli adabiyot o'qituvchisi doimiy ta'limiy oluvchilarning diqqat markazida va kuzatuvida bo'ladi. Mazkur holat o'qituvchidan o'zining ma'naviy metodik namunasini namoyon etishni, murakkab-ijodiy jarayonlarini to'g'ri va samarali boshqarish mahoratini talab qiladi. O'quv jarayonini muvaffaqiyatli boshqarishning yana bir muhim mezonlaridan biri dars vaqtini oqilona taqsimlay olishdir. Bu, ayniqsa, ko'p vaqt talab etadigan tahlil jarayonlarini maksimal darajada to'g'ri loyihalash va tizimlashtirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Adabiyot o'qituvchisi sinf boshqaruvida nimalarga ahamiyat qarashi lozimligini yanada aniqlashtirishda J. Kunin ishlariga ham e'tibor qaratdik. Unda asosiy xususiyatlar sifatida quyidagilar keltirib o'tiladi:

1. Ogohlik – o'qituvchi sinfning barcha qismlarida nimalar sodir bo'layotganini doimo sezib turadi, u har bir o'quvchi faoliyatidan xabardor;
2. Parallel boshqaruv – o'qituvchi bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq jarayonni samarali boshqara oladi (masalan, kimdir savol berayotgan paytda boshqa o'quvchining xatti-harakatiga e'tibor qaratish);
3. Qizg'inlik – dars jarayoning uzluksiz va barqaror sur'atni ta'minlash;
4. Tekislik – o'qituvchi dars yo'nalishini aniq va muvaffaqiyatli saqlaydi, mavzudan chetlanmaydi, o'quvchilarni yo'qotmaydi;
5. Guruhni jalb qilish va mas'uliyatni shakllantirish – darsda barcha o'quvchilar faol ishtirok etadi, har birining ishtiroki ta'minlanadi [2].

J.Kunin tomonidan ilgari surilgan mazkur sinfni boshqarish mezonlari adabiyot darslarining ham o'ziga xos o'quv-metodik xarakteriga to'liq mos keladi hamda o'qituvchi faoliyatini tizimli to'g'ri tashkil qilishda muhim o'rin tutadi. Zero, adabiyot darslari shunchaki nazariy ma'lumotlarni yetkazish emas, balki badiiy matn atrofida kechadigan jonli muloqot, tahliliy munozara hamda ijodiy fikrlash jarayonidir. Shu sababli, yuqoridagi keltirilgan jihatlarni adabiyot o'qituvchisining ham

sinf o'quv jarayonini boshqarish kompetensiyasining asosiy mezonlari sifatida kiritdik va uni quyidagicha tasnifladik:

Annotation. This article analyzes the essence and key pedagogical opportunities of blended learning and examines it as the functional integration of offline, online, and independent learning aimed at improving the writing competence of future English language specialists. The study substantiates that the interconnection of these components within a unified pedagogical goal enables the systematic organization of the writing process, promotes students' independent learning activities, supports the consideration of individual learning needs, and facilitates the effective use of feedback.
Keywords: blended learning, face-to-face learning, online learning, independent learning, writing competence, functional integration, prospective English language specialists, pedagogical model.
Аннотация. В данной статье анализируются сущность и основные педагогические возможности смешанного обучения, которое рассматривается как функциональная интеграция офлайн-, онлайн- и самостоятельного обучения, направленная на совершенствование письменной компетенции будущих специалистов английского языка. Обосновывается, что взаимосвязь данных компонентов в рамках единой педагогической цели обеспечивает последовательную организацию процесса письма, активизацию самостоятельной деятельности студентов, учет их индивидуальных образовательных потребностей и эффективное использование обратной связи.
Ключевые слова: смешанное обучение, очное обучение, онлайн-обучение, самостоятельное обучение, письменная компетенция, функциональная интеграция, будущие специалисты английского языка, педагогическая модель.

Bugungi global dunyoda axborot tarkibi va miqdor ko'lami hayratlanarli sur'atlarda o'sishda davom etmoqda, natijada XXI asrda bo'lajak mutaxassis kadrlarning egallashi zarur bo'lgan ko'nikmalar va bilimlar to'xtovsiz o'zgarib bormoqda. Xususan, amerikalik olimlar A.Kollinz va R.Xalversonning ta'kidlashicha, biz "universal maktab ta'limi" davridan "umr bo'yi ta'lim" davriga, ya'ni global dunyodagi yangi kontekstlar talablariga javob berish maqsadida uzluksiz o'qib-o'rganish davriga o'tmoqdamiz [1].

Misol uchun, tashkiliy ta'lim va samaradorlikka yo'naltirilgan xalqaro tahlil markazi "Internet Time Alliance" vakili J.Kross norasmiy ta'lim ham bundan mustasno emasligini ta'kidladi, aniqrog'i, bizning **o'rganish faoliyatimizning** 80 foizi auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladi [2: 17]. Shuningdek, **so'nggi yillarda** zamonaviy ta'lim kontekstida *"blended learning", "hybrid learning" va "flipped learning"* kabi atamalar ko'zimizga ko'p tashlanmoqda. Masalan, Y.Yaroslavova blended ta'limni gibrid format sifatida e'tirof etib, unda onlayn darslar oflayn (auditoriya) o'qitish shakllari bilan to'ldirilishini nazarda tutadi [3: 267].

Bugungi ta'lim tizimidagi o'zgarishlar nafaqat ta'lim mazmuni, balki talabaning bilimni qabul qilish, qayta ishlash va amaliyotda qo'llash usullarining ham yangilanishini taqozo etadi. An'anaviy ta'limda talaba asosan tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi bo'lsa, raqamli ta'lim muhitida u axborotni mustaqil izlash, saralash, baholash va undan maqsadli foydalanishga qodir faol ishtirokchiga aylanadi. Shu bois raqamli texnologiyalarni ta'limga joriy etish faqat o'quv materiallarini elektronlashtirishga emas, balki talabaning o'quv faoliyatini faollashtirish, mustaqil qaror qabul qilish va individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Avvalambor, blended, oflayn, onlayn (masofaviy) va mustaqil ta'lim shakllari o'rtasidagi muhim farqlarni qayd etish lozim. Oflayn ta'lim an'anaviy metod va vositalar bilan cheklanib, barcha talabalarning individual o'zlashtirish darajasini muntazam nazorat qilish va ularga mos ta'lim muhitini yaratishda cheklangan imkoniyatga ega. Blended ta'lim esa turli metod va raqamli texnologiyalarni integratsiyalash orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini uzluksiz monitoring qilishga, individual yondashuvni ta'minlashga hamda o'z vaqtida elektron qayta aloqa berishga imkon yaratadi. Shuningdek, u oflayn, onlayn va mustaqil ta'lim shakllarining integratsiyasini ta'minlab, talabalarning chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishi va faolligini oshiradi.

Ikkinchidan, onlayn ta'lim masofaviy tashkil etilishi, pedagogik jarayon ishtirokchilarining vaqt va makondagi tarqoqligi bilan bog'liq muammolarga ega. Uning moslashuvchanlik, axborotga keng kirish, interaktivlik, asinxronlik va ommaviylik kabi afzalliklari mavjud bo'lsa-da, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi bevosita muloqot hamda pedagogik o'zaro ta'sirning cheklanganligi uning asosiy zaif tomonlaridan biridir. Blended ta'lim esa an'anaviy va raqamli ta'lim shakllarini integratsiyalash orqali bevosita muloqotni tiklash, murakkab o'quv materiallarini oflayn mashg'ulotlarda tushuntirish va talabalarning mustaqil ta'limdagi qiyinchiliklarini bartaraf etish imkonini beradi [4: 48–49].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mazkur ta'lim shakllarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish har doim ham metodik jihatdan to'g'ri emas, chunki ularning har biri turli pedagogik vazifalarni bajaradi. Yuzma-yuz mashg'ulotlar bevosita muloqot va tezkor tushuntirishni, onlayn ta'lim vaqt va makon jihatidan moslashuvchanlikni, mustaqil ta'lim esa individual ehtiyoj va o'zlashtirish sur'atiga mos rivojlanishni ta'minlaydi. Shu bois blended ta'limning asosiy ahamiyati ushbu shakllarni bir-biri bilan almashtirishda emas, balki ularning imkoniyatlarini yagona ta'lim maqsadi doirasida uyg'unlashtirishda namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, mustaqil ta'lim talabalarda o'z-o'zini tartibga solish, muammolarni hal qilish, axborot savodxonligi va

moslashuvchanlik kabi muhim ko'nikmalarni rivojlantiradi. Biroq chet tillarini o'qitish amaliyotida talabalarning mustaqil faoliyati va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini muntazam nazorat qilishga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Blended ta'lim esa onlayn resurslar, hamkorlikdagi faoliyat va mustaqil ta'limni integratsiyalash orqali talabalarning mustaqil izlanishi va o'quv materiallarini chuqur o'zlashtirishiga imkon yaratadi. Shuningdek, turli raqamli vositalar, multimediali taqdimotlar, interaktiv simulyatsiyalar va onlayn munozaralar talabalarning o'z-o'zini boshqarish hamda mavzularni mustaqil va chuqur o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi [5: 859].

Mustaqil ta'limning samaradorligi talabaning o'z o'quv faoliyatini boshqara olish darajasi bilan chambarchas bog'liq. Talaba aniq maqsad qo'yish, vazifalarni rejalashtirish va natijalarni muntazam baholash ko'nikmalariga ega bo'lmasa, raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalana olmaydi. Shu bois blended ta'limda mustaqil faoliyat nazoratsiz jarayon sifatida emas, balki o'qituvchining aniq yo'riqnomalari, topshiriq mezonlari va baholash mexanizmlari asosida pedagogik jihatdan yo'naltirilgan individual o'quv faoliyati sifatida tashkil etilishi lozim.


Tarixga nazar tashlasak, "blended ta'lim" atamasi va uni tavsiflovchi terminologiya 90-yillarning oxirida, Internet kirib kelgan davrning boshida paydo bo'lgan. Keyinchalik esa, o'quv adabiyotlarida *"blended ta'lim"* (blended learning), *"gibrid ta'lim"* (hybrid learning), shuningdek, *"texnologiya vositasida o'qitish"* (technology-mediated instruction), *"web texnologiya vositasida o'qitish"* (web-enhanced instruction) va *"aralash rejimli o'qitish"* (mixed-mode instruction) kabi [6: 18] bir nechta unga o'xshash atamalar paydo bo'ldi. Binobarin, aynan shu vaqt oralig'ida "blended ta'lim" atamasi aniq ta'rifga ega emas edi, ammo 2006-yilda amerikalik professorlar K.Bonk va Ch.Grem boshchiligidagi "Blended ta'limga oid qo'llanma" *("The Handbook of Blended Learning")* nomli asarda quyidagicha ta'rif keltirildi: "Blended ta'lim oflayn ta'lim bilan kompyuter vositasidagi – onlayn ta'lim shakllarini birlashtiradi". Ushbu kombinatsiya doirasida ular turli xil vositalar va ta'lim usullari to'rt o'lchov – *makon* (oflayn, virtual yoki o'zaro taqsimlangan), *vaqt* (sinxron yoki asinxron), *ishonchlilik* (ko'plab maqsadlarni qamrab olgan yoki faqat matn almashinuvidan iborat) va *insoniylik*ning (mahsuldor va oflayn shakldagi o'zaro munosabatlar asosiga quriluvchi ta'lim jarayoni) har birida davomiylik bo'yicha o'zgarishlar bo'lishini taklif qilishdi [7: 5].

Terminologik xilma-xillik blended ta'lim mazmunini belgilashda muayyan murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Bunda asosiy e'tibor atamaning shakliga emas, balki uning doirasida tashkil etilayotgan ta'limiy munosabatlarga qaratilishi lozim. Yuzma-yuz va raqamli faoliyat shakllarining shunchaki yonma-yon mavjudligi ularning pedagogik integratsiyasini anglatmaydi. Blended ta'limda ushbu komponentlar o'zaro bog'langan, bir-birini to'ldiradigan va yagona didaktik natijaga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Aynan shu jihat uni ta'lim jarayonida AKTdan oddiy foydalanish amaliyotidan farqlaydi.

Umuman olganda, blended ta'lim an'anaviy va onlayn ta'lim shakllarining integratsiyasi sifatida talqin qilinadi. Biroq mazkur tadqiqotda bo'lajak ingliz tili mutaxassislarining yozuv kompetensiyasini takomillashtirish uchun uchta shakl birlashtiriladi: yuzma-yuz (oflayn) mashg'ulotlar, onlayn hamkorlikdagi ta'lim va elektron manbalar asosidagi mustaqil ta'lim. Bunday yondashuvning asosiy sababi shundaki, blended ta'limning ikki komponentli talqinlarida onlayn va mustaqil ta'lim faoliyatlari ko'pincha bir tushuncha doirasida birlashtiriladi yoki ulardan biri yetarlicha hisobga olinmaydi [8: 47]. Shu o'rinda tabiiy bir savol tug'ilishi mumkin – blended ta'lim boshqa ta'lim shakllaridan qaysi jihatlari bilan ajralib turadi? Ushbu savolga javob sifatida quyidagi jihatlarni keltirib o'tishimiz mumkin: u

1) pedagogik aspektlarga boy;
2) bilim olishga ochiq;
3) ijtimoiy o'zaro aloqa;
4) shaxsiy agent;
5) xarajat borasida tejamkor;
6) takrorlashga oson [9];
7) takomillashgan pedagogika;
8) keng qamrovli va moslashuvchan;
9) oshirilgan sarf-xarajat uchun samarador [10].

Vaholanki, blended ta'lim o'qituvchiga talabalarning individual o'zlashtirish sur'atiga mos faoliyat tashkil etish imkonini beradi. Undagi integratsiya esa talabalar bilimini faollashtirishga yo'naltirilgan o'zaro bog'liq faoliyatlarni nazarda tutadi. Aynan shu xususiyatlar blended ta'limni AKTdan oddiy foydalanish amaliyotidan farqlaydi. Biz ham mazkur ta'riflarga tayangan holda, quyidagi mualliflik ta'rifimizni ishlab chiqdik: *"Blended ta'lim – bu o'zida oflayn, onlayn va mustaqil ta'lim shakllari imkoniyatlarining mutanosiblikdagi taqsimotiga asoslangan, o'qituvchi va talabalarning muayyan amaliy natijalarga erishishlarida texnologiyalardan maqsadli hamda samarali foydalanishlariga yo'naltirilgan murakkab innovatsion ta'lim shaklidir"* (Quyidagi rasmga qarang):



Bo'lajak ingliz tili mutaxassislarining yozuv kompetensiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan blended ta'lim modeli

Mazkur ta'rifda uchta ta'lim shaklining ajratib ko'rsatilishi tasodifiy emas. Chunki, oflayn va onlayn faoliyat talabaning mustaqil o'quv faoliyatini to'liq ifodalay olmaydi: elektron muhitdagi hamkorlikdagi faoliyat mazmunan mustaqil ta'limdan farqlanadi. Mustaqil ta'limda esa talaba o'z bilimlaridagi bo'shliqlarni aniqlash, zarur materiallarni tanlash, topshiriqlarni bajarish va natijalarni baholashda asosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Shu sababli mazkur tadqiqotda blended ta'limning oflayn, onlayn va mustaqil komponentlarga ajratilishi tashkiliy hamda pedagogik zarurat sifatida qaraladi.

Aslini olganda, blended ta'lim oliy ta'limda o'qituvchilarning oflayn va onlayn ta'lim o'rtasidagi *"o'zaro murosa"*ni topishga bo'lgan istak-xohishi natijasida yuzaga keldi [11]. Blended ta'lim oliy ta'lim miqyosida taraqqiy etdi, ammo M.Oliver va K.Trigvell o'z ilmiy izlanishlarida ayni ta'limga oid umumiy konsepsiyani tanqid qilib, bu atamani "noto'g'ri aniqlangan va nomuvofiq ishlatilgan" va blended ta'lim bilan bog'liq nazariya

"mujmal yoki ortiqcha" bo'lgan usullarda tatbiq etilganligini qayd etishdi [12: 24]. Shu bois mazkur tadqiqotda "aralash ta'lim" o'rnida ilmiy adabiyotlarda keng qo'llanilayotgan "blended ta'lim" atamasidan foydalanishga qaror qilindi. Biroq ta'lim shakllari o'rtasidagi muvozanat ularning vaqt jihatidan teng taqsimlanishini anglatmaydi, chunki muayyan pedagogik vazifaga ko'ra ulardan biri ustuvor ahamiyat kasb etishi mumkin. Demak, blended ta'lim dizaynining asosiy vazifasi ta'lim shakllarini teng miqdorda birlashtirish emas, balki o'quv maqsadiga eng mos faoliyat shaklini tanlashdan iboratdir.

Shu o'rinda tabiiy bir savol tug'ilishi mumkin – blended ta'lim boshqa ta'lim shakllaridan qaysi jihatlari bilan ajralib turadi? Ushbu savolga javob sifatida quyidagi jihatlarni keltirib o'tishimiz mumkin: u

1) pedagogik aspektlarga boy;
2) bilim olishga ochiq;
3) ijtimoiy o'zaro aloqa;
4) shaxsiy agent;
5) xarajat borasida tejamkor;
6) takrorlashga oson [9];
7) takomillashgan pedagogika;
8) keng qamrovli va moslashuvchan;
9) oshirilgan sarf-xarajat uchun samarador [10].

Vaholanki, blended ta'lim o'qituvchiga **talabaning individual o'zlashtirish sur'atiga mos ravishda** ishlash imkoniyatini taqdim qiladi. Integratsiya o'quv jarayonida talabalar bilimini faollashtirishga qaratilgan faoliyat mavjudligini anglatadi. Aynan shu xususiyatlar blended ta'limni AKTidan foydalanish amaliyotidan ajratib turadi.

Tarixga nazar tashlasak, chet tilini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarda individual kognitiv rivojlanishga e'tibor qaratilib, til o'qitish va o'rganish amaliyotidagi muhitga bo'lsa e'tibor berilmadi. Blended ta'lim doirasida esa muhit dizaynning diqqat markazida bo'ladi, chunki u o'rganilayotgan til va madaniyatga til o'rganuvchilar – talabalarning ijtimoiylashuv jarayonlarini shakllantirishga xizmat qiladi [13]. Binobarin, texnologiya kamida ikkita paradigmaga – ikkita juda farqli tushunchaga egadir: "texnologiya vosita sifatida" va "texnologiya ekologiya sifatida".

Ma'lumot o'rnida qayd etishimiz joizki, *"ta'lim ekologiyasi"* atamasi ilk bor fanda amerikalik tadqiqotchi J.S. Braun tomonidan qo'llanilgan [14]. Zero, vosita sifatidagi paradigma barchaga birdek ma'lum, ammo ekologiya sifatidagi paradigma quyidagicha izohlanishi mumkin: *"Texnologiyalar inson tomonidan dasturlashtirilgan dasturiy ta'minot va ishlab chiqilgan apparat vositalarining gibridlari bo'lib, ular auditoriya ichida va tashqarisida sinxron va asinxron harakatlarning integratsiyalashuviga kiritilishi va fazoviy tartibga solish, multimodal matnlar va talabalar guruhlari bilan o'zaro bog'lanishi mumkin"* [13: 74].

Umuman olganda, blended ta'lim muhitida dizayn yoki undagi texnologiyalardan foydalanish jarayonini quyidagicha izohlashimiz mumkin: *"...an'anaviy va onlayn texnologiyalarning strategik hamda o'ziga xos ekologiyasi bilan chet tilini o'rganish maqsadida jamoaviy muhitni hamkorlikda yaratish, isloh etish va osonlashtirishning uzluksiz jarayoni"* [13: 90]. Mazkur yondashuv ta'lim texnologiyalariga munosabatni qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Chunki texnologiyaning o'zi ta'lim sifatini avtomatik ravishda oshirmaydi, uning samaradorligi esa qanday maqsad va metodik sharoitda qo'llanilishiga bog'liq. Shu sababli blended ta'limda asosiy masala ko'p sonli texnologiyalarni tanlash emas, balki ular yordamida talabaning bilish va amaliy faoliyatini samarali tashkil etishdir. Bunda texnologiya ta'lim jarayonining markazi emas, balki aniq pedagogik maqsadga xizmat qiluvchi vosita sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, germaniyalik mutaxassis P.Noymayer quyidagicha muhim izohni keltirib o'tdi: *"Blended ta'lim dizaynining eng muhim maqsadi individual o'quv subyektlari, kontekstlari va maqsadlari uchun o'rganish usullarining eng samarali va foydali kombinatsiyasini topishdan iborat. Undagi asosiy e'tibor "an'anaviy"dan farqli ravishda "to'g'ri" yoki "eng yaxshi", "innovatsion" usulni tanlash emas; balki bir butunlikda ishlaydigan ta'lim muhitini yaratishdir"* [15: 164–165]. Buning natijasi sifatida esa blended ta'limning turli xil temperamentli talabalarga o'quv materiallarini teng darajada muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarida va turli xil o'quv faoliyati shakllari bilan bog'liq holda o'zlarini amalda namoyon qila olish imkoniyatlarini taqdim etishida deb aytishimiz mumkin.

Blended ta'lim muhitining muhim afzalliklaridan biri barcha talabalar uchun bir xil ta'lim yo'lini belgilash zaruratining kamayishidir. An'anaviy auditoriya sharoitida o'qituvchi ko'pincha guruhning umumiy o'zlashtirish sur'atiga moslashadi, natijada ayrim talabalar rivojlanish imkoniyatidan mahrum bo'lishi, boshqalari esa mavzuni yetarli darajada o'zlashtirmasdan keyingi bosqichga o'tishi mumkin. Blended ta'lim esa o'quv materiallariga takroran murojaat qilish, individual topshiriqlarni bajarish va o'zlashtirish sur'atini boshqarish imkonini yaratib, ta'lim jarayonining individuallashtirilishiga xizmat qiladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida 2019-yil 8-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni qabul qilindi. Jumladan, unda oliy ta'lim tizimini (1) zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash; (2) ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish; (3) ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek, ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi "E-MINBAR" platformasini amaliyotga joriy etish, ta'lim jarayonlarida "bulutli texnologiyalar"dan foydalanish kabi muhim chora-tadbirlar belgilangan.

Respublika OTMlarida mazkur chora-tadbirlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi istiqbolda elektron ta'lim texnologiyalariga oid ilmiy tadqiqotlar va nashrlar hajmining ortishiga xizmat qiladi. Bu esa bitiruvchilar va yosh mutaxassislarning raqobatbardoshligi uchun muhim bo'lgan raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish hamda ular vositasida yozma muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi [16: 134]. Bunday sharoitda raqamlashtirish jarayonini faqat texnik infratuzilmani rivojlantirish bilan bog'lash yetarli emas. Raqamli vositalarning mavjudligi ularning pedagogik jihatdan samarali qo'llanilishini kafolatlamaydi, buning uchun o'qituvchi va talabalarning ulardan foydalanish madaniyati, vositalarni o'quv maqsadiga muvofiq tanlash va raqamli muhitda hamkorlikni tashkil

etish ko'nikmalari muhimdir. Ayniqsa, bo'lajak ingliz tili mutaxassislarini tayyorlashda texnologiyalar til o'rganish mazmuni bilan bevosita bog'lanishi, aks holda esa ta'lim sifatini emas, faqat uning tashqi shaklini yangilashi mumkin.

Shu bilan birga, blended ta'lim imkoniyatlarini mutlaq afzallik sifatida baholash ilmiy jihatdan asosli emas, chunki uning samaradorligi amalga oshirish sharoitlariga bevosita bog'liq. Texnik imkoniyatlar, o'qituvchining metodik va raqamli kompetensiyasi, talabalarning mustaqil ishlashga tayyorligi hamda ta'lim mazmunining to'g'ri loyihalashtirilishi uning natijadorligini belgilaydi. Shu sababli blended ta'limning muammoli jihatlarini oldindan aniqlash va pedagogik jihatdan hisobga olish zarur, jumladan, uning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda quyidagi cheklovlarni ham qayd etish lozim:

• *Ta'lim vositalaridan samarasiz foydalanish resurslarning behuda sarflanishiga olib kelishi*. O'qituvchi va talabalar raqamli texnologiyalardan maqsadli foydalana olmasa yoki tanlangan vositalar o'quv vazifalariga mos kelmasa, bu ta'lim samaradorligini oshirish o'rniga vaqt va resurslarning samarasiz sarflanishiga sabab bo'lishi mumkin.

• *Talabalarning texnologiyalar bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmasligi blended ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin*. Bunday sharoitda o'qituvchi talabalarni raqamli ta'lim muhitida ishlashga yo'naltirishi, ularga zarur ko'mak berishi va yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga rag'batlantirishi lozim.

• *Yuqori texnologiyalardan foydalanish nisbatan ko'p xarajatlarni keltirib chiqarishi*. Umuman olganda, qurilmalar va infratuzilma vositalari kabi blended o'quv dasturlari uchun ta'lim texnologiyalarini xarid qilish qimmatga tushishi mumkin. Bu, ayniqsa, chet tili ta'limidan bir nechta guruhlar yoki bosqichlar kesimida ko'plab talabalar bilan dars mashg'ulotlarini olib boruvchi o'qituvchining mehnat faoliyatida yuzaga kelishi mumkin, biroq bu faqat qisqa muddatli xarajatlar ekanligini ham qayd etishimiz lozim.

• *O'qituvchidan nafaqat darslarga tayyorgarlik ko'rish, balki elektron o'quv materiallarini yaratish ham talab etiladi*. Blended ta'limda uchta ta'lim shaklini uyg'unlashtirish, talabalarning o'zlashtirish darajasi, qobiliyati hamda xato-kamchiliklaridagi individual farqlarni hisobga olish o'qituvchining metodik va vaqt jihatidan qo'shimcha mehnatini talab qiladi.

• *Texnik muammolarning ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi*. Noto'g'ri texnologiyaning tanlanishi yoki undan foydalanishda yuzaga keladigan texnik nosozliklar ta'lim samaradorligini pasaytirishi mumkin. Bunday holatlarning oldini olishda o'qituvchining raqamli savodxonligi muhim bo'lib, u yuzaga kelgan muammolarni tezkor hal qilish yoki zarur hollarda muammoli texnologiyani samaraliroq vosita bilan almashtira olishi lozim [17].

Xulosa shuki, nazariy tahlillar blended ta'lim samaradorligi uning komponentlarini shunchaki birlashtirishda emas, balki yagona pedagogik maqsad asosida funksional integratsiyalashuvida namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Tadqiqotda blended ta'lim bo'lajak ingliz tili mutaxassislarining yozuv kompetensiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan oflayn, onlayn va mustaqil ta'lim shakllarining integratsiyasi sifatida qaraldi. Ushbu komponentlarning o'zaro bog'liqligi yozuv jarayonini izchil tashkil etish, mustaqil ishlash, qayta aloqa olish va kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur metodik sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Collins A., Halverson R. Rethinking Education in the Age of Technology: The Digital Revolution and Schooling in America. – New York: Teachers College Press, 2009.
2. Cross J. Informal Learning: Rediscovering the Natural Pathways That Inspire Innovation and Performance. – Hoboken, New Jersey: Pfeiffer, 2006.
3. Жарина О.А., Шулепова А.Д., Борисенко В.А., Самофалова М.В., Шулепов А.А. Смешанное обучение деловому английскому языку студентов неязыковых специальностей: модель «перевернутый класс» // Перспективы науки и образования, 2021, № 1(49). – С. 265–275.
4. Фандей В.А. Теоретико-прагматические основы использования формы смешанного обучения иностранному (английскому) языку в языковом вузе: Дисс. … канд. пед. наук. Москва, 2012.
5. Pramesworo I., Fathurrochman I., Sembing D., Bangkara B., Sudrajat D. Relevance between Blended Learning and Students' Independent Learning Curriculum: An Overview of Digital Age Education, Student and Teacher Engagement, Technological Resources // Jurnal Hasil Penelitian dan Kajian Kepustakaan di Bidang Pendidikan, Pengajaran dan Pembelajaran,2023, № 9(3). – P. 858–869. 10.33394/jk.v9i3.8320.
6. Андреева Н.В., Рождественская Л.В., Ярмахов Б.Б. Шаг школы в смешанное обучение. Москва: Рыбаков Фонд, 2016.
7. Bonk C.J., Graham C.R. (Eds.). Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. – San Francisco: Jossey-Bass, 2006.
8. Блинов В.И., Есенина Е.Ю., Сергеев И.С. Модели смешанного обучения: организационно-дидактическая типология // Высшее образование в России, 2021, № 30(5). – С. 44–64.
9. Osguthorpe R., Graham C. Blended Learning Environments: Definitions and Directions // Quarterly Review of Distance Education, 2003,№ 4. – P. 227–233.
10. Graham C., Allen S. Designing Blended Learning Environments // Encyclopedia of Distance Learning. 2nd ed. – Hershey: IGI Global, 2009. – P. 562–570.
11. Welker J., Berardino L. Blended Learning: Understanding the Middle Ground Between Traditional Classroom and Fully Online Instruction // Journal of Educational Technology Systems, 2005, № 34(1). – P. 33–55.
12. Oliver M., Trigwell K. Can Blended Learning Be Redeemed? // E-Learning and Digital Media, 2005, № 2(1). – P. 17–26.
13. Hinkelman D. Blending Technologies in Second Language Classrooms. – London: Macmillan Publishers, 2018.
14. Brown J. Growing Up Digital: How the Web Changes Work, Education, and the Ways People Learn // Change Magazine, 2000. March/April. – P. 11–20.
15. Neumeier P. A Closer Look at Blended Learning – Parameters for Designing a Blended Learning Environment for Language Teaching and Learning // ReCALL, 2005, № 17(2). – P. 163–178.
16. Медведева Н.Е., Колесникова Н.Л. Совершенствование навыков иноязычной письменной речи в контексте смешанного обучения // Преподаватель XXI век. – 2022. – № 2(1). – С. 133–144.
17. Инфоурок. Плюсы и минусы смешанного обучения. https://infourok.ru/plyusi-i-minusi-smeshannogo-obucheniya-1939964.html?utm_source=chatgpt.com.

Nigora SAIDOVA,
Farg'ona davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

NEYROPEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. Maqolada neyropedagogik texnologiyalar asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga doir nazariy-metodik yondashuv asoslanadi. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachining ijodiy fikrlashi, moslashuvchanligi va pedagogik yangiliklarni qabul qilish qobiliyati hal qiluvchi omilga aylangani bilan izohlanadi.
Kalit so'zlar: neyropedagogik texnologiyalar, kreativlik, bo'lajak tarbiyachi, maktabgacha ta'lim, divergent tafakkur, neyrogimnastika, adaptiv raqamli platforma, metodika.
Annotation. The article substantiates a theoretical and methodological approach to developing the creative abilities of future preschool educators based on neuropedagogical technologies. The relevance of the study lies in the fact that in the modern preschool education system the educator's creative thinking, flexibility and ability to accept pedagogical innovations have become a decisive factor.
Keywords: neuropedagogical technologies, creativity, future teacher, preschool education, divergent thinking, neurogymnastics, adaptive digital platform, methodology.
Аннотация. В статье обоснован теоретико-методический подход к развитию креативных способностей будущих воспитателей дошкольного образования на основе нейропедагогических технологий. Актуальность исследования объясняется тем, что в современной системе дошкольного образования творческое мышление, гибкость и способность воспитателя воспринимать педагогические новшества стали решающим фактором.
Ключевые слова: нейропедагогические технологии, креативность, будущий воспитатель, дошкольное образование, дивергентное мышление, нейрогимнастика, адаптивная цифровая платформа, методика.

Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsining kasbiy kompetensiyasi nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda tez va samarali qaror qabul qilish, yangiliklarga ochiqlik hamda pedagogik improvizatsiya qobiliyati bilan ham belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak tarbiyachilarning kreativlik qobiliyatlarini maqsadli rivojlantirish zamonaviy pedagogik oliy ta'limning muhim vazifalaridan biridir [1: 2].

Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ta'lim jarayonida ijodkorlik ko'pincha alohida fan yoki qo'shimcha mashg'ulot sifatida qaraladi. Biroq kreativlik kasbiy faoliyatning barcha bosqichlarida namoyon bo'ladigan integral sifatdir. Tarbiyachi bolalarning savollariga noodatiy javob topishi, o'yin jarayonini moslashuvchan boshqarishi, didaktik materiallarni tezda yangilashi va individual yondashuvni saqlab qolishi kerak. Bu esa uning o'zida ijodiy tafakkur tizimli rivojlangan bo'lishini talab etadi [3: 4].

So'nggi yillarda neyrofanlar, neyropsixologiya va neyropedagogika yutuqlari ta'lim jarayonini yangi nuqtayi nazardan ko'rib chiqish imkonini bermoqda. Miyadagi sensor-motor integratsiya, diqqatning faollashuvi, xotira va divergent tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olgan holda tuzilgan mashqlar pedagogik tayyorgarlikni ancha samarali qiladi. Ayniqsa, neyrogimnastika, koordinatsion mashqlar, vizual-assotsiativ topshiriqlar va raqamli qo'llab-quvvatlash vositalari ijodiy faollikni kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi [5: 6].

Tadqiqotning aosiy maqsadi – neyropedagogik texnologiyalar asosida bo'lajak tarbiyachilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini ilmiy asoslash. Vazifalar quyidagilardan iborat: 1) kreativlik va neyropedagogika bo'yicha nazariy manbalarni tahlil qilish; 2) metodikaning bosqichlarini asoslash; 3) raqamli platforma modullarini tavsiflash; 4) kreativlik mezonlari va darajalarini belgilash; 5) tajriba-sinov natijalarini umumlashtirish.

Kreativlik muammosi psixologiya va pedagogika ilmida uzoq tarixga ega. J.Gilford divergent tafakkur g'oyasini ilgari surib, ijodkorlikni birgina to'g'ri javobni topish emas, balki ko'p yo'nalishli fikrlash qobiliyati sifatida talqin qilgan [3]. E.P.Torrens esa ijodiy tafakkur oqimlilik, moslashuvchanlik, originallik va ishlab chiqilganlik mezonlari orqali baholanishi mumkinligini ko'rsatgan [4]. Mazkur mezonlar bugungi kunda ham kreativlikni diagnostika qilishda asosiy metodik tayanch bo'lib xizmat qiladi.

L.S.Vygotskiy ijodkorlikni tasavvur va ehtiyoj asosida yangilik yaratish jarayoni deb izohlagan [1]. Uning fikricha, bola ijodkorligi ijtimoiy tajriba, nutq va faoliyat bilan uzviy bog'liq. A.R.Luriya esa neyropsixologik yondashuv orqali insonning yuqori psixik funksiyalari miya tizimlarining birgalikdagi faoliyati natijasi ekanini asoslagan [2]. Ushbu g'oyalar bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda kognitiv, emotsional va motor komponentlarni uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Zamonaviy tadqiqotlar ijodiy tafakkur yakkama-yakka mantiqiy operatsiyalar emas, balki keng miya tarmoqlarining muvofiqlashgan ishiga asoslanishini ta'kidlaydi. Beaty va hamkorlari neyrovizualizatsion ma'lumotlarga tayanib, ijodiy faoliyat davomida standart rejim (default mode) va ijrochi nazorat tarmoqlarining o'zaro hamkorligini ko'rsatgan [5]. Bu esa kreativlikni rivojlantirishda sensor-motor mashqlar, assotsiativ vazifalar, vizual modellashtirish va refleksiv tahlilni bir vaqtning o'zida qo'llash zarurligini anglatadi. Nisbatan yangi yondashuvlar orasida neyropedagogika, neyrogimnastika, multisensor ta'lim, raqamli trenerlar va AI-yordamchi tizimlar alohida o'rin tutadi [6: 7].

Shu bilan birga, neyropedagogik vositalarni tanlashda ilmiy asoslilik tamoyiliga qat'iy rioya qilish zarur. Ta'lim amaliyotida keng tarqalgan ayrim neyromiflar – masalan, insonlarni "chap yarimsharli" va "o'ng yarimsharli" tiplarga ajratish yoki muayyan mashqlar "yarimsharlarni muvozanatlashtiradi" degan da'volar – ishonchli empirik dalillar bilan tasdiqlanmagan [8: 9]. Dekker va hamkorlarining tadqiqoti bunday miflarning o'qituvchilar orasida keng tarqalganligini ko'rsatadi [8], Howard-Jones esa ularning ko'pincha samarasiz metodikalarni oqlashga xizmat qilishini ta'kidlaydi [9]. Shu sababli mazkur metodikada neyrogimnastika va koordinatsion mashqlar yarimsharlarni "faollashtirish" vositasi sifatida emas, balki diqqat, sensor-

motor integratsiya va ijodiy faollik uchun zamin yaratuvchi ilmiy asosli komponent sifatida qo'llaniladi.

O'zbekiston maktabgacha ta'limi me'yoriy hujjatlarida ham tarbiyachining ijodiy kompetentligini oshirish, bolaga moslashuvchan va individual yondashuvni qo'llash, o'yin orqali o'qitish hamda rivojlantiruvchi muhit yaratish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [10]. Shu ma'noda, bo'lajak tarbiyachilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish – nafaqat akademik muammo, balki amaliy zaruratdir.

Tadqiqot nazariy tahlil, modellashtirish, pedagogik eksperiment, kuzatish, so'rovnoma va matematik-statistik ishlov berish usullariga tayandi. Metodika maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak tarbiyachilar uchun mo'ljallangan bo'lib, uning maqsadi ijodiy faoliyatni faollashtirish va kasbiy fikrlashni neyropedagogik asosda rivojlantirishdan iborat.

Metodikaning asosiy g'oyasi shundan iboratki, kreativlik alohida topshiriqlar yig'indisi emas, balki shaxsning kognitiv, emotsional, sensor-motor va refleksiv jarayonlari o'zaro integratsiyalashgan holda rivojlanadigan tizimdir. Shu sababli metodika to'rt bosqichdan iborat qilib ishlab chiqildi: diagnostik, motivatsion-nazariy, kreativ-amaliy va refleksiv-baholash bosqichlari [6: 7].

Diagnostik bosqichda talabalarning boshlang'ich kreativlik darajasi, motivatsion holati, ijodiy topshiriqlarga munosabati va neyropsixologik tayyorgarligi aniqlanadi. Buning uchun Torrens testining soddalashtirilgan variantlari, assotsiativ topshiriqlar, qisqa so'rovnomalar hamda kuzatish kartalari qo'llanilishi mumkin [4].

Motivatsion-nazariy bosqichda ishtirokchilar kreativlikning pedagogik ahamiyati, neyropedagogik yondashuvlar mazmuni, ijodiy shaxs modeli va kasbiy o'sish omillari bilan tanishtiriladi. Bu bosqichda muammoli ma'ruzalar, mini-diskussiyalar, keys-stadilar, klasterlar, konseptual xaritalar va onlayn testlardan foydalaniladi.

Kreativ-amaliy bosqich metodikaning markaziy qismi bo'lib, aynan shu bosqichda "NeuroCreative Teacher" adaptiv platformasi modullari ketma-ket ishga tushiriladi. Unda neyrogimnastika, koordinatsion integratsiya mashqlari, divergensiya asosidagi topshiriqlar, AI-yordamchi tavsiyalari, ijodiy laboratoriya va mini-loyihalar amalga oshiriladi.

Refleksiv-baholash bosqichida talabalar o'z faoliyatini tahlil qiladi, elektron portfoliolarini to'ldiradi, o'z-o'zini baholash varaqalari bilan ishlaydi va yakuniy monitoringdan o'tadi. Ushbu bosqichda talabaning kreativ rivojlanish dinamikasi mezonlar bo'yicha aniqlanadi.

Metodika tuzilmasi bo'yicha quyidagi mantiqiy zanjir taklif etiladi: boshlang'ich holatni aniqlash → motivatsiyani shakllantirish → ijodiy faoliyatni amaliy mashqlar orqali kuchaytirish → refleksiya va qayta loyihalash. Ushbu zanjir uzluksiz sikl sifatida ishlaganda, talabaning ijodiy o'sishi barqarorlashadi.

1-jadval. Metodikaning bosqichlari va asosiy pedagogik vazifalari

Bosqich	Asosiy mazmuni	Kutiladigan natija
Diagnostik	Boshlang'ich kreativlik darajasi, motivatsiya va tayyorgarlikni aniqlash	Shaxsiy rivojlanish traektoriyasini belgilash
Motivatsion-nazariy	Kreativlikning ilmiy asoslari va kasbiy ahamiyatini o'rganish	Ichki motivatsiyani kuchaytirish
Kreativ-amaliy	Neyrogimnastika, ijodiy topshiriqlar, AI-yordamchi, mini-loyihalar	Divergent tafakkur va pedagogik moslashuvchanlikni oshirish
Refleksiv-baholash	Portfolio, o'z-o'zini tahlil qilish, monitoring	O'z faoliyatini anglash va mustahkamlash

Kreativlik qobiliyatlarini baholash uchun besh emas, balki metodikaning yaxlitligini ta'minlovchi to'rt mezon va uch daraja belgilandi. Har bir mezon bo'yicha talabaning ko'rsatkichi yuqori, o'rta yoki quyi darajaga ajratiladi (2-jadval).

2-jadval. Kreativlik qobiliyatlarini baholash mezonlari va darajalari

Mezon	Mazmuni	Yuqori daraja	O'rta daraja	Quyi daraja
Motivatsion-ijodiy	Ijodiy faoliyatga qiziqish, mustaqil izlanish, yangilikka intilish	Barqaror ichki motivatsiya va tashabbus mavjud	Qiziqish bor, biroq tashabbus doimiy emas.	Ijobiy munosabat sust, faollik past.
Kognitiv-neyropedagogik	Kreativlik, miya faoliyati va ta'lim qonuniyatlari haqidagi bilimlar	Nazariy tushunchalarni faol qo'llaydi	Bilimlar mavjud, lekin qisman tizimlashtirilgan.	Tushunchalar yuzaki va parchalangan.
Kreativ-operatsional	Oqimlilik, moslashuvchanlik, originallik, ishlab chiqilganlik	Topshiriqlarni noodatiy va samarali yechadi	Ba'zi yangi yechimlar topa oladi.	Oddiy namunaga tayanadi, yangilik kam.
Refleksiv-baholash	O'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va qayta qurish	O'z kuchli va zaif tomonlarini aniq tahlil qiladi	Qisman tahlil qiladi.	Refleksiya deyarli shakllanmagan.

Metodikani amalda qo'llash uchun bosqichma-bosqich algoritm ishlab chiqildi. Avvalo, tarbiyachi tayyorlov kursi boshida talabalar bilan diagnostik suhbat o'tkazadi, ularning qiziqishi, ijodiy faolligi, texnologiyalardan foydalanish tajribasi va neyropedagogik bilim darajasi aniqlanadi; shu asosda individual guruhlar shakllantiriladi. Keyingi bosqichda har bir talaba uchun shaxsiy rivojlanish traektoriyasi belgilanadi: masalan, diqqat va xotirasi sust talabaga ko'proq sensor-motor

mashqlar tavsiya etiladi; nutqi faol, ammo originalligi sust talaba esa divergent topshiriqlarga ko'proq jalb qilinadi. Shu tariqa metodika differensial yondashuv tamoyiliga asoslanadi.

Kreativ-amaliy bosqichda darslar quyidagi mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etiladi: qisqa neyrogimnastika mashqi → muammoli savol → guruhli fikr almashuvi → ijodiy topshiriq → mini-loyiha → refleksiya. Bunday tuzilma aqliy taranglikni kamaytiradi, faollikni saqlaydi va ijodiy muhit yaratadi. Yakuniy bosqichda talabalar o'z portfoliolarini himoya qiladi, ijodiy ishlarini izohlaydi va kelgusidagi rivojlanish rejalarini belgilaydi.

Tajriba-sinov ishlari tajriba guruhi (TG) va nazorat guruhi (NG) bilan amalga oshirildi. Tajriba boshida ikkala guruhdagi kreativlik darajasi deyarli bir xil bo'lib, yuqori daraja ulushi nisbatan past, quyi daraja ulushi esa yuqori edi. Metodika joriy etilgandan so'ng TGda sezilarli ijobiy siljish kuzatildi: yuqori darajadagi ishtirokchilar soni ortdi, quyi darajadagilar ulushi kamaydi.

Bu natija neyropedagogik texnologiyalarni tizimli qo'llash bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy fikrlash, pedagogik moslashuvchanlik va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatlarini kuchaytirishini ko'rsatadi. Ayniqsa, neyrogimnastika va kreativ laboratoriya modullari talabalarning faolligini oshirishda sezilarli rol o'ynadi.

AI-yordamchi ishtirokchilarga topshiriqni bosqichma-bosqich rejalashtirish, ijodiy g'oyalarni variantlarga ajratish va refleksiya uchun savollar taklif qilish orqali o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirdi. Elektron portfolio esa har bir talabaning individual rivojlanishini kuzatish, ish namunalarini jamlash va oraliq natijalarni ko'rish imkonini berdi.

Monitoring natijalariga ko'ra, eksperimental guruhda ijodiy faollikning uch komponenti – motivatsion, kognitiv va operatsional komponentlar – bir-birini qo'llab-quvvatlovchi tarzda o'sgan. Nazorat guruhida ham ijobiy o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, u TGdagi dinamikadan ancha past bo'ldi. Bu esa metodikaning samaradorligini tasdiqlovchi muhim dalildir.

Olingan natijalar bir nechta muhim mulohazani tasdiqlaydi. Birinchidan, bo'lajak tarbiyachilar bilan ishlashda kreativlikni alohida nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy pedagogik harakatlarda namoyon bo'ladigan ko'p komponentli sifat sifatida rivojlantirish lozim. Shu sababli mashg'ulotlarda nutqiy, vizual, motor, emotsional va refleksiv topshiriqlarni uyg'unlashtirish samaralidir [1: 2].

Ikkinchidan, neyrogimnastika va sensor-motor integratsiya mashqlari nafaqat diqqatni faollashtiradi, balki fikrlashning moslashuvchanligini ham kuchaytiradi. Bunday mashqlar diqqat va sensor-motor integratsiyani jalb qilib, ijodiy tafakkur bilan bog'liq keng miya tarmoqlarining muvofiqlashgan ishlashiga zamin yaratadi [5].

Uchinchidan, raqamli platformaning joriy etilishi ijodiy ta'limni texnologik jihatdan qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynadi. Platforma orqali talabalar topshiriqlarni istalgan vaqtda ko'rish, qayta ishlash, xatolar ustida ishlash va individual tavsiyalar olish imkoniga ega bo'ldilar. Bu esa ta'limning moslashuvchanligini oshirdi.

To'rtinchidan, elektron portfolio va monitoring tizimi talabalarning o'sish dinamikasini aniqroq ko'rsatdi. Refleksiya faollashgan sayin talabalar o'z ijodiy ishlarini baholash, kuchli va zaif tomonlarini ajratish, kelgusidagi faoliyatini rejalashtirishda nisbatan mustaqil bo'la boshladilar.

Beshinchidan, eksperimental natijalar bo'lajak tarbiyachining kreativligi bir necha bosqichda shakllanishini ko'rsatadi: avval motivatsiya uyg'otiladi, so'ng nazariy tushuncha hosil qilinadi, keyin amaliy mashqlar orqali ijodiy xatti-harakatlar mustahkamlanadi va nihoyat refleksiya orqali barqarorlashadi. Demak, metodika bosqichlari o'zaro uzviy bog'langan bo'lishi zarur.

Tadqiqot konseptual va metodik xarakterga ega bo'lgani uchun unda keltirilgan ayrim ko'rsatkichlar shartli tarzda berildi. Real eksperimentda ishtirokchilar soni, hududiy omillar, ta'lim muhitining farqlari, akademik tayyorgarlik darajasi va motivatsion o'zgaruvchilar natijalarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, kreativlikni baholashda faqat test natijalariga tayanish yetarli emas: kuzatish, suhbat, portfolio tahlili, amaliy mahsulotlar ekspertizasi va reflektiv yozuvlar ham qo'shilishi kerak, aks holda kreativlikning yaxlit ko'rinishi to'liq ochilmay qoladi.

Kelgusida metodikani turli oliy ta'lim muassasalarida sinovdan o'tkazish, raqamli platformani mobil qurilmalar uchun moslashtirish, AI-yordamchining individual tavsiyalarini kengaytirish va uzoq muddatli monitoringni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bu yo'nalish maktabgacha ta'limda neyropedagogik innovatsiyalarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, neyropedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan metodika bo'lajak tarbiyachilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali bo'lishi mumkin. Metodikaning to'rt bosqichli tuzilishi diagnostika, motivatsiya, amaliy ijodkorlik va refleksiyani yagona tizimga birlashtiradi.

"NeuroCreative Teacher" adaptiv platformasining olti moduli kreativlikni faollashtirish, individual yordam ko'rsatish, o'z-o'zini baholash va monitoring jarayonlarini tizimlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, neyrogimnastika va kreativ laboratoriya modullari talabalarda divergent tafakkur, moslashuvchanlik va originallikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Kreativlikni to'rt mezon va uch daraja bo'yicha baholash tizimi esa natijalarni obyektiv tahlil qilish imkonini beradi; tajriba-sinov natijalari metodikaning nazorat guruhiga nisbatan yuqori samaradorligini ko'rsatdi.

Kelgusida metodikani turli oliy ta'lim muassasalarida, hududiy sharoitlarda va uzoq muddatli kuzatuv asosida sinovdan o'tkazish, shuningdek, uni maktabgacha ta'lim amaliyotidagi kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir. Metodikaning barcha elementlarini ilmiy asoslangan neyropedagogik dalillarga tayantirish va neyromiflardan xoli holda joriy etish uning uzoq muddatli samaradorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. М.: Просвещение, 1991.
2. Лурия А.Р. Основы нейропсихологии: учеб. пособие. М.: Академия, 2003.
3. Guilford J.P. The nature of human intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.
4. Torrance E.P. Torrance tests of creative thinking: norms-technical manual. – Princeton, NJ: Personnel Press, 1974.
5. Beaty R.E., Benedek M., Silvia P.J., Schacter D.L. Creative cognition and brain network dynamics // Trends in Cognitive Sciences, 2016. Vol. 20, №2. – P. 87–95. 10.1016/j.tics.2015.10.004.
6. Деннисон П.Э., Деннисон Г.Э. Гимнастика мозга (Brain Gym) / пер. с англ. М., 2015.
7. Сиротюк А.Л. Нейропсихологическое и психофизиологическое сопровождение обучения. М.: ТЦ Сфера, 2003.
8. Dekker S., Lee N.C., Howard-Jones P., Jolles J. Neuromyths in education: prevalence and predictors of misconceptions among teachers // Frontiers in Psychology, 2012. Vol. 3. – Art. 429. 10.3389/fpsyg.2012.00429.
9. Howard-Jones P.A. Neuroscience and education: myths and messages // Nature Reviews Neuroscience, 2014. Vol. 15, №12. – P. 817–824. 10.1038/nrn3817.

Dilsora SHODMONOVA,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARIDA SOG'LOM TURMUSH TARZI KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida sog'lom turmush tarzi kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik mohiyati yoritilib, salomatlikni shaxsiy va kasbiy qadriyat sifatida anglash hamda sog'lom avlodni tarbiyalashga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish masalalari tahlil etilgan.
Kalit so'zlar: sog'lom turmush tarzi, inson salomatligi, ratsional ovqatlanish, sog'lom avlod, kompetensiya.
Annotation. This article highlights the pedagogical essence of developing healthy lifestyle competencies in future preschool educators, analyzes the issues of understanding health as a personal and professional value, and forming a responsible attitude towards raising a healthy generation.
Keywords: healthy lifestyle, human health, rational nutrition, healthy generation, competence.
Аннотация. В данной статье освещается педагогическая сущность развития компетенций в области здорового образа жизни у будущих воспитателей дошкольных учреждений, анализируются вопросы понимания здоровья как личной и профессиональной ценности и формирования ответственного отношения к воспитанию здорового поколения.
Ключевые слова: здоровый образ жизни, здоровье человека, рациональное питание, здоровое поколение, компетенция.

So'nggi yillarda yoshlar, xususan, oliy ta'lim muassasalari bo'lajak tarbiyachilari orasida jismoniy faollikning pasayishi, noto'g'ri ovqatlanish, stress va psixoemotsional zo'riqish holatlarining ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bu holat pedagogik ta'lim tizimi oldiga bo'lajak pedagoglarni sog'lom turmush tarziga oid barqaror bilim, ko'nikma va kompetensiyalar bilan qurollantirish vazifasini qo'ymoqda.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy faoliyati o'ziga xos ijtimoiy ahamiyatga ega. Ular kelajakda maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan pedagogik faoliyat bilan shug'ullanadilar. Ilmiy tadqiqotlarda pedagog shaxsining hayot tarzi, salomatlikka bo'lgan munosabati va kundalik xulq-atvori bolalar uchun muhim namuna vazifasini bajarishi isbotlangan [1]. Shu sababli bo'lajak tarbiyachilarda sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, shaxsiy gigiyena, emotsional barqarorlik va salomatlik madaniyatiga oid kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirish maktabgacha ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Salomatlik shaxsning biologik, psixologik va ijtimoiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu tushunchaga turlicha yondashuvlar mavjud. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib aytish mumkinki, bo'lajak tarbiyachilarda sog'lom turmush tarzi kompetensiyalarini tarkib toptirishda milliy va umuminsoniy pedagogik meroslar muhim nazariy-metodologik manba bo'lib xizmat qiladi. Xususan, "Avesto"dagi "ezgu fikr – ezgu so'z – ezgu amal" tamoyili, shuningdek, ko'plab allomalarning komil inson haqidagi qarashlari sog'lom turmush tarzi kompetensiyalarini shakllantirishning muhim manbalari hisoblanadi.

Milliy pedagogik meros va zamonaviy ta'lim yondashuvlarining uyg'unlashuvi natijasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda mustaqil fikrlash, sog'lom hayot tarziga ongli munosabat, ijtimoiy mas'uliyat va kasbiy faollik kabi sifatlar shakllanadi. Bu esa maktabgacha ta'lim tizimi uchun sog'lom, ma'naviy yetuk va kasbiy kompetent pedagoglarni tayyorlashga xizmat qiladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab ijod qilgan ma'rifatparvarlar asarlarida ham yosh avlod salomatligi masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, Abdulla Avloniy: "Badanning salomat va baquvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq, o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir" [2], deb ta'kidlaydi. Mazkur fikr bugungi kunda ham bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning sog'lom turmush tarzi kompetensiyasini rivojlantirishda shakllantirishda o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Hadisi Sharifda ham inson salomatligi, poklik, tozalik, me'yoriy hayot tarzi, o'z salomatligi uchun mas'uliyat hissi kabi fazilatlar yuksak qadrlanadi [3]. Bu g'oyalar sog'lom turmush tarzi kompetensiyalarining ma'naviy-axloqiy asoslarini tashkil etib, bo'lajak tarbiyachilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutafakkirlari orasida Abu Ali ibn Sino sog'lom turmush tarzining ilmiy asoslarini yaratgan buyuk allomalardan biri hisoblanadi. Olim inson kamolotida aqliy, axloqiy va jismoniy tarbiyaning o'zaro uyg'unligini alohida ta'kidlaydi. Ibn Sinoning fikricha, ta'lim jarayonida o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, salomatlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi metod va vositalardan foydalanish zarur degan g'oyani ilgari suradi. [4].

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari ham komil inson tarbiyasi masalalariga bag'ishlangan muhim didaktik manbalardan biridir. Asarda bilim, axloq, salomatlik, mehnatsevarlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlar inson baxt-saodatining asosiy omillari sifatida e'tirof etiladi [5]. Mutafakkirning qarashlari bugungi kunda ham bo'lajak pedagoglarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Olimlar globallashuv sharoitida ta'lim tizimining rivojlanishi zamonaviy bilim va texnologiyalarni o'zlashtirish bilan bir qatorda, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash vazifasi bilan ham chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydilar. Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta'lim tizimida bolalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish hamda pedagoglarning salomatlik madaniyatini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa sifatida qaraladi.

Fikrimizcha bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining sog'lom turmush tarzi kompetensiyalarini takomillashtirish masalasi nafaqat ularning shaxsiy salomatligi, balki kelajakda tarbiyalanuvchilarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri bilan ham ahamiyatlidir. Bo'lajak tarbiyachilarda sog'lom turmush tarzi, sog'lom xulq-atvor va salomatlik madaniyati, ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni

shakllantirish muhimligi ifodalaydi. Shu bois maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagoglarning sog'lom turmush tarzi kompetensiyalariga ega bo'lishi zarur pedagogik shartlardan biri hisoblanadi.

Ko'rinadiki, bo'lajak tarbiyachi – pedagoglarni tayyorlash jarayonida sog'lom turmush tarzi kompetensiyasini rivojlantirish, sog'lom turmush tarziga oid bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish hamda ularni kasbiy faoliyat bilan integratsiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda sog'lom turmush tarzi kompetensiyalarining mazmuni, tarkibiy komponentlari va ularni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizningcha, bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida salomatlikni shaxsiy va kasbiy qadriyat sifatida qabul qilish, sog'lom turmush tarzini pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi sifatida anglash hamda sog'lom avlodni tarbiyalashga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish zarur. Chunki kelajakda aynan ular bolalarda sog'lom hayot tarziga oid dastlabki tasavvurlar, odatlar va qadriyatlarni shakllantiruvchi asosiy pedagogik subyektlar sifatida faoliyat olib boradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Sharq, 1994.
2. Yo'ldoshev A., Karimov T. Sog'lom turmush – baxt garovi. – Toshkent: Ibn Sino, 2002.
3. Jamoldinova O.R. Yoshlar sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish: ped. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2015.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida (2020-yil 30-oktabr, PF-6099-son) // Xalq so'zi, 2020.

Nargiza MUSULMANOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI ASOSIDA TALABALAR NUTQIY SAVODXONLIGINI O'QUV JARAYONIGA INTEGRATSIYA QILISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektron ta'lim resurslari va til korpuslari asosida filologiya yo'nalishi talabalarining nutqiy savodxonligini rivojlantirish hamda uni o'quv jarayoniga integratsiya qilishning metodik asoslari yoritiladi. Talabalarning fonetik, grafik, orfoepik va orfografik bilimlarini aniqlash, tahlil qilish va baholashda raqamli platformalarning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning bosqichma-bosqich "yo'l xaritasi" ishlab chiqilib, diagnostika, tahlil, statistik ishlov, metodik loyiha, sinov va yakunlash bosqichlari tavsiflanadi. Shuningdek, elektron platformalar va o'zbek tili korpuslari asosida "Lingvistik kvest", "To'rt o'lchamli matritsa", "Qarorlar daraxti" kabi interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Mazkur yondashuv talabalarning nazariy bilimlarini amaliy nutqiy faoliyat bilan bog'lash, tipik xatolarni aniqlash, ularni statistik va lingvistik jihatdan tahlil qilish hamda individual ta'lim ehtiyojlariga mos metodik mashqlarni ishlab chiqishga xizmat qilishi asoslanadi.

Kalit so'zlar: nutqiy kompetensiya, nutqiy savodxonlik, elektron ta'lim resurslari, til korpusi, elektron platforma, fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, interfaol metod, algoritm.

Annotation. This article examines the methodological foundations of developing students' speech literacy through electronic educational resources and language corpora and integrating them into the educational process. It analyzes the didactic potential of digital platforms for identifying, analyzing, and assessing students' phonetic, graphic, orthoepic, and orthographic knowledge. The study proposes a step-by-step methodological roadmap for developing speech competence, comprising the stages of diagnosis, analysis, statistical processing, methodological design, testing, and final evaluation. It also demonstrates the potential of interactive methods such as the "Linguistic Quest," "Four-Dimensional Matrix," and "Decision Tree" based on electronic platforms and Uzbek language corpora. The study substantiates that this approach helps connect students' theoretical knowledge with practical speech activities, identify typical errors, analyze them statistically and linguistically, and develop methodological exercises tailored to students' individual learning needs.

Keywords: speech competence, speech literacy, electronic educational resources, language corpus, electronic platform, phonetics, graphics, orthoepy, orthography, interactive method, algorithm.

Аннотация. В статье рассматриваются методические основы развития речевой грамотности студентов филологических направлений на основе электронных образовательных ресурсов и языковых корпусов, а также вопросы их интеграции в образовательный процесс. Анализируются дидактические возможности цифровых платформ для выявления, анализа и оценки фонетических, графических, орфоэпических и орфографических знаний студентов. В исследовании разработана поэтапная методическая «дорожная карта» развития речевой компетенции, включающая этапы диагностики, анализа, статистической обработки, методического проектирования, апробации и итоговой оценки. Кроме того, раскрываются возможности применения интерактивных методов «Лингвистический квест», «Четырёхмерная матрица» и «Дерево решений» на основе электронных платформ и корпусов узбекского языка. Обосновывается, что данный подход способствует установлению связи между теоретическими знаниями студентов и их практической речевой деятельностью, выявлению типичных ошибок, их статистическому и лингвистическому анализу, а также разработке методических упражнений с учётом индивидуальных образовательных потребностей студентов.

Ключевые слова: речевая компетенция, речевая грамотность, электронные образовательные ресурсы, языковой корпус, электронная платформа, фонетика, графика, орфоэпия, орфография, интерактивный метод, алгоритм.

Bugungi zamonaviy texnologiya va sun'iy intellekt asrida ta'lim jarayonida talabalarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish, fonetika, grafika, orfoepiya va orfografiyaga oid bilimlarni qabul qilish samaradorligini oshirish maqsadida turli elektron ta'minotlarni yaratish yoki mavjud platformalardan foydalanish bu jarayonda muhim o'rin tutadi. O'zbek tili korpuslari, turkiy tillar bilan integratsiyalashgan elektron tizimlar talabalarning bu boradagi bilimlari, nutqiy ko'nikmalarini obyektiv tekshirish va baholash, ta'limda texnologiyalar muhitini shakllantirish, xalqaro ta'lim standartlariga javob berish hamda vaqt tejamkorligi kabi qulayliklarni yaratadi. Hozirda kompyuter lingvistikasi, tilshunoslik va pedagogika sohalarining mushtarak amaliy tadqiqot ishlari va loyihalarida *uzlang.navoi-uni.uz* va *uzcorpora.uz* kabi platformalarning ta'limga joriy etilishi ayni jarayonlarni osonlashtiradi, tayyor matnlar, lingvistik va pedagogik maqsadga xizmat qiluvchi topshiriqlarni bajarishda ahamiyatlidir. Ushbu mavjud platformalarni pedagogik tahlil qilgan holda talabalarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda fonetika, grafika, orfoepiya va orfografiyaga oid bilimlarni mustahkamlash uchun interfaol usullar hamda zamonaviy metodlarni joriy etish o'qituvchining bu boradagi ijodkorligini, salohiyatini oshiradi, talabalarning qabul qilish, bajarish va o'z-o'zini baholash jihatlarini shakllantiradi.

Filologiya yo'nalishi talabalarning nutqiy savodxonligini mavjud elektron ta'minotlar yordamida tahlil qilish uchun tizimlashtirilgan va bosqichma-bosqich amal qiluvchi yo'l xaritasini tuzib olish maqsadga muvofiq. Bu boradagi mavjud platforma va ma'lumotlar bazasini aniqlash, ikkinchidan, tadqiqot obyekti sifatida ma'lum bir kurs talabalarini tanlab olish va nutqiy savodxonlikni baholash uchun xato turlari klassifikatsiyasini yaratish (fonetik, grafik, orfoepik, orfografik) birlamchi vazifalardir. Tartibli amaliyot tizimida platforma natijalarini yig'ish va o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash, keyingi bosqichda xatolar tipologiyasi ya'ni platformadagi noto'g'ri javoblarni guruhlash, qaysi qoida yoki grammatik qism talabalar tomonidan eng ko'p buzilayotganligini ko'rib chiqish muhim. Talabalarning nazariy bilim darajasi va ularning amaliy nutqi o'rtasidagi bog'liqlikni tekshirish orqali keyingi bosqichda korrelyatsion tahlil amalga oshiriladi. Nega aynan shu xatolar ko'p sodir bo'layotganligini lingvistik va metodik nuqtayi nazardan tushunish va tahlil qilish bu boradagi amaliy xulosalarni yakunlaydi [3: 23].

Zamonaviy o'zbek tilshunosligi va lingvodidaktikasida kompetensiyalarni (lingvistik, nutqiy, kommunikativ, sotsiomadaniy) ilmiy jihatdan tahlil qilib, ona tili ta'limining tub konsepsiyasini o'zgartirishga katta hissa qo'shgan olim sifatida B.Mengliyev [4: 4–12] va uning ilmiy maktabi a'zolarini aytish maqsadga muvofiq. Uning rahbarligi va g'oyalari asosida ona tili o'qitish metodikasida "tilni o'rganish" emas, "tildan muloqotda foydalanish" – nutqiy kompetensiya ustuvor vazifa qilib belgilandi.

Oliy ta'limda o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun nutqiy kompetensiyani rivojlantirishni quyidagi tartibda tuzib chiqish maqsadga muvofiq. Bunda o'qituvchi tilning fonetik, grafik va orfoepik-orfografik qoidalarini akademik va kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishga yo'naltiradi. Bu yo'nalishdagi metodik tizim esa 4 bosqichni o'z ichiga oladi:

– birinchi bosqichda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning bosh maqsadi va yondashuvlarini belgilash zarur. Bunda bosh sifatida talabalarda sotsiolingvistik, diskursiv va pragmatik nutq ko'nikmalarini shakllantirish, ularni o'zbek adabiy tili me'yorlarida (orfografik, orfoepik, grammatik va uslubiy) erkin va ta'sirchan muloqot qilishga tayyorlash turadi. Dars jarayonida esa kompetensiyaviy – amaliy ko'nikma, kommunikativ – muloqot muhiti, pragmatik – vaziyatga mos nutq va matn ustida ishlashga oid yondashuvlar ustuvorlik qiladi;

– ikkinchi bosqichda mavjud modullar kesimida nutq faoliyati turlari – tinglash, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini akademik ma'ruzalar, rasmiy nutqlar, ilmiy va publitsistik matnlar hamohangligida o'quv materiallarini elektron platformalar, til korpuslari orqali tanlash zamonaviy va samarador yo'lni belgilaydi;

– uchinchi bosqichda esa ona tili muhitida nutqiy kompetensiyani oshirishda passiv metodlardan (ma'ruza, diktant, bayon) voz kechilib, interaktiv va muammoli metodlarga tayanish maqsadga muvofiq. Bunda mashhur notiqlar nutqini tahlil qilish, leksik boyligi, pauzalar, intonatsiya, ritorik savollardan foydalanish va ushbu nutq modelini o'z mavzusiga moslab qayta qurish; talabalarni dolzarb ijtimoiy-madaniy mavzular bo'yicha tezkor argumentlar tayyorlashga, nutqiy raddiyalar berishga o'rgatish; muayyan ijtimoiy muammoga bag'ishlangan jamoaviy loyiha yaratish va uni auditoriya oldida himoya qilish hamda bu jarayonlarni kasbiy faoliyatiga yo'naltirish muhim natijalarni yuzaga keltiradi;

– to'rtinchi yakuniy bosqichda nazorat va baholashning lisoniy, mazmuniy va pragmatik mezonlarini ishlab chiqish asosida talabaning nutqiy kompetensiyasi faqat test yoki yozma imtihon bilan emas, balki nutqiy mahsulot asosida baholash zarur.

Bosqich	Muddat (Taxminiy)	Faoliyat mazmuni	Kutilayotgan natija
Diagnostika	1-hafta	Tanlangan platformadan 1-kurs talabalarining natijalarini eksport qilish	Ma'lumotlar bazasi (Excel)
Tahlil	2–3-hafta	Xatoliklarni fonetika, grafika, orfoepiya va orfografiya bo'yicha tasniflash	Xatolar klassifikatsiyasi
Statistik ishlov	4-hafta	Chastotali, eng ko'p uchraydigan "og'riqli nuqtalar"ni aniqlash	Statistik diagrammalar
Metodik loyiha	5–6-hafta	Aniqlangan xatolar asosida "Nutqiy savodxonlikni oshirish" interaktiv mashqlar to'plamini tuzish	Metodik qo'llanma/ model
Sinov	7-hafta	Tanlangan guruh bilan yangi metodikani (mashqlarni) sinab ko'rish	Metodik samaradorlik
Yakunlash	8-hafta	Tadqiqot natijalarini umumlashtirish va xulosalar shakllantirish	Yakuniy xulosa

Tahlil yo'nalishlari va mezonlari platformadagi test savollarini fonetika, orfografiya va orfoepiya bo'limlari talablari asosida shakllantirish hamda shu ketma-ketlikni saqlab qolish bu bo'yicha qilinayotgan amaliy ish algoritmini belgilaydi. Ushbu bosqichdan so'ng platformadan olingan test natijalari asosida "Tipik xatolar registrini yaratish", talabalar fonetik qoidalarni bilmasligi orfografik xatoga qanchalik ta'sir qilayotganligini aniqlash va natijalarning statistikasini ishlab chiqish bu jarayondagi mukammal metodikani shakllantiradi. Natijada zamonaviy raqamli platforma testlari asosida o'zbek tili fonetik grafik tizimidagi kognitiv xatolarni modellashtirish, talabalar uchun interaktiv orfoepik-orfografik lug'at yoki xatolarni avtomatik aniqlovchi algoritmik sxemani shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Testlar orqali aniqlangan xatolar talabaning yetarli darajada nazariy bilimga egaligi, yuqoridagi ko'nikmalarning amaliyotda shakllanganligini so'nggi natijalarini solishtirma tahlil qilib xulosa berish mumkin bo'ladi [2: 85]. Quyida ushbu loyiha ishining amaliy "yo'l xaritasi" berilgan.

1-jadval. Platforma resurslari asosida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini tashkil etish jarayoni


Aynan shu "yo'l xaritasi" bilan harakat qilinganda, 1-bosqich – diagnostika amaliyoti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishidagi 1-kurs talabalari uchun 80 daqiqalik dars mobaynida turli interfaol metodlar asosida quyidagicha tartibda amalga oshadi:

2 -jadval. Bir juftik dars jarayonining metodik ishlanmasi

Bosqich	Vaqt	Faoliyat yo'nalishi	Qo'llaniladigan interfaol metodlar
I. Muammoli vaziyat (Diagnostika)	10 daqiqa	Yozuv va talaffuz o'rtasidagi farqni aniqlash	"Kognitiv ziddiyat" metodi

II. Korpus tahlili	30 daqiqa	Korpus bazasidan qidiruv va statistik ma'lumotlarni yig'ish	"Lingvistik kvest" va chastota tahlili
III. Amaliy sintez	25 daqiqa	Topilgan me'yorlarni 4 sath bo'yicha vizualizatsiya qilish	"To'rt o'lchamli matritsa" sxemasi
IV. Yakunlash va baholash	15 daqiqa	Qoidalarni algoritmga aylantirish va xulosa	"Qarorlar daraxti"

Ayni mavzudagi dars o'tish bosqichma-bosqichligi quyidagi algoritm asosida shakllanadi:



Kognitiv ziddiyat va muammoni belgilash jarayonidagi harakat o'qituvchi smart-doskada atayin transkripsiyada (talaffuz bo'yicha) yozilgan gaplarni namoyish etishdan boshlanadi. Matn beriladi va uning real holatini talabalar gapdagi grafik, orfografik va fonetik xatolarni visual qayd etish orqali baholaydi:

Matn yoki gap: *Bultur qishloqqa kelgan mehmonlar, bugun shaharni aylanib ketti.*

Vazifa: Auditoriya 4 ta kichik guruhga (har birida 4-5 kishi) bo'linadi. Ularga adabiy normadan chekingan 4 xil murakkab lingvistik vaziyat – keys tarqatiladi:


1. Unlilar tushishi/ortishi: o'g'il+i (o'g'li), shahar+i (shahri).

2. Undoshlar assimilyatsiyasi: tuzsiz [tussis], yozsa [yossa].

3. Grafik muammolar: tutuq belgisining noto'g'ri o'rni (san'at, sur'at, she'r).

4. Morfologik orfografiya: fe'l shaxs-son affikslari (borayabdi/boryapti).

Darsning asosiy 30 daqiqalik qismida ***"Lingvistik kvest" metodi*** orqali *uzcorpora.uz* platformasida ishlash jarayoni boshlanadi. Bunda har bir guruh uzcorpora.uz tizimiga kiradi va o'z keysidagi so'zlarning xato hamda to'g'ri (norma) variantlarini izlaydi. Bu bosqichdagi topshiriqlar esa quyidagi tartibda amalga oshadi:



Konkordans vazifasi talabaga so'zning adabiy (orfografik) variantini qidirish va u ishtirok etgan 3 ta badiiy hamda 3 ta rasmiy/ilmiy matn qatorini ko'chirib olishni yuklaydi. Chastota tahlili orqali so'zning korpusdagi uchrash miqdori aniqlanadi. Keyingi bosqichdagi fonetik-orfoepik tahlilda chastotasi aniqlangan so'zlarning ayni tahlilga asoslangan bilimi tekshiriladi. Ushbu topshiriqlar asosida kutilayotgan mantiqiy xulosa talabalar jonli matnlarda xato so'zlarning (masalan, *shahari* deb yozish) statistik jihatdan deyarli uchramasligini vizual guvohi bo'lishi bilan belgilanadi [1: 56].


Keyingi bosqichda 25 daqiqaga mo'ljallangan ***"To'rt o'lchamli matritsa"*** amaliyoti boshlanadi. Bunda asosiy harakat guruhlar korpusdan olingan ma'lumotlarni plakatga (yoki onlayn doskaga) yagona matritsa ko'rinishida joylashtirishga qaratiladi. Matritsa namunasi 3-jadvalda berildi.

3-jadval. "To'rt o'lchamli matritsa" amaliyoti

Lingvistik hodisa obyekti	Orfoepik me'yor (Qanday aytiladi?)	Fonetik asos (Sabab)	Orfografik me'yor (Qanday yoziladi?)	uzcorpora.uz chastotasi
Ketdi	[ketti]	Progressiv assimilyatsiya	Ketdi	9904 marta
Qishloqqa	[qishloqqa]	[q] tovushi ta'siri (qorishiq)	Qishloqqa	685 marta
Sur'at	[surat] (to'xtam)	Bo'g'in ajratish pauzasi	Sur'at	140 marta

Guruh a'zolari o'z matritsasini himoya qiladi. O'qituvchi faqat yo'naltiruvchi savollar orqali jarayonni boshqaradi: *"Nima uchun talaffuzdagi o'zgarish yozuvda aks etmaydi?", "Morfologik tamoyil fonetik tamoyildan qachon ustun keladi?"*.

Darsning so'nggi 15 daqiqasi ***"Qarorlar daraxti" metodini*** qo'llash va talabalarni baholashga sarflanadi. Bunda talabalar dars davomida o'rganilgan ziddiyatli holatlarni yozish va talaffuz qilishda chalkashmaslik uchun qoida – algoritm yaratadi.



Dars maqsadiga va baholash mezonlariga ko'ra talabalar baholanadi hamda uyga vazifa sifatida o'zbek tilining ta'limiy korpusida 5 ta yangi so'zni (masalan, *taassurot, mutolaa, xususiyat*) mustaqil tahlil qilish va ularning orfoepik-orfografik tahlili qiziqarli interfaol usullarda tushuntirilishi beriladi.

Demak, *uzcorpora.uz* multikorpusi asosida fonetik, grafik, orfoepik va orfografik bilimlar asosida talabalarning nutqiy kompetensiyasini aniqlash va baholash uchun bir juftlik dars amaliyoti zamonaviy interfaol metodlar asosida ayni namunaga asoslanishi talabaning bu bo'yicha bilimlarini oshiradi, tahlil qiladi va baholaydi.

Jahon miqyosida XXI asrda yaratilgan ingliz tilidagi nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beruvchi WeTalk onlayn maktabi mintaqada lingvistik didaktika sohasida texnologiya va pedagogikani birlashtirgan birinchi platformadir. 2022-yilda tashkil etilgan WeTalk maktabi ingliz tilini o'qitishni doimiy ravishda takomillashtirishga, raqamli texnologiyalarning kuchidan foydalanib, butun dunyo bo'ylab o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratadi. WeTalk nafaqat til ta'limiga kirishni demokratlashtiradi, balki o'quvchilar o'zaro muloqot qilishlari va o'qituvchilardan fikr-mulohaza olishlari mumkin bo'lgan qo'llab-quvvatlovchi hamjamiyatni yaratadi.

Faoliyat tahlili shuni ko'rsatadiki, WeTalkning muvaffaqiyati til o'qitishga yaxlit yondashuvda yotadi, bunda raqamli texnologiyalar pedagogikaga qo'shimcha emas, balki vosita bo'lib xizmat qiladi. WeTalkning o'quv metodologiyasining markazida inson tajribasi va texnologik innovatsiyalarning simbiotik kombinatsiyasi yotadi, bunda o'qituvchilar raqamli vositalardan foydalanib, turli xil o'rganishga xizmat qiladigan immersiv o'quv tajribalarini yaratadilar [2: 23].

Ta'limning dinamik muhitida professor-o'qituvchilar orasida lingvistik kompetensiyani rivojlantirish tilga ixtisoslashgan sohalarda samarali muloqot, o'qitish va professional o'sish uchun juda muhimdir. Shu nuqtayi nazardan, raqamli o'quv resurslari tomonidan taqdim etiladigan didaktik imkoniyatlar o'qituvchilarning til bilimlarini, pedagogik ko'nikmalarini va umumiy ta'lim samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi, turli xil interaktiv til o'rganish platformalarini taqdim etadi. Ushbu platformalar texnik kontekstlarda so'z boyligini saqlash, grammatika aniqligi va muloqot ko'nikmalarini yaxshilash uchun mo'ljallangan qiziqarli mashg'ulotlar, interaktiv mashqlar va multimedia kontentini taklif etadi. O'qituvchilar ushbu resurslardan o'zlarining lingvistik kompetentsiyalarini o'z-o'zini o'qitish modullari, real vaqt rejimida fikr-mulohaza mexanizmlari va o'zlarining mahorat darajalariga moslashtirilgan shaxsiylashtirilgan o'quv rejalari, aniq aks ettiruvchi kontent va haqiqiy materiallarning mavjudligi orqali yaxshilash uchun foydalanishlari mumkin.

O'qituvchilar texnik yozish, taqdimot qilish ko'nikmalari va akademik nutq kabi sohalarda til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun sanoatga xos matnlar, texnik hujjatlar va akademik resurslardan foydalanishlari mumkin. Haqiqiy materiallar bilan ishlash orqali ular o'z sohalarining til talablarini tushunishadi va murakkab muhandislik tushunchalarini talabalarga samarali yetkazish uchun zarur bo'lgan lingvistik va til ko'nikmalarini oshirishga intilayotgan professor-o'qituvchilar uchun virtual hamkorlik va professional rivojlanish imkoniyatlarini osonlashtiradi. Onlayn forumlar, vebinarlar va virtual seminarlar o'qituvchilarga tengdoshlari bilan muloqot qilish, eng yaxshi tajribalar bilan o'rtoqlashish va muhandislik kontekstiga tegishli tilga yo'naltirilgan munozaralarda ishtirok etish imkonini beradi. Hamkorlikdagi o'rganish tajribalari orqali o'qituvchilar til bilimlarini kengaytirishlari, innovatsion o'qitish strategiyalarini o'rganishlari va til ta'limi va muhandislik pedagogikasidagi yangi tendentsiyalardan xabardor bo'lishlari mumkin. Raqamli o'quv resurslariga o'rnatilgan moslashuvchan o'rganish o'qituvchilarning individual ehtiyojlari va o'rganish uslublariga moslashtirilgan shaxsiylashtirilgan o'rganish tajribasi. Ushbu texnologiyalar o'qituvchilarning til bilish darajasini baholash, takomillashtirish sohalarini aniqlash va tilni o'qitishni maqsad qilish uchun ma'lumotlarga asoslangan tushunchalardan foydalanadi [6: 32].

Og'zaki nutqning ichki, tashqi, monologik va dialogik turlarga ajralishiga qarab, o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'la boshlaydi. Bundan tashqari, yozma nutqni

shakllantirmasdan og'zaki nutqning sifatli bo'lishiga erishilmaydi. Shuning uchun yozma nutqni rivojlantirishda tilning fonetik, grafik va orfografik qonuniyatlarni ko'nikma sifatida shaklantirish, xotirada va amaliyotda mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Nazariy til bilimlarini talabalarga taqdim etishni fonetikadan boshlash, bunda tovush, og'zaki va yozma tovush o'zgarishlarini tushunish, o'zaro farqlashni o'rgatish, keyingi bosqichda orfografik bilimlarini mustahkamlash va orfoepik qonuniyatlarni nutqda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadga muvofiq. Aslida, tovush, imlo va talaffuz bilan bog'liq hodisalar o'zaro mushtarak, jipslashgan yagona ildizga ega tushunchalar, ularni qabul qilishni, avvalo, tanitish, yodlatish, yozish va nutqqa joriy etish bilan samaraga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abjalova M. Korpus lingvistikasi: uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Nodirabegim, 2022.
2. Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari: monografiya. – Toshkent: Nodirabegim, 2020.
3. Asilova G., Achik F. Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asoslari. – Toshkent: Publishing High Future, 2024.
4. Mengliyev B. Zamonaviy lingvistik oqimlar va til ta'limi muammolari // Tilshunoslik va lingvodidaktika masalalari. – Toshkent, 2018, №2. – B. 4–12.
5. Mengliyev B., Azimboyeva Z. va boshq. Ona tili. Qomus (Maktab o'quvchilari uchun). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
6. Ishmuhammedov R., Mirsoliyeva M. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.

Dilobar QAYUMOVA,
Teacher in the Department of Foreign Languages, Turon University, Karshi, Uzbekistan

THE ROLE OF AUDIO DICTIONARIES IN DEVELOPING PRONUNCIATION COMPETENCE

Annotation. This study examines the role of audio dictionaries in developing pronunciation competence among foreign language learners. Pronunciation is a fundamental component of communicative competence, yet it remains one of the most challenging aspects of language acquisition due to differences in phonological systems and limited exposure to authentic speech. The purpose of this research is to investigate how audio dictionaries contribute to improving learners' pronunciation accuracy, phonetic awareness, stress patterns, intonation, and overall speaking proficiency. The study employs a descriptive and comparative research approach based on the analysis of contemporary digital audio dictionaries and pronunciation platforms, including Cambridge Dictionary, Forvo, and Speechling. It also reviews relevant literature on pronunciation teaching, phonetics, and computer-assisted language learning to evaluate the pedagogical value of these digital resources.

Keywords: audio dictionaries, pronunciation competence, phonetics, digital lexicography, language learning, pronunciation training, phonetic transcription, oral communication, computer-assisted language learning, speech perception.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot chet tilini o'rganuvchilarda talaffuz kompetensiyasini rivojlantirishda audio lug'atlarning o'rnini o'rganishga bag'ishlangan. Talaffuz kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lishiga qaramay, fonologik tizimlardagi farqlar hamda autentik nutq bilan cheklangan darajada tanishish sababli tilni o'zlashtirishning eng murakkab jihatlaridan biri bo'lib qolmoqda. Tadqiqotning maqsadi audio lug'atlarning o'rganuvchilarning talaffuz aniqligi, fonetik sezgirligi, urg'u xususiyatlari, intonatsiyasi va umumiy og'zaki nutq malakasini takomillashtirishga qanday hissa qo'shishini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda Cambridge Dictionary, Forvo va Speechling kabi zamonaviy raqamli audio lug'atlar hamda talaffuz platformalarining tahliliga asoslangan tavsifiy va qiyosiy yondashuvdan foydalanilgan. Shuningdek, ushbu raqamli resurslarning pedagogik ahamiyatini baholash maqsadida talaffuzni o'qitish, fonetika va kompyuter yordamida til o'qitish bo'yicha tegishli ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: audio lug'atlar, talaffuz kompetensiyasi, fonetika, raqamli leksikografiya, til o'rganish, talaffuzni mashq qilish, fonetik transkripsiya, og'zaki muloqot, kompyuter yordamida til o'qitish, nutqni idrok etish.

Аннотация. В статье рассматривается роль аудиословарей в развитии произносительной компетенции у изучающих иностранные языки. Произношение является важнейшим компонентом коммуникативной компетенции, однако оно остаётся одним из наиболее сложных аспектов овладения языком вследствие различий между фонологическими системами и ограниченного контакта обучающихся с аутентичной устной речью. Цель исследования заключается в изучении того, каким образом аудиословари способствуют повышению точности произношения, развитию фонетической осведомлённости, правильной постановке словесного ударения и интонации, а также совершенствованию общего уровня устной речи обучающихся. В исследовании применяется описательный и сравнительный подход, основанный на анализе современных цифровых аудиословарей и платформ для обучения произношению, включая Cambridge Dictionary, Forvo и Speechling. Кроме того, рассматривается научная литература по методике обучения произношению, фонетике и компьютерно-опосредованному обучению языкам с целью определения педагогической ценности данных цифровых ресурсов.

Ключевые слова: аудиословари, произносительная компетенция, фонетика, цифровая лексикография, изучение языка, обучение произношению, фонетическая транскрипция, устная коммуникация, компьютерно-опосредованное обучение языку, восприятие речи.

The journey of language acquisition is multifaceted, with pronunciation competence standing as a cornerstone for effective and confident communication. While written vocabulary and grammar are often prioritized, accurate oral production is what truly allows learners to engage meaningfully in conversations. Audio dictionaries have emerged as indispensable tools in this endeavor, providing immediate and authentic spoken models of words and phrases. They serve to bridge the often-significant gap between understanding a word in its written form and articulating it correctly, integrating crucial elements like intonation, stress, and individual sound articulation.

These dynamic resources offer more than just a sound clip; they are gateways to understanding the subtle nuances of spoken language that are challenging to convey through text alone. From distinguishing between various regional accents to grasping the rhythm and flow of natural speech, audio dictionaries equip learners with the auditory input necessary for developing near-native pronunciation skills. This article delves into the profound role of these digital tools in enhancing pronunciation competence, exploring their functionalities, benefits, and the underlying pedagogical principles that make them so effective.

Extensive research and anecdotal evidence consistently highlight the significant positive impact of exposure to native-speaker audio on language learners' ability to recognize and reproduce sounds accurately. Various studies have examined the effectiveness of platforms such as Cambridge Dictionary, Forvo, and Speechling, all of which offer robust pronunciation features. These tools often provide phonetic transcriptions alongside audio recordings, empowering users to not only hear the correct pronunciation but also to understand its underlying phonological structure. This dual approach of auditory and visual cues significantly aids in the internalization of correct speech patterns. The integration of audio dictionaries into language learning curricula extends beyond mere exposure. They facilitate an active learning process where learners can repeatedly listen, imitate, and self-correct. The availability of multiple accents (e.g., British, American, Australian English) allows learners to develop a comprehensive understanding of phonetic variations and to tailor their learning to specific linguistic goals.

Moreover, some advanced applications incorporate features like speech recognition and personalized feedback, creating an immersive and highly effective learning environment that was once only possible with a dedicated tutor. Furthermore, these digital resources play a crucial role in expanding educational materials for educators, providing authentic and diverse audio samples that enhance classroom instruction.

To comprehensively understand the role of audio dictionaries, a systematic review incorporating both experimental and observational studies, alongside user reports, is essential. This methodological approach allows for a holistic assessment of their efficacy in developing

pronunciation competence. Research designs typically involve pre-test and post-test evaluations of pronunciation skills among language learners, comparing performance before and after consistent engagement with audio dictionary tools. Participants in such studies usually comprise diverse groups of language learners across various proficiency levels, ensuring the generalizability of findings. The core instruments for data collection include standardized pronunciation rubrics, recordings of learners' speech for expert auditing, and in some cases, acoustic measurements to analyze sound quality and phonetic accuracy.

The choice of audio dictionaries (e.g., Cambridge, Forvo, Speechling) as learning aids is crucial, with a focus on their features such as native speaker recordings, phonetic transcriptions, and interactive feedback mechanisms. Data analysis involves comparing pre and post-test results, identifying patterns in phonetic error reduction, and evaluating improvements in intonation and accent recognition. Personal factors like age, prior linguistic knowledge, and learning styles are also considered to understand their influence on learning outcomes. Ethical considerations, particularly regarding the privacy and consent of participants when collecting speech data, are always paramount in research design.

The consistent use of audio dictionaries demonstrably supports pronunciation development by providing immediate and repetitive listening and practice opportunities. Tools like Cambridge Dictionary and Forvo are particularly lauded for their extensive vocabulary coverage and the authenticity of their native-speaker recordings, making them invaluable for learners seeking to refine their accent and intonation. Speechling further enhances this process by offering personalized feedback on user recordings, enabling targeted improvements and a deeper understanding of specific phonetic challenges.

The availability of mobile applications also facilitates offline practice, making learning more flexible and accessible. Learners who regularly engage with these resources report significant improvements in sound recognition, phonetic accuracy, and the ability to self-correct their pronunciation. The synergistic combination of listening to authentic audio, analyzing phonetic transcriptions, and engaging in repeated practice leads to a measurable enhancement of overall oral proficiency. The impact is observed across various aspects of pronunciation, including segmentals (individual sounds), suprasegmentals (stress, rhythm, intonation), and the natural flow of connected speech. By actively engaging with audio models, learners develop a more acute auditory perception, which in turn informs their articulatory movements, leading to clearer and more natural-sounding speech.

In summation, audio dictionaries stand as a crucial and increasingly sophisticated resource for individuals striving to achieve pronunciation competence in a new language. They provide learners with authentic linguistic models, diverse accent exposure, and often, interactive tools that foster active listening and self-correction. By bridging the gap between theoretical knowledge and practical application, these digital aids empower learners to independently refine their phonetic skills, leading to clearer, more confident, and ultimately, more effective communication.

The continuous innovation in these tools, incorporating advanced features like speech recognition and personalized feedback, ensures their enduring relevance and growing impact on language education worldwide. Integrating high-quality audio resources into daily learning routines is not merely supplementary; it is foundational for mastering the spoken nuances of any language

References

1. Celce-Murcia M., Brinton D.M., Goodwin J.M., Griner B. Teaching pronunciation: A course book and reference guide. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
2. Roach P. English phonetics and phonology: A practical course. 4th ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
3. Crystal D. The Cambridge encyclopedia of language. 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
4. Nation I.S.P. Learning vocabulary in another language. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013.
5. Oxford Advanced Learner's Dictionary. 10th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2024.

Muazzam OTABAEVA,
Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KASBIY QIZIQISHLARNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY VA PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasbiy qiziqishlarni shakllantirishning ilmiy-nazariy va pedagogik asoslari tadqiq etilgan. "Kasbiy qiziqish", "kasbiy yo'naltirish", "kasbiy tasavvur" va "kasbiy o'zlikni anglash" tushunchalarining mazmuni pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Boshlang'ich ta'lim bosqichida kasbiy qiziqishlarni shakllantirishning mazmuniy, motivatsion, faoliyatli va refleksiv komponentlari asoslangan.
Kalit so'zlar: ta'lim, qiziqish, yo'naltirish, motivatsiya, qobiliyat, rivojlanish.
Annotation. This article examines the scientific-theoretical and pedagogical foundations of the formation of professional interests in primary school students. The study analyzes the content of the concepts of "professional interest", "professional orientation", "professional vision" and "professional self-awareness" from a pedagogical and psychological point of view. The substantive, motivational, active and reflexive components of the formation of professional interests at the primary education stage are based on.
Keywords: education, interest, orientation, motivation, ability, development.
Аннотация. В данной статье рассматриваются научно-теоретические и педагогические основы формирования профессиональных интересов у учащихся начальной школы. В исследовании анализируется содержание понятий "профессиональный интерес", "профессиональная ориентация", "профессиональное видение" и "профессиональное самосознание" с педагогико-психологической точки зрения. На основе анализа рассматриваются содержательные, мотивационные, активные и рефлексивные компоненты формирования профессиональных интересов на этапе начального образования.
Ключевые слова: образование, интерес, ориентация, мотивация, способность, развитие.

Bugungi kunda ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarni nafaqat bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, balki ularni kelajakdagi mustaqil hayotga, mehnat faoliyatiga va ongli kasb tanlashga tayyorlashdan iborat. Insonning kelajakdagi kasbiy faoliyati ko'p jihatdan uning bolalik va maktab davrida shakllangan qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari hamda mehnatga munosabatiga bog'liq. Shu sababli kasbga yo'naltirish jarayonini faqat yuqori sinflar bilan cheklab qo'ymasdan, uning dastlabki pedagogik asoslarini boshlang'ich ta'lim bosqichidanoq yaratish muhim ahamiyat kasb etadi [1: 4].

Boshlang'ich maktab davri bolaning dunyoqarashi, qiziqishlari, qobiliyatlari va ijtimoiy tasavvurlari faol shakllanadigan bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda o'quvchi atrofidagi insonlarning kasbiy faoliyatiga e'tibor bera boshlaydi, turli kasblar haqida dastlabki tasavvurlarni hosil qiladi va ayrim kasblarga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradi. Bunda o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan ta'limiy va tarbiyaviy faoliyat katta pedagogik imkoniyatga ega.

Asosiy qism. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasbiy qiziqishni shakllantirish deganda ularni ma'lum bir kasbni tanlashga majburlash emas, balki turli kasblar haqida dastlabki tushunchalar berish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini anglatish, o'quvchining qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash hamda rivojlantirish tushuniladi. Bu jarayon bolaning yosh xususiyatlariga mos, tabiiy, qiziqarli va amaliy faoliyatlar asosida tashkil etilishi lozim.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy mehnat bozori tez o'zgarib, yangi kasblar va faoliyat yo'nalishlari paydo bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, robototexnika, muhandislik, kreativ industriyalar, ekologiya, biotexnologiya kabi yo'nalishlarning rivojlanishi yosh avlodning kasbiy dunyoqarashini kengaytirishni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarga kasblarning xilma-xilligini ko'rsatish, ularning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va ijodiy salohiyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasbiy qiziqishlarni shakllantirishning ilmiy-nazariy va pedagogik asoslarini tadqiq etish jarayonida metodologik jihatdan shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, kompetensiyaviy, tizimli, aksiologik va integrativ yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuvlar boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchining kasbiy qiziqishini alohida hodisa sifatida emas, balki uning shaxsiy rivojlanishi, bilish faoliyati, ijtimoiy tajribasi, qobiliyati va kelajak haqidagi tasavvurlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan pedagogik jarayon sifatida o'rganish imkonini beradi.

Tadqiqotning metodologik asosini, avvalo, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tashkil etadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, har bir boshlang'ich sinf o'quvchisi o'ziga xos qiziqish, ehtiyoj, qobiliyat, temperament va individual rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lgan shaxs sifatida qaraladi. Shuning uchun kasbiy qiziqishlarni shakllantirish jarayonida barcha o'quvchilarga bir xil mazmun va topshiriqlarni taqdim etish bilan cheklanib qolmasdan, ularning individual imkoniyatlarini aniqlash va rivojlantirish muhimdir. Masalan, ayrim o'quvchilar texnikaga, konstruktorlikka va hisoblashga qiziqsa, boshqalari tabiat, san'at, adabiyot, muloqot yoki insonlarga yordam berish bilan bog'liq faoliyatlarga ko'proq moyillik bildirishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbiy qiziqishlari ko'pincha taqlid qilish, qiziqish, ijtimoiy muhit va shaxsiy tajriba ta'sirida shakllanadi. Masalan, shifokorlar oilasida voyaga yetayotgan bola tibbiyot kasbiga ko'proq qiziqishi, texnika va konstruktorlikka boy muhitda ulg'ayayotgan bola esa muhandislik yoki texnologiyaga qiziqish bildirishi mumkin. Biroq bu holat bolaning kelajakdagi kasbi aynan shu bo'lishini anglatmaydi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida asosiy vazifa bolaning tanlovini oldindan belgilash emas, balki turli faoliyatlarni sinab ko'rish orqali uning qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirishdir.

Fanlararo integratsiya asosida olib borilgan tahlillar ham boshlang'ich ta'limning kasbga yo'naltirish imkoniyatlari juda keng ekanligini ko'rsatadi. Masalan, matematika darslarida quruvchi, muhandis, iqtisodchi yoki dasturchi faoliyatiga oid masalalardan foydalanish mumkin. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida turli kasb egalari haqidagi matnlar asosida o'quvchilarning nutqiy va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Tabiiy fanlarda biolog, ekolog, shifokor, agronom va geolog kasblari bilan bog'liq mavzularni yoritish mumkin. Tasviriy san'atda rassom, dizayner, me'mor va animator kasblariga oid ijodiy topshiriqlarni tashkil etish mumkin.

Bunday faoliyatning yana bir muhim natijasi shundaki, o‘quvchi o‘zining qaysi faoliyat turiga moyilligini amaliy jarayonda namoyon qiladi. Masalan, rolli o‘yinda ayrim o‘quvchilar tashkilotchilik qobiliyatini, boshqalari muloqot qobiliyatini, yana boshqalari texnik yoki ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishi mumkin. O‘qituvchi esa ushbu jarayonni kuzatish orqali o‘quvchilarning individual xususiyatlari haqida qo‘shimcha pedagogik ma’lumotga ega bo‘ladi.

Tadqiqot tahlillari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlik ham alohida ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandlariga o‘z kasbi haqida hikoya qilib berishi, ish jarayonidan misollar keltirishi yoki kasbining jamiyat uchun ahamiyatini tushuntirishi mumkin. Biroq ota-onaning o‘z xohishini bolaga majburan singdirishi bolaning mustaqil qiziqishini susaytirishi mumkin. Shu bois ota-onalar bilan ishlashda “bolaning kasbiy tanlovini belgilash” emas, balki “bolaning qiziqishini qo‘llab-quvvatlash” tamoyili asosiy mezon bo‘lishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kasbiy qiziqishlarni shakllantirish uzluksiz ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy maqsadi bolani erta yoshdan ma’lum bir kasbga majburan yo‘naltirish emas, balki uning kasblar olami haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, mehnatga ijobiy munosabatini shakllantirish, qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash hamda rivojlantirishdan iborat.

Umuman olganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kasbiy qiziqishlarni shakllantirish ta’limning hayotiyligi va amaliy yo‘nalishini kuchaytiradi, o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini anglashiga yordam beradi hamda kelajakdagi ongli kasbiy tanlov uchun zarur pedagogik zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R., To‘rayeva O., Holiqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
2. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.

Ulug'bek YUNUSOV,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

O'SMIRLARDA QADRIYATLAR SHAKLLANISHINING PSIXO-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. O'zbek jamiyatida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar sharoitida o'smirlarda oilaviy qadriyatlarni shakllantirish hamda oilaga nisbatan qadriyatli munosabatni rivojlantirish muhim psixologik-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada "qadriyat" va "qadriyatli munosabat" tushunchalarining mazmuni nazariy jihatdan tahlil qilinib, o'smirlarning oilaviy qadriyatlarni idrok etishida namoyon bo'ladigan gender tafovutlar, xususan, qiz va o'g'il bolalar uchun ustuvor bo'lgan oilaviy qadriyatlar hamda ularning oilaviy rollar haqidagi tasavvurlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari, shaxsiy identifikatsiya inqirozi, ijtimoiy stress, avtodestruktiv va addiktiv xulq-atvorning yuzaga kelish omillari oilaviy-qadriyatli munosabatning shakllanishi bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Tadqiqotda oilaviy-qadriyatli munosabatning shakllanishiga ta'sir etuvchi shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy, pedagogik va madaniy-etnik omillar tizimlashtirildi. Shuningdek, o'smirlarda oilaviy qadriyatlarni shakllantirishda gender yondashuvining ahamiyati asoslanib, darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatda qo'llash mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar qadriyat, oilaviy qadriyatlar, o'smirlik davri, qadriyatli munosabat, gender tafovutlar, oilaviy rollar, identifikatsiya inqirozi, avtodestruktiv xulq-atvor, addiktiv xulq-atvor, psixologik-pedagogik omillar.

Annotation. In the context of socio-economic and cultural changes taking place in Uzbek society, the formation of family values among adolescents and the development of a value-based attitude toward the family constitute important psychological and pedagogical tasks. This article theoretically analyzes the content of the concepts of "value" and "value-based attitude" and examines gender differences in adolescents' perception of family values, particularly the family values prioritized by girls and boys and their perceptions of family roles. The psychological characteristics of adolescence, the identity crisis, social stress, and the factors underlying autodestructive and addictive behavior are also analyzed in relation to the formation of a value-based attitude toward the family. The study systematizes the personal, family, social, pedagogical, and cultural-ethnic factors influencing the formation of a value-based attitude toward the family. Furthermore, the significance of a gender-sensitive approach to the formation of family values among adolescents is substantiated, and practical recommendations for use in extracurricular educational activities are developed.

Keywords: value, family values, adolescence, value-based attitude, gender differences, family roles, identity crisis, autodestructive behavior, addictive behavior, psychological and pedagogical factors.

Аннотация. В условиях социально-экономических и культурных изменений, происходящих в узбекском обществе, формирование семейных ценностей у подростков и развитие ценностного отношения к семье являются важными психолого-педагогическими задачами. В статье теоретически анализируется содержание понятий «ценность» и «ценностное отношение», а также рассматриваются гендерные различия в восприятии подростками семейных ценностей, в частности приоритетные семейные ценности девочек и мальчиков и их представления о семейных ролях. Кроме того, анализируются психологические особенности подросткового возраста, кризис идентичности, социальный стресс, а также факторы возникновения аутодеструктивного и аддиктивного поведения во взаимосвязи с формированием ценностного отношения к семье. В исследовании систематизированы личностные, семейные, социальные, педагогические и культурно-этнические факторы, влияющие на формирование ценностного отношения к семье. Обоснована значимость гендерно-чувствительного подхода к формированию семейных ценностей у подростков и разработаны практические рекомендации для использования во внеучебной воспитательной деятельности.

Ключевые слова: ценность, семейные ценности, подростковый возраст, ценностное отношение, гендерные различия, семейные роли, кризис идентичности, аутодеструктивное поведение, аддиктивное поведение, психолого-педагогические факторы.

Dunyo, xususan, o'zbek jamiyatini qamrab olgan global o'zgarishlar davrida o'sib kelayotgan avlodda oilaning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirish masalasi o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Bu qadriyatlar shaxsning nikoh va oila madaniyatiga bo'lgan qarashlarini belgilaydigan oliy ma'nolarni o'zida mujassam etadi.

Katta innovatsion o'zgarishlar markaziga aylanayotgan, dunyo hamjamiyatida rivojlangan mamlakatlar bilan bo'ylashib, o'z o'rni va mavqeyini mustahkamlayotgan mamlakatimizning yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda oilaviy-qadriyatli munosabatlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar fonida oilaviy-qadriyatli munosabati tarbiyasi hamda o'sib kelayotgan shaxsni ongli ota-onalikka, o'z oilasini shakllantirishga tayyorlash masalasi yechimi quyidagi vazifalarni qo'ymoqda:

– o'sib kelayotgan yangi avlod ongida nikoh va oila haqidagi axloqiy tasavvurlar zaiflashishining oldini olish;

– yoshlarda ota-onalik va bolalikning an'anaviy tarzda idrok etilishining sezilarli darajada yo'qolishidan asrash;

– zamonaviy oila uchun moddiy qadriyatlarning ma'naviy qadriyatlardan batamom ustunlik kasb etishining oldini olish.

Shu bilan birga, hozirgi vaziyat jamiyatning har bir a'zosidan o'z taqdiri, u yoki bu qadriyatlar tizimi va qadriyat yo'nalishlarini tanlash uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni talab qilmoqda.

Ta'limni qadriyatlar asosida rivojlantirish hamda voqelikning eng muhim jabhalarida qadriyatli munosabatni shakllantirish doirasida o'smirlarning oilaviy an'analarga nisbatan qadriyatli munosabatlarini shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Qadriyatlar tizimida o'sib kelayotgan avlodni oilaga hurmat va mas'uliyatli munosabatda bo'lishga o'rgatish lozim. Zero, insonning o'zini anglashi uchun oilaning qadr-qimmati har qanday jamiyat va davlatning poydevori ekanini tushuntirish eng katta maqsad. Oilaning ijtimoiy instituti sifatidagi funksiyasiga xalq tarixida madaniy vorislikni, an'analarni saqlab qolish va qo'llab-quvvatlashning asosiy sharti sifatida e'tibor qaratish lozim. Bularning barchasiga jamiyat poydevorining farovonligi va ma'naviy-ma'rifiy salomatligi, jamiyat barqarorligining zaruriy sharti sifatida ham qaraladi.

"O'smirlarda qadriyatlar majmuasini shakllantirishida, eng avvalo, qaysi jihatlarga e'tibor qaratishimiz lozim?" degan savolni o'rtaga tashlagan holda, quyida keltirilgan izlanish orqali javob topishga urinib ko'ramiz:

"**Qadriyatlar** – jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi". "Qadriyat inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha".

"**Qadriyat** – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini

ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha". **Shaxsiy qadriyat** – hayot, qadr-qimmat, adolat, erkinlik, insonparvarlik kabi universal tamoyillar va tushunchalar. **Umuminsoniy qadriyatlar** – insonning madaniyati, dini, irqi va millatidan qat'iy nazar, barcha uchun bir xil ahamiyatga ega bo'lgan hayot, qadr-qimmat, adolat, erkinlik, insonparvarlik kabi universal tamoyillar va tushunchalar.

Qadriyatli munosabat, p.f.d., professor **Vitaliy Aleksandrovich Slastyonin**ning fikriga ko'ra, bu shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarga bo'lgan munosabatni o'zida aks ettiruvchi shaxsning ichki pozitsiyasidir. U shaxsning muhim xususiyati bo'lib, uning dunyo bilan o'zaro munosabatini belgilaydi va xulq-atvorini tartibga soladi. Olim ta'kidlashicha, **oilaviy qadriyatlar –** xalq, jamiyat va umuman davlatning madaniy va demografik reproduksiyasini ta'minlaydigan oila institutini, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni, shaxsning mas'uliyatli nikoh va oilaviy xulq-atvorini an'anaviy tushunishga asoslangan axloqiy dunyoqarashlar.

P.f.n. Chigrina Anna Aleksandrovna fikricha, oilaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda hayotiy o'z yo'lini belgilash arafasida turgan yuqori sinf o'quvchisining yoshi juda sezgir hisoblanadi. Chunki bu yoshning eng qimmatli ijtimoiy-psixologik yutug'i – o'z ichki dunyosini kashf etish, hayotiy muhim qadriyatlarni o'zlashtirish, atrofdagilari va yaqinlari bilan mustahkam munosabatlar o'rnatish, o'ziga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish ostonasida turgani. Chunki bu yoshda u har qanday noto'g'ri fikr yoki tarafkashlik ta'siriga to'liq tushmagan bo'ladi. Shu sababli yuqori sinf o'quvchilari o'zlarini kelajakda mas'uliyatli oila a'zosi sifatida ko'rishlari uchun ushbu jarayonlarni an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlashi va innovatsion jamiyat sharoitida ularning yangi tizimini shakllantirishga yo'naltirishi zarur bo'ladi.

O'smirlarda oilaviy an'analarga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish borasida ijtimoiy-madaniy faoliyat katta imkoniyatlarga ega. Bu faoliyat avlodlar aloqasini tiklash, tarbiyani insonparvarlashtirish, yuqori sinf o'quvchilarini oilaviy an'anaviy madaniyat bilan tanishtirish imkonini beradi.


O'smirlarning oilaga qadriyatli munosabatini ko'rib chiqqan psixologiya fanlari nomzodi, dotsent **Bijiyev Asxat Soltan-Muratovichga ko'ra,** oila shunday ijtimoiy institutki, unda bola dastlabki ijtimoiy tajriba va xulq-atvorning ilk ko'nikmalarini o'zlashtiradi. Oila xulq-atvor tuzilishini shakllantiradi va belgilaydi, o'z shaxsiga nisbatan emotsional-kognitiv munosabatni shakllantiradi. Bu munosabat hayot davomida sezilarli darajada saqlanib qoladi hamda o'sib kelayotgan shaxsning ijtimoiy pozitsiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

Oila millat psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini alohida shaxslar ongi va ma'naviy dunyosiga singdirishning eng samarali mexanizmlaridan biridir (N.G.Ayvarova). Uning ta'siri u yashayotgan milliy-etnik makonning o'ziga xosligi bilan belgilanadi.

Har bir jamiyat va etnik madaniyatda oilaviy tarbiyaning muayyan qoliplari, katta va yosh avlodlar o'rtasidagi munosabatlarning me'yorlari va an'analari mavjud. Ota-onalarning oilaviy tarbiya uslubini tanlashiga ularning o'zlari tarbiyalangan an'analar, urf-odatlar, madaniyat hamda oilaning ijtimoiy-psixologik muhiti ta'sir ko'rsatadi. Bunda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishini hisobga olmaslikning iloji yo'q, chunki bu munosabatlar oilaviy tarbiyaning samarali va samarasiz uslublarini shakllantirish uchun zamin yaratadi (R.S.Hammatova).

Yana bir pedagogika fanlari nomzodi bo'lmish **Urbanovich Lyubov Nikolaevna** yuqori sinf o'quvchilarida darsdan tashqari faoliyatda oilaga qadriyatli munosabatni tarbiyalash borasida shunday degan: "...yuqori sinf yoshi oilaga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish uchun sezgir davr hisoblanadi. Bu munosabat oila qadriyatlari haqidagi muayyan bilimlarni, oilaviy munosabatlarni yaratishga, shaxsiy qiziqish va bu qadriyatli munosabatni namoyon etuvchi xulq-atvor idealiga intilishni o'z ichiga oladi. Bu yoshda o'quvchilarda "kattalik" hissi paydo bo'ladi, o'zlikni anglashda sifat o'zgarishlari yuz beradi, kelajakka intilish kuzatiladi. Avval o'zlashtirilgan odatlar, qarashlar, atrofdagi hodisa va odamlarga munosabat asta-sekin xulq-atvor tamoyillari va me'yorlariga aylanadi, dunyoqarashi shakllanadi. Hissiy ta'sirchanlik yaqqol namoyon bo'ladi. O'smirlarning oilaviy-qadriyatli munosabatini shakllantirish – bularning barchasi oilaga nisbatan yuqori darajadagi qadriyatli munosabatni rivojlantirish uchun qulay zamin yaratadi.

Pedagogika fani va amaliyotida bo'lajak oila a'zosining axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, oilaga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lishga har doim ham tarbiyaviy ishlarning asosiy yo'nalishi sifatida qarab kelingan. Biroq bu masala bugungi kungacha to'liq hal etilmagan, bu esa obyektiv qiyinchiliklar bilan bog'liq.



O'SMIRLARDA OILAVIY QADRIYATLARNI IDROK ETISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Oilaviy qadriyatlarni idrok etishning o'ziga xos gender xususiyatlari. Oilaviy qadriyatlarni shakllantirish va ularga bo'lgan qadriyatli munosabat nafaqat umumiy yosh xususiyatlari, balki o'smirning jinsiga qarab ham farqlanishi tadqiqotlarda tasdiqlangan. Ushbu farqlarning kelib chiqishida bir tomondan ijtimoiy-madaniy omillar (an'anaviy gender stereotiplari), ikkinchi tomondan esa zamonaviy jamiyatdagi o'zgarishlar ta'sir ko'rsatadi.

Tarixan shakllangan gender stereotiplari oiladagi rollarni qat'iy belgilab qo'ygan: erkak – asosiy boquvchi va oila boshlig'i, ayol esa uy bekasi va farzand tarbiyachisi. Uzbek milliy oilasida ham ana shunday patriarxal qarashlar uzoq vaqt davomida ustunlik qilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek oilalarida o'g'il bolalarning tug'ilishi ko'proq quvonch bilan kutib olinadi, ular ko'proq orzu qilingan farzandlar sifatida e'tirof etiladi. Otalar oilada o'g'il va qiz farzandlariga nisbatan farqli munosabatda bo'lib, o'g'illari bilan muloqotga ko'proq vaqt ajratadilar. Bu kabi an'anaviy stereotiplar farzand ongida erkakning "boquvchi, kuchli, mas'uliyatli", ayolning esa "mehribon, itoatkor, oilaviy hayotga bag'ishlangan" sifatida shakllanishiga olib keladi. Ta'lim va tarbiya jarayonida ushbu stereotiplarning mustahkamlanishi o'smirlarning kelajakdagi oilaviy qadriyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda jadal olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, axborot texnologiyalarining keng tarqalishi va globallashuv jarayonlari o'smirlarning dunyoqarashiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. "Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, globallashuv, axborot oqimlari va turli turmush qarashlar ta'sirida yoshlarning oila va oilaviy qadriyatlarga bo'lgan munosabati sezilarli darajada o'zgarmoqda. Jumladan, so'nggi yillarda nikohga kirish yoshi o'rtacha oshib bormoqda, oila qurishda iqtisodiy omillar ustuvorlik kasb etmoqda, "avval kasb – keyin oila" degan tendensiya kuchayib, yakka hayot tarziga intilish o'smoqda. Bu o'zgarishlar gender stereotiplarining mazmuni va shakliga ham ta'sir ko'rsatib, an'anaviy qat'iy chegaralar asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, o'zgara boshlamoqda.

Bu, o'z navbatida, o'smirlarda oilaga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirishda gender stereotiplarining ijobiy yoki salbiy tomonlarini hisobga olish zaruratini keltirib chiqaradi. Zero, gender stereotiplarining salbiy ta'siri oilada o'zining qattiq ijtimoiy talablari bilan namoyon bo'lib, ayollarga faqat oila, farzand tarbiyasi va ro'zgor vazifalarini yuklaydi va ularning kasbiy salohiyatini namoyon etishiga to'sqinlik qiladi.

Qiz va o'g'il bolalarda oilaviy qadriyatlarni idrok etishdagi farqlar. Psixologik tadqiqotlar o'smir yoshidagi qizlar ko'proq hissiy yaqinlik, g'amxo'rlik, muhabbat, o'zaro tushunish va do'stlik kabi qadriyatlarni oilaviy hayotning markaziga qo'yishini ko'rsatadi. Ular uchun er-xotin o'rtasidagi hissiy aloqa, farzandlar bilan munosabatlarda mehr-muhabbat va yaqinlik muhim hisoblanadi. O'g'il bolalar uchun esa oilaviy qadriyatlarda ko'proq mas'uliyat, moddiy ta'minot, oila boshlig'i sifatidagi funksiyalar va ijtimoiy maqom alohida o'rin tutadi.

Rossiya Federal psixologik va fanlararo tadqiqotlar ilmiy markazi yetakchi ilmiy xodimi – psixologiya fanlari nomzodi Danilova Yelena Yevgenyevna tadqiqotida (N=387, 146 nafar yigit va 241 nafar qiz) gender xususiyatlarga ko'ra qadriyat yo'nalishlarida jiddiy farqlar kuzatilgan: yigitlar kollektiv ish va yaqin sotsium (oila, do'stlar) qadriyatlarini afzal ko'rishgan, qizlar esa individual qadriyatlar hamda tashqi muloqot va faoliyat doirasiga tegishli bo'lgan qadriyatlarga ko'proq qiziqish bildirgan.

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Nikolay Viktorovich Yeroshenkovning izlanishlari (N=473, 227 nafar yigit va 246 nafar qiz) ham o'smirlarning asosiy qadriyat yo'nalishlari ("baxtli oilaviy hayot", "do'stlik", "muhabbat", "poklik", "mas'uliyat", "muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat", "karyera o'sishi" va "yuqori ish haqi")da gender farqlar mavjudligini aniqlagan. Xususan, yoshlarning "bolalar tarbiyasi", "muhabbat", "jismoniy takomillashish", "o'ziga ishonch va ichki garmoniya" kabi qadriyatlarni baholashlarida ham gender jihatidan sezilarli farqlar kuzatilgan. Shu bilan birga, ikkala jins vakillarida ham "baxtli oilaviy hayot" eng ustuvor qadriyatlardan biri bo'lib qolmoqda, bu oila institutining o'smirlar uchun ahamiyatini ko'rsatadi.

Ammo "baxtli oilaviy hayot" nima ekanligini tushunish va unga erishish yo'llari to'g'risidagi tasavvurlar gender bo'yicha tafovutlanib, har bir jins o'zining ijtimoiy rolidan kelib chiqqan holda oilaviy qadriyatlarga birinchi darajalilik beradi. Masalan, Danilova va Matveyevaning tadqiqotida gender farqlarning nisbatan "liberal" yoki "an'anaviy" ko'rinishda namoyon bo'lishi ham aniqlangan. Bu holat zamonaviy jamiyatda oilaviy qadriyatlarni shakllantirishda universal yondashuvdan ko'ra genderga sezgir yondashuvni qo'llash zaruratini yanada ta'kidlaydi.

O'smirlarda oilaga nisbatan qadriyatli munosabatni tarbiyalashning dolzarbligi nafaqat tarbiya amaliyotiga innovatsion yondashuvlarni joriy etishga, balki, eng avvalo, milliy pedagogik merosni chuqur anglash va mavjud tarbiyaviy-pedagogik g'oyalarni tahlil qilishga undaydi.

Oilaviy-qadriyatli munosabatni shakllantirishda o'smirlar xulq-atvorining psixo-pedagogik omillari. Yuqorida keltirilgan nazariy qarashlar va olimlarning xulosalari shuni ko'rsatadiki, o'smirlik davri faqatgina oilaviy qadriyatlarni shakllantirish haqida ma'lumot berish jarayoni bilan cheklanib qolmay, murakkab psixologik va pedagogik transformatsiyalar majmuyini ham o'z ichiga oladi. O'smir shaxsida oilaga nisbatan qadriyatli munosabatning qaror topishi uning kundalik hayotdagi xulq-atvori, hissiy barqarorligi va ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasida bevosita namoyon bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, o'smirning ichki dunyosidagi o'zgarishlar va uning tashqi muhitga bo'lgan reaksiyalarini tushunish uchun oilaviy-qadriyatli munosabatni shakllantirish o'smirlar xulq-atvorining psixo-pedagogik omillarini chuqur va atroflicha tahlil qilishni taqozo etadi.

Binobarin, qadriyatlar tizimi o'smirning ichki dunyosini tartibga soluvchi ma'naviy filtr vazifasini o'taydi. Agar bu filtr to'g'ri shakllanmasa, o'smir tashqi muhitdagi salbiy ta'sirlar va ijtimoiy stresslarga qarshi tura olmaydi, bu esa uning xulq-atvorida og'ishishlar (deviatsiya) paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, o'smirning ichki dunyosidagi o'zgarishlar, uning shaxsiy "men"ini anglash jarayoni va tashqi muhitga bo'lgan reaksiyalarini tushunish uchun oilaviy-qadriyatli munosabatni shakllantirishda o'smirlar xulq-atvorining psixo-pedagogik omillarini chuqur va atroflicha tahlil qilish lozim bo'ladi (2-sxema).



2-sxema. O'smirlarda oilaviy-qadriyatli munosabatni shakllantirish sxemasi

Keling, mazkur omillarni tadqiq etib, o'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlari va ushbu yoshda shaxsiyatning shakllanish mexanizmlarini ko'rib chiqaylik.

O'smirlik yoshi – shaxsning 11 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan rivojlanish davri bo'lib, u bola va uning ota-onasi hayotidagi eng murakkab va mas'uliyatli davrlardan biri. Bu davr inqirozlidir, chunki aynan shu paytda bolada rivojlanish va hayotning barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatuvchi keskin sifat o'zgarishlari ro'y beradi.

Ushbu yoshda o'smirlar rivojlanishining ijtimoiy vaziyatida "kattalar dunyosi"ga tezroq kirishga intilish, xatti-harakatlarni ushbu dunyoning qadriyatlari va me'yorlariga yo'naltirish kabi o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu jarayonda o'smirlarda hissiy beqarorlik va o'zlikni anglashda qiyinchiliklar yuzaga keladi, bu esa g'ayrioddiy xulq-atvor va moslashish muammolariga olib kelishi mumkin.

Nemis-amerikalik psixolog va psixoanalitik, psixosotsial rivojlanish nazariyasining asoschisi, "ego-identiklik" va "identifikatsiya inqirozi" konsepsiyasining muallifi hamda "ego-psixologiya" namoyondasi sifatida tanilgan Erik Xomburger Erikson (1902–1994) ning fikriga ko'ra, o'smirning asosiy vazifasi shaxsiy o'zlikni shakllantirish iborat. Biroq bu jarayon ba'zan ijtimoiy moslashuvning buzilishi va avtodestruktiv tendensiyalarini keltirib chiqaradi, bu esa o'zlikni anglashning ruhiy salomatlik bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Erik Erikson tomonidan tavsiflangan shaxsning psixosotsial rivojlanishi nafaqat jinsiy rivojlanish, balki uning qonunga itoatkor xulq-atvorining shakllanishi bilan ham bog'liq. Bu xulq-atvor bola tarbiyasi, oilaviy va ijtimoiy tushunchalari aynan shu yoshda shakllana boshlab, psixosotsial inqirozlar ta'siriga duch keladi. Ya'ni ijtimoiy aloqalar doirasining kengayishi va voyaga yetish jarayonida bola jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar (normalar)ga hurmat, qonunga itoatkor yoki qonunga xilof xulq-atvorni farqlash (anglash) qobiliyatiga ega bo'ladi. Jamiyatda inson xulq-atvorining tartibga soluvchisi sifatidagi qonunga itoatkorlikni anglash shaxsning shakllanish jarayoni bilan bir qatorda, butun hayot mobaynida davom etadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Eriksonning ilmiy izlanishlari Z.Freydning "Men" shakllanishining psixoijtimoiy jihatlari bilan aloqador.

Eriksonning ta'kidlashicha, shaxsning o'zi va o'z ijtimoiy muhitiga nisbatan psixologik mo'ljallari mavjud bo'ladi. Boshqa tomondan, u shaxsning shakllanishi faqat o'smirlik davrida tugab qolmasdan, balki hayotning boshidan to oxirigacha davom etadi, deb hisoblagan. Shuningdek, ta'rif berilgan rivojlanishning har bir bosqichida o'ziga xos ko'rsatkichlar mavjud bo'lib, ular shaxsning o'ziga nisbatan ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunday qilib, o'ziga xos rivojlanish bilan bog'liq nizolar, Erikson nazariyasiga ko'ra, hayot siklining ma'lum nuqtalaridagina kritik bo'ladi.

Identifikatsiya inqirozi. O'smirlik davri inson hayotidagi inqirozli bosqich sifatida belgilanishi bejiz emas. Zero, aynan shu paytda fiziologik, ruhiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishdagi nomutanosiblik kuzatiladi. Mazkur bosqichga xos bo'lgan asosiy xususiyatlardan biri – emotsional beqarorlik va fikrlashdagi qat'iylik, atrof-muhitning turli xil zararli omillari ta'siriga munosabat bildirish, shuningdek, jamiyat tomonidan ma'qullanadigan o'zini tuta bilish va qiyinchiliklarni yengish strategiyalarini tanlash qobiliyatining yo'qligi.

Shu bilan birga, voyaga yetayotgan shaxs uchun o'smirlik davri jinsiy yetilish uning muhim jarayoni bilan tavsiflanadi. Bu jarayon organizmning barcha funksional tizimlarining faol o'zgarishi va o'sishi bilan kechadi, asab tizimining kuchli qo'zg'aluvchanligi va nisbiy nomutanosibligida namoyon bo'ladi.

Bu davrda atrof-muhit bilan ijtimoiy munosabatlar o'smir faoliyatining ustuvor sohasiga aylanadi. Bu holat o'smirning ham tengdoshlari, ham katta avlod vakillari bilan munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Aynan shu bosqichda o'smirning "kattalik" hissi shakllanadi. L.S.Vigotskiy ta'kidlashicha, bu "o'zgarishlarning umumlashgan natijasi bo'lib, bolaning butun ruhiy rivojlanishini o'zida aks ettiradi. U keyingi yosh bosqichidagi bolaning ruhiy jarayonlari va shaxsiyati shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi".

O'smirlar rivojlanishining asosiy yo'nalishlari shaxsiy inqirozlarni boshdan kechirish, ya'ni shaxsiy identifikatsiya inqirozi bilan bog'liq bo'lsa, oiladan ajrab chiqish mustaqillikka erishish bilan bog'liq inqirozdir.

O'smir o'z shaxsiyatini anglash va qabul qilish zarurati oldida turadi. E.Eriksonning fikricha, "O'smirlik davrining asosiy psixologik vazifasi – shaxsiy o'ziga xoslikni faol shakllantirish,

o'ziga "men kimman?" degan savolni berib, unga qat'iy javob topish zaruratidir". Shu bilan birga, identifikatsiya inqirozi o'smirlarning moslashuvi, ijtimoiy munosabatlari, o'quv yutuqlari va kasbiy rejalarida jiddiy qiyinchiliklarga sabab bo'ladi.

Ba'zi olimlar shaxsiy o'zlikni izlashni inson rivojlanishi va farovonligi uchun salbiy ta'sir ko'rsatuvchi inqiroz, deb biladi. Ushbu nuqtayi nazarga ko'ra, o'zligini izlash jarayonidagi o'smir o'zi haqida aniq tasavvurga ham, kelajak uchun aniq maqsadlariga ham ega bo'lmaydi, bu esa uning shaxsiyati shakllanishida xavf tug'diradi. Biroq shaxsiyat rivojlanishi asta-sekin kechadigan jarayon ekanligi, uning holati vaqt o'tishi bilan o'zgarishi ham ta'kidlanadi. Bu esa o'zligini izlash bosqichidagi o'smirlar o'zlarini chuqurroq o'rganishlari va shaxsiyatni shakllantirish jarayonlarini yaxshiroq amalga oshirishlari mumkinligini anglatadi.

Autodestruktiv xulq-atvor sabablari. K.G.Semyonovaning fikricha, "har qanday dolzarb ijtimoiy ehtiyojning qondirilmasligi shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvining buzilishiga olib kelishiga, o'smirning u yoki bu norasmiy guruhga qo'shilishga undash uning deviant – o'z-o'zini vayron qiluvchi xulq-atvorga moyil bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. Bunday xulq-atvorning yengil shakllari psixologik faol moddalarni suiste'mol qilish va xavfli vaziyatlardan kuchli his-tuyg'ular izlash (gedonistik xavf)da, og'ir shakllari esa aniq o'z joniga qasd qilish urinishlarida namoyon bo'ladi".

L.X.Somervil ta'kidlaganidek, o'smirlik davri shaxslararo munosabatlarga ta'sirchanlik va stress kuchaygan davr hisoblanadi. O'smir ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liq ruhiy-ijtimoiy zo'riqishlarga duch kelganda, bir vaqtning o'zida stress darajasi va unga bo'lgan munosabatini kuchaytirishi mumkin bo'lgan biologik o'zgarishlarni ham boshdan kechiradi.

Pubertat o'zgarishlaridan tashqari, o'smirlarning stressga bo'lgan reaksiyalari erta va o'rta o'smirlik davrida tubdan o'zgaradi. Natijada stressga bardoshlilik qobiliyati vaqtincha susayishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, rivojlanishning boshqa bosqichlarida oson yengib o'tiladigan stress o'smirlik davrida yengib bo'lmas to'siq sifatida qabul qilinishi mumkin.

Ijtimoiy stress o'smirlik davrining barcha asosiy ijtimoiy muhitlarida, jumladan, maktab hayotida, tengdoshlar bilan munosabatlarda, yaqin aloqalar (masalan, eng yaqin do'stlar yoki sevgilisi bilan)da va oilaviy vaziyatlarda yuzaga kelishi mumkin. O'smirlar, shuningdek, ko'pincha stressli hayotiy hodisalarga duch kelishadi. Bunga sabab – ular tengdoshlar doirasidagi o'zgarish (tengdoshlar muhiti)larni boshdan kechiradilar, eng yaqin do'stlar va sevgilisi bilan mustahkam aloqalar o'rnatadilar hamda ota-onalar, aka-uka va opa-singillar bilan o'z munosabat (oilaviy muhit)larini qayta ko'rib chiqadilar.

O'ziga zarar yetkazish, ko'pincha, o'smirlik davridagi stressni yengillashtirish uchun qo'llaniladigan noto'g'ri kurashish usuli sifatida ham namoyon bo'ladi.

Avtodestruktiv xatti-harakatlar maktabdagi stressli vaziyatlar va tengdoshlar bilan munosabatlarning buzilishi oqibatida yuzaga keladi. Shu bilan birga, o'smir qizlar maktabda va shaxsiy munosabatlarda stressli hodisalarga duch kelganda, o'g'il bolalarga qaraganda ko'proq o'zlariga zarar yetkazganini tadqiqotlar ko'rsatgan.

O'smirlarning autodestruktiv xulq-atvori sabablari N.A.Matveyeva tomonidan atroflicha o'rganilgan. O'smirlarning autodestruktiv xulq-atvorining ijtimoiy omillariga quyidagilar kiradi: ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik munosabatlarning uzluksiz o'zgarishi, maktab va oilaviy tarbiyaning ayrim buzg'unchi jihatlarining salbiy ta'siri, ommaviy axborot vositalari va ommaviy ong stereotiplarining ta'siri.

A.B.Ipatovning ta'kidlashicha, "bu yoshdagi autodestruktiv xatti-harakatlarning sabablari quyidagilardir: ota-onalar bilan ruhiy travmali munosabatlar, ta'sirga bo'ysunuvchanlik ko'rinishidagi dezadaptatsiya, ijtimoiy yo'nalishni yo'qotish va yakkalanib qolish, atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlarning samarasiz, ijtimoiylikka zid uslublari".

Bundan tashqari, bir qator zamonaviy tadqiqotlarda o'smirlarning autodestruktiv xulq-atvorga moyilligi va shaxsiy xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan. N.V.Karpova va A.Yu.Barxatovaning fikriga ko'ra, "o'z joniga qasd qilish niyati yuqori bo'lgan o'smirlar o'zlarini past yoki haddan tashqari yuqori baholaydilar, o'zlariga nisbatan tanqidiy fikrlarni og'riqli qabul qiladilar, ortiqcha uyatchanlikdan qattiq aziyat chekadilar. Ular kuchli ruhiy zo'riqish, xavotir va tushkunlikka duchor bo'ladilar".

N.G.Tormosinaning ishida aniqlanishicha, "avtodestruktiv xulq-atvorning turli ko'rinish (o'z joniga qasd qilish, ichkilikka ruju qo'yish, giyohvandlik)lari xavfi o'smir shaxsiyatining bir qator xususiyatlari bilan bog'liq. Bu xususiyatlarga psixologik himoya tuzilmasiga jinsiy o'ziga xosliklar, shuningdek, shaxsning bilish, motivatsion, qadriyatli-mazmunli, hissiy sohalari va o'z-o'ziga munosabatining o'ziga xosligi, balog'atga yetish bosqichlari, xarakter aksentuatsiyasi turi kiradi".

O.M.Ovchinnikovning tadqiqotida addiktiv xulq-atvorga moyillik quyidagi shaxsiy xususiyatlar: o'z-o'zini nazorat qilishning sustligi, tanqidiy fikrlashning kamligi, o'z-o'zini faollashtirishning pastligi bilan bog'liqligini aniqlagan.

Faustova I.V. tadqiqotida o'smirlarning avtodestruktiv (o'z-o'zini vayron qiluvchi) xatti-harakatlarining sababi o'z-o'ziga nisbatan noto'g'ri munosabat, impulsivlik, jahldorlik, xafaqonlik, tashvishlanish va o'zini noto'g'ri baholash ekanligi aniqlangan.

I.V.Hamidovaning aniqlashicha, addiktiv xulq-atvorga moyillik:

a) muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining yo'qligi;
b) o'z-o'zini anglashning past darajada rivojlanganligi;
v) o'z-o'zini hurmat qilish darajasining pastligi;
g) o'z-o'zini baholash va intilish darajasining ziddiyatliligi;
d) stressli vaziyatlarda voqelikdan qochish tendensiyasi kabilarni o'z ichiga oladi.

N.V.Dmitriyeva o'smirlarning suitsidal xulq-atvori va shaxsiyati o'rtasidagi aloqani aniqladi. Uning xulosasiga ko'ra, suitsidal xulq-atvorga moyil o'smirlar quyidagi shaxsiy va xulqiy xususiyatlarga ega: o'zini ayblashga moyillik, xavotirlanish, bezovtalanish, fobiyalar, asabiylashish va qat'iyatsizlik. Bunday o'smirlar o'z hayotini past baholaydi va yuqori avtodestruktiv daraja ko'zga tashlanadi. Ularda o'zini boshqarish, moslashuvchanlik va mustaqillik rivojlanmagan bo'ladi.

N.I.Vasyagina ta'kidlashicha, autodestruktiv xulq-atvorga moyillik o'zi va hayotidan qoniqmaslik bilan bog'liq. O'smirlar o'ziga zarar yetkazish orqali noqulaylik, hayajonlanish va bezovtalik holatlarini bartaraf etishga urinadi. Ular bu usul bilan inqirozli vaziyatlardagi kuchli kechinmalarni yoki sababsiz paydo bo'ladigan umidsizlik, zerikish, bo'shliq va hayotning ma'nosizligi hissini yengishga harakat qiladi.

O'smirlarning addiktiv xulq-atvorining asosiy sabablari – hayotiy muammolarni hal qila olmaslik, destruktiv-psixologik himoya mexanizmlari, qat'iylik va lazzatlanishga intilish. O'smirning addiktiv xulq-atvori qiyin vaziyatdan qochish, salbiy kechinmalar va ruhiy holatlarni yengish, shuningdek, o'ziga bo'lgan salbiy munosabatni bartaraf

etish vositasi bo'lishi mumkin. O'smirlik davrida addiktiv xulq-atvor xavfini kamaytirishga yordam beradigan shaxsiy xususiyatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'z shaxsini qabul qilish, tengdoshlari bilan samarali munosabatlar o'rnatish qobiliyati, shakllangan qadriyatlar tizimi, "yetuk o'zi"ni boshqarish, moslashuvchanlik, stressga bardoshlilik, o'ziga ishonch va ichki nazorat.

Shunday qilib, o'smirlik davri inson hayotining eng ta'sirchan davrlaridan biri hisoblanadi, chunki u bolalikdan kattalik hayotiga o'tish bosqichidadir. Bu davrda shaxs ko'plab muammolar va shaxsiy inqirozga duch keladi, yangi munosabatlar tizimi va "Men-konsepsiyasi"ni shakllantiradi.

Ushbu bosqichda autodestruktiv xulq-atvorning omillari quyidagilar bo'lishi mumkin:

Omillar guruhi	Asosiy tarkibiy jihatlar	O'smir shaxsiga ta'siri	Gender omil (farqli jihatlar)
Shaxsiy	O'zini anglash, identifikatsiya inqirozi, emotsional beqarorlik, stressga bardoshlilik	Qadriyatlarni qabul qiladi yoki inkor etadi, xulq-atvor yo'nalishini belgilaydi	Qizlarda emotsional beqarorlik ko'proq; o'g'il bolalarda impulsivlik
Oilaviy	Ota-onalar bilan munosabat, oilaviy an'analar, tarbiya uslubi, psixologik muhit	Mas'uliyatli nikoh va oila haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi	Ota-onaning o'g'il yoki qizga nisbatan tarbiya uslubidagi farqlar
Ijtimoiy	Maktab muhiti, tengdoshlar guruhi, internet, ijtimoiy stress	Qadriyatli yoki deviant xulq-atvor rivojiga ta'sir ko'rsatadi	Tengdoshlar guruhida gender stereotiplarning ta'siri
Pedagogik	Darsdan tashqari faoliyat, tarbiyaviy ishlar, pedagogik yondashuv	Oilaga ijobiy munosabatni ongli ravishda mustahkamlaydi	Maktabda o'g'il bolalarga nisbatan qo'yiladigan talablar ko'pincha qizlarnikidan farqli
Madaniy-etnik	Milliy urf-odatlar, an'analar, madaniy vorislik	Oilaning ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyatini chuqurlashtiradi	O'zbek milliy an'analarida erkak va ayol rollarining farqli qadriyatlari

1-jadval. O'smirlarda oilaviy qadriyatlar shakllanishiga ta'sir etuvchi psixo-pedagogik omillar

Shuning uchun ham o'smirlik davrida shaxsiy identifikatsiya inqirozi, ijtimoiy stress va oilaviy-pedagogik omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan avtodestruktiv va addiktiv xulq-atvor shakllarining oldini olishda oilaviy-qadriyatli munosabatlarini shakllantirish juda muhim hisoblanadi.

Tavsiyalar. O'smirlik davri oilaviy qadriyatlarni shakllantirish uchun sezgir bosqich bo'lib, bu davrda shaxsiy identifikatsiya inqirozi, ijtimoiy stress va oilaviy munosabatlarning ta'siri kuchaygan bo'ladi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, o'smirlarning oilaga qadriyatli munosabatini shakllantirishda gender omil, ya'ni o'g'il va qiz bolalarning neyropsixologik, emotsional va rolli kutilmalaridagi farqlarga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Mavjud tarbiyaviy ishlar ko'proq neytral yoki an'anaviy stereotipga asoslangan bo'lib, gender qulay muhit yaratish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu sababli darsdan tashqari faoliyatda o'smirlarning oilaviy-qadriyatli munosabatini shakllantirishning gender modellari va texnologiyalari ishlab chiqilishi lozim bo'lib, shu maqsadda gender yondashuv asosida tavsiyalar ishlab chiqildi, xususan:

№	Ishlab chiqilgan tavsiyalar	Izoh
1.	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda "oilaviy gender rollari" mavzusida debatlar, treninglar tashkil etish	O'g'il va qiz bolalarning turli nuqtayi nazarlarini to'qnashtirish
2.	Sinf soatlarida oilaviy qadriyatlarning gender stereotiplardan xoli talqini (misol: "Mehr ko'rsatish faqat qizlarga xos emas", "Mas'uliyat faqat o'g'il bolalarning burchi emas")	Stereotiplarni bartaraf etish
3.	O'smir qizlar uchun "Sog'lom oila psixologiyasi" klubi, o'smir o'g'illar uchun esa "Oila boquvchisi – mas'uliyat maktabi" loyihalari	Alohida gender guruhlarda ishlash imkoni
4.	Ota-onalar uchun gender kompetentlik bo'yicha seminarlar (farzandning jinsiga ko'ra tarbiya uslublarini farqlash zarurligi, bir jinsli guruhlarda tarbiyaviy ishlar samaradorligi)	Oila va maktab hamkorligi
5.	Maktab kutubxonasi va mediatekasida gender-sezgir oilaviy qadriyatlarga oid filmlar, kitoblar ro'yxatini ishlab chiqish hamda ularni darsdan tashqari tomosha va muhokamalar jarayonida foydalanish	Vizual va badiiy vositalar

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Биджиев А.С.-М. Ценностное отношение к семье старших школьников (на примере карачаевского этноса): автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Пятигорск, 2010. – 24 с. https://www.dissercat.com/content/tsennostnoe-otnoshenie-k-seme-starshikh-shkolnikov/read.
2. Выготский Л.С. Педагогическая психология / под ред. В.В. Давыдова. М.: Педагогика-Пресс, 1996.
3. Выготский Л.С. Педология подростка. Психологическое и социальное развитие ребёнка. – СПб.: Питер, 2021.
4. Данилова Е.А., Матвеева Н.В. Гендерные различия в системе ценностных ориентаций в подростковом возрасте (на примере сельской школы) // КиберЛенинка. https://cyberleninka.ru/article/n/gendernye-razlichiya-v-sisteme-tsennostnyh-orientatsiy-v-podrostkovom-vozraste-na-primere-selskoy-shkoly.
5. Данилова Е.Е. Изучение ценностных ориентаций учащихся юношеского возраста методом пословиц // Вестник Мининского университета. https://www.minin-vestnik.ru/jour/article/view/1606.
6. Дмитриева Н.В., Четвериков Д.В. Психология аддиктивного поведения. Новосибирск: Изд-во НГПУ, 2002.
7. Ерошенков Н.В. Изучение ценностных ориентаций и нравственных установок современной молодежи: гендерный аспект // КиберЛенинка. https://cyberleninka.ru/article/n/izuchenie-tsennostnyh-orientatsiy-i-nravstvennyh-ustanovok-sovremennoy-molodezhi-gendernyy-aspekt/viewer.
8. Ершова С.М. Теоретическое осмысление категорий «Ценность» и «Ценностные отношения» // КиберЛенинка. https://cyberleninka.ru/article/n/teoreticheskoe-osmyslenie-kategoriy-tsennost-i-tsennostnye-otnosheniya/viewer.
9. Ипатов А.В. Подросток: от саморазрушения к саморазвитию. Программа психологической помощи: монография. СПб.: Речь, 2011.
10. Карпова Н.В., Бархатова А.Ю. Коррекция суицидальных намерений у подростков // Современные исследования социальных проблем, 2014. №2. – С. 45–58.
11. Крейг Г. Психология развития. СПб.: Питер, 2000.
12. Матвеева Н.А. Влияние телевидения на формирование ценностных ориентаций подростков и пути преодоления его негативных последствий: автореф. дис. ... канд. психол. наук. – Курск, 2009.
13. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
14. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati / A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 1998.
15. Овчинников О.М. Психолого-педагогические условия профилактики аддиктивного поведения подростков: дис. ... канд. психол. наук: 19.00.07. М., 2005.
16. Васягина Н.И., Градинар Е.В. Психологические особенности восприятия детско-родительских отношений в семьях, воспитывающих младших подростков // Вестник Северо-Восточного федерального университета им. М.К.Аммосова. Серия «Педагогика. Психология. Философия»,2025, №3. – С. 80–89.
17. Семёнова К.Г. Социально-психологическая дезадаптация подростков: типология и взаимосвязь с системой ценностных ориентаций // Вестник практической психологии образования, 2024. – Т. 21, №1. – С. 111–124.
18. Tarbiya ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010.
19. Тормосина Н.Г. Психологическая профилактика аутодеструктивного поведения в подростковом возрасте: автореф. дис. ... канд. психол. наук: 19.00.07. – Пятигорск, 2013. – 22 с.
20. Урбанович Л.Н. Воспитание ценностного отношения к семье у старшеклассников во внеучебной деятельности: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Смоленск, 2008. https://www.dissercat.com/content/vospitanie-tsennostnogo-otnosheniya-k-seme-u-starsheklassnikov-vo-vneuchebnoi-deyatelnosti/read.
21. Фаустова И.В. Влияние нарушенных детско-родительских отношений на проявление эмоционального неблагополучия в дошкольном возрасте // Психологическая наука и образование, 2021, № 3. – С. 45–52.
22. Фрейд З. Введение в психоанализ: лекции. М.: Наука, 1989.
23. Хамидова И.В. Юридическая психология: учеб. пособие. М.: РИОР, ИНФРА-М, 2012.
24. Холл Г.С. Подростковый возраст: Его психология и связь с физиологией, антропологией, социологией, сексом, преступностью, религией и образованием: в 2 т. – New York: D. Appleton and Company, 1904.
25. Чигрина А.А. Социально-культурные условия формирования ценностного отношения старшеклассников к семейным традициям: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Тамбов, 2013. https://www.dissercat.com/content/sotsialno-kulturnye-usloviya-formirovaniya-tsennostnogo-otnosheniya-starsheklassnikov-k-seme/read.
26. Эриксон Э.Г. Детство и общество / пер. с англ. и науч. ред. А.А. Алексеева. СПб.: Летний сад; Балашиха: Фонд «Университетская книга», 1996.
27. Эриксон Э.Г. Детство и общество. СПб.: Ленато, АСТ, Фонд «Университетская книга», 1996.
28. Mirvaliyeva M.Y. Formation of Adolescent Gender Characteristics in The Family // Academic Journal of Science and Higher Research. https://inlibrary.uz/index.php/ajsshr/article/view/84533.
29. Somerville L.H. The teenage brain: sensitivity to social evaluation // Current Directions in Psychological Science, 2013. Vol. 22, № 2. – P. 121–127.
30. Ijtimoiy fikr https://ijtimoiyfikr.uz/en/press-sentr/news/254949109.htm.
31. Tadqiqot.uz https://tadqiqot.uz/index.php/history/article/download/2965/2826/6010#3#3.